

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY MEROSINING JAHON
ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI
(Samarqand, 15.05.2024-y.)**

Samarqand – 2024

“Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosining jahon adabiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarkand: SamDU nashriyoti, 2024-y. – 401 b.

Mazkur to‘plam 2024-yilning 15-may kuni o‘tkazilgan “Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosining jahon adabiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat bo‘lib, unda xorijiy va mamlakatimizning bir qancha taniqli olimlari, yosh tadqiqotchilar hamda soha mutaxassislarining maqolalari o‘rin olgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning aniqligi yuzasidan mualliflar mas’uldir.

TAHRIR HAY’ATI:

H.A.Xushvaqtov (tahrir hay’ati raisi), **M.Q.Muhiddin**ov (mas’ul muharrir),
J.D.Eltazarov, **I.I.Sulaymon**ov, **Sh.Hasan**ov, **J.Hamroy**ev.

Nashrga tayyorlovchilar:

S.Tohirov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
G.Xoliqulova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
N.Muhitdinova, filologiya fanlari doktori, professor

Musahhihlar:

D.Toshniyozova, PhD, o‘qituvchi
M.Hasanova, PhD, dotsent
D.Muminova, PhD, o‘qituvchi

SamDU Ilmiy-texnik kengashi majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan. (2024-yil 31-may, № 11-son bayonnoma)

ISBN 978-9910-9779-6-1

© *Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2024*

ZAHİRİDDİN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRI ADABIYOTI

Almaz Ülvi (Binnatova),
Filologiya elmləri doktoru, professor
Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası
Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
Azərbaycan- Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi
əlaqələri" şöbəsinin müdiri, Bakı

KLASSİK TÜRK ƏDƏBİYYATININ QIZIL SƏHİFƏSİ – ZƏHİRƏDDİN MƏHƏMMƏD BABUR

Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələr tarixi və inkişaf istiqamətləri Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında kifayət qədər tədqiq edilmiş və bu gün də edilməkdə davam edir. Belə bir elmi-nəzəri səhifədə Z.M.Baburun ədəbi şəxsiyyətinin və irsinin öyrənilməsi, araşdırılması və Azərbaycan dilinə uyğunlaşdırılaraq nəşr edilməsi xüsusi yer tutur. Doğrudur, sovetlər dövründə Nəvai irsi daha geniş öyrənilirdi. Z.M.Babur yaradıcılığına isə klassik özbək ədəbiyyatı kontekstində toxunularaq tədqiqatçıya onun zəngin irsi haqqında kifayət qədər bilgi verilmişdi. Yəni, istər tədqiqatçı, istərsə də kütləvi oxucu bilirdi ki, Z.M.Babur kimdir, onun hansı əsərləri var, klassik ədəbiyyat tarixində onun yeri haradadır.

“Baburnamə” danışiq dilinə yaxın dildə, çox yığcam və xüsusi hazırlığa malik olmayan oxucu üçün anlaşılıq formada yazılıb. Bu əsər o dövrün türk dillərinin öyrənilməsi üçün əvəzedilməz xəzinədir. Hələ Z.M.Baburun sağlığında bir sıra alimlərin böyük marağına səbəb olan “Baburnamə” XIX əsrdə bütün dünya şərqşünaslarının diqqəti cəlb edib. Kitab hələ XVI əsrdə iki dəfə fars dilinə, sonra isə ingilis, rus, fransız, alman, türk, ispan, yapon və başqa dillərə tərcümə olunub. “Baburnamə” Yaponiyada daha böyük marağa səbəb olub. Burada Eiji Mono adlı bir alim həmin əsərin türk dilində ikicildlik tənqidi mətnini hazırlayıb, sonra isə ömrünün otuz ilini həsr edərək bu əsəri yapon dilinə tərcümə edib.

Özbək xalqının da layiqli dostu olan akademik Həmid Araslı məlumdur ki, Nizami irsinin tədqiqatçısıdır. O, ədəbi təsir müstəvisində “Nizami və Babur” probleminə də toxunur: “... özbək ziyalıları içərisində Nəvaidən sonra görkəmli dövlət xadimi, alim, şair və tarixçi olan Zahirəddin Məhəmməd Babur haqqında danışmaq lazım gəlir. Z.M.Babur özünün məşhur “Baburnamə”sində atası Ömər Şeyx Mirzədən bəhs edərkən onun “Xəmsə” mütaliəsindən danışır ki, bu da Teymur şahzadələrinin Nizami irsinə dərin hörmət bəslədiklərini göstərir. Z.M.Babur özünün “Müxtəsər” adlı əruzdan bəhs edən əsərində Nizami və onun əsərlərinin adını dönə-dönə çəkir. O, əruzun bəhrlərindən danışarkən Nizami poemaları və “Xəmsə” mövzularda yazılan əsərlərdən nümunələr gətirir...”.

Azərbaycan klassik irs tədqiqatçılarının araşdırmalarında bu cür misallara tez-tez rast gəlmək olurdu. Yəni, konkret və ya dolaylı formada Z.M.Baburun Azərbaycan elmində öyrənilməsi məsələsi zərurət halı kəsb edirdi. Son 30 ilə yaxın elmi-ədəbi

mühitində Z.M.Babur daha geniş miqyasda, daha konkret desək, az qala ən məşhur - yaradıcılığın əsas xəttini təşkil edən əsərləri Azərbaycan dilinə çevrildi.

Anar “1500 ilin oğuz şeiri” fundamental almanaxında “Babur Şah” səhifəsini xüsusi təqdim edir: “Hindistanda yaranmış Böyük Türk imperiyasının banisi, eyni zamanda Orta Asiya türk ədəbiyyatının Nəvidən sonra ən böyük simasıdır. Nəslə yazılmış “Baburnamə” əsərindən başqa Nəvai üslubunda şeirləri də var.” Bu qısa təqdimat əslində böyük məntiqə söykənir, tədqiqatçıya qarşıda dərin dərya açılmasına işarə edir:

*Canımdan özgə yarı vəfadar tapmadım,
Könlümdən özgə məhrəmi əsrar tapmadım.
Canımdan özgə canına dil-əfkar görmədim,
Könlüm kimi gönlünə giriftar görmədim.*

Professor Fuad Köprülünün yazdığı kimi, Z.M.Baburun ədəbi şəxsiyyətinin təsdiqi şübhəsiz onun “Divan”ıdır. Qezəllər, məsnəvilər, rübailər, qətəllər, tuyuqlar, müəmmalar və müfrədlərdən mürəkkəb olan bu türkcə Divanda farsca da şeirlər vardır. Göründüyü kimi, burada Z.M.Baburun həm türkcəni, həm də farscağı gözəl bilməsi onun mükəmməl ədəbi şəxsiyyətini açıqlayır.

Əndicanda doğulub boya-başa çatan Hindistan məmləkətində uca bir taxt quraraq türk dilində yazıb-yaratmışdır, müasiri dahi Nəvai kimi.

Z.M.Babur irsinə Azərbaycanın yeni tədqiqatçıları, xüsusən gənc araşdırıcıları böyük maraq göstərir, özbək ədəbiyyatı məsələlərindən bəhs edərkən, hökmən Babur yaradıcılığına da toxunmağa həvəs göstərir, zərurət duyurlar. “Baburnamə” xatirəti Azərbaycan dilinə iki müəllif tərəfindən ayrı-ayrılıqda tərcümə olunub: professor Ramiz Əskər və professor Füzuli Gözəlov.

Z.M.Babur təkcə özbək klassik ədəbiyyatının deyil, bütövlükdə klassik türk ədəbiyyatının dahisidir. Onun ədəbi şəxsiyyətini və irsini öyrənməklə, eyni zamanda türk ədəbiyyatı tarixinin qızıl səhifələrini də öyrənmiş oluruq. İki qardaş xalqın ədəbiyyatının bir-birinə nə qədər yaxın olduğunu şahidi oluruq. Ədəbi ənənə olaraq ədəbi təsir məsləsi də aktuallığı ilə diqqətdə saxlanılır.

Rahmonov Vahob,
Guliston davlat universiteti dotsenti

BOBURNING FORS TILIDAGI “TAQTI” RISOLASI TOPILDI

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Taqtı” risolasi Boburning alohida risolasi ekanlığı talqin etiladi. Boburning “Aruz risolasi” nomi “Aruz” deb asoslanadi.

Kalit so‘zlar: “Aruz”, “Aruz risolasi”, “Muxtasar”, alohida, “Taqtı”, fors tili.

Abstract: In this article, it is interpreted that the treatise "Taqtı" is a separate treatise of Babur. Babur's "Aruz Risola" is based on "Aruz".

Key words: "Aruz", "Aruz treatise", "Mukhtasar", separate, "Taqtı", Persian language.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga ommaviy qiziqish va olimlarning himmatlari tufayli so‘nggi yillarda shahanshoh, shoir va aruzshunos olim Bobur haqida ko‘plab yangi ilmiy izlanishlar bo‘lmoqda va yangi-yangi topildiqlar ko‘zga tashlanmoqda.

Boburning aruz ilmiga bag‘ishlangan tadqiqotlarini biz kechagina bir kitob holida tasavvur qilar edik: 1971-yilda professor Saidbek Hasanov Boburning “Aruz” risolasini “Muxtasar” nomi ostida e‘lon qilgan edi: nashrda qo‘lyozmaning faksimilesi va kirill yozuvidagi matni to‘la qamrab olingan edi. Bu nashrdan shunday nuqsonlar kuzatganmiz:

Birinchidan, asar nomi asar hajmi va mohiyatiga nisbatan teskari – “Muxtasar” (qisqa) ma‘nosida e‘lon qilindi. Holbuki Musavvidi avroq (kotib) Boburning aruz risolasi nomini “Mufassal” deb yozgan edi.

Ikkinchidan, nashrda yuzlab matn xatolari sodir etilgan edi. Chunonchi: 100-betda o‘qiymiz:

Istamasang, eslamasang bizni
Men **o‘yaram** yo‘lung uza izni.

Qo‘lyozmada:

Istamasang, eslamasang bizni
Men **o‘param** yo‘lung uza izni.

Yoki:

Go‘iyo ko‘nglum **naxil** mulkining sultonidur-
Kim, xayol ichra qilur har ayshkim **anga nedur**. (148-bet)

Qo‘lyozmada:

Go‘iyo ko‘nglum **taxayyul** mulkining sultonidur-
Kim, xayol ichra qilur har ayshkim **imkonidur**.

2022-yilda “Zilol buloq” nashriyoti Zahiriddin Muhammad Boburning olti jildlik mukammal asarlar to‘plami – “Kulliyot”ini nashr etdi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sohibi Mirzo Kenjabek sa‘yi harakati va filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Sayfullohning (qisman) ko‘magida “Kulliyot”ning 3-jildi – Aruz risolasi dunyo yuzini ko‘rdi. Nashrga tayyorlovchi Mirzo Kenjabek Xalqaro Bobur jamoat fondi raisi Zokirjon Mashrabov tashabbusi bilan Turkiyaning Marmara universitetidan professor Munavvara Tekjan orqali O‘zbekistonga keltirilgan Boburning “Aruz” risolasini S.Hasanov tayyorlagan nusxa bilan qiyosiy o‘rganib, asarning mukammal nusxasini nashr etishga muvaffaq bo‘ldi.

Ish avval S.Hasanov nusxasi asosida bajarilgani uchun Bobur “Aruz”ining 1971-yilgi nashridagi Parij qo‘lyozmasi sahifalari kirill yozuvidagi qismiga kiritilgan. Marmara nusxasidagi 504 vazn taqti‘ga bag‘ishlangan qism esa, matn davomidan ilova qilingan.

Olim Mirzo Kenjabek asarning Parij nusxasi, Tehrondan topilgan Bobur “Kulliyoti”ning mutalavvin san‘atiga doir qismi va Marmara nusxasining har uchallasini bir asar sifatida tasavvur etadi.

Noshirning bu niyati va tasavvurini Boburning quyidagi so‘zlarini: “Bu jihatdin risola tartib berildi” (Boburnoma, 2002, 232-bet) “Kulliyot”da o‘zgartirib

talqin etganidan sezib olamiz: “Shu sabab bilan risolaga (to‘liq) tartib berildi” (Kulliyot, 3-jild, 13-bet).

Bizningcha Bobur so‘zlarini: “Shu sababli risola yozildi” tarzida ifodalash mumkin edi. Bobur alohida risola yozilganini qayd etmoqda.

Mutalavvin san‘atiga bag‘ishlangan Tehron nusxasining bir qismini akademik Abdulla A‘zamov “Taqli” nomli risola deb hisoblaydi. Mazkur fikr “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”ning 2017-yilgi nashridagi quyidagi maqolada o‘z ifodasini topgan.

“Taqli” – Boburning mutalavvin san‘atiga bag‘ishlangan risolasi: “Ogina kuni, zulhijja oyining ikkisida (1527 y. 30-avgust) qirq bir qatla o‘qur virdni bunyod qildim ushbu ayyomda bu baytimni:

Ko‘zu qoshu so‘zu tilinimu dey,
Qadu xadu sochu belinimu dey?! –

besh yuz to‘rt vaznda taqli’ qildim. Bu jihatdin risola tartib berildi” (“B.”, 330 b).

Risolaning hozircha bir nusxasi Bobur asarlarining Tehron majmuasi (q.Kulliyot) tarkibida topilgan (187-303-bb.).

Zahiriddin Muhammad Bobur “Aruz”ining Marmara nusxasida ikkinchi qism shunday boshlanadi:

Bismillahir-Rohmanir-Rohiyim.

Ba’d az hamdu siposu durudi beqiyos chunin go‘yad sargashtai vodii tahayyur Zahiruddin Muhammad Bobur:

Dar ta’rixu nuhsadu siyu yak, ki “Aruz”i man ba Xuroson raft, yake az shua’roi on jonib in bayti maro:

Qoshig‘a borg‘ali ko‘ngul o‘ziga kelmadi, netay,
Yuziga tushgali ko‘zum ko‘ziga ilmadi ul oy, –

dar duvistu panjohu du (252) vazn taqli’ karda navishta firistoda bud. Alhaq, tahqiqi tamom karda va tadqiqi lokalom ba joy ovarada, vale az anvo‘i vazni she’r, ki musamman va musaddas va murabba’ ast, dar yak nav’i musamman rost meoyad va dar du nav’i digar, ki musaddas va murabba’ boshad, rost nameoyad.

Va digar in hamai avzon az nuh bahr bud – az duvozdah bahri boqiy vazne nabud. Ba xotiri fotir rasid, ki agar bayte boshad, ki jome’i jami’ anvo‘i vazni she’r boshad va az avzon har bistu yak bahr dar on boshad, pisandidatar xohad bud. In bayti xudro:

Ko‘zu qoshu so‘zu tilinimu dey?
Qadu xadu sochu belinimu dey?

dar ponsadu chahor vazn taqli’ gardad va dar jami’i anvo‘i vazn, ki musamman va musaddas va murabba’ boshad, xonad va dar in bayt az har bistu yak bahr avzon ovarad, chunon, ki xonandai in ajzovu avroqro ravishu donandai in arkonu avzonro mubayyan xohad bud. Va multamas on, ki agar sahv xatoe boshad, napo‘shand, balki ba tas’hehi islohi on ko‘shand.

Tarjimasi: “Marhamati cheksiz, rahmati so‘ngsiz Alloh ismi bilan.

(Alloh taologa cheksiz) hamd va shukr hamda (janob Rasulullohga) beqiyos salotu salomdan keyin – hayronlik vodiysining sargashtasi Zahiruddin Muhammad Bobur aytur:

Tarix to‘qqiz yuz o‘ttiz birinchi yili (1525) mening “Aruz”im (Aruz haqidagi risolam) Xurosonga ketganida, ul yurtning shoirlaridan biri mening ushbu:

Qoshig‘a borg‘ali ko‘ngul o‘ziga kelmadi, netay,

Yuziga tushgali ko‘zum ko‘ziga ilmadi ul oy, –

baytimni ikki yuz ellik ikki vaznda taqti’ qilib, yozib yuborgan edi. Haqiqatan, (ul kishi) mukammal tahqiq qilgan va so‘zga hojat qoldirmaydigan darajada tahqiqni (tekshiruv va aniqlashni) o‘rniga qo‘ygan. Va lekin (mazkur taqti’) she’r vaznining musamman, musaddas va murabba’ kabi turlaridan (faqat) birgina musamman turiga to‘g‘ri keladi, ammo musaddas va murabba’dan iborat bo‘lgan boshqa ikki turiga to‘g‘ri kelmaydi.

(Taqti’dagi) boshqa hamma vaznlar to‘qqiz bahrdan iborat edi, qolgan o‘n ikki bahrdan biror vazn (taqti’i) yo‘q edi. Bu ojiz ko‘ngliga keldiki, shunday bayt bo‘lsaki, u bayt she’r vaznlarining hamma turlarini o‘ziga jamlagan bo‘lsa va vaznlardan har yigirma bir bahr unda mavjud bo‘lsa, yanada e’tiborga loyiqroq bo‘lar edi.

O‘zimning ushbu:

Ko‘z-u qosh-u so‘z-u tilinimu dey?

Qad-u xad-u soch-u belinimu dey?

baytimni besh yuz to‘rt vaznda taqti’ qilinsaki, musamman, musaddas va murabba’dan iborat bo‘lgan barcha she’r vazni turlarida (taqti’ qilib) o‘qilsa, bu baytda yigirma bir baharning har birida vaznlari keltirilgan bo‘lsa, toki, bu ajzo va varoqlarni o‘qiydigan hamda bu ruknlar va vaznlar ravishini biladigan kishiga holat ochiq va ravshan bo‘lsa. Yana (o‘quvchilardan) iltimos ulki, agar (bu taqti’da) sahvu xato bo‘lsa, yopmasinlar, balki uni tuzatish va isloh qilishga harakat qilsinlar” (Kulliyot, 3-jild. Aruz risolasi, 2022, 307-308-betlar).

Bizningcha, Bobur “Aruz”ining Marmara nusxasi bizga bir necha yangilik beradi:

Birinchi, asar nomi “Muxtasar” nashrida ikki o‘rinda, Marmara nusxasida “Aruz” ekanligi aniq ko‘rsatilgan.

Shuning uchun Boburning aruz risolasi nomini “Aruz” deb ko‘rsatsak, muallif haqqoniyati tiklanadi;

Ikkinchi, Marmara nusxasining ikkinchi qismi mustaqil asardir: chunki Bobur “Shu jihatdin risola tartib berildi” demoqda. Va bu risolaning nomi “Taqti’”dir. Sababi bunda bir bayt 504 marta taqti’ qilingandir.

Uchinchi, “Taqti’”ning alohida asar ekanligi uning fors tilida yozilganligi ham aniq ko‘rsatib turibdi.

To‘rtinchi, “Taqti’” bismilloh bilan boshlangani uchun ham mustaqil asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Muxtasar. Toshkent: Fan. 1971.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 3-jild. Aruz risolasi. Toshkent: Zilol buloq. 2022.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: Sharq. 2017.

Boltaboyev Hamidulla,
filologiya fanlari doktori,
O‘zMU professori

BOBURSHOH VA BOBURIYLAR DAVRINI AKS ETTIRGAN TURK ADIBLARINING TAZKIRALARI

Annotatsiya: Maqolada Boburshoh hayotligida tuzila boshlagan tazkiralardan tortib XX asr boshlariga qadar yaratilgan o‘zbek, turk, ozarboyjon, fors tillaridagi tazkiralarda aks etgan Bobur siymosiga doir chizgilar umumlashtirilgan. Nafaqat Boburshoh siymosi, balki boburiy ijodkorlar siyrati aks etgan tazkiralalar ham tahlilga tortilgan. Tazkiralarda Bobur merosiga munosabatda an’ana va vorislik masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Boburshoh, boburiylar, turk tazkiralari, asar strukturasi, o‘zbek, ozarboyjon, fors tillari, an’ana va vorislik.

Annotation: This article summarizes the experience of tazkira authors, written in Uzbek, Turkish, Azerbaijan and Persian languages, which were created from the period of Babur's rule to the beginning of the XXth century. There also analyzed not only the image of Baburshah, but also tazkiras reflecting the life of Babur's creators. Tazkiras focus on traditions and heritage in relation to the legacy of Babur.

Key words: Boburshoh, Baburiys, Turkish tazkiras, structure of the work, Uzbek, Azerbaijan, Persian languages, tradition and heritage.

Mashhur shoh va shoir, tarixchi va alloma Zahiriddin Muhammad Boburshohning jahon madaniyatidagi o‘rnini belgilashda professional adabiyotshunoslar tomonidan yaratilgan adabiyot ilmiga doxil asarlar – tazkiralarga suyanib fikr yuritish o‘rinlidir. Chunki ularda ulug‘ shoirni ko‘rgan, u bilan bevosita muloqotda bo‘lgan adiblardan tortib, Bobur siymosi aks etgan asarlarni sinchiklab o‘rgangan olimlarning tazkiranavislik tajribasini umumlashtirish orqali buyuk shoh va shoirning o‘z davriga, keyingi davrlar adabiyoti va tarixiga ta’sir ko‘rsatgan fenomenial shaxs ekani ochiqqlangan. Bu tazkiralarning geografik ko‘lami keng: Hindiston, Eron, Ozarboyjon, Afg‘oniston va albatta, Markaziy Osiyo va boshqalar. Ikkinchidan, ulardagi fikrlar umumadabiyot va san’at mezonlari bilan o‘lchangan bo‘lib, favqulodda kutilmagan ehtirolarga boy maqtoqlar kam uchraydi. Adabiyotshunoslikning *tazkira* janri ko‘pso‘zlilikni yoqtirmaydi, har bir ijodkorning muallif nazdidagi bahosini aniq ko‘rsatadi. Mana shunday tazkiralarning bir nechasini kuzatamiz.

1. *“Ravzat us-salotin” (“Sultonlar gulshani”)* – Sulton Muhammad Faxriy ibn Muhammad Amiriy Hiraviy (903/1497-98–?) asari (1555). Tazkiraning *“She’rga mayl ko‘rsatgan va (she’r) aytgan Samarqand va Xurosonning Amir Temur Ko‘ragon avlodidan bo‘lgan sultonlar zikrida” sarlavhali 3-bobida Xalil Sulton, Muhammad Mo‘min Mirzodan keyin Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh, so‘ngra uning avlodlari va yaqin qarindoshlari: Muhammad Nosir mirzo, Muhammad Humoyun podshoh, Komron mirzo, Muhammad Askariy mirzo,*

Muhammad Hindol mirzo, Nosir mirzo, Mirzo Haydar haqida ma'lumot berilgan.
[1]

Boburshoh haqida shunday yozilgan: "Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh Umarshayx Mirzo farzandi edi. Va Amir Temur Sohibqironning majid avlodi sultonlaridandir. Undan keyin Sulton Husayn Mirzoga teng fahmu farosat va shamshir zarbida podshoh yo'q edi. Uning ishlaridan biri ushbu bo'lib, ozgina qo'shin bilan Hindiston mamlakatlarini musaxxar qilgan. Va doimiy sipohiyarga e'tiborli va ma'qul bo'ldi. Va *musiq*a ilmida benazir edi. Va *turkiy va forsiy ash'orda* va *aruz va qofiyada* yuksak mahorati bor edi. Va "Mubayyin" degan fiqhga oid nazm qilgan kitobi nihoyatda yaxshi bitilgan. Forsiyda ham ravon va aniq ayta olardi. Ammo turkiy she'riyatga moyilroq edi. She'rlar devoni odamlar orasida ko'p bo'lganligi sababli mana bu turkiy matla'ni undan ushbu o'rinda yaxshi niyat va tabarruk tariqasida ko'chirildi. *Matla'*:

*Takalluf har necha suratda bo'lsa andin ortuqsen,
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen.*

Mana bu forsiy matla' ham unikidir", deyish bilan forsiy g'azallaridan namunalar ham keltirilgan.

2. "*Tuhfai Somiy*" – Som Mirzo Safaviy (1517-1567) asari (1550). Otasi *Shoh Ismoil Xatoiy* uni 927/1521-yilda Hirot shahri idorasi uchun yuborgan. 1524-yilda Shoh Taxmasb unga Xuroson viloyatining hokimligini topshirgan. Asar Ozarbojondagi ilk tazkira sifatida qaraladi. Tazkira muqaddima, *sahifa* nomi ostida 7 fasl va xotimadan iborat. Shoirlarning tabaqalariga, o'ziga va she'riyatga munosabati asosida 703 shoir haqidagi ma'lumot va ularning asarlaridan namunalar berilgan. *Shoh Ismoil Xatoiy, Husayn Boyqaro* va **Zahiriddin Muhammad Bobur** kabi sulton shoirlar asarlaridan turkcha namunalar berilgan. Boshqa fors tazkirachilaridan farqli o'laroq buyuk turk shoirlariga alohida fasl (6-fasl) bag'ishlagan [2]. Masalan, "*Bo harfi bo'limi*: Bahrom Mirzo, Badi'uzzamon Mirzodan so'ng *Bobur Podshoh* nomi zikr qilingan. E'tiborni uning shavkatli shoh bo'lganiga qaratadi, "Devon"i va "Boburnoma"ni tilga oladi; *Ho (hoi havvas)* harfida: *Humoyun Podshoh* zikr qilingan.

3. "*Muzakkiri ahbob*" ("*Do'stlar zikri*") – Hasanxoja Nisoriy (1516-1597) asari (1566). XVI asrda Turkiston, Afg'oniston, Eron, Onado'li, Sharqiy Turkiston va Hindistonda yashab ijod etgan 288 shoir va adib, ularning asarlari haqida ma'lumot bergan. Mutribiy bahosiga ko'ra, bu asar Davlatshoh va Navoiy tazkirasidan so'ngra uchinchi tazkiradir. *2-rukn 1-faslida*: "*O'tkinchi jahondan mangulik mulkiga ko'chgan chig'atoy sultonlari zikrida*" bobi sarlavhasi bilan **Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Xumoyun podshoh, Muhammad Komron podshoh, Mirza Askariy bin Bobur, Muhammad Hindol podshoh** kabilar haqida ma'lumot berilgan [3].

4. Xoja Orif Baqoiy Andijoniy (XVI)ning "Majma'u-l-fuzalo" ("Fozillar to'plami", 1589) tazkirasida Andijonda Isfandiyor bin Xusrav bin Yormuhammad bin Jonibek sulton xizmatida turgan payti yoza boshlagan va Hindistonga etib borib, Akbar podshoh davrida o'z asarini nihoyasiga etkazgan. "Majma'u-l-fuzalo"ning yagona nusxasi Pokistondagi Laxo'r universiteti kutubxonasida saqlanadi. Bu tazkira afg'onistonlik olim Abdulhay Habibiyning "Nusxahoyi xattiy",

A.Naqaviyning “Tazkiranavisiiy dar Hindu Pokiston”, eronlik Gulchin Maoniyning “Tarixi tazkirahoyi forsiy” asarlarida qisqacha tavsiflangan [4].

5. “*Majmau-l-xavos*” (“*Xoslar majmuasi*”) – Muhammad Ali Sodiqbek Sodiqiy Afshar (1532-1613) asari (1602). O‘zbek (chig‘atoy turkchasi) tilida. SHoh Ismoil davridan SHoh Abbos davrigacha o‘tgan 369 shoir haqida ma’lumot bergan. Ular orasida Ubaydxon (Ubaydiy), Avaz G‘ozi (Abdullohxon II), Humoyun, Bayramxon, Susaniybek, Ayyub va boshqalar bor. Muallif o‘zigacha tazkira yozgan 4 ijodkor Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy va Som Mirzo asarlarining zayli (ilovasi, davomi) sifatida tazkira bitganini tilga oladi. Asarda: “*Humoyun podshoh – nihoyatdin mutajovuz, karimu-l-tab’ va saxovatpesha va xushsaliqa podshoh erdi. Kitobxona ziynati va ravnaqig‘a ko‘p moyil erdi. Abulg‘oziy Sulton Husayn mirzodin so‘ngra Chig‘atoy podshohlari-da Humoyun podshohdek xushtab’ podshoh oz voqe’ bo‘lupdur. Qardoshi Komron Mirzodin hazimat qilup shohi jannatmakon zilola jalolig‘a malja’ bo‘ldi. Qizil bosh askari nusratfarjomi imdodi bila xasmni mag‘lub qilup, Hind avbodin maftuh qiloldilar. Tab‘i she‘rda ukush muloyim voqe’ bo‘lupdur. Bu ikki turkiy baytining ko‘p shuhrati bor va mushhur bo‘lupdurkim, bayt:*

*G‘ariblig‘ g‘amidin mehnatu malolim bor,
Bu g‘amdin o‘lmakka etdum, g‘arib holim bor.
Visoli davlatidin ayrilib men mahzun,
Tirikmenu bu tiriklikdin infiolim bor.*

degan turkiy baytlarini keltirgan [5].

6. “*Nafoisu-l-maosirot*” (“*Hozirgi nafis shoirlar*”) – Alou-d-davla ibn Yah‘yo Sayfi Husayniy asari (XVI asrning 70-yillari). Hindistonda fars tilida tuzilgan. Markaziy Osiyodan Hindistonga borib, boburiylar saltanatida turg‘un bo‘lib qolgan adib va olimlar haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Jumladan, Bazmiy, Badiiy Samarqandiy, Judoiy Termiziy, Mir Sayyid Ali Termiziy (Tabriziy), *Mavlono Baqoiy Andijoniy (Buxoriy), Manzariy Samarqandiy, Me‘rojiy Toshkandiy, Mushfiqiy, Nihoniy, Sahmiy Buxoriy...* haqida ma’lumot bor [6].

Tazkirada bevosita Boburshoh va boburiylar haqida keng ma’lumot uchramasada, ayni boburiylar davrida Turkistondan Hindistonga xijrat qilib, u erda turg‘un yashab qolgan adiblar haqida qimmatli ma’lumot beradi.

7. “*Ruzi ravshan*” (“*Ravshan kun*”) – Muhammad Muzaffar *Husayn Sabo* ibn Mavlaviy Muhammad Yusuf asari. Hindistonda boburiylar davrida tasnif qilingan. Ayrim manbalarda “Tazkirai Husayniy” deb yuritiladi. Bu tazkira ham Markaziy Osiyodan Hindistonga borib qolgan shiorlar haqida bo‘lib, unda Abulqosim Kobuliy, Zehniy Balxiy, Tolib, Fatxiy, Firoqiy, Husayn Marviy haqida ma’lumot bor [7].

8. *Tazkirai Jahongir podshoh*” – Jahongir podshoh (jahonda tazkira yozgan yagona imperator) Boburning abirasi (1569-1627) asari. Fors tilida yozilgan bu tazkira XVI asr oxirlarida tartib berilgan. Uni muallif ko‘chirtirib tarqatmagan. “Nusxai zeboi Jahongir” tazkirasini podshohga tortiq qilib borganda, unga javoban Jahongir o‘z tazkirasini bergan. So‘ngra mazkur tazkira tarkibida Eronda kitobat qilingan [8]. Shunday yozuv bitilgan: “Birinchii tabaqa bu shon-shavkatli xonadon (boburiylar)ga qarindoshlik nisbati bor (shayboniy) sultonlar zikridadir. Mavlono

Voqeyiy necha yoshga kirganini bilmas, ammo ko'p yillar oldin bo'lib o'tgan voqealarni juda yaxshi eslardi. Bu o'rinda quyidagilarni aytgandi:

– Bobur podshohni ko'rganman. Shohbexxon O'zbek Samarqandni olib, oliy martabali Bobur podshoh Hindiston tomonga yuzlangan chog'i men o'sha voqea sanasini ushbu ta'rix orqali bitgandim... [8]

Va **Zahiriddin Bobur podshoh** (Navro'z haqida) ham yozganlar deb, Bobur, Humoyun va Akbar podshohning forsiy baytlarini keltiradi..

[Bobur podshoh] ruboiysi esa budir:

Dar havo'i nafsi gumrah umr zoe' kardaem,
Peshi ahliulloh az atvori xud sharmandaem.
YAk nazar afkan ba suyi mo ki mo sargashtagon,
Xojagiyro mondaemu xojagiyro bandaem.

Mazmuni:

Gumroh nafsimiz yo'lida umr zoe etgan-da biz,
Ahliulloh oldida atvorimizdan sharmanda biz.
Bir nazar tashla biz sari, biz sargashtalar bu on,
Xoja yo'lida ko'z toliqtirganu xojaga banda biz [8].

9. "*Tazkiratu-sh-shuaro*" – Sayliy Samarqandiy asari. 1580-yillar atrofida yozila boshlangan. Muallif homiy izlab, Kobulga boburiy Muhammad Hakim Mirzo bin Humoyun podshoh huzuriga yo'l olgan. Asar tugallanishi arafasida Sayliy vafot etgan. Bu tazkiranavis haqidagi xabar Mutribiyning "Nusxayi zeboyi Jahongir" tazkirasida berilgan. Asar XVI asr ikkinchi yarmidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. U Humoyun podshoh sari yo'l oladi, lekin yo'lda vafot etadi. Sayliy tazkirasining keyingi taqdiri ilm ahliga ma'lum emas. [9].

10. "*Tazkirat ush-shuaro*" ("*Shoirlar tazkirasi*") – Mutribiy Samarqandiy tazkirasi. Fors tilida 1605–1606-yillarda tartib berilgan. Tazkirada XVI asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Hindiston, Eron, Turkiyada yashab ijod qilgan 350 dan ortiq shoirlar haqida ma'lumot berilgan. Asarning "Tasmiya" deb ataluvchi birinchi bobida shayboniy, ashtarxoniy, boburiy va badaxshonlik, sharqiy turkistonlik hukmdorlar ichidan etishib chiqqan she'riyatga iqtidorli xon, sulton, podshohlar hayoti, ijodiy faoliyati tilga olinadi [10].

11. "*Nusxayi zeboyi Jahongir*" ("*Jahongir davridagi go'zal shoirlar qiyofalari*") – Mutribiy Samarqandiy asari (1618-20). Fors tilida bitilgan bu tazkira 1626-yil 9-dekabrda Jahongir podshohga taqdim etilgan. Tazkirada XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi choragida yashagan 240 nafar shoir haqida so'z yuritiladi. Movarounnahrning she'r yozgan xon, sultonlari bilan birga boburiylar, badaxshonlik temuriylar, sharqiy turkistonlik hukmdorlar hayotidan lavhalar va ijodidan namunalar berilgan. Naxliy Buxoriy, Sobiriy, Vafoiy, Farhod, Zig'am, Fululiy kabi shoirlarga oid ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Tazkiraning Xotima qismida Jahongir podshoh bilan uchrashuvi tafsilot bayon qilingan [11].

12. "*Makolotu-sh-shuaro*" – Mir Alisher Qone' (1140/1727-1788) asari (1756-60). Asar fors tilida bitilgan bo'lib, unda Hindiston va Sind shoirlari haqida so'z yuritilgan. Tazkira Navoiyning "Majolisu-n-nafois" va Som Mirzoning "Tuhfai

Somiy” yo‘lida tuzilgan. Boblar alifbo tartibida tuzilgan. Unda Bobur Mirzo, Doroshukuh, Jahongir kabi podshohlar haqida so‘z yuritilgan [12].

13. Aliqulixon Vola (1712-1756) “*Riyozu-sh-shuaro*” asari (1747, forscha) muqaddima, sakkiz ravza va xotimadan iborat bo‘lib, uning tegishli boblarida Boburshoh tilga olingan [13].

14. “*Tazkiratu-s-salotin*” – Mirsiddiq Hashmat asari. Tazkirada **Bobur**, *Humoyun, Komron Mirzo, Akbarshoh, Fayzi Fayoziy, Jahongir, Jaloliddin, Shoh Jahon, Sherxon, Olamgir, Farrux Siyar, Mahmud shoh Bahmoniy...* tilga olingan. Muallif Buxoro amiri Muzaffarxon o‘g‘li, o‘zini adabiyot va ilmga bag‘ishlash uchun taxt vorisligidan voz kechgan. Bu asardan tashqari, “*Tazkiratu-sh-shuaro*”ni ham yozgan [14].

15. “*Tazkirayi Qayyumiy*” (“*Qayyumiy tazkisasi*”) – Po‘lotjon domla Qayyumiy (1885-1964) asari (1960). O‘zbek tilida. Markaziy Osiyodagi turk tilida ijod qilgan 324 shoir ijodi haqida ma‘lumot beradi. Ularning aksariyati Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligida yashaganlar. Tazkira daftarlar tarzida tuzilgan bo‘lib, har qaysi daftar muayyan ichki mundarijaga ega. Tazkirada turli shoirlar ijodidan 10259 misra she‘r keltirilgan: “*1-daftar: Alisher Navoiy, Sayyid Ahmad, Sayfi Saroyi, Amiriy, Rabg‘uziy, Xorazmiy, YU(g)nakiy, Ahmad YAssaviy, Mahmud, Durbek, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Majlisiy, Qutbiy Xorazmiy, SHayboniy, Solih, Ubaydiy, Bobur, Husayniy, Aziziy, Turdiy, Ollohyor, Mashrab va boshqalar*” [15].

16. Turkiyada Mustafa Eson, Ali Fuod Bilkan, Tuba Ishinsu Turmush “*Sultonlarning she‘rlari. She‘rlarning sultonlari*” (2012) kitobini nashrdan chiqargan. Tazkiralarda tartib berilgan bu majmuada Hindistonda yashagan turk sulton-shoirlari sifatida Boburshoh ijodiga alohida bo‘lim ajratilgan. Bo‘lim “Hindistonda chig‘atoycha she‘r va Bobur xonadoniga mansub shoirlar” deb nomlanadi. Boburshoh va Bayramxon she‘rlaridan avval 4 sahifalik tanishtiruv maqolasi ham berilgan bo‘lib, unda Boburshohning she‘riy mahorati va uning xonadoniga mansub shoirlar xususida so‘z yuritilgan va 8 sahifa davomida Boburshohning g‘azal va ruboiylaridan namunalar berilgan.

Yuqorida tilga olingan tazkiralardan ko‘rinadiki, Boburshoh buyuk shoir sifatida ham o‘z davridayoq tanilgan, uning asarlari tazkira va majmualarga kiritilgan. Boburshoh asarlarining jahon miqyosidagi o‘rni va shaxsining fenomenini belgilashda yuqorida tilga olingan tazkiralarda asos-hujjat vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar:

1. Мухаммад Фахрий Ниравий. Равзату-с-салотин / Форсийдан С.Фаниева, Ж.Жўраев тарж. Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2014.

2. Сом Мирзо Сафавий. Тухфаи Сомий. Қўлзма. ЎзРФАШИ. Сақл. № 57; Тухфаи Сомий. Таълиф Сом Мирзои Сафавий. Техрон, 1190.

3. Музакири ахбоб. Қўлзма. ЎзРФАШИ. Сақл. № 56, 1438, 4282, 4374, 7760; Насанхожа Нисорий. Музакири ахбоб / Форсийда И.Бекжон тарж. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.

4. Маоний, Аҳмад Гулчин. Таърихи тазкираҳои форсий. 1-2 ҷилд. Техрон, 1363; Нақавий, Сайид Алиризо. Тазкиранависии форсий дар Нинду Покистон. Техрон, 1966.

5. Тазкираи «Мажмау-л-хавос», ба забон турки-чиг'атоӣ. Таълиф Содиқий китобдор ва таржимаи он ба забони форсий ба хомаи доктор Абдулрасул Хайёмпур муаллими донишгоҳи Табриз. 1327 / 1948; Содиқ Афшар Китобдор. Мажмау-л-хавас. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2017.

6. ЎзРФАШИ. №6919; 810, 848 (таржима нусхалар); Низомиддинов И. Очерки истории культурных связей Средней Азии и Индии в XVI - нач. XX в. Т.: Фан, 1981;

7. Низомиддинов И. Маданий ҳамкорлигимиз саҳифаларидан. Т.: Фан, 1987. Б.50-51.

8. Нусхаи зебои Жаҳонгир. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2015; Бекжонов И. Тазкиралари муҳим манба. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2009.

9. Болтабоев Н. Тазкиралар зикри. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2015. Б.86.

10. Мутрибий Самарқандий. Тазкирату-ш-шуаро. Қўлэзма. ЎзРФАШИ, сақл. 2253; Мутрибий Самарқандий. Тазкирату-ш-шуаро. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2016.

11. Мутрибий. Нусхаи зебои Жаҳонгир. Лондон: Индиан офис музейи кутубхонаси. Сақл. 3023; Мутрибий Самарқандий. Нусхаи зебои Жаҳонгир. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2018.

12. Қонё, Мир Алишер. Мақолоту-ш-шуаро / Бо муқаддима ва тасҳеҳи Сайид Нисомуддин Рошидий. Қарочи, 1957. 1018 саҳ.

13. Болтабоев Н. Тазкиралар зикри. Т.: MUMTOZ SO'Z, 2015. Б.143.

14. Мирсиддиқ Нашмат. Тазкирату-с-салотин. Қўлэзма. ЎзРФАШИ. Сақл. № 54/1; Нодизода Р. Маъхазҳои адабиёти тоҷики нимаи дувуми асри XIX. Нашриёти АФ Тоҷикистон, 1950. С.85-91.

1. Mustafa Isen, Ali Fuad Bilken, Tube Ishinsu Turmush. Sultanlarnin sii'rlari. She'rlarnin sultanlari. Ankara, 2012.

Jabborov Nurboy,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU
professori

BOBUR SHE'RIYATIDA MILLIY RUH VA BADIY TALQIN UYG'UNLIGI

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Bobur lirikasi milliy ruh va badiiy talqin sintezi nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Mazkur ilmiy muammo, birinchidan, buyuk shoir she'riyatida millatning asl tabiati, siyrati aks etishi, ikkinchidan, poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi, uchinchidan, badiiy obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi tarzidagi ilmiy tasnif asosida tadqiq qilingan. Natijada Boburning lirikada milliy ruhiyat musavviri ekani dalillangan.

Tayanch so'zlar: she'riyat, milliy ruh, millat siyrati, poetik fikr, badiiy obraz badiiy talqin.

Abstract: The article analyzes the lyrics of Zahiriddin Babur from the point of view of synthesis of national psyche and artistic interpretation. This scientific problem was researched on the basis of the scientific classification, firstly, that the great poet's poetry reflects the true nature and character of the nation, secondly, the expression of poetic thought relies on national thinking, and thirdly, the artistic image is portrayed through national expression. As a result, it has been proven that Babur is an artist of the national spirit in the lyrics.

Key words: poetry, national spirit, national culture, poetic thought, artistic image, artistic interpretation.

Badiiy adabiyotning asosini quyidagi poetik unsurlar tashkil etadi: ma'no, shakl, ruh va obraz. Buyuk iste'dod egalarining asarlarida, odatda, ma'no umumbashariy g'oyalarni ifoda etsa, shakl va ruh millatning tabiatini aks ettiradi. Obraz individual poetik tafakkur mahsuli sifatida yuzaga kelsa-da, o'zida millatning ruhini ifodalaydi. Milliylikdan xoli tuyg'uning ta'sir kuchi bo'lmaganidek, milliy ruhdan mosivo tafakkur ham qanotsiz qushga mengzaydi. Shunga ko'ra, milliylik – adabiyotning asosiy mezoni. Ta'bir joiz bo'lsa, jahon badiiy-estetik tafakkuri ko'rigida muayyan millat adabiyotini ajratib ko'rsatuvchi bosh xususiyat, o'zgalardan farqini namoyon etadigan asosiy belgi bu – milliy ruhdur. Shuning uchun milliy ruhning ifoda yo'sinlarini, tasvir mezonlarini o'rganish adabiyotshunoslikning o'zak ilmiy muammolaridan.

Adabiyotda milliy ruh ifodasi, bizningcha, quyidagi tamoyillar asosida namoyon bo'ladi: 1) millatning asl tabiatini, siyratini aks ettirish; 2) poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi; 3) badiiy obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi. Buyuk shoir va mutafakkir Zahiriddin Bobur nazmiy merosini ana shu tamoyillar asosida o'rganish tadqiqotlar uchun boy material bera oladi.

Millatning asl tabiatini, siyratini aks ettirish. Mumtoz she'riyatning g'azal, masnaviy, ruboiy, tuyuq va fard singari janrlarida yuksak badiiy qimmatga ega asarlar yozgan Zahiriddin Bobur lirikasi milliy ruh betakror poetik ifoda etilgani jihatidan ham ahamiyatlidir. Ulug' shoirning "Yaxshilig" radifli g'azalida bu xususiyat, ayniqsa, yaqqolroq namoyon bo'lgani kuzatiladi:

Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',

Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'.

Buyuk tafakkur egalarining dunyoga qarashi boshqa toifa kishilar nuqtai nazaridan tubdan farq qiladi. Negaki, ular kamolotning o'zlari erishmoqqa muyassar bo'lgan yuksakligi darajasidan fikr yuritadi. Boburning ahli jahondan kim ham yaxshilik ko'ribdi, modomiki shunday ekan, undan yaxshilik yetmog'iga ko'z tutma, deyishi sababini shuning bilan izohlash mumkin. "Ko'z tutma" – chinakam turkiy ibora. Baytdagi mazmun yo'nalishini teran falsafiy mushohada sari burgan ushbu ibora ulug' shoir tafakkurining milliy zaminga qurilgani isbotidir.

Keyingi baytda *yaxshi-yamon, yamonliq-yaxshilig'* tushunchalari hosil qilgan tazod vositasida fikr yanada ta'sirchan va san'atkorona ifodalangan:

Ey, ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yamonliq asru ko'p,

Emdi ko'z tutmoq ne ma'ni har yamondin yaxshilig'.

Mutafakkir kelgan xulosaga ko‘ra, dunyo shunday qurilgan: yaxshilardanki yomonlik ko‘rganingdan keyin yomonlardan yaxshilik kutish foydasizdir.

G‘azalning shohbaytida ifodalangan mazmun millatning asl tabiatini ifoda etgani bilan alohida ahamiyatga ega.

*Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q –
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.*

Ulug‘ shoirning bunday falsafiy to‘xtamga kelishi sababi teran asosga ega. Negaki, o‘zbek xalqi barchaga, hatto g‘animiga ham yaxshilik qila olishini ko‘pasrlik tarixi davomida qayta-qayta isbot etgani ma‘lum. O‘rta asrlar adibi Al-Johiz “Fazoyili atrok” (“Turkiylarning fazilatlarini”) asarida ajdodlarimizning *nomusli, yuragi toza, yovuz o‘y va botil fikrdan xoli* insonlar bo‘lganini; na jangda, na tinch payti *hiyla bilmaganini, fursatdan foydalanmaganini; o‘zi ham, so‘zi ham to‘g‘ri ekanini; birovning moliga xiyonat qilish, ikkiyuzlamachilik, kibru havo, kattalarga hurmatsizlik ko‘rsatish ularning tasavvuriga ham sig‘maganini* ta’kidlaydi [Al-Johiz 1993]. Hazrat Alisher Navoiy ta’biricha: “...*sortdin tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq*” [Navoiy 2011: 515] bo‘lgan turkiylar uchun barcha zamonlarda ham yaxshi nom qoldirish hayotining asosiy mazmunini tashkil etgan. Boburning “...*bori elga yaxshilik qilish*” haqidagi g‘oyasi, ana shu jihatdan, millatning siyratini o‘zida mujassam etganini alohida ta’kidlash kerak.

Millatning yomonlikka yomonlik bilan emas, yaxshilik bilan javob qaytara olish fazilati shoir lirikasida o‘ziga xos badiiy talqin etiladi. Shoirning boshqa bir g‘azalidan olingan quyidagi bayt mazmuni ham buni tasdiqlaydi:

*Bobur, ul umr seni so‘kkan uchun
Umr borincha duo qilg‘aysen.*

Hatto so‘kkan odamning haqiga ham duo qilish, tabiiyki, hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Olijanoblikning, insoniy kamolotning cho‘qqisi bo‘lgan bunday xulosaga kelish osonmi? Ham oson, ham qiyin. Osonligi shundaki, bu nainki shoh va shoir Boburning, balki mansub bo‘lganimiz millatning asl tabiatiga xos yuksak fazilat. Qiyinligi shundaki, yomonlikka nafrat – inson fitratiga xos tuyg‘u. Ushbu nafrat yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarishni taqozo etadi. Nafratni yengish, yomonlikka yaxshilik bilan javob berish shu jihatdan ham oson emas. Buning uchun ushbu fazilat insonning fitratida bo‘lishi kerak [Jabborov 2018: 78].

Shoir she’rlarida millatning mentaliteti bilan bog‘liq quyma fikrlar ohorli ifoda etiladi. Hayot sinovlaridan o‘tgan “Nimani eksang, shuni o‘rasan”, degan xalq maqoli Boburning mana bu ruboiysida betakror badiiy talqin topgani buning isbotidir:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur!*

Bobur lirikasida faqat o‘zbekkagina xos bo‘lgan tushunchalar ohorli badiiy talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, “sevinchi” so‘zi hozirgi kunda xalqimiz orasida “suyunchi” shaklida keng va faol ishlatiladi. Hayotdagi eng quvonchli

damlardagina tilga olinuvchi bu soʻzni shoir gʻazalda yor visoli bilan bogʻliq badiiy lavhada mahorat bilan qoʻllaydi:

*Xush ulki, bir kishi koʻzim yoʻlida erkanda,
“Sevinchi!” – deb yugurib yetsakim: “Falon” keldi!”*

Bunday satrlar shoirning xalq turmush tarzini teran bilishi, sheʼrda milliy qadriyat darajasiga koʻtarilgan tushunchalarni sanʼatkorona talqin eta olishi isbotidir.

“Uying bugʻdoyga toʻlgur!” – oʻzbekning koʻpni koʻrgan otalari, donishmand bobolari yoshlarga shu soʻz bilan dashnom berishi maʼlum. Ushbu odat millatimiz oqsoqollarining hatto tanbehi ham yaxshi niyatga yoʻgʻrilgani isbotidir. Aslida, uying bugʻdoyga toʻlishi – farovonlik belgisi. Biror yoqimsiz qiliq qilgan bolani qargʻamaslik uchun, hatto dashnomni ham shu kabi ezgu niyat orqali ifodalash naslning davomchilariga boʻlgan tengsiz mehr natijasidir. Buni qalbdan his etgan Bobur ruboiylaridan birida ana shu hikmat mazmunini goʻzal badiiy talqin etadi:

*Ishlar bari koʻnguldagidek boʻlgʻusidur!
Inʼomu vazifa – bori buyrulgʻusidur!
Ul gʻallayu mahmalki, deb erding, berdim,
Mahmalgʻa boʻyu gʻalladin uy toʻlgʻusidur!*

Yoki mana bu baytda shoir “Men ham edim seningdek, sen ham boʻlursan meningdek” degan xalq maqoli mazmunidan foydalanib, betakror badiiy umumlashma chiqaradi:

*Daʼvoi ishq etib, gʻayr, Boburni ayb qilma –
Kim, men edim seningdek, sen boʻlgʻasen meningdek.*

Shoir baytga gʻayr – raqib obrazini olib kirgan. Gʻanimiga murojaat orqali bayt mazmunining taʼsirchanligini oshirishga, irsoli masal vositasida badiiyatni yuksaltirishga erishgan.

Ushbu fikrlar Boburning milliy urf-udumlarni, xalq turmush tarzini, eng muhimi, hayot falsafasini teran anglagan va lirik asarlarida betakror ifodalagan shoir ekani isbotidir.

Poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi. Ushbu tamoyil, boshqacha aytganda, fikrni chinakamiga oʻzbekcha ifodalay olish maʼnosini anglatadi. Bobur lirikasi, bu jihatdan ham, tadqiqotlar uchun boy material bera oladi. Shoir turkiy tilning ifoda imkoniyati nechogʻliq keng ekanini teran his etgan, asarlarida asl turkiy soʻzlardan keng va mahorat bilan foydalana bilgan.

*Ne bilgʻaysen mening dardu gʻamim har soatu har dam –
Ki, husn usrukligidin oyu yil, ey oy, oyilmaysen.*

Bayt mazmuniga ochqich vazifasini oʻtovchi “usrukligidin” (*mastligidan - qavs ichidagi izohlar bizniki - N.J.*) hamda “oyilmaysen” (*hushingga kelmaysan*) soʻzlari Bobur sheʼriyatida ancha faol qoʻllangan sof turkiy tushunchalardir. Bu hol, oʻz navbatida, shoir fikrlarining toza oʻzbekcha ifodalanishini taʼminlagan.

“Boburnoma”da Andijonni taʼriflar ekan, “Eli turkdur. Shahri va bozorisida turkiy bilmas kishi yoʻqdur” [Bobur 2002: 34], deb yozganida buyuk adibning oʻzi mansub millatga muhabbati ham aks etgani yaqqol seziladi. Shuning uchun ham ulugʻ shoir lirik sheʼrlarida turkiy tilning ifoda imkoniyatidan toʻliq foydalangan.

Quyidagi g'azal matlai ham ijodkorning tafakkur yo'sini milliy ekani jihatidan qimmatlidir:

*Quyoshim har sorig'a azm qilsa, zarrae qolmon,
Ne uchunkim, agar ayrilsam ondin, kun ko'ra olmon.*

“Quyoshim” so‘zi ifodalagan istiora hamda ushbu so‘z bilan zarra tushunchasi orasidagi tazod baytning yuksak badiiyatini ta’minlagan. “Kun ko‘ra olmon” – ushbu chinakam o‘zbekcha ibora baytda ifodalangan mazmunning poetik xulosasini aks ettirishdan tashqari, milliy ruhni ifodalagani jihatidan ham alohida ahamiyatga ega.

Mana bu maqta’ baytda Bobur turkiy tilga bo‘lgan chuqur muhabbatini samimiy izhor etgan:

*Turklar xatti nasibing bo'lmasa, Bobur, ne tong,
Boburiy xatti emasdur, xatti sig'noqiy durur.*

Ushbu baytda buyuk mutafakkir turkiy yozuvning nasib bo‘lmaganidan, ya’ni amaliyotda keng istifoda etilmaganidan o‘kinchini ifodalagan. “Xatti Boburiy”ni ixtiro qilgani sababi ham shunda bo‘lgani ma’lum. Baytda aytilgan xatti sig‘noqiy esa “Turkistonda keng qo‘llangan arab yozuvining bir turi” [Rahmonov 2008: 50] ma’nosini anglatadi.

Bobur lirikasida hazrat Alisher Navoiy “turk shuarosi xossasi” [Navoiy 2011: 520] sifatida ta’riflagan tuyuq janrining ham yuksak poetik namunalari bor. Mana, shoirning milliy tafakkur va millat ruhi yorqin namoyon bo‘lgan tuyuqlaridan biri:

*Ne balo, biyikturur davlat tog'i,
Ko'hi g'amni ne bilur davlattog'i?
Himmate tut, dog'i davlat istagil,
Himmating bo'lsa, bo'lur davlat tog'i.*

Ushbu tuyuqda tajnis bo‘lib kelgan “davlat tog‘i” so‘zi birinchi misrada “davlatning ulug‘vorligi”, ikkinchi satrda “davlatga erishgan kishi”, to‘rtinchi qatorda esa “davlat ham” ma’nolarida kelgan. Shoir teran falsafiy mazmunni tajnisi tomm orqali go‘zal badiiy shaklda ifoda etgan. Shuning barobarida, ijodkor ushbu tuyuqda turkiy millatga xos baland himmatni ulug‘lagan.

Mana bu tuyuqda ham o‘zbek tilining ifoda imkoniyati nechog‘liq katta ekani mahorat bilan ifodalangan:

*Vasldin so'z derga yo'q yoro manga,
Hajr aro rahm aylagil, yoro, manga.
O'qung etti ko'p yomon yoro manga,
Marhami lutfung bila yoro manga.*

Ushbu tuyuqning har to‘rt misrasida tajnis qo‘llangan. “Yoro” so‘zi birinchi satrda “hol, quvvat”, ikkinchi misrada “ey yor”, uchinchi qatorda “yara, jarohat”, to‘rtinchi satrda esa “yaragin” ma’nolarini ifodalab kelgan. Ushbu tuyuq ham Boburning so‘z qo‘llash mahorati baland ekanidan, poetik fikrni o‘quvchining qalbiga yetib boradigan darajada chinakam o‘zbekcha ifodalay olishidan dalolat beradi.

Zamonaviy she’riyatimiz darg‘alaridan bo‘lgan O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov milliy ruh ifodasining zarurati haqida

mana bunday yozgan edi: “Mayli, buyuklarga intilish bo‘lsin, jahonning, bashariyatning eng ilg‘or fikrlariga oshnolik bo‘lsin, G‘arb, Yevropa, Amerika deysizmi, mayli Lotin Amerikasi, mayli Oymi, Marsmi.... darajasida fikrlashsin, lekin o‘zbek fikrlasin, o‘zbekcha fikrlasin! Agar shu “kichkinagina” shart bajarilsa, qolganiga, albatta erishamiz” [Oripov 2005: 178]. Zahiriddin Bobur lirik she‘rlarida teran hayot falsafasini milliy tafakkur asosida, sof o‘zbekcha ifodalagani bugungi zamon shoiru adiblari uchun ham namuna bo‘la olishini ta’kidlash kerak.

Badiiy obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi. Zahiriddin Bobur bu jihatdan ham yuksak badiiy natijalarga erishgan. Quyidagi baytda “it” obrazi, birinchidan mukammal poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, ikkinchidan, muallif konsepsiyasini ifodalagan chinakam o‘zbekcha “yitgaymen” so‘zi orqali mazmunning ta’sir kuchi bir necha baravar oshuviga erishilgan:

*Itindurmen, soching zanjirini bo‘ynung‘a mahkam qil –
Ki, vodiysi firoqing ichra, qo‘rqarmenki, yitgaymen.*

“Soching zanjiri”, “vodiysi firoq” birikmalari ifoda etgan istiora, “itindurmen” va “yitgaymen” so‘zlari asosidagi tajnis oshiq ruhiyatining foje tasviri orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida poetik obrazni yaqqol namoyon eta olgani shoirning tengsiz mahoratiga dalil bo‘la oladi. Bo‘yniga yor sochidan zanjir bog‘lanib, firoq vodiysi uzra yitib borayotgan it obrazi – lirik qahramon tuyg‘ularini bu darajada aniq va ta’sirchan suvratlantirish uchun ijodkor nechog‘liq yuksak salohiyat egasi bo‘lmog‘i zarur!

G‘azalning maqta’ baytida ushbu ta’sirchan badiiy obraz ohorli va teran poetik umumlashma orqali xulosalangan:

*Muyassar bo‘lmasa boshimni qo‘ymoq‘lig‘ ayog‘ig‘a,
Boshimni olib, ey Bobur, ayog‘ yetganicha ketgaymen!*

Yor oyog‘iga bosh qo‘ymoq umidi – oshiqning ishq tavrida nechog‘liq sodiq ekani isboti ekanidan tashqari, tuyg‘u izhorining sof o‘zbekcha ekani jihatidan ham qimmatlidir. Agar ana shu orzusi muyassar bo‘lmasa, oshiqning boshini olib oyoq yetganicha ketmog‘i – fikrni milliy ruh uyg‘unligida bu darajada mukammal ifodalash uchun faqat Bobur bo‘lish kerak!

Buyuk shoir umrining aksar qismida yoru diyor firoqida yashadi. Temuriy shahzodalar o‘rtasida ittifoq yo‘qligi, o‘zaro toju taxt talashuvlari oqibatida buyuk Sohibqiron Amir Temur asos solgan muazzam saltanat tanazzulga yuz tutayotganidan iztirob chekdi. Hindistonda ulkan davlatga asos solib, temuriylar hukmronligining umrini qariyb uch yarim asrga uzaytirishga muvaffaq bo‘ldi. Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida aytilganidek: “(Bobur) chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi. Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatlariga ega bo‘lib, uni saqlab qolishda ko‘p sa’y-harakatlar va jonini ayamadan jahdu jadallar ko‘rsatdi. Mardona to‘qnashuvlar qildi, ammo taqdir o‘qig‘a tadbir qalqoni dosh bera olmagach, biror natija chiqara olmadi... Mulk qo‘ldan ketgach, tab’ to‘tisi hind shakkaristoniga mayl bildirib, dengiz mavjli e’tiborini Hindiston mamlakatlarini egallashga sarf qilib, qorong‘ulik o‘lkasini quyosh yog‘duli qilichi shu’lasi nurlari bilan charog‘on etib, humoyun tole’ tufayli

muxolif lashkariga shikast yetkazib, feruz baxt bilan shohlikning feruz taxtiga hazrat Dehlida komron o'lturdi" [Nisoriy 1993: 51, 52].

Shoh Bobur hayotida kechgan ana shu murakkab va ziddiyatli voqelik shoir Boburning mana bu baytida ta'sirchan tarzda obrazli ifodalangan:

*Nekim taqdir bo'lsa – ul bo'lur, tahqiq bilgaysen,
Erur jangu-jadal, ranju-riyozat barcha behuda.*

Bobur – buyuk qalb va ulkan ijodiy salohiyat egasi edi. Ahillik va ittifoq g'oyasi betakror badiiy talqin etilgan mana bu baytlari millat farzandlarini ulug' maqsad yo'lida birlashtirishga qaratilgan da'vat o'laroq barcha zamonlar uchun ham ibratlidir:

*Ahbob, yig' ilmoqni farog'at tutingiz,
Jam'iyatingiz borini davlat tutingiz.
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kuni g'animat tutingiz.*

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she'rlarida, ular qaysi janrda yozilgan bo'lmasin, milliy ruh ifodasi yetakchi o'rin tutadi. Ulug' mutafakkir she'riyatida millatning asl tabiati, siyrati mukammal darajada aks ettirilgan. Poetik mazmun milliy tafakkur vositasida o'ziga xos va ohorli talqin qilingan. Badiiy adabiyotning asosi bo'lgan poetik obrazlar milliy ifoda orqali mukammal suvratlantirilgan. Bobur lirikasini milliy ruh ifodasi nuqtai nazaridan yanada chuqur va ko'lamli o'rganish adabiyotshunoslikning istiqboldagi dolzarb vazifalaridandir.

Adabiyotlar:

1. Ал-Джахиз Абу Усмон Амр. Фазойили атрок. /Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. – Баку, 1993.
2. Алишер Навоий. Мухокамат ул-луғатайн. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Бобур, Захириддин Мухаммад. Ғарбинг Андижонийдур. Сайланма шеърлар. – Тошкент: Шарқ, 2008.
4. Jabborov Nurboy. Zahiriddin Bobur kamolotining axloqiy-ma'naviy asoslari. /Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan. Beynəlxalq elmi konfransin materiallari. – Bakı, 2018. – B. 70-80.
5. Нисорий, Насанхожа. Мазаккири ахбоб. – Тошкент: Халқ мероси, 1993.
6. Орипов, Абдулла. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат, 2005. – Б.178.
7. Рахмонов, Вахоб. Мумтоз сохир шеърят. / Бобур, Захириддин Мухаммад. Ғарбинг Андижонийдур. Сайланма шеърлар. – Тошкент: Шарқ, 2008. - Б. 5-22.

Yashar QOSIM,
filologiya fanlari doktori,
Ozarboyjon Milliy Ilmlar Akademiyasi,
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot
institutining bosh ilmiy xodimi

SHOHONA TUYĞULARNINQ POEZİYASI
(Shoh Zahiraddin Muhammad Bobur va Shoh İsmoyil
Xotoyi lirikasi misolida)

Müçərrəd: Məqələdə böyük özbək şairi Z.M.Baburun Azərbaycan klassik poeziyası ilə yaradıcılıq əlaqələrindən bəhs edilir. Dahi özbək şairi Ə.Nəvaidən sonrakı dövr türk poeziyasında baş verən bədii proseslər müqayisəli-tipoloji müstəvidə nəzərdən keçirilir. Z.M.Baburun XVI əsr Azərbaycan klassik şeirinin bənzərsiz nümayəndələri Şah İsmayıl Xətayi və M.Füzulinin poetik dünyası ilə yaxınlığından söhbət açılır. Xətayinin və Baburun məşhur qəzəllərindəki bədii inikas uyğunluqlarına və tematik paralellərə diqqət yönəldilir. Azərbaycan və Özbəkistan ədəbiyyatşünaslığında ilk dəfə olaraq, orta əsrlər dövrü poeziyamızda klassik romantizm və klassik realizmin qarşılıqlı münasibətlərindən bəhs edilir, həm də bu böyük sənətkarların bədii irsinə müqayisəli elmi-nəzəri təhlil aspektindən yanaşılır.

Açar sözlər: klassik poetik üslub, klassik romantizm, realist təsvir üslubu, Ə.Nəvai, Z.M.Babur, Şah İsmayıl Xətayi, M.Füzuli.

Abstract: The article examines the creative connections of the great Uzbek poet Z.M. Babur with Azerbaijani classical poetry. On a comparative typological level, the article examines the artistic processes that took place in Turkic poetry after the great Uzbek poet A. Navoi. It is about the proximity of Z.M. Babur to the poetic world of Shah Ismail Khatai and M. Fuzuli, unique representatives of the classical poetry of Azerbaijan in the 16th century. Attention is drawn to the similarities and thematic parallels in the famous gazelles of Khatai and Babur. For the first time in the literary studies of Azerbaijan and Uzbekistan, the relationship between classical romanticism and classical realism in our medieval poetry is considered and is also discussed from the point of view of a comparative scientific and theoretical analysis of the artistic heritage of these great artists.

Key words: classical poetic style, classical romanticism, realistic style of description, A. Navai, Z.M. Babur, Shah Ismail Khatai, M. Fuzuli.

Zahirəddin Məhəmməd Babur türk xalqlarının poeziyası tarixində özünəməxsus mövqə qazanmış qüdrətli sənətkarlardan biridir. Əlişir Nəvaidən sonrakı dövr türk poeziyası tarixinə nəzər salsaq, üç böyük ədəbi şəxsiyyətin poetik yaradıcılığı nəzər-diqqətimizi cəlb etdiyini müşahidə edirik; Şah İsmayıl Xətayi, Zahirəddin Məhəmməd Babur və Məhəmməd Füzuli. Maraqlıdır ki, Ə.Nəvaidən öncəki dövr türkdilli poeziya hansı mühüm və bənzər ədəbi vəzifələri yerinə yetirmişdisə, Ə.Nəvaidən sonrakı dövr türk xalqları poeziyası da eynən o cür müştərək missiya və funksiyanı reallaşdırmalı olmuşdur. Bu baxımdan

yuxarıda qeyd etdiyimiz hər üç sənətkarın yaradıcılıq yolları və poetik üslubları arasında paralellər nəzərə çarpmaqdadır.

Əgər Əlişir Nəvainin qarşısında islam-əruz poetikası müstəvisində yeni bir türk şeir mədəniyyətini yaratmaq kimi möhtəşəm vəzifə dururdusa, ondan sonrakı dövr ədəbiyyatının nümayəndələri isə yeni türk şeiriyyəti sarayını daha da rəvnəqləndirmək və nəqşləndirmək işləri ilə məşğul idilər. Ə.Nəvai türk dilində klassik əruz poetikasının yüksək tələblərinə cavab verməyə qadir olan böyük və zəngin bir ədəbi miras bünyad etmişdi; bu nəhəng irs üç minə yaxın qəzəli, türk dilindəki ilk poetik epopeyanı – “Xəmsə”ni, onlarla elmi-nəsrî və tarixi əsərləri, təzkirələri özündə ehtiva edirdi. Z.M.Babur, Şah İsmayıl Xətayi və Məhəmməd Füzuli Yaxın Şərqi bir sıra böyük klassikləri ilə yanaşı və daha çox məhz bu poetik miras üzərində boy atmış və yüksəlmiş sənətkarlar idi. Yəni onları bir-birinə yaxınlaşdırən qarşılarındakı poetik məqsəd və vəzifələrin uyğunluğu ilə yanaşı, həm də bu sənətkarların mənşə və genezisindəki yaxınlıqlar, bənzərliklər idi. Onların hər üçü bilavasitə Ə.Nəvaidən nəşət etmişdilər. Amma başqa amilləri də nəzərə almaq lazımdır. Z.M.Babur da, Xətayi və Füzuli kimi, Nizami Gəncəvini özünün ulu ustadı sayırdı, eyni zamanda, Ə.Nəvaidən öncəki Azərbaycanın türkdilli klassikləri Seyid İmadəddin Nəsimi, Qazi Bürhanəddin və başqalarından da sənət dərslərini almışdı. Aydın olur ki, Ə.Nəvaidən sonrakı dövr poeziyasının hər üç möhtəşəm klassiki həm ədəbi-mənəvi mənşələrinə, həm də taleyin onlara nəsib etdiyi poetik missiyalarına görə bir-birlərinə son dərəcə yaxın və doğma şeiriyyət simaları idi.

Ə.Nəvaidən sonrakı dövr poeziyasında müşahidə olunan əsas ədəbi təmayüllərdən biri şeiriyyətdə bilavasitə həyatın nəfəsinin duyulması, müstəqim inikas tərzinin meydana çıxması və poetik müəyyənliyin, konkretliyin nəzərə çarpması idi. Yəni, klassik romantizm hüdudlarından kənara çıxmağa cəhd Z.M.Babur, Şah İsmayıl və M.Füzulinin əsərlərində bariz şəkildə əks etmişdir. Başqa sözlə, hələ XVI əsrin poetik örnəklərində də klassik romantizmlə yanaşı, əgər belə demək mümkünsə, “klassik realizm”in təzhürləri də nəzərə çarpmaqdadır. Bu məsələlərə müxtəlif aspektlərdən elmi-nəzəri yanaşmanı prof. M.Quluzadə (1) və M.P.Vaqif yaradıcılığının mötəbər tədqiqatçısı A.Dadaşzadənin (2) tədqiqatlarında müşahidə etmək mümkündür.

Zahirəddin Məhəmməd Baburun lirikasında klassik poetikanın əksər janrlarına rast gəlirik; Şairin zəmanəmizə qədər gəlib çatmış divanlarında qəzəllər, rübailər, tuyuqlar, qitələr, fərdlər, məsnəvilər yer almışdır. O, bu janrların hər birində kifayət qədər gözəl nümunələr yaratmış və bəzən isə heç zaman fəth olunmayacaq zirvələri fəth etmişdir. Z.M.Baburun poeziyasının özəlliyi və gözəlliyi yenə bundadır ki, biz bu şeirlərdə həm də yeni estetik məzmun və ovqatla qarşılaşırıq.

Z.M.Baburun lirikası formaca və şəkildə müxtəlif olduğu kimi, estetik mündəricəsinə və məzmununa, poetik hədəf və mövzularına görə də rəngbərəngdir. Şairin lirikasını bu nöqtəyi-nəzərdən aşağıdakı kimi təsnif etmək məqsədə müvafiqdir; 1. Sevgi lirikası. 2. Avtobiografik məzmunlu lirika. 3. Fəlsəfi məzmunlu və ümuminsani duyğular lirikası. 4. Təbiət və dünya gözəlliklərinin tərənnümü. 5. Şahanə duyğular şeiriyyəti. Baburun qeyd etdiyimiz və etmədiyimiz

tematik bölgülərə və təsnifata daxil olan şeirlərinin spesifik xüsusiyyətlərindən biri isə şairin qələm təcrübələrində realist mündəricənin və sırf fərdi, həyatı, ünvanlı yaşantıların özünə yer almasıdır. Yəni Ə.Nəvai poeziyasından fərqli olaraq, Z.M.Baburun və qeyd etdiyimiz şairlərin əsərlərində dünyəvilik və həyat faktlarının, hadisələrinin və insan duyğularının inikasında yeni poetik manera açıq-aşkar diqqəti cəlb etməkdədir.

Babur həyatın və taleyin zərbələrinə müqavimət göstərmək, yaşamaq və qalib gəlmək üçün sanki bütün varlığını səfərbər etmişdir. Məğlubiyyətlərə və ölümlərə sinə gərərək, son dərəcə həyatsevərlik nümayiş etdirən bənzərsiz şairin yaşantıları gələcək nəsillər üçün də misilsiz örnəklərdir:

Özünü, könül, eyş ilə tutmaq gərək,
Bizi unudanı unutmaq gərək.

Eyşü-tərəb gülbüninə su verib,
Qüssə nihalını qurutmaq gərək.

Hər şeyə qəm yemə, qəm çox durur,
Eyş ilə özünü ovutmaq gərək. (3, s. 73)

Şah İsmayıl Xətayinin bahar nəfəsli və yazın tərənnümünə həsr olunmuş bir sıra şeirlərini Z.M.Baburun aşağıdakı misraları ilə müqayisə etmək olar. Bu bədii nümunələr, ümumən, türk poeziya aləmində formalaşmağa başlayan yeni poetik eranın başlanğıcı, yeni estetik məzmunun uğurlu nişanələri idi. Böyük dərd və iztirabların vətəni olan Baburun qəlbi təkcə bu cəhətlərinə görə yox, həm də həyatsevərlik eşqinə, yazıb-yaratmaq, həyatdan sevinc duymaq və hətta şənlonə bilmək duyğularını özündə birləşdirdiyinə görə bugün də heyrət oyadır:

Yaz fəsli, yar vəsli, dostların söhbəti,
Şeir bəhsi, eşq dərdi, badənin keyfiyyəti,

Yaz fəslində çaxır içməyin özgə halı var,
Kimə bu nəşə müyəssər olsa, vardır dövləti.

Eşq dərdini çəkib, hər kim ki, tapsa vəsli yar,
Ol zaman bolğay unut yüzilki hicran şiddəti.

Dostların söhbətində nə xoş olar bəhsi-şair,
Ta bilinər hər kimin təbi-birlə haləti.

Gər bu üç işi müvafiq tapsan ol üç vaxt ilə,
Bundan artıq olammaz, Babur, cahanın işrəti. (3, s. 67)

Şah İsmayıl Xətayinin şahanə sevgi duyğuları ilə yanaşı təbiət mövzusunda yaratdığı gözəl sənət əsərləri ilə Baburun şeirləri arasındakı ovqat yaxınlığı, lirik "mən"lərin əhvali-ruhiyyəsidəki müştərəklik kifayət qədər qabarıqdır. Klassik poetikanın realist üsluba və ümumən, realizmə münasibətini obyektiv şəkildə dəyərləndirmək üçün bu cür şeir nümunələri olduqca gərəkli və qiymətlidir. Aşağıdakı bahar əhvali-ruhiyyəsi və yenilənən dünya, həyat eşqi ilə süslənmiş

misralar Xətayinin sanki mürəkkəb dini-mifoloji əfsanələr, rəvayətlər və hekayətlərdəki obrazlardan, rəmzlər və fəlsəfi işarələrdən yorulmuş lirik qəhrəmanın həyatın təbiidən təbii və məsum gözəllikləri ilə rastlaşarkən qəlbindən keçirdiyi heyrətamiz həyəcanların, mənəvi aram və ləzzətlərin ifadəsi idi. Başqa sözlə, Xətayinin lirik qəhrəmanı da, Baburun həyatsevər lirik “mən”i kimi, sanki real həyat gözəlliklərinin və insan nəşəsinin vəsfindən vəcdə gəlir.

Qış getdi, yenə bahar gəldi,
Gül bitdivü laləzar gəldi.
Quşlar qamusu fəğanə düşdü,
Eşq odu yenə bu canə düşdü.
Yer geydi qəbaya-xızırpuşan,
Cümlə dilə gəldi ləbxəmuşan.
Sərvin yenə dutdu damənin su,
Su üstə oxudu fəxtə gu-gu.
Gönçə dəhəni çəməndə xəndan,
Gülmaxdan ənar açıldı dəndan. (5, s. 245)

Böyük və həssas şair baharın insanı və dünyanı yeniləndirən, yerləri-göyləri təzələyən yaradıcı qüdrətini, onun nəfis və heyrətamiz rənglərini bir rəssam istedadı ilə təsvir edir. Yaz və yaradılış fəslinin həyat nəfəsli hənirini, bir-birindən gözəl və füsunkar səslərini isə bir nəğməkar, daha doğrusu, ilahi duyğularla köklənmiş bir bəstəkar kimi duyaraq, sözün, yazının əbədiyyətinə məharətlə çevirə bilmişdir. Əlişir Nəvai lirikası ilə müqayisədə Xətayi və Babur şeiriyyətində “Batin” və “Zahir” poeziyasının arasındakı nisbətlər, irfani şeirlərlə yanaşı real insani duyğuların tərənnümünə həsr olunmuş poetik nümunələrin kəmiyyət və keyfiyyətindəki fərqlər göz qabağındadır:

Bülbül oxudu sifati-hicran,
Dəryadə dür oldu əbri-neysan.
Durna uçuban həvayə düşdü,
Laçın aluban ovayə düşdü.
Alma ağacı dibində sayə
Tə'n eylər did bulutda ayə
Yaşın yerə tökdü əbri-neysan,
Bülbüllər oxudu səd hezaran.
Mey bəslədi jalə hər vərəqdə,
Türrac kitab oxur təbəqdə... (5, s. 246)

Xətayinin sevgi nəşəli və vüsəl ümidli şeirlərinə həmahəng olan, real insani eşq atəşində isinmiş nazlı və qəmzəli qəzəllərə Babur lirikasında da rast gəlirik. Baburun sevgi şeirlərində və intim lirikasında elə nümunələr vardır ki, cahan poeziyasının ən gözəl və ən məşhur nümunələri ilə müqayisə olunmağa, onlarla yanaşı durmağa layiqdir. Z.M.Babur şeiriyyətinin dünyəvi tərəvətini, gözəlliyini və nəfisliyini duymaq üçün onun “Yenə” rədifli qəzəlini oxumaq kifayətdir:

Saçının sövdası düşdü başıma başdan yenə,
Tiyrə oldu ruzigarım ol qara qaşdan yenə.
Yüz yamanlıq görüb ondan telbə oldun, ey könül,
Yaxşılığın gözləyərsən, ol pərivəşdən yenə.

Daş vurur ətfal mənə, evində fariq ol pəri,
Telbələr tək qışqırıram, hər zaman daşdan yenə.
Ayağım yetəncə Babur tək gedər idim, neynim,
Saçının sövdası düşdü başıma başdan yenə. (3, s. 37)

Z.M.Babur lirikasının özəl xüsusiyyətləri, təkrarsız estetik keyfiyyəti, xüsusən, ondakı dünyəvi şeir təmayülü ilə həmahənglik, Qazi Bürhanəddin, Mövlana Lütfi, Xətayi, Füzuli şeiriyyətindəki real yaşantıların, həyatı duyğuların tərənnümünə üstünlük verilməsi və daha da inkişaf etdirilməsi, ümumən, bizim klassik poetikaya münasibətimizin dəyişməsinə də təkan verir. Yəni, təkcə Ə.Nəvai və M.Füzuli şeiriyyətini deyil, ümumən, bütün klassik türk poeziyasını təsəvvüf libasında təsəvvür etməyi və klassik “məşuqəni” yalnız və yalnız göylərlə bağlı dərk edib, dəyərləndirmək təcrübəsini Z.M.Baburun sevgi lirikası Molla Pənah Vaqifdən çox-çox əvvəl inkar edib: “Qara zülfün fərağında pərişan ruzigarım var, Üzünün iştiaqında nə səbrü, nə qərarım var. Ləbin bağrımı qan etdi, gözümdən qan rəvan etdi, Niyə halım yaman etdi, mən ondan bir sorarım var. Cahandan mənə qəm olsa, ulusdan gər ələm olsa, Nə qəm yüz munca həm olsa, sənin tək qəmgüzarım var. Əgər müslihəm, ər müfsid və gər aşiqəm, ər abid, Nə işin var sənin, zahid, mənim ki, ixtiyarım var. Fəğanım aşdı bülbüldən, qəmi yox zərrə bu quldan, Bəs e Babur, oşəl güldən könüldə xarxarım var”. (3, s. 111)

Xətayinin və Baburun bir sıra şeirləri arasındakı yalnız poetik məzmun və ovqat yaxınlığı deyil, bəzən bu obrazların və bədii bənzətmələrin bir-birinə hədsiz oxşarlığı da oxucunu heyrləndirə bilər. Bu da hər iki qələm sahibinin dəst-xəttindəki, həm də estetik dünyagörüşündəki və həyat təcrübəsindəki uyğunluqlardan xəbər verir: “Açılıb iki saçı üzünə yayılmışlar, Yaruğ cahanı gözümə qaranğu qılmışlar. Çaxır bağır qanıdır barça¹ eşq əhlinə O da məlum ki, bu meydən dəmə ayılmışlar. Neynəsəm eyləmə, ey yar, eyb ki, məndə Cünuni-eşqü igidlik daim qatılmışlar. Səlahə xirəd əhli məni yaxın deyirlər, Görün ki, bax bu sözbazlar necə yanılmışlar. Neçün eşqini eldən gizlətmək, ey Babur, Çün halətini bütün aləm əhli bilmişlər”. (3, s.110)

Bu tendensiyalar Şah İsmayıl Xətayinin şeiriyyətində də hiss olunacaq dərəcədə görümlüdür. Böyük şairin yaradıcılığının müxtəlif dövrlərində qələmə alınmış əsərlərində qeyd etdiyimiz üslubi yenilənməni müşahidə etmək olar. XVI yüzilin dini-fəlsəfi və sufyanə ruh, motivlərlə yörgülüş poetik nümunələri ilə müqayisədə bu real sevgi yaşantılarının son dərəcə emosional və səmimi ifadəsi, duyğusal misraların yazılması və sevilməsi, şübhəsiz ki, bir yenilənmə ab-havasını meydana gətirirdi.

Qızıl gül, bağü bustanım, nə dersən?
Fəda olsun sənə canım, nə dersən?
Qərarü səbrü aramım tükəndi,
Kəsildi külli-fərmanım, nə dersən?
Əridi iliyim, qaldı sümüyüm,
Bu tənə tərək edər canım, nə dersən?
...Əgər yatsam min il topraq içində

¹ Barça – bütün, hamı

Dürüstdür əhdü peymanım, nə dersən?
Xətayi can ilə çün səni sevdi,
Sevən ölsünmü, sultanım, nə dersən? (5, s. 25)

Xətayinin “Gəlmədi” rədifli qəzəlində aşiqin səmimi duyğuları son dərəcə təbiiliyi və həyatiliyi ilə ruhumuzu ovsunlayır. Biz sanki bizdən 500 il əvvəl yaşamış bir klassikin deyil, çağdaş bir qələm sahibinin hiss-həyəcanları ilə çuğlaşır və onun duyğuları ilə yaşayırıq:

Dəmbədəm yol gözlərəm, ol sevgi yarım gəlmədi,
Qalmışam qış möhnətində, novbaharım gəlmədi.
Xeyli müddətdir ki, mən ta ayru düşdüm yardım,
Görmək üçün həddən ötdü intizarım, gəlmədi.
Ta ki, gördüm uyxuda mən ol pərişan zülfini,
Yerinə andan bəri səbrü qərarım gəlmədi.
İxtiyarım getdi əldən, canü dildən əl yudum,
Ol mənim canü könüldən ixtiyarım gəlmədi.
Xəstədir miskin Xətayi bir misali-əndəlib,
Hüsn bağında cəmalı gül'üzarım gəlmədi. (5, s. 194).

Sonralar M.Füzuli poeziyasında daha da dərinləşən və öz zirvəsinə çatan emosional və cazibədar lirik yaşantılar əslində ilk öncə Xətayi və Babur şeirlərində boy göstərməyə başlamışdır. Ə.Nəvainin dərin fəlsəfi və intellektual yönlü, mürəkkəb dini-mifoloji obrazlarla zəngin şeiriyyətinə nisbətən bu yeni poetik üslublu qələm təcrübələrində daha çox qədim türk şeir yoluna uyğun olaraq, bilavasitə həyatın və insanın real təsvirinə meyl güclü idi: “Getmə sən, eşqin ki, bir gənci-nihan əldən gedər, Bil ki, sən getsən yanımdan, təndə can əldən gedər. Qayıb oldu gül yüzün çeşmimdən, ey ruhi-rəvan, Qorxaram ki, sünbülü-ənbərfəşan əldən gedər. Candan oldum, ey pərivəş, möhnətindən tanriçün, Qıl tərəhhüm ki, bu cismi-natəvan əldən gedər. ...Basmadan hər yerə kim, bir dəm qədəm tutmaz qərar, Məskən eylə çün müşərrəfdir, məkan əldən gedər. Bu Xətayi, ey sənəm, bir dəm camalın görməsə, Taqət etməz də kim, ol ruhi-rəvan əldən gedər”. (5, s. 84)

Xətayinin cazibədar və şahanə məhəbbət dünyası ilə, aşağıda görəcəyimiz kimi, Baburun sevgi səltənəti arasında özünəməxsusluqlarla bərabər, həm də qəribə bir bənzərlik mövcuddur. Tarixən zamandaş olan, bir-birini yaxşı tanıyan, hər ikisi şah və şair olan, türk bədii təfəkkür tarixinə misilsiz yeniliklər bəxş edən bu qüdrətli ədəbi şəxsiyyətlər həyatda olduğu kimi, sənətdə də öz yolları ilə və özünəməxsus şücaətlə yüksəlmişlər. Aşağıdakı misralardakı yalnız böyük ürəyi və istedadı olan qələm sahiblərinin qəlbində yaşada biləcəyi hiss-həyəcanlar və təkrarsız yaşantılar Xətayinin və Baburun lirik aləmi üçün son dərəcə səciyyəvidir: “ Qara zülfin boynuna hindi düşdi, Sənin sevgin könülə indi düşdi. Əzəldən sevgini, var idi canda, Sən eylə sanmagil kim indi düşdi. Tuti yarım durub bağçaya gəzər, Utandı sərv ağacı endi, düşdi. ...Nə qayğım var rəqibin fitnəsindən? Eşitdim quyu qazan kəndi düşdi. Xətayi, sən güvənmə malə, gəncə, Neçələr malə, gəncə mindi, düşdi”. (5, s. 210).

Zahirəddin Məhəmməd Baburun faciə və ayrılıqlarla dolu həyat yolunu, onun böyük kədərini və həsrətlərini, bəzən də insan qəlbinin və dözümlünün fəvqündə duran iztirablarını müəyyən dərəcədə dərk etmək və dəyərləndirmək mümkündür.

Amma onun həyat sevgisini, dünyaya baxışını və xüsusən, intim duyğularını adi təsəvvür və təfəkkür tərəzində çəkmək, qiymətləndirmək mümkün deyil.

Ümumən, türk xalqları poeziyası tarixində, görkəmli Nəvaişünas alim Akif Azalın vurğuladığı kimi, iki əsr xüsusilə əlamətdardır; XV yüzil Əlişir Nəvai həzrətlərini, XVI əsr isə Zahirəddin Məhəmməd Babur, Şah İsmayıl Xətayi və Məhəmməd Füzulini söz sənəti aləminə bəxş etdiyinə görə poetik tariximizin qızıl səhifələridir. Onların yaradıcılığında dini-fəlsəfi üslubun və təsəvvüf motivlərinin mühüm yer tutması ilə yanaşı həm də dünyəvi ədəbiyyatın və ədəbi təmayüllərin üstünlük təşkil etməsi, başqa sözlə, “zahir şeirliyi” ənənələri ilə qırılmaz surətdə bağlılıq da ümumtürk poeziyası tarixində bu sənətkarların özünəməxsus şərəfli yer tutmasını şərtləndirmişdir.

İSTİFADƏ EDİLMİŞ ƏDƏBİYYAT

1. Quluzadə M. Füzulinin lirikası. Bakı, “Elm”, 1965.
2. Dadaşzadə A. XVIII əsr Azərbaycan lirikası. Bakı, “Elm”, 1981.
3. Захириддин Мухаммад Бабур. Asarlar. Uch cildlik. I cild. Devon. Toshkent, Badii adabiyot nashriyoti, 1965.
4. Захириддин Мухаммад Бабур. Asarlar. Uch cildlik. II cild. Bobirnomi. Toshkent, Badii adabiyot nashriyoti, 1965.
5. Şah İsmayıl Xətayi. Əsərləri. Bakı, “Şərq-Qərb”, 2005, 384 səh.

Axmedova Shoir,
filologiya fanlari doktori,
BuxDU professori

GULBADANBEGİM VA RUMER GODEN

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz adibasi Rumer Godenning “Gulbadan” kitobi va uning bosh qahramoni temuriy malika, Boburmironing sevimli qizi Gulbadanbegim, u yaratgan “Humoyunnoma” asari haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: ingliz adibasi, Gulbadanbegim, tarixiy asar, malika, shoh va shoir, Bobur mirzo, boburiylar sulolasi.

Abstract. This article discusses the book “Gulbadan” by the English writer Rumer Goden and its main character, Gulbadan Begim, the beloved daughter of Timurid princess, Baburmirza, and the work "Humayunnoma" created by him.

Key words: English literature, Gulbadan Begim, historical work, queen, king and poet, Babur Mirza, Babur dynasty.

Taniqli ingliz adibasi, shoir, jurnalist Rumer Goden tarixiy asarlar muallifi sifatida ham mashhur. Uning Boburshohning qizi, temuriy malika Gulbadanbegimning hayoti va ijodiga bagʻishlangan kitobi boburiylar hayotini oʻrganishda muhim manbalardan boʻlib xizmat qiladi. “Bobur bunyod etgan davlat,

garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sultoni — buyuk imperator darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o'lkani mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi", deb yozadi haqli ravishda Margaret Rumer Goden o'zining "Gulbadan" nomli kitobida.

Gulbadanbegim — O'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi yagona tarixchi ayol, "Humoyunnoma" tarixiy asarining muallifi, Amir Temurning avlodi, Boburning kenja qizi. Gulbadanbegim o'zining jiyani bo'lmish Akbarshohning iltimosiga ko'ra, 1585-87 yillarda otasi hamda o'gay akasi, Akbarning otasi Humoyun haqidagi xotiralariga bag'ishlangan fors tilidagi "Humoyunnoma" nomli asarni yozadi. Gulbadanbegimning mazkur asari ayol kishi tomonidan yozilgan Hindistonning yagona o'rta asr yilnomasidir. "Humoyunnoma" o'z davriga oid ko'plab materiallarni o'z ichiga oladi. [<https://www.uzanalytics.com/tarix/4342/>]

Ana shu noyob asarning muallifi haqida ingliz adibasi Margaret Rumer Goden (1904 — 1998) 1980 yili "Gulbadan" nomli to'rt qismdan iborat kitob yozdi:

1. Boburshoh davri.
2. Boburshoh.
3. Humoyun hukmdorligi davri.
4. Akbar hukmdorligi davri.

Asarda qaysi shoh davri bo'lmasin, nima haqda so'z ketmasin, asosiy timsol Gulbadanbegim, uning hayotiga oid tafsilotlar muallifning diqqat markazida turadi. Muallif musulima ayollar taomillarga yoshlikdan rioya qilishlarini alohida ta'kidlaydi. Shu ma'noda, u o'z qahramonining Boburga o'xshash tabiatini doim nazarda tutadi. Kitob mutolaa qilganini, Qur'oni karimni bilishini, besh vaqt namozni ado etib, e'tiqodining mustahkam bo'lishiga nechog'li intilganini o'rni-o'rnida bayon etadi [<https://www.uzanalytics.com/tarix/>].

Eng avvalo, muallif temuriy malika haqida samimiylik va hurmat bilan qalam tebratganini alohida ta'kidlash lozim: "U ertaklarda uchraydigan afsonaviy qahramonlarga xos nafis ism- Gulbadan degan go'zal bir noma bilan atalardi. Umrining to'fonli va shiddatli damlarida ham u o'zining "Gulbadan"ligini saqlab qolgan mo'tabar bir inson edi.

Gulbadan iymoni butun, taqvodor musulima edi" [Goden.2007:6].

Temuriy malikaga bo'lgan ana shunday ehtirom asarda oxirigacha davom etadi.

Mohimbegim (Boburning katta xotini) Kobuldan Ograga kelishida birga bo'lgan Gulbadanning jajji qiz bo'lishiga qaramay, xotirasini hayajonli kuzatuvlar bilan to'ldirib borganini asarda ta'sirli ifodalangan. Boburning Mohimbegim istiqboliga chiqqani, otining jilovidan tutib, uyiga yetguncha piyoda kelgani haqidagi lavha Hindistonda e'lon qilingan ingliz tilidagi bir maqolada: "Bu holat uning jentelmenligini ko'rsatadi", deya talqin etilgan edi. Bu talqin, bir tomondan, Boburning Mohimbegimga mehr-muhabbatini ifodalasa, ikkinchi tomondan, Bobur shaxsiyatidagi oliyjanoblikni, sadoqatli ayolga muruvvatli bo'lishdek fazilatlarini namoyon qiladi [G'aniyeva, 2008].

"Humoyunnoma"da "Boburnoma"da uchramaydigan shunday hikoyalar ham borki, ularda Gulbadanbegimning o'ziga xos ilm-idroki salmog'ining bezagi

bo‘lmish ta’sirchan qalbining harorati sezilib turadi. Masalan, u o‘zining Boburning katta xotini Mohimbegim bilan birga Kobuldan Agraga kelishi tarixi haqida to‘xtab, shu jummalarni yozadi: «Rano Sango fathidan bir yil o‘tgach, onam hazratlari — Mohimbegim Kobuldan Hindistonga keldilar. Men ham podshoh bobomni ko‘rgani, u kishi bilan birga onalarimdan oldin keldim. Onam hazratlari ko‘lga yetganlarida, podshoh hazratlari uch otlik muhofa yubordilar. Biz ko‘ldan Agra tomon tez yo‘l oldik, podshoh hazratlari bizni Jaloliy ko‘lida uchratishni mo‘ljallagan edilar. Nomozshom payti bir kishi kelib: “Hazratni ikki kurva narida qoldirib keldim”, dedi. Podshoh bobom hazratlari to‘t ot keltirgunlaricha toqat qilmay, piyoda yo‘lga tushib, Nincha Mohim uyi oldida biz bilan uchrashdilar. Onam hazratlari otdan tushmoqchi bo‘ldilar, lekin podshoh bobom kutmasdan o‘zlari onamning otlari jilovidan ushlab, o‘z uylarigacha kelguncha piyoda keldilar.

Onam hazratlari podshoh bobomning oldiga kelganlarida menga, kunduzi kelib hazrat bilan uchrashgin, deb buyurdilar...”

“Humoyunnoma”ning Zahiriddin Bobur davriga bag‘ishlangan qismi Bobur vafoti voqealari bilan yakunlanadi. Gulbadanbegim ko‘zi to‘la yosh, alam to‘la qalbi zardobi bilan otasining vafoti tarixini yozar ekan, shu mudhish voqeaning ro‘y berayotgan daqiqasida otasi o‘limi arafasida qadrdonlari, qarindosh-urug‘lari, oila a‘zolarining kechirgan musibat va yurak dardlarini shunday bayon qiladiki, bu satrlarni o‘qiyotgan har bir kishi, xuddi o‘sha daqiqalarda shaxsan o‘zi ishtirok etayotgandek his qiladi. Bunday yuksak mahorat faqat Gulbadanbegimning o‘zigagina xosdir. Ingliz adibasi asardagi ana shu jihatlarga ham e’tibor qaratadi.

Aql-zakovat, ziyarak ta’b va tafakkur, chuqur ilm va unumli mehnat hosili — “Humoyunnoma” Gulbadanbegimning nomini abadiylashtirdi. U ayol kishi bo‘lishiga qaramasdan, Zahiriddin Boburning haqiqiy farzandi ekanligini jahonga namoyon qilgan O‘rta Sharq olimasidir [Azimjonova, 1990].

Xulosa qilib aytganda, haqiqatan ham ham “Gulbadan” asarini o‘qir ekanmiz, noyob iste’dod va aql-zakovat sohibasi malika Gulbadanbegimning nurli siymosi kitobxon ko‘z oldida yorqin gavdalanadi. Ilmiy-ommabop usulda yozilgan mazkur asar o‘quvchini boburiylar tarixiga qiziqtirish bilan birga Gulbadanbegimning nurli qalami bilan tasvirlangan xotiranoma orqali qalbimizda bu aqlli va latofatli malikaga nisbatan mehr tuyg‘ularini uyg‘otishi tabiiydir.

Adabiyotlar:

1. Азимжонова С. Гулбаданбегим (1990) “Гулистон” журнали, 1990 йил, 11-сон. <https://ziyouz.uz/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/sabohat-azimjonova-gulbadanbegim-1990/>
2. Ахмедова Ш. Развитие бабуроведение в Бухаре//“Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность”. Международной научно практическая конференция. Москва, 2020, 28 феврал.
3. Ахмедова Ш. Бобуршуносликдаги йирик тадқиқот хусусида//“Захириддин Мухаммад Бобур ҳаёти ва меросини ўрганиш

дунё талқинида” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий конференция. Тошкент. 2021.77-81 бетлар.

4. Бобур ҳаёти ва гендер тенглик масаласи// Асрлар ичра порлаган сиймо // З.М.Бобур таваллудининг 540 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. Андижон. 2023. 97-103-бетлар.
5. Румер Годен. Гулбадан. Тошкент. «Шарқ», 2007. Б.175.
6. Ғаниева С. “Ҳар кимки, мени сўрса, саломимни дегил!»// «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 14 Август . 2008 йил.
7. <https://www.uzanalytics.com/tarix/4342/>.
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/gulbadanbegim-har-kimkimeni-sorsasalomimni-degil.html>.

Qobilov Usmon,
filologiya fanlari doktori, Sharof
Rashidov nomidagi SamDU professori

BOBUR MUMTOZ SHE’RIYATIDA ILOHIY, ADABIY VA TARIXIY SIYMOLAR OBRAZLARI TALQINIGA DOIR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va o‘zbek mumtoz she’riyati obrazlar silsilasi an’anasining Zahiriddin Muhakmmad Bobur she’riyatidagi badiiy ifodasi haqida fikr yuritiladi. Unda Bobur lirikasida tasvir etilgan ilohiy, adabiy va tarixiy timsollar talqini masalasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Bobur she’riyati, an’ana va yangilik, obraz va timsol, ilohiy obraz, adabiy va tarixiy timsol, tahlil va talqin.

Annotation: This article talks about the artistic embodiment of the tradition of Eastern and Uzbek classical poetry of a number of images in the poetry of Zahiriddin Muhammad Babur. The problem of interpretation of the divine, literary and historical symbols depicted in the lyrics of Babur is revealed.

Keys words: Babur's poetry, tradition and innovation, image and symbol, divine image, literary and historical symbol, analysis and interpretation.

Sharq mumtoz adabiyoti milliy an’analari asosida ijod etgan ulug‘ shoir Zahiriddin Muhammad Bobur betakror shaxsiyat va siyosiy arbob sifatida jahon madaniyati taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. U butun hayoti, ijtimoiy faoliyati, fenomenlik siymosi va badiiy ijodiyoti bilan dunyo tarixida alohida hodisa hisoblanadi. Bobur haqida gap ketganda, odatda, uning bobomeros va odil shohlik maqomi bilan o‘lmas xotiralari mahsuli “Boburnoma” hamda mumtoz she’riyati tilga olinadi. Gap shundaki, Boburshoh bilan Boburinson, Boburolim bilan Boburshoir – bularning barchasi barkamol Boburodam siymosidan, komil qalb sohibligidan kelib chiqadi. Shu o‘rinda aytish kerakki, Bobur ijodi salaflari va zamondoshlari bilan bir adabiy an’ana kasb etadi. Chunonchi she’riyati janrlari (g‘azallar, ruboiylar, tuyuqlar, qit‘a va masnaviylar...), obraz-timsollari, mavzu-mundariyasi bilan ham ana o‘sha an’analarning o‘ziga xos ijodiy uslublar bilan

talqin etishida ko‘rinadi. Albatta, Zahiriddin Muhammad Bobur tarbiyasida ham, ijodida ham o‘sha muazzam Sharq madaniy-ma‘rifiy hayoti saboqlari mavjud edi. Bu uning ulkan iste‘dodini, epik va lirik ijod olamining ulug‘vorligini ta‘minlaganligi haqiqatdir. Ayniqsa, Bobur she‘riyatida bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Mavridi kelganda aytish lozimki, Sharq, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari uchun muqaddas manbalar Qur‘oni Karim, Hadisi Sharif va umuman islom madaniyati mahsuli bo‘lgan tafsir, ta‘vil, nabiylik va tasavvuf ta‘limoti an‘analari, anbiyo va avliyolar qissalari, adab va adabiyot ilmi kabilar doimiy ehtiyoj o‘laroq xizmat qilganligi, doimiy saboq bo‘lganligi ma‘lumdir. Xuddi shu jihatlar Boburning ham oqil shaxs va donishmand siymo sifatida shakllanishiga olib kelgan. Bizning fikrimizcha, Boburning adolatli shohligi ham, benazir shoirliги ham uning o‘zligiga aylangan ilmu urfoni, ko‘ngli va ruhiyati oziqlangan sharqona milliy ma‘rifat tufaylidir. Ma‘lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy ijoddagi mahorati mumtoz she‘riyat-lirikada teran namoyon bo‘ladi. U tufha qilgan she‘riyat bisoti garchi ayrim salaf va zamondosh ijodkorlar singari miqdor jihatlardan katta ko‘lam kasb etmagan bo‘lsa-da, mohiyat va mazmun jihatdan o‘zi bir davrni, o‘ziga xos ijod olamini tashkil qiladi. Shu ma‘noda o‘zi singari dunyo adabiyotidan chuqur o‘rin olgan ko‘plab ijodkorlar peshqadami hisoblanadi. Keyingi yillar o‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz she‘riyat poetikasiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlarda mumtoz she‘riyat obrazlar silsilasi alohida tasnif asosida o‘rganildi. Ayni tadqiqotlarda e‘tirof etilgan mumtoz she‘riyat timsol-obrazlarining ilohiy, adabiy va tarixiy tiplari, ayniqsa, e‘tiborni o‘ziga tortadi. Xuddi shu jihat Bobur she‘riyatiga ham xos bo‘lib, unda hajm-miqdor nuqtai nazaridan kamroq bo‘lsa ham, badiiyat va mazmuniga ko‘ra shoir lirikasi tabiatini belgilab berishda muhim o‘rin egallaydigan shu tip obrazlar talqin qilinadi. Shu ma‘noda aytish lozimki, mumtoz she‘riyatda birinchi navbatda nabiy siymolar badiiy timsollari talqiniga e‘tibor qaratiladi. Bunda Sharq-islom, xususan, o‘zbek mumtoz she‘riyatida murojaat etilgan Qur‘oni Karimda nomlari va qissalari zikr etilgan payg‘ambar shaxslar talmehi nafaqat she‘riyat poetik jozibadorligi, balki uning umumbashariyligi, qimmatini va abadiyatini ham belgilaydi. Bu masala talqin etilishida Alisher Navoiy ijodidek buyuk bir hodisa jahon she‘riyatida uchramaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham Alisher Navoiyga zamondosh shoir sifatida ayni an‘anaga hamohang satrlar bitganligi ko‘rinadi. Biroq salmoq nuqtai nazaridan salaf shoirlarga nisbatan Bobur lirikasida masala talqini farqlidir. Bu faqat shoir she‘riyatida nabiy siymolar timsollari tavsifi masalasidagina emas, balki umuman ilohiy-irfoniy mavzular talqinida namoyon bo‘ladi. Bizning nazarimizda, Bobur she‘riyatidagi ayni jihat uning shohligi, ya‘ni dunyoviy muammolar girdobida yashaganligi bilan ham bog‘liqdek ko‘rinadi. Chunki dunyoni hayratga solgan “Boburnoma” asari ham birinchi navbatda realizm va realistik uslub kashfiyoti sifatida yaratilganligi bilan olamshumullik kasb etgan edi. Bundan tashqari Bobur mansub turkona adabiyotning Sharq mumtoz adabiyotiga nisbatan o‘ziga xosligi ham mana shu uslubga monandligi bilan ajralib turadi. Nazarimizda, shunga ko‘ra Bobur she‘riy olami badiiyatida ham ahli nubuvvat timsollari kam uchraydi. Shu o‘rinda yana bir masalani aytib o‘tishimiz kerak bo‘ladiki, garchi islom manbalarida 124 ming payg‘ambar

siymolar xalqasi haqida gap borsa-da, shulardan Qur'oni Karimda 25 tasi zikr etiladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ular asosan ahli kitob va mursal payg'ambarlar hisoblanadi. Xuddi shunday jahon badiiy tafakkurining noyob yodgorliklari bo'lgan "qissas-ul anbiyolar"da ham ayni raqamlardagi payg'ambarlar qissalari to'laqonli ravishda darj etiladi. Biroq mumtoz she'riyatda ularning barchasi ham lirik tuyg'ular ifodasi uchun tamsil etilmaganligiga duch kelamiz. Misol uchun Alisher Navoiy lirikasida payg'ambar siymolardan 12 nafari badiiy tavsifi keltiriladi. Chunki lirika o'z nomi bilan hissiyot, tuyg'u ifodasi sanaladi, uning nasrdan farqli o'ziga xos jihatlari mavjuddir. Endi masalaga qaytilsa, Bobur she'riyatida ham bir qator baytlarda nabiy siymolar timsollari orqali poetik manzara yaratish hodisasi uchraydi. Biroq o'zbek adabiyotining boshqa mumtoz ijodkorlariga qaraganda ancha Bobur lirikasi samarali qo'llanmaydi. Buning bir sababi esa Bobur kutilmagan darajada realistik uslub ijodkori ekanligi bilan ham bog'lanadi. Masalan, shoir Boburning "borida" radifli g'azalida Xizr va Masih alayhissalom bilan bog'liq holatga ramziy ishora etuvchi satrlar bitilganligining guvohi bo'lamiz:

Kim Xizr suyin og'izlag'ay labingning qoshida?

Kim Masih alfozidin degay kaloming borida?!

Bu satrlarda, albatta, ma'shuqa va uning "labi", "kalomi" tavsifi yuksak san'atkorlik bilan berilgan. Bunda "lab" va "kalom" umumlashma obraz bo'lib, Haqning mangu va jonbag'sh so'zlariga ishora etiladi. Shoir ayni sifatni Xizr suvi (abadiylik bag'sh etadigan ichimlik) va Masih alfozi (jon bag'ishlaydigan so'zi) bilan tamsillashtiradi. Bu xususiyatlar mumtoz she'riy talqinlarda an'anaviy ravishda nubuvvat maqomi bilan monand tafsillarni hosil qiladi. Uning mohiyat e'tibori bilan ibtido olish masalalari haqida so'z yuritiladigan bo'lsa, alohida ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Bundan ko'rinadiki, Bobur ham o'z she'riyati lirik qahramoni sifatida ayni tuyg'u-kechinmalar og'ushida yashagandir. Shoir Bobur lirikasida boshqa satrlarda ham asosan Masih va Xizr timsollariga murojaat ko'zga tashlanadi. Shuni aytish kerakki, bu timsollar mumtoz she'riyat, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida nihoyatda sermahsul hisoblanadi va mumtoz she'riyatning g'oyaviy jihatlardan asos bo'lgan qalb va ruh uyg'oqligi, basirat masalalari badiiy talqini bilan bog'lanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatining diqqatgan sazavor yana bir tomoni shundaki, unda Sharq mumtoz she'riyati obrazlar qatlamining adabiy timsollar talqini an'anasida ham nihoyatda jozibador poetik manzaralar kashf etiladi. O'zbek mumtoz she'riyati tadqiqotchilari izlanishlariga ko'ra, bu she'riyat obraz-timsollar olamining ikkinchi bir yo'nalishi aynan adabiy timsollar badiiy talqinida ko'rinadi. Ulardan dastlabki ibtidosi nubuvvat tarixidan boshlanib, keyinchalik chuqur adabiy hodisaga aylangan Yusuf va Zulayho mavzusi, va ayniqsa, lirik talqinlarning markaziga ko'chgan Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro singari ishqiy juftliklar qissalariga ishora mumtoz she'riyatning o'zagini tashkil qiladi. Bu an'ana tasviri esa Bobur lirikasida ahli nubuvvatga nisbatan ham samarali bo'lib ko'rinadi. Misol uchun shoirning bir g'azalida lirik qahramon "bu nav' ish"(ishq)da Farhod va Majnun ham o'zlarini uningdek rasvo

qilmaganligini ta'kidlaydi va "bu ish" aqlli inson qilmaydigan yumush ekanligiga urg'u berib o'tadi.

*Qilmadi Farhodu Majnun o'zni rasvo men kibi —
Kim, bu nav'ish — ish emastur hech oqil qilg'udek.*

Aytish kerakki, birinchidan, mumtoz she'riyatda yuqorida qayd qilingan adabiy obrazlar toifasi alohida-alohida holatlar ko'proq tasvir etiladi, ikkinchidan, bir o'rinda parallel ravishdagi tasvirlari ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z she'riyatida asosan ikkinchi xil talqin an'anasini tanlayli va she'riyati badiiyati, mazmun-mundarijasini takomil darajasiga ko'taradi. Masalan, //Qani Shirin bila Layliki, sendin noz o'rgansa?Qani Farhodu Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam?!// yoki //Husnda ortuq agar bo'lsa yuzi Laylidin, Men taqi bormen aning ishqida yuz Majnuncha!// singari satrlarda shoir "Shirin va Layli sendan nozu ishvani o'rgansa, men Farhod va Majnunga ishqni o'rgatardim" yoki "Husnu malohatda yorning yuzi Laylining yuzidan ortiq bo'lsa, men ham uning ishqida yuzlab Majnunman", - degan fikrlarni ilgari suradi. Bunday jonbag'sh misralar Bobur she'riyatida bir muncha uchraydi va shoir lirikasining otashin lavha-manzaralarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sharq va o'zbek mumtoz she'riyatida tarixiy-afsonaviy shaxslar timsol-obrazlari talqini ham alohida qatlamni tashkil qiladi. Bu jihatlardan ham Bobur o'z lirikasida an'anaga sodiqdir. Gap shundaki, mumtoz she'riyat obraz-timsollar qatlamining ayni an'anasida asosan shohu sultonlar tarixiga murojaat etiladi. Shoh Bobur lirik she'riyatida ham bu hodisa mavjud, lekin mahsuldorlik nuqtai nazaridan ham, tarixiy shaxslar obrazi talqini an'analari jihatlaridan ham ancha farqlidir. Unda Maxmud va Ayoq, Hofiz, Salmon yoki davr shaxslari obrazlariga ham murojaatlar ko'zga tashlanadi. Bu obrazlar orqali ham Boburmirzo o'zining dard-hasratlari, qayg'u-alamlarini nihoyatda baland ruhda samimiy tasvirlab beradi.

Xulosa shundaki, Zahiriddin Muhammad Bobur ijtimoiy faoliyati bilan jahon tarixida arbob zot sifatida o'z o'rniga ega bo'lsa, milliy ruhdagi she'riyati bilan Sharq adabiy an'analari davomchisi hisoblanadi. Shu bilan birga Bobur ijodi va uning abadiyati bilan bog'liq masalalar adabiyot ahli uchun hali ko'plab izlanishlarni talab etadi. Uning shaxsiyati va ijodiyoti o'z davri ijtimoiy va adabiy Renesansi uchun qanday xizmat qilgan bo'lsa, avlodlar va bugungi jamiyat uchun ham xuddi shunday xizmatdadir.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 6- jild. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 812 b.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 7- jild. Layli va Majnun. Sab'ai sayyor. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 696 b.
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 8- jild. Saddi Iskandariy. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi mulki Ajam. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot

- va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 704 b.
4. Очилов Э. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013, - 134 б.
 5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи А.Абдуғафуров. – Тошкент: Фан, 1994, - 143 Б.
 6. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 542 б.
 7. Қобилов У.У. Нубувват ҳақиқати – бадий ижод руҳи. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021. - 321 б.
 8. Ҳасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. - 84 б.
 9. Ножиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.

Fayzulloev Baxtiyor,
filologiya fanlari nomzodi,
Bobojon G‘afurov nomidagi Xo‘jandDU
dotsenti, Zahriddin Muhammad Bobur
nomli xalqaro jamoat fondining
Tojikiston bo‘limi rahbari

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ADABIYOTSHUNOSLIK FAOLIYATIGA DOIR QISQACHA CHIZGILAR

Annotatsiya: Maqolada adabiy ta’limda Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotshunoslikka doir qarashlarini o‘rganish bilan bog‘liq masalalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘lar: adabiyotshunos, matnshunos, ta’lim, dastur, tabdil, kompozitsiya, an’ana, mahorat, g‘azal, tatabbu, vazn, qofiya, radif.

Annotation: The article discusses issues related to the study of the views of Z.M. Babur on literary criticism in literary education.

Key words: literary critic, textual critic, education, program, conversion, composition, tradition, talent, ghazal, tatabbu, meter, rhyme, ref.

Xalqimiz Amir Alisher Navoiy dahosi bilan qanchalik faxrlansa, Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan ham shu qadar iftixor qiladi. Boburning buyuk sarkarda, mumtoz so‘z ustasi, adabiyotshunos, fiqh ilmi bilimdoni, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni, xullas juda ko‘plab fanlar bo‘yicha qomusiy bilim egasi sifatida jahon adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning boy merosi bo‘yicha “ko‘p va xo‘b” ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, uning mavjud asarlari hozirga qadar dunyo olimlarini o‘ziga maftun etib kelmoqda. Tojikistondagi ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan o‘rta umumta’lim

maktablarida hamda oliy o'quv yurtlarida ham Z.M. Bobur hayoti va ijodi dastur doirasida o'rganiladi.

O'tmish mumtoz shoirlari badiiy tafakkur egasi bo'lish bilan birga ilmiy tafakkurda ham kamolot kasb etishgan. Jumladan, adabiyot ilmiga doir asarlar yaratish ham o'ziga xos an'analardan biri sanalgan. Muhimi shundaki, shohdan darveshga qadar she'riyatga, umuman so'zga katta ixlos hamda mas'uliyat bilan qaragan. Shuningdek, she'riyat ilmidan ham mukammal darajada ma'lumotga ega bo'lish zaruriy hol bo'lgan.

Adabiyot ilmiga doir amalga oshirilgan ishlarni nazar tashlanganda Bobur merosini ham dalil sifatida ko'rsatish mumkin. Agar "Boburnoma"ga e'tibor qilinsa, unda ellikka yaqin shoirlar nomining keltirilishi shunchaki oddiy qaydlardan iborat bo'lmasdan, balki mazkur qomusiy asarda ularning ijodiga o'rni-o'rni bilan olimona baho berilishi bugungi kunda ham muhim ilmiy qimmatga ega. Z.M. Bobur odatda o'zining nazariy qarashlarini asoslashda fors-tojik shoirlari merosiga ham murojaat etganki, bu qomusiy asarning badiiy – estetik hamda adabiy qimmatini va ta'sir-chanligini oshirib, uni qiziqarli va o'qishli bo'lishini ta'minlagan. Fikrimizcha, Z.M. Bobur ijodni o'rganish jarayonida asardagi shunday o'rinlarga ham e'tibor qaratish zamonaviy adabiy ta'limdagi muhim masalalar sirasiga kiradi.

Tanqli matnshunos olim Vahob Rahmonov ko'p yillardan buyon Bobur merosini tadqiq etib kelayotgan zahmatkash olimdan biridir. Uning bevosita sa'y harakati bilan "Boburnoma"ning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi tabdilini yaratilishi mumtoz adabiyotni anglash yo'lidagi muhim amaliy ishlardan bo'ldi deyish mumkin.[Bobur, 2008: 287] Tabdilga yozilgan so'zboshida Boburning adabiyotshunoslik faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilib, uning bu borada o'ta talabchanligi, shuningdek, ancha jiddiy va qattiqqo'l ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

O'zbek mumtoz she'riyatiga arab adabiyotidan kirib kelgan aruz she'riy tizimiga Alisher Navoiy alohida e'tibor qaratib, aruzga "sharif fan" deya baho bergan edi. Muhimi shundaki, o'zining barcha asarlarini shu she'riy tizim qoliplari asosida yaratib, o'zbek tilining ham katta imkoniyatlarga ega ekanligini o'z davridayoq amaliy jihatdan isbotlagan mutafakkir shoir bu ishidan faxrlanib shunday yozadi:

Olibmen taxti formoning'a oson,

Cherik chekmay Xitodin to Xuroson. [Navoiy A., 1991: 475]

yoki

Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam [Navoiy A., 1996: 29].

Alisher Navoiy aruz she'riy tizimiga doir alohida «Mezon-ul avzon» («Vaznlar o'lchovi») nomli asarining yaratilishi o'zbek tilida ijod qiluvchi shoirlar mushkulini yengillashtirdi [Navoiy A., 2000:43]. Bobur esa bu an'anani "Muxtasar" asarida davom ettirib, o'zbek aruzshunosligi munda-rijasini yanada mukammallashtirishga erisha oldi.

Boburning badiiyatga doir qarashlarini yanada aniqroq tasavvur etish uchun uni Alisher Navoiyning nazariy qarashlari bilan qiyosiy yo'sinda o'rganish yangi ilmiy xulosalarni yuzaga keltiradi. Navoiy yetuk adabiyotshunos sifatida shoirlar

asarlariga baho berganda o'ziga xos mezon bilan yondashganligini birgina o'zbek mumtoz shoiri Atoiy ijodiga bergan bahosi misolida ham kuzatish o'rinlidir. Unda Atoiyning Balx shahrida yashab ijod etgani, Ismoil ota avlodiga mansubligi, darveshvash (xoksor, faqir, xudojo'y) hamda xushxulq (fe'l-atvori yaxshi), munbasit (ochiq chehrali) kishi ekanligini ehtirom bilan tilga olib, shoir faqat o'zbek tilida asarlar yozganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Va nihoyat, "Ul sanamki..." deb boshlanuvchi g'azalidan bir bayt keltiradi-da, unga "qofiyasida aybg'inasi bor" deya munosabat bildiradi. [Navoiy A., 1997: 63] Darhaqiqat, baytda ohangdoshlik qofiyadosh so'zlar o'zagidagi raviy harflar-ning bir xil emasligi tufayli qofiyada "aybg'ina"si borligini Navoiy zukkolik hamda yuksak madaniyat bilan qayd etgan edi.

Z.M. Boburning adabiy nazariy qarashlari ham o'ziga xos ilmiy qimmatga ega, albatta. U 12 yoshida podshohlik taxtiga o'tiradi. Umrining katta qismini jangu jadallar bilan o'tkazdi. Umrining katta qismi ot ustida o'tdi. Tarixda mohir sarkarda sifatida nom qoldirdi. Shu jihatdan uning adabiy - nazariy qarashlarida ham shohlik mavqe'ining bevosita ta'siri bo'lishi tabiiy edi.

Quyidagi qiyosda bu yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy "Majolis-un nafois" asarida ko'plab shoirlar qatorida zamondoshi Hiloliyga to'xtalib: "Mavlono Hiloliy turk elidindur... hofizasi yaxshidir. Iste'dodi ham hofizasicha bordir...", deya uning shoirona iqti-doriga alohida baho bergan. [Navoiy A., 1997: 86]

Oradan yigirma yil o'tgach, Zahiriddin Muhammad Bobur yozadi: "Yana Hiloliy edi... G'azallari tekis, ajoyib... Juda kuchli hofizasi bor emish: o'ttiz qirq ming bayt yodida bor emish. Deydilarki, "Xamsa"ning aksar baytlari yodida bor..." [Bobur Z.M., 2008: 149]. Bobur fikrlarini davom ettirib, Hiloliyning "Shoh va Darvesh" asariga e'tibor qaratib, uning kompozitsiyasi bo'sh ekanligini ko'rsatib beradiki, bu uning muhim ilmiy - nazariy xarakterdagi xulosalardan biri deyish mumkin.

Hatto obrazlar mantig'i masalasida ham Hiloliyni ayab o'tirmasdan qattiq tanqid qiladi. Matn tabdili: "Bir dostoni bor, hafif bahrida, "Shoh va Darvesh" nomli. Garchi ba'zi baytlari juda ajoyib chiqqan bo'lsa-da, lekin dostonning mazmuni va ustaxonbandligi (kompozitsiyasi) juda bo'sh va xarobdur..." degan fikrni bildiradi. Shu o'rinda Bobur Sharq etikasi mezonlariga tayanib fikr yuritib, erkaklar o'rtasidagi oshiq-ma'shuqlikni qoralaydiki, uning bu qarashlari mantiqan asosli va to'g'ridir. Bu hol Boburning qattiqqo'l olim ekanligiga yana bir asos bo'ladi. Bunday xarakterli dalillar qomusiy asar "Boburnoma"da misollar yetarlicha.

Amir Shayxim Suhayliy (Shayximbek) haqidagi fikrlari esa bugungi kunda ham o'z ilmiy qimmatini yo'qotgan emas. Unda she'riy san'atlardan foydalanishda hamda she'riy asarlarni o'qishda mavjud me'yorni saqlashga jiddiy e'tibor qaratilgan. Shunisi xarakterliki, she'riy san'atlardan foydalanishda Boburning o'zi namuna bo'larli darajada ekanligini tabdil etilgan nashridan joy olgan quyidagi she'riy matn misolida kuzatish yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Aslida Bobur ijodida ham badiiy san'atlardan foydalanish shunchaki maqsad

bo'lmadan, balki badiiylikni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri ekanligi ijod tajribasidan yaxshi ma'lum .

Til aning hamdida qosirdur, bil,
Bil, aning hamdida qosirdur til.

Baytdagi “til” va “bil” so‘zlarining o‘zaro o‘rin almashib takrorlanishi evaziga tardi aks badiiy san’ati yuzaga kelgan. Baytni boshlab bergan “til” so‘zi baytning oxirida yana takror kelishi esa tasdir san’atining o‘ziga xos ko‘rsatkichidir. Yuqoridagi matnga yana jiddiyroq e’tibor qaratilsa, birinchi misra “bil” so‘zi bilan tugab, ikkinchi misra aynan shu so‘z bilan boshlangan. Bu esa, takror (takrir) badiiy san’atining tasbe deb ataluvchi namunasi sanaladi. Yana har ikki misrada ham “aning hamdida qosirdur” birikmasining qofiya so‘zlaridan oldin kelishi hisobiga hojib badiiy san’ati yuzaga kelganki, bu badiiy topilma she’rxonga o‘zgacha estetik zavq beradi.

“Til” va “bil” so‘zlarining bayt boshida o‘zaro ohangdoshligi muzoraa san’atining “xizmati” hisoblanadi. Shoir birgina baytda so‘zlarni shunchaki takror qilibgina qilmaydi, balki shoirona mahoratini ishga solib, ya’ni til Alloh hamdida (maqtovida) shunchaki bir vosita ekanligi, ayni chog‘da qosirligi - tegishli maqtovga yaroqsiz hamda ojiz ekanligi shoirona asoslanganligini mazkur bayt misolida kuzatish she’rxonlar nazariy bilimlarini yanada kengaytirishi, shubhasiz.

Baytdagi til, hamd, qosir so‘zlarining o‘zaro daxldorligi evaziga tanosib badiiy san’at yuzaga kelganiga ham e’tibor qaratiladi. Yana ajoyibi shundaki, baytdagi barcha so‘zlarning ostin va ustun holatda kelib, ohangdoshlikni yuzaga keltirishi tarse’ she’riy san’atining “xizmati” ekanligiga to‘xtalib, u baytning ta’sirchan bo‘lishi bilan birga ma’noning kuchayishiga xizmat qilganligi ma’lum bo‘ladi. Shu o‘rinda badiiylik ilmning bilimdoni Y.Is’hoqovning “...tarse’ oddiy so‘z o‘yini emas, balki fikr bilan ifodaning muayyan paytda muvozanat hosil qilishi natijasida yuzaga keladigan poetik usul bo‘lib, she’rning, umuman tasvirning musiqiy-ligi va ta’sirchanligini orttirishga yordam beradi”,- degan fikrini ham eslatib o‘tish har jihatdan foydalidir [Is’hoqov Y., 2014:320].

O‘rni kelganda ta’kidlash zarurki, Boburning nazariy qarashlarida mulohazatalab o‘rinlar ham yo‘q emas. Jumladan, “Boburnoma”da Navoiy haqida anchagina ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ularda mutafakkir shoir-ning nomi ehtirom bilan tilga olingan. Ammo birgina o‘rinda quyidagi fikrga ham duch kelamizki, bu kitobxonni jiddiyroq mushohadaga undaydi. Bobur yozadi: “Forsiy nazmda “Foniy” taxallusini qo‘llagan. Ba’zi bayt-lari yomon emasdur. Biroq aksari sust va bo’shtobdir...” [Bobur Z.M., 2008: 133]

Navoiy (Foniy) ning forsiyda yozilgan she’rlari haqiqatdan ham “sust va furud (bo’shtob)” mi? Bobur nima uchun bunday qat’iy xulosaga kelgan? Bobur qarashlarini inkor etuvchi dalillar mavjudmi?- degan savollar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi, tabiiy.

Boburning yuqoridagi fikri biror dalil bilan ko‘rsatilgan emas, albatta. Odatda har qanday ilmiy xulosaning qanchalik to‘g‘ri va mantqan asosli ekanligi misollar asosida isbotlanishi tajribadan yaxshi ma’lum. Bu- birinchidan. Ikkinchidan, mutafakkir shoirning forsiy nazmiyoti haqidagi yuqorida keltirilgan

ko'chirma shunchaki bir ma'lumot tarzda ekanligini nazardan qochirmaslik darkor.

Uchinchidan, mumtoz adabiyotda "Foniy" taxallusi bilan boshqa shoirlar ham ijod qilganligini e'tiborga olinsa, Bobur ularning asarlarini Navoiy (Foniy)ga nisbat bergan bo'lishi ham mumkin degan qarashlar ham mavjud. To'rtinchidan, Bobur umrining asosiy qismini jangu jadallarda o'tkazdi. Asosan, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar bilan birga ekanligini e'tiborga olsak, Navoiy esa ulkan hududni o'z tassarrufiga olgan Xuroson davlatda yashadi va u yerdagi mavjud adabiy muhitga karvonboshilik qildi. Manbalardan ma'lumki, Alisher juda yoshligidan forsiy she'riyat muhitida voyaga yetib, bu she'riyat bilan yaqindan oshno bo'lib, ustoz shoirlarning ko'plab she'riy baytlarini yod olganligi manbalardan ma'lum. Ilk ijodini ham aynan shu tilda boshlagan edi. Ijodining kamolot pallasida esa forsiyzabon salaflariga izdoshlik qilib, forsiy tilda go'zal va betakror tatabbu asarlar yaratib, zullisonaynlik an'anasini yuksak cho'qqiga ko'tarib, o'zbek mumtoz adabiyotida birinchi bo'lib, tatabbu-navislikni alohida adabiy yo'nalish darajasiga ko'tara oldi. [Fayzulloev B.,2021: 61]

Beshinchidan, Navoiy (Foniy) ning fors- tojik tilidagi asarlari ham yuksak mahorat bilan yaratilganligini uning quyidagi bayti slayd vositasida namoyish etilib, tahlil qilinsa, masalani yanada to'g'ri va mukammal anglashga yordam berishi, shubhasiz.

Nigori turki to'qikam kunad sad xona vayrona

Bad-on mi'qoni to'qikonavu chashmoni turkona. [Navoiy A., 2006: 8]

Mazmuni: Mening go'zal tojik nigorim tojiklarnikiga xos kipriklari va turklarnikiga o'xshash ko'zlari bilan yuzlarcha (qalb uyi) uyini vayron qiladi.

Yuqoridagi matla' bilan boshlangan g'azal ustoz Abdurahmon Jomiyning g'azaliga tatabbu (javobiya) sifatida yaratilgan. Mutafakkir shoirning mahorati shundaki, baytdagi "turki to'qikam" birikmasi turk va tojigim emas, balki tojik go'zalim ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, ikkinchi misrada takrorlangan tojik va turk so'zlari esa millat, xalq ma'nosida kelganligiga e'tibor qaratish joiz. Demak, "turk" so'zi birinchi misrada "go'zal" ma'nosida kelgan bo'lsa, ikkinchi misrada esa, millat, xalq ma'nosini ifodalab, tajnis badiiy san'atining betakror ko'rsatkichi ekanligi ma'lum bo'ladi. Yoki bir xalqni kiprikka, ikkinchisini esa ko'zga nisbat berilishi tashbeh (o'xshatish) badiiy san'atining go'zal namunasi hisoblanadi. Navoiy qo'llagan tashbeh shunchaki bir vositasigina bo'lib qolmasdan, balki ramziy obrazlar yordamida asoslanib, ikki xalqning et bilan tirnoq kabi bir-biriga yaqinligi ko'z va kiprik misolida badiiy dalillanganki, bu mantiqan ham to'g'ridir. "Go'zal tojik nigorim" (nigori turki to'qikam) birikmasidagi "go'zal" so'zi sifatlovchi vazifasida misraga zeb bergan. Badiiyat ilmida bordiyu she'r matnida ibora keltirilgan bo'lsa, bu ta'bir san'atining yuzaga kelishi ham o'qituvchi e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Baytdagi "sad xona vayrona" mazkur san'atning ko'rsatkichi sanaladi. Shoir asosiy e'tiborni lirik qahramonga, ya'ni "nigorim" ga qaratganini e'tiborga olsak, bu istiora san'atining o'ziga xos namunasi ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu birgina dalilning o'ziyoq Navoiy (Foniy) ning benazir zullisonayn shoir sifatida tojik tilida ham go'zal asarlar yarata olganligini namoyish qilib turibdi.

Bundan tashqari, ushbu tatabbu g‘azal ustoz Jomiyning asari kabi aruzning o‘ynoqi vaznlaridan biri - hazaji musamman solim (mafoiylun mafoiylun mafoiylun V - - - // V - - - // V - - - // V - - -) vaznida yaratilgan bo‘lib, bu shoirning aruz ilmidan ham chuqur bilimga ega ekan-ligini yana bir bor namoyish qila olganki, buni oltinchi dalil deyishga imkon beradi.

Va, nihoyat, yettinchidan, Bobur fikrlarining inkor etuvchi ishonchli manba Navoiyning ikki til qiyosiga bag‘ishlangan “Muhokamat-ul-lug‘atayn” asarida quyidagicha qayd etgan edi: “Forsiy tillarni yetarli darajada egallash va ularni chuqur tekshirib chiqishda mendan ko‘proq ish qilgan kishi yo‘qdur...” [Navoiy A., 2000: 40]

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, Z.M.Boburning badiiyat ilmiga doir nazariy qarashlarini hamda fors-tojik adabiyotiga munosabati masalalarini o‘rta maktab va oliygohlarda o‘rganib borish adabiy ta‘lim tizimidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa Bobur asarlarini to‘la idrok etishga yaqindan yordam berish bilan birga, uning adabiy-estetik qarashlarini yanada mukammalroq anglash uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Eng asosiysi, o‘quvchilarda badiiyat ilmiga doir adabiy - nazariy tushunchalar yanada mukammallik kasb etib boradiki, bu zamonaviy adabiy ta‘limdagi muhim vazifalardan bir hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбек адабиёт ўқитиш дастури.//“Устоз” газетаси, 2012 йил, № 9-10
2. Навоий А. МАТ 20 томлик. Т. 8. – Тошкент: Фан, 1991. -544 б.
3. Навоий А. МАТ, 20 томлик. Т. 12. – Тошкент: Фан, 1996. -327 б.
4. Навоий А. МАТ, 20 томлик. Т. 1.3 – Тошкент: Фан, 1997. -284 б.
5. Навоий А. МАТ, 20 томлик. Т. 16. – Тошкент: Фан, 2000. -336 б.
6. Навоий А. “Девони Фоний” дан. Форс тилидан Ҳабибулло Саид Ғани таржималари. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006. - 125 б.
7. Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1960.- 513 б.
8. Бобур З.М. Бобурнома. – (Нозирги ўзбек тилига Ваҳоб Раҳмонов ва Каромат Муллахўжаевлар табдили) -Тошкент: “Ўқитувчи”, 2008. - 288 б.
9. Бобур З. М. Куллиёт. Олти жилддан иборат..1, 2, 3, 4, 5, 6 – жилдлар. - Тошкент: “Zilol buloq”, 2021.
10. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2014. - 320 б.
11. Шарқ мумтоз поэтикаси. 1- китоб. – Тошкент: “ЎзМЭ”, 2008. - 42б.
12. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Тошкент: “Sharq”, 2020. - 240 б.
13. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърлятида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари (XVII – XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида). Монография. - Тошкент: “Tamaddun”, 2021. -172 б.
14. Файзуллаев Б. Адабий таълимда “Бобурнома”ни ўрганиш масалалари // “Захириддин Муҳаммад Бобур меросининг Шарқ давлатчилиги ва маданияти ривожда тутган ўрни” мавзусидаги Улуслараро илмий – назарий конференция материаллари. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. -Тошкент, 2023, 408 - 412-б.

Jo‘rayev Jaloliddin,
filologiya fanlari doktori,
O‘zMU dotsenti

SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI FONDLARIDAGI BOBUR IJODIGA OID MANBALAR

Annotatsiya: Dunyo fondlarida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosiga oid manbalarning bir qancha qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Jumladan, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondlarida ham ijodkor asarlarining bir qancha manbalari saqlanadi. Mazkur manbalarning ba‘zilari Boburning biror bir asarini to‘liq qamrab olsa, ba‘zilarida o‘sha asardan namuna keltirilgan. Shuningdek, manbalarning yaratilish va institut fondidan o‘rin olish tarixi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardagi qaydlar orqali shoir shaxsiyati va ijodiy merosiga turli davr kitobxonlarining munosabati masalasi yuzasidan ham xulosalar chiqarish mumkin. Maqolada Bobur asarlariga oid manbalarning xususiyati va ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, qo‘lyozma manbalar, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma fondlari, “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Devon”.

Annotation: The world’s manuscript collections contain a number of handwritten sources related to the creative heritage of Zakhiriddin Muhammad Babur. In particular, several sources of the poet’s work are stored at the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Some of these sources cover the full text of Babur’s work, and some contain examples from this source.

Also important is the history of the creation of the manuscript and the acquisition of this manuscript by the foundation. Some sources contain records that give an idea of the attitude of readers of different periods to the personality and creative heritage of the poet. The article discusses the features and significance of the sources of Babur’s works.

Key words: Zakhiriddin Muhammad Babur, handwritten sources, handwritten collections of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, “Babur-name”, “Mubayyin”, “Divan”.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o‘zining qisqa hayoti davomida beqiyos tarixiy va badiiy asarlar yozib qoldirgan. Undan bizgacha she’riy devon, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Mubayyin”, “Risolayi volidiyya” (tarjima) asarlarining bir qancha qo‘lyozma nusxalari yetib kelgan. “Musiqqa ilmi” va “Harb ishi” kabi asarlari topilgan emas. Hozirgi kunda Boburning mazkur asarlari qo‘lyozmalarining o‘nlab nusxalari dunyo fondlarida saqlanishi ma’lum. Jumladan, O‘zbekiston qo‘lyozma fondlarida ham ulug‘ ijodkor adabiy merosiga daxldor manbalarning mavjudligi qayd qilingan. Ana shunday qo‘lyozma fondlardan biri O‘zR FA Sharqshunoslik institutidir. Mavzu doirasida institutning Asosiy va Hamid Sulaymon fondlarini tahlil qilganimizda Bobur she’riyati,

“Boburnoma” va “Mubayyin” asarlari qo‘lyozma va litografik nashrlari, ulardan namuna sifatida turli davrlarda ko‘chirilgan namunalar borligi bilindi.

Bobur she‘riyati manbalari: Bobur she‘riyati turkiy nazmning yuksak namunalaridan biri sifatida ahamiyatli. Hozirgacha Bobur devonining o‘n bitta qo‘lyozma nusxasi aniqlangan. Shuningdek, “Boburnoma”ning bir o‘rnida Bobur Samarqand hokimi Po‘lod Sultonga devonini yuborganini ta‘kidlaydi. Lekin hozircha devon qo‘lyozmasining ushbu nusxasi taqdiri borasida biror ma‘lumot aniqlangan emas. Bulardan tashqari ba‘zi tazkira va bayozlarda Boburga nisbat berilib, devondan o‘rin olmay qolgan she‘rlar uchraydi. Ana shunday manbalar O‘zR FA Sharqshunoslik institutida ham mavjud.

Institut asosiy fondidagi **3326-raqamli** qo‘lyozma bayozga Zahiriddin Muhammad Bobur (66b-67a-varaqlar), Humoyun Mirzo (94b-varaq), Komron Mirzo (88 b-varaq), Askariy Mirzolar (90a-90b-varaqlar)ning bittadan fors tilidagi g‘azallari kiritilgan. Bobur g‘azalining birinchi bayti:

Dar davri moz-ko‘hna suvoriy yaki may ast,
Onki dam az qabuli nafas mizanad, nay ast.

Mazmuni:

Bizning davramizda ko‘hna suvoriylardan faqat may bor,
Nafas olishdan so‘z ochadiganlardan esa nay bor.

Matn nastaliq xatida novvotrang Qo‘qon qog‘ozi va qisman fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. 100 varaq. O‘lchami: 13x17,5 sm. Ko‘chirilgan sanasi 1298/1881. Kotibi Mullo Abdurahmon.

1926-yil Toshkentda “O‘zbekiston davlat nashriyoti”da Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon) va Ashurali Zohiriylar tomonidan chop qilingan “Adabiyot parchalari” (Institut asosiy fondi, **10477-raqamli** bosma kitob) kitobining 49-51-betlarida Boburning “Yaxshilig‘”, “Ermas”, “Topmadim” radifli, “O‘lum uyqusig‘a borib jahondin bo‘ldim osuda” misrasi bilan boshlanadigan g‘azallari to‘liq, shuningdek, 62-63-betlarda she‘rlarining turli o‘rinlaridan olingan sakkiz bayt namuna sifatida keltirilgan.

Kitobning “Noshirdan” sarlavhasi ostidagi qismida kitob “Katta maktablar”ning o‘quvchi talabalariga mo‘ljallangani, “Terma darslik – xrestomatiya” tuzilgani, maxsus darslik bo‘lgani uchun “adabiy asarlarga chanqag‘on talabalar”, o‘qituvchi va umuman adabiyotni sevuvchilarga mo‘ljallangani aytilgan.

Shuningdek, Bobur devonining A.Samoylovich tomonidan 1917-yilda amalga oshirilgan nashrining institut asosiy fondidagi **792-raqamli** bosma kitobning forzatsida Abdulla Nosirov tomonidan yozilgan qayd uchraydi. Qaydda quyidagilar yozilgan:

Necha davron g‘ussasi bo‘lg‘on mening joning‘a xos,
Koshki o‘lsam dog‘i bu g‘ussadin bo‘lsam xalos.
Zahiriddin Muhammad Bobur.

Boburni shu she‘rini marg‘ilonlik Ahmadjon Mirbobo o‘g‘li qaydandir ko‘rib, yozib qo‘ygan ekandir. Ushbudan ko‘rib bu yerga ko‘chirib qo‘ydim. Nasirov Abdulla. 1/XII-69. Bu she‘r Ahmadjon sahhofning Sharqshunoslik instituti

asosiy fondida saqlanayotgan **12192-raqamli** qo'lyozmasining 58a-varag'iga bitilgan.

Ahmadjon Mirbobob o'g'li yoki Ahmadjon sahhof (1892-1969-yillarda Marg'ilonda yashagan) tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalar ichida Boburning "Bahor ayyomidur" deb boshlanadigan g'azali ham uchraydi (O'zR FA ShI asosiy fond. **12930-raqamli** qo'lyozma, 27 b-varaq). Ahmadjon sahhofning institut asosiy fondidagi **12193-raqamli** qo'lyozmasi 122b-123a-varaqlarida shuningdek, Bobur va Binoiy o'rtasida bo'lib o'tgan mashhur voqea hikoyasi keltirilgan.

"Boburnoma"ning qo'lyozma nusxalari: "Boburnoma" Zahiriddin Muhammad Bobur nomini butun jahonga tanitgan qomusiy shoh asardir. U nafaqat turkiy adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida munosib o'rin egallab kelmoqda. "Boburnoma" turkiy xalqlar nasri tarixida tarixiy-badiiy asarning yorqin namunasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Asar muallifning xotiralari, esdaliklaridan tashkil topgan. Shu sababdan uning asl nomini Bobur "Vaqoe'noma", ya'ni "Voqealar kundaligi" deb atagan. Yozuvchining o'zi ham bu haqda shunday deb yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.
Har kim bu "Vaqoe'"ni o'qur, bilgaykim,
Ne ranju mehnatu ne g'amlar ko'rdum.

Bu asar boshqa manbalarda "Voqeanoma", "Voqeoti Boburiy", "Tuzuki Boburiy", "Tavorixi Boburiy", "Boburiya" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Keyinchalik esa uni "Boburnoma" deyish rasm bo'lgan.

Institut fondida ham asarning bir nechta qo'lyozma nusxasi mavjud.

Hamid Sulaymon fondidagi **2588-raqamli** qo'lyozma. Yashil rangli qattiq karton muqova. O'ymakor naqshlar bilan bezatilgan. Matn qora tush bilan o'n yetti qatordan qilib o'rtacha kattalikdagi nastaliq xatida fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Matn o'lchami 21x10 sm. Kolofonda kotibi va ko'chirilgan joyi qayd etilmagan. Qo'lyozma 1297/1880 yilda kitobat qilingan. 250 varaq.

Asosiy fondagi **13-raqamli** qo'lyozma. Yashil rangli qattiq muqova. O'ymakor naqshlar bilan bezatilgan. Muqova Mullo Eshonqul sahhof tomonidan tayyorlangan. Umuman, 565 varaq. Kitob novvotrang Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan. Matn qora tush bilan o'rtacha kattalikdagi yo'g'on nastaliq xatida o'n uch qatordan qilib ko'chirilgan. Sarlavhalar, ismlar va ayrim o'rinlar qizil rangda yozilgan. O'lchami: 18x7,5 sm. Qo'lyozmaning 1a varag'ida fors tilida noma'lum muallif tomonidan "Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh afzal va ashja'i salotini Chig'atoy buda..." deyilib, uning Movarounnahrning podshohi bo'lgani, keyinchalik "taqdir chatri" (soyaboni) uning taqdiriga mone'lik qilolmagani va Hindistonga yuzlanganib, Dehli taxtiga o'tirgani yoziladi. Shundan keyin:

Humoyunfol bir podshoh shohi jahon bo'ldi,
Ki Hind olib, muxolif askariga komron bo'ldi.

bayti berilgan. Shundan keyin saltanat taxtida o'tirib, ko'plab kishilarga marhamat ko'rsatgani, Xoja Ahror bilan munosabatlari xususida so'z yuritilgan. Qo'lyozma 1326/1908 yili Buxoro shahrida Mirzo Muhammad Vafo bin Mirzo Fayzulloh tomonidan ko'chirilgan. Kitobning 566a-568b varoqlariga A.Nosirov tomonidan

Hamidulla Hasanovning “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli risolasi haqidagi “Bobir haqida risola” nomli ikkita (Birinchisi, H.Abdullaev. Toshkent haqiqati, 1967-yil 18-aprel; Ikkinchisi, A.Turg’unov, S.Majidov. O‘zbekiston madaniyati, 1966-yil, 20-avgust) va “Muzei tuhfası” nomli xabar (“Oyina” gazetasi) yelimlab yopishtirilgan.

2100-raqamli asosiy fondada saqlanayotgan qo‘lyozma. Qora rangli qattiq muqova. Qo‘lyozmaning boshlanish sahifasi yo‘qolgan. Muqovaning forzatsida (ichki tmonida) kitob egalari bilan bog‘liq qiziqarli qaydlar uchraydi. Jumladan, yuqori o‘ng burchakda kirill alifbosida Mirza Po‘lat yozuv qora tush bilan yozilib, keyinchalik noma‘lum kishi tomonidan o‘chirib tashlashga harakat qilingan. Xuddi shu yozuv muqova markazida ham qayd qilingan. Uning ustida arab alifbosida Shamsiddin degan yozuv bitilgan. O‘ng yuqori burchakda kirill alifbosida “1946 ...Buxoro bozoridan” degan qayd bitilgan. Pastki o‘ng burchakda esa, oldin tuxumsimon (3,7x1,8 sm) muhr bosilgan. Muhrda “Lichnaya biblioteka Aliyeva S...” so‘zlari yozilgan bo‘lib, ismning ikkichi qismida faqat bosh harfi ko‘rinib, qolgan qismi yaxshi ko‘rinmay qolgan. Undan paystda yuqoridagi yozuv bilan bir xil yozuvda “16. 11. 1946. Buxoro” degan yozuv bor. Bulardan quyida yana “Aliyev” deb yozilgan muhr bosilgan.

Ma‘lumki, filologiya fanlari doktori, professor Said Aliyev (1920 – Buxoro – 2001) Bobur she‘riyatining XX asrdagi ilk tadqiqotchilaridan biri hisoblanadi. U 1948- yilda “Bobur lirikasi” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Qaydlar kitob Bobur lirikasi tadqiqotchisi professor Said Aliyev kutubxonasiga tegishli bo‘lgan degan xulosani bildirishga imkon beradi.

Kitobning oxiri 187b varaqdagi kolofonda kotib oti va qo‘lyozma ko‘chirilgan joy nomi uchramaydi. Shunday bo‘lsada, asosiy matndagi yozuvdan biroz farqli turzda “Dar asri podshohi bo adolat Sayyid Amir Abdulahad (1859/1885-1910) sana 1328/1910 in kitob baetmom rasid...” degan qayd mavjud.

Matn 17 qator qilib o‘rtcha kattaliqdagi nastaliq xatida qora tush bilan ko‘chirilgan. Matn o‘rhami 22x9 sm. Novvotrang Qo‘qon qog‘ozi.

9377-raqamli asosiy fondagi qo‘lyozma. Ushbu qo‘lyozmaning 465 varaqdan iborat bo‘lib, uning 37 varag‘i (80 betgacha) bosma nashr va qolgan qismi qo‘lyozma. Bosma nashr “Boburnoma”ning Ilminskiy tomonidan Qozonda nashr qilingan kitobga tegishli qism. Qolgan qismi mashhur tilshunos va jadidchi olim Ashurali Zohiriy tomonidan ko‘chirilgan. Asarning qo‘lda ko‘chirilgan qismi xususida Ashurali Zohiriy kitobning 221a varag‘ida quyidagicha yozadi: Ushbu “Boburnoma”ning 1857-yilda Qozonda Ilminskiy tomonidan bosilg‘on nusxasining 80 sahifasini (1914-yilda) bir do‘stim hadya etib edi. O‘sha 80 betni tomomlab qo‘yayin deb Qozonda bosilg‘on nusxaning o‘zini topib, undan ko‘chirib yozdim. Yozishda uning rasm xati qandoq bo‘lsa, imlosini o‘zgartirmasdan aynan ko‘chirdim. (Hatto, u bosmada Ilminskiyning o‘ruscha yozg‘on muqaddimasigacha ko‘churdum.) Faqat, ba‘zi yerda ostqi nuqtalarning o‘rnini qo‘ysamda, nuqtasini qo‘ymadim. Yozib tamom qildim 1936-yil 20-sentabrda. Ashurali Zohiriy. Qo‘qon” degan qayd bor. Darhaqiqat, arabcha matnning oxirida “Boburnoma”ning turkiy til tarixini o‘rganishdagi ahamiyatini

ko'rsatuvchi olti betdan iborat so'zboshisi ham kirill alifbosida Ashurali Zohiriy tomonidan ko'chirilgan.

Matn 25 qatordan qilib mayda go'zal nastaliqda ko'chirilgan. Matn o'lchami 19x12 sm. Oddiy fabrika qog'ozi. Ko'k rangli oddiy karton muqova.

“Mubayyin”ning qo'lyozma nusxalari: Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoh va shoir, balki shariat bilimdoni bo'lganini namoyon etgan asaridir. “Mubayyin” Bobur mirzoning avlodlariga qoldirgan tuhfası bo'lib, hanafiy mazhabi bo'yicha turkiy tilda yozilgan nazmiy asarlardan biridir. Asar 1521-yilda Hindiston yurishlari davrida yozilgani qayd etiladi. Dunyoning turli qo'lyozma fondlarida “Mubayyin” qo'lyozmalari mavjudligi, mazkur asarning barcha davrlar uchun nihoyatda yuksak ahamiyatga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Jumladan, O'zR FA Sharqshunoslik instituti to'rtta qo'lyozma nusxasi mavjud. . Matn o'rtacha kattalikdagi nastaliq xatida ikki ustun qilib o'n bir qatordan qilib sharq qog'oziga qora tush bilan ko'chirilgan. Sarlavhalar qizil rangda. 1301/1883-yilda kitobat qilingan. Dastlabki muqovasi yo'qolgan. Zamonaviy ko'k rangli karton muqova. 117 varaq.

Mazkur fondagi **2031-raqamli** qo'lyozma. Qo'lyozmaning 2a varag'ining markaziga keyinchalik zamonaviy ruchka bilan “Nazmi muxtasari fiqhi Bobur shoh” so'zlari yozilgan. Matn ikki ustunda to'qqiz qatordan qilib qora tush bilan o'rtacha kattalikdagi nastaliq xatida shildiroq sharq qog'oziga ko'chirilgan. Kotibi va ko'chirilgan joyi noma'lum. Kolofonda ko'chirilgan sanasi 1200/1785-yil deb ko'rsatilgan. Yashil rangli qattiq karton muqova. 149 varaq.

Asosiy fondga **8433-raqami** ostida saqlanyotgan nusxa. Asarning boshlanishi va oxiri yo'q. 13 qator qilib ikki ustunda qora tush bilan o'rtacha kattalikdagi nastaliq xatida ko'chirilgan. Qo'lyozmaning paliografik belgilariga ko'ra, XVIII-XIX asrlarga taalluqli. Muqovasi yo'qolgan. Keyinchalik institut fondiga kelib tushgandan keyin zamonaviy karton muqova bilan muqovalangan. Qo'lyozmaning 12b-19a, 23a, 39a varaqlarining hoshiyasida asosiy matn xatidan biroz farq qiladigan xat bilan kiritma va to'ldirishlar amalga oshirilgan. Matn o'lchami: 14x7,5 sm. 1a-94b varaqlardan o'rin olgan.

Mazkur fondagi **12990-raqamli** qo'lyozma. Ushbu qo'lyozma ham o'rtacha kattalikdagi nastaliq xatida ikki kstutda 11 qatordan qilib ko'chirilgan. Qo'lyozmaning boshlanish varaqlari yo'qolgan. Shuningdek, 1-varaqning yarmisi uzilib tushgan. 2-9, 115-120-varaqlar matni qog'oz qurti yeyishi natijasida zararlangan. Qo'lyozma kolofonida ko'chirilgan yili 1303/1885 deb qayd qilingan. Kotibi va ko'chirilgan joyi ko'rsatilmagan. Qo'lyozmaning birlamchi muqovasi yo'qolgan. Zamonaviy ko'k rangli karton muqova.

“Mubayyinning”ning toshbosma nusxalari: Ilk bor “Mubayyin”ning zakot haqidagi qismini sharqshunos Ye.Beryozin nashrga tayyorlagan (1857 y.). Keyin D.Ross (1910-yil) “Mubayyin”ning matnidan parchani e'lon qildi. F.Ko'pruluzoda (1913-yil) nashr qilgan “Milliy tatabbu'lar majmuasi” to'plamida Bobur she'rlari bilan birga – “Mubayyin”dan ham parchalar keltirgan.

“Mubayyin”ning to'liq nashri (Sharqshunoslik instituti asosiy fondi, **4023-raqamli** bosma kitob) Mulla Mir Maxdum ibn Shoh Yunus Toshkandiy tomonidan 1905-yilda Toshkent shahrida O.Porsev litografiyasida chop qilingan.

“Mubayyin”ning ushbu nashri titul varag’ida bir qancha e’tiborni tortuvchi qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, bezakli jadvalning eng avvalida quyidagi hadisi sharif joy olgan: “Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadiki, Rasululloh sollollohu alayhi va sallam: “Islom besh narsa ustiga qurilgandir – “Allohdan o’zga iloh yo’qdir va albatta Muhammad Allohning elchisidir”, deb guvohlik berish, namoz o’qish, zakot berish, haj qilish, Ramazon ro’zasi”– dedilar”.

Garchi Mirzo Bobur kitob xotimasida

Chun bayon etdim anda shar’iyot

Ne ajab, gardedim “Mubayyin” ot, –

deya, asarning nomi zikr etigan bo’lsada, noshir tomonidan o’quvchilarning e’tiborini tortish maqsadida “In kitob rofe’ ul-xavos va nofe’ ul-avom, al-musammo bi-“Mubayyin ul-islom”, ya’ni bu kitob xoslarni yuksaltiruvchi, avomni manfaatlantiruvchi bo’lib, u “Mubayyin ul-islom” – “Islomni bayon qiluvchi” tarzida taqdim qilingan.

“Mubayyin”ning vatanimizdagi ikkinchi nashri (Sharqshunoslik instituti asosiy fondi, **17101/3-raqamli** bosma kitob) 1910-yilda Toshkentda G.Y.Yakovlev bosmaxonasida amalga oshirilgan. Asar Farididdin Attorning “Pandnoma”, “Mantiq ut-tayr”, Jomiyning “E’tiqonoma”, Sa’diy Sheroziy devonining e’tiqod bilan bog’liq o’rinlari bilan birga nashr qilingan. Ushbu nashrdan ko’zlangan maqsad, allomalarning e’tiqod bilan bog’liq qarashlari aks etgan asarlarini ommaga taqdim qilish bo’lgani bois, unga faqat “Mubayyin”ning “E’tiqodiya” qismi kiritilgan. To’plamda Bobur asari Attorning “Pandnoma” va Jomiyning “E’tiqodnoma”sidan keyin uchinchi o’rinda joy olgan bo’lib, “E’tiqodnomai shoh Bobur” nomi bilan atalgan. Kitobning noshiri va kotibining nomi ko’rsatilmagan. Shunday bo’lsa-da, Jomiy asarining yakunida (19-bet) kotibning oti Muhammad Shohmurod kotib bin Shoh Ne’matulloh ko’chirilgani aytilgan. Jomiy va Bobur asarlarining xat uslubi bir xil. Ushbu jihatlariga ko’ra, Bobur asari ham mazkur kotib tomonidan ko’chirilgan deb xulosa qilish mumkin.

Ushbu nashrga aytib o’tganimizdek, “Mubayyin”ning “E’tiqodiya” qismini kiritish maqsad qilingani bois, “Sababi ta’lif” qismi tushirib qoldirilgan. Bulardan tashqari mavjud qism matnida ham birinchi nashrdan farq qiluvchi o’rinlar uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Sharqshunoslik instituti fondlaridagi Bobur asarlarining qo’lyozma va bosma nashrlari tahlili, vatanimizda ijodkor merosiga bo’lgan qiziqish katta bo’lganini ko’rsatadi. Shu bois, ulardan nusxalar ko’chirilgan va bosma nashrlari amalga oshirilgan. Bular bilan bir qatorda, XX asr boshlariga kelib, darslik va o’quv qo’llanmalariga Bobur asarlaridan namunalar kiritilgan. Ushbu jarayonlar Bobur ijodi bilan tanishtirishning dastlabki bosqichi bo’lib, keyinchalik keng ko’lamda ilmiy tadqiq etishga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абдулхамид Сулаймон (Чўлпон) ва Ашурали Зоҳирий. Адабиёт парчалари. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонди, 10477-рақамли босма китоб.

2. Аҳмаджон саҳхоф. Мусаввада. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди, 12930-рақамли кўлёзма китоб.
3. Аҳмаджон саҳхоф. Мусаввада. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонди, 12192-рақамли кўлёзма китоб.
4. Аҳмаджон саҳхоф. Мусаввада. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонди, 12193-рақамли кўлёзма китоб.
5. Баёз. ЎзР ФА Шарқшунослик институт асосий фонди. 3326-рақами кўлёзма китоб.
6. Бобур. Девон. А.Самойлович томонидан 1917 йилда амалга оширилган нашр. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонди, 792-рақамли босма китоб.
7. Бобур. Бобурнома. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Ҳамид Сулаймон фонди, 2588-рақамли кўлёзма.
8. Бобур. Бобурнома. ЎзР ФА Шарқшунослик институт асосий фонди, 13-рақамли кўлёзма китоб.
9. Бобур. Бобурнома. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонди, 2100-рақамли кўлёзма китоб.
10. Бобур. Бобурнома. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонди, 9377-рақамли кўлёзма китоб.
11. Бобур. Мубаййин. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Ҳамид Сулаймон фонди, 805-рақамли кўлёзма.
12. Бобур. Мубаййин. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонд, 8433-рақами кўлёзма китоб.
13. Бобур. Мубаййин. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонд, 12990-рақамли кўлёзма китоб.
14. Бобур. Мубаййин. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонд, 4023-рақамли босма китоб.
15. Бобур. Мубаййин. ЎзР ФА Шарқшунослик институти Асосий фонд, 17101/3-рақамли босма китоб.

Abdullayeva Marg'uba,
 filologiya fanlari doktori, Alisher
 Navoiy nomidagi TDO' TAU dotsenti

BOBUR SHE'RIYATIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bobur she'riyatidagi o'ziga xosliklar yoritib berilgan. Boburning she'r ilmini yaxshi bilishi, she'rlarining mazmun va shakl jihatidan uyg'un bo'lishini, mavzu va g'oyaviy yetukligini ta'minlagan. Shoir she'riyatidagi hayotiy falsafa va ma'rifiy o'git, estetik ta'sir masalalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Bobur, devon, aruz va qofiya ilmi, g'azal, tahlil, tadqiq.

Abstract: This article highlights the peculiarities of Babur's poetry. Babur's good knowledge of poetry ensured that his poems were harmonious in terms of

content and form, as well as thematic and ideological maturity. The issues of life philosophy and educational training, aesthetic influence in the poet's poetry are analyzed.

Key words: Babur, devan, science of aruz and rhyme, ghazal, analysis, study.

Bobur lirikasi o'zining takrorlanmas mavzu ko'lami, mazmuni, obrazlar tizimi, ichki olami va badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bobur qisqa umri davomida turli lirik janrlarda she'rlar bitgan. Keyinchalik uning she'rlari jamlanib, devon tartib berilgan. U aruz, qofiya ilmi va musiqaga oid risolalar yaratdi. Ayniqsa, "Aruz risolasi" adabiyotshunoslikda turkiy xalqlar she'riyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bobur she'riyati bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, A.Samoylovich "Bobur she'rlari to'plami", S.Azimjonova "Boburning hind devoni", A.Shcherbak "Boburning aruz haqidagi asari", I. V. Steblevaning "Turkiy tilning shakllanishida XI asardagi she'riy shakllar o'rni" mavzidagi tadqiqoti hamda "Aruz haqida risola" kitobidagi maqolasi, Ja'far Akramning "Aruz va ozarbayjon aruzining nazariy asoslari" mavzidagi tadqiqoti, M.Xamrayevning "Turkiy nazm nazariyasi ocherklari" nomli tadqiqoti, A.Rustamovning "Aruz haqida suhbatlar" kitobi, S.Hasanovning "Boburning "Aruz risolasi" asari shular jumlasidandir.

Boburning "Aruz risolasi" haqida dastlabki qaydlar "Boburnoma"da uchraydi. Bobur 933-1526 yil voqealarida bir baytni keltirib:

*Ko'zu qoshu so'zu tilinimu dey,
Qadu haddu sochi belinimu dey?-*

misrasidan besh yuz to'rt vaznda taqti' qildim [Boburnoma, 2002: 232] deb ko'rsatadi.

Yana bir ma'lumotda Boburning qofiya ilmiga oid risola yaratgani aytiladi. "Va ul podshohning aruz va qofiyag'a ham risolalari bor va ul jumladin "Mufassal" degankim, ushbu fan sharhi bo'lg'ay, ko'pdin-ko'p tasnif qilibdurlar". [Boburnoma, 2002: 267].

Boburshunos S.Hasanov Mirzo Ali Baxt Azfariy (1760-1819) Boburning aruzga oid asarini fors tiliga ham nazm, ham nasr yo'li bilan o'girib, "Aruzzoda" asarini yaratganini ta'kidlaydi [S.Hasanov, 1981: 7]. Bobur mazkur risolada aruzning yangi 248 vaznini aniqladi. Juzvlar haqidagi yangi qarashlarini ilgari surdi. Yangi zihoflarni izlab topadi va ularning sonini 44 taga yetkazadi. Boburning she'riy vaznlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari tarxoniy, turkiy, ulang, shuningdek, tuyuqning rang-barang turlarini aniqlashga sabab bo'ldi. Asarda juzvlar – sabab, vatad, fosila, she'rning eng kichik bo'lagi sifatida ko'rsatiladi. O'zbek aruzi vaznlari va bahrlari to'g'risida batafsil to'xtalib o'tadi.

Bobur she'riyatini mavzu va go'ya jihatidan quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- avtobiografik xarakterdagi she'rlar;
- ishqiy mavzudagi she'rlar;
- falsafiy-axloqiy mazmundagi she'rlar;
- ijtimoiy-maishiy mavzudagi she'rlar.

Boburning Kobul [Bobur devoni, 2004: 112] va Hind devonlaridagi she'rlarda g'azal va ruboiy janri yetakchilik qiladi. G'azallarining ko'pi 5, 6 baytli. Bobur g'azallarida hayotiylik, so'zlashuv nutqiga xos xususiyatlar muhim o'rin tutadi. Shu bois she'rlari o'qilishi oson, ravon va tushunarli. Bobur butun hayoti davomida boshidan kechirgan mashaqqatlar, tashvishlar, g'oliblik va mag'lubiyatlardan hayotiy hukm, falsafiy xulosa chiqara olgan. O'zligini, menligini topgan inson. Uning har bir misrasida hayot hikmati mujassam: Jumladan:

*Har kimki , vafo qilsa vafo topqusidir ,
Har kimki, jaf o qilsa, jaf o topgusidir,
Yaxshi kishi kurmagay yomonlik hargiz
Har kimki, yomon bo 'lsa, jazo topqusidir.*

Vafo-jaf o-jazo qofiya uchligida hayotning buyuk haqiqati ochib berilgan. Yaxshilik va yomonlik ezgulik va yovuzlikning abadiy kurashi qonuniyatiga asoslangan. Yaxshi kishi yomonlik ko'rmaydi, yomon kishi jazo topishi muqarrar. Bu kabi sodda jumladan hayotning asl mohiyati nima ekanligi anglashiladi. Inson o'z hayotini nimalar asosiga qurishi kerakligi shu ruboiyda yorqin ko'rsatib o'tiladi.

U bir qit'asida:

*Otani chunki qibla debturlar,
Qibla yanglig' anga nazar qilg'il.
Ota og'ritma, ey otam, zinhor,
Ota ozoridin hazar qilg'il. [Bobur devoni, 2004:12]*

Bobur she'rlarida axloqiy-falsafiy mazmun yetakchilik qiladi. Mazkur qit'ada ham Ota ulug'langan. Donishmandlar otani qiblaga tenglashtirganliklarini eslatib, farzandga o'git beradi. Otaga qiblaga nazar qilgani kabi nazar qilishini aytadi. Qiblaga nazar qilish qanday bo'ladi? Qiblaga pok qalb, yuksak e'tiqod, halol amal bilan sajda qilinadi. Demak, Bobur otaga ana shunday e'tiqod bilan itoat etish kerakligini ta'kidlaydi. Otani ko'nglini zinhor og'ritmaslikni, uning ozoridan saqlanishni uqtiradi.

“Boburnoma”ning bir o'rnida “*agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak*”, deydi Bobur. Bu bilan ota yomon ish qilgan bo'lsa, o'g'il yaxshi ish bilan yuvmoqligini ta'kidlaydi. Bobur asarda o'z o'g'illariga qilgan pand-nasihatlarini ham aytib o'tadi. Humoyun va Hindolga yozgan maktublarida ota va ustoz sifatida ularga maslahat beradi.

Boburning falsafiy mazmundagi, chuqur o'ylashga undaydagan g'azallari har bir kitobxonni o'ziga tortadi.

*O'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor,
Ki, bir dam g'am yemakka arzimas, dunyoyi farxunda.*

Bizga ma'lumki, g'azal tahlili bo'yicha adabiyotshunos olimlarimizning turlicha qarashlari bor. Jumladan, Notan Mallayevning “Navoiy lirikasi” kitobida Navoiy g'azallarini ma'lum tartib bilan tahlil qilgan. Shundan kelib chiqib, g'azal tahlil qilishning quyidagi tartibini ko'rsatib o'tamiz.

1. G'azal matni bilan tanishish;
2. G'azal mavzusi va g'oyasini aniqlash;

3. Murakkab soʻzlar lugʻatini tuzish;
4. Gʻazal vaznini aniqlash;
5. Baytlarning nasriy bayoni;
6. Badiiy tasvir vositalarini aniqlash.

Belgilangan tartib boʻyicha Boburning “Bor” radifli gʻazalini tahlil qilamiz.

1. Gʻazal matni:

*Qaro zulfung firoqida parishon roʻzgorim bor,
 Yuzungnung ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor.
 Labing bagʻrimni qon qildi, koʻzumdin qon ravon qildi,
 Nega holim yamon qildi, men ondin bir soʻrorim bor.
 Jahondin manga gʻam boʻlsa, ulusdin gar alam boʻlsa,
 Ne gʻam yuz muncha xam boʻlsa, seningdek gʻamgusorim bor.
 Agar muslixmen, ar mufsid va gar oshiqmen, ar obid,
 Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor.
 Figʻonim oshti bulbuldin, gʻami yoʻq zarra bu quldin,
 Base, Bobur, oʻshal guldin koʻngulda xorxorim bor.*

2. Gʻazalning mavzusi va gʻoyasini aniqlash:

Ishqiy mavzuda yozilgan gʻazal. Unda ishq dardi, maʼshuqa visoli va oshiqning iztiroblari kuylangan.

3. Murakkab soʻzlar lugʻatini tuzish:

*Firoqida – oshiq-maʼshuqlar oʻrtasidagi ayriliq
 Parishon - tarqoq
 Ishtiyoqida - mushtohlik, dil xohishi
 Xam - egilgan
 gʻamgusorim - gʻamni ketgazuvchi
 muslixmen - tuzatuvchi
 ar mufsid – buzuvchi
 ar obid – ibodat qiluvchi
 zohid – dunyo ishlaridan yuz ugirgan shayh
 Figʻonim – nola, ohu-zor
 Xorxorim – orzu, koʻhgil hayajoni*

4. Gʻazal vaznini aniqlash:

*Qa-ro zul-fung / fi-ro-qi-da / pa-ri-shon roʻz⁽ⁱ⁾-go-rim bor,
 V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
 Yu-zung - nung ish-/ti- yo-qi-da / ne sab- ru ne / qa –ro- rim- bor.
 V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
 Ma-fo-iy-lun / ma-fo-iy-lun / ma-fo-iy-lun / ma-fo-iy-lun.
 Hazaji musammani solim.*

5. Baytlarning nasriy bayoni:

Oshiqning maʼshuqa ayriligʻidan roʻzgʻori tarqoq boʻldi.
 Uning yuziga muhtoj boʻlib sabru qarori yoʻqoldi.
 Maʼshuqa labining ishtiyoqi oshiqning bagʻrini qon qildi. Bagʻri qon oshiq koʻz yosh tukdi.

Nega meni bunday holatga soldi, men undan buni albatta, soʻrayman.
 Jahondan menga shuncha gʻam boʻlsa, ulusdan qancha alam boʻlsa,

Yuz g‘amdan egilsam, seningdek g‘amni ketkazuvchim bor.

Gohida ishqni tuzuvchiman, goh buzuvchi, gar oshiqman, goh ibodat qiluvchi,

Ne ishing bor ey dunyo ishlaridan yuz ugirgan shayh, bu ishqqa mening xohishim bor.

Nolayu-zorim bulbuldan ohsa ham bu qul (ma’shuqa)ning g‘ami yo‘q zarracha,

Bas qil Bobur, ushal gul (ma’shuqa)dan ko‘nglimda hayajonim, unga yetishish orzuyim bor.

6. Badiiy tasvir vositalarini aniqlash.

Bu g‘azal ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lib, 5 baytdan iborat. G‘azalda “*bor*” so‘zi radif hisoblanadi. “*Ro‘zg‘orim*”, “*qarorim*”, “*so‘rorim*”, “*g‘amgusorim*”, “*ixtiyorim*” g‘azalning qofiyalari bo‘lib, *mutlaq qofiya* turiga kiradi. Bundan tashqari, ushbu g‘azalda “*firoqida*”, “*ishtiyoqida*”, “*qon*”, “*yamon*”, “*g‘am*”, “*xam*”, “*mufsid*”, “*zohid*”, “*bulbul*”, “*gul*” so‘zlari *ichki qofiya* hisoblanadi, bu esa tajziya san‘atini yuzaga keltirgan. G‘azal matla’sida oshiq yorning zulfini ko‘ra olmagan uchun tushkunlikka tushganini, yor yuzini ishtiyoqi esa uni sabrsiz qilganini aytadi. Bu baytda “*zulf*”, “*yuz*” so‘zlarining ifodalanishi tanosib san‘atini yuzaga keltirgan. G‘azalning 2-baytida oshiq yor labining ishtiyoqidan ahvoli yomon bo‘lganidan shikoyat qiladi. Oshiq bag‘rining qon bo‘lishi”, ko‘zidan qon oqishi mubolag‘a, “Nega holim yamon qildi, men ondin bir so‘rorim bor” misralarida esa tajohuli orifona san‘atidan foydalanilgan. G‘azalning 3-baytida shoir bu dunyoning barcha g‘ami unga kelganligi, xalqdan alam ko‘rsa ham, bu g‘amlar uni yuz marta egsa ham, sendek mehribonim bor, deydi. Bu satrlarda “*g‘am*”, “*alam*” so‘zlari tanosib, yuz g‘amning shoirni egib qo‘yganligi mubolag‘a san‘atini yuzaga keltirgan. G‘azalning 4-bayti “*begona bayt*” hisoblanadi. Bu baytda shoir zohidga murojaat qiladi: xoh yaxshi kishiman, xoh buzuvchi, xoh oshiq, xoh ibodat qiluvchiman bu mening ixtiyorimdir, sening bu bilan ishing bo‘lmasin, deydi. Bu baytda zohidga murojaat qilish-nido, “*muslix*, *mufsid*, *oshiq*, *orif* kabi so‘zlari orqali shoir oshiq sifatlarini sanaydi, bu esa ta‘did, “*muslix*” va “*mufsid*” so‘zlaridan tazod san‘atlari qo‘llanilgan. G‘azalning oxirgi bayti, ya‘ni maqta‘da shoir, ma’shuqani g‘ami yo‘q qul, ya‘ni ollohning bir bandasi deb ataydi. Mening ohim bulbul fig‘onidan ohsa ham uning zarracha g‘ami yo‘q, shunday bo‘lsa-da, o‘sha yorda ko‘nglimda unga nisbatan hayajon ko‘pdir, deydi. Bu baytda “*gul*” va “*bulbul*”, “*fig‘on*” va “*g‘am*” so‘zlaridan tanosib, “*gul*” (qiz bolaning nazarda tutilishi) - istiora, “*zarra*” va “*base*” tazod san‘atlari yuzaga kelgan. Bundan tashqari, shoir g‘azalning g‘oyaviy maqsadini ochishda 3-baytda g‘am”, 4-baytda “*agar*” so‘zining takroridan “*takrir*” san‘atidan foydalangan.

Mazkur g‘azalda uch lirik qahramon ko‘zga tashlanadi. Birinchisi – oshiq. Ikkinchisi – ma’shuqa. Uchinchisi – shoir. Asosiy lirik qahramon oshiq. U ma’shuqasini ishqida ro‘zg‘ori parishon, sabri qarori yo‘qolgan, bag‘ri qon. Uning ishqida ko‘z yosh tukib, butun jahon tashvishlarini ko‘tarishga tayyor. Chunki ma’shuqasi visoli oshiqni barcha g‘amlardan qutqarishga qodir. Go‘zal tasvirlar o‘quvchini bir onda ishq og‘ushiga olib kiradi. Takrorlanmas lirik jilva oshiqning ma’shuqa orzusidan umidvorligini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, Bobur she'rlarida insoniy kechinmalar, hayotiy falsafa, turmush ziddiyatlari, taqdir sinovlari samimiylilik va tabiiylikka asoslangan holda badiiy ifoda etilgan. Bobur har bir hayotiy voqeadan muhim falsafiy xulosalar chiqarishga erishadi. Shu bois bo'lsa kerak, shoir ijodi, lirik merosi davrlar osha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. Boburona lutf, so'zlardagi samimiyat, go'zal badiiy tasvir o'quvchini estetik tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T .: Sharq, 2002. -335 b.
2. S.Hasanov. Boburning “Aruz risolasi” asari. –Toshkent: Fan. 1981. – 96 b.
1. Bobur devoni. Kobil nashriga takmila (qo'shimcha). Nashrga tayyorlovchi: Shafiqa Yorqin. – Toshkent: 2004. Sharq. -112 b.

Muhitdinova B.M.,

filologiya fanlari nomzodi,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori,

Qurbonova N.,

Sharof Rashidov nomidagi

SamDU 4-kurs talabasi

ADABIY TA'LIMDA BOBUR HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy ta'limdagi o'rni, tarjimayi holi va adabiy merosini o'rganish masalalarining dolzarbligi yoritilgan. Boburning biografiyasi va ijodini o'qitishda yangicha yondashuvlar, muammoli ta'limning ahamiyati, shuningdek, zamonaviy ta'limda Bobur ijodining nazariy va amaliy jihatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Tarjimayi hol, yondashuv, metod, asar tahlili, muammoli vaziyat.

Annotation: In this article, Zahiriddin Muhammad Babur's place in literary education, his biography, and the importance of studying his literary heritage are highlighted. The importance of new approaches, methods methods in teaching the biography and works of Babur, as well as the theoretical and practical aspects of Babur and his works in modern education are shown.

Key words: Biography, approach, method, analysis of the work, a problematic situation.

Zamonaviy dunyoda yashayotgan va o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan o'quvchilar va talabalarni mumtoz adabiyot mutolaasi bilan mashg'ul qilish biroq mushkul. Negaki yoshlar ko'proq yangilikka o'ch bo'lishadi. Vaholanki, mumtoz adabiyot namunalarida ular o'rganayotgan ma'lumotlarning o'zagi hisoblanadi. Kelajakni yaratish uchun o'tmish va bugunni unutmaslik lozim. Mumtoz adabiyot

namoyondalarini o'qitishning turli usullari ishlab chiqilmoqda. Ammo o'quvchi-yoshlar ma'naviy kamoloti va tafakkurini yuksaltirishda haligacha yetarlicha natijalarga erishilmadi. Adabiy ta'limda bunday kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida yangicha tamoyil va metodlar bilan ishlash talab etiladi. Shunday ekan, mumtoz adabiyotimizning yirik vakillaridan biri, shoh va shoir Bobur va uning adabiy merosini o'qitishning ahamiyati, adabiy ta'limdagi o'rni masalasiga e'tibor qaratish talab qilinadi. Bobur va uning ijodiga oid ko'plab ishlar amalga oshirildi. Boburshunoslik vujudga keldi. Biroq hanuzgacha sodda va samarali usulda o'qitish usullari o'z yechimini topmadi. Boburning shaxsiyatini ochib berishda va "Boburnoma" asarini o'qitishda interfaol metodardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.


Hayot sinovlarida toblangan, zahmatkash shaxs Zahiriddin Muhammad Boburning tarjimayi holi barcha uchun ibrat namunasi sanaladi. Butun dunyo e'tirof etadigan, asarlari sevib o'qiladigan Boburning umr bayoni masalasi atroflicha o'rganilgan. Tarjimayi hol yozuvchining o'rganilajak asarining kaliti sanaladi. "Yozuvchi hayot yo'lini o'rganish uning badiiy olamiga kirish yo'lidir. Adibning hayoti bilan tanishish orqaligina o'quvchilar iste'dodli shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatni, ijodkorning dunyoqarashi va badiiy asarlari o'rtasidagi aloqani bilishlari mumkin. Adibning hayoti bilan uning ijodi o'rtasidagi aloqa dastlab biografik metod tarafdorlarining tadqiqotlarida ko'zga tashlangan".[Yo'ldosh Q., 2002: 145-146] Boburning tarjimayi holini o'qitishda an'anaviylikdan chekinish lozim. Chunki quruq yod olish, tarixiy sanalarni eslab qolish bilan uni adabiyot fanini o'rganayotgan o'quvchi va talabalar badiiy olamini, zamondoshlari bilan munosabatini, shaxsiyatini anglolmaydilar. Boburning umr yo'li ayanchli mashaqqatlardan iborat bo'lgan. O'z yurtidan judolikda yashash, yaqin insonlari tomonidan xiyonotga uchrash va bolalik chog'idanoq saltanat taxtini egallash juda murakkab vazifadir. Bunday qiyinchiliklarni mustahkam irodasi bilan yengib o'tgan Bobur siymosi yoshlar uchun ibrat sanaladi. Xuddi shu mushkul vaziyatlar Boburni butun hayoti davomida bir nafas ham tark etmaydi va bu uning asarlarida namoyon bo'ladi. "Boburnoma" asarini o'qimoqchi bo'lgan yoshlar, avvalambor, uning shaxsiyati bilan qiziqishi lozim. Shundagina, asarini mutolaa qilgan kitobxon uni teranroq idrok etadi.

Boburning tarjimayi holini o'qitishda uning "Boburnoma" asaridagi tarbiyaviy ahamiyatga molik jummalarni ham keltirib, Bobur o'sha fikrlari orqali nimani ifodalamoqchi bo'lganini tushuntirib o'tish lozim. Mumtoz asarlarning har biri didaktik mazmunga ega. "Boburnoma" asarida kitobxon o'rganadigan va hayot tajribalarida ulardan foydalanadigan noyob parchalar keltirilgan. Asarda shunday parchalar berilgan: *"Bundan maqsad shuki, bu dunyoda kishidan ana shunday narsalar esda qoladi. Aql egasi bo'lgan har qanday odam ortidan yomon so'z bilan eslanadigan ishlarga nega qo'l urarkin, es-hushi joyda bo'lgan har bir kishi dunyodan o'tgach tahsinlar bilan eslanadigan ishlarni qilishga nega urinmas ekan? Ismning yodga olinishini hakimlar ikkinchi umr deganlar"*. Mazkur fikrlar orqali bu dunyoda inson o'zidan yaxshi nom qoldirishi kerakligini, qing'ir ishlarga qo'l urmaslik kerakligini o'quvchilarga tushuntirib bermoq lozim. *"Burunlari*

bizning ota-bobolar Chingiz odatini juda hurmat qilardilar. Bazm va mahkamada, to'y va oshda, o'tirish va turishda odatga xilof ish qilmasdilar. Chingizxonning odati oliy qat'iy hujjat emasdirki, albatta, kishi unga amal qilsin! Har kimdan yaxshi qoida qolgan bo'lsa, unga amal qilmoq kerak. Agar ota yomon ish qilgan bo'lsa, yaxshi ish bilan almashtirmoq kerak". Asarda keltirilgan ushbu parchalarda Bobur yaxshilikni ulug'laydi. Ota-bobolar qoidaga aylantirgan ba'zi illatlarni avlodlar yaxshi fazilatlar bilan almashtirishi lozimligini ta'kidlaydi. "Boburnoma" da bunday ibratli parchalar juda ko'p. Tarjimayi holni o'rganayotgan o'quvchi mana shunday didaktik ruhda parchalarni o'qir ekan, ham Boburning qarashlarini o'rganadi, ham asar matni bilan tanishish oson kechadi.

"Yozuvchining hayot yo'lini bayon etishda plastinka va magnitafon yozuvlari, o'quv va diafilmlar, rasmlar, tarixiy va adabiy materiallardan ham foydalaniladi. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi yozuvchining asarlarini namoyish qiladi, ulardan parchalar o'qib beradi. O'z navbatida, o'quvchilar ham yozuvchining ayrim asarlaridan parchalar o'qib, mazmunini og'zaki bayon qiladilar. Darsni bu tartibda tashkil etish o'quvchilarda yozuvchi shaxsiga, uning ijodiga nisbatan qiziqish, muhabbat hissini o'stiradi, asosiy mavzu sifatida o'rganiladigan asarni puxta o'zlashtirish uchun zamin yaratadi".[Zunnunov A., 1992: 202-203] A.Zunnunov va boshqalar hammuallifligida yozilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" kitobidagi yuqoridagi ma'lumotlar hozirgi globalashgan zamonda yanada o'z tasdig'ini topmoqda. Darhaqiqat, darsliklar yangilanishi buning yaqqol isbotidir. Yangilangan darsliklarda tarjimayi hol bo'yicha ham yangilanishlar va qisqartirishlar mavjud. Asarlarining tahlilida esa muammoli savol va topshiriqlardan foydalanish, asarning to'liq matnini topish uchun QR kodlarning berilishi darsliklarda o'zgacha yangilik bo'ldi. Bunday yangiliklar o'quvchilar zehniini orttiradi va mustaqil ishlashiga turtki bo'ladi.


Boburni biografiyasini o'qitishda videorolik namoyish etish tavsiya etiladi. Zero, hozirgi kun yoshlari ma'lumotlarni o'qib o'rganishdan ko'ra, videorolik va taqdimotlar orqali ko'rishga moyil. Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi aniq faktlarga asoslangan videorolikni onlayn havolasini QR kod shaklida darslik va o'quv qo'llanmalarda keltirish kerak. Yoshlar onlayn havola orqali uning hayot yo'lini avtomobil, avtobuslarda ketayotganda ham bemalol tinglab ketishadi. Kitobda berilgan ma'lumotlarni yanada mustahkamlashadi. You tube ijtimoiy sahifasidagi Media Magnat kanalida "Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida" sarlavhali videorolik namoyishi berilgan. Mazkur videorolikda uning tarjimayi holidan tashqari ijodi, "Boburnoma" asariga oid beqiyos ma'lumotlar o'rin egallagan. Jahon va o'zbek adabiyotida Bobur shaxsiyati va asarlarining o'rganilishi kabi masalalar aytib o'tiladi. Boburning chinakam inson, adolatli shoh va iste'dodli ijodkorligini anglashda, bunday fazilat va xislatlarni bir kishida bo'lishi hayratlanarli hodisa ekanligini o'quvchiga tushuntirish lozim. Bugungi kun yoshlari hayot sinovlarini yengib o'tishida, qiyinchiliklarni bartaraf etishida aynan Boburning umr bayonini o'z hayotida dasturilamal sifatida qo'llashlari maqsadga muvofiq.



Bundan tashqari, Bobur tarjimai holini o‘qitishning yana bir usuli sifatida o‘quvchi yoki talabalar tomonidan sahna ko‘rinishi tashkillashtirilishi taklif etiladi. Bu usul orqali yoshlar ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda qatnashishi uchun ijodkorlik qobiliyatini shakllantirib boradilar. Asosiysi, Boburni yaqindan his eta oladilar. Boburning tarjimai holini qaysi usulda o‘qitishdan qat’iy nazar, barchasi uning asarlari badiiyati va insoniyligini tom ma’noda ochishga qaratilishi lozim. Metodist S.Kambarova Bobur tarjimai holini o‘qitishning xulosa qismida quyidagi ma’lumotlarni qayd etadi: “Xulosa qilganda, yozuvchi shaxsiyatini o‘rganishga doir har qanday ko‘rgazmali vosita aniq maqsadga yo‘naltirilsa, adabiy ta’lim samaradorligi ortadi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, tasavvuri kengayishiga badiiy-estetik didi yuksalishiga zarur shart-sharoit yaratadi. Ajdodlarimizning dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasi xususida bilimlari ortishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘quvchiga turli manbalarda yozuvchi haqida keltirilgan materiallarda aynan aks etmagan bo‘lsa ham, uning takrorlanmas individualligi, o‘zgacha tafakkur tarzi va ijodiy fenomeni namoyon bo‘lganligidan darak beradi”. [Kambarova S., 2022: 102]

“At literaute lessons as sson as the teacher declares the purpose of a lesson the pupils star sensing and perceiving the tasks and goals put before them. Each literature lesson along the paths of teaching pupils to independent thinking must begin from declaration of its purpose to pupils. As it is well known from the educational practice the teacher feels it not necessary to declare the purpose lesson”. [Husanboyeva Q., 2016: 59] Metodist olimi Q.Husanboyeva aytganlaridek, hozirgi kunda adabiyotda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish lozim. Shunday ekan, adabiy ta’limda yoshlarning mustaqil fikrlashini shakllantiradigan samarali metod va usullar ishlab chiqilishi kerak. “Boburnoma” asari matni bilan tanishgan o‘quvchilar, talabalar mustaqil fikrlash qobiliyati asosida asarni tahlil qila olishadi. Insonda mustaqil fikr bo‘lmas ekan, u har kimning aytganini qilaveradi. Bunday inson jamiyatga hissa qo‘sha olmaydi. Adabiy ta’limda mustaqillikdan so‘ng katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Jumladan, adabiyot o‘qitishda ham yangicha yondashuvlar paydo bo‘ldi. “Boburnoma” asarini o‘qitishda **“Art-Klaster” metodidan** foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur metod orqali asardagi shaharlar, obrazlar tasavvurda qaytadan jonlanadi. Asarning badiiy qiymatini aks ettiruvchi ta’riflar va o‘xshatishlar o‘quvchilarning asarni nechog‘lik o‘rganganidan dalolat beradi. “Boburnoma” asarini o‘qitishda quyidagi rasmlar

beriladi va o'quvchilardan ushbu rasmlar orqali nimani anglaganligi va asarda Bobur hayotida ularning ta'siri natijasi so'raladi.



“Boburnoma” nafaqat adabiyotda, balki boshqa qator sohalarda ham qimmatli manbadir. Mazkur asarda realistik tasvirlar berilgan. Shuningdek, asarda Boburning hayoti aks etar ekan, o'quvchiga ibrat bo'ladigan insoniy tuyg'ular va tarbiyaviy ahamiyatga molik voqealar silsilasi namoyon bo'ladi. Boburnomada adabiyot va san'at ahli, ilm-ma'rifat kishilari alohida e'tirof etilgan. Shuningdek, geografik joy nomlari va ularning ta'rifi, o'simlik va hayvonot olami haqidagi nodir ma'lumotlar ham jamlangan. Bunday qimmatli ma'lumotlar asarda juda ko'p. Adabiyot o'qitish metodikasidagi asosiy vazifa esa, asar mazmunini yetkazish, to'g'ri tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish va tarbiyaviy ahamiyatini yoritib berish kabilardir. An'anaviy ta'limda asardagi qimmatli ma'lumotlar faqatgina yod olish bilan chegaralangan edi. Hozirgi kunga kelib, zamonaviy ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Bunday texnologiyalar asar tahlilini osonlahtirdi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undadi.

Metodist olimlar Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova hammuallifligida yozilgan “Adabiyot o'qitish metodikasi” kitobida muammoli ta'lim haqida quyidagi fikrlari o'rinli: “Muammoli vaziyat yaratish uchun, eng avvalo, fikrlash asnosida unga mos keladigan ma'lumotni topish talab qilinadi. Muammo tashkil etish uchun o'qituvchi ko'tarilgan masalada nimalar yetishmayotganini aniqlashi va o'sha faktlarni qanday topish, uning yechimini qanday amalga oshirish yo'llarini ham aniq belgilab olishi kerak bo'ladi. O'qituvchining vazifasi ma'lum muammoli vaziyatni tashkil etish ekan, o'quvchilarni uning yechimi sari yo'nalirish uchun, avvalo, o'quvchiga muammo nimadan iborat ekanini to'g'ri anglatishi, unda shu masalani hal etishga xohish-qiziqish paydo qilishi, ichki ehtiyoj (motivatsiya) uyg'otishi zarur hisoblanadi”. [Husanboyeva Q., 2020: 180] O'qituvchi muammoli vaziyat yaratishda hushyor va qat'iy fikrli bo'lmog'i lozim. Chunki yozuvchining asar matni orqali bayon etmoqchi bo'lgan maqsad va g'oyalarini noto'g'ri talqin etishdan o'quvchilarni ogoh etishi kerak. Muammoli vaziyatni yaratishda asosiy omillardan yana biri bu fikrlashdir. Fikrlash uchun esa faqat asar matni emas, qo'shimcha faktlar yoki yozuvchi shaxsiyatiga daxldor ma'lumotlar topish talab qilinadi. Muammoli ta'lim texnologiyasi, tom ma'noda, bilim va mahorat talab etadi. Bu ta'lim turning afzalligi sifatida eski usuldan voz kechib, yangicha talabdagi o'qitish usullaridan foydalanib, tafakkurni o'stirish va har qanday vaziyatda yechim topishga undashni keltirish joiz.

Muammoli savol bilan oddiy savolning farqi bor. Muammoli savol yechimi ko'pligi, oddiy savol esa yechimi bittaligi bilan farqlanadi. Mazkur vaziyatni yaratishda faqatgina asar matniga asoslanib savol berish yetarli emas. Vaziyat to'liq yechilishi uchun qo'shimcha material va topshiriqlardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Boburnoma" asarini o'qitishda quyidagi muammoli savollardan foydalanish mumkin:

1. Boburning yaqinlari tomonidan xiyonatga uchrashi sabablari asarda qanday namoyon bo'ladi va Bobur ularning oqibatida shoh va inson sifatida qanday yo'l tutdi?

2. "Boburnoma" asarida ota va farzand munosabatlari qay tarzda aks ettirilgan, bugungi kunda ham xuddi shunday ota va farzand o'rtasidagi munosabat mavjudmi?

3. Boburning hali ulg'aymasdanoq saltanatni boshqarishida qanday kuchlar unga madad berdi? Uning o'rnida bo'lganingizda, siz qanday chora tutgan bo'lar edingiz?

4. Bobur Shayboniyxondan ma'nan yengildi, deb o'ylaysizmi?

5. Boburning shaxsiyatida ustoz Xoja Mavlonoyi Qozining roli qanday?

6. *Ba tundi sabuq dast burden ba tig',*

Ba dandon gazad pushti dasti darig'.

(G'azabdan xanjarga qo'l cho'zgan kishi,

Afsus barmog'ini tishlashdir ishi.)

Bobur tomonidan bitilgan yuqoridagi misralar uning hayotida qanday ahamiyat kasb etadi?

7. Boburni hind eli faqat uning kuchidan qo'rqqani uchun mamlakatiga shoh sifatida qabul qilishdimi?

8. Bobur barcha ilm-fan ahlini, saroy amaldorlarini ta'rifini asarda batafsil keltiradi, lekin u shuncha ma'lumot bilan faqat mag'lubiyatlarga duchor bo'laverdi?

9. Boburning hayotida onasi Qutlug' Nigorxonim va katta onasi Eson Davlatbegimning o'rni asarda qay o'rinlarda namoyon bo'ladi?

10. Bobur umri davomida qanday xatoliklar qildi? U o'z xatolaridan xulosa chiqara oldimi?

Bugungi kunda mumtoz adabiyotga o'quvchilarning qiziqishi kamayib bormoqda. Shuning uchun Bobur va uning "Boburnoma" asarini o'qitish masalasi ishlab chiqildi. Bobur shaxsiyatiga qiziqish, asaridan tarbiyaviy jihatlarni egallash va hayoti davomida uni amalda qo'llashi, ma'rifatparvarlik tuyg'ularini shakllantirish o'quvchi-yoshlar uchun ahamiyatlidir. Zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish esa Boburni yaqindan tushunishimizda, asarining tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishimizda muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. –T.: O'qituvchi, 2008.

2. Qozoqboy Yo'ldosh., Muhayyo Yo'ldosh. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.145-146.

3. Zunnunov A va boshqalar. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992. – B.202-203.

4. Kambarova S. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. –T.: Mahalla va oila, 2022. –B.102.

5. Husanboyeva Q. Literature as a factor for development of morality and independent thinking. –T.: Tamaddun, 2016. –B.59.

6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.:Innovatsiya-ziyo, 2020. –B.180.

Nazmiya Muxitdinova,
filologiya fanlari doktori,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti

BOBUR VA QO‘QON ADABIY MUHITI

Annotatsiya: Maqolada Qo‘qon adabiy muhiti shoirlarining lirikasida Zahiriddin Muhammad Bobur she‘riyati an‘analarining davom ettirilishi xususida so‘z yuritiladi. Adabiy muhitda Bobur she‘riyatidagi g‘oya, uslub, poetik obraz va mahorat an‘ana va o‘ziga xoslik jihatidan qator misollarda tahlil etiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: an‘ana va novatorlik, g‘oyaviylik, obraz, uslub, mavzu, badiiy mahorat.

Abstract: The article talks about the continuation of the traditions of Zahiriddin Muhammad Babur's poetry in the lyrics of the poets of the Kokan literary environment. In the literary environment, the idea, style, poetic image and skill of Babur's poetry are analyzed in a number of examples in terms of tradition and originality.

Key words and phrases: tradition and innovation, idealism, image, style, theme, artistic skill.

Qo‘qon adabiy hayoti oltin beshik voqeasi in‘ikosida adabiy izdoshlik an‘analarga yo‘g‘rilgan “Oltin beshik davri” deb nom olgan katta ijodiy muhit fenomenini gavdalantiradi. Adabiy muhit she‘riyatida jamiyat hayoti va undagi muammolarga munosabat bildirishda faol, pandnoma-didaktik ruhdagi asarlarida, asosan, jamiyat barqarorligi va inson kamoloti masalalari ko‘tarib chiqildi. Shu bilan birga u yuksak badiiy mahorat bilan maftunkor she‘rlar bitildi. Shu nuqtayi nazardan, badiiy uslubining ham o‘ziga xosligi, originalligi ginezisida milliy adabiyotimiz siymolari ijodiga payravlik yetakchilik qildi. O‘zbek mumtoz adabiyotining tarixi, uning rivojlanish tamoyillari, milliy adabiyot va o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti muammolari har bir tarixiy davrda tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Ayniqsa, o‘zbek adabiyoti tarixida alohida bir bosqichni tashkil etgan Qo‘qon adabiy muhiti hamda Amiriy, Gulxaniy, Nodira, qolaversa, G‘oziy, Sadoiy kabi shoirlarning hayoti va ijodi mumtoz shoirlar an‘analari kesimida o‘rganish asosiy mavzusi bo‘lib qolmoqda. Temuriylar davri ijtimoiy-ma‘naviy, ma‘rifiy kayfiyatini jonlantirgan Qo‘qon xoni Amir Umarxon – Amiriy

va Nodirabegim boshliq davr she'riyatini Sharq klassik poeziyasi an'analari bilan xususan, Zahiriddin Bobur va boburiylar adabiyoti an'ana va uslubi ta'siridan holi tasavvur etib bo'lmaydi.

Tahlil etayotganimiz davr adabiy muhitining o'ziga xosligi va yig'ilgan badiiy va ilmiy xazinaning ham o'ziga xosligi avvalo ularning o'tgan asrlar xususan, XV-XVI asrlar mumtoz adabiyoti namunalaridan katta farq qilishida, yangi taraqqiyot bosqichini boshidan kechirganligida namoyon bo'ladi. Adabiy an'ana bir qancha omillarda gavdalanib, adabiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari, janriy takomili bilan bog'liq holatlarda o'z aksini topgan. Chunonchi, XVIII–XIX asrlarni Qo'qonda bayozchilik eng taraqqiy etgan davr deb aytish mumkin. Bu davr bayozlarining xususiyatlaridan biri shu ediki, ularda XV asrda ijod qilgan shoirlar asarlari bilan birga, XVI – XVIII asrning mashhur ijodkorlari Bobur, Hiloliy, Kashmiriy, Shavkat Buxoriy, Mushfiqiy, Bedil, Mashrab asarlariga ham keng o'rin ajratilar edi. Ayniqsa, “Bedil ijodi ta'sirida XVIII-XIX asrlar poeziyasida yuzaga kelgan bedilizm bayoz mundarijasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Hatto keyingi asrlarda Hindiston, Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoda tuzilgan bayozlarning ko'pchiligi to'g'ridan – to'g'ri Bedil she'lari bilan boshlanadi yoki ularda Bedil va Bedil maktabiga mansub shoirlarning she'rlari albatta uchraydi”. [O'zbek adabiyoti tarixi, 1978: 24-25] Shu bilan bir qatorda mahalliy shoirlarning ushbu uslubda yozgan she'rlari ham bayozlardan joy ola boradi. O'zbek va tojik tillarini mukammal egallagan ba'zi shoirlarning devonlari ikkita bo'lib, biri o'zbek, ikkinchisi esa tojik tilida yozilgan she'rlardan iborat bo'lgan.

Zahiriddin Bobur she'riyatidagi rindona kayfiyatdan ilhom olgan Komila she'riyatida an'ana va o'ziga xoslik o'zanida favqulodda go'zal badiiy ifodalar aks etadi. Shoira o'zini rind, qalandar deb atagan baytlar, g'azallar mavjud. Ilohiy ishq talqini keltirilgan “omadam” radifli g'azalda shoira “ishq libosini kiyganman, murod tojini boshimga qo'yanman, aylanib turgan charx piyolamdir, men bir rind qalandarman”, deb yozadi:

Kisvati ishq dar baram, to'qi murod bar saram,
Gardishi charx sog'aram, rindi qalandar omadam.

Keyingi baytlar shoira mushohadalarini yanada aniqroq ifodalaydi:

Faqr fano tariqi man, mehru vafo rafiqi man,
Ishqi buton shafiqi man, volai dilbar omadam.
Bas, ki rahi malak zadam, naqshi vu'qudi haq zadam,
Poy ba no'h falak zadam, bar sari chamber omadam...

Bu baytlarda shoira sufiya ayol sifatida namoyon bo'ladi. U faqr va fano yo'lida yo'lchi ekanligini bayon etmoqda. Demak, shoira qaysidir tariqatga rasman aloqador bo'lmasa-da, qalban ixlosmand bo'lgan. Balki, keyingi baytda ishora etilayotganidek, “Haq vujudini naqsh etib”, naqshbandlarga ixlos qilgandir. Shoira bundan faxr etadi. U faxriya usulida ijod etilgan bir g'azalida olamlarni kuydirguvchi haqiqiy ishqdan bahramand bo'lganligini, shu ishq dardiga mubtalo oshiqlar qatorida ekanligini shukrona tarzida bayon etadi:

Muridi ishq olamso'zman ushshoq bazmida,
Navoiy nolayi naydek, baland etti maqomimni.

Xuddi shunday faxriya bilan ajdodlari haqida soʻzlar ekan, shoira naqshbandiya tariqatiga bagʻoyat ixlosmand boʻlgan bobokaloni Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo nomini tilga oladi:

Sayodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokiman,
Xudoyo rahmat ayla, barcha ajdodi izomimni.

Bobur Mirzoning buyuk naqshbandiy diniy rahnamo Hazrati Xoja Ahrori Vali (q.s) va ul zoti pok xonadoniga boʻlgan ixlosu muhabbati, bu oilaning Bobur Mirzo hayoti bilan bogʻliq karomatlari haqida shoira, albatta, “Boburnoma” orqali xabardor boʻlgan. Bobur Mirzoning Xoja Ahror Validan keyin Movaraunnahrdagi yirik naqshbandiy tariqatpesha Hazrat Mahdumi Aʼzam Dahbediy (q.s) ga murid va niyozmand boʻlganligidan ham (balki, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”i orqali), pirga Hindistondan turib sovgʻa salomlar yuborganligidan ham shoira xabardor boʻlgan boʻlishi mumkin.[Salohiy D., 2013:53] Bu tafsilotlar shoira taʼkidlagan “faqr fano” tariqatga munosiblik bevosita oʻsha davrning yetakchi mafkurasi sanalmish naqshbandiya tariqati bilan bogʻliq boʻlishi mumkin, degan mulohazalarni uygʻotadi. Shoira asarlarida uning biror tariqat piriga ixlos qoʻyganligi haqida maʼlumot yoki ishora uchramaydi. Uvaysiy oʻzining ikki pir – Xoja Ahrori Vali va Mashrabga ixlosu sadoqatini ochiq bayon etadi.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur davri adabiyotidan XVIII va XIX asrlardagi Qoʻqon adabiy muhitining oʻziga xos farqli jihati, yangilikka intilish tamoyili yana shunda koʻrinadiki, bu muhitga mansub shoirlar ijodida taʼrix sheʼrlar yozish anʼanaga aylangan. Bu juda murakkab sheʼriy usul boʻlib, jamiyat hayotida yuz bergan biror voqea – hodisaga, katta qurilishlar munosabati bilan, aksariyat biror mashhur ijodkor yoki amaldorning vafoti munosabati bilan yozilgan. Shuni eʼtirof etish kerakki, XIX asrning birinchi yarmida yashagan va ijod etgan koʻpgina qoʻqonlik shoirlar bu usulni qoʻllashda aql hayratda qoladigan darajada mahorat koʻrsatganlar. Bunday shoirlarning eng usta va mohirlari Akmal va Gʻoziy edilar. Qoʻqon xonligi tarixiga oid deyarli barcha tarixiy qoʻlyozma manbalarda voqealarga doir Akmal tomonidan yozilgan taʼrix-sheʼrlar keltiriladi. Gʻoziy devonida ham koʻp taʼrix-sheʼrlar uchraydi. Taʼrix – sheʼr yozishdan maqsad biror ahamiyatli hodisaning sodir boʻlgan vaqtini tarixda qoldirish boʻlsa, Gʻoziy shunday fardlar vositasida oʻzining gʻoyaviy yoki ijtimoiy yoki tanqidiy fikrlarini bayon qiladi.

Jumladan, Gʻoziy sheʼrlarida Mirzo Boburning «yoz fasli, yor vasli, doʻstlarning suhbat...» misrasi bilan boshlanuvchi gʻazali ruhida yozilgan bir gʻazal mavjud. Yetti baytdan iborat tadriji bu gʻazalning har baytida yoritilayotgan mavzu rivoji davomida qiziqarli manzara va holatlar tasviri, bir-biri muntazam toʻldirib boruvchi va yakpora bir syujetni yuzaga keltiruvchi voqealar tavsilotlari mavjud:

Soqiyo, boʻldi gul ayyomi keturgil sahbo,
Kim havo moʻtadilu gulshan erur ruhfito.
Gʻuncha handonu chaman sabza, bulut qatrafishon,
Bazm asbobini tuz bulbul oʻla nagʻmasaro.
Boʻlsa bir dilbari mayxorau bir goʻshai bogʻ,
Bingzamas hur ila firdavs xudo shohid ango.

Mundin ortuq na emish hashmati davlat anga kim,
O'la bir mutribu bir jom labolab mino.
Ko'z yumub, mast bo'lub, noz ila ul mahvash,
Turki ash'or uqub cholsa qo'buz vovaylo.
Boda ichmakdin o'shal kim bu mahal tavba qilur,
Bexabar g'uldurur, odam emazdur aslo.
G'oziyni mast ko'rub yori bila zohid ham,
Ayladi mayg'a garov subhau dastoru rido.

Shu tariqa, nozikfahm, nuktadon shoir G'oziy Bobur va o'z davri adabiy hayoti an'alarini chuqur o'zlashtirar ekan, bu an'analarni o'zining o'tkir tafakkuri, donishmandona falsafiy qarashlari, betakror badiiy uslubi bilan yanada boyitdi va yangiladi. Uning she'riyatida shakl va mazmun birligi, aql-idrok, ilm va hissiyot uyg'unligi, vazminlik va me'yor doirasidagi didaktika, o'ziga xos badiiy san'atkorlik namoyishi mujassam.

Qo'qon adabiy muhitining mutafakkir ijodkorlari ham o'z o'quvchisining ko'ngil mulki, ko'ngil oynasiga nazar tashlagan Bobur kabi qalbi dilbar qalamkashlar edi. Qalb pokligi, ma'rifat faqat ko'ngil ziynati ekanligi, insonning asosiy mazmuni uning ko'ngli holiga qarab ma'lum bo'lishi masalasi, insonparvar Sharq mutafakkirlari ijodiyotlarida singib ketgan g'oyalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Bobur Z.M., Sochining savdosi tushti. Nashrga tayyorlovchi Ergash Ochilov. – Toshkent: Sharq, 2007-y.
2. Bobur devoni. Kobul nashriga takmila(qoshimcha). Nashrga tayyorlovchi Shafiqa Yorqin. – Toshkent: Sharq, 2004-y.
3. Нодира-Комила. II китоб. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2004.
4. Ғозий. Девон. Инвентар №121 Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди.
5. Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. IV том. Тошкент, 1978. 24-25 б.
6. Салоҳий Д. Бобур ва Нақшбандия. «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали. 2013. №1. – Б. 53.

Tohirov Sobirjon Qobilovich,
folologiya fanlari nomzodi,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti,

ALISHER NAVOIYNING “MEZON UL-AVZON” HAMDA BOBURNING “MUKHTASAR” ASARLARIDA AYRIM ARUZIY ISTILOHLARNING IZOHI XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada aruz ilmiga doir turkiy tilda yaratilgan ikki asosiy manba – “Mezon ul-avzon” hamda “Muxtasar” risolalarida ba'zi bir terminlarning qo'llanilishi, ta'rifi va izohlariga doir tafovutlar tadqiq etiladi.

Alisher Navoiy va Bobur asarlari uchun asosiy manba vazifasini bajargan Qays Roziy hamda Nosiruddin Tusiy asarlaridagi fikr va ma'lumotlar bilan qiyoslash asosida mazkur tafovutlarning sabab va mohiyati, bugungi aruz ilmidagi ahamiyati hamda nashrlardagi muammolar xususida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: “Mezon ul-avzon”, “Muxtasar”, “Al-Mu’jam”, “Meyor ul-ash’or”, zihof va furu’lar, arab, fors va turkiy aruz, aruz doiralari.

Abstract. This article examines the differences in the use, definition and explanations of some terms in the two main sources of the Turkish language of Aruz science - "Mezon ul-Avzon" and "Mukhtasar" treatises. Based on the comparison with the ideas and information in the works of Qais Razi and Nasiruddin Tusi, who served as the main source for the works of Alisher Navoi and Babur, the reasons and essence of these differences, their significance in today's science of aruz, and the problems in publications are discussed.

Key words: "Mezon ul-Avzon", "Mukhtasar", "Al-Mu'jam", "Meyor ul-Ash'ar", zihof and furu'lar, arabic, persian and turkish aruz, aruz circles.

Aruzshunoslik tarixida XV-XVI asrning birinchi yarmi, ya'ni temuriylar davri alohida o'ringa ega. Shu davrda, aniqrog'i, 1437-yilda Shayx Xudoydodi Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bek topshirig'i bilan yozgan “Funun ul-balog'a” asari turkiy tilda mazkur masala tahliliga bag'ishlangan ilk manba bo'lganligi bilan ahamiyatlidir. Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy”, Zahiriddin Boburning “Muxtasar”, Atoulloh Husayniyning “Badoye' us-sanoye” kabi asarlarida ham she'rshunoslikning boshqa jihatlari (janrlar, badiiy san'atlar) bilan bir qatorda, turkiy va forsiy aruzning nazariyasi hamda o'z davriga ko'ra vazn amaliyotiga oid fikr-mulohazalar, qonuniyatlar o'z ifodasini topgan. Sanalganlar orasida Navoiy va Boburning asarlari turkiy – o'zbek tilida ekanligi hamda shu muammoga maxsus bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.¹ G'iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida “Mezon ul-avzon” haqida shunday yozadi: “Hazratning she'riyatning nozik jihatlari borasidagi katta mahorati va tajribasi ana shu risoladan (“Mezon ul-avzon”) ma'lum bo'ladi. Chunki [ul Hazrat ushbu asarda] ilgari yashab o'tgan shoirlarning aql yog'dusi unga tushmagan bir necha go'zal bahrni aruz bahrlari qatoriga qo'shganlar”. [Xondamir, 2015: 44] XVI asrning yana bir mutafakkir olimi Hasanxoja Nisoriy esa “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Boburning “Aruz risolasi” (“Muxtasar”)ni “durru gavharga to'la dengiz” deya yuksak baholagan edi.

Aruz nazariyasi va amaliyotiga oid yaratilgan va yaratilayotgan adabiyotlarning aksariyati u yoki bu manba (ko'pincha “Mezon ul-avzon” yoxud “Muxtasar”)ga tayanib yozilayotganligi uchun o'sha manbalardagi, ularning nashrlaridagi kamchiliklar takrorlanmoqda. Natijada, qoidalar, nomlanishlardagi tafovutlar yuzaga kelmoqda.

Quyida shulardan ayrimlari haqida fikr-mulohazalarimizni bayon etamiz.

¹ Temuriylar davrida yaratilgan aruz ilmiga oid asarlar haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Yusupova D. “Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili”. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. www.navoiy-uni.uz, www.ziynet.uz.

Ma'lumki, aruz ilmining eng murakkab qirralaridan biri zihof va furu'lar ya'ni asl ruknlarning o'zgarish usullari va tarmoq ruknlar haqidagi qoidalar va atamalardir. Ayni shu masalada aruziy manbalarda bir qator tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, **maf'uvlotu** asl ruknining o'zgarish usullari (zihoflari)dan biri "Mezon ul-avzon"da **kashf** tarzida "Muxtasar" hamda "Badoye' us-sanoye"da **kasf** tarzida berilgan. Uming furu'i ham shu tarzda **makshuf** hamda **maksuf** tarzida ifodalanadi. Xamsalarning ilk dostonlari vazniga xos bo'lgan ushbu atama aksariyat forsiy manbalarda ham kasf tarzida yozilgan. So'zning lug'aviy ma'nosi (kasf-tovoni kesilgan) ham istilohiy ma'nosiga mos keladi.

"Mezon ul-avzon"da **mafo'iylun** aslining zihoflaridan biri:

1. "**Kaf**" – mafo'iylun "nun"ining isqotidur, to mafo'iylun qolg'ay [2. 48].

Shu manbada **fo'ilotun** aslining zihoflaridan biri:

2. "**Kaf**" – beshinchi harf isqotidur, bas fo'ilotun fo'ilon bo'lg'ay. [2. 49].

Yana shu yerda "fo'ilatun – **makfuf**".

Fo'ilotundan beshinchi harf ("ilo" juzvidagi "alif") olib tashlansa, chindan ham "fo'ilatun" so'zi hosil bo'ladi. Biroq bunday vazndagi rukn "mufta'ilun" bo'lib, u "fo'ilotun"ning zihoflari orasida mavjud emas. Aslida "kaff" beshinchi emas yettinchi harf isqoti. Boburning "Muxtasar"ida shunday berilgan: "*Kaff, sababi xafifning yettinchi sokinini hazf qilmog'lig'dur fo'ilotun fo'ilotu bo'lur*" [6. 19].

Binobarin, buni "Mezon ul-avzon"ning qo'lyozmasi yoxud nashridagi nuqson sifatida e'tirof etish mumkin.

Shunday holatlar "Muxtasar"ning nashrida ham kuzatiladi. Qiyoslab ko'ring:

Atoullloh Husayniyning "Badoyi'u-s-snoyi" asarida	Zahiriddin Boburning "Muxtasar" asarida
<p>"Xarm – bayt boshi va ba'zan ikkinchi misra boshidag'i juzvning <i>vata<i>d-i majmu'idin birinchi mutaharrik harfni tushurmaktur...</i> Agar... mafo'iylun bo'lsa-yu xarm vaqtida solim bo'lsa, axram derlar. Xarm qilg'ach, fo'iylun bo'lur va aning o'rnig'a maf'uvlunni qo'yarlar" [3. 17].</i></p>	<p>"Jazm, vatadi majmu'ning avvalg'i mutaharrik isqot qilmog'lig'dur. Vuqu'i mafo'iylunda bo'lsa (fo'iylun qolur) maf'uvlun aning yeriga qo'yarlar, ajzam derlar" [6. 20].</p>
<p>"Xazm ersa arab ash'ori zihoflaridandur va ul bayt boshida ma'no e'tibori bila lozim-u aytilish jihattin lozim bo'lmag'an <i>bir nimani orttirmoqtin</i> iboratdur" [3. 18].</p>	<p>"Xarm, baytning avvalig'a bir nima ziyoda qilmog'lig'dur. Bu zoyid bir harf bo'lur yo ikki harf, ko'prak ham topibturlar... arab ash'orining azohifidur¹ ajamda musta'mal emas (amalda qo'llanmaydi)" [6. 21].</p>

¹ Azohif – zihof so'zining ko'plik shakli.

Qiyoslashdan ma'lum bo'ladiki, "Muxtasar"da "xarm" so'zi "jazzm" deb noto'g'ri yozilgan (yoxud o'qilgan), "xazzm" so'zi esa "xarm" deb berilgan.¹ "Jazzm" nomidagi juzv boshqa biron bir manbada mavjud emas.

Yana bir misol:

"Mafo'iyulun" asl ruknidan bitta cho'ziq hijo (sababi xafif)ning, ya'ni "fa'" ruknining qolishi hodisasi uchta manbada uch xil izohlanadi. Xususan,

"Funun ul-balog'a"da:

"Xazz va hazfkim, "mafo'iyulun"ni xazz qilsoq, "iyulun" qolur va hazf qilsoq, "iy" qolur. Aning evazi "fa'"ni qo'yduk" (Axazzi mahzuf) [4].

"Muxtasar" ("Aruz risolasi")da:

"fa'" (axrami majbub). [6. 23- va 55-betlar].

"Mezon ul-avzon"da:

"Batar" – "jabb" va "xarm" ijmoidur, mafo'iyulunda bas fo qolg'ay, fa' aning o'rnig'a qo'yarlar [2. 49].

Demak, ruboiy vaznlarining to'rtinchi ruknlarida qatnashuvchi mazkur hodisa:

- Alisher Navoiyning fikri bo'yicha, **batar** zihofi hamda **abtar** furu'i;
- Boburning ma'lumoti bo'yicha, faqat furu', ya'ni **axrami majbub**;
- Ahmad Taroziy ma'lumotiga ko'ra esa, **axazzi mahzuf**, ya'ni bu ham zihof emas, faqat furu'.²

Ruboiy vaznlariga xos bo'lgan mazkur rukn (fa') Boburning "Muxtasar"ida "axrami majbub" [1. 23], Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida esa "abtar" [2. 48] deb nomlanmoqda. Buning qaysi biri to'g'ri degan savolga javob berish uchun "batr" va "abtar" istilohlari atrofidagi fikr-mulohazalarni umumlashtirish, qiyoslash lozim bo'ladi.

Zamonaviy aruzshunoslikda, xususan, A.Hojjahmedovning kitoblarida Alisher Navoiy asaridagi ma'lumotga hamohang fikr bildiriladi:

Abtar. "Mafoiylun" aslining "batar" ("ildizidan ag'darish") zihofi bilan o'zgartirilishi oqibatida hosil bo'lgan *fa* (chizmasi: –) tarmoq ruknining nomi bo'lib, "ildizidan ag'darilgan" degan manoni ifodalaydi [3. 7].

"**Batar**" zihof nomi bo'lib, "ildizidan ag'darish" degan manoni ifodalaydi. Bu xil o'zgarishga duch kelgan *mafoiylun* aslining oldingi uch hijosi tushirilib, qolgan *lun* qismi o'ziga teng *fa* tarmoq rukni bilan almashtiriladi va "ildizidan ag'darilgan" manosida abtar deb yuritiladi [3. 37].

"Abtar" so'zi arab tiliga oid bo'lib, "batrun" yoki "batarun" o'zagidan hosil bo'lgan. "Ruscha-arabcha lug'at"da ushbu so'z "*otdelit, otrezat, otrubat*" (ajratmoq, kesmoq, arralamoq) deb tarjima qilingan [6. 64].

"Farhangi zaboni tojiki" kitobida esa bu so'z quyidagicha izohlanadi:

Abtar a. ابتر dumburida (dumi kesilgan), ko'tohdum, kaltadum [7. 30].

¹ Bu qo'lyozmani o'qishdagi xatolik bo'lishi ham mumkin. Chunki bu so'zlar nihoyatda o'xshash bo'lib, nuqtalar bilangina farq qiladi.

² Bu haqda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun qarang: Tohirov S. "Aruz terminologiyasidagi "batr" va "abtar" atamallari haqida // Terminologiya va terminografiya masalalari (Ilmiy anjuman materiallari). –Sam.: SamDU nashri, 2011. 116-120-betlar; Tohirov S. "Aruz terminologiyasiga oid bir jumboq xususida". Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari). – T.: Navoiy universiteti NMU, 2019. 197-202 – betlar. Ikkinchi maqola matni ilovada berilgan (4-ilova).

Bu ma'lumotni arabshunos A.Rustamov ham tasdiqlaydi: Batrning lug'aviy manosi cho'ntoq qilish, dumini kesishdir [4. 283].

Demak, "batr" yoki "abtar" so'zlari "qo'porib tashlash" emas, "dumini kesish" degan ma'noni ifodalaydi. Buning muhim tomoni shundaki, aruz atamasi sifatida u ruknning bir tomondan (oxirdan, dumdan) qisqarishini nazarda tutadi.

Endi "batar" zihofi (ruknning o'zgarish usuli) va "abtar" furu'i (o'zgarish natijasi) haqida Alisher Navoiy va Zahiriddin Boburning fikrlarini qiyoslab ko'ramiz.

"Mezon ul-avzon"da quyidagilarni o'qiymiz:

"Batar" – "jab" va "xarm" ijtimoidur (birgalikda qo'llanishi – S.T.), *mafoiylunda* bas *fo* qolg'ay, *fa* aning o'rnig'a qo'yarlar... "Xarm" *mafoiylun* "mim"ning isqoti (olib tashlanishi – S.T.)dur, to *foiylun* qolg'ay, va *mafuvlun* aning o'rnig'a bitarlar... "Jabb" – ikki sababi xafif isqotidur, bas *mafoiylundin mafo* qolg'ay va *faul* aning o'rnig'a qo'yarlar [2. 48].

Demak, Navoiyning fikriga ko'ra, "*mafo'iylun*" ruknining **"batar"** usulida qisqarishida dastlab oxirgi ikki cho'ziq hijo (sababi xafif – *iy* va *lun*), so'ngra boshidagi harakatli harf (*ma*) olib tashlanadi. Natijada, bitta cho'ziq hijo (*fo*) qoladi.

Boshqa bir o'rinda shunday izohni uchratamiz: **"Batar"** – *fauvlunda* vatadi majmu isqotidur, *lun* qolur, *fa* aning o'rnig'a qo'yarlar [2. 51].

Shu o'rinda ikkita nomutanosiblik yuzaga keladi:

1. Ruknlarning o'zgarish shakllari (zihoflar) qaysi ruknda yuz bermasin, bir xil turdagi o'zgarishni nazarda tutadi. Biroq yuqoridagi ikki sharhda **"batar"** usuli ikki xil o'zgarishni ifodalamoqda. Bu esa aruzga oid nazariy tamoyillarga xilofdir.

2. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, lug'aviy ma'nosiga ko'ra **"batr"** bir tomondan, aniqrog'i, oxirdan qisqarish (dumini kesish)ni nazarda tutadi. Yuqoridagi tarifda esa rukn bir o'rinda har ikki tomondan, bir o'rinda boshidan qisqarmoqda. Bu lug'aviy va istilohdagi ma'no o'rtasida nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Boburning "Muxtasar" asarida **"batr"** va **"abtar"** istilohlari quyidagicha sharhlanadi:

"Batr" – hazf bila qat'ning ijmoidur (birgalikda qo'llanilishi – S.T.), nechukkim *fa'uylun* – *fa'* bo'lur va *fo'ilotun fo'il* bo'lur, *fa'lunni fo'il*ning yeriga qo'yarlar, mug'ayyar(o'zgargan – S.T.)ni abtar derlar...

Hazf, sababi xafifning isqotidur ruknning oxirindin...

Qat' vatadi majmu'ning sokinining isqoti va ikkinchi mutaharrik (harakatli harf – S.T.)ining iskoni (sokinga aylantirilishi – S.T.)dur... [1. 20]

Boburning fikriga ko'ra, **"batr"** usulida dastlab ruknning oxirgi cho'ziq hijosi olib tashlanadi (hazf), so'ngra oxirgi sokin harf olib tashlanib, undan oldingi harakatli harf sokinga aylantiriladi. Buni "fa'uylun" va "fo'ilotun" ruknlari misolida quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Fa'uylun → fa'uv → fa'u → fa'

Fo'ilotun → fo'ilo → fo'ila → fo'il = fa'lan

"Mafo'iylun"ni shu usulda qisqartirganda quyidagi rukn kelib chiqadi:

Mafo‘iylun → Mafo‘iy → Mafa‘iy → Maf‘iy = fa‘lan
(Izoh: Fo‘ilotun ruknida vatadi majmu‘ “‘ilo”, mafo‘iylun ruknida esa “mafo”).

Ma‘lum bo‘ladiki, “Mafo‘iylun”ni “**batr**” usulida qisqartirganda ham “fa‘lan” rukni kelib chiqadi. Biroq bunday rukn “mafo‘iylun”dan hosil bo‘ladigan bahrlarda, xususan, ruboiy vaznlarida qo‘llanmaydi.

“**Batr**” zihofiga oid bu kabi ikki xillik tojik aruzshunosligida ham kuzatiladi. Jumladan, Bahrom Sirusning “Aruzi tojiki” risolasida shunday ma‘lumot keltiriladi:

1. **Batr** – dar zihofi ajam ijtimoi jabb va xarm ast.

2. **Batr** – dar fa‘uvlun ijtimoi salm va hazfro go‘yand [5. 85].

Birinci fikr Alisher Navoiy tarifi bilan aynan bir xil. Ikkinchi tarif esa natija nuqtai nazaridan bir xil bo‘lsa-da, qisqarish usuliga ko‘ra farq qiladi. Zero “salm” usuli vatadi majmu‘dagi dastlabki harakatli harfning olib tashlanishini ifodalaydi:

Bahrom Sirusda – fa‘uvlun (salm) → ‘uvlun (hazf) → ‘uv = fa‘

Navoiyda – fa‘uvlun (sababi xafif tushiriladi) → lun = fa‘

Bahrom Sirus mazkur zihofga oid chalkashliklar mavjudligini ham qayd etadi: “Batr yake az on zihofhost, ki aksaran boisi gumrohii xonandagon meshavad” (*Batr ko‘pincha o‘quvchilarni chag‘itadigan zihoflardandir*) [5. 96].

Mazkur masalani oydinlashtirishga yordam beradigan manbalardan yana biri Atoulloh Husayniyning “Badoyi us-sanoyi” asaridir: “**Batr** – hazf bila qat‘ning jam‘idur. Chunonchi, *fa‘uvlunni fa‘* qilurlar; *fo‘ilotunni fo‘il* qilurlar, o‘rnig‘a *fa‘lanni* qo‘yarlar va o‘zgargan juzvni abtar derlar” [4. 16].

Ma‘lum bo‘ladiki, bu borada Husayniyning fikri Bobur fikriga monand.

Atoulloh Husayniyning asarida bitta qo‘shimcha ma‘lumot ham mavjudki, u muammoning asl sababini aniqlashga yordam beradi:

“Shams-i Qays (“Al-Mu‘jam” asarining muallifi Qays Roziy – S.T.) fa‘uvlun zihoflarining bahsinda batr ajam ash‘orida kelmas deptur. Mafo‘iylun zihoflarining bahsinda ersa, depturkim, batr ajam zihofida mafo‘iylun da jabb bila xarm jam‘idur, *fo* bo‘lur, aning o‘rnig‘a *fa‘*ni qo‘yarlar” [4. 16].

Demak, “batr” atamasining manosiga doir ikki xil fikr va qarash Shamsiddin Qays Roziyning asari tufayli yuzaga kelgan. Olim “batr” yoki “abtar” usuli arab she‘riyatiga xos bo‘lganligini inobatga olib, ajam aruzidagi boshqa bir hodisani, ya‘ni “xarm” bilan “jabb” usullarining birlashuvi (“axrami majjub”)ni shu nom bilan atashga qaror qilgan. Bu esa bir tomondan qulaylik keltirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bitta atamaning ikki xil talqinini yuzaga keltirib, ayrim aruziy tamoyillarning buzilishiga sabab bo‘lgan. Zero Atoulloh Husayniy ta‘biri bilan aytganda: “...fo‘ilotunda batr fors ash‘orinda ko‘p voqe‘ bo‘lur, garchi ul ani ssalm deb ataptur”.

Keltirilgan fakt va ma‘lumotlar, fikr-mulohazalarni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin:

“**Batr**” va “**abtar**” istilohlari arab tilidan olingan bo‘lib, “kesib tashlangan” yoki “dumi kesilgan” degan lug‘aviy ma‘nolarni ifodalaydi. Binobarin, u ruknning bir tomondan, ya‘ni oxiridan qisqarishini nazarda tutadi.

Aruz ilmida “**batr**” zihofi “**hazf**” bilan “**qat**” zihoflarining birgalikda bajarilishini ifodalaydi (Zahiriddin Bobur, Atoulloh Husayniy). Bu usulda “*fo‘ilotun*” dan “*fa‘lun*” rukni hamda “*fa‘uvlun*” dan “*fa*” rukni hosil bo‘ladi. Ruknning aynan shu tarzda qisqarishi so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga ham mos bo‘lib, qisqarish bir tomondan – oxirgi juzvlardan boshlab yuz beradi.

Ruboiy janri uchun xos bo‘lgan “*Mafo‘iyulun*” ruknini “**batr**” usulida qisqartirganda “*fa*” emas, balki “*fa‘lun*” rukni kelib chiqadi. Biroq bunday rukn “*mafo‘iyulun*” dan hosil bo‘ladigan bahrlarda, xususan, ruboiy vaznlarida qo‘llanmaydi.

Ruboiy vaznlarida qo‘llanuvchi “*fa*” rukni “*mafo‘iyulun*” ni “**xarm**” va “**jabb**” usulida qisqartirish natijasida hosil qilingan. Binobarin, uning to‘g‘ri nomlanishi “**axrami majbub**”. Uning o‘rniga ko‘pchilik e’tirof etganidek, **abtar** atamasini qo‘llash, bizningcha, ma‘qul ish emas. Zero bu aruz ilmiga oid ikki tamoyilning buzilishiga sabab bo‘ladi. Birinchidan, bunda rukn ikki tomondan qisqaradi. Bu esa so‘zning lug‘aviy ma‘nosi (dumi kesilgan)ga mutanosib emas. Ikkinchidan, abtar atamasi ikkita bir-biridan farqli hodisaning nomiga aylanadi. Bu esa tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “Mezon ul-avzon” hamda “Muxtasar” (“Risolayi aruz”) asarlarining joriy nashrlarini qiyoslaganda ayrim aruziy istilohlar hamda qoidalarda bir qator tafovutlar kuzatiladi. Ularning ayrimlari transliteratsiya va nashrga tayyorlash jarayonidagi kamchiliklar bo‘lsa, ayrimlari muayyan masalaga mualliflarning ikki xil munosabati natijasidir. Ularni qiyosan tadqiq etish tanqidiy matnlardagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda u yoki bu masalaga mualliflarning munosabatini yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Bobur. Muxtasar (Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov). – T.: Fan, 1971.
2. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 1999.
3. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – T.: Sharq, 1998.
4. Atoulloh Husayniy. Badoyi‘u – s – sanoyi‘ (Forschadan A.Rustamov tarjimasini). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
5. Bahrom Sirius. Aruzi tojiki. – Dushanbe, 1963.
6. Arabsko-russkiy slovar (Sostavitel X.K.Baranov). – M., 1962.
7. Farhangi zaboni tojiki. I jild. - Moskva: Sovetskaya Ensiklopediya, 1969.

Xoliqulova Gulsanam,
filologiya fanlari nomzodi,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti

BOBUR ADABIY MUHITINING XUSUSIYATLARIDAN BIRI HAQIDA

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri turkiy va forsiy tillarga asoslangan ikkitillilik - zullisonaynlik

hodisasidir. Mazkur hodisaning vujudga kelishi bir necha omillarga bog‘liq bo‘lib, maqolada ular misollar bilan ilmiy dalillandi. Bobur yetishib chiqqan ijtimoiy-siyosiy hayot, Xuroson va Movarounnahr adabiy muhitida shakllangan turkiy va fors-tojik tillaridagi ikkitillilik, ta’lim-tarbiya tili sifatida arab tili qatorida forsiy va turkiy tillarining yetakchiligi, Bobur saroyidagi ikki tilga asoslangan muloqot kabilar mazkur hodisaning vujudga kelish omillari sifatida ko‘rsatildi. Bunda Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” kabi tazkiralari hamda Boburning “Boburnoma”, “Risolayi aruz” asarlarida muallif tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga, materiallarga asoslanib fikrlar bildirildi, xulosalar berildi.

Kalit so‘zlar: Bobur, adabiy muhit, zullisonaynlik, omillar, turkiy va fors-tojik adabiyoti.

Annotation: One of the unique features of the literary environment of Zahiriddin Muhammad Babur is the phenomenon of bilingualism based on Turkish and Persian languages. The emergence of this phenomenon depends on several factors, which were scientifically proven with examples in the article. Babur's socio-political life, the bilingualism of Turkish and Persian-Tajik languages formed in the literary environment of Khurasan and Movarounnahr, the leadership of Persian and Turkish languages along with Arabic as the language of education, the bilingual communication in Babur's palace, etc. shown as Opinions and conclusions were given based on Hasankhoja Nisari's "Muzakkiri ahbob", Fakhri Hiravi's "Ravzat us-Salatin" and Babur's "Boburnoma", "Risalayi Aruz" works.

Key words: Babur, literary environment, Zullisonaynism, factors, Turkish and Persian-Tajik literature.

Qadim zamonlardan boshlab o‘zbek xalqi qo‘shni xalqlar bilan yaqin iqtisodiy, madaniy aloqada bo‘lib kelgan. Bu yaqinlik ilm-fan, badiiy adabiyot sohasida ham o‘z ifodasini topgan. Zullisonaynlik – ikki tilda ijod etish ana shu zaminda muayyan omillar asosida vujudga kelgan bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Turkiy va fors-tojik tiliga asoslangan zullisonaynlik Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan shoirlar, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosi va u asos solgan adabiy muhitda ham yaqqol kuzatiladi. Mazkur hodisaning Bobur ijodida va u asos solgan adabiy muhitda shakllanishi va davom etishi bir nechta omillar bilan bog‘liq. Bu omillar quyidagilar:

1. *Bobur yetishib chiqqan ijtimoiy-siyosiy hayot va adabiy muhitda shakllangan turkiy va forsiy zullisonlaynlik.* Ma’lumki, o‘rta asrlar Xuroson va Movarounnahrda, xususan, Bobur tug‘ilib voyaga yetgan Andijonda ham ikki tilda muloqot hamda adabiy muhitda zullisonaynlik mavjud edi. Mazkur adabiy muhit vakillaridan Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Navoiy kabi qalam ahlining adabiy merosi Zahiriddin Muhammad Boburning turkiy tildagi ijodiga qay darajada adabiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, fors-tojik adabiyotining Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa’diy Sheroziy, Xoja Hofiz, Abdurahmon Jomiy kabi mashhur namoyandalarning asarlari ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

“Boburnoma”da Umarshayx Mirzoning “Xamsatayn” (Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa”lari)ni, “masnaviy kitoblar”ni va ko‘pincha Firdavsiy “Shohnoma”si singari forsiy tildagi asarlarni o‘qigani haqidagi tafsilotlar Boburning qanday muhitda ta’lim-tarbiya topib, ulg‘ayganligini yana bir bor ochiq ko‘rsatadi. Mazkur omil Boburning turkiy til singari fors-tojik tilida ham erkin muloqotda bo‘lishi, fikrlashi hamda ijod etishi uchun zamin yaratdi.

2. *Ta’lim-tarbiya tili sifatida arab tili qatorida forsiy va turkiy tillarining yetakchiligi.* Bu davrlarda ta’lim tizimida diniy, dunyoviy bilimlar qatorida “ilmi balog‘a”ga hamda badiiy adabiyotga oid asarlar ham o‘qitilar edi. Unda asosan forsiy adabiyotning Rudakiy, Firdavsiy, Farididdin Attor, Abdulqodir Bedil, Shayx Sa’diy, Xofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi mashhur namoyandalari asarlariga e’tibor ko‘proq qaratilar edi. [Valixo‘jayev B., 2001: 34] Chunonchi, Boburning “Aruz risolasi” muallifning “ilmi aruz”, “ilmi qofiya”, “ilmi badi’e” tahsilida ham fors-tojik adabiyoti va adabiyotshunosligidagi ko‘plab ilmiy, adabiy va badiiy asarlar bilan tanishganligini dalillaydi. Bu haqda boburshunos olim S.Hasanov shunday yozadi: “U (Bobur – X.G.) Navoiyning «Mezon ul-avzon» asari bilan birga, arab aruzi asoslarini, fors-tojik adabiyoti namoyandalari Rashididdin Vatvot, Nasiriddin Tusiy, Shamsiddin Muhammad ar-Roziy, Sayfiy Buxoriy va boshqalarning aruz, she’riy san’atlar haqida risolalarini sinchiklab o‘rgandi. Bobur salaflari orttirgan boy tajriba va erishgan yutuqlar asosida bu nazariyaning asoslaridan, boshqa xalqlar singari, turkiy xalqlarning ham bahramand bo‘lishini istadi”. [Hasanov S., 1981: 5-6] Natijada fors-tojik tilida ham badiiy asarlar yaratdi, ham shu tildagi ilmiy-adabiy asarlar ta’sirida turkiy tilda “Aruz risolasi”dek mukammal ilmiy asarni vujudga keltirdi.

3. *O‘rta asrlar, xususan, XV-XVI asrlar Movarounnahr va Xuroson adabiy muhitida mumtoz fors adabiyotining mavqei yuqori bo‘lganligi.* Turkiy tildagi adabiyotning shakllanish va rivojlanishida fors-tojik adabiyoti ijod maktabi vazifasini o‘taganligi tabiiy. Bu haqda Y.Is’hoqov shunday yozadi: “Turkiy tildagi yozma adabiyot rivojlanish bosqichida bo‘lgan davrda fors adabiyoti tajribalari adabiy iste’dod mezoni, fors adabiyotining bir qator namunalari esa muayyan janrlarning ideal modeli hisoblanar edi... Traditsion tarbiya va fors adabiyoti an’analarining ta’siri shu darajada ediki, ba’zi turkigo‘y shoirlar (hatto Navoiy ham) o‘z ijodlarining dastlabki paytlarida ko‘proq forsiy tilda asarlar yozishgan”. [Ishoqov Y., 1978: 14] Shuning uchun bo‘lsa kerakki, Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z ijodida fors-tojik adabiyotining mumtoz namunalaridan unumli foydalanadi, yoshligidanoq shu tilda she’rlar mashq qiladi. “Boburnoma”da yozilishicha, muallifning ilk forsiy tildagi ijod namunalari 16-17 yoshlarida yaratilgan. Bu haqda asarning 1499-1500 yillar voqeasi tasvirida shunday yoziladi: “Ul mahallar birar bayt, ikkirar bayt forsidin aytur edim. Bu baytni anda aytib edim.

Bayt:

Hech kas chun man xarobu oshiqu rasvo mabod,
Hech mahbube chu tu berahmu beparvo mabod”.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002, 75]

Boburning fors-tojik tilidagi asarlarining salmog‘i ham uning forsiy adabiyotdan qay darajada oziqlanganligini ko‘rsata oladi.

4. *Bobur saroyidagi ikki tilga asoslangan muloqot.* Bizga ma‘lumki, Bobur atrofidagi amir-u umaro, shoir-u fuzalo, sipoh-u beklar ham turkiy, ham forsiy tilda erkin so‘zlashar, bir tildan ikkinchi tilga bemalol o‘tib ketar edi. Ya‘ni Alisher Navoiy ta‘kidlaganidek, “Turkning ulug‘idin kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidin bahramand” edi. Adabiy muhitda mazkur an‘ana vujudga kelishining ilk sababi Boburning o‘zi ham, uning saroy ahli ham, saroydagi adabiy muhit vakillari ham bu ikki til - turkiy va fors-tojik tilida erkin muloqot qilishlari edi. Yana bir sababi Boburning o‘z asarlarini turkiy va forsiy tilda yaratishi bilan birga, adabiy davralarni, she‘rxonliklarni, yozishmalarni ana shu tillarda amalga oshirishidir. “Boburnoma” asarida bu fikrlarni dalillovchi ko‘plab misollar uchraydi. Jumladan, asardagi quyidagi parchaga e‘tibor qaratsak: “Chahorshanba kuni, sabuhiy qilg‘onda mutoyaba jihatidin deyildikim, har kim sortcha aytsa bir ayog‘ ichsun, bu jihattin ko‘p kishi ayog‘ ichti. Sunnat vaqtida chaman o‘rtasidag‘i tollar ostida o‘lturuldi. Deyildikim, har kishi turkicha aytsa bir ayog‘ ichsun. Bunda ham g‘alaba kishi ayog‘ ichti”. [6; 181] Demak, Bobur atrofidagi turli soha vakillari, shuningdek, adabiy muhit vakillari uchun har ikkala til ham erkin muloqot tili bo‘lgan.

“Boburnoma”dan yana bir misol. 1525-yil voqealari tafsilotidagi she‘rxonlik haqida Bobur shunday yozadi: “Jolada she‘r aytur el xeyla bor edi. Misli, Shayx Abul Vajd va Shayx Zayn va Mullo Alixon va Turdibek Xoksor, yana ba‘zilar ham bordi edi. Suhbatta Muhammad Solihning bu bayti mazkur bo‘ldikim:

Joe ki tu boshi digarero chi kunad kas,
Mahbubii har ishvagarero chi kunad kas, -

dedukkim, bu go‘shada aytsunlar. Tab‘i nazmi bor el aytmoq maqomida bo‘ldilar”. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 185] Ushbu parchadan ma‘lum bo‘ladiki, Bobur saroyidagi she‘rxonliklarda nafaqat turkiy (o‘zbek), shuningdek, fors-tojik tili vakillari ijodidan ham bahramand bo‘lganlar, ularga ijodiy ergashib javoblar qaytarganlar, tahlil etganlar. Shu tariqa ijodkorlar har ikki tilda birdek ijod etishga rag‘bat sezganlar.

Bu omillarning barchasi Zahiriddin Muhammad Boburning zullisonayn ijodkor sifatida yetishib chiqishiga sabab bo‘lgani holda, u tomonidan shakllangan adabiy muhitda ham bu hodisaning vujudga kelishini ta‘minlagan. Shuningdek, Bobur adabiy merosi uning turkiy tilning yetuk darajadagi bilimdoni, suhandoni, tadqiqotchisi ekanligini ko‘rsatishi bilan birga, fors-tojik adabiyotiga qay darajada e‘tiborli bo‘lganligi, ular bilan yaqindan tanishligi va o‘z asarlarida ulardan unumli foydalanganligini oydinlashtiradi. Bu, ayniqsa, turkiyda yaratilgan “Aruz risolasi” va “Boburnoma”da yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bobur “Aruz risolasi”ni yaratar ekan, nazariy jihatdan, forsiy tildagi ilmiy manbalarga suyanishi bilan birga, namunalarni turkiy, forsiy va arabiy she‘riyatdan keltiradi. Asarda keltirilgan Rudakiy, Salmon Sovajiy, Fariddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz, Shayx Sa‘diy, Abdurahmon Jomiy, Kamol Xo‘jandiy, Vohid Tabriziy, Nosir Buxoriy, Shohiy, Kotibiy, Binoiy, Osafiy, Anvari, Xoqoniy, Xoja Xirad Samarqandiy, Shahidiy, Hiloliy, Sayfiy, Xoja Ismat

Buxoriy, Xayoliy, Mahmud Xasratiy, Sohib Balxiy, Parqud Foni, Orif Farkatiy, Riyoziy Samarqandiy, Zuhuriy, Mahviy, Yusuf Andijoniy, Ahmad Hojibek kabi ijodkorlar qalamiga mansub fors-tojik tilidagi ko‘plab namunalarning mualliflari ko‘rsatilgan holda keltirilishi fikrimiz dalilidir. [Zahiriddin Muhammad Bobur, Aruz risolasi: 2022]

“Boburnoma”da ham fors-tojik tilidagi she‘riy baytlar anchagina. Hatto asarda keltirilgan turkiy tildagi baytlar sonidan ortiqroq ham. Asarda to‘qsondan ortiq she‘riy parcha bo‘lsa, shundan o‘ttizga yaqini turkiy tilda, oltmishdan ortig‘i fors-tojik tilidagi she‘riy parchalardir. Ular fors-tojik adabiyotining mashhur namoyandalari hamda endi yetishib chiqayotgan ijodkorlarning va Boburning o‘z qalamiga mansub fors-tojik tilidagi ijod namunalari. Asardan ma‘lum bo‘lishicha, muallifning ilk forsiy tildagi ijod namunalari 16-17 yoshlarida yaratilgan. Bu haqda 1499-1500-yillar voqeasi tasvirida shunday yoziladi: “Ul mahallar birar bayt, ikkirar bayt forsidin aytur edim. Bu baytni anda aytib edim.

Bayt:

Hech kas chun man xarobu oshiqu rasvo mabod,
Hech mahbube chu tu berahmu beparvo mabod”.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 75]

Yana bir jihati shundaki, “Boburnoma”da keltirilgan fors-tojik tilidagi she‘riy parchalarning mualliflari deyarli ko‘rsatilmagan. Lekin ularni har qanday adabiyot ixlosmandi kimning qalamiga mansubligini bilib olishi qiyin emas. Masalan, Bobur 1501-1502-yil voqealari tafsilotida Farg‘onadan Hisor tomonga ketish yo‘lida Mascho va Palg‘ar nomli kentlar tutashgan joyda bir chashma yoqasidagi toshga mazkur uch baytni o‘yib yozganini quyidagicha ifodalaydi: “Ushbu chashma boshida, chashma yoqasidag‘i toshida qazib, bu uch baytni sabt ettim:

Shunidamki, Jamshidi farruxsirisht,
Ba sarchashmae bar sange navisht:
“Bar in chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand to chashm barham zadand.
Giriftem olam ba mardiyu zo‘r,
Va lekin naburdem bo xud ba go‘r”.

Ul ko‘histonda bu rasmdurkim, toshqa qazib abyot va nimalar bitirlar.

Mazmuni: *Eshittimki, qutlug‘ tabiatli Jamshid bir bulog‘ boshida tosh ustiga shunday deb yozgan ekan: bu bulog‘ tepasida bizlar singari ko‘p kishilar kelib o‘lturdular, ketdilar va yo‘q bo‘ldilar. Olamni mardlik va zo‘rlik bilan oldik, lekin o‘zimiz bilan go‘rga eltmadik.* [Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 88]

Yuqoridagi baytlar Sa‘diy Sheroziy qalamiga mansub “Bo‘ston” asarining “Dar borai adlu tadbiru roy” (“Adolat va mamlakatni idora qilish tartibi haqida”) nomli birinchi bobi adolatli podshoh haqidagi hikoyatining xulosasidir.[Sa‘diy Sheroziy, 2008: 35] Bobur uni toshga o‘yib tushirishiga sabab, avvalo, o‘zi yozganidek o‘sha yerning urf-odati, ya‘ni “toshqa qazib abyot va nimalar biti”shi bo‘lsa, yana bir sabab podshoh sifatida qutlug‘ tabiatli Jamshidning an‘anasini davom ettirishiyu, kitobxon sifatida Sa‘diy asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lganligidir. Bobur bu parchani toshga o‘yib yozar ekan, o‘zining ham qay

darajada adolatli va mulohazakor ekanligiga ishora qilgandek bo‘ladi va barcha hukmdorlarni ogohlikka chaqiradi. Mazkur toshbitiklar hozirda Tojikiston Fanlar akademiyasining Ahmad Donish nomidagi Tarix instituti muzeyida saqlanadi. [Sodiyev E, 1991: 12]

Zullisonaynlik nafaqat adabiy davralarda, shuningdek, Boburning ijtimoiy-siyosiy, diniy, didaktik masalalar sabab amir-u beklarga, yaqinlarga, farzandlarga yo‘llagan ko‘pgina yozishmalarida, chiqargan farmonlarida ham kuzatiladi. Qizig‘i shundaki, ba‘zan Bobur fors-tojik shoirlari bilan bog‘liq yozishmalarida o‘zining turkiy she‘rlari orqali ularning turkiyda ijod etishiga turtki bergan bo‘lsa, ba‘zan teskarisi. Ya‘ni fors-tojik tilidagi she‘rlar sabab Boburning o‘zi ham shu tilda baytlar yaratadiki, natijada ikki tilda bermalol ijod etish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Boburning amir Xoja Kalon bilan o‘zaro yozishmalari bunga misol bo‘ladi. Xoja Kalonning Hindistonning noqulay ob-havosiga dosh berolmay G‘azni va Kobulga qaytishga qaror qilgandagi munozarali yozishmasi bunga yaqqol dilildir.

Xoja Kalondan forsiy bayt:

Agar baxayru salomat guzar zi Sind kunam,
Siyohro‘y shavam, gar havo Hind ko‘nam.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 211]

Zahiriddin Muhammmad Boburdan turkiy javob:

Yuz shukr de, Boburki, karimu g‘affor,
Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.
Issig‘lig‘ig‘a gar sanga yo‘qtur toqat,
Sovuq yuzini ko‘ray desang G‘azni bor.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 211]

Xoja Kalondan turkiy javob:

Izhor latofatu zarofat qilasiz,
Har nuktada yuz tuman kinoyat qilasiz.
Gar Hind ishi tarskori emas, ne uchun,
Issig‘ yerdin sovuq zarofat qilasiz?

Xoja Kalondan forsiy javob:

Ey podshohi xubon, tokay kuni tag‘ofil,
Yodi namekuni hech az oshiqoni Kobil.

[Hasanxoja Nisoriy, 1993:103]

Ushbu she‘riy namunalar asosida aytish mumkinki, Bobur singari Xoja Kalon ham fors-tojik va turkiy tillarida bermalol ijod eta oladigan “Panohiy” taxallusli mahoratli zullisonayn shoir bo‘lgan. Buni Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” va Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” tazkiralardagi ma‘lumotlardan bilish mumkin. [Hasanxoja Nisoriy, 1993: 14]

Yoki “Boburnoma”da 1509-1510-yil voqealari tasvirida Boburning Bajavr qo‘rg‘onini egallagach, u yerga Xoja Kalonni yuborgani hamda bir-ikki kundan keyin forsiy tildagi qit‘ani yaratib, unga jo‘natgani quyidagicha bayon etilgan: “Yakshanba kuni, oyning o‘n to‘rtida Xoja Kalong‘a tug‘ inoyat qilib, Bajavr qo‘rg‘oniga ruxsat berildi. Xoja Kalong‘a ruxsat bergondin bir-ikki kun so‘ng bug‘ina qit‘a xotirg‘a keldi. Xoja Kalong‘a bitilib yiborildi.

Qaror-u ahd ba yor inchunin nabud maro,

Gazid hajr-u maro kard beqaror oxir.
Ba ishvahoi zamona chi chora sozad kas,
Bajavr kard judo yorro zi yor oxir”.

(*Mazmuni: Mening yor bilan ahdu qarorim bunday emas edi-ku, Oxirda hajri chaqib, beqaror qildi meni. Zamona ishvalariga kishi nima chora qiladi? Oxirda Bajavr yorni yordan judo qildi.*) [Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 163]

Shuningdek, Bobur Bajavr qo‘rg‘onida bo‘lgan Xoja Kalonga yo‘llagan farmoni hoshiyasiga Xoja Hofizning ushbu baytini o‘z qo‘li bilan yozib, Sulton Tarohiydan berib yuborishini olaylik. “Ushbu majlisda o‘q Sulton Tarohiydin bu sorig‘a kelgan kayfiyatni mashruh bitib, Bajavrg‘a Xoja Kalong‘a yiborildi. Farmon hoshiyasida bu baytni bitidim:

Sabo ba lutf bigo‘ on g‘azoli ra‘noro,
Ki sar ba ko‘hu biyobon tu dodai moro”.

(*Mazmuni: Ey tong yeli, u go‘zal ohuga yumshoqlik bila aytki, bizni tog‘u sahrolarga uloqtirgan sensan.*) [Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 178]

Qizig‘i shundaki, “Boburnoma”da muallifning ayrim turkiy va forsiy she‘rlari badiha (ekspromt) tarzida yaratilgan. Masalan, Bayana qo‘rg‘onini egallashga kirishgan Bobur qo‘rg‘on amiriga va‘da va tahdid bilan ushbu forsiy qit‘ani badiha tarzida yozib, Qalandar piyoda ismli kishi orqali yuboradi:

Bo turk siteza makun, ey miri Bayana,
Cholokiyu mardona turk ayonast.
Gar zud nayoiyu nasihat nakuni go‘sh,
Onjoki ayonast chi hojat ba bayonast.

(*Mazmuni: Ey Bayana miri, turk bilan o‘ynashma, turkning epchilligi va mardligi hammaga ayon. Agar tez kelib nasihatni quloqqa olmasang, ayon bo‘lgan gapni bayon qilishning nima hojati bor*) [Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 222]

Ko‘rinadiki, Bobur turli mazmundagi yozishmalarida ham turkiy, ham fors-tojik tilidagi baytlardan unumli foydalangani holda ikkinchi tomonni ham mushoiraga chorlaydi. Bunga yaqqol misol qilib Boburning fors-tojik shoiri Kamoliddin Binoiy bilan ilk uchrashuvidagi savol-javob mazmunida yaratilgan baytlarini olishimiz mumkin. Bobur Samarqandni ikkinchi marotaba egallaganda, Shayboniy huzurida ma‘lum muddat mulozim bo‘lgan Binoiy uning huzuriga keladi. Boburning ulug‘ amiri Qosimbek undan gumonlanib, Samarqandda qolishini xohlamasdan Shahrisabzga yuboradi. Keyinchalik Kamoliddin Binoiyning fazilatli kishi ekanligi va hech qanday gunohi yo‘qligi ayon bo‘lgach, Bobur uni Samarqandga chorlaydi. Binoiy o‘zining qasida, g‘azal, ruboiylari va turli navolar bilan Boburni xursand kilganligi, ular o‘rtasida zullisonayn shaklda she‘riy mushoira bo‘lganligi “Boburnoma”da shunday tasvirlangan: “Doim qasida va g‘azal o‘tkarur edi. Navoda bir amal mening oting‘a bog‘lab o‘tkardi. O‘shul asnoda bir ruboiy aytib o‘tkardi.

Ruboiy:

Ne g‘alla maro k-az o‘ tavonam no‘shid,

Ne muhmali g'alla to tavonam po'shid,
Onroki na xo'rdanastu ne po'shidan,
Dar ilmu hunar kujo tavonad ko'shid.

(Mazmuni: *Na yegulik g'allam bor va na kiyinishga asragan kiyimim bor. Yeydigani, kiyadigani bo'lmagan kishi ilm va hunarga qanday urina olsin*).

Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur erdim. Vale g'azal tugatmaydur erdim. Birgina turkiy ruboiy aytib yubordim.

Ruboiy:

Ishlar bori ko'nglungdag'idek bo'lg'usidur,
In'omu vazifa bori buyrulg'usidir,
Ul g'allau muhmalki deb erding, berdim,
Muhmalg'a bo'yu g'alladin uy to'lg'usidur.

Mulla Binoiy bu ruboiyning so'ng'gi misrasining qofiyasini radif qilib, o'zga qofiya bila bir ruboiy aytib o'tkardi:

Mirzomki, shohi bahru bar bo'lg'usidur,
Olamda hunar birla sar bo'lg'usidur.
Bir muhmal uchun muncha inoyat bo'ldi,
Musta'mal agar desam, nelar bo'lg'usidur".

[Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 81]

Qizig'i shundaki, bu mushoiraga o'sha kezlarda Shahrisabzdan Samarqandga kelgan Xoja Abulbaraka Firoqiy ham qo'shilib, Kamoliddin Binoiyning jovobiga e'tiroz tarzida "o'shul radif va qofiyada aytmoq kerak edi" deya, o'zi quyidagi turkiy ruboiyni yaratadi:

Bu javrki qildi davr surulg'usidur,
Sultoni karam bu uzrni qo'lg'usidur,
To'kulgan agarchi to'lmas, ey soqiy,
To'kulgonimiz bu davrda to'lg'usidur.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma. 2022: 82]

"Boburnoma"dan olingan ushbu parchalardan ma'lum bo'ladiki, she'riyat maydoniga endigina kirib kelayotgan yosh Bobur Binoiyning murojaat mazmunidagi forsiy ruboiysiga javob tarzida o'zining ilk tugul turkiy ruboiysini yaratadi. Ahamiyatlisi, ijtimoiy mazmunga ega Bobur ruboiysi ta'sirida yana ikkita turkiy ruboiy vujudga keladi. Biri fors-tojik shoiri Kamoliddin Binoiyniki, ikkinchisi Xoja Abulbaraka Firoqiyniki. Asarda yozilishicha, Binoiy Bobur ruboiysining "so'ng'gi misrasining qofiyasini" radif qilib olib, ruboiy yaratadi. Bizningcha, shu o'rinda asarda matniy xatolik o'tgan bo'lib, so'nggi misrasining (to'lg'usidur) emas, balki birinchi misrasining qofiyasini, ya'ni "bo'lg'usidur" so'zini radif qilib olgan. Binoiy Boburdan ilhomlanib, unga izdoshlik asosida o'zining ijtimoiy mazmundagi turkiy ruboiysini yaratadi va o'zining nafaqat forsiyda, balki turkiyda ham qalam tebratgan zullisonayn shoir ekanligini ko'rsatadi.

Bulardan ko'rinadiki, Xuroson va Movarounnahrda mavjud zullisonaynlik nafaqat Bobur ijodiga, shuningdek, u asos solgan adabiy muhit vakillari ijodiga ham bevosita va bilvosita ta'sir etgan. Bevosita ta'sir Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan va keyinchalik Bobur saroyiga kelib, shu adabiy muhitning

vakiliga aylangan Bayramxon, Komron Mirzo, Xoja Kalon, Abdulvojid Forig'iy, Muhammad Haydar Do'g'lat – Ayoziy, Mavlono Yarmuhammad – Yoriy kabi ijodkorlarning adabiy merosida kuzatilsa, bilvosita ta'sir esa Bobur va “birinchi qatlam” deb nomlanuvchi yuqorida tilga olingan zullisonayn ijodkorlardan keyin, ya'ni Humoyun va Akbar davrida kirib kelgan yoki birinchi avlod ijodkorlaridan ilhomlangan holda ikki tilda ijod etgan Shohberdi Bahrom Saqo, Azfariy, Johila, Diyda, Yusuf-Faryobiy, Saniyxon Arlot, Ibrohim Mirzo Andijoniy, Aliquli Sulton, Muhammad Yunus Arg'un, Mir Muhammad G'aznaviy kabi shoirlar ijodida kuzatiladi.

Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Boburning fors-tojik tilidagi adabiyotga bo'lgan qiziqishi, e'tibori, intilishi uning adabiyotshunos sifatida shu sohaning bilimdoni ekanligini, ijodkor sifatida fors-tojik tilida yaratgan adabiy merosining tag zaminini, o'zi asos solgan adabiy muhitda zullisonaynlikning shakllanishi va rivojlanishi sabablarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Adabiyotlar:

1. Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим - мадрасайи олия-университет тарихидан лавҳалар. Илмий-оммабоб рисола. - Самарқанд, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2001.- 184 бет.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Аруз рисоласи. Куллиёт. 6 жилдлик, 3-жилд. - Т.: “Зилол булоқ”, 2022. – 592 бет.

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: “Шарқ”, 2002. – Б. 336 + 32-бет зарварақ.

4. Исҳоқов Ё. Садриддин Айний ва адабиётда зуллисонайнлик анъанаси.// “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1978, 4-сон, 14-бет.(13-18-бетлар)

5. Саъдии Шерозӣ. Бўстон. Душанбе. “Маориф ва фарҳанг”, 2008.–292 с.

6. Ҳасанов С. Бобирнинг “Аруз рисоласи” асари. – Т.: “Фан”, 1981.-Б. 96.

7. Ҳасанхожа Нисорий. Музаққирӣ аҳбоб. Тазқира.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.344.

8. Шодиев Э. Бобур ва тожик адабиёти. // Адабий мерос. 1991 йил, №4 (58), 7-13-бетлар.

Mirzoahmedov Muxtor,
filologiya fanlari nomzodi,
Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand
davlat universiteti dotsenti

«MUBAYYAN» - FIQHIIY ASAR

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyan” asarining yozilishi tarixi, sabablari, musulmon huquqining manbalaridan biri ekanligi hamda tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Kalit soʻzlar: fiqh, musulmon huquqi, huquqshunoslik ilmi, qadimiy huquqiy odatlar, sharʼiy masalalar, diniy va dunyoviy huquq, siyosiy-huquqiy manba.

Abstract: The article focuses on the history of the creation of the work "Mubayyan" by Zahiriddin Muhammad Babur, its reasons, the fact that it is one of the sources of Muslim law and its educational significance.

Keywords: jurisprudence, Muslim law, jurisprudence, ancient legal customs, Sharia issues, religious and secular law, political-legal source.

Mustaqillik yillarida fiqh va islom axloqi asoslarini oʻzida ifodalab kelgan, ammo yetarlicha oʻrganilmagan yuzlab asarlarning yuzaga chiqishi, fiqh masalalariga bagʻishlangan kitoblardan xalqimiz bahra olishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Jumladan, Bobur qalamiga mansub "Mubayyan" asari ham shular qatoriga kiradi.

Tarixdan maʼlumki, Bobur nafaqat shoir, eng avvalo, davlat boshligʻi – shoh sifatida tanildi. U zahmatli kurashlar asosida Hindistonda oʻz davlatini tuzdi va bu davlat Boburiylar saltanati nomi bilan 300 yildan ortiq (1526-1858 yillar) hukmronlik qildi.

Bobur davlat rahbari sifatida fiqh ilmi, hozirgi zamon iborasi bilan aytganda, huquqshunoslik ilmi bilan ham shugʻullandi va oʻz saltanatining qonuniy asoslarini (tuzuklarini) yarata oldi. Boburning "Mubayyan" – "Ochiq bayon etilgan (sharʼiy masalalar)" nomli asari uning buyuk faqih ekanligini namoyon qila oldi.

Mazkur kitob islom va fiqh asoslarini bayon etuvchi yirik asar boʻlib, eʼtiqod, namoz, zakot, roʻza va haj masalalariga bagʻishlangan besh qism hamda xotima qismidan iborat.

Fiqh islom dinining yoʻl-yoʻriqlari, qonun-qoidalarini toʻgʻrisidagi huquq ilmi, islom qonunshunosligidir.

"Mubayyan" asari mustaqillik yillarigacha toʻliq nashr etilmagan va haqiqiy baholanmagan edi. Kitobxonlar uning ayrim qismlari haqidagina maʼlumotga ega boʻlishgan. Mustaqillik yillarida taniqli olim Saidbek Hasan va Hamidbek Hasanlar tomonidan toʻliq holatda chop etilgan (1995 yil). 2014 yilda u Mirzo Kenjabek tomonidan tayyorlangan nasriy bayoni bilan birga "Sharq" nashriyoti tomonidan yangidan nashr etildi.

"Mubayyan" asari ilmda "Mubayyin", "Fiqhi Boburiy" deb ham atalgan (1).

2001 yilda Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligiga bagʻishlangan ilmiy-amaliy anjumanda tadqiqotchi olim Neʼmat Jabborov "Zahiriddin Muhammad Bobur oʻz davrining kuchli faqih boʻlgan" ini komil ishonch bilan taʼkidlaganda juda haqli edi (2).

Bobur Mirzo mazkur asarni Hindiston yurishlari davrida, hijriy 928 (milodiy 1521) yilda sheʼriy yoʻlda yozgan.

Bobur ushbu asarini oʻgʻillari Humoyun Mirzo va Komron Mirzoga atab yozgan boʻlib, mazkur kitob islom va fiqh ilmi asoslarini bayon etuvchi yirik asar hisoblanadi (3).

Bobur bu asarni nafaqat o'z farzandlariga, ularning siymosi orqali butun turkiy kitobxonlarga islom ilmlarini egallashlari uchun ma'naviy yodgorlik sifatida yozib qoldirdi.

Bizningcha, ushbu asar yozilishining o'ziga xos sabablari bor, albatta. O'rta asr yakka hokimligini tashkil qilgan, Bobur tomonidan tuzilgan ulkan davlat mexanizmi ichki tartib va intizomni ta'minlab turadigan qonunchiliksiz faoliyat yuritishi mumkin emas edi. Bizningcha, buni chuqur his qilgan Bobur "Mubayyan" asarini yaratdi. Chunki davlatda islom dini hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun huquqning bosh manbai musulmon huquqi hisoblangan.

Musulmon huquqi – islom dini paydo bo'lishi va arab teokratik davlati tashkil topishi bilan o'rta asrlarda vujudga kelgan va o'zida diniy va dunyoviy huquq (fiqh) ni birlashtirgan huquq tizimidir.

Mutaxassislarining e'tirof etishicha, Boburning ijtimoiy-falsafiy va diniy-huquqiy qarashlari Abu Hanifa mazhabidagi islom faqihlari qarashlari majmuasining tarkibiy qismini tashkil etgan (4). Shu bois, Bobur davlati doirasida ham islom huquqining keng yoyilgan Hanafiylik mazhabi mustahkam qaror topgan edi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, shoh Bobur davlatida musulmon huquqi o'zgarishsiz, bir xilda amalda bo'lgan, deb bo'lmaydi. Chunki bu davrda musulmon huquqi dunyoviy qonunchilik me'yorlari bilan to'ldirib borilgan.

Bobur asos solgan davlat harbiy monarxiya davlati bo'lib, mamlakat aholisi, armiya va unda xizmat qiluvchi tabaqa mahalliy hindular va musulmonlardan iborat bo'lib, qadimiy huquqiy odatlar huquqning ikkinchi manbai vazifasini bajargan. Ayniqsa, davlat boshlig'ini saylash, armiya va uning tuzilishi hamda ta'minoti, oila va nikohning ba'zi masalalari borasida ko'plab huquqiy odatlar mavjud bo'lgan. Keyinchalik, harbiy qurilishga oid masalalar yozma qonunchilik bilan mustahkamlangan.

Ikkinchidan, Bobur o'zi tuzgan davlatni kelgusida farzandlari, xususan, Xumoyun valiahd sifatida boshqarishini bilar edi. Davlat boshqaruvi uchun huquq hamda mustahkam siyosatning zarurligini tushungan holda mazkur fiqhiy qo'llanmani yozishga ahd qilgan.

Tarixdan ma'lumki, Temuriylar davlatining asoschisi Amir Temur ham o'z davrida huquqiy xarakterga ega bo'lgan asar - "Temur tuzuklari" ni yozgan edi. Ishonchimiz komilki, Bobur Temuriylar sulolasining vakili sifatida o'z davrida ushbu manbadan davlat boshqaruvi tizimida unumli foydalangan. O'z navbatida o'zidan avval yashab o'tgan hukmdorlarga ergashgan holda mazkur fiqhiy asarni yaratishga ahd qilgan.

Bobur "Boburnoma" asarida ham bir necha o'rinda nozik fiqhiy masalalarga to'xtalib o'tadi. Demak, u zotning donishmand faqih ekanligi boshqa asarlaridan ham ma'lumdir (5).

"Boburnoma" da fiqh va faqih atamalarining takror-takror qo'llanishi bunga guvohlik beradi.

Fiqh va faqih atamalari aslida islom hamda zamonaviy huquqshunoslikning alohida istilohlari bo'lib, bir-biriga bog'liq, bir-birini to'ldiradigan tushunchalardir.

Lugʻatlarda “faqih” soʻziga musulmon qonunshunosligi ilmining bilimdoni, huquqshunos olimi, deb taʼrif beriladi.

Boburdan soʻng oʻgʻli Humoyun Dehli va Agrada podsholik qildi. Humoyundan soʻng taxtni uning oʻgʻli Akbarshoh egalladi.

Akbarshoh saroyida ishlagan agralik olimlardan biri Abulfozil Allomiy Akbarshohning doʻsti va vaziri edi. Bu olim “Akbarshoh tartibotlari” (qonunlari) nomli qomusiy xarakterga ega boʻlgan kitobning muallifi edi. Kitob boblari nomlarining oʻziyoq uning mazmunan boy, huquq ilmiga oid ekanligidan dalolat beradi. Masalan, birinchi bob “Saroydagi toʻqson tartib” deb nomlanib, quyidagi boʻlimlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy jihatdan ahamiyatga egadir: 1.Saroy. 2.Xazina. 3.Qimmatbaho toshlar. 15.Haram. 16.Lagerlar. 19.Hokimiyat tamgʻalari. 20.Muhrlar. 35-40. Qurol-yaroqlar.

Ikkinchi bob “Armiyada oʻttiz tartib” deb nomlanib, quyidagi boʻlimlar uning mohiyatini yoritib beradi: 1-11.Harbiy qismlar, qoʻshin turlari. 12-13. Buyruqlar. 14-19.Oylik va mukofotlar. 20.Yengil aravalar. 26.Harbiy flotlar.

Uchinchi bob esa “Maʼmuriyat” deb nomlangan (6).

Demak, Bobur vafotidan soʻng uning avlodlari ham davlatning mustahkamligiga, uning huquqiy qurilishiga muntazam ravishda jiddiy eʼtibor qaratgan.

Qisqasi, Bobur asarlarida, xususan «Mubayyan» asarida tadqiq etilishi nazarda tutilgan huquqiy masalalar anchagina. Asarda oʻsha davrda hukmron boʻlgan musulmon huquqiga oid masalalarning oʻrganilishi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Boburning «Mubayyan» asariga siyosiy-huquqiy manba sifatida yondashish, undagi huquqiy masalalarni bugungi kun huquqshunosligi sohalari bilan qiyosiy tarzda oʻrganish asosiy masalalardan biri sanaladi. Kelgusida mazkur masalani yanada chuqurroq oʻrganish huquqshunoslik ilmi uchun muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизова И. Бобур тафаккурида мавжланган дарё. Монография. Тошкент: БООКМАНУ ПРИНТ, 2023. 128-бет.

2. Жабборов Н. Бобур ва ислом ҳуқуқшунослиги // Истиклол йиллари: миллий-диний қадриятларимизнинг халққа қайтиши. / Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжуман материалларининг баёни (Андижон, 2001 йил, 20 июл). Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси нашри, Тошкент, 2001. 20-25-бетлар.

3. Заҳируддин Муҳаммад Бобур. Куллиёт. 2 жилд. Мубайян. Рисолаи волидия таржумаси. -Тошкент: Зилол булок, 2021.

4. Ҳасанов Ҳ. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Мубаййин” асари / Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Мубаййин / нашрга тайёрловчи Ҳ. Ҳасанов; масъул муҳаррир С.Ҳасанов. -Тошкент: “Mumtoz soʻz”, 2011. -3-4-бетлар.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1980.

6. Мирзоаҳмедов М. Бобур ва бобурийларнинг илм-фанга муносабати. - Хужанд, 1995. 38-бет.

Ahadjon Muhammadiyev,
Filologiya fanlari nomzodi, Shahrisabz
davlat pedagogika instituti dotsenti,
Nigora Islomova,
Shahrisabz davlat pedagogika
insituti 3-kurs talabasi

BOBUR – TARIXNAVIS ADIB, LIRIK SHOIR VA IJTIMOY MASALALAR YECHIMIGA O‘Z HISSASINI QO‘SHGAN OLIM

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she‘riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she‘riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog‘a-jiyanlar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyat — ulug‘ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Adabiyot, nafis san‘at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho‘zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi etib ko‘tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga — Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qilda va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg‘in-barotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo‘li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng, Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. 1505-1515-yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko‘rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So‘ng o‘z mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519-1525-yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo‘di bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland keldi.

Tarixiy ma'lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro'po tarixchiligida «Buyuk mo'g'ullar» nomi bilan «g'allati mashhur» bo'lgan, aslida «Boburiylar sulolasi» Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qildi.

Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi — 1530-yil dekabr oyida, Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar.

Biroq qisqa bir vaqg ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish bog'rog'lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musi-qashunoslari va davlat arboblarni mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharla'l Neru shunday yozgan edi: «Bobur Hindistonga kelgandan keyin katga siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi».

Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari «Boburnoma»dir. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi — XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchi qismi — XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi — XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. «Boburnoma»da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

«Boburnoma»ni varaqlar ekanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. «Boburnoma»da keltirilgan bu tarzda ma'lumotlar Bobur

davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug‘bek va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi.

«Boburnoma» — Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks egdirgan bo‘lsa ham, shu bilan birga juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug‘rofiy mavqei, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlarini, muhim tarixiy inshootlari — hindular va musulmonlarning ibodatxonalarini, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma‘lumotlarni o‘zida qamrab olgan shoh asardir. Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmokda.

Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma» mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V.Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, germaniyalik Y. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R. R. Art va N. I. Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. «Boburnoma»ni o‘rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqsalar.

Ma‘lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Sale, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Ya. G‘ulomov, R. Nabiyeov, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa‘y-harakatlari bilan «Boburnoma» bir necha bor rus va o‘zbek tillarida chop etildi, ularga so‘zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma‘naviy mulkiga aylantirildi, uning she‘rlari ham bir necha bor nashr etildi.

Bobur o‘zbek adabiyotida o‘zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarining boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to‘g‘ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in‘ikosini «Boburnoma»da ko‘rgan bo‘lsak, shoir ruhiyatida qanday aks etgani esa, uning she‘rlarida namoyon bo‘ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiyinalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta‘sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she‘rlarida aks etgan. Keyinchalik o‘z yurtini tark etib, Afg‘oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she‘riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

Tole‘yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,

Har ishnikim, ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qorolig' bo'ldi.

Shu bilan birga Bobur lirikasida she'riyatning asosiy mazmuni bo'lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go'zalligi, unga cheksiz muhabat, hijron azobi, ayrilig' alamlari va visol quvonchlari nihoyat go'zal va mohirona ifoda etilgan.

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

Bobur o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqirdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,
Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur.

Bobur lirik she'rlari va tarixiy «Boburnoma»sidan tashqari, islom qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. «Xatti Boburiy» deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o'zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U, tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida Qur'oni Karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan «Mufassal» nomli asari ham bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi.

Sharaxmetova Muxlisa Ansaridinovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
UrDU tili, adabiyoti, Pokiston tarixi va
madaniyati kafedrasi mudiri, (PhD)

“BOBURNOMA”NING URDUCHA TARJIMASIDA MUALLIF USLUBINING AKS ETISHI

Annotatsiya: «Boburnoma» dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Ayrim tillarda «Boburnoma»ning bir nechtdan alohida-alohida tarjimalari mavjud. Jumladan, urdu tiliga to'rt marta o'girilgan. Birinchi tarjimani turkiy- chig'atoydan Mirzo Nasiruddin Haydar Ko'ragoniy tarjima qilgan. «Boburnoma»ning urdu tiliga ikkinchi tarjimasini Muhammad Qosim Siddiqiy amalga oshirgan. Uchinchi tarjimani fors tilidan Rashid Axtar Nadaviy tarjima qilgan. To'rtinchi tarjimani

hindistonlik professor Yunus Ja'fariy amalga oshirgan. Ushbu tarjima Abdurahim Xoni Xononning forscha tarjimasidan o'girilgan. «Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini Muhammad Qosim Siddiqiy amalga oshirgan. Bu tarjima dastlab 1983 yilda Dehlida «Taraqqi Urdu Bureau» nashriyotida chop etilgan.

Mazkur maqolada buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi «Boburnoma»ning urducha tarjimalari haqida ma'lumot keltiriladi, shuningdek Mirzo Nasiruddin Haydar Ko'ragoniy tarjimasi asliyat bilan qiyosiy tahlil qilinib, muallif uslubi masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: «Boburnoma», urducha tarjimalar, sarvaraq, asliyat, izoh, so'zboshi, qo'lyozma, ta'rif, tasvir, qiyosiy tahlil.

Abstract: "Babur-nama" has been translated into many languages of the world. There are several separate translations of "Babur-nama" in some languages. In particular, it has been translated into Urdu four times. The first translation was translated from Turkic-Chigatai by Mirza Nasiruddin Haidar Kuragoni. The second translation of "Babur-nama" into Urdu was done by Muhammad Qasim Siddiqui. The third translation was translated from Persian by Rashid Akhtar Nadavi. The fourth translation was made by Professor Yunus Jafari from India. This translation is adapted from the Persian translation of Abdurahim Khani Khanan. Another translation of "Babur-nama" into Urdu language was made by Muhammad Qasim Siddiqui. This translation was originally published in Delhi in 1983 by Taraqqi Urdu Bureau.

This article contains information on translations of the literary and creative heritage of our great compatriot Zahiriddin Muhammad Babur «Babur-nama» into Urdu, as well as comparative analysis of the translation translation by Mirza Nasiruddin Haydar Kuragani with the original, attention is paid to the issues of the author's style.

Key words: «Babur-nama», Urdu translations, title, originality, commentary, preface, manuscript, description, image, comparative analysis.

«Boburnoma» tarjimalar tufayli dunyoga tanilgan. Ayrim tillarda «Boburnoma»ning bir nechtdan alohida-alohida tarjimalari mavjud. Masalan, urdu tiliga to'rt marta o'girilgan.

«Boburnoma»ni urdu tiliga birinchi marta turkiy tilidan temuriylar avlodiga mansub Mirzo Nasiruddin Haydar Ko'ragoniy tarjima qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, mazkur tarjima 1898-yilda amalga oshirilgan, biroq tarjimani muallifning hayotlik chog'ida nashr etishning imkoni bo'lmagan. Keyinchalik 1926-yilda Ko'ragoniyning farzandlari Dehlida chop ettirganlar. Qo'limizdagi mazkur tarjima 1962-yilda Karachi shahrida «Buk-Lend» nashriyotida qayta chop etilgan. [تذک بابری، مرزا نصیر الدین حیدر، بک لینڈ کراچی، ۱۹۶۲]

Sarvaraqda kitobning nomi «Boburnoma» deb, uning tagida esa «Tuzuki Boburiy» deb keltirilgan. Kitob jami 426 sahifadan iborat. Ubaydulla Quddusiy izohlarni tahrir qilgan, to'ldirgan va so'zboshi yozgan.

Ikkinchi tarjimani Rashid Axtar Nadaviy amalga oshirdi. Bu tarjima 1991-yil Laho'r (Pokiston) shahridagi «Sange mil» nashriyotida chop etilgan [تذک بابری، رشید اختر ندوی، لاہور ۱۹۹۳]

nomlangan, jami 287 betdan iborat. Kitobda tarjimon tomonidan yozilgan to'rt betli so'zboshi va olti betlik mundarija berilgan. Asar Bombay shahrida Mirzo Muhammad Sheroziyning «Chitra Prabha Press» nashriyotida chop etilgan forscha nashridan tarjima qilingan. Bu forscha qo'lyozma o'z navbatida Udaypur rojasining kutubxonasidan topilgan. 246 sahifadan iborat to'liq bo'lmagan mazkur forscha qo'lyozmaning ko'chirilgan yili haqida hech qanday ma'lumot keltirilmaydi.

«Boburnoma»ning uchinchi tarjimasini fors tilidan hindistonlik professor Yunus Ja'fariy amalga oshirdi. Kitob «Vaqaye-Babur» deb nomlangan bo'lib, jami 396 sahifadan iborat. Izoh va sharhlar muallifi Hasan Beg. Mazkur tarjima 2007-yil Angliyada chop etildi. [وقائع بابر، یونس جعفری شہر بانو پبلی شیرز کر یکادی ۲۰۰۷]

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini Muhammad Qosim Siddiqiy amalga oshirgan. Bu tarjima dastlab 1983 yilda Dehlida «Taraqqi Urdu Bureau» nashriyotida chop etilgan [بابرنامہ (تذک بابری) محمد قاسم صدیقی، ترقی اردو] Sarvaraqda kitobning nomi [Ba:barna:ma] deb, uning tagida esa [Ba:bari:] [Tuzuk-e Ba:bari:] tarzida keltirilgan va u kitob jami 66 sahifadan iborat. So'zboshi muallifi – professor Fahmida Begum.

2010-yili mazkur tarjimaning ikkinchi, to'ldirilgan nashri ham Dehlidagi «Qaumi Council Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban» nashriyotida chop etilgan. Unga professor Muhammad Hamidulloh Bhat so'zboshi yozgan. Mazkur ikkinchi nashr ham sarlavhalarga bo'lingan. Har ikkala nashrning so'zboshisida urduga forsiydan tarjima qilingani aytilgan, biroq forscha qo'lyozma haqida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. Kitob jami 101 sahifadan iborat. «Boburnoma»ning ushbu tarjimalari bo'yicha shuni aytilish joizki, mazkur nashrlar qisqa tarjimalardir va ularda ko'p o'rinlar tushirib qoldirilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur uslubiga xos asosiy jihatlardan biri avvalo uning «har so'zning rostini» bitishi, ko'rgan, eshitgan voqea-hodisalarni boricha tasvirlashi, qisqa va sodda bayon tarzi, atrof-muhitni teran idrok etib, o'quvchiga yuksak mahorat bilan yetkaza olishidir.

«Boburnoma» o'zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy-memuar yodgorlikdir. Quyida «Boburnoma»dan keltirilgan iqtiboslar misolida muallif uslubiga xos jihatlarning tarjimada aks etishini qiyoslab ko'ramiz.

Bobur asarlari, birinchi navbatda, «Boburnoma» nisbatan sodda tilda bitilgan. Buning sababi muallif uslubining sodda, ravonligidan tashqari, xalq tilidan, uning og'zaki ijodidan keng foydalanganligi, ko'plab maqol-matallar, kishilar qiyofasini tasvirlashda hajvdan foydalanib mohirona tasvirlashi, Qur'oni karim oyatlariga asoslangan iboralarni qo'llashi bilan bog'liqdir. Natijada, asar tili nafaqat sodda va ravon, balki katta ta'sirchanlik ham kasb etgan. Masalan: Hijriy 933 (1526-1527)-yil voqealari bayonida Rana Sangaga qarshi hal qiluvchi jang oldidan Bobur bek va navkarlari qarshisida otashin nutq so'zlaydi va unda shunday jumlar bor edi: «Har kimki hayot majlisig'a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig'a kelibtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechgusidur. Yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq» [Boburnoma, 2002: 223]. Fikrimizcha, mazkur iqtibosdagi dastlabki gapga Qur'oni karim oyati asos qilib olingan: «Har bir jon o'lim (achchig'i)ni totuvchidir.

Qiyomat kunida, albatta, mukofotlaringiz sizlarga to‘la-to‘kis berilur. Bas, (o‘sha kuni) kim do‘zaxdan uzoqlashtirilib, jannatga kiritilsa, demak, u (katta) yutuqqa ega bo‘libdi. Bu dunyo hayoti esa, faqat g‘urur (aldov) matohidir» («Ol-i imron» surasi, 185-oyat). Ikkinchi gap Mirzo Boburning o‘z ijodiga mansub bo‘lib, hikmatli so‘z darajasiga ko‘tarilgandir. Xalqimizning qon-qoniga singib ketgan Qur‘on oyatlari asosida va maqol-matal tarzida aytilgan gaplar qo‘shinga ulkan ta‘sir ko‘rsatgan, ularni g‘alabaga ruhlantirgan, natijada, bu hal qiluvchi jangda Boburning qo‘li baland kelgan. «Har kimki hayot majlisig‘a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig‘a kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidin kechgusidur» jumlasini urducha tarjimada quyidagicha berilgan: جس نے ماں کا پیٹ دیکھا ہے وہ ضرور ایک دن قبر بھی دیکھے گا، جو دنیا میں آیا ہے وہ یہاں سے جائے گا بھی, ya‘ni «kim dunyoga kelsa, u, albatta, bir kun dunyodan ko‘z yumadi (so‘zmaso‘z: qabrni ham ko‘radi), kimki dunyoga kelsa, u bu yerdan ham ketadi». Yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bila o‘lgan yaxshiroq» hikmatli so‘z darajasiga yetgan jumlasini quyidagicha o‘girilgan: Ya‘ni «Badnom bo‘lib yashagandan ko‘ra, yaxshi nom bilan bilan o‘lgan afzaldir». Boburning jang oldidan aytgan mazkur hikmatli gaplarining tarjimasida shakl va mazmun birligi uyg‘un, shuningdek, muallif uslubi saqlangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘g‘li Humoyunning maktubining uslubi haqida bildirgan fikri uslubga doir klassik ta‘rifdir: ...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o‘qumaysen, ne uchunkim, agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘quyolmas eding. O‘quyolmagandin so‘ng albatta tag‘yir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o‘qusa bo‘ladur, vale asru mug‘laqtur. Nasri muammo hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni «to» bila bitibsen. Qulunjni «yo» bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo‘lmaydur. G‘olibo xat bitirda kohillig‘ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qug‘uchig‘a [Boburnoma, 2002: 143].

Bobur 1506-yil voqealarini tasvirlar ekan, Badi‘uzzamon Mirzo tomonidan uyushtirilgan ziyofatdagi tartib-qoidani bayon qilib, shunday yozadi: «Har kimdin yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa, aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yomon ish qilg‘on bo‘lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak». Ushbu jummalarni Ko‘ragoniy quyidagicha tarjima qilgan: جس سے جو عمدہ قاعدہ جاری ہو وہ برتنا چاہیے – اگر باپ نے کوئی بری رسم جاری کر دی ہو تو اس کو اچھی رسم سے کیوں نہ بدل دیں Ayni tarjima o‘zbek tilida quyidagicha ko‘rinish oladi: «Kimki biron yaxshi qoidani yo‘lga quygan bo‘lsa unga amal qilmoq kerak. Agar ota biron noma‘qul ish qilgan bo‘lsa, uni yaxshi amal bilan o‘zgartirsin». Tarjimada mazkur jumla asliyatdan biroz farqli ravishda o‘girilgan. Bizningcha, Bobur qo‘llagan nasihatimiz iboralar tarjimasida shakl va mazmun birligi saqlangan.

Bu jumlaning keltirish bilan Bobur, birinchidan, kishilarning eng yaxshi odatlarini o‘rganishga, ularning foydalilarini davom ettirish, hayotning hozirgi talablariga javob bermaydigan tartib-qoidalar o‘rniga yangilarini joriy qilishga da‘vat etish masalasini ilgari surgan; ikkinchidan, voqea tasvirini g‘oyat ixcham tarzda bayon etishga, aytilishi zarur fikrning haqiqiy mag‘zini ochishga muvaffaq

bo'lgan.

Bobur ayrim kishilarga xos xususiyatlarni yengil kulgi va beg'araz hazil vositasida ochib berishga harakat qiladi. Masalan, Husayn Boyqaroning beklaridan biri bo'lgan Mir Murtoz shaxmat o'ynashga juda berilgan kishi edi. Bobur uning bu odatini shunday hajv qiladi: «Shatranjg'a ko'p shag'afi bor ekandur, bu martabadakim, agar ikki harif uchrasa, biri bila shatranj o'ynab, yana birining etagini tutib o'lturur ekandurkim ketmagay, deb» [Boburnoma, 2002:137]. Bobur keltirgan hajvni Ko'ragoniy tarjimasidagi talqini bilan qiyoslab ko'rsak: شطرنج کے ایسے شائق تھے کہ اگر دو کھلاڑی آجاتے تو ایک سے کھیلنے لگتے اور دوسرے کا دامن پکڑ کر شطرنج کے ایسے شائق تھے - Shatranjg'a ko'p shag'afi bor ekandur - jumlaning bu qismi to'g'ri tarjima qilinganligini aytish joiz, ammo bosh gapdan keyingi keyingi qismi «agar ikki o'yinchi kelib qolsa» tarzida tarjima qilingan. Holbuki, urduda (غنیم) bo'lsa, sahih tarjima chiqardi. Shart ergash gapning ikkinchi qismi ...biri bila shatranj o'ynab, yana birining etagini tutib o'lturur ekandurkim ketmagay, deb»da gapning fe'l-kesim qismi «etigidan tutib», o'tqazib qo'yardi. Bizningcha, (دل) میں بسائے اس کے نہ جانے کی امید) Bizningcha, bo'lgani o'rinli. Ko'rinadiki, Boburning kishilar xarakterini ochishda qo'llagan beg'araz hazili urducha tarjimada qisman aks etgan.

Bobur tabiat va ayrim joylarning tasvirini chizar ekan, ana shu obyektning biror muhim tomonini alohida ajratib ko'rsatishda mubolag'adan ustalik bilan foydalanadi. Chunonchi, Andijon qirg'ovulining semizligini ta'riflab, «Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulning oshginasi bilan to'rt kishi yeb tugata olmaydur» deb mubolag'a qiladi. Ko'ragoniy shu jumlaning quyidagicha o'girilgan: chunonchi, چنانچہ مشہور ہے کہ بریل کا سالن اتنا ہوتا ہے جس سے چار آدمی پیٹ بھر لیں qirg'ovulning go'shti shu qadarki, to'rt kishi qorin to'ydira olar degan gap mashhurdir» Ushbu gap aslyatdan biroz farqli o'girilgan, ya'ni muallif eshitganlarini boricha, ro'y-rost bayon etib, «qirg'ovul go'shtini to'rt kishi yeb tugatolmasligini» ta'kidlaydi, tarjimada esa چار آدمی پیٹ بھر لیں۔ qirg'ovul go'shtidan to'rt kishi qornini tuydira olar, deyilgan. Bizningcha, muallif o'zi ko'rgan yoki eshitgan voqea-hodisalarni o'quvchiga ochiq, boricha tasviriy vositalar orqali aytishi tarjimada ham muayyan darajada aks topgan. Mirzo Bobur Andijon ta'rifida mazkur yurtning g'allasiyu mevalari, rasm-rusumini sodda, lo'nda va ixcham qilib yozadi. Masalan: «Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas» . Ushbu jumlaning Ko'ragoniy quyidagicha tarjima qilgan: اس میں غلہ و میوہ بکثرت پیدا ہوتا ہے - انگور اور - خربوزہ بہت اور عمدہ ہوتا ہے وہاں دستور ہے کہ فصل میں خربوزوں کو باڑیوں پر نہیں بچتے - «Unda (Andijonda) g'alla va mevalar mo'ldir. Uzum va qovuni ko'p va xo'b (a'lo) bo'ladi. U yerda bir urf borki, hosil vaqtida qovunlarni poliz boshida sotmaydilar. Ko'ragoniyda birinchi gap aslyatdagi mazmun bilan aynan, deyish mumkin. Shu gap davomidagi «...qovun va uzumi yaxshi bo'lur» tarjimasida انگور [bahot] ko'p so'zini qo'shgan va bundan mazmunga putur yetmagan. Fikrimizcha, muallif uslubiga xos qisqalik tarjimada aks etgan.

«Boburnoma» bilan tanishib chiqish jarayonida Boburning yaqin kishilariga

bergan ta'rifu tavsiflari, tabiat manzaralari, joy nomlari, hayvonot va nabotot olami va juda ko'p narsalarga o'ta sinchkovlik bilan qaraganligiga guvoh bo'ldik. V.Bartold o'zining «Iran. Istoricheskiy obzor» asarida «Boburnoma»dagi ma'lumotlarga yuksak baho berib shunday yozadi: «...jug'rofiy tasvirlar, masalan, Farg'ona hamda Samarqand va uning tevarak-atroflari tasviri haqli ravishda klassik deb tan olinadi» [Bartold V,1971: 305]. Ma'lumotlarning ko'pligi, aniq va to'laligi, tarixiy voqealarning rostgo'ylik bilan ifoda etilishi, xronologik izchillik, ifodaning soddaligi va ravonligi «Boburnoma»ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklari va jozibasini yanada oshiradi. Bu jihatdan u ko'plab sharq tarixchilarining asarlaridan ustun turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1962, تزک بابری، مرزا نصیر الدین حیدر کراچی، (426 p.)
2. 1983, بابرنامہ (تزک بابری) محمد قاسم صدیقی، ترقی اردو بیورو، نئی دہلی (66 p.)
3. 1993, تزک بابری، رشید اختر ندوی لاہور (287 p.)
4. 2007, وقائع بابر، یونس جعفری شہر بانو پیلی شیرز کر یکادی (396 p.)
5. Boburnoma. P.Shamsiyev, S.Mirzayev va Eyji Mano (Yaponiya) nashrlari asosida qayta nashrga tayyorlovchi: S.Hasanov. – Toshkent: Sharq, 2002.
6. Bartold V.V. Soch. t.VII. – M.: Nauka, 1971.

Алиева Фариди,
филол.и.к., Ош мамлекеттик
университети доценти

БАБУРДУН АДАБИЙ МУРАСТАРЫ ОКУМУШТУУ Ж.ШЕРИЕВДИН ИЗИЛДӨӨЛӨРҮНДӨ

Аннотация: Макалада кыргыз окумуштуусу профессор Жээналы Шериевдин бабуртаанууга кошкон салымы жөнүндө сөз болот. “Бабур-наме” тарыхый-мемуардык чыгармасынын мазмуну, мааниси, Бабурдун көп жактуу чыгармачылыгы, илимий баяндары жана Кыргызстан менен байланышы тууралуу талдоолору иликтенет. Ошондой эле акындык чеберчилиги, рубаилердин тематикалык жактан талданышы, котормонун бийик деңгээли боюнча көз караштарына баа берилет. Окумуштуунун Бабур тууралуу жеке илимий бүтүмдөрү тууралуу сөз болот.

Ачык сөздөр: Ж.Шериев, “Бабур-наме”, рубаилер, тематика, бабуртаануу, орток адабият

Abstract:The article talks about the contribution of the Kyrgyz scientist Professor Jeenaly Sheriev to the field of pedagogy. The content and meaning of the memoir "Babur-name", analyzes of Babur's multi-faceted creativity, scientific narratives and connection with Kyrgyzstan are investigated. Also, the poet's skill, the thematic analysis of the rubai, and the high level of the translation will be evaluated. The scientist's personal scientific works about Babur are also presented.

Keywords: J. Sheriev, "Babur-name", rubai, themes, Babur studies, common literature

Чыгыш элдеринин адабиятынын тарыхында Захриддин Мухаммед Бабурдун өгөчө орду бар. Анын казалдары менент рубаилери, “Бабур –наме” тарыхый-мемуардык эмгеги бизге жеткен. “Бабур –наме “ кол жазма түрүндө таркап, нускалары дүйнөнүн ири шаарларында сакталып турат. Чыгарманы табуу, изилдөө европалык жана орус окумуштуулары тарабынан башталган, 30дан ашуун тилдерге которулган. “Бабурдун беш кылымдык тарыхка ээ орток түрк адабий тилинде жазылган “Бабур-намеси” түрк дүйнөсүнүн гана эмес, бүткүл адамзаттын маданий кенчи болуп саналат” [Эшиев, 2007:255].

“Бабур-наме” кыргыз тилине Төлөгөн Козубеков тарабынан которулган. Бабурдун өмүр баянын жана чыгармачылыгын изилдөө иштери кыргыз адабиячылары тарабынан да колго алынган. Алардын бири филология илимдеринин кандидаты, профессор Жээналы Шериев болгон. Ал 1996-жылы чыккан «Байыркы орток түрк адабияты» деген хрестоматияда жана 2000-жылы чыккан «Байыркы адабият тарыхы» окуу китебинде Захриддин Мухаммед Бабурдун чыгармачылыгын ар тараптуу ачып берген.

КРнын билим берүүсүнө эмгек сиңирген кызматкер, «Даңк» медалынын ээси, Ж. Мамытов атындагы эл аралык сыйлыгынын лауреаты Шериев Жээналы 1960-жылы Ош мамлекеттик пединститутунун (азыркы ОшМУ) филология факультетине окутуучулук кызматка келип, окутуучу, доцент, профессор наамдарына ээ болуу менен өмүрүнүн акырына чейин (2002) эмгектенген. Ж. Шериев кафедра башчысы, институтта илимий иштер боюнча проректор кызматтарын аткарып, 1997-жылы өлкөнүн Президентинин токтому менен Ош областтык улуттар уюмунун ассамблеясынын төрагасы болуп дайындалган. Бул кызматта иштеп турган учурда көп улуттуу аймактын ынтымак-ырашкерлигине, маданият аралык байланыштардын чыңдалышына бараандуу салым кошкон.

Ж.Шериев «Байыркы орток түрк адабияты» (1996) деген аталыштагы окуу жайлардын студенттерине, мектеп мугалимдерине арналган хрестоматиянын кириш сөзүндө: “Кыргызстандын тарыхында биринчи жолу Байыркы түрк доорунун, XX кылымдын башына чейинки мезгилдин адабияты жөнүндө мыйзамдуу сөз жүрүп, аны окуп-үйрөнүүүши башталганына араң үч жылга эми аяк салды Өлкөнөн эгемендүү болушу менен бизде түрк калктарына жалпы таандык, орток көркөм мурастар жөнүндөгү коомдук пикир мыйзамдуу нукка түштү, аларды окурмандарга жеткирүү максаты күч алып, иликтөө иши да жанданды,”- дейт [Шериев, 1996:3]. Аталган хрестоматияга Бабурдун “Бабур-намесинен” үзүндүлөр жана акын М.Жаныбековдун котормосундагы рубаилердин келки түрмөгү киргизилген. Бул үзүндүлөр “Кыргыздар” жыйнагы менен “Ала-Тоо” журналынын 1990-жылдагы №2санына жарыяланган эле. Түрк элдерине бирдей болсун деген максатта “Бабур-баян” эмес, “Бабур-наме” деген аталышты калтырганын белгилейт [Шериев, 1996:4].

Эгемендүүлүктүн шарапаты менен улуттук адабиятыбыз менен маданиятыбызга кызыгуу күч алып турган кезде, бул жыйнактын чыгышы зарыл эле. Окумуштуунун Бабур тууралуу негизги эмгектери “М.З.Бабур” (Ала-Тоо,- Б.:, 2000) жана “Закриддин Мукамбет Бабур” (Китепте: Байыркы адабият тарыхы. Бишкек-Ош.: 2000). “Байыркы адабият тарыхы” окуу китеби катары иштелип, түрк тайпаларынын адабияты тарыхынын байыркы мезгили менен орто кылымдар доорун ичине алат. Окуу китебине Орхон-Енисей жазма эстеликтери, “Огуз-наме” дастаны, “Коркут ата китеби”, караханийлер доорундагы маданиятка тиешелүү материалдар, Махмуд Кашкаринин “Түрк тилдер сөз жыйнагы”, Баласагындык Жусуптун “Кут билими”, Акмат Жасави, Адиб Акмат Жүгнаки, Рабгузий, “Маджму Ат-таварих”, Шамшидин Өзгөндү, Кожоназар Гайназар уулу Оши жана Бабур тууралуу илимий маалыматтар киргизилген.

Бабур тууралуу жазылган бөлүмдө Бабурдун ата-теги, тарыхтагы, маданияттагы орду тууралуу кеңири маалымат берилет: Бабур мырза–мамлекет башчысы, коомдук ишмер, аскердик ири жетекчи, акын, тарыхчы, этнограф, музыка ышкыбозу, окумуштуу, атасы Омор-шайх атактуу Темирландын тукуму болгон. “Мыйзамдуу түрдө аны чыгыш ханзадасы дешке арзыйт. Өз доорунун чыгыштаануучулары аны Чыгыш императору деп эсептеген” [Вамбери, 1990:70]. Хандар тегинен чыккан баланын эрте кат сабаты ачылып, илим-билимге, чыгармачылыкка кызыга баштайт. Атасы кырсыктан каза болгондон кийин, Бабур 12 жашында такка отурат. Андан кийин Бабурдун саясий-аскердик ишмердүүлүгү, жортуулдары тууралуу сөз болот. Кыргызстандын Индиядагы экс-элчиси, окумуштуу О.Ибраимов:”Ошол “Бабур-наама” китебинде Бабур качан болсо жанында жүргөн, өйдө тартса өбөгү, ылдый тартса жөлөгү болгон ар бир жигитине, нойонуна баа берип, ар биринин атын атап, кайсы уруудан же кайсы жерден экенин баса көрсөтөт. Маселен, эң ишенген нөкөрлөрүнүн бири Султан Малик Кашгари экен. Башкача айтканда, бул нөкөрү түбү Кашкардан, өз аты Султан, атасы Малик экен. Дагы бир нойону Мухаммед Дост Тагайи деген азамат болуптур. Биздин тилде айтканда, бул нойону тагай уруусунан чыккан Мухаммед деген жигит экен. Үчүнчү бир ишенген жигити Ибраим Саруу экен, башкача айтканда саруулардан чыккан Ибраим болуптур.... Турду Мухаммед Кыпчак дегени кыпчак уруусунан чыккан жан жолдошу Турду деген сөз эмеспи, -деп жазат [Ибраимов, https://www.azattyk.org/a/kyrgyzstan_history_babur/24771785.html].

Шериев Бабурдун кыргыздар жана Ош тууралуу жазгандарын мисал келтирип:”Фергана өрөөнүндө абасынын жагымдуулугу жана тазалыгы жагынан Ошко теңелээр шаар жок”, – деген сөзүн өзгөрүүсүз берет. Сулайман тоого салдырган үжүрөнүн Совет доорундагы тагдырына да токтолуп өтөт.

Ж.Шериев адабиятаануучу катары Бабурдун адабий мурастарына кенен токтолот. Бабур Орто кылымдар адабиятынын тарыхында акын катары белгилүү. Таланттуу калемгер өмүр бою чыгармачылык менен алектенип, казалдарды, рубаилерди, месневилер менен касыйдаларды адабий мурас катары калтырды. Кыргыз акыны М.Жанибеков которгон “Рубаилер

жыйнагы” кыргыз окурмандарына Бабурдун Ата журт, махабат, өмүр, тагдыр жөнүндөгү ой-толгоолору, автордун инсандык сапат-касиеттери тууралуу маалымат берет. “Анын ырларында инсандын жан-дүйнөсү, сезимдери менен көңүл күүлөрү, турмуштун ар кандай башка көрүнүштөрүнөн жогору коюлат, “– дейт илимпоз [Шериев, 2000:201].

“Ооматын келип, алтын баш жетсе дөөлөткө,
Уу тырмак болуп элинди салба мээнетке.
Беш күндүк өмүр, кыйшайар болсо ооматын,
Эчен жан өткөн күч менен элди жөөлөткөн”.

Ушундай оригиналдын өзүнөн ашса ашып, мазмун кемтиксиз берилген саптарды мисалга тартып: ”Бул түрмөктөрдү котормо чыгарма деп атоого болбойт, бул орто кылымдардагы түрк тилинен кыргызчаланган ырлар деп каралууга татыктуу,”- деп жогору баалайт.

Окумуштуу Бабурдун поэзиясын тематикалык топторго бөлүп карап, Индостанда шах болсо да, мекени Фергананы сагынып жазган ырларында, айрыкча махабат, сүйүү темасындагы чыгармаларында Бабурдун адамдык, атуулдук сапаттары, ички сезимдери, жан-дүйнө кайрыктары ар тараптуу ачылганын белгилейт :”Махабатты чагылдыруу жагынан Бабурдун ырлары чыгыш поэзиясына мүнөздүү эң мыкты салтты өнүктүргөн деп баалоого милдеттүүбүз” [Шериев, 2000:203].

“Сүйүүнүн күчү жүрөктү жара тилгенде,
Шахтын да калбайт дарманы жыргап күлгөнгө.
Көз ирмем сайын жаралып жаңы ишеним,
Махабат дарты азаптуу болот билгенге.
Гүл болсоң эгер мен булбул, гүлгө жарчымын,
Сен болсоң шоола, күн тийген тоонун артымын.
Алдына тике баралбай жүргөн ийменип,
Көпчүлүк элге шах болсом, сага жалчымын.
Кол-бутум байлап, кактаган күчтүү кош оттон,
Ырайым кылып, азаттык берип бошотсоң.
Кул болуп сага кызматын кылып өтөйүн,
Отунду жагып, чыгарып күлүң очоктон”.

Жогорудагыдай түрмөктөрдү “аянбай” мисал келирет да:” Бул темадагы анын ырлары жөнүндө кеп курбай эле аларды улам-улам кайталап окуу, окуп отуруу жөндүүдөй сезилет, анткени поэзия өзү сүйлөп турса, ал жөнүндө кеп курууи суусу жок тегирменге тете,” – деп жыйынтыктайт [Шериев, 2000:202].

Автор Бабурдун философиялык темадагы ырларынын маани-мазмунунан каалаганын жасаганга мүмкүнчүлүгү, мансабы бар адамды эмес, кадимки катардагы пендени көрөт. Акын үчүн Адамдын ыйманы менен руханий касиети биринчи орунга коюлат:

Сормого батып, жашоонункачып кумары,
Кусалык кыйнап турганда көңүл тунарып.
Акылдуу пенде жаныңда болсо түзүк иш,
Балчыктан акыр бошотуп алар чыгарып.

Айтылган ушак келтирип намыс-арына,
Тутулган айдай кабагын бүркөп наалыба.
Көңүлү толо бабурдун билсең бир гана,
Жарыктык дүйнө жана да сенин барыңа.

“Чындыгында эле адамсыз дүйнө, махабатсыз өмүр, максатсыз жашоонун наркы, кереги барбы деген ой-сезим – Бабурдун поэзиясындагы өзөк” [Шериев, 2000:205].

Автор андан ары изилдөөсүн “Бабур-намени” талдоо менен улантат. Адегенде чыгарманын жанрын тактап, тарыхый-мемуардык чыгарма деп атайт. Анткени мында 14-кылымдын акыры 15-кылымдын башындагы тарыхый окуялар, тарыхый инсандар, ири шаарлар (Самаркан, Анжиян, Аксы, Хоженд, Ош, Өзгөн), алардын географиялык-климаттык өзгөчөлүктөрү, калкынын этникалык курамы, башкаруучулар, үй-бүлөсү, вазир, бектери, туугандык байланыштары жөнүндө сөз болот. Чыгарманын экинчи, үчүнчү бөлүмдөрү, Ооганстан, Индостан тууралуу да жогорудагыдай мүнөздө улантылат.

Окумуштуу “Бабур-наменин” тарыхый чыгарма катары артыкчылыктарын төмөнкүдөй белгилейт: “фактынын көптүгү, реалдуу чындыктан алынышы, тарыхый материалдардын объективдүү, калыс, акыйкат баяндалышы, Бабур өзү баш болгон тарыхый инсандардын көп сапаттарынын ачылышы болуп эсептелет. Алар апыртуусуз, кошумча сүрөттөөлөрсүз баяндалат. Ошондой эле диндик ооз көптүрмө сүрөттөөлөр да кездешпейт” [Шериев, 2000:209-210].

Бабурдун устатым деп эсептеген Алишер Навои жана башка тааланттуу, илимдүү инсандар менен болгон мамилесине, анын аскер башчылык, падыша катары сапаттарынын ачылышына, жүргөн географиялыка аймактардын жандуу, жансыз табияты, климаты тууралуу таамай баяндарына, күн, жыл эсеби, салмак, чен өлчөмдөр боюнча маалыматтарына токтолуп, илимий булак деп эсептейт. Ошондой эле “Аруз жөнүндө трактат” аттуу эмгеги үчүн Бабурду чоң аалым деп баалап, эмгектин чыгыш поэзиясы боюнча салмактуу изилдөө экенин баса белгилейт.

Ошондой эле Бабур, анын “Бабур-намеси” менен Кыргызстандын өз ара байланыштары тууралуу сөз кылат. Ош, Сулайман тоосу, Өзгөн, кыргыздын чаграк уруусу тууралуу маалыматтарына токтолуп, анын тарыхый негиздерин чечмелейт.

Бабурдун диний көз караштарынын чыгармачылыгына оң таасир эткен деген бүтүмүн билдирет.

Ж.Шериев - Захриддин Мухаммед Бабурду орток түрк адабиятынын ири өкүлү катары изилдөөгө алып, анын Чыгыш адабиятындагы татыктуу ордун белгилөөгө кыргыз окумуштууларынын ичинен алгачкылардан болуп киришкендердин бири.

Жыйынтыктап айтканда, белгилүү илимпоз Ж.Шериевдин Бабур жана анын чыгармачылыгы боюнча изилдөөлөрү бабуртаанууга, орток түрк

адабиятына кошулган салым жана кыргыз окурмандары үчүн маанилүү илимий булак болуп эсептелет.

Адабияттар:

1. Байыркы орток түрк адабияты: Байыркы доор жана орто кылымдар мезгили. Хрестоматия. Түзгөн Ж.Шериев. -Б.: 1996.
2. Вамбери Г. Бухоро ехуд Мавераннахр тарыхы. - Ташкент, 1990.
3. Ибраимов О. Бабур жана тоолук кыргыздар. https://www.azattyk.org/a/kyrgyzstan_history_babur/24771785.html.2012.11.15
4. Эшиев А. Орто түрк доорундагы педагогикалык ойлор. –Б.:2007.
5. Шериев Ж. Байыркы адабият тарыхы. Бишкек-Ош.: 2000.

Shamsiyeva Kholida,

representative of the International
Public Foundation named after Babur.

Hazratkulova Elmira,

Doctor of philolgy, representative of the
State Museum of Temurids history.

THE INTERNATIONAL ELECTRONIC PLATFORM: BABUROLOGY

Special attention is being paid to the development of spirituality and literature by our government. A series of initiatives aimed at perpetuating the memory of our great scholars who left a bright mark in the life and history of our nation, raising the cultural and educational level of young people, educates the worldview of our compatriots and strengthens their minds. A clear example of our opinion is the announcement of the decree "On the wide celebration of the 540th anniversary of the birth of the great poet and scientist, famous statesman Zahiruddin Muhammad Babur" by the President of the Republic of Uzbekistan on January 25, 2023. In order to further promote the work of Zahiruddin Muhammad Babur and in accordance with the decision, within the framework of Babur Mirza's birthday, along with a number of spiritual, educational and scientific events, the tasks of further strengthening propaganda work among the population, especially among the youth, have been determined.

In particular, a special program of measures aimed at ensuring the implementation of the President Shavkat Mirziyoyev's decision is being developed and implemented by the International Public Foundation named Babur.

The INTERNATIONAL PUBLIC FOUNDATION named after BABUR was established in Andijan, 1992 by the efforts and patriotism of Zokirjon Mashrabov, a sincere admirer of the life and works of great compatriot, king and poet Zahiruddin Muhammad Babur. Its purpose is

- to restore the unknown pages of our ancient history, to raise our spirituality further,

- to perpetuate the memory of our great ancestor Zahiruddin Muhammad Babur,

- as well as dozens of other scholars, poets, and thinkers such as Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Maulana Lutfiy, Boborahim Mashrab, Gulbadanbegim, and Zebunisa, who contributed to the development of Eastern culture through their lives and creative works,

- to bring their rare books and manuscripts from distant places to the Motherland,

- to identify and embellish their cemeteries outside the borders of the Republic of Uzbekistan and

- to deepen peoples' understanding and friendship.

The first trip of Babur International Scientific Expedition under the management of the fund was carried out in May 1992, and until now more than 30 international trips to more than 50 foreign countries have been organized. More than 400,000 km have been traveled by car from the African continent to the Indo-Chinese peninsula and European-American countries. As a result of these trips and scientific research, more than 1,000 unique books and rare manuscripts were gained, collected in "Babur and World Culture" book museum under the foundation, and were put and are being put into circulation.

To date, more than 50 books have been published under the auspices of the foundation. "Baburnama" alone has been reprinted three times since the foundation was established. A version of "Baburnama" in modern Uzbek language was created with the intention of making it understandable to today's youth.

On the occasion of the 540th anniversary of the birth of our great ancestor and in order to analyze, systematize, provide comments and promote the historical and creative heritage of Babur from the scientific point of view, a rare work consisting of 5 volumes entitled "Zahiruddin Muhammad Babur. The Baburids. Collection of encyclopedic, scientific and popular scientific materials" published in 2023, in scientific cooperation with the Institute of Turkology of the Russian Academy of Sciences and the International Public foundation named after Babur. This book was prepared in cooperation with the expert scientist Shokirkhan Rustamxojaev and under the editorship of the scientist Vahob Rahmonov.

On the occasion of the 540th anniversary of the birth of our great ancestor, a new reprinted Uzbek language version of the work "Baburnama" made by the well-known scientists Vahob Rahmonov and Karomat Mullahojaeva and new edition in the karakalpak language made by Kenesbay Karimov are along with this unique collection.

Furthermore, "Encyclopedia of Zahiruddin Muhammad Babur" was created for the first time in our country and has been published twice by the foundation. The President's decision "On the wide celebration of the 540th anniversary of the birth of the great poet and scientist, famous statesman Zahiruddin Muhammad Babur" defined the task of perfecting this fundamental research, preparing and publishing its third edition. On this basis, intensive work is currently underway to publish the complete third edition of the encyclopedia in Uzbek, as well as versions in English and Russian.

When talking about the perpetuating the image of Babur and widely promoting his immortal heritage, it should be noted that the International scientific electronic platform Baburology was created with the direct support of our government, in particular, the administration of Andijan region. Under the leadership of the famous Babur scholar, doctor of historical sciences, professor Abdumajid Madraimov, the team of the International Public Foundation named after Babur, in cooperation with the representatives of the State Museum of Timurids History, there was formed a working group of 7 people, and worked effectively to create an international electronic platform.

Initially, a number of questions and the following difficulties arose before the working group about how to post information about the field and how to distribute it to pages, to maintain objectivity in scientific information:

- until now there is no similar site dedicated to the activity of a historical figure or scholar on the Uzbek Internet;

- not a single cartoon, video game created for children promoting the activities of our historical figures;

- scientific-historical information about Babur and Baburids is distributed mainly in the English and Russian languages;

- the popularization of the term "Great Mongol dynasty" which was formed on the basis of a famous mistake regarding Baburids dynasty;

- The fact that a critical text of Babur's works, in particular, his largest and most prestigious work "Baburnama" has not been created;

- personal names related to Babur and Baburids, as well as the presence of variations in translations of the work;

- qualified pictures of Babur and Baburids and examples of culture reflecting their culture, galleries of architectural structures are not available in the Uzbek network segmentation;

- manuscripts of Babur's works, the fact that they have not been gradually put into an electronic form with the current alphabet;

- factors such as the whole information bank of the activities of the scientists and their researches are not collected in a single information base.

The official domain of this platform presented to you today is called <https://baburid.uz/> and is running in a test mode. The amount of internet space purchased for this platform is capable of uploading more than 20,000 books and articles.

The content and information selected for the main page of the platform is intended to attract the audience from school-aged children to adults, including miniatures from Babur's period, quotes from his works, as well as from the documentary historical drama "Zahiruddin Muhammad Babur" filmed by the creator of "Uzbekkino", director Babur Sher Ogli, the young actor Ilhom Berdiev, who performed a new interpretation of Babur's artistic image, and the photos of Muhammadali Abdukunduzov, the People's Artist of Uzbekistan, who have been loved by our people for many years, were also used for the platform.

In the "Virtual Travel" section of the platform, an opportunity was created to travel to "Babur and World Culture", "Andijan Urban Development Culture"

museums, Park "Bogi Babur", Babur's Symbolic graveyard, Babur International Public Foundation's headquarters.

In the section of the platform known as "The great Babur dynasty", the family tree of Zahiruddin Muhammad Babur from his father's side related to the Timurids was placed, as well as on this page Zahiruddin Muhammad Babur's state map, the composition of his fighting army, and drawings of the battle with Ibrahim Lodi were included.

The section known as the library is the core of the platform, and its components are Babur's creative heritage, Manuscripts, Conference collections, Miniatures, Scientific publications, "Babur and the world" magazine, Media.

In Babur's creative inheritance, both the classical alphabet and the current Latin alphabet forms of poetic genres such as ghazal, rubai, tuyuq, mustahzad, kita in the author's book were placed currently. With this, opportunities for foreign researchers to familiarize themselves with the original text in a virtual state have been expanded. In the future, during the project, information on the characteristics of large cities from Babur's work "Baburnama" is planned to be provided in both alphabets.

Some examples of manuscript works related to the field are placed in the manuscript resources' section and facilities are created for researchers.

In the section of the conference collections, the electronic forms of the scientific collections held by the International Public Foundation named after Babur over the years have been placed.

In the miniatures section, 97 of the 500 royal masterpieces created during the reign of King Akbar were selected and included in a themed manner. These miniatures effectively serve the users of the platform as they reflect the culture, art and high state administration of Babur and Baburids period.

Electronic samples of "Babur and the World" magazine published by the International public foundation named after Babur are located in this part of the library.

In the section of scientific publications of the library, you can get acquainted with the world and local science publications written about this great nobleman and his great dynasty.

At the same time, the page of the platform dedicated to the field of Baburology includes the biographies and electronic views of the works of the authors of the international publications who made a significant contribution to the science of Baburology, the activities of the mature representatives of the field in Uzbekistan and detailed information about the publications published by them.

In the section dedicated to the activities of the International Public Foundation named after Babur, detailed information is included about the activities of the foundation, which have been carried out for 32 years, and about the international expeditions organized to foreign countries. Information about the Foundation's branches established in foreign countries was also provided.

In the news section of the platform, news related to the theme is presented in chronological order.

This view that is presented to you now is the foundational part of the platform, and it has been prepared for 4 months. Now, in the process of continuing the project, it is planned to fill the networks of the platform both on a popular and scientific basis.

At present, the foundation itself has begun to implement all the formalities related to the project's prospects and its continuation.

Literature:

1. The decree "On the wide celebration of the 540th anniversary of the birth of the great poet and scientist, famous statesman Zahiruddin Muhammad Babur" by the President Sh.Mirziyoyev of the Republic of Uzbekistan on January 25, 2023.

2. "Encyclopedia of Zahiruddin Muhammad Babur", "Sharq" publishing house 2017, Tashkent.

3. Zahiruddin Muhammad Babur "Baburnama", Sharq" publishing house 2002, Tashkent.

4. "Zahiruddin Muhammad Babur. The Baburids. Collection of encyclopedic, scientific and popular scientific materials", collected and prepared by Sh.Rustamxojaev, "Zilol buloq" publishing house 2023, Tashkent.

Hazratqulova Elmira,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), Temuriylar tarixi davlat
muzeyi ilmiy xodimi

HUSAYN BOYQARO ADABIY MAJLISINING A'ZOLARI HAQIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada Kanadalik olim Mariya Sabtelning Husayn Boyqaro homiyligida ravnaq topgan Hirot adabiy muhitining tashkillanishi, unda ishtirok etgan shoirlarning shoirlik mahorati va hasbu holiga tegishli masalalar borasida olib borgan izlanishlari tahlil etiladi. Husayn Boyqaro saroyi adabiy muhitining asosiy boshchisi va rivojlantiruvchisi sifati amir Alisher Navoiyning xizmatlari hamda bu she'riyat davralarining asosiy ishtirokchilari haqida o'z mulohazalarini bildirib o'tgan. Mariya Sabtelning ilmiy tekshirish mezonida qiyosiy, tipologik tahlil usullaridan unumli foydalanilgan bo'lib, bu usullar orqali o'sha adabiy davrning manzarasini qaytadan yaratish va unga baho berish borasidagi tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo'ladi. Maqolada Mariya Sabtelning saroy adabiy majlislariga a'zo bo'lish va bu a'zolikning shoirlar hayotiga, istedodiga ta'siri haqidagi tahlillariga e'tibor qaratilgan bo'lib, olimaning Temuriylar madaniy muhitiga nisbatan bergan xolis bahosi "Boburnoma" asari asosida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar madaniyati, adabiy majlis, Mariya Sabtel, "Boburnoma", she'riy uslub, adabiy mahorat, adabiy janr.

Abstract: This article analyzes the research conducted by the Canadian scholar Maria Sabtelny regarding the organization of the literary environment of Herat, which flourished under the patronage of Husayn Boyguro, the poets who participated in it, and the related issues. Amir Alisher Navoi, the main leader and developer of the literary environment of Husayn Boykara Palace, expressed his opinion about the services and the main participants of these poetry circles. The criteria of Maria Sabtelny's scientific investigation have effectively used the methods of comparative and typological analysis, and these methods can be used in research to recreate the landscape of that literary period and evaluate it. The article focuses on Maria Sabtelny's analyzes of the membership of the palace literary gatherings and the influence of this membership on the life and talent of poets.

Key words: Timurid culture, literary meeting, Maria Sabtel, "Boburnoma", poetic style, literary skill, literary genre.

Kirish

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatiga doir xorij olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning ilmiy ahamiyati borasida yurtimizdagi navoiyshunos olimlar salmoqli izlanishlar olib borilgan. Xususan, jahon kutubxonalari va muzeylarida saqlanayotgan Alisher Navoiy devonlarining noyob qo'lyozmalari haqida, xorijiy navoiyshunoslik borasidagi tadqiqotlar haqida bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini [Навоий А., 2021: 412.] namuna qilib ko'rsatish mumkin.

Shu kabi tadqiqotlar doirasida yurtimiz olimlari va xorij olimlari o'rtasidagi ilmiy aloqalarning bir-biriga aloqadorligini ta'minlash hamda o'zaro qiyoslanish kabi jihatlar bugungi ilmiy jamoatchilikning dolzarb masalalaridan biridir.

Alisher Navoiy ta'siridagi adabiy muhit masalalarini kanadalik sharqshunos olimi Mariya Sabtelni o'zining yuzlab maqolalarida ilmiy izchillik asosida o'rganib chiqqan. Olimaning nomzodlik tadqiqoti "Temuriy hukmdor Husayn Boyqaro saroyi adabiy muhiti va uning siyosiy ahamiyati" mavzusida [Sabtelni, 1979: 230] yaratilgan bo'lib, olimi Kanadaning Toronta universitetida faoliyat olib boradi. Mariya Sabtelni bu tadqiqot ishida Temuriylar davri adabiy muhitining yutuqlari va uning moddiy-ma'naviy asoslariga e'tibor qaratadi. Olima tadqiqot uchun Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridan birlamchi manba sifatida foydalangan bo'lib, yondosh manbalar uchun Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Fahriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin", Som Mirzoning "Tuhfai Somiy", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye' " kabi asarlarlaridan unumli foydalangan. Demak, olimaning tadqiqotlari uchun asosan tazkiralari manba sifatida xizmat qilgan. O'zbekistonda bu davr tazkiralari haqida ham bir qancha izlanishlar olib borilganini kuzatish mumkin. [Шайхзода М., 1972:372.]

Tadqiqotning uchinchi bobi "Hirotda shoirlar va she'riyat. Mavzu va manbalar bilan bog'liq muammolar. Shoirlar va she'riyatga munosabat" deb nomlanadi. Mazkur bobda olimi e'tibor qaratgan masalalardan biri – Hirotda adabiy muhitining rivojida muhim o'rin tutgan shoirlarning maqomini aniqlash, ularning

Husayn Boyqaro majlislaridagi obro‘-e‘tiborini, she‘riy mahoratini taqqoslash yo‘lidan boradi.

Mariya Sabtelni “Majolis un-nafois” tazkirasidagi ma‘lumotlardan eng asosiy mezon sifatida Xuroson hududida tilga olingan shoirlarning qanchalik saroy adabiy majlislariga aloqadorligi masalasini oydinlashtirishga e‘tibor qaratadi: “Majolis un-nafois” va boshqa tazkiralarda shoirning ulug‘vorlik darajasi yoki eng muhimi, Alisher Navoiy rahbarligidagi saroy shoirlari tomonidan qabul qilinganligi va o‘sha doiraga mansubligi haqidagi ma‘lumot aniq ko‘rsatilmagan. Bobur saroy doirasiga mansub bo‘lgan shunday shoirlardan o‘n beshtasini sanab o‘tgan, Xondamir o‘n ikkitasini, Davlatshoh Samarqandiy yettitasini, Muhammad Haydar [Мысупмоноб Э., 2020:145] ham ikkita muallif tilga olgan shoirlarning ko‘pini, shu jumladan, Som Mirzo Bobur keltirgan ro‘yxatdan o‘n ikki nafarini tilga oladi. Shunday qilib, ushbu ro‘yxatlar va ko‘pchilik mualliflar tomonidan tez-tez tilga olingan shoirlarning nomlari asosida Husayn Boyqaro saroyida Alisher Navoiy tuzgan adabiy davraning o‘zagini qaytadan tiklash mumkin [Sabtelni, 1979: 76]

O‘zbekistonda Husayn Boyqaro majlislari, umuman olganda, temuriylar davri adabiy majlislarining ahamiyati haqida ko‘plab izlanishlar [Hayitmetov A., 1996: 145] olib borilgan bo‘lib, ulardagi asosiy masalalar bu majlislarning adabiy-estetik vazifalariga bag‘ishlangan.

Tadqiqotchi sifatida Mariya Sabtelni Hirot adabiy manzarasining eng asosiy rivojlantiruvchisi va ma‘nan yo‘lboshlovchisi sifatida Alisher Navoiyni e‘tirof etadi, lekin saroy shoirlarining sonini aniqlash va ularning she‘riyat davralaridagi mavqei hamda shoirlik mahorati haqidagi munosabatlarni jamlashda birlamchi manba “Majolis un-nafois”dan ko‘ra Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”siga tayanadi. Chunki “Boburnoma”da aynan Husayn Boyqaro davridagi shoirlar guruhi alohida tasniflangani va ularning ro‘yxati nisbatan uzun bo‘lgani uchun ham olim ana shunday qarorga keladi: “Bobur tuzgan ro‘yxat eng uzun va o‘ziga xos bo‘lgani uchun shoirlarning saroy adabiy davrasiga a‘zolicini aniqlashga asos bo‘ladi. Ko‘rsatilgan boshqa manbalar ushbu ro‘yxatga qarshi tekshiriladi va farqlar qayd etiladi” [Sabtelni, 1979: 76] .

Haqiqatdan ham, “Majolis un-nafois”da tasniflangan har bir majlislarning nomlanishiga qarab saroy shoirlarining safini to‘liq tiklash imkoni yo‘q. Sababi muallif bu asarga jo‘g‘rofiy jihatdan kengroq maydonni qamrab olgan shoirlar hasbu holini kiritgan bo‘lib, ularning aynan qancha miqdordaligini saroy davrasiga mansubligini ajratib olish bugungi kun tadqiqotchisi uchun mushkullik tug‘diradi.

“Boburnoma”ning temuriy hukmdorlar uchun belgilangan sahifalarida Husayn Boyqaro ta‘rifining o‘zgachaligi shundaki, boshqa hukmdorlarning ta‘rif matnlaridan o‘zining kattaligi va tasniflangan guruhlarining ko‘pligi ajralib turadi. Mariya Sabtelni ham Husayn Boyqaro madaniy muhitining taraqqiy etish omillarini o‘rganish asnosida mazkur manbani asosiy o‘ringa qo‘ygani bejiz emas. Zero Boburning qaydlarida shoirlarning portretini tasvirlashga munaqqid nigohi bilan yondashilgan.

Mariya Sabtelni bu kabi tarixiy asarlarning tasniflangan guruhidan faollik bilan tilga olingan va ta‘riflangan shoirlarning biografik ma‘lumotlariga e‘tibor qaratadi hamda Husayn Boyqaro saroyidagi o‘n ikki shoirning she‘riy mahorati va

o‘z davri adabiy an‘analariga ergashgani yoki ma‘lum bir ijodiy yangilik yaratganligi kabi jihatlarni o‘rganib chiqadi. Olimaning bu madaniy muhitga tegishli bo‘lgan yana bir omilni tadqiq etishi e‘tiborga loyiq. Mariya Sabtelnini bu shoirlarning nafaqat Husayn Boyqaro saroyidagi she‘riyat davralarini ravnaq topishdagi ishtirokini balki, ularning keyingi istilochilar Safaviylar va Shayboniylar davridagi taqdiri qanday kechganligini savol ostiga olgani aktual masalalar sirasiga kiradi.

Mariya Sabtelnini o‘z tahlillaridan kelib chiqqan holda quyidagi shoirlarni Husayn Boyqaro saroyi adabiy muhitining ishtirokchilari sifatida talqin etadi:

- Shayxim Suhayliy
- Hasan Ali Jaloir-Tufaliy
- Osafiy
- Binoiy
- Sayfiy Buxoriy
- Mavlono Abdullo Xotifiy
- Mir Husayn Muammoiy
- Muhammad Badaxshiy
- Yusuf Bad‘iy
- Ohiy
- Muhammad Solih
- Hiloliy

*Oltinchi shoir*¹ – Mavlono Abdullo-Xotifiy (vaf.1520). Bu shoirning hasbu holini yoritishda Alisher Navoiy va Boburning tanqid qarashlari mushtarak keladi. Ikkisi ham Mavlono Abdulloni masnaviygo‘y ekanligini ta‘kidlasa-da, uning she‘riy mahoratini baland baholashgan emas. Jumladan, Alisher Navoiy uning Abdurahmon Jomiyga qarindosh bo‘lsa-da, ma‘ni yuzidin bag‘oyat uzoqligini aytgan edi. Shuningdek, shoirning kibri balandligini, masnaviy yozishda o‘zini mohir sanab, boshqa masnaviygo‘ylarning ijodini takabburlik va nodonlik ortidan tan olmasligini qoralaydi. Bobur ham Xotifiyning adabiy an‘anaga muvofiq, “Xamsa” muqobalasida – javob tariqasida yozilgan masnaviylarni aytar ekan, “Layli va Majnun” mashhurroq ekani, lekin latofati shuhraticha yo‘qligini bayon qilgan edi.

Mariya Sabtelnini Bobur tomonidan Mavlono Abdullo-Xotifiyni Husayn Boyqaro saroyi shoirlari qatorida sanalgan bo‘lsa-da, uning bu she‘riyat davralariga a‘zo ekanligini shubha ostiga oladi: “U Abdurahmon Jomiyning jiyani bo‘lgan va ko‘p vaqtini tug‘ilgan qishlog‘ida o‘tkazgan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari Vosifiy uning Hirotdagi majlislarning birortasida qatnashgani haqida gapirmaydi”.[Sabtelnini, 1979: 85] Bizningcha, Mavlono Abdulloning fe‘lisa‘jijasiga Alisher Navoiyning bu qadar yorqin chizgilar berishdagi guvohligi o‘z-o‘zidan bo‘lmagan, bu kabi adabiy majlislarda uning bevosita ishtiroki kerak bo‘ladi. Xotifiy tog‘asi Abdurahmon Jomiy erishgan hurmati orqali saroy majlislarning ishtirokchisi bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

¹ Tadqiqotning avvalgi shoirlar bilan bog‘liq tafsilotlari boshqa nashrlarimizda e‘lon qilingan.

Yettinchi shoir – Mir Husayn Muammoiy (vaf.1498-99). Mariya Sabtelni bu shoirning iste’dodi bilan mashhurligini, muammo janrida beqiyos ekanligi haqidagi tafsilotlarni sanab o‘tgan holda, uning ham saroy davralariga a’zoliq masalasiga ham qiziqish bildiradi: Bobur tomonidan Husayn Boyqaro shoirlari qatorida tilga olinadi. Bobur uni ham muammo janri borasida tengi yo‘qligini e’tirof etadi: “Muhammad Haydar esa uni muammonavislar guruhiga qo‘yadi. Mir Husayn Muammoiy muammo janri haqida ko‘p qirrali risola yozgan. U asli Nishopurdan bo‘lib, uning Navoiy davrasiga mansubligi haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot yo‘q. Biroq XV asrning eng ko‘zga ko‘ringan adiblari bo‘lganligi uchun, shubhasiz, u Navoiy va saroy doiralari bilan aloqada bo‘lgani aniq. Qolaversa, Alisher Navoiy uning xarakterini yaqindan chizadi, demak, uni shaxsan bilgani uchun shu tariqa taassurotga kelgan bo‘lsa kerak. Shunday qilib, hech bo‘lmaganda, Mir Husayn Muammoiy majlisning yarim a’zosi sifatida sanashimiz mumkin”. [Sabtelni, 1979: 86]

Haqiqatdan ham Alisher Navoiyning Mir Husayn Muammomiya hasbu holini tasvirlar ekan, uning Husayn Boyqarodan ba’zi masalalarda to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam so‘rab murojaat qilgani haqida so‘zlaydi: “Mir xizmatlarida bir tifi ta’limin iltimos qilib erishlar va shogirdi andinkim, tufuliyat muqtazosidur, o‘qumoqqa kohilliq qilmish bo‘lg‘ay.” [Navoiy, 1997: 70]

Mir Husayn Muammoiyning Husayn Boyqaroga bevosita iltimos qila olish jur’atidan va muammodek murakkab janrning ijodkori sifatida Xurosonda dong taratganidan kelib chiqib, uni Husayn Boyqaro saroyi anjumanlarining doimiy a’zosi bo‘lgan, degan xulosadamiz.

Sakkizinchi shoir – Muhammad Badaxshiy (vaf. 1511/12). “Boburnoma”da bu shoir nomi Husayn Boyqaro shoirlari qatorida sanalgan. Mariya Sabtelni Bobur tomonidan Badaxshiy taxallusiga nisbatan tanqidiy munosabat bildirilganini eslatgan. Chunki shoirning asli tug‘ilgan yeri Ishkamish bo‘lib, odatda shoirlar o‘z tug‘ilgan shaharlariga nisbat berib taxallus tanlar edilar. Shuningdek, olim Badaxshiyning Alisher Navoiyning 30 yillik xizmat qilgan eng yaqin do‘stlaridan biri ekanini ta’kidlaydi. Boburning Badaxshiy she’rlarini tanishtirilgan boshqa shoirlarnikidek quyiroq uslubda yozilganini aytgan edi. Mariya Sabtelni Badaxshiyning shu tomonlariga e’tibor qaratib, uning Alisher Navoiyga yaqinligini hisobga olib “shahar adabiy majlislarining ideal ishtirokchisiga aylantirgan edi”, deydi.

Badaxshiyning muammo haqidagi risolasini Bobur eslatar ekan, xeyli yaxshi emasligini, lekin unga Samarqandda mulozamat qilganini va uni xushshabat kishi sifatida ta’riflagan edi.

To‘qqizinchi shoir – Yusuf Ba’diy (1491/2). Bobur bu shoirni Husayn Boyqaro shoirlari ro‘yxatida qisqa tarzda ta’riflagan, ya’ni uning Farg‘ona viloyati ekani va qasida janrida ijod qilishini [Boburnoma. 2002. 139.] aytgan edi.

Alisher Navoiy Yusuf Ba’diyning tug‘ilgan shahrini yanayam aniqroq Andijon shahri deya ma’lumot beradi. Hamda “Majolis un-nafois”da Yusuf Ba’diyning she’riyatiga nisbatan faqatgina Alisher Navoiygina tahrir qila olish salohiyatiga ega bo‘lgani haqida aytar ekan, uning “Mir’ot us-safo” nomli qasidasidan baytlar keltirib o‘tgan.

Mariya Sabtelni Yusuf Ba'diyning Samarqandga kelib tahsil olgani va u yerda Alisher Navoiy bilan birga bo'lganini eslatish asnosida uning Hirotga kelib ijod qilishini ham Alisher Navoiy nomi bilan bog'laydi: "Yusuf Ba'diy, ehtimol, Alisher Navoiyning taklifi bilan Hirotga kelgan va uning homiyligida ravnaq topgan, hattoki she'riy mahoratini oshirgan". [Sabtelni, 1979: 87]

Mariya Sabtelni Yusuf Ba'diyning shayboniylar davrigacha yetib kelmaganini qayd etib shunday yozadi: "Yusuf Ba'diy biz ko'rib chiqayotgan davrning Alisher Navoiy davrasining eng boshlariga mansub edi, chunki u 1492-yilda vafot etgan. Shuning uchun ham Navoiy uni "Majolis un-nafois"ning uchinchi bobida emas, tazkiraning boshlanishiga, vafot etgan shoirlar bobiga kiritgan". [Sabtelni, 1979: 87] Demak, Yusuf Ba'diy Alisher Navoiy bilan yaqinligi tufayli saroy mushoiralarida 1492 yilgacha faol qatnashgan qasidago'y, muammonavis faol shoirlar sirasidan bo'lgan.

O'ninchi shoir – Ohiy (vaf.1501/2). "Bobur uni Husayn Boyqaro shoirlari ro'yxatida tilga olgan bo'lib, u turkiy bo'lgan". [Sabtelni, 1979: 88] Haqiqatdan ham "Boburnoma"da Ohiyning ta'rifi juda qisqa keladi, biroq uning g'azalnavislikda mohirligi, devoni borligi hamda Husayn Boyqaroning o'g'li Ibn Husayn mirzo xizmatida bo'lganini ma'lum qiladi. Devon tuzish darajasida she'rlari to'planib qolganidan bilish mumkinki, uning ham Hirot adabiy muhitida o'ziga xos mavqei bo'lgan. Lekin Alisher Navoiy Ohiyning shoirlik mahorati haqida gapirar ekan, uning ba'zi jihatlarini tanqid ostiga oladi, jumladan, avvaliga Nargis taxallusini qo'llab, so'ngra Ohiy nomli taxallusni qo'llay boshlagani, sababi so'ralganda obodong'ina javob aytilmagani haqida yozadi. Alisher Navoiy tanqidining yana bir tomoni Ohiyning boshqa ijodkorlar ijodidan nozik ma'no va qochirimlarni o'zlashtirish odatiga qaratilgan: "Qaydakim, juzviy rangin so'z yo ma'niyi nozuk ko'rsa, tasarruf qilurg'a odat qilibdur. Insho-olloh, andoqkim taxallusig'a tag'yir berdi bu odatiga ham tag'yir bergay". [Navoiy, 1997: 9] "Ohiyning ijodidan forscha bayt namuna keltiradi. Som mirzo Ohiyi turkiy bo'lgani uchun "Tuhfai Somiy"da turk shoirlari haqidagi bobiga kiritgan". [Sabtelni, 1997: 88] Lekin boshqa tazkira va tarixiy asarlardan keltirilgan baytlari asosan fors tilida yozilgan. "Muhammad Haydar uni she'riyatda oson va ravon uslubi bo'lganligini aytadi. Amir Shohiy uslubida ijod qilganligini aytadi. Uning devonini yuksak baholaydi".

"Tarixi Rashidiy"da Ohiyning devonidan keltirilgan bayt ham fors tilida yozilgan. Muhammad Haydar uning uslubida pokizalik bor deb hisoblaydi.

Mariya Sabtelni Zayniddin Vosifiyning xotiralarida uning nomini Hirotidagi majlislarning birontasiga bog'lagan holda tilga olmasligidan kelib chiqib, Ohiyi Navoiy davrasining ehtimoliy a'zosi deb hisoblash mumkin, degan xulosaga keladi. [Sabtelni, 1997: 88] Bizningcha, Ohiyning xarakteri, ijodkor sifatidagi qirralarining yaqindan tasviri, taxallusi bilan bog'liq e'tirozli savol-javoblar bo'lganini nazarda tutgan holda uni Alisher Navoiy adabiy davralarining doimiy ishtirokchisi sifatida talqin qilishimiz mumkin.

O'n birinchi shoir – Muhammad Solih (vaf.1534/5). Olima tahlillarida Muhammad Solihning temuriylar sulolasiga nisbatan muxolif kayfiyatda bo'lgani masalasiga diqqat qilingan. Sababi o'sha davr manbalarining barchasida

Muhammad Solihning shayboniylar xizmatiga o'tib ketgani, temuriylardan uzoqlashgani kabi voqealar gavdalantirilgan edi.

“Bobur uni Husayn Boyqaro shoirlari qatoriga kiritadi, lekin u ham Binoiy kabi Husayn Boyqaro xizmatida qisqa muddat bo'lgan”. [Sabtelni, 1979: 89] Olima Muhammad Solihning temuriylarga qarshi sulolalarga xizmat qilishini ta'kidlagan holda, Alisher Navoiy va Boburning unga nisbatan siyosiy-ijtimoiy nuqtai nazarini quyidagicha farqlaydi: Alisher Navoiyning aytishicha, Muhammad Solihning mansab va obro'sidagi u tushunolmagan eng katta xatosi Husayn Boyqaro xizmatini tark etib Samarqandga Xoja Ahror valiyning o'g'li Hoja Yahyo xizmatiga kirishi bo'lgan. Boburning Muhammad Solihni qattiq tanqid qilishini uning shayboniy-o'zbeklarga nisbatan dushmanligi bilan izohlanishi mumkin, chunki Muhammad Solih temuriylarga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlagan edi”. [Sabtelni, 1979: 89]

Darhaqiqat, Bobur mushohadalarining davomida Shayboniyxonga atab yozilgan dostonning vaznini aniqlashi bilan birga, uning mazmunini keskin tanqid qiladi: “bisyor sust va furudtur, ani o'qug'on kishi Muhammad Solih she'ridin bee'tiqod bo'lur. Bir yaxshi bayti budur:

Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,
Qildi Farg'onani tanbalxona.

Andijon viloyatini Tanbalxona ham derlar, ul masnaviyda muncha bayt ma'lum emaskim, bo'lg'ay.” [Бобурнома, 1979: 139] Muhammad Solihning turkiy masnaviysiga nisbatan bu keskin tanqidiy qarash haqida akademik B.Valixo'jayev shunday deydi: “Ammo Bobir ba'zan (qiziqqonlik bilan) u yoki bu shoir ijodi va asari to'g'risida xulosa ham chiqaradi. “Shayboniynoma”dan tanho bir baytini ma'qullaydi-da, qolgan hamma qismlarini bisyor sust va furud deb aytadi. Aslida esa Muhammad Solihning mazkur asari shoir dunyoqarashidagi cheklanganliklar bilan belgilanuvchi nuqson va kamchiliklardan qat'i nazar, o'zbek epik poeziyasi, realistik tasvir uslubi tarixida o'ziga xos mavqeni egallashi adabiyotshunosligimiz tomonidan isbot etilgandir”. [Ўзбек адабиёти тарихи, 1984: 77]

Boburning mazkur tanqidiga adabiyotshunos olimi I.Adizova esa quyidagicha munosabat bildiradi: “Bunday baho berishning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, doston Shayboniixon huzurida e'tibor qozonish maqsadi bilan yaratilgan. Asar yaratishdan maqsad, tama' birinchi o'rinda turgan. Ikkinchidan, dostonda his-tuyg'ular talqini va ruhiy tug'yonlar tahlili yetakchilik qilmaydi. Uchinchidan, mazmun taqozosi bilan badiiylikka putur yetgan o'rinlar ham yo'q emas. Ko'rinadiki, Boburning dostonchilik borasidagi mulohazalarini aynan qabul qilmasak-da, ular asossiz emasligini ham tan olishimiz kerak” [Адизова I., 2008: 59]

Darhaqiqat, Boburning «Shayboniynoma» haqidagi fikri bahslarga tortilishida yuqoridagi kabi sabab va holatlarga ham e'tibor qaratish kerak. Bizningcha, Boburni Muhammad Solihning aynan Shayboniixon sharafiga atab doston yozish holati taajjublantirmagan. Bu kabi ijodiy an'analar Boburning o'zi yaratgan adabiy muhit doirasida Kobul va Hindistonda ham davom etgan edi (O'zining sha'ni uchun yaratilgan qasida, ta'rix va g'azallar haqida ko'p bora eslatadi). Avvalo,

Bobur doston bilan to'liq tanishganini ham e'tirof etishimiz kerak. Asarning vaznini belgilab aytgan fikri ham uning dostonga har tomonlama adabiy-ilmii nuqtai nazardan yondashganidan dalolat. Shu bilan birga uning asardagi badiiy mahorat, zavq va jozibasi bilan bog'liq masalaga xolis yondashuvi umumlashma bir xulosa bilan ifodalanmoqda. Bu dostonda Bobur obrazi ham borligini yodga olsak va bundan to'la xabardor bo'lgan Boburning fikrlarida ma'lum darajada subyektiv ta'sirning bo'lishi tabiiy, albatta. To'g'rirog'i, Boburning Muhammad Solih shaxsiyatiga salbiy munosabati tanazzulga uchrayotgan temuriylar sulolasining manfaati bilan ham uzviy bog'liq edi.

Xoja Hasan Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" tazkirasida Majlisiy va Boburshoh o'rtasida bo'lgan suhbat fonida ham Muhammad Solihning ruboiysi esga olinadi. Majlisiyning Boburshohga bag'ishlab yozgan qasidasi ma'qul kelgach, uni yetti ming tanga bilan mukofotlashni ko'nglidan o'tkaza turib, undan Muhammad Solihning chig'atoylar (temuriylar) haqidagi hajviy ruboiysi haqida "Muhammad Solih bu ruboiyni qanday maqsadda aytgan?" deya so'raydi. Majlisiy bu ruboiyni podshohga yoqqan deb o'ylab, "Ruboiy faqirniki, Muhammad Solih nomiga noto'g'ri shuhrat topibdur", - deya javob beradi". Bobur esa Majlisiyni taqdirlash haqidagi fikridan qaytib uni saroydan haydatib yuboradi. Adabiyotshunos olim A.Ibrohimov bu hajviy ruboiyni Zayniddin Vosifiyning "Badoyi' ul-vaqoye'"da keltirilgan quyidagi ruboiy deb taxmin qiladi:

Miskin chig'otoyki kunduzi tundur ong'a,

Ahvol parishonu qaro kundur ong'a.

Mag'rur bo'lub yer yuziga sig'mas edi,

Sichqon tushugi emdi ming oltundur anga. [Ibragimov A., 1976: 120]

Ko'rinadiki, Muhammad Solih nafaqat Shayboniy uchun yirik masnaviy yozish orqali temuriylar sulolasiga o'z adovatini bildirar, balki qasddan kichik janrlar vositasida ham ularni namoyishkorona hajv qilib yurar edi. Bu hol temuriylarning so'nggi kuchini birlashtirishga astoydil uringan Boburning hamiyatiga tegar va bu o'z-o'zidan Muhammad Solih ijodiga nisbatan xolis xulosa berishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ammo bu hayotiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan bu ta'sirni raqibi xizmatiga o'tib ketgan shoir ijodining bahosiga qalin soya solgan deb tahlil qilsak, bir taraflama yondashgan bo'lamiz. O'sha davrdagi adabiy maydonda bevosita atrofdagi ulkan siyosiy voqeliklarni she'riy yo'l bilan masnaviyda vasf etish urfga kirmagani, bu borada fors adabiyotida ham tarixiy asarlar nasriy usulda yozilganini, turkiy, forsiy adabiyotlarda ham dostonlarning faqatgina yuksak badiiy xususiyat kasb etishini hisobga olsak, Muhammad Solihning bu dostoni she'riy yo'lda real tarixni yorituvchi ilk tajriba, dastlabki qadami edi. Boburning "Shayboniynoma"ga bunday yondashuvi adabiyotning o'sha davrdagi umumiy qiyofasida nazmning ustuvorlik qilgani va bu adabiy turda yetuk badiiy masnaviylar yaratilgani bilan ham chambarchas bog'liq edi. Shu bois Muhammad Solihning zamonadagi real voqelikni she'riyatga sig'dirishga dastlabki urinishi mana shunday tanqidiy mulohazalarga uchrashi tabiiy bir hol, deyish mumkin. Doston markaziy obrazi sifatida ashaddiy g'animi Shayboniyxonning ko'klarga ko'tarilishi, muallifning temuriylar siyosati (ko'p jabr ko'rganligi)dan

keskin noroziligi, yondashuvlarning bir tomonlama bo‘lganligi Bobur tanqidiga sabab bo‘lgan ikkilamchi omillardir.

Lekin Muhammad Solihning she‘riyati Alisher Navoiy va Bobur tomonidan birdek ijobiy baholangan. Shuning uchun ham Mariya Sabtelni Muhammad Solihni o‘z davrining professional shoiri deb ataydi.

O‘n ikkinchi shoir – Hiloliy (vaf.1529/30). Olima dastlab Mavlono Badriddin Hiloliyning Astrobodda tug‘ilgan turkiy ekani va unga Muhammad Haydar tomonidan she‘riyatning ustasi deb ta‘riflangani, Xondamir tomonidan uning shoirlarining qaymog‘i deb atalishi kabi maqtovlarni keltirib o‘tadi. “Hiloliy o‘z davrining faqatgina bir janriga ixtisoslashgan emas, balki u qasida, g‘azallar bilan bir qatorda masnaviylar ham yozgan. Shaxsan u bilan uchrashgan Som mirzo “Shoh va Darvesh” masnaviysini ravon va totli deb ataydi”. [Sabtelni, 1979: 91] Mariya Sabtelni Bobur tomonidan “Shoh va Darvesh” masnaviysining keskin tarzda “sharmandalik” deb baholanishini ham eslatib o‘tadi. Lekin Boburning bu tanqidini olima faqatgina ma‘lumot o‘rnida keltirgan. Bizningcha, tasavvufiy mazmundagi asarlarda ramzlar va majoziy ishq vositalari haqida yetarli bilimga ega bo‘lgan alloma Bobur aynan payg‘ambarlar hayoti haqidagi tasniflarda ehtiyotkorlik qilish lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Ishqiy-timsoliy obrazlarning badiiy asar tarkibida qo‘llanishi haqidagi Boburning muhim qarashlari keyingi shoir Hiloliy masnaviysi bilan ham bog‘liq holda davom etadi: “Yana Hiloliy edi. Bu tarixda ham bordur. G‘azallari hamvor va rangin va kam xadshadur. Devoni ham bordur. Bir masnaviysi bor, «xafif» bahrida “Shoh va Darvesh”qa mavsum, agarchi ba‘zi baytlari tavre voqi’ bo‘lubtur, vale bu masnaviyning mazmun va ustuxonbandlig‘i bisyor kovok va xarobtur. Shuaroyi muqaddam ishq va oshliqlik uchun masnaviylarkim aytibdurlar, oshliqlikni erga va ma‘shuqlikni xotung‘a nisbat qilibturlar. Hiloliy darveshni oshiq qilubtur, shohni ma‘shuq. Abyotekim, shohning af‘ol va aqvolida debtur, hosilkim shohni jalbiy va fohisha qilibtur. O‘z masnaviysining maslahatig‘a bir yigitni va yana shoh yigitini bisyor besuratturkim, jalblar va fohishalardek ta‘rif qilg‘ay”. [Boburnoma, 2002: 134]

Boburning bu tahlili mazmunan ramziy ishq mavzusiga daxldorligi bilan Kamoliddin Husayn Gozurgohiy ijodi tasnifi haqidagi mulohazasining davomidir. Hiloliyning masnaviysiga nisbatan bu kabi keskin raddiya orqali Boburning badiiy adabiyotda ideal shaxs tushunchasiga bo‘lgan munosabati ham ravshan sezilmoqda. Adabiyotshunos olim Hasan Qudratullayev Boburning ushbu tanqidiga quyidagicha yondashadi: “...adib “Shoh va Darvesh” dostonida o‘sha davrdagi hukmron shaxslar axloqini tanqid qilib, ulardagi mavjud illatlarni mahorat bilan fosh etadi. Bular orasida Xuroson saltanatida bek va amirlar orasida besoqolbozlikka moil shaxslarning mavjudligini “Shoh va Darvesh” asari orqali tanqid qilgan. Lekin Boburga Hiloliyning “Shoh va Darvesh» dostoni umuman yoqmaydi, uni mavjud an‘anaviy uslubni buzganlikda ayblaydilar. Ko‘rinib turibdiki, Boburga Hiloliy asarining g‘oyasi-shohlarni tanqid qilinishi, boshqacha qilib aytganda, shohning fosh etilishi ma‘qul tushmagan”. [Qudratullayev H., 2018: 44] Bizningcha, bir umr adolat yo‘lida ulug‘vor saltanat qurishga harakat qilgan Boburning nazmda yirik va keng qamrovli janr – masnaviyning markaziga shoh obrazining olib kelinishi va uning faqatgina ishqiy kayfiyat pardasi bilan

yaratilishini, tabiiyki, qabul qilolmagan. Yana bir tomoni tasavvufiy mazmundagi asarlarning ramzan turli obrazlar bilan boy bo'lishi, zohiran ishqda jins va yosh tushunchalarini farqlanmasligi kabi motivlar Boburdek alloma uchun ham tanish bo'lgan. Biroq Boburning bu tanqidiy mulohazasi ana shu tasavvuf nazariyasi mohiyatini anglagani holda ro'y bermoqda. Sababi, bu davrgacha yetib kelgan va yaratilayotgan asarlarda ham shu mazmundagi rivoyatlar keltirilar edi.

Mariya Sabtelnini Hiloliyning Alisher Navoiy davrida saroy majlislarining doimiy ishtirokchisi deb hisoblaydi, chunki "Majolis un-nafois"da uning ijodi va hofizasi haqida yaqindan ma'lumot berilishi bilan birga uning kamolotga erishishi uchun saboq olishga buyurilgani haqida ma'lumot berilgan edi. Bundan tashqari Som mirzo va Faxriy Hiraviylarning tazkiralarda, Abdulloh Marvorid asarlarida ham uning saroy majlislarining ishtirokchisi ekani haqida to'xtalib o'tilgan.

Olima uning temuriylar inqirozidan keyin shayboniylarga xizmat qilishi va keyinchalik Ubaydullaxon tomonidan qatl ettirilish masalasiga qiziqib ko'radi: "Hirotda shayboniylar tomonidan bosib olingan paytda u Hirotda qoladi, bu haqda uning keyingi majlislarda qatnashgani haqida Vosifiy eslatib o'tgan. Keyinchalik Ubaydullaxonning xizmatiga kirgan, ammo ko'p o'tmay, u go'yoki shia mazhabida bo'lgani uchun qatl qilingan. Biroq Som mirzoning aytishicha, Hiloliy aslida sun'iy mazhabida bo'lgan, uning o'limiga fitna sababchi bo'lgan, deyiladi". [Sabtelnini, 1979: 91]

Alisher Navoiy va Bobur Hiloliyning favqulodda o'tkir xotirasi borligini birdek e'tirof etishgan [Навоий, 1997: 48], bu holat o'sha paytdagi shoirlarning masnaviylar yaratishda kuchini sinab ko'rish oldidan o'zlari ham ma'lum bir masnaviylarni yoddan bilishi lozimligi haqidagi an'ana borligiga ham dalolat qiladi. Mariya Sabtelnini Hiloliyning har ikki sulola davridagi faoliyatini o'rgangan holda uning Husayn Boyqaro davridagi faoliyati haqida shunday xulosa chiqaradi: "Demak, Hiloliy 1490-yildan boshlab to Alisher Navoiy vafotigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan saroy majlislarining uzoq yillik a'zosidir". [Sabtelnini, 1979: 91]

Mariya Sabtelnini Husayn Boyqaro saroyi majlislarining kompozitsiyasini tiklashda, shuningdek, Ahliy, Nargisiy, Hasanshoh, Kamiy Riyodiy, Mirhoji, Abdulloh Marvorid, Afzaliddin Mahmudxo'ja kabi shoirlarning hasbu holini tazkiralar orqali o'rganadi hamda ularning saroy majlislariga daxldorlik masalalariga qiziqadi.

Olima Hirotda saroyi majlisining a'zolarini o'rganish asnosida quyidagi umumiy xulosalarga keladi:

-Manbalarda keltirilgan va qamrab olingan davrga kirgani ma'lum bo'lgan shoirlar aslida haqiqatdan ham o'sha davra a'zosi bo'lganligi yoki yo'qligini aniqlash ko'p hollarda qiyin va hatto imkonsiz edi, chunki ular faqat nomi bilan tilga olinar edi. Biografiyalardan ko'rinib turibdiki, birinchi darajali professional shoirlar sonidan oddiy shoirlar sonining ko'pligi va temuriylar saroyining adabiy va madaniy faoliyatining yorqin manzarasiga qaraganda Alisher Navoiy davrasiga mansublik nisbatan oz miqdorda edi. Qolaversa, bularning aksariyati ikkinchi darajali shoirlar yoki yarim a'zolik maqomidagi shoirlar bo'lib, to'garakka a'zo

bo'lgan bir nechta birinchi darajali shoirlar a'zo sifatida ko'p qolmagan yoki qola olmaganini ko'rinadi.

-Alisher Navoiy davrasining ko'p a'zolari oliy ma'lumotga ega bo'lib, she'riy fazilatlar uchun emas, balki oilaviy yoki siyosiy aloqalari tufayli saroy hayotiga yaqin bo'lishgan. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, Husayn Boyqaro saroyida malik-ush-shuaroning alohida idorasi bo'lmagan edi va temuriylar qulagandan so'ng saroy adabiy hayotining an'anaviy pozitsiyasi shayboniylar tomonidan darhol qayta tiklangan.

-Shunday qilib, ushbu tadqiqotda foydalanilgan manbalar asosida Husayn Boyqaro saroyining a'zolik nuqtai nazaridan qat'iy nazar, uning she'riy doirasi sifati bilan emas, balki miqdori bilan maqtanish mumkinligi ko'rinadi. U o'zining ustunlik va yuksaklik aorasini berishida ko'p jihatdan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning ulkan yutuqlariga tayangan va u avlodlarga shunday taassurot qoldirgan. [Sabtelni, 1979: 96]

Xulosa

Demak, Mariya Sabtelnining Hirot adabiy muhiti, saroy majlislarining ishtirokchilarini aniqlashga harakat qilgan ekan, quyidagi usulda ish olib borgan:

- shoirlarning fe'li-sa'jijasi, hasbu holini tiklashda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Fahriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin", Somiyning "Tuhfai Somiy", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush shuaro" kabi tazkiralari tayanadi.

- ijodkorlarning Husayn Boyqaro saroyi majlislariga ishtirokchilik maqomini aniqlashda esa Boburning "Boburnoma"sida keltirilgan shoirlar ro'yxatiga qarab ish tutadi. Sababi Bobur Hirotga borib bevosita o'zi yashagan hamda shohlik nigohi bilan Hirot madaniy muhitini sinchiklab o'rgangan edi.

- shoirlarning she'riy mahorati va zullisonaynlik, taxallus tanlash va devon tuzish kabi an'analarni o'rganishda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasiga va Fahriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin", Somiyning "Tuhfai Somiy", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush shuaro" kabi manbalaridan o'rni bilan unumli foydalanadi.

- olimaning ijtimoiy-siyosiy tuzumning shoirlar taqdiriga ta'siri, xususan, shayboniylar bosqinidan keyin ularning saroy majlislaridagi faollik masalalariga oydinlik kiritish uchun Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" asariga tayanib xulosalar chiqaradi.

Mariya Sabtelnining xulosalariga ko'ra, saroyga yaqinlik tushunchasi asosan nasabning ulug'ligi va oliy ma'lumotni olgan badavlat, o'ziga to'q kishilar tegishlidir. Shunga ko'ra saroy shoirlarining sonidan ko'ra sifatning farq qilishi, Hirot adabiy muhitining Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodiy, adabiy quvvati bilan o'zining muhitini ushlab turishi haqidagi tahlillari o'zini oqlaydi. Chunki o'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi hammaga ham birdek ilm olish va ijod qilish imkonini bermas edi, o'z navbatida saroy hukmdorlari tomonidan homiylik va doimiy e'tibor faqatgina shu atrofga taalluqli bo'lgan ijodkorlarga tegishli bo'lar edi.

Olimaning shayboniylar davrida saroy majlislari tezda qayta tiklandi, degan e'tirofini nisbiy tushunishimiz kerak, chunki o'zaro ro'y bergan feodalistik

urushlar ta'sirida xalqning tinkasi qurigan, ijodkorlarning aksariyati boshqa shaharlarga bosh olib ketishga majbur bo'lgan edi. Shayboniylarning saroy majlislarini qayta tiklashga urinishlari temuriylar madaniyatiga havas bilan qarashlarining mahsuli edi.

Adabiyotlar:

1. Islam ansiklopediyasi. 1986. Istanbul: Milli egitim basimivi.
2. Izzatillayev P. Eron navoiyshunosligi: tadqiq, talqin va tarjima. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati.- Toshkent, 2022.
3. Sabtelni, M. The poetic circle at the court of the Timurid Sultan Husain Baiqara and its political significance. -Harward, 1979.
4. Адизова И. Сўзумни ўқуб англағайсен ўзумни.- Тошкент: F.Ғулом НМУ, 2008.
5. Алишер, Навоий. Оққуюнли мухлислар девони. (1471 й) табдил ва факсимил матн. Нашрга тайёрловчилар А.Эркинов, Р.Жабборов. - Тошкент: “Донишманд зиёси”, 2021.
6. Болтабоев , Ҳ. Туркий тазкираларда Алишер Навоий сиймоси // “Жаҳон адабиёти”, № 2. 2013.
7. Восифий З.М. “Бадоеъ ул-вақоеъ”. Тарж. Н.Норкулов. – Тошкент: Фан, 1979.
8. Воҳидов Р. “Мажолис ун-нафос”нинг таржималари. // Масъул муҳаррир: Б. Валихўжаев. - Тошкент: Фан, 1984.
9. Ғаниева С.“Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималари” //Алишер Навоий ва форс-тожик адабиёти конференцияси материаллари, 30 январ, 2002.
10. Жабборов, Р. Алишер Навоийнинг “Оққуюнли мухлислар девони” ва унинг давр адабий муҳитида тутган ўрни. -Тошкент: “Донишманд зиёси”, 2021.
11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Тошкент: Шарқ НМАК, 2002.
12. Ибрагимов, А. XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. Тошкент: Фан, 1976.
13. Қораев Ш. Темурийлар даври адабий мажлислари: Алишер Навоий қарашлари асосида. Тошкент: “Донишманд зиёси”, 2021.
14. Кудратуллаев Ҳ. Бобурнинг адабий-эстетик олами. -Тошкент: Маънавият, 2018.
15. Қурбонов Б. Мовароуннаҳр ва Хуросон тазкирачилик мактаби шаклланиши // Ориентал ренаиссансе: Инновативе, эдусатионал, натурал анд сосиал ссиенсес. Волуме 2 | Иссуе 2022.
16. Махмудов У. Темурийлар даври муншаотнавислигида матн тузиш анъанаси. (Абдуллоҳ Марворид тўплами мисолида) филология фанлари бўйича фалсафа доктори (пхд) диссертацияси автореферати. - Тошкент. 2022.
17. Маъдалиева О. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи. - Тошкент. “Донишманд зиёси”, 2021.

18. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. О.Жалилов нашрга тайёрловчи. - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2011.
19. Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ. - Тошкент: Фан. 1997.
20. Гуйчиева О. Тазкираларда ижодкор аёллар. Монография. - Тошкент: Нодирабегим. 2021.
21. Ўзбек адабиёти тарихи. 3- жилд. Тошкент: Фан. 1984.
22. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти.-Тошкент: Фан. 1996.
23. Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. 4. Ғазал мулкининг султони. (Алишер Навоий ҳақидаги тадқиқот ва мақолалар мажмуаси). Нашрга тайёрловчи Н. Маллаев. - Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1972.
24. Эркинов А. Навоий ижодининг акс-садоси. Ҳиротдан Шероз томон: Алишер Навоий шеърининг Оққуюнлилар муҳитида кўчирилган ноёб кўлёзмаси (876/1471). Навоийни англаш сари. Анкара: АКСАГ, 2021.

Qorayev Sherxon,
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
 "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va
 agrotexnologiyalar instituti dotsenti

BOBUR ISMLI IKKI TEMURIY HUKMDOR HUZURIDA O'TKAZILGAN ADABIY KECHALAR

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola ulug' ajdodlarimiz, shoh va shoirlar Abulqosim Bobur hamda Zahiriddin Muhammad Boburlarning ijodi, adabiy kechalari tarixi va mazmun – mohiyatiga, ushbu yig'inlarning temuriy shahzodalar hayotida tutgan o'rniga bag'ishlanadi. Maqolada Navoiy va uning zamondoshlari asarlari hamda "Boburnoma" asari hamda shoirning lirik merosi ma'lumotlari asosida she'riyat majlisleri to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ahli tab', she'ri turkiy, mushoiralar, estetik zavq, suhbat.

Abstract. This scientific article is dedicated to the history and essence of the literary evenings of our great ancestors, kings and poets Abulqasim Babur and Zahiriddin Muhammad Babur, and the role of these gatherings in the lives of Timurid princes. The article talks about poetry gatherings based on the works of Navoi and his contemporaries and information from "Boburnoma".

Keywords: Ahli tab', Turkish poetry, mushoiras, aesthetic pleasure, conversation.

Amir Temur avlodlari orasida ikki Bobur ismli darveshsifat hukmdor shoir yashab o'tgan. Ularning birinchisi Shohrux Mirzoning nabirasi Abulqosim ibn Boysunqur (1422-1457) bo'lsa, ikkinchisi esa Sulton Abusaid Mirzoning nabirasi Zahiriddin Muhammad (1483-1530) dir. Ammo tarixda ikkala podshoh ham Bobur Mirzo deb zikr etilgan. Aslini olganda ikkala temuriyzoda dovyurakligi va jasurligi uchun bolaligidan "Bobur" ("Sher") nomini olgan. Abulqosim ham, Zahiriddin

Muhammad ham Bobur taxallusi bilan ikki tilda – turkiy va forsiyda qalam tebratgan.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning betakror iste'dodining shakllanishida temuriy hukmdorlardan Abulqosim Bobur Mirzo va uning adabiy majlislari ham muhim rol o'ynagani baayni haqiqat. Xondamirning yozishicha, *“Mirzo Abulqosim Bobur yumshoq ko'ngil va yaxshi xulq bilan sifatlangan bir hukmdor bo'lib, shodu xurramlik palosini yoyish (adabiy bazmlar o'tkazish)ga juda berilgan podshoh edi. O'ta kamtarligi va nafsni tiyishi natijasida saltanati davomida sira taxt ustiga chiqib o'tirmadi. Yaxshi axloqining yetukligi va ichki dunyosining muloyimligi tufayli hech qachon qo'pol so'z bilan hech kimning ko'nglini og'ritmasdi. Urush maydonida esa misli xanjar sanchuvchi qutirgan sher va yirtqich yo'lbars kabi edi. Bazm yig'inida gavhar sochuvchi bulut bo'lib, saxovati mo'lligidan nazarida oliy sifatli sof oltin va arzimas tosh-kesak bir xil qiymatga ega edi. Himmati oliyligi sababli dengiz va kon kabi boyligi baxsh etuvchi qo'lida bir kuncha ham ushlanib turmasdi*[Xondamir, 2013:497]”. Abulqosim Bobur 1451 yilda Xuroson taxtiga o'tirgach, mamlakatda osoyishtalik o'rnatiladi hamda uning davrida madaniyat, ilmu fan va adabiyotga e'tibor kuchayadi. Shoislom Shomuhamedov *“Fors–tojik adabiyoti klassiklari”* kitobida Abulqosim Bobur davridagi ma'naviy rivojlanishni hamda adabiyotning gullab yashnashini, adabiy muhitni Husayn Boyqaro zamoni bilan bir qatorga qo'yadi: *“Abulqosim Bobur esa, ilmido'st, adabiyotchi bo'lgan, o'z saroyiga olimlar, shoirlar, san'at arboblarni to'plab, ularga homiylik qilgan.*

Avvalo shuni qayd qilib o'tish zarurki, Abulqosim Bobur va ayniqsa Husayn Boyqaro bilan Navoiylar davlatida adabiyotning taraqqiy topishi uchun ancha qulay sharoit yaratildi”. [Shomuhamedov Sh., 1963:168]

Abulqosim Bobur o'zbekcha va forscha she'rlar yozgan, devon tuzgan. Alisher Navoiy bu haqda shunday degan: *“Agarchi turkcha nazmlar aytur erdiki, barchag'a qabul erdi. Ammo, bu bayt ham aningdurkim:*

Necha yuzung ko'rib hayron o'layin,

Ilohi, men sanga qurbon o'layin”. [Navoiy, 2012: 413]

Navoiy *“Muhokamat ul-lug'atayn”*da ham Abulqosim Boburning she'riy iste'dodiga yuqori baho berib, *“Podshohlar ichidan ham sulton Boburdan boshqa hech qaysisidan she'riy asar (bizningcha, devon) yuzaga chiqmadi va varaq yuziga naqsh qilarli o'zga biror narsa qolmadi* [Navoiy, 2017: 82], deb yozadi.

Bobur Qalandar (Darvesh) nomi bilan mashhur bo'lgan Abulqosim Bobur atrofiga shoirlarni to'plab, mushoiralar o'tkazishni xush ko'rgan.[Qomusiy lug'at, 2016: 120-121] Navoiy *“Majolis un-nafois”*da ko'plab shoirlar qatori Mavlono Sulaymoniyning Bobur Mirzo adabiy majlisida badihani ravon aytganligini tasdiqlanganligidan kelib chiqsak, temuriy hukmdorning doimiy suhbatdoshi sifatida o'n yoshidan xizmatiga kirgan shoir o'zi guvoh bo'lgan mushoira kechalari qatnashchilari haqidagi fikr-mulohazalarini keyinchalik *“Majolis un-nafois”* nomli tazkirasiga kiritgan. Haqiqatan, *“Mirzo Bobur Qalandar* [Vosifiy, 1979: 157]” homiyligida ko'plab shoiru adiblar kamolga yetganligi va adabiy yig'inlarda qatnashganligi *“Majolis un-nafois”*dagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi. Mavlono To'tiy ham *“Majolis un-nafois”*da qayd etilishicha, *“Bobur Mirzo mulozamatida*

tarbiya topti” va saroydagi adabiy muhit va majlislarda iste’dodli shoir bo‘lib shakllandi. [Navoiy, 2012: 313] Shoir haqida Xondamir shunday degan: “*Shirinso‘z shoir bo‘lib, uning asil kelib chiqishi Turshizdandir. Buyuk sulton Abulqosim Bobur Bahodir podshohligi zamonida adabiyot maydoniga qadam qo‘yib, katta shuhrat topdi.*

Qasida yozishda katta mahoratga ega bo‘lib, Sulton Abulqosim Bobur madhida g‘oyatda go‘zal bir qasida yozgan. Fozillar uning qasidalarini boshqa qasidanavis shoirlar qasidalaridan yaxshiroq deb biladilar”. [Xondamir, 2015: 192]

Abulqosim Bobur saroyining mashhur shoirlaridan biri Shayxzoda Tohiridir. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”da yozishicha: “*Shayxzoda Tohir(ning) poytaxt Hirotda boshqa she‘rlaridan ko‘ra, g‘azallari ko‘proq shuhrat topdi. Zamon podshosi (Abulqosim Bobur) uning g‘azallarini ko‘p ma‘qul ko‘rardi, (majlislarda o‘qirdi) va ko‘pchilik shoirlar uning she‘rlariga nazira yozganlar*”. Shoir Muhammad Amin “Dilbaram” nomli g‘azalini Bobur Mirzo “tobug‘i” (huzuriga, majlisiga)ga taqdim etadi. Yoqimli bu she‘rni podshoh adabiy majlislarda yoddan o‘qib yurgan:

Ey siyah chashmi xitoy murg‘i jonro bo tu uns,

Ba-z siyah chashmoni digar hamchu ohu dilbaram. [Navoiy, 2012: 321-325]

(Tarjimasi: Ey xitoylik qora ko‘z, jon qushi senga ulfatdir, bo‘lak qora ko‘zlarga nisbatan dilbarim ohu kabidir).

Alisher Navoiyning ham Bobur Mirzo majlislarida ishtirok etganligi haqida Xondamir “Habibus-siyar”da shunday yozgan: “*Ul janob (Navoiy) bolalik paytlaridan zafar bayroqli xoqonning xizmatida bo‘ldi, ul hazrat Abulqosim Boburga suhbatdosh bo‘lib qolgach, amir Alisher ham ul oliy darajali podshohning mulozamatini ixtiyor qildi*”. [Navoiy zamondoshlari xotirasida, 1985: 116] Abulqosim Boburning she‘riyat kechalarida Navoiy o‘z she‘rlarini ham o‘qigan. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”da Xondamirning fikrini tasdiqlab, “*Sulton Abulqosim Bobur ulug‘ amir(Navoiy)ga ta‘bi(she‘ri)ning muloyimligi, ziyrakligi uchun ofarinlar o‘qir edi, ba‘zi paytlarda (majlislarda) ulug‘ amir bitgan turkiycha yoki forsiycha she‘rlarni mutolaa qilar va xayrli duolari bilan qo‘llab-quvvatlardi*”, - degan. [Navoiy zamondoshlari xotirasida, 1985: 14-15]

Xo‘sh, Navoiy uning she‘rlarini o‘qishni va tinglashni xush ko‘rgan sultonga bag‘ishlab g‘azallar yaratganmi? Albatta, yaratgan. Ahmad A‘zamning yozishicha, “Adabiyotshunoslikda “Ilk devon” deb ataladigan manbada shunday she‘rlar borki, o‘qiganni hayrat ummoniga cho‘mdiradi...

Har gadokim, bo‘riyoyi faqr erur kisvat anga,

Saltanat zarboftidin hojat emas xil‘at anga.

Kim fano tufrog‘ig‘a yotib qo‘yar tosh uzra bosh,

Taxt uza ermas muhabbat muttako hojat anga.

-bu g‘azal Abulqosim Boburga bag‘ishlangan. Xususan, 13 baytli g‘azalning:

Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, bor

Shohlig‘ sur‘at anga, darveshlik siyrat anga,

misralari “Majolis un-nafoyis”dagi Abulqosim Boburga berilgan ta’rifga muvofiqdir. (Ayrim tadqiqotlarda bu bayt Sulton Husayn Mirzoga bag‘ishlangan, deyiladi. Holbuki, “Ilk devon” yozilgan (1455-1456 yillar)da, Sulton Husaynning taxtga o‘tirishiga kamida yana uch yil bor edi). [A‘zam A., 2021: 17-18] Haqiqatan o‘z davrida Bobur Qalandar nomi bilan mashhur bo‘lgan bu hukmdorni Navoiy g‘azallarida Husayn Boyqarodan avval shohlar darveshi deb atagan. Zotan, u darveshvash sultonni yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Majolis un-nafois”da buyuk shoir shunday ta’riflaydi: *“Bobur Mirzo – darveshvash va foniy sifat va karimul-ahloq kishi erdi. Himmati olida oltunning dag‘i kumushning tosh va tufrog‘cha hisobi yo‘q erdi. Tasavvuf risolalaridin “Lama‘ot” bila “Gulshani roz”g‘a ko‘p mash‘uf erdi. Tab‘i dag‘i nazmg‘a muloyim erdi”*. [Navoiy, 2012: 415] Navoiy ta’rifini tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy to‘ldiradi: “U (Abulqosim Bobur) nafsiy fazilatlaru unsiy xislatlar bilan bezangan bo‘lib, faqirlar ham avliyolar so‘zlariga g‘oyatda mayl ko‘rgazar hamda (tasavvufga oid) “Lamoat”, “Gulshani roz” (asarlari)ning aksar mavzu‘larini va “Fusus al-hikam”ning foydali (fikrlarini) humoyun xotiri lavhasiga bitar edi. Bayt:

*U shunday nekbaxt (edi)ki xudo uni,
Nekbaxtlarga yetkazishda rahnamo bo‘lg‘usidir.*

U darveshlarning dilni maftun etuvchi so‘zlarini jonu dildan qabul qilgan edi”. [Samarqandiy A., 2008: 400] Abulqosim Boburning darveshvash va shoirtabiat bo‘lganligi sababli mushoiralarda tasavvufga yo‘g‘rilgan she‘rlar o‘qilgan, ushbu mavzuda suhbatlar olib borilgan, yig‘inlar darveshona majlislarni eslatib turgan: *“(Xoja Ahror valiy) oytur erdilar: “Mirzo Bobur tasavvufdonliq da‘vosini etur erdi va muqaddimoti tasavvufdin oning majlisida xiyla o‘tar erdi. Shayxzodai Purqiyomkim, mutasavvuf erdi, Mirzoning mulozamatida bo‘lur erdi. Va Mirzo Boburning bu toifai aliyya(tariqat ahli)g‘a ko‘p e‘tiqodi bor erdi”*. [Safiy, 2004: 383] Yuqoridagi ma‘lumotlar Abulqosim Bobur Mirzoni “darveshvash” podshoh va she‘riyat ixlosmandi bo‘lganini hamda adabiy majlislar o‘tkazishni xush ko‘rganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, “Majolis un-nafois”da Bobur Mirzo saroyidagi majlis ishtirokchilari, shoirlar, davr fozillari, ziyolilar to‘g‘risida keng yoritilganligi bir tomondan, Navoiyning ushbu mushoiralarda muntazam qatnashganligini bildirsa, ikkinchi tomondan Abulqosim Bobur Mirzo saroyi chinakam ilm-ma‘rifat, madaniyat va adabiyot maskani bo‘lganini ko‘rsatadi. Binobarin, Navoiy tafakkuri, qarashlari va dunyoqarashining shakllanishida Abulqosim Bobur davri adabiy muhiti va adabiy majlislarining ta’siri bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shuningdek, “shohlar darveshi” Abulqosim Bobur Qalandar adabiy majlislaridan va darveshligidan keyinchalik, bir umr darvesh bo‘lishni orzu qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur andoza olgan bo‘lishini taxmin qilishimiz mumkin. Chunki bu ikkala temurzodaning tabiati hamda adabiy majlislarining bir-biriga o‘xshash jihatlari shunday deyishimizga asos bo‘ladi.

Bobur nomli ikkinchi temuriy hukmdor Zahiriddin Muhammad Farg‘ona adabiy muhitida ulg‘aydi va bolaligidanoq adabiyotsevar otasi Umarshayx Mirzoning she‘riyat kechalarida qatnashdi. Temuriy Umarshayx Mirzo “she‘riy iste’dodi bo‘lsa-da, biroq she‘r yozishga qunt qilmagan. Vaqt topib xushsuhbat

temuriy mirzo biror bahona bilan mushoira majlislarida she'rlar o'qib turgan. [Bobur, 2008: 32] Kezi kelib, Bobur Mirzo ham taxtga chiqqach, temuriylar an'anasini davom ettirib, Axsikent, Samarqand, Kobul va Agra kabi qator shaharlarda hamda safarlarda atrofiga shoirlarni to'plab, she'rxonlik kechalari va mushoiralar uyushtirgan: *“Va bir necha ahli tab'kim – ular (Bobur atrofidagi yig'in ahli): olim, hakim, ulamo, shuaro, tabib, muarrix, umarolarkim, alarni ushbu podshoh doimul avqot (vaqt) suhbat(majlis)din ayru qo'yimas edi [Bobur, 2002:266]”*. She'riyat kechalarida Boburning o'zi ham shoirlilik iste'dodi borligi uchun she'rlar o'qigan. *“Bobur podshoh andoq podshoh erdiki, nav'-nav' fazllar birla orasta, shijoatda g'olib erdi. Va she'ri turkiyda Amir Alisher (Navoiy) rahmatulloh alayhidan keyin hech kishi andoq she'r aytolmabdur”*. [Ayoziy, 2011: 240] Mirzo Bobur huzuridagi adabiy majlislarda mushoiralar qizg'in va qiziqarli tus olgan. *“Boburnoma”da yozilishicha, “Jolada she'r aytur el xeyli bor edilar. Misli, Shayx Abul Vohid va Shayx Zayn va Mullo Alixon va Turdibek Xoksor, yana ba'zilar ham bor edi. Suhbatta (adabiy kechada) Muhammad Solihning bu bayti mazkur bo'ldikim:*

Mahbubii har ishvagarero chi kunad kas,

Joe ki tu boshi digarero chi kunad kas.

(Mazmuni: Har bir noz-karashmachining muhabbatini nima qilsin kishi, sen bo'lgay joyda boshqani nima qilsin kishi.)

dedukkim, bu go'shada aytsunlar. Tab'i nazmi bor el aytmoq maqomida bo'ldilar. Chun Mullo Alixon bila xeyli mutoyaba qililur edi, hazl tariyqi bila bu bayt badihada xotirg'a keldi:

Monandi tu madxushi karero chi kunad kas,

Har govkuni moda xarero chi kunad kas.

(Mazmuni: Senga o'xshash xushsiz, karni nima qilsin kishi. Har bir ho'kizga chopuvchi urg'ochi eshakni nima qilsin, kishi).

Mundin burun yaxshi va yomon, jid va hazl harne xotirg'a yetsa edi, mutoyaba tariyqi bila gohi manzum bo'lur edi. Har nechuk qabih va zisht nazm bo'lsa marqum bo'lur edi”. [Bobur,1990: 232]

Binobarin, Bobur Mirzo Abulqosim Bobur singari she'riy yig'inlar o'tkazishni xush ko'rgan va bu hol uning adabiy suhbat-majlislar tasvirlangan g'azallarida ham o'z aksini topgan.

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,

She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,

Kinga bu nash'a muyassar bo'lsa, bordur davlati.

Ishq dardini chekib har kimki topsa vasli yor,

Ul zamon bo'lg'ay unut yuz yilgi hijron shiddati.

Do'stlarning suhbatida ne xush o'lg'ay bahsi she'r,

To bilingay har kishining tab'i birla holati.

Gar bu uch ishni muvofiq topsang, ul uch vaqt ila,

Mundan ortiq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati. [Bobur, 1983:11]

“Boburnoma”dagi ma'lumotlarga asoslansak, Boburshoh huzurida ham Abulqosim Bobur saroyida tashkil etilgani kabi tez-tez mushoira kechalari

o‘tkazilgan. Bu esa o‘z navbatida hukmdor shoirga estetik zavq va ilhom baxsh etgan, deyish mumkin.

*Soqi erur ishrat chog‘i, afsurda bo‘lma day bila,
O‘ttek chog‘ir keltur, dag‘i suhbat tunotur may bila...
Majlisda bordur sar-basar may nash‘asidin sho‘ru shar’,
Borini mastu bexabar qil jomi paydar-pay bila.
Hamdard yore qonikim, bir g‘amgusore qonikim,
Abre bahore qonikim, Bobur kibi yig‘lay bila. [Bobur, 1983: 4]*

Bunday adabiy kechalarda ijod ahli, shoiru san‘atkorlar, ziyolilar hoziru nozir bo‘lgan. “Boburnoma”ni ko‘chirgan “musavvidi avroq” (kotib) ko‘p vaqtini adabiyot ahli bilan mushoirada o‘tkazgan Bobur Mirzo va uning majlis ahli - adabiy yig‘inlar ishtirokchilari haqida ma‘lumot berib o‘tgan: “*Bular: Abulbaqokim, ilmi hikmat bobida bebadal edi. Va Shayx Zayn sadrkim, Zayniddin Xavofiyning nabirasi erdi: hiddati tab‘i bor edi, nazm va inshodin saliqalig‘ va Humoyun podshoh zamonida umarolig‘ ham topib edi. Va Sulton Muhammad ko‘sakim, Mir Alisher (Navoiy)ning musohiblaridin erdikim, podshoh suhbat(adabiy yig‘in)da izzat topib, sarafroz bo‘lub erdi. Va Mavlono Shihob Muammoyikim, “Faqiriy” taxallus qilib edi, fazoyil va she‘rdin nasibasi bor edi... Va Surx Vadoiykim, turkiy va forsiyda nazm aytur edi. Va Mullo Baqoiyni saliqasi ko‘p erdi va “Maxzanul asror” vaznida podshoh otig‘a masnaviy aytib edi... Va (G‘iyosiddin) Xondamir muarrixkim, turfa kishi edi. Tasoniflari borkim, xalq orasida mashhurdur: “Habib-us-siyar” va “Xulosat-ul-axbor” va “Dastur anvor” va o‘zga tasnif(kitob)lari ham bor*”. [Bobur, 2002: 267] Bundan tashqari, Abdulloh Asas Boburning bazmlarida faol ishtirok etgan a‘yonlaridan biri bo‘lgan. Bobur Mirzo qator she‘rlarida yuqorida nomlari zikr etilgan dilkash suhbatdoshlar bilan majlis tuzganini aytib o‘tgan:

*Tuno kun birla bu tun majlisi asru xush edi,
Majlis ahli bori dilhohu bori dilkash edi.
Borining so‘zi edi xo‘bu latifu rangin,
Ne parishonu ne bema‘niyu ne chirmash edi...
Bori ahbob edi hozir, bori asbob edi jam’,
Sozu xonanda bila nuqlu may beg‘ash edi...
Barcha ta‘zim qilib bir-birini mastona,
Goh boshta oyoq erdi, goh oyoqda bosh edi.
Tun yarmig‘acha bu nav‘ediyu ondin so‘ng,
Majlis ahlining ishi har sorig‘a tarqash edi.
Men ilikdin borib erdim, tutib ilgimni birov,
Meni uyg‘otdi, ko‘z ochtim esa, ul mahvash edi...
Bobur ar harza dedi, majlis eli, ayb etmang,
Karam aylang, ani ma‘zur tutung, sarxush edi. [Bobur, 1994: 66]*

Podshohning mulozimlaridan Turdi Muhammad Qipchoq Bobur huzurida o‘tkazilgan ko‘ngilochar majlislarda qatnashgan [Bobur ensiklopediyasi, 2014: 506]. Ya‘ni, “Boburnoma”da yozilishicha, “*Chanor bog‘ining eshigida solg‘on suratxonaning sharqi-janub sari yonida kichikrak oqqina uy tikilib edi, anda majlis bo‘ldi. Turdi Muhammad Qipchoq bila Mullo Kitobdorni ham majlisqa tiladuk*”.

[Bobur, 1990:117] Majlislarda qiziqchilar va masxarabozlar ham qatnashib, yig'inlarni qizitishgan. G'iyos Masxara – Bobur saroyida masxaraboz vazifasida xizmat qilgan. [Bobur ensiklopediyasi, 2014: 628] G'iyos Masxara haqida “Boburnoma”da shunday qayd etilgan: *“So'ngra G'iyos masxara keldi. Necha qatla majlistin mutoyaba tariqi bila buyurildikim, ixroj qildilar. Oxir shaloyin bo'lub, masxaraliq bila majlisdagi yo'l topdi”*. [Bobur, 1990:202] Sozandalardan Nurbek Boburshoh huzurida uyushtiriladigan ko'ngilochar majlislarda ud chalgan. Mirzo Bobur saroyida xizmat qilgan mashshoqlardan biri Nurullo(h) Tanburchi bo'lgan. [Bobur ensiklopediyasi, 2014: 402] Boburning Hindistondagi Agra saroyida Abulqosim Xonanda, Ruhdam, Bobojon, Qosim Ali, Tengriquli, Ibrohim Qonuniy, No'mon Langarxon kabi musiqachilar, xonandalar xizmat qilgan va ular forscha va turkiy qo'shiqlar kuylab majlislarga fayzu tarovat bag'ishlashgan: *“Shanba kuni rabiul-avval oyining o'nida o'ftob hamalga taqvil qildi. Ushbu kun namozi peshin sayr qila o'tlanib, kemaga kirib araq ichildi. Ahli majlis: Xoja Do'st Xovand, Do'st, Bek, Mirim, Mirzo Quli, Muhammadiy, Ahmadiy, Yunus Ali, Muhammad Ali jang-jang, Gadoyi tag'oyi, Mir Xurd asas, ahli nag'ma Ruxdam, Bobojon, Qosim, Yusuf Ali, Tengriquli, Ramazon bor edi”*. [Bobur, 1990: 209] Ushbu majlis ahli kemadagi adabiy yig'inda mushoiraga kirishishgan. Ayniqsa, xonanda Ruxdamning iste'dodi majlislarda yuqori baholangan:

*Gar Ruhdam etsa erdi ohangi nag'am,
Majlisdagi ne huzn qolur erdiyu, ne g'am,
To borg'ali ruh, dam bering majlisdin,
Majlis eliga ne ruh qoldiyu ne dam.* [Bobur, 1983: 38]

Xulosa qilib aytganda, Bobur ismli ikki temuriy hukmdorlar huzurida o'tkazilgan adabiy majlislar mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga xizmat qilgan. Adabiy yig'inlarda shoirlar va san'atkorlar o'z iste'dodini namoyon etib tanilgan hamda ular tomonidan shoh asarlar yaratilgan. Albatta, kelgusida Abulqosim Bobur hamda Zahiriddin Muhammad Bobur huzurida o'tkazilgan she'riyat kechalarini tadqiq etish o'zbek adabiyoti tarixi fanining yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - T.: O'qituvchi, 2008.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - T.: Sharq NMAK BT-2002.
3. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. - T.: O'zbekiston, 2011.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - T.: Yulduzcha, 1990.
5. Bobur. Tanlangan asarlar. - T.: O'qituvchi, 1983.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. - T.: Fan, 1994.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. -T.: Sharq NMAK BT, 2014.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 5-tom. -T.: Fan, 1990.-B.194.
9. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. -T.: O'zbekiston, 2013.-B.497.

10. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. - T. G'.G'ulom nomidagi BAN, 1969. -B.20.
11. Shomuhamedov Sh. Fors – tojik adabiyoti klassiklari. - T.: O'zbadiynashr,1963. - B.168.
12. Alisher Navoiy. Asarlar. To'la asarlar to'plami. 9- jild. - T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012. - B.413.
13. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. (Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida). - T.: Akademnashr, 2017. - B.82.
14. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. 1- jild. - T.: Sharq NMAK BT, 2016.- B.120-121.
15. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10- jild. - T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012. - B.27.
16. Navoiy zamondoshlari xotirasida. - T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1985. - B.116.
17. Zayniddin Vosifiy. Badoe'ul vaqoe'. - T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1979. - B.157.
18. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. - T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2015. - B.192.
19. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. -T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1981. - B.182.
20. A'zam A. Abrorlar hayrati.//Jahon adabiyoti. -T.: 2021.-№6. - B.17-18.
21. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn. II jild. - T.: O'zbekiston, 2008. - B.400.
22. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot. -T.: Abu Ali Ibn Sino, 2004. – B.383.

Toshniyozova Dilfuza Polvonovna,
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
 Sharof Rashidov nomidagi SamDU o'qituvchisi

BOBUR IJODIDA LIRIK QAHRAMON HOLATI VA KECHINMALARINING FASLLAR BILAN BOG'LIQ IFODASI

Annotatsiya: Mumtoz adabiyotda tabiat tasviri, yil fasllari bilan bog'liq chizgilar oshiq ruhiy holati va kechinmalarini anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning fasllar bilan bog'liq misralari tahlil qilinadi hamda shoir ijodida janrlarning tabiati bayon etilayotgan tasvir mazmuniga ko'ra yil fasllarini, tabiat unsurlarini qo'llash mahorati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: lirik qahramon, xazon fasli, tabiat ramzlari, badiiy obraz.

Abstract: In classical literature, the depiction of nature, the lines related to the seasons are important in expressing the mental state and experiences of a lover. In this article, Zahiriddin Muhammad Babur's verses related to the seasons are analyzed, and the skill of using the seasons and elements of nature according to the

content of the image, which describes the nature of genres in the poet's work, is revealed.

Key words: lyrical hero, hazan season, symbols of nature, artistic image.

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi, nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega. Boburning so'z san'ati, bayon uslubi, badiiy san'atlarni qo'llash mahorati favqulodda go'zal va mukammaldir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z ijodida janrlarning tabiati, bayon etilayotgan tasvir mazmuniga ko'ra yil fasllarini, tabiat unsurlarini qo'llaydi. Nasriy asarlarda peyzaj, ekspozitsiya, lirik chekinish qismini hosil qiladigan tabiat unsurlari nazmda o'zgacha vazifa bajaradi. Ayniqsa, olam va uning Yaratuvchisi, ilohiy ma'rifatni anglatishda tabiatdagi barcha holatlar, o'zgarishlar majoziy ma'no asosida qo'llaniladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida yil fasllari zamirida tabiatda bo'ladigan har bir holat, jism o'zining yetuk badiiy ifodasini topgan. Shoirning lirikasini o'rgangan adabiyotshunos olim I. Adizova "Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida o'quvchi ko'nglini titratuvchi, uni sohir tuyg'ularning sarhadsiz ummonlariga yetaklovchi nola bor. Avvalo, shoirning inson bilan tabiatni mutanosiblikda ko'rishi, idrok qilishi natijasida paydo bo'ladi. Chuqur mazmunli parallelizmlarni qo'llash san'ati Bobur uslubiga xos xususiyatlardan biridir. U inson bilan tabiatni parallel, yonma-yon tasvirlaydi. Ularni bir-biridan ayro tasavvur qilolmaydi. Inson holatlari, kechinmalariga mutanosiblikni tabiatda, tabiat hodisalari va ko'rinishlarini inson surati va siyratida ko'radi [Bobur tafakkurida mavjlangan dunyo, 2023: 29]. Shu ma'noda Bobur she'riyatidagi har bir jismning she'rdagi vazifasi, ma'nosi, mazmunning bo'yoqdorligini oshirishdagi kuchini o'rganish buyuk shoirning badiiy mahoratini ochish, his qilish, undan zavqlanish hissini beradi. Chunki haqiqiy she'rning adabiy qimmatini ham undagi lirik kechinmaning chuqurligi, nozikligi, badiiy pafosning betakrorligi bilan o'lchanadi. Sharq adabiyotidan ma'lumki, fasllar va tabiatdagi jismlar hassos qalb egalari bo'lgan shoirlarning ruhiyat olamini ochishga xizmat qiladi. Ko'ngildagi fasllarga yaqinlik satrlarda shoir ruhiy olamining namoyishi sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkor bu o'rinda olam va inson ruhiyatidagi uyg'unlikni jamlay oladi. Odatda ijodkor uchun mavhum bo'lgan qalb g'alayonlari va mayusligi, tuyg'ulari, kechinmalarini ifodalash uchun tabiatdagi hodisalaridan aniq qiyofa izlaydi hamda oradagi muvofiqlikni topadi, shaklni ko'ngil olami manzaralarini ifoda etishga xizmat qildiradi. Fasllarning barchasini madh etgan Bobur ijodida kuz va bahor fasli alohida o'rin tutadi. Shoir g'azallarning asosiy lirik qahramoni oshiq. Oshiq doimiy tarzda ma'shuqaga intiladi, hijronda o'rtanadi, visol onlarini kutadi. Tabiiyki, bu jarayonda ayriliqdagi oshiq ruhiyatida o'zgarishlar yuz beradi, ma'shuqa dardida o'rtanadi, bemor bo'ladi, rangi sarg'ayadi yoki qalbi junbushga keladi. Ana shunday ruhiy holatlarni ifoda etishda Bobur lirikasida kuz fasli, bahor, yoz va qish fasllariga monand: xazon, yaproq, za'faron, sarg'aygan barglar, bahor ayyomi, yigitlik fasli, yoz fasli yor fasli, kuz shamoli, do'stlar diydori, bodaning kayfiyati va h.k. tasvirlar mavjud. Hijron azobidagi oshiqning ruhiy

holatini ifoda etish uchun kuz fasli juda muvofiq tushadiki, ularning barchasi ayriliqda xazon yaprog‘i yanglig‘ sarg‘argan oshiq tasvirini chizishga yordam beradi. Boburning “Xazon yaprog‘i yanlig‘...” matlasi bilan boshlanuvchi g‘azali ham ayni kuz fasli, oshiq ruhiyatiga monand tasvirlarga boy g‘azaldir. G‘azalda ma‘shuqa ta‘rifi emas, oshiq ahvoli bayon etilgan. Hijron azobida o‘rtanish holatini ifodalash maqsadida sariq rang, xazon, chehrai zardi, yaprog‘ timsollari qo‘llanib, ular g‘azalda asosiy, ayni damda oshiqning ruhiy holatini ifodalash maqsadida qo‘shimcha poetik vazifani bajargan. Baytlarda ko‘pgina g‘azallar singari oshiq o‘zini tabiatdagi holat, jism, voqelikka qiyos qilmaydi, aksincha, ular oshiqqa qiyoslanadi, go‘yoki ular oshiqning holatidan rang olgan, shu shaklga kirishni oshiqdan o‘rgangan. Natijada oshiq o‘z holini sarg‘aygan xazon yaprog‘idan farqlamay qoladi.

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, yey lola rux, bu chehrai zardi.

“Xazon yaprog‘i” birikmasi lirik qahramon ahvolini namoyish etadi. Hijron dardi u tufayli uning chehrasi sarg‘ayganki, qismati ham “xazon yaprog‘”iga o‘xshash. Ayni paytda buni yorning gul yuzi, loladek ol chehrasi bo‘rttirib namoyon etadi. Yana bir jihatni ham ko‘zda tutish lozimki, Boburda kuz fasli manzaralariga qandaydir bir oshuftalik bo‘lgan. “Boburnoma”da ushbu fikrni tasdiqlaydigan ko‘plab ifodalar mavjud. Masalan: “Bog‘i Vafog‘a se bargazor, anor daraxtlari sap-sarig‘ xushrang xazon bo‘lubtur”; “Dushanba kuni xazon sayrig‘a Istalifg‘a borildi”; “...Istarg‘achda bir yaxshi xazonliq bog‘da tushub, suhbat tutuldi” va hakazo. Demak, xazon va sariq rangning Bobur she‘rlaridan keng o‘rin egallashiga tabiat ham ta‘sir ko‘rsatgan. Sariq rangni ruhning kuch-quvvatga to‘lishini ifodalaydi, degan fikr aytilgan. Bobur she‘rlaridagi sariq rang sirtdan qaralganda mayuslik, g‘am-alam, ko‘ngli siniqlik kabi ruhiy holatlarni aks ettirayotganday tuyulsa-da, aslida ular dunyoning ko‘pdan ko‘p azob-u uqubatlariga bardosh bera olgan ruhning matonatini ifodalaydi. Bobur she‘rlarini o‘qigan kitobxon ana shu tuyg‘uni his qiladi. Bobur oddiy tuyulgan tushuncha va detallardan katta ma‘no va umumlashmalar, xulosalar chiqarishga g‘oyatda mohirdir. Shoir hech bir fikrni shunchaki aytmaydi, hech bir misrani shunchaki bitmaydi. Shoir she‘rlarida tuyg‘ularini, kechinmalarini, iztirob kabi holatlarni ifodalashda ranglardan foydalangan. “Mening ko‘nglumki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o‘lsa ochilmog‘i ne imkondur” [Bobur, 1965, 121]. Bu g‘azalda Bobur lirik qahramon qalblarga surur bag‘ishlovchi bahor ham lirik qahramon dilidagi g‘ammi arita olmaslik holatini bayon etgan. Lirik qahramon tabiati, ruhiyat manzaralari butun teranligi bilan yoritib beriladi. Navoiy va Bobur g‘azallaridagi tabiat tasviri va so‘fiyona qarashlar ifodasidagi uyg‘unlik masalasini tekshirgan K.Mullaxo‘jayeva “kuz – xazon fasli ko‘p o‘rinlarda ishq, hijron, sog‘inch, iztirob kayfiyatini” berishini, “tabiat manzaralarini tasvirlash olam go‘zalligining shunchaki tasviri emas, balki u kayfiyatni ifodalash vositasi, ... muayyan bir dunyoqarash targ‘ibi uchun badiiy zamin” ekanligini aytadi. “Badiiy asarda hamma narsa go‘zal bo‘lishi uchun, ijodkor tabiatning eng yaxshi, eng go‘zal tomonlarini aks ettirishi uchun ana shu go‘zallikning navqiron va kamolga yetgan onlarini ilg‘ay olishi va tasvirlashi lozim” [Mullaxo‘jayeva, 2019: 139].

Bahor ayyomidur dog'i yigitlikning avonidur,
Ketur soqiy, sharobi nobkim - ishrat zamonidur.
Gahi sahro uzori lola shaklidan erur gulgun.
Gahi sahni chaman gul chehrasidin arg'uvonidur.

Boburning bu misralarida yuqoridagi g'azallarida yetakchilik qilgan xazon fasli, xazon kayfiyati bahor bilan almashadi. Bahor deganda, albatta yigitlik va yoshlik, xushvaqtlik ayyomi. Kuz, qishning orqasidan albatta bahor keladi, umid qil, bugunni orqasidan, albatta, erta keladi, shomni orqasidan tong otadi. Bahor ayyomi – yigitlik davri, ishrat zamoni, gulzor chamani. Bahor - muhitning yangilanishidan darak.

Boburning “Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari”, “Qish bo'ldi-yu, bo'ldi borcha tomu tosh qor”, “Yoz bo'ldi-yu, bo'ldi yana jannat kibi yozi” kabi g'azallarida voqealar shiddatida yongan, goh yolg'izlikning sokin go'shasini makon tutgan, goh vatan sog'inchidan o'rtangan, gohida hayotning bor shodlig-u quvonchlaridan dunyoni unutmoqchi bo'lgan lirik qahramon ko'ngli tasvirlanadi. Voqealar ichra – shoh, ko'ngilda – shoir bo'lib yashagan Bobur timsolida biz maqlub va xomush, alamli va hasratli, umidsiz va istiqbolsiz shaxs bilan g'olib va mag'rur, shod va quvnoq, umidli va istiqbolli Bobur timsolini ham ko'ramiz. Xuddi shu kabi ma'shuqa timsolini ham goh bevafo, sitamkor goh eng mehribon, vafodor, go'zal yor sifatida ko'ramiz. Bobur hayot, sevgi va shodlik kuychisidir. U dunyoning quvonchlarini, inson tirikligini, hayotni, bahor va yozning latofatini sevadi:

Yoz bo'ldi-yu bo'ldi yana jannat kibi yozi,
Xush ul kishikim aysh ila o'tgay qish-u yozi kabi...

Bobur lirikasida bunga ko'plab xarakterli misollar keltirish mumkin, jumladan: “Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari...”, “Yoz faslida chogir ichmakning o'zga holi bor...”, kabi misralarda shoir "yoz fasli" bilan bodaning kayfiyatini, "yor vasli" bilan "ishq dardi" ni, "do'stlarning suhbatlari" bilan "she'r bahsini" kuylaydi. U dilkash, ba'mani va xushchaqchaq majlislarni, do'stlar suhbatini istaydi va ta'rif qiladi.

G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in ganimat tut,
Vaqti aysh erur bogiy, ol chogir, ketur, bot tut.
Bu nasihatim angla, ne bilur kishi yongla,
Ne bolur ekin tongla, sen bugun ganimat tut.

Hayotni qattiq sevuvchi va shu bilan birga uning zavq - shavqini tark etishni istamaydigan, umrning insonga berilgan ne'mat ekanligini va uning g'animat ekanligi, yoshlik (gul chog'in)ning o'tkinchi ekanligini anglagan shoir uning mohiyatini idrok etadigan inson sifatida bashariyatni bu hayotning qadriga yetishga da'vat etgan.

Bobur tabiat va inson ruhiyatidan, butun koinotning aylanishidagi biri birini taqozo etadigan, biri biriga ta'sir ko'rsatadigan uyg'unlikdan o'zgacha ma'no ilg'ay olgan. Zero, shoirning tabiat bilan bog'liq she'rlarida olam odamda o'zining betakror qiyosini topadi yoki aksincha, odam uni o'rab turgan olamdagi mos o'xshatishlar orqali ichki olami ochilib boradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning bayon etilayotgan tasvir mazmuniga ko‘ra yil fasllari, tabiat unsurlari qo‘llangan g‘azallari kitobxonni tafakkur qilishga, qatrada – dengizni, shaklda ma‘no va mohiyatni ko‘rishga hamda chuqur fikrlashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is‘hoqov Y. Navoiy lirikasi va yangi davr poetikasi / Navoiyning ijod olami. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 46-66.
2. Adizova I. Bobur tafakkurida mavjlangan dunyo. Monografiya, 2023, 29-bet.
3. Mullaxo‘jayeva K. Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san’atlar uyg‘unligi. – Toshkent: 2019 y.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar, uch jildlik, I-III jild. 1965.

Razzoqov Alisher,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
ToshDO‘TAU doktoranti

BOBUR MASNAVIYLARIDA IRFONiy RUH

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she‘riyatida irfoniyl g‘oyalarning badiiy talqini tahlilga tortiladi. Tahlil uchun ososiy ob‘ekt sifatida Boburning 1994-yilda nashr etilgan “Devon”idan joy olgan masnaviy janridagi she‘rlar tanlab olingan.

Kalit so‘zlar: Bobur, badiiy ijod, she‘riyat, irfon, tasavvuf, masnaviy.

Abstract. The article analyzes the artistic interpretation of mystical ideas in the poetry of Zahiriddin Muhammad Babur. As the main object for the analysis, the poems of the masnavi genre from Babur's "Devon" published in 1994 were selected.

Key words: Babur, artistic creation, poetry, irfon, sufizm, masnavi.

Ma‘lumki, mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiy “Badoe’ ul-bidoya” devonining debochasida g‘azal janriga doir o‘z adabiy-estetik talablarini bayon qilgan va o‘zi ham butun ijodi davomida bu adabiy tamoyillarga og‘ishmasdan amal qilganini ko‘rishimiz mumkin. Shoirning talabiga ko‘ra, devon undagi she‘rlar faqatgina bir mavzu – majoziy muhabbat ta‘rifu tavsifi bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Devon tartib berish, she‘riyat, g‘azalnavislikdagi bu talab-tamoyillarga Navoiydan keyin necha asrlar davomida ko‘plab ijodkorlar amal qilib kelganlar. Navoiyning kichik zamondoshi bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z ijodida undan ilhomlangan, muhiblik tuygan shoirlardandir.

Akademik B.Valixo‘jayev Bobur yashagan XVI asr ma‘naviy muhiti haqida so‘z yuritarkan, bu davrda naqshbandiya, husayniya-ishqiya va yassaviya-jahriya sultoniya tariqatlarining murshidlari bo‘lmish Maxdumi A‘zam Dahbediy (1461 – 1542), Shayx Husayn Xorazmiy (1465 – 1551), Shayx Xudoydodi Vali (1461 –

1532), hamda Jo‘ybor xojalari ijtimoiy va ma‘naviy hayotda katta mavqega ega ekanliklari, bu murshidlarning ta‘sir doirasi Movarounnahr bilan cheklanib qolmay, Xuroson, Sharqiy Turkiston va Hindistongacha tarqalgani, shayboniylardan Ubaydulloxon, Abdulazizxon, Sulton Saidxon va Abdullaxon soniylar, temuriyzodalardan Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun va Komron Mirzolar ham ularni ehtirom qilgani, turli masalalar bo‘yicha maslahatlarin olganlarini ta‘kidlaydi [Валихўжаев, 2002: 269]. Umuman olganda, tasavvufga, xossatan naqshbandiya tariqatiga ma‘naviy bog‘liqlik Boburga tug‘ilgandanoq hamroh bo‘lgan. Buyuk tarixchi olim Abdulhay Lakhnaviy-Hasaniy “Nuzhat ul-xavotir” (“Xotiralar sayri”) asarida yozadi: “U zotning ismini Xoja Ubaydulloh Ahror o‘zlari Zahiriddin Muhammad deb qo‘yganlar, lekin turkiy xalqlar orasida Boburshoh deb mashhur bo‘lgan” [Мирзо Кенжабек, 2014: 3]. Bunday ruhoniylar bog‘liqlik Boburga umr bo‘yi hamroh bo‘lib, uning ijodida ham bo‘y ko‘rsatib turgan.

Garchi Bobur ulug‘ salafi Hazrat Navoiy singari “she‘riyatda maxsus bir maqsad va ilhom bilan hamdu na‘t, munojotlar bitishga, faqru fano, vahdatul vujud mohiyatini majoz vositasida ifoda etishga rag‘bat ko‘rsatmagan” [Salohiy, 2018: 142] bo‘lsa-da, ammo u yaratgan masnaviylar mazmun-mohiyati, g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra tasavvufiy ruhga juda yaqindir. Ayniqsa, uning devonidagi 5-masnaviyda irfoniy mazmun lirik qahramonning o‘z-o‘zini ruhan tashtish qilishi – psixoanaliz usulida nazmga solingan. Masnaviyda lirik qahramon – Bobur boshiga kelgan butun sinovlar, alam-sitamalar uchun dahrdan shikoyat qiladi:

Ota taxtida forig‘ o‘lturdum,

Bal, otam ko‘rmaganni men ko‘rdum.

Olti oy ichra olti taxt oldim,

Yetti iqlima, balki, ko‘z soldim.

Dedim, emdi murodima yettim,

Bilmadimki, g‘alat xayol ettim.

Ishratu aysh vaqti yetgan chog‘,

Mehnatu g‘ussa oti yitgan chog‘,

Yana mahrumi xonumon qilding,

Yana ovorai jahon qilding.

Dardu g‘amni manga anis etting,

Mehnatu ranjni jalis etting.

Aysh ila ishratimdin ayrildim.

Davlatu izzatimdin ayrildim... [Бобур, 1994: 119 – 120]

Lirik qahramon o‘zining shikoyatlariga subhdan javoblar, izohlar oladiki, bu bir adabiy usul bo‘lib, aslida javoblar ham shoir Boburning hayot, inson umri haqidagi irfoniy qarashlarining she‘riy in‘ikosidir. Masnaviyning aynan shu qismidan boshlab Boburning oriflik qiyofasi namoyon bo‘la boshlaydi. Lirik qahramonga berilgan javoblarning har birida orif Boburning dunyo uchun g‘am chekib turgan shoh Boburga orifona o‘g‘itlari o‘z aksini topadi. Eng avvalo, javobda kelgan ilk ikki baytda lirik qahramon malomat qilinadi:

K-ey faloni, bu ne razolattur?

Ne jaholatturu ne holattur?

Necha dunyo g'amidin etmaklik,
Ko'p so'z oning uchun eshitmaklik.

Bu ham tassavvuf va tasavvuf adabiyotiga xos bir uslub bo'lib, unda solik har qancha kamolot poyalaridan yuqorilab bormasin, u har doim o'z nafsini ko'zatib, tergap, malomat qilib bormog'i lozim, deb ta'lim beriladi. Butun umrini islom arkonlariga so'zsiz amal qilish, hayotining mazmunini Haqning rizoligini topish, insonlarga xolis xizmat qilishda deb bilgan Hazrat Navoiyning quyidagi baytlarini ham o'z-o'zini malomat qilish, nafsini tergash ma'nosida anglamoq lozim:

Qilmadim umrumda bir rak'at namoz,
Sar-basar mahzi niyoz, ey beniyoz.
Hargiz andoq qo'ymadim tufroqqa bosh,
Kim keraklik bo'lmag'ay boshimg'a tosh.
Bermadim hargiz gadog'a bir diram,
To o'zumni ko'rmadim sohib karam [Навоий, 2011: 11].

Bobur yuqoridagi misralarida o'z holatini "razolat", "jaholat" deb ta'riflashini ham tasavvufiy ma'nodagi malomatiylik kayfiyati baholamoq lozim.

Keyingi baytlarda Bobur o'z-o'ziga nasihatni davom ettirib, uni g'amga solgan dunyoning asl qimmatini qandayligiga urg'u beradi. Shoirning nazarida dunyo nafaqat u uchun g'am tortishga, balki nomini tilga olishga ham arzimaydi; uning holi bu qadar ekan, tabiiyki, bu qadar past baholi dunyoning nomini xayolingdan chiqar, deydi:

Arzimas g'am yemakka bu dunyo,
Bal, otin ham demakka bu dunyo.
Tama' uzgil bu eski dunyodin,
Xotiringdin chiqar bu dun yodin [Бобур, 1994: 121].

Bobur butun umrini mulkgirlik, saltanat qurish maqsadida o'tkazgan shoh sifatida nega dunyoni bu qadar haqir sanamoqda, degan savol tug'ilishi ham tabiiydir. Gap shundaki, Bobur shohlikka, saltanatdorlikka shunchaki o'tkinchi dunyo ortidan quvish, mol-davlat yig'ish vositasi emas, balki bobokaloni Amir Temur singari fath ishi, qolaversa, sulolaviy burch sifatida qaragan. Boshqacha aytganda "Boburning darveshligi – siyrat darveshligi"dir [Haqqul, 1991: 164]. U ham o'zi doim hurmat-ehtiromda bo'lgan naqshbandiyalar singari umrining mazmunini ijtimoiy hayotning qaynoq nuqtasida deb bilgan.

Ma'lumki, nafs barcha tasavvuf tariqatlari uchun umumiy mavzudir. Aslini olganda nafs, so'fiylar ta'lim berishiga ko'ra, ruh bilan ayni ma'noda qo'llanib, ruhning butun xususiyatlarini o'zida aks etadi. Zero, insoniy nafs insoniy ruhning aynisidir, undan farqli va ayri bir narsa emasdir. "Ey taskin topgan nafs, sen Undan, U esa sendan rozi bo'lgan holda Rabbingga qayt!" (Fajr, 27-28) oyatidagi nafsdan maqsad insoniy nafs ham deb ataladigan insoniy ruhdur. Allohdan kelgan, Allohdan rozi bo'lgan, Allohning rizosiga erishadigan va Allohning xos qullari orasiga kirib Allohga qaytadigan va jannatga kiradigan bu nafs, ya'ni ruhdur... Mulhima, lavvoma, mutmainna, roziya, marziyya, zakiiyya ruh bilan ma'nodosh bo'lgan nafsning turli hollari va xususiyatlaridir. Shuningdek, tuban jismoniy orzu va zavqlar ortidan quvadigan, shaytonning amr va hukmlari ostida bo'ladigan nafs

ham mavjud. Bunga nafs ammora – yomonlikka buyuradigan nafs deyilarki [Uludağ, 2016: 34 – 35], tasavvuf adabiyotida yomonlanadigan nafs ayni shudir. Bobur masnaviyisida ham aynan mana shu so‘nggi turdagi nafs yashirin, ko‘zdan pinhon dushman, jism uyiga tushgan o‘g‘ri sifatida ta’riflanadi:

Nafsning kasbidur havoyu havas,
Ruh olidadur bular yaramas.
Nafs dushman durur yaqin bilgil,
Do‘stum, bu so‘zumni chin bilgil.
Dushmanedur, agarchi, o‘tru emas,
Lek, bir lahza sendin ayru emas.
Garchi zohirda to‘g‘ridektur nafs,
Jisming uyida o‘g‘ridektur nafs [Бобур, 1994: 122].

Tasavvuf bunday nafsga qarshi kurashishning o‘ziga xos usullarini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, chilla, riyozat va parhez saqlab nafsga qarshi urush ochib, kuchini sindirib va ezib, uning tabiatida bor bo‘lgan gunoh va yomonlik qilish orzusining ildizi butunlay qo‘porilmaydi. Zotan bu tuyg‘ularning o‘ldirilishi va yo‘q etilishi maqsad ham emasdir. Ahamiyatli bo‘lgani bu singari yomon tuyg‘u va mayllarni ta’sirsiz holga keltirish, inson ustida ilohiy irodaning, qalb va vijdon sasi, aql hokimiyatining o‘rnatilishidir [Uludağ, 2016: 38]. Shundagina nafs insonning zarariga emas, foydasiga ishlay boshlaydi. Bu ma’noda Bobur ham nafsni tavsan – sovutilmagan otga o‘xshatib, uni rom qilib, qo‘lga o‘rgatishni ta’kidlaydi:

Nafs tavsanini rom qil o‘zungga,
Qodir o‘l harna so‘z desang so‘zungga [Бобур, 1994: 122].

Shoir insondan hech ayrilmaydigan nafs mohiyatini bu shaklda anglatib bo‘lgach, keyingi maqsadga o‘tadi – yashashdan asl maqsad nima ekanligiga o‘quvchi diqqatini tortadi:

Haq taolo nega yaratti seni?
Odamiylar sonig‘a qotti seni
Kim o‘zung birla fikr qilg‘aysen,
G‘aflat uyqusidin oyilg‘aysen.
Bilgasen jahd ila bori sifatini,
Qilg‘asen dark tengri ma’rifatin.
Rost qilg‘aysen e’tiqodingni,
Bilgasen mabda’yu maodingni [Бобур, 1994: 123].

Boburning masnaviyning bu qismidan chiqaradigan xulosasi shuki, insonning tug‘ilishidan maqsad Haq taoloning uni nima uchun yaratganini anglash, faqat g‘aflat ichida umr kechirish emas, Allohga e’tiqod – ishonchini to‘g‘ri qilib, Uning ma’rifatini egallashdir. Inson uchun ma’rifatning qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunish uchun islom va tasavvuf allomalarining u haqidagi ta’riflarini o‘rganish lozim. Shunday mualliflardan biri ma’rifatni quyidagicha tushuntiradi: “Ma’rifat Alloh taolo bandalariga farz qilagan birinchi farzdir. Bunga ushbu oyati karima dalildir: Ya’ni, Men jinlar va insonlarni faqat O‘zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim (Zoriyot surasi, 56-oyat). Abdulloh ibn Abbos roziyallohu oyat tafsirida shunday degan: “ya’ni, Meni tanimoqlari uchun...” [Сулабий, 2020:

21]. Demak, ma'rifat Allohni tanish, imon keltirish va Unga ibodatning muqaddimasi sifatida ham talqin etilmoqda. Ma'rifat qanday shart bilan qo'lga kiritiladi, degan masalaga Bobur Xoja Ahror Valiyning "Risolai Volidiiyya" asari she'riy tarjimasida ma'rifat Hazrat Payg'ambar s.a.v.ga tobe bo'lmasdan hosil bo'lmaydi, bu yo'lning yetakchisi ham taba'iiyat – tobelikdir deya javob beradi:

Ma'rifat betaba'iiyat bo'lmas,

Qoidi roh taba'iiyatduru bas [Бобур, 2014: 382].

Bu tahlillardan ma'lum bo'ladiki, Bobur garchi g'azallarida bo'lmas-da, yuqoridagi manzumalari bilan ham Hazrat Navoiyning she'r va shoirlik, devonchilik oldiga qo'ygan adabiy-estetik talablarni yuksak badiiy mahorat bilan bajara oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 9-жилд. – Тошкент: Ф. Гулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 1-жилд. – Тошкент: Халқ мероси, 2002.
3. Захируддин Муҳаммад Бобур. Мубайян ва насрий баёни. "Рисолаи Волидийя" асари назмий таржимаси ва шарҳи. – Тошкент: Sharq, 2014.
4. Захириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Тошкент: Фан, 1994.
5. Мирзо Кенжабек. Бобур Мирзо – буюк фақиҳ. Китобда: Захируддин Муҳаммад Бобур. Мубайян ва насрий баёни. "Рисолаи Волидийя" асари назмий таржимаси ва шарҳи. – Тошкент: Sharq, 2014. – Б. 3 – 4.
6. Имом Абу Абдурахмон Суламий. Тасаввуф ва унинг ҳақиқати ҳақида муқаддима. Абдулҳамид Муҳаммад Турсун таржимаси. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2020.
7. Salohiy D. Tasavvuf va badiiy ijod. – Toshkent: Navro'z, 2018.
8. Uludağ S. Tasavvufun Dili. – İstanbul: Ensar, 2016.
9. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

Muminova Dilorom,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Sharof Rashidov nomidagi SamDU o'qituvchisi

BOBUR IJODIGA IZDOSHLIK

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan ta'sirlangan holda ijod qilgan Muhammad Rahimxon Feruzning ijodi haqida so'z boradi. Shuningdek, Bobur va Feruzning yashagan, ijod qilgan davri va janrlaridan misollar keltirilib tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: janr, hasbi hol, ijodkor, vatan, bahru bayt, chog'ir, badavlat, ishq, g'azal, ruboiy.

Abstract: This article talks about the work of Muhammad Rahim Khan Feruz, who was influenced by the work of Zahiruddin Muhammad Babur. Also, examples from the period and genres of Babur and Feruz's lives and works are analyzed.

Key words: genre, hasbi khol, creator, homeland, bahru bayt, choghir, badavlat, love, ghazal, rubai.

Mumtoz adabiyotimizda o'zining serqirra ijodi bilan shuhrat qozongan yozuvchilar juda ko'plab uchraydi. Lekin ijod bilan birga davlat arbobi vazifasini bir yo'sinda olib borish albatta murakkab jarayondir. Shu holatni hech qanday qiyinchiliksiz bajargan shaxslar albatta sanoqli hisoblanadi. Bulardan "shoh va shoir" deb tilga olingan, mumtoz adabiyot vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburni aytish mumkin. Ijodkor xalqimizning har jihatdan yetuk, g'oyat iste'dodli bir farzandi edi. Uning hayoti faqat qahramonliklar ila emas, ijodkorlik, bunyodkorlik bilan ham to'la deyish mumkin.

"Bobur she'rlarining ma'lum qismi hasbi hol xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan bir lavhasi bilan bog'lanadi. Lekin deyarli hammasi benihoya samimiy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, Boburning she'riyatida hayot zavqi, tabiat go'zalliklaridan zavqlanish, inson va insoniylikni ulug'lash, vatan va vatandoshlarni sevishtirish, avaylash ham katta o'rin egallaydi". [Sulaymonov I., 2020: 30]

Bunday xarakterdagi ijod namunasini quyidagi misralar misolida ko'rib o'tish mumkin:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.
Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,
Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa bordur davlati.
Ishq dardini chekib, har kimki topsa vasli yor,
Ul zamon o'lg'ay unut yuz yilg'i hijron shiddati.
Do'stlarning suhbatida ne xush ulg'ay bahsi she'r,
To bilingay har kishining tab'i birla holati.
Gar bu uch ishni muvofiq topsang ul uch vaqt ila,
Mundin ortiq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati. [Bobur, 2020: 66]

Mazkur g'azalda, yoz faslida yoru do'stlar bilan diydorlashib suhbat qurish, suhbat jarayonida she'rxonlik (*bahru bayt*) o'tkazish bazmga zavq ulashi, yoz faslida chog'ir (*muzdek ichimlik*) ichishning o'zgacha gashti borligi, kim bu zavqni his qilsa undan badavlat (*boy*) inson yo'qligi kabi iliq munosabatlar yoritilgan.

Bobur she'rlarining bosh vazifalaridan biri tilining soddaligidir. Ayniqsa ruboiylarida bu holatni yaqqol kuzatish mumkin:

Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldurmen.
Nisbat yo'qdur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga vale sanga quldurmen, [VohidovR., 2006: 470]

- deb yozgan edi. Ruboiyda keltirilgan gul-u bulbul, shu'la-yu parvona, shoh-u gadolarga yuzaki qarab, hayotiy oshiq-u ma'shuqalarga o'xshatish mumkin. Aslida ruboiyda majoziy timsollar tasavvufiy ruhdadir.

Boburning rang-barang janrlarda yozilgan lirik merosining mavzu doirasi xilma-xildir. Ularda Boburning shoirlik mahorati ochiq-oydin holatda namoyon bo'ladi. Shu sababli Boburning shohlik va shoirligidan ilhom olgan ijodkorlar adabiyotda ko'plab uchraydi. Ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo'shgan shoir Muhammad Rahimxon Feruz haqida to'xtaladigan bo'lsak, ijodkorda ham go'yo Zahiriddin Muhammad Bobur misoli xislatlarni ko'rish mumkin.

San'atni sevgan, uning sirlaridan xabardor bo'lgan kishigina adabiyot va san'atga homiylik qilishi mumkin. Feruz xuddi shunday san'at sevar hukumdor edi. Uning saroyida adabiy munozaralar, mushoiralar, haftaning maxsus kunlari kitobxonlik oqshomlari o'tkazilardi. Xonning shaxsan o'zi katta-kichik mansabdorlar hammasini kitobxon bo'lishga da'vat etardi.[Orzibekov R., 2003: 10] Muhammad Rahimxon Feruz go'yo Zahiriddin Muhammad Bobur kabi onayurt obodligi, xalq ma'naviyati uchun qayg'urdi. Kelajak avlod tarbiyasiga katta ahamiyat bergan.

Feruz ijodiy merosi bilan yaqindan tanishgan zamondoshlari tomonidan "Ishqiy g'azallar piri" deb e'tirof etilgan. Feruz lirikasining asosiy mavzusi ishq-muhabbatdir. Yozuvchi ushbu mavzuda o'ziga xos tarzda jozibali she'rlar bitdi. Uning lirikasida ham Bobur ijodi misoli shohning emas, oddiy insonning-ishqning ruhiy kechinmalari, iztiroblari o'z ifodasini topgan. Lirik qahramonning e'tiroficha, ishq borasida shohu gado barobar. Buning isboti sifatida Feruz ijodida keltirilgan baytlar misoli orqali guvohi bo'lish mumkin:

Garchi erurman tole'i Feruz ila olamg'a shoh,

Lek ul parilar sarvari ol(d)idaturman qul bu kun.[Qosimov B., 2004: 78]

yoki:

Ishq bir o'tdurur, nechunkim barq,

Aylamas shoh bila gadoni farq.

Tushsa ondin ko'ngulga bir uchqun,

Kuydurur boshig'a solur qaro kun. [Qosimov B., 2004: 78]

Ushbu misralarda ishqni o'tga o'xshatgan. Haqiqatdan ham ishq insondi, shohmi yoki gadomi farqlamay bir yo'sinda o'z oloviga kuydirib kul qiladi. Shu bilan birga ko'ngulga ishqning bir uchquni tushsa ham kuydirib, kishi boshiga ne-ne savdolarni solar degan munosabatni Feruz aniq tasvirlar bilan keltirib o'tgan.

O'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan bu ikki ijodkor vatan farovonligi yo'lida qilgan harakatlari bugungi kun uchun eng katta jasorat ko'rinishidir. Shu bilan birga ijodkor qalbida vatan obodonligi, xalq farovonligi, ilm-fan, maorif va madaniyat ravnaqi uchun qilgan say-harakatlari ijodiy merosi tarkibida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bobur va Feruzning hayotiy va ijodiy faoliyatiga baho berilganda Feruzga o'z davrining adabiy muxlislari ta'kidlaganidek: "Elning shohi lek ishqning quli" deb berilgan ta'rif o'rinli. Bu ikki siymo lirikasida shohlik faxri tasvirlansada

ammo, ishqning zarrasidan kulga aylangan kishi gavdalangan o‘rinlar tasviri mavjud:

Dahr eliga garchi podshoman,
Ehsonig‘a mustahid gadoman.
Ko‘bdur manga rahmatingdin umid,
Qilma mani-notavonni navmid.
Qil baxt ila tole‘imni Feruz,
Har bir kunim ayla iydi Navro‘z. [Qosimov B., 2004: 84]

Feruz ijodida bu kabi orzu va havaslar har bir misrasida sezilib turadi. Bunday tasvirdan foydalanish Bobur ijodida ham ko‘plab ushraydi. Shuning uchun Feruz lirik merosini Bobur ijodi ta‘sirida yozilgan serqirra ijodkor deyish mumkin.

Feruz ijodida vatan ravnaqi, kelajak-avlod tarbiyasi, ishq kabi tasvirlar yetakchilik qiladi va ichki dunyosini ochib berishga xizmat qilgan. Bugungi kunda shohlik vazifasi bilan birgalikda shoirlilikni ham bir yo‘sinda olib borgan Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Rahimxon Feruz siymosi mumtoz adabiyotimiz kitobxonlari qalbidan katta o‘rin egallagan. Bu ijodkorlar o‘z hayoti bilan birgalikda yuqorida aytilganidek, yurt qayg‘usi, farovonligi, tinchlik, kelajak-avlodning tarbiyasi, qadimgi tarixiy obidalarimiz va shu kabi vatanning ravnaqi masalasi ichki kechinmalarni qalam orqali to‘kib sochishgan. Biz bu kabi buyuk ajdodlarimizning adabiy merosini o‘rganib, o‘z yo‘limizga tadbiiq qilishimiz kerak va kelajak-avlodga ibratli jihatlarini ko‘rsatib berish bizning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Орзибеков Н. Ўзбек адабиёти тарихи (Миллий уйғониш даври). - Самарқанд, 2003.
2. Қосимов Б. ва б. Миллиу уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент, “Маънавият” 2004.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek Mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrdan XVI asr oxirigacha). – Toshkent: Fan, 2006.
4. Sulaymonov I. Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti. – Samarqand: SamDU nashri, 2020.

Kazakbayeva Dilrabo,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, O‘zMU doktoranti (DSc)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MASNAVIYLARINING VAZN XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur masnaviylarining badiiyati, vazn xususiyatlari tahlilga tortilgan. Bobur masnaviylarining o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni, ilmiy-nazariy fikrlar asosida dalillangan.

Kalit soʻzlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, janr, masnaviylar, vazn, bahr, boshlanma bayt.

Annotation: In this article, the artistry and weight characteristics of Zahiriddin Muhammad Babur's masnavis are analyzed. The role of Babur's masnavis in the history of Uzbek literature has been proved on the basis of scientific and theoretical ideas.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, genre, masnavis, weight, sea, beginning verse.

Masnaviy arab, fors va turkiy adabiyotda gʻazaldan soʻng eng keng qoʻllanilgan mumtoz janrlardan biridir. Turkiy adabiyotshunoslikda mumtoz janrlar masalasi dastlab Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balogʻa” asarida koʻrilgan. Alloma mumtoz sheʻrning asosiy 10 navʻini keltirish bilan birga, struktural jihatdan bir-biriga yaqin boʻlgan sheʻr shakllarini bir navʻ koʻrinishlari sifatida asoslab bergan. Masalan, ruboiy va tuyuq, tarjiʻband va tarkibband, barcha musammat shakllarini bir-biriga yaqin turgan sheʻriy navʻ sifatida birlashtirib taqdim etgan. Bular orasida ruboiy va tuyuqqa nisbatan struktural jihatdan murakkab deb qaralmasa-da tarjiʻ va tarkibband, ayniqsa, musammat shakllarini bir navʻ orqali yuzaga kelganini oʻrinli asoslab koʻrsatgan.

Abdurauf Fitrat mumtoz sheʻriyat nazariyasini tahlil qilar ekan, “Adabiyot qoidalari”, “Fors shoiri Umar Xayyom” va “Aruz haqida”gi asarlarida ayrim adabiy janrlar, xususan, masnaviy va musammat turlarining murakkab strukturasiga ishora qilgan. “Adabiyot qoidalari”da manbalarda murakkab strukturali janrlar sifatida qaralgan mumtoz sheʻr shakllaridan qasida, masnaviy, musammat, tarjiʻband, tarkibbandni umumiy tarzda izohlash bilan cheklangan. “Fors shoiri Umar Xayyom” risolasida esa masnaviy, qasida xususida kengroq toʻxtalib, ularning janr xususiyatlarini koʻrsatar ekan, keng epik koʻlamdagi mazmuni ifodalash uchun masnaviy shakli qulay boʻlganini yozadi: “Masnaviy soʻzining bizchasi ikkilikdir. Bu shakl nazmda har ikki misraʻning maxsus mustaqil qofiyasi shart boʻlmoq boʻlub, masnaviy atalishi ham shuning uchundir. Masnaviy shaklida bir asar yozmoqchi boʻlgʻan shoir qasida va gʻazalida boʻlgʻani kabi oʻz asarini maʼlum birgina qofiya bilan yozishgʻa majbur boʻlmaydi. Shuning uchun nazmning bu shakli shoigʻa ozodlik beradi (qofiya jihati nazarda tutilgan – D.K.). Turli hikoyalar, dostonlar, vaʻz-nasihatlariga oid uzun asarlar yozish uchun nazmning masnaviy shakli boshqa shakllarga qaragʻanda qulayroqdir. Bu shakl forsiylarning burungʻi milliy nazm shakllaridandir [Fitrat A., 2000: 136].

Darhaqiqat, masnaviylarni alohida mustaqil janr sifatida shoirlar devonlarida uchratamiz. Biroq masnaviy imkoniyatlari qulay va keng boʻlganligi sababli dostonlar uchun ham masnaviy shakli tanlangan. Masnaviylarning dostonlar, nomalar va boshqa voqeaband asarlar uchun tanlab olinishi haqida Fitrat shunday deydi: “... Islom davridagi Eron shoirlarining eng eskilarining masnaviy shaklida dostonlar yozgʻanlarini koʻramiz. Hijriy 4 – asrda yashagan Boʻshagoʻr Balxiy, Daqiqiy, Roʻdakiy va 5 – asrda yashagʻan Asadiy, Firdavsiy turli dostonlar yozgʻanlar. Bu dostonlarning muhim qismi eroniylarning milliy qahramon(lik) dostonlaridan iborat edi. Arab istilosidan qutilgʻan eronlilar orasida milliy his,

milliy tuyg'ular qo'zg'alishig'a xizmat qilg'ani uchun bunday dostonlar Eron milliy burjuaziyasi tomonidan himoya ko'rar edi. Qahramonliq dostonini eng yuqori darajaga chiqarg'an shoir mashhur Firdavsiydan keyin bu yo'lda asar yozish davom qilg'an bo'lsa, ham Firdavsiydan yuqoriroq yohud unga baravar keladigan bir shoir undan keyin forsiy adabiyot dunyosida yetishmagandir. Bu zamonlarda qahramon(lik) dostonlari bilan ishqiy dostonlar ham yozila boshlag'an edi. Buning eng eski namunasi deb Daqiqiyning ishq ham urush dostoni bo'lg'an "Vomiqu Uzro"sini ko'rsatish mumkin. "Lug'ati Hofizi Ubahiy"da mashhur Rudakiyga nisbat berilgan ba'zi baytlardan uning ham mutaqorib vazni birla "Yusuf va Zulayho" yozg'anini gumon qilish mumkin. Firdavsiyning ham "Yusuf va Zulayho" otli ma'lum bir dostoni bor. Lekin uning "Shohnoma"si darajasida yuksak bir asar emasdir. Ishaqiy dostonlar o'zining eng yuqori bosqichig'a milodiy 12-asrda yashagan mashhur Nizomiy bilan chiqa oldi. Nizomiy o'zining "Layli, Majnun", "Farhod, Shirin", "Haft paykar" kabi ishq dostonlari bilan bu yo'lda fors adabiyotig'a abadiy esdaliklar bag'ishlay oldi. Nizomiydan keyin bu yo'lni undan ilgariroq olib borish hech bir forsiy shoirg'a nasib bo'lmadi" [Fitrat A, 2000: 137]. Zahiriddin Muhammad Bobur esa ham olim, ham shoir sifatida masnaviyning yuksak namunalarini yaratdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur devonida 20 ga yaqin sof masnaviylar mavjud bo'lib, ular turli xil mavzularda bitilgan. Devondagi [Bobur, 2021: 473-577] birinchi masnaviy 17 bayt (majoziy ishq haqida), ikkinchi masnaviy 41 bayt (majoziy ishq haqida), uchinchi masnaviy 33 bayt (majoziy ishq), to'rtinchi masnaviy 36 bayt (majoziy ishq), beshinchi masnaviy 74 bayt (falsafiy mazmunda), oltinchi masnaviy 24 bayt(majoziy ishq haqida), yettinchi masnaviy 41 bayt, (diniy-tasavvufiy mazmunda), sakkizinchi masnaviy 8 bayt (tasavvufiy-falsafiy), to'qqizinchi masnaviy 18 bayt bo'lib, jang tasvirlariga bag'ishlangan, o'ninchi masnaviy 6 bayt, ot haqida, o'n birinchi masnaviy 8 bayt (o'n ikki maqom to'g'risida), o'n ikkinchi masnaviy uch qismli o'n bir baytli, o'n uchinchi masnaviy 19 bayt (kitobat san'ati asosiga qurilgan), o'n to'rtinchi masnaviy 7 bayt bo'lib, may mavzusi haqida, o'n beshinchi masnaviy tasavvufiy mazmunda bo'lib, 43 baytdan, o'n oltinchi masnaviy yakunlovchi qism sifatida 4 baytdan iborat bo'lib, sabo, yel haqida.

Bobur masnaviylarining muhim xususiyati shundaki, ularning aksariyatida "sabog'a xitob", yorga salom yetkazish, yordan arazlash va gina-kudurat aks etadi. "Ul gulga xabar qil" nomli masnaviysi shunday boshlanadi:

*Sabo, ul gul harimig'a guzar qil,
Mening holimdin ul gulga xabar qil.*

Yordan gina va o'pkalash barobarida, ma'shuqa haqidagi fikrlari ham o'zgarganligini bayon etadi:

*Seni mundoq tasavvur qilmas erdim,
Bu yanglig' rahmsiz ham bilmas erdim.*

Masnaviyda bir necha murojaat qilinayotgan shaxs o'zgargan – avvalgi baytlar sabog'a qaratilib, unga shoir nomidan yorga yetkazish lozim gaplar aytilgan bo'lsa, so'ng shoir o'ziga ozi murojaat eta boshlagan (bunday o'zgarish mumtoz she'r ilmida iltifot deb ataladi).

*Uzatma muncha ham, Bobur o'zungni,
Bu so'zlar birla xor etma o'zungni.*

Masnaviy hazaji musaddasi maqsur vaznida yozilgan.

v - - - / v - - - / v - -

Mafo'iyun mafo'iyun mafo'il

Keyingi masnaviy "Ey payki sabo, qoshima kelgil" deb nomlanadi:

Ey payki sabo, qoshima kelgil!

Eshit bu so'zumni, dog'i elgil.

Bobur bu o'rinda "payki sabo" – tonggi shabadaga murojaat qilib, o'z ahvolotini yorga yetkazishini maqsad qiladi. Yorning sifatlarini birma bir ta'riflab, o'tadi: jamoli, soch-u yuzi, qoshi-yu hiloli, og'zi-yu yanog'i, bo'yni-yu sarv qaddi va hakoza... Bu masnaviy boshidan oxirigacha ma'shuqa ta'rifiga bag'ishlanadi. Bobur bu o'rinda yorning boshidan oyog'igacha ta'riflab, tanosub san'ati bilan birga bir vaqtning o'zida tadrijni ham qo'llaydi. Masnaviy oxirida yor shunchalik go'zal dildor bo'lishiga qaramay, uning yolg'onchiligi barcha sifatlarini yuvib ketadi:

Yolg'on so'z ila itob etarsen,

Yuz qahr bila xitob etarsen.

Bu bilan Bobur yorga xitob aylab, bu kabi sifatlaridan uyalishga, yolg'on emas, balki vafo uni yanada ko'rkam qilishiga ishora qiladi:

Ko'nglimda hanuz o'shal vafodur!

Boshimda dag'i o'shal havodur.

Oxirida yorga "Qayerda bo'lsang ham sog' bo'lgin" qabilida irsoli masal orqali tilaklarini bildiradi:

To dahr durur, salomat o'lg'il,

Xushluq bila to qiyomat o'lg'il. [Kazakbayeva D., 2022: 87-88].

Ushbu masnaviy hazaj bahrida yozilgan bo'lib, taqte'i quyidagicha:

- - v / v - v - / v - -

Mafovlu mafoilun mafoiyl

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzu maqsur

Tekshirishlarimiz natijasida, Bobur masnaviylari quyidagi bahr va vaznlarda yozilganligini aniqladik: *hazaji musaddasi maqsur, xafifi musaddasi mahbunu mahzuf, ramali musaddasi mahzuf, xafifi maxbunu maxzuf, ramali musaddasi maxbunu mahzuf, hazaji musaddasi axrabi maqbuzu mahzuf, ramali musaddasi maxbunu mahzuf, mutaqoribu musammani mahzuf* kabilar.

Bobur masnaviylarining vazn va bahrlarini jadval asosida quyidagicha ko'rsatishimiz mumkin:

T/p	Bayt lar miq dori	Boshlanma bayt	Bahri, vazni, ruknlari
1	17	Sabo, ul gul harimig'a guzar qil, Mening holimdin ul gulga xabar qil.	Hazaji musaddasi maqsur Mafoiylun mafoiylun faulun

2	41	Ey payki sabo, qoshimg‘a kelgil! Eshit bu so‘zumni, dag‘i bilgil!	Hazaji musaddasi axrabi maqbuza maqsur Mafuvlu mafoilun mafoiyl
3	33	Xotirimni tilar ersang, kel ko‘p! Bu so‘zumni eshitgil, ey yel, ko‘p!	Xafifi musaddasi mahbunu mahzuf Foilotun mafoilun failun
4	36	Ey sabo, yelmakni qo‘ygil, hazm qil! Sarvinozim kuyi sori azm qil!	Ramali musaddasi mahzuf Foilotun foilotun foilun
5	74	Bir kecha xotirim mushavvash edi, Ko‘zda suv, ko‘nglum ichra otash edi.	Xafifi maxbunu maxzuf Foilotun mafoilun failun
6	24	Jismingga za‘f esa, jonim sadqa! Joningga ikki jahonim sadqa!	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun foilun
7	41	Xotirim saqlar ersang, kel, qo‘pg‘il! Bu so‘zumni eshit, ey yel, ko‘pg‘il!	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun failun
8	8	Necha isyon bila oludalig‘ing, Necha hirmon aro osudalig‘ing?	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun foilun
9	18	Qarosin yog‘iyning ko‘rubturlar, Dangu hayron boqib turubturlar.	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun foilun
10	6	Qilur javlon o‘shul siymintan otlig‘, Oti bordir aning go‘yo qanotlig‘.	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun foilun
11	8	Gar o‘n ikki maqom tutsang yod, Qilayin barchasin sanga ta‘dod.	Hazaji musaddasi mahzuf Mafoiylun mafoiylun mafoi
12/1	2	Ko‘ngulga dardu g‘amni ne yovutay? O‘zumni ovu qush bila ovutay.	Hazaji musaddasi mahzuf Mafoiylun mafoiylun mafoil
12/2	2	Ulki taqdir xatin etti savod, Ayladi oqu qaroni irshod.	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun foilun
12/3	3	Ey qodiri barkamol, Tangrim, V-ey qohiri zuljalol, Tangrim.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuza mahzuf Mafuvlu mafoiylun mafoil
13	19	Xush ul kunlarki, oshiq erdim,	Hazaji musaddasi axrabi

		Ishq ahli bila muvofiq erdim.	maqbuza mahzuf Mafuvlu mafoiylun mafoil
14	7	Ey xush ulkim, bori eldin yoshurun, Biz ikov bo‘lsaku bir go‘sha-yu tun.	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun failun
15	43	Siposu sitoyish Xudovandg‘a, Ki, andin kushod o‘ldi har bandg‘a.	Mutaqoribu musammani mahzuf Fauvlun fauwlun fauwlun faul
16	4	Ne xabar erdi, sabo, yetkurding, +2 Ne xabar, jong‘a balo yetkurding.	Ramali musaddasi maxbunu mahzuf Foilotun foilotun failun
Jam	Hamm		
i	asi:		
18	390		

Ko‘rinadiki, Bobur masnaviylarida hazaj, xafif, ramal bahrlari yetakchilik qiladi. Birgina

Siposu sitoyish Xudovandg‘a,

Ki, andin kushod o‘ldi har bandg‘a

v - - - / v - - - / v - - - / v -

Fauvlun fauwlun fauwlun faul

Mutaqoribu musammani mahzuf

deb boshlanuvchi masnaviysi *mutaqorib* vaznida yozilgan. Ma‘lumki, *mutaqorib* vaznida shohnomalar yoziladi. Jumladan, Boburning ushbu masnaviysi Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni vaznida bo‘lib, ohang, uslub jihatdan ham hamohanglik kasb etadi.

“Saddi Iskandariy”da:

Xudovandi bemislu monand sen,

Xudovandlarg‘a xudovand sen.

Bobur masnaviysida:

Anga ne misolu ne monanddur,

Xudovandlarg‘a xudovanddur.

Keltirilgan baytlardan ko‘rinib turibdiki, Bobur masnaviysi nafaqat vazniga ko‘ra, balki yana boshqa jihatlari bilan ham “Saddi Iskandariy”ga hamohangdir. Umuman, bu masnaviyning yaratilishida “Saddi Iskandariy”ning ta’siri yaqqol seziladi. Garchi bu asar hajman katta farq qilsa-da (biri – 7215 baytlik doston, masnaviy esa 43 baytdan iborat), ular ruhiyat jihatidan bir-biriga yaqin [Bobur. Devon, 2014 :226].

Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotida masnaviy janrini mavzu va g‘oya, uslub, hajm va shakl, obrazlar va lirik qahramon nuqtai nazaridan boyitdi. Bobur lirikasining janr xususiyatlari va mavzu doirasi xilma-xil. Lirik merosining turfaligi, mazmunan keng tarmoqligi,

muallifning mukammal dunyoqarashlari, qaysi janrda bo‘lmasin yaqqol sezilib turadi. Shoir masnaviylari ham vazn jilodorligi, mumtoz qofiyadan foydalanish malohati, badiiy san’atlar qo‘llashdagi mahorati bilan alohida tadqiqotni talab etadi va kelgusidagi ishlarimizda batafsil to‘xtalishni maqsad qilib qo‘yganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фитрат А. Адабиёт қоидалари / Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Маънавият, 2006.
2. Фитрат А. Форс шоири Умар Хайём. Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Маънавият, 2006.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 1-jild / Devon. – Toshkent: Zilol buloq, 2021.
4. Bobur. Devon. Nazm mahorati /– Toshkent: Tafakkur, 2014.
5. Qozoqboyeva D. Bobur masnaviylarining ayrim poetik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. – №1. – B. 37-46.
6. Qozoqboyeva D. Bobur masnaviylarining struktural asoslari // Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o‘rni. Xalqaro konferensiya. O‘zbekiston Milliy universiteti. – Toshkent, 2023. – B 102-108.

Qurbonov Abdulhamid,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Biznes va fan universiteti dotsenti

BOBUR G‘AZALIYOTIDA RADD UL-MATLA’ SAN’ATI

Annotatsiya: Radd ul-matla’ning ma’nosi matlaning qaytarilishi bo‘lib, u g‘azal kompozitsiyasiga taalluqli san’atdir. Bobur bu san’atga alohida e’tibor bilan qaragan. Uning 119 g‘azalidan 8 tasi radd ul-matla’ asosiga qurilgan. Ularda birinchi misra oxirgi baytda ikkinchi misra bo‘lib yana qaytariladi. Ammo “radd”ning g‘azal mazmuniy mundarijasida tutgan o‘rni bir xil emas: agar birinchi misrada umumiy muammo tarzida yuzaga chiqsa, oxirgi misrada ko‘pincha shoir shaxsi bilan bog‘lanib, g‘azalning umumiy xulosasi tarzida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, g‘azal, badiiy san’at, radd ul-matla’, kompozitsiya, mazmun, xulosa.

Annotation: The term “*radd ul-matla*” refers to the return of matla, an art form associated with the composition of ghazals. Babur, the Mughal emperor, dedicated special attention to this art. Out of his 119 ghazals, 8 are based on radd ul-matla’. In these ghazals, the first verse is repeated as the second verse in the final stanza. However, the role of “radd” within the content of the ghazal is not consistent. While it may initially appear as a general issue in the first stanza, it often takes on a personal significance in the last stanza, serving as a general conclusion to the ghazal.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, ghazal, artistic art, radd ul-matla, composition, content, conclusion.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘tmish mumtoz adabiyotimizning Alisher Navoiydan keyin yetishib chiqqan eng ulug‘ siymosidir. Bobur hayoti o‘ta notinch, ko‘pincha sarson-sargardonlikda kechgan bo‘lsa ham, undan avlodlarga rang-barang va qimmatli asarlar meros bo‘lib qoldi: ajoyib she‘rlar yozib, devon tartib berdi, «Boburnoma»dek ulkan tarixiy-badiiy asar yaratdi. Boburning «Risolai aruz» deb nomlangan asari Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon»idan keyin turkiy tilda aruz vazniga bag‘ishlangan ikkinchi qimmatli asar bo‘ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zidan avvalgi forsiy va turkiy tildagi she‘riyatni, ayniqsa, ulug‘ Navoiy asarlarini, undagi mahorat sirlarini chuqur o‘rgandi. Natijada o‘zbek adabiyotini ham mazmunan, ham shaklan barkamol asarlar bilan boyitdi. Shoirning dilrabo g‘azal va ruboiylarida sharq she‘riyatida asrlar davomida qo‘llanib, badiiy tasvirning mutaassir vositalariga aylangan mubolag‘a, tashbeh, tamsil, talmeh, husni ta‘lil, tajohuli orif, istiora, irsoli masal, tardu aks, kitobat, iyhom, tanosub, ishtiyoq, tazod, takrir kabi san‘atlarning betakror namunalarini uchratish mumkin. Bu fikr shoir g‘azallarida muvaffaqiyat bilan qo‘llangan radd ul-matla‘ san‘atiga ham taalluqlidir.

Radd ul-matla‘ lafziy san‘atlardan biri bo‘lib, matla‘ning qaytarilishi degan ma‘noni bildiradi. Y.Ishoqov “Navoiy poetikasi” nomli tadqiqotida radd ul-matla‘ga shunday ta‘rif beradi: «Radd ul-matla‘ g‘azal yoki qasida matlaidagi misralardan birini keyingi baytlardan biri tarkibida yoki maqta‘da muayyan maqsad bilan yangicha stilistik aspektida takrorlash san‘atidir» [Is‘hoqov Y., 1983: 133].

Bobur g‘azallari nisbatan oz, hammasi bo‘lib 119 ta. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ulardan 8 tasida radd ul-matla‘ san‘ati qo‘llagan. Ular quyidagi matlalar bilan boshlanuvchi g‘azallardir:

1. Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,
Tiyra bo‘ldi ro‘zgorim ul qaro qoshdin yana. [Bobur, 1994: 19]
2. Xush ulkim, yordin qat‘ aylabon tarki diyor etsa,
Jahon kezmak bila beqaydlig‘ni ixtiyor etsa. [Bobur, 1994: 21]
3. Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo‘ldi?
Ul lutf ila ehson qani, ey yor, ne bo‘ldi? [Bobur, 1994: 30]
4. Ulki manga yori dilnavoz ko‘rindi,
Javrni ko‘rsatti ko‘pu oz ko‘rindi. [Bobur, 1994: 30]
5. Shohi Sulton Uvays bin Mahmud,
Mohi Sulton Uvays bin Mahmud. [Bobur, 1994: 27]
6. Kim ko‘ruptur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘. [Bobur, 1994: 73]
7. O‘lum uyqusig‘a borib, jahondin bo‘ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do‘stlar, ko‘rgaysiz uyquda. [Bobur, 1994: 15]
8. Bu g‘amda menki ishim fikrini ne nav‘ etayin,
Ne yerda sokin o‘lay, ne qilay, qayon ketayin? [Bobur, 1994: 53]

Bobur gʻazallarida radd ul-matlaʼ ushbu sanʼatning matlaʼ va maqtaʼga xos koʻrinishiga mansubdir. Radd ul-matlaʼning bu turi “sheʼrning butun qismlarini oʻz ichiga olgan halqaga oʻxshaydi” [Isʼhoqov Y., 1983: 136]. Unda matlaʼning birinchi misrasi maqtaʼda takrorlanib, gʻazalning bosh gʻoyasi, shoir gʻazalda oʻrtaga tashlagan fikr yana bir bor taʼkidlanadi. Shu bilan birga, radd ul-matlaʼ birinchi misraning oxirgi misradagi oddiy takrori ham emas, ular mazmun jihatidan ham, uslub jihatidan farqlanib turadi. Boburning quyidagi mashhur gʻazalini koʻrib chiqaylik:

Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,
Tiyra boʻldi roʻzgorim ul qaro qoshdin yana.
Men xud ul tifli parivashga koʻngul berdim, vale
Xonumonim nogahon buzilmagʻay boshtin yana.
Yuz yomonligʻ koʻrib ondin telba boʻldung, ey goʻngul,
Yaxshiligʻni koʻz tutarsen ul parivashtin yana.
Tosh urar atfol meni, uyida forigʻ ul pari,
Telbalardek qichqirurmen har zamon toshtin yana.
Oyogʻim yetkancha Boburdek ketar erdim, vale
Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana.

Ishqiy mavzudagi ushbu gʻazalning birinchi baytida lirik qahramon boshiga maʼshuq zulfining savdosi tushib, roʻzgorining tiyra – qorongʻu boʻlib qolganligidan shikoyat qiladi: «Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana». Ikkinchi baytda oshiq ogʻir ahvolining tasviri davom ettiriladi, u tifli parivash – bolasifat pariga koʻngil bergan, shuning uchun qoʻrqadiki: «Xonumonim nogahon buzilmagʻay boshtin yana». Uchinchi bayt lirik qahramon tiyra roʻzgorining sharhidan iborat: oshiq shuning uchun ham xonumonining buzilishidan qoʻrqadiki, u berahm yordan yuz yomonliklar koʻrib telba boʻlgan. Ammo shunday boʻlishiga qaramay, shoir maʼshuqaning yaxshilik qilishiga koʻz tutadi. Toʻrtinchi baytni gʻazalning avj nuqtasi deyish mumkin, maʼshuqadan vafu va shafqat kutish befoyda, u oshiqning achchiq iztirob va alamlariga befarq: «Tosh urar atfol meni, uyida forigʻ ul pari». Shuning uchun ham lirik qahramon beparvo maʼshuqadan ayoq yetkancha qochishga tayyor, ammo buning iloji yoʻq, chunki: «Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana».

Koʻrinadiki, birinchi va oxirgi misralar bir-birining aynan takroridan iborat boʻlsa ham, ular orasida mazmun jihatidan ham, sababiyat jihatidan ham farq bor. Birinchi misrada aytiladiki, oshiqning boshiga maʼshuqa sochining savdosi tushgan. Ikkinchi misradan boshlab to soʻnggi misragacha ana shu savdoning alamli manzaralari tasvirlangan, «sochining savdosi» tufayli uning «roʻzgori tiyra», «xonumoni buzilishi» mumkin, «telba boʻlgan», «ul pari» esa «uyida forigʻ!». Bu savdolarning barchasi uni «oyogʻi yetgan cha ket»ishga undaydi, biroq buning iloji yoʻq. Chunki uning boshiga maʼshuqa «sochining savdosi tush»gan.

Shunday qilib, birinchi misrada shoir «Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana» deyish bilan oʻz «qatigʻ hol»¹idan xabar bergan boʻlsa, oxirgi

¹ Навоий ибораси

misrada «oyoq yetgancha» keta olmasligining sababini izohlaydi. Negaki: «Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana».

Xullas, oshiqni alam-iztiroblar chekishga majbur qilgan ham, butun qalbi bilan intilgan narsasi ham «sochining savdosi». Agar birinchi misrada shikoyat ohanglari mavjud bo'lsa, oxirgi misrada o'z ahvolidan qoniqish tuyg'ulari sezilib turadi.

Boburning quyidagi mashhur g'azalida mazmun va ohang yaxlitligini ta'minlagan vosita ham radd ul-matla' san'ati:

Kim ko'ruptur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',
Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'.
Gar zamanni nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko'rmadim hargiz netoyin, bu zamondin yaxshilig'.
Dilrabolardin yamonliq keldi mahzun ko'ngluma,
Kelmadi joning'a hech oromi jondin yaxshilig'.
Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rding yomonlig' asru ko'p,
Emdi ko'z tutmoq ne ya'ni har yamondin yaxshilig'.
Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.
Yaxshilig' ahli jahondin istama Bobur kabi,
Kim ko'ruptur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'.

G'azalning birinchi baytida shoir o'z ko'ngliga murojaat etib, shikoyat qiladiki, jahon ahliga yaxshilik yo'q, shuning uchun ulardan yaxshilik chiqishiga ko'z tutmaslik lozim. Ushbu fikrni shoir ikkinchi baytda rivojlantiradi: u zamondan yaxshilik ko'rgan emas, shuning uchun uning bu zamanni malomat qilishi ajablanarli emas. Uchinchi baytda ham shoirning yaxshilikning yo'qligidan shikoyati mavjud, ammo u bu safar o'z shikoyatini zamon va zamon ahligidan dilrabolarga ko'chiradi: «Dilrabolardin yamonliq keldi mahzun ko'ngluma». To'rtinchi baytda shoir, birinchi baytdagi kabi, o'z ko'ngliga murojaat qiladi: u yaxshilardan benihoya ko'p yomonliklar ko'rgan, shuning uchun yomonlardan yaxshilik kutish butunlay befoyda. Matladan oldingi beshinchi bayt shoirning tiriklik shioridir. U o'ziga yoki kitobxonga yuzlanib, «bori elga yaxshilig' qil»ishga chaqiradi, to «Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'». Oxirgi, oltinchi baytdan ma'lum bo'ladiki, lirik qahramon «ahli jahon»dan yaxshilik ko'rishdan butunlay umidini uzgan. Bu holning sabablarini izohlagan shoir yana ko'ngliga yuzlanib, hayotning achchiq va shafqatsiz qonuni haqida shunday deydi: «Kim ko'ruptur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?»

So'nggi bayt shoirning hayotiy xulosasidir: «Yaxshilig' ahli jahondin istama...» Ana shunday mahzun xulosaga kelish sabablarini shoir g'azalning birinchi misrasida ma'lum qilgan edi: «Kim ko'ruptur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?» Bu jahonda har «dilraboyu oromijondan yaxshilig'» ko'rmaganini keyingi baytlarda bayon qilgan shoir so'nggi misrada yana avvalgi fikriga qaytadi: «Kim ko'ruptur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?»

Shunday qilib, g'azal lirik qahramonning o'z ko'ngliga qaratilgan ritorik so'rog'i bilan boshlanib, shunday so'roq bilan tugaydi. Radd ul-matla shoir

ifodalamoqchi bo'lgan hayotiy hikmatni qat'iy tarzda yana bir bor ta'kidlaydi: jahonda ham, jahon ahlida ham yaxshilik yo'q!

Agar e'tibor berilsa, Boburning radd ul-matla' san'ati qo'llangan g'azallarining kompozitsion jihatdan uch qismdan iborat ekanligi ko'zga tashlanadi: 1) muammo; 2) muammoning sharhi; 3) xulosa. Muhim jihati shundaki, g'azaldagi asosiy fikr uning ham tuguni, ham yechimi sifatida keladi. Boburning quyidagi g'azalida ham shunday holatni ko'rish mumkin:

Xush ulkim, yordin qat' aylabon tarki diyor etsa,

Jahon kezmak bila beqaydlig'ni ixtiyor etsa.

Oningdek bo'lsakim, aslo tafovut bo'lmasa paydo,

Agar bu dahr dun xor aylasa, gar e'tibor etsa.

Jafodur jong'a bo'lmog'lig' muqayyad olam ahlig'a,

Xush ul ozodakim, elning arosidin kanor etsa.

Kishining jonig'a dushman, balodur boshig'a bu el,

Agar boshing tufayl aylab va gar jonin nisor etsa.

Diyoru yordin Bobur jafovu javr ko'p ko'rdi,

Xush ulkim, yordin qat' aylabon tarki diyor etsa.

1-bayt: agar kishi yordan uzilib, yurtini tark etsa, yorga bog'lanib qolmay, jahongashtalikni ixtiyor etsa, qanday yaxshi!

2-bayt: shunday bo'lsaki, agar bu teskari aylanuvchi dunyo kishini xor aylasa ham, e'tibor ko'rsatsa ham, unga parvo qilmasa.

3-bayt: olam ahliga bog'lanib qolish kishining joniga jafodir, elni tark etgan ozodavash kishi qanday yaxshi!

4-bayt: agar kishi boshini fido aylab, jonini bag'ishlasa ham, el-ulus kishining joniga dushman, boshiga esa balodir.

5-bayt: Bobur diyori bilan yoridan ko'p javru jafu ko'rdi, agar yordan uzilib, yurtini tark etsa qanday yaxshi bo'lardi!

Shoir g'azalning birinchi misrasida g'azal g'oyasini shunday ifodalaydi: «Xush ulkim, yordin qat' aylabon tarki diyor etsa». So'fiyona mazmun bilan sug'orilgan mazkur g'azal o'zining asosiy g'oyasi hamda tasvir yo'nalishi bilan «yaxshilig'» radifli g'azalga o'xshab ketadi. Ushbu g'azalda ham Bobur jahon hamda jahon ahli haqida fikr yuritadi. Agar avvalgi g'azalda jahon va jahon ahlidan yaxshilik ko'rmaganligidan shikoyat qilsa, bu g'azalda shoir jahon va jahon ahlini butunlay rad etadi, diyorini tark aylab, jahon kezmaklikni, yordan qat' aylab, beqaydlik ixtiyor etish lozimligini uqtiradi.

Keyingi baytlarda ushbu g'oya rivojlantirib boriladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Bobur g'azallarida tez-tez yuz ko'rsatuvchi «yor va diyor» o'z ma'nosidan tashqari, «jahon va jahon ahli» ma'nolarini ham ifodalaydi. G'azalning ikkinchi bayti to'laligicha jahon tasviriga bag'ishlangan. Bobur olamni «dahri dun» – teskari dunyo deydi. Teskari aylanuvchi falak kishini goh xor aylashi, goh esa hurmat-e'tiborini orttirishi mumkin. Ammo kishi xor bo'lganda qayg'uga botmasligi, e'tibori ortganda esa ortiqcha quvonib ketmasligi lozim, ya'ni: «Oningdek bo'lsakim, aslo tafovut bo'lmasa paydo, Agar bu dahr dun xor aylasa, gar e'tibor etsa».

Uchinchi bayt olam ahli haqida. Avvalgi baytdagi fikr chuqurlashtirilgan: olam ahli bilan aloqada bo'lish, unga bog'lanib qolish jonga jafodan o'zga narsa emas. Eldan o'zini «qat' aylagan» – eldan aloqani uzgan kishi esa ozodadur. 4-bayt Boburning boshqa 5 baytli g'azallari singari g'azalning avj nuqtasi. Lirik qahramon chuqur afsus bilan qayd etadiki, olam va olam ahliga umid bog'lash butunlay befoyda, agar kishi boshini fido aylab, jonini bag'ishlasa ham, ulardan jonga faqat dushmanlik, boshga faqat balo yetadi.

Maqta'da shoir yana yor va diyor tasviriga qaytadi, yor va diyor, jahon va jahon ahli haqidagi fikrlariga xulosa yasaydi: «Diyoru yordan Bobur jafu va javrni juda ko'p ko'rdi, bas, jahon va jahon ahli kishiga dushman ekan, undan kishi boshiga faqat balo, zorlik kelar ekan, «Xush ulkim, yordin qat' aylabon tarki diyor etsa». SHunday qilib, shoir birinchi misrada o'rta tashlangan asosiy g'oyani keyingi baytlarda sharhlay borib, so'nggi baytda misrani takrorlash bilan asosiy fikrni yana bir bor ta'kidlaydi.

Boburning radd ul-matla' san'ati qo'llangan g'azallarida ko'zga tashlanuvchi yana bir xususiyatni qayd etish lozim: bunday g'azallarda birinchi misrada ifodalangan fikr, kechinma yoki holat ko'pincha shoirning biror masala haqidagi umumiy mulohazasi tarzida yuzaga chiqsa, so'nggi misrada bevosita shoirning o'zi (lirik qahramon) bilan bog'lanadi.

Boburning quyidagi g'azalida ham birinchi misra umumiy mulohaza tarzida, so'nggi misra esa Bobur shaxsi bilan bog'langan:

Shoh Sulton Uvays bin Mahmud,
Moh Sulton Uvays bin Mahmud.
Qaddu og'zingdin ayru tortarman,
Oh Sulton Uvays bin Mahmud.
Meni yod ayla bazmi ishqingda,
Goh Sulton Uvays bin Mahmud.
Xushturur hamrohing agar sensen,
Roh Sulton Uvays bin Mahmud.
Podshohdur agarchi Bobur, lek
Shoh Sulton Uvays bin Mahmud.

Obrazli qurilish jihatidan unchalik murakab bo'lmagan ushbu g'azal Sulton Uvays bin Mahmud ismli kishiga bag'ishlangan. Birinchi misrada Sulton Uvays bin Mahmud umumiy tazda shoh deb ta'riflanadi. Lekin so'nggi misrada Sulton Uvays bin Mahmud shohligining Bobur bilan bog'liqligi bor. Baytda iyyom san'ati qo'llangan, undagi «sulton» so'zini ikki xil tushunish mumkin: 1) ism ma'nosida – Bobur podshoh bo'lsa ham, lekin Sulton Uvays bin Mahmud shohdir. Lekin bu holda baytning ma'nosi to'liq bo'lmaydi, shoirning nima demoqchi ekanligini tushunib bo'lmaydi; 2) podshoh, hukmdor ma'nosida – Bobur podshoh bo'lsa ham, lekin Uvays bin Mahmud sultonlarning shohi, ya'ni shohanshohdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur devonidagi radd ul-matla san'atini tadqiq va tahlil etish shoirning so'z san'ati sirlarini teran anglab yetgan va doimo kashfiyotchilikka intilgan, ijod jarayonida rang-barang an'anaviy tasvir usullarining qator yangi imkoniyatlarini ochib, g'oyaviy va badiiy jihatdan yetuk

gʻazallar yaratishda ulardan mohirona foydalangan ustoz sanʼatkor ekanligidan dalolat beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzbek adabiyotining boshqa koʻpgina namoyandalari bilan qiyoslaganda unchalik sermahsul ijodkor emas. Yuqorida aytilganidek, uning devonida hammasi boʻlib 119 ta gʻazal mavjud, xolos. Lekin ulardan sakkiztasida radd ul-matlaʼ sanʼati qoʻllangan. Agar Atoiy va Sakkokiy devonlarida faqat bittadan gʻazalda, Navoiy devonidagi 2600 gʻazaldan 34 tasida radd ul-matlaʼ [Ishoqov Yo., 1983: 134] qoʻllanganini esga olsak, Boburning bu sanʼatga nechogʻli ahamiyat berganligi maʼlum boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Бобур Захириддин Муҳаммад. Девон. – Тошкент: Фан, 1994.
2. Захириддин Муҳаммад Бобур. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Ёзувчи, 1994.
3. Исҳоқов Ё. Навоий лирикасида композицион-стилистик санъатлар / Навоий ва ижод сабоқлари. - Тошкент: Фан, 1981.
4. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Санъат ва адабиёт нашриёти, 1972.
6. Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. 4-том. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

Adilova Dilorom,
filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori
(PhD), Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHAXSIYATI, INSONIY SIFATLARI

Annotatsiya: Sharq mutafakkirlarining boy maʼnaviy-axloqiy merosi, ularning pedagogik qarashlari, ayniqsa, odob-axloq, insof, diyonat, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi gʻoyalari insonni har tomonlama rivojlantirishda asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan XV asrda yashab ijod etgan mutafakkir Z.M.Boburning maʼnaviy-axloqiy qarashlarida asosiy oʻrin tutgan vatanparvarlik, mehnatsevarlik, saxovatlilik, jasurlik, odoblilik va yaxshilik kabi fikrlari barkamol inson shaxsini tarbiyalashdagi ahamiyati toʻgʻrisida maʼlumot berilgan.

Kalit soʻzlar: Maʼnaviy-axloqiy qadriyat, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik, saxovatlilik, jasurlik, odoblilik, yaxshilik, vatanparvarlik, himmat, maʼmurlik va vafo.

Abstract: The rich spiritual and ethical heritage of Eastern thinkers, their pedagogical views, especially their ideas about ethics, honesty, religion, conscience, hard work, scientific knowledge, and humanity serve as the main

means for all-round development of a person. From this point of view, the importance of patriotism, hard work, generosity, courage, decency, and goodness, which played a central role in the spiritual and moral views of Z.M. Babur, a thinker who lived and created in the 15th century, is given information about the importance of educating a well-rounded human personality.

Key words: Spiritual and moral value, hard work, scientific knowledge, humanity, generosity, courage, decency, goodness, patriotism, diligence, administration and loyalty.

*“Bobur badiiy merosi millat birligi, millat yaxlitligi
degan kamyob bir tuyg‘uni jonlantiradi”*
Ibrohim Haqqulov

Zahiriddin Muhammad Bobur shoh va buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, boburiylar sulolasining asoschisi, tarixchi, ruhshunos, adolatli hukmdor, nozikta‘b shoir, tarjimon, etnograf va geograf olim, ko‘p mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan, tadbirli diplomat, betakror g‘azallari bilan o‘z davridayoq nomi jahonga tanilgan, Hindistondan ulkan mamlakat hukmdori bo‘lishiga qaramasdan, ona yurti hajrida yuragi pora-pora olamdan o‘tgan ajoyib zot.

O‘zbekistonning istiqlolga erishishi bilan mamlakatimizda qadriyatlarimizga tegishli ulkan xazinani qanday bo‘lsa, shu holicha o‘rganish, uni tadqiq etish va chanqoq o‘quvchilarga yetkazish baxtiga muyassar bo‘ldik.

Alloma Boburning buyuk “Boburnoma” asarida o‘ttizdan ortiq fanlarga oid yuksak darajadagi ilmiy ma‘lumot berilgan.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda XV-XVI asrning shiddatli, bir-biriga zid jarayonlarini, Bobur shaxsiyati, insoniy sifatleri, fazilatlari hamda ijodini o‘rganish, uning tarbiyaga oid chuqur mazmunli fikrlari tahlil etishga kirishildi. Pedagogika sohasida buyuk ajdodlarimiz madaniy merosini yangi tamoyillar asosida o‘rganish, ularni ob‘ektiv, ilmiy asosda tadqiq etish imkoniyati mutafakkir ijodini ta‘lim-tarbiya bilan bog‘lab o‘rganishga keng yo‘l ochdi.

Pedagogika fanlari doktori Oynisa Musurmonova ma‘naviy qadriyatlarga qarata “...ma‘naviy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovot bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu istagi, e‘tiqodi, axloq qoidalarini o‘zida mujassam etgan, amaliy hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda ahamiyatli, avloddan-avlodga o‘tuvchi ijtimoiy hodisadir. Ma‘naviy qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarining ifodolovchi va saqlovchi qudratli omilidir” [Musurmonova O., 1996: 5] - degan ta‘rifni ta‘rif bergan.

Axloqiy qadriyatlarni esa qo‘yidagicha bayon etgan: “Axloqiy mazmundagi qadriyatlar o‘quvchining ongi va faoliyatini faollashtiradi, ish va so‘z birligini ta‘minlashga olib keladi. Bunday qadriyatlar jumlasiga: insonparvarlik, ma‘rifatparvarlik, mehr-muhabbat, poklik, kattalarga, ota-oanga hurmat, muhabbat, xush muomilalaik, do‘stlik, saxiylik, saxovat, bolajonlik, shirinso‘zlik va boshqalar kiradi. Mazkur qadriyatlar negizida jamiyatda, oilada, maktabda o‘quvchini yuksak

insoniy fazilatlarga ongli ravishda amal qilishga undash g‘oyasi yotadi”. [Musurmonova O., 1996: 70]

Darhaqiqat, mutafakkirlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy-axloqiy qadriyatlaridan bahra olish, kelgusida barkamol avlod bo‘lib o‘sib unishining asosidir. O‘z milliy tarixi, madaniyati, dunyoda eng katta boylik bo‘lgan intellektual hamda ma’naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashib, asrab avaylash hamda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Halqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan oliy bahodir” deb nomlangan asarida “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”. [Mirziyoyev Sh., 2018: 181] Binobarin o‘zbek milliy pedagogika tarixi, buyuk vakillari qoldirgan adabiy meros hozirgi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda hamda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ta’lim va fan sohasini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar ijrosini ta’minlanishiga ham xizmat qiladi. [O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida, 2017:1-2]

Bashariyat tarixida Renessans - uyg‘onish davrida ulkan kashfiyotlar, misli ko‘rilmagan qurilishlar, global o‘zgarishlar yuz bergan, daholar yetishib chiqqan. Prezidentimiz “Ustoz va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan ma’ruzasida: “O‘n beshinchi asrda Sohirqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi”, deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, 3-Renessansni intellektual salohiyatli yoshlarimiz bilan barpo etishda Z.M.Bobur asarlari muhim ahamiyat kasb etib, uning shaxsiy hayot yo‘li barchaga o‘rnak va namuna maktabidir. Boburdagi mardlik, botirlik, jur‘at, zukkolik va donolik, kelajakka ishonch bilan qarash, har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotmaslik, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchanlik, el – yurt, Vatan uchun fidoiylik, ularga nisbatan har doim daxldorlik hissining ochiq ko‘rinib turishi, farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor shular jumlasidandir.

“Boburnoma”ni ko‘chirgan noma’lum kotib Boburning podsho sifatidagi quyidagi sakkiz asl sifatini, ya’ni fazilatini ta’kidlar ekan, uning shijoat va muruvvatda tengsizligini ham tilga oladi: “birinchisi shuki – muvaffaqiyatlari baland edi; ikkinchisi – himmati arjumand (aziz himmatli) edi; uchinchisi – viloyat olmoq; to‘rtinchisi – viloyat saqlamoq; beshinchisi – ma’murluk; oltinchisi – Tengri taolo bandalariga turmush kengchiligi (yaxshi ahvol) niyati; yettinchisi – lashkarning ko‘nglini qo‘lga olish; sakkizinchisi – adolat qilmoqlik”. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008: 4]

Zahiriddin Muhammad Boburning yuqoridagi sakkiz sifatini o'ziga xos tarzda tahlil qilish mumkin:

“BIRINCHISI SHUKI – MUVAFFAQIYATLARI BALAND EDI” ...Bu ta'rifda Boburning nufuzi, obro'-e'tibori balandligini nazarda tutilgan. Haqiqatdan, Bobur o'n ikki yoshidan boshlab yurtni boshqarishga kirishganida Amir Temur saltanatini butun saqlash, temuriyzodalar orasida nifoq o'rniga do'stlik, hamjihatlik o'rnatishni o'z oldiga asl maqsad qilib qo'yadi...

“IKKINCHISI – HIMMATI ARJUMAND(AZIZ HIMMATLI) EDI” ... Zahiriddin Bobur hukumdorlikda temuriy shahzodalar orasida himmati balandlardan edi. Uning fikricha, podshohlikning asosiy sifatlaridan biri adolat bilan ish yurita olishdir...Bobur himmatni faqat iqtisod bilan belgilamaydi, balki do'stga ardoqli va bag'rikeng bo'lmoqni davlat boshqaruvining bosh omillaridan hisoblaydi. Uning fikricha, podshohni hamisha sodiq kishilar o'rab turishi kerak. Ularga ishonchsizlik, sadoqatsizlik, ularning maslahatisiz ish yuritish saltanatni inqirozga olib borishi bilan teng...

“UCHINCHISI – VILOYAT OLMOQ” ...Zahiriddin Boburning bobosi Amir Temurga ko'proq o'xshab ketadigan xislatlaridan biri ham shudir. Movorounnahrda benasib qolgan Bobur Kobulni egallar ekan, bu hudud iqlimi, boyligi va moddiy imkoniyatlarini obdon o'rganadi. Faqat iqtisodiy imkoniyatlarga tayanib davlat boshqarsa, moliyaviy tanglikka uchrab, inqirozga yuz tutishi muqarrarligini his etadi. Askarlar uchun zarur sarf – xarajatlar va boshqa chiqimlar uchun bu yurtdan olingan daromad kamlik qilishini bilgan Bobur uchun Amir Temur saltanati tasarrufidagi yerlarni egallash, imkon boricha, kengaytirish va asrash orzuga aylanadi...

“TO'RTINCHISI – VILOYAT SAQLAMOQ”...Tarixiy faktlar hamda “Boburnoma” shunday dalolat beradiki, Bobur tomonidan qayta bunyod etilgan temuriylar saltanati o'zining rasm – odati, qoida – qonuniga amal qilish, iqtisodi, hisob – kitobi, mustahkam qo'shinni asrash va uni ta'minlash kabi masalalarni davlat boshqaruvining asosiy omili, deb bilgan...

“BESHINCHISI – MA'MURLIK” ...Zahiriddin Boburning davlatdorligi va bu borada Amir Temur yo'lidan borgani alohida tadqiqotga arzirli mavzu. Biroq Bobur ma'murligi, fuqarolarning davlat tuzumidan roziligi masalasi faqat temuriylar xukumronligi davrining emas, balki barcha zamonlar va davlatlar barqarorligining yetakchi muammosi bo'lib kelgan. Bobur fikricha, adolat bilan ish yuritish har qanday ma'murlik asosini tashkil etadi. Faqat adolatli tuzum haqiqiy ma'murlik asosini yuzaga keltiradi.

“OLTINCHISI – TENGRI TAULO BANDALARIGA TURMUSH KENGCHILIGI (YAXSHI AHVOL) NIYATI” ...Bobur siyosatida andisha, avf etish, bechoralarga ko'mak berish kayfiyati hamisha ustun bo'lgan. Adashganni kechirish, musulmonchilikka, shariat ahkomiga bo'ysunish uning xarakteri va davlat boshqarish siyosatning negizi hisoblangan...

“YETTINCHISI – LASHKARNI KO'NGLINI QO'LGA OLISH”... Boburning yurtlarini zabt etish siri ehtimol, shu tushuncha bilan bog'liqdir... Bobur kimning qaerdanligi, millati va nasabiga qarab emas, balki sadoqati mardligi va fidoiyligi, g'alabaga qo'shgan hissini hisobga oladi...

“SAKKIZINCHISI – ADOLAT QILMOQ” ...Boburning adolatga doir fikrlariga o‘rta asrlar yaxlit feodal davlati davomchisi sifatida, shoh qarashlari nuqtai – nazaridan yondoshmoq lozim... Bobur nazdida navkaru beklarning saodati munosib taqdirlanishi kerak. Shu aqidaga u hamisha sodiq qolgan... [Qudratullaev H., 2005: 26-55]

Boburning hukumdor sifatidagi yutuqlari ham shoir, adib, olim qiyofasidagi muvaffaqiyatlari ham aslida uning shijoat va himmatiga daxldor edi. Zero, Boburning boshqa go‘zal sifat va xususiyatlarini mana shu ikki xislatdan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki u himmat va shijoatni insondagi barcha oliyjanob fazilatlarning asosi deb hisoblagan. Shuning uchun Bobur she‘rlarini o‘qiganida ham “Boburnoma”ni mutoalaa qilganda ham o‘quvchi o‘zi o‘ylamagan bir tarzda inson taqdiridagi barcha ma‘naviy, axloqiy, ruhiy muvaffaqiyatlarga aynan shijoat va himmat yo‘li bilan erishilishiga qat‘iy ishonch hosil qiladi.

Boburning tunganmas ma‘naviy xazinasini hisoblanmish asarlarini bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda, ya‘ni ularda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mehr-oqibatlilik, mas‘uliyatlilik, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish uchun yetkazib berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston” -2018. 181-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, 2-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // Xalq so‘zi. 2017- yil 8- fevral, № 28(6722) –B.1-2.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2008. 285 b.
5. Qudratullayev H. Bobur armoni. - T.: “Sharq” 2005, - B. 26-55.
6. Musurmonova O. Ma‘naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi; umumta‘lim maktablari uchun. - T.: “O‘qituvchi”, 1996. -192 b.

Rasulov Dilshod,
tarix fanlari nomzodi,
Madaniy meros agentligi

CHET ELLARDA SAQLANAYOTGAN BOBUR QO‘LYOZMALARI BORASIDA

Annotatsiya: Maqolada Bobur qalamiga mansub bo‘lgan “Boburnoma”, “Voqe‘oti Boburiy”, “Nasihatnomai Boburshoh”, “Volidiya”, “Mubayyin” kabi asarlar qo‘lyozmalarining xorijiy davlatlar fondlarida saqlanayotgan nusxalari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Bobur, qoʻlyozma, nusxa, madaniy meros, reestr, fond.

Annotation: The article provides information about copies of manuscripts of Babur's works, such as "Baburnama", "Vakeati Babury", "Nasikhatnamai Baburshah", "Validia", "Mubayyin" stored in foreign funds.

Key words: Babur, manuscript, copy, cultural heritage, register, fund.

Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida oʻzining siyosiy-ijtimoiy, badiiy-falsafiy faoliyati bilan kelgusi avlodlarga ulkan ilmiy-maʼnaviy meros qoldigan, temuriylar xonadonining atoqli namoyandasi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ning ilmiy merosi hali-hanuz mutaxassislarining alohida tadqiqot obʼekti boʻlib qolmoqda.

Bobur adabiyot va sheʼriyatda oʻziga xos umrboqiy asarlar yaratish bilan birga davlat arbobi va sarkarda sifatida ham buyuk ishlarni amalga oshirgan. U Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, sulolaning qariyb toʻrt asrlik faoliyatiga zamin yaratdi. Adibning "Boburnoma" asari bugungi kunda ham zamonasining koʻplab tarixiy-badiiy jarayonlarini oʻzida aks ettirgan mashhur asarlar qatoridan joy olgan. Uning ilmiy merosi turkiy tilda bitilgan sheʼriyatning nodir durdonalaridan boʻlib, hamon tadqiqotchilarni oʻziga jalb qilib kelmoqda.

Bobur asarlari 16-asrdan bizning davrimizga qadar yer sharining barcha qitʼalari – Amerika, Afrika, Yevropa, Osiyoga tarqalgani hamda u yerlarda maʼlum bir darajada eʼzozlanayotgani soʻzlarimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda ushbu meros insoniyatning madaniy boyligi sifatida 30 dan ortiq mamlakatdagi turli ilmiy muassasa (muzey, arxiv, kutubxona, fond, turli jamgʻarma va boshqa)larda saqlanmoqda.

Boburning ilmiy merosi bugungi kunga qadar oʻzbekistonlik va xorijlik oʻnlab mutaxassislar tomonidan oʻrganilgan, ular yuzasidan yuzlab ilmiy maqolayu risolalar eʼlon qilingan. Olimning asarlari turli tillarda qayta-qayta chop etilgan [Bobur 2017; Babur 2016]. Shunday boʻlsa-da, Bobur ilmiy merosini oʻrganishga boʻlgan qiziqish xali xanuz davom etmoqda.

Biz ushbu maqolada Boburning maʼlum bir asari yoki uning ilmiy ahamiyati borasida soʻz yuritmasdan, balki, alloma qalamiga mansub asarlarning yer yuziga tarqalganligi geografiyasi koʻrsatib oʻtmoqchimiz. Bunda asosiy etibor zamonaviy tarjima va tadqiqotlar kabi nashrlarga emas, qoʻlyozmalar va ularning saqlanish joyiga eʼtibor qaratildi.

Madaniy meros agentligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida xorijiy davlatlarda saqlanayotgan Muhammad Rizo Ogahiy, Haydar Xorazmiy, Husayn Boyqaro, Husayn Voiz al-Koshifiy, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz ijodiga mansub 3000dan ortiq qoʻlyozmaning ilmiy tavsifi Reestr sifatida chop etildi [Reestr. 1-tom. 2020; Reestr. 2-tom. 2024; Reestr. 3-tom. 2024; Toʻplam 2020]. Shuningdek, ushbu kitoblarga Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub quyidagi 7 nomdagi asarning qoʻlyozma nusxalari haqidagi maʼlumotlar kiritildi:

Boburnoma – 37 ta.

Voqeʼoti Boburiy – 15 ta.

Devon – 7 ta.

Volidiya – 5 ta.

Mubayyin – 3 ta.

Kulliyot – 1 ta.

Nasihatnomai Boburshoh – 1 ta.

Mazkur qo‘lyozmalarni saqlanish joyi bo‘yicha davlatlar va muassasalar kesimida quyidagi ko‘rinishda tavsif qilish mumkin.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi

- Bodlean kutubxonasi (Oksford):

Boburnoma (3 ta),

Voqe‘oti Boburiy (5 ta).

- Britaniya kutubxonasi (London):

Voqe‘oti Boburiy (9 ta).

- Britaniya muzeyi (London):

Boburnoma (14 ta),

Devon (1 ta),

Voqe‘oti Boburiy (1 ta).

- Hindiston ishlari bo‘yicha boshqarma (London):

Boburnoma (5 ta).

- Shotlandiya milliy kutubxonasi (Edinburg):

Boburnoma (1 ta).

Germaniya Federativ Respublikasi

- Berlin davlat kutubxonasi (Berlin):

Volidiya (1 ta),

Mubayyin (1 ta).

Ozarbayjon Respublikasi

- Ozarbayjon FA Muhammad Fuzuliy nomidagi qo‘lyozmalar instituti (Boku):

Boburnoma (1 ta).

Rossiya Federatsiyasi

- Rossiya milliy kutubxonasi (Sankt-Peterburg):

Boburnoma (2 ta).

- Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari instituti (Sankt-Peterburg):

Boburnoma (3 ta),

Mubayyin (1 ta).

- Sankt-Peterburg davlat universitetining M.Gorkiy nomidagi ilmiy kutubxonasi (Sankt-Peterburg):

Boburnoma (1 ta).

- Qozon Federal universiteti N.I.Lobachevskiy nomli ilmiy kutubxonasi qo‘lyozmalar bo‘limi (Qozon):

Nasihatnomai Boburshoh (1 ta).

Tojikiston Respublikasi

- Tojikiston Respublikasi FA Rudakiy nomidagi Til, adabiyot, sharqshunoslik va yozma meros instituti (Dushanbe):

Boburnoma (1 ta).

Turkiya Respublikasi

- Istanbul universiteti kutubxonasi (Istanbul):

Volidiya (1 ta),

- Devon (1 ta).
- Istanbul shahar kutubxonasi (Istanbul):
Devon (1 ta).
- To'pkapi saroyi kutubxonasi (Istanbul):
Volidiya (1 ta),
Devon (1 ta).
- Fransiya Respublikasi**
- Fransiya milliy kutubxonasi (Parij):
Boburnoma (4 ta).
- Eron Islom Respublikasi**
- Caltanat kutubxonasi (Tehron):
Volidiya (1 ta).
- Eron milliy kutubxonasi (Tehron):
Boburnoma (1 ta),
Kulliyot (1 ta),
Mubayyin (1 ta).
- Hindiston Respublikasi**
- Nyu Dehli milliy muzeyi (Nyu Dehli):
Boburnoma (1 ta).
- Rampur Raza kutubxonasi (Rampur):
Volidiya (1 ta),
Devon (1 ta).
- Salarjang muzeyi (Haydarobod):
Devon (2 ta).

Reestr bilan tanishish orqali Babur asarlarining xoriydagi nusxalari haqidagi ma'lumotlarga to'liqroq ega bo'lish mumkin. Kitobda ayrim qo'lyozmalarning tarjimoni, ko'chiruvchisi, ko'chirilgan davri, hajmi va deyarli barchasining tegishli fondagi saqlanish inventar raqamlari ko'rsatib o'tilgan. Lekin, shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, biz Boburning xoriydagi merosiga oid ma'lumotlarni "to'plab bo'ldik" degan mulohazadan uzoqdamiz. Hozirgi kunda ushbu reestrning 4-tomi uchun malumotlar to'plash jarayoni davom etmoqda.

Yuqorida nomlari zikr etilgan qo'lyozmalar haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, Reestrlarga jamlangan ushbu ma'lumotlar "informativ" xarakterga ega bo'lib ular ushbu asarlar ustida ilmiy, tahliliy, qiyosiy tadqiqot olib borish uchun keng yo'l ochadi. Yana bir munosabat, ushbu nusxalarning xoriyda saqlanishi, ayni vaqtda ular o'sha yerlardagi xalqimizning "madaniy agentlari" sifatida qadrlanib kelinayotganidir.

Adabiyotlar:

1. Бобур номидаги халқаро жамоат фонди. Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. -Тошкент: "Шарқ", 2017. – 688 б.
2. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бабуриды: библиография / автор-составител Ш.Ш.Рустамхужаев.– Москва: Издательство восточной литературы, 2016. – 1183 с.

3. Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликлар – маданиятимизнинг ажралмас қисми: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш маркази / Таҳрир ҳайъати: Р.Баҳодиров (бош муҳаррир), Ў.Султонов, А.Эркинов, Ж.Илясов, А.Мусакаева, Д.Расулов, О.Мадалиева. – Тошкент: “Zabarjad media”, 2020. – 224 б.

4. Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри. 1 том. // Масъул муҳаррир Р.Баҳодиров. Тузувчилар: фал.ф.д., проф. Р.Баҳодиров, фил.ф.д. А.Эркинов, т.ф.д. Ў.Султонов, т.ф.н. С.Муҳаммадаминов, т.ф.н. Д.Расулов, С.Ғуломов, К.Бекова, О.Мадалиева, Ф.Хуснутдинов. -Тошкент: “Tasvir”, 2020. – 496 б.

5. Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри. Том 2. – Тошкент: “Tasvir”, 2024. – 384 б.

6. Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри. Том 3. – Тошкент: “Tasvir”, 2024. – 536 б.

7.<https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html>

8.<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/allomalar/zahiriddin-muhammad-bobur-1483-1530/>

9.<https://staff.tiiame.uz/storage/users/425/books/aMuXynXf7uY5TLApflxq4m6GHnbaWcdrwb13m8XH.pdf>

Темирова Гулмира Алибековна,

Андижан мамлекеттик педагогикалык институти

Орус, кыргыз тилдери жана адабияты

кафедрасынын улук окутуучусу

ЗАХИРИДДИН МУХАММЕД БАБУР ЖАНА АНЫН ЛИРИКАЛАРЫ

Аннотация: Мақалада Захириддин Муҳаммед Бабур жөнүндө, анын жасаган иштери, кандай инсан болгондугу айтылат. Ошондой эле Бабурдун айрым лирикалык ыр саптары талдоого алынып, акындын жеке адамдык сапаты тууралуу сөз болот. Анын өмүрү жана жасаган иштеринин, чыгармачылыгынын адамзат турмушунда орду чоң экендиги айтылат.

Түйүндүү сөздөр: Бабур, көп кырдуу талант, Бабурдун лирикасы, рубай, казал, туюк, месневи, фард.

ANNOTATION: The article talks about Zahirid Muhammad Babur, what he did, what kind of person he was. Some of Babur’s lyrical poems are also analyzed and the poet’s personal qualities are discussed. They say that his life, work and creativity occupy a large place in a person’s life.

Key words: Babur, multifaceted talent, Babur's lyrics, rubai, ghazal, tuyuk, mesnevi, fard.

Чыгыш элдеринин жана адабиятынын тарыхында, анын ичинде кыргыз элинин тарыхы менен адабиятында да Захириддин Мухаммад Бабур мырзанын ээлеген орду чоң экени талашсыз чындык.

Ал мамлекет башкаруучусу, коомдук ишмер жана аскердик ири жетекчи болуу менен бирге эң сонун тубаса таланттуу зор чыгармачыл инсан да болгон. Бабур өтө жаш кезинен тартып кат-сабатын ачкан жана илим-билимге, маданиятка кызыгуусу өтө эрте башталган. Ал тарабынан жазылган казалдар, рубаилер, көркөм чыгармалары, илимий эмгектери бүгүнкү күндө да өз маанисин жоготкон жок. Ал эми аскердик ишке машыгуусу, ууга чыгууга болгон кызыгуусу, аң уулоосу булардын баары Бабурдун көп кырдуу, ар тараптуу өнүккөн инсан катары өз заманынын эң алдыңкы инсан болгонун ырастайт.

Өз журтун таштап кетүүгө аргасыз болгон Бабур алгач Афганстанды, кийин Индияны багынтып, ал жерлерде өз бийлик салтанатын орнотуп, тарыхта белгилүү болгон империяны негиздегенинин өзү эле анын өз доорунун жөнөкөй гана катардагы инсаны эмес, белгилүү инсаны болгонун көрсөтүп турат.

Ооба, Бабур өмүрүнүн аягына чейин Индияда жашады, Аграда дүйнөдөн кайтты, сөөгү Кабулга коюлду. Бирок, ал өмүр бою өз мекенин эстеп жашады. Андижан, Андижандан жыйырма төрт километр алыстыктагы Ош шаары, андагы Сулайман Тоосу, шаардын эң кооз жайларына болгон сагынычы, кусалыгы бир да мүнөткө болсо да эсинен кетпей өмүр сүрдү.

Аны Бабурдун рубаилеринен, чыгармаларынан да байкоо кыйын эмес:

Көрүнбөйт кыйры мекеним калган алыста,
Оюн-зоок, шаттык туулган жерде калышкан.
Мен өзүм каалап, көктүккө салып кеткенмин,
Шылтоо да, жол жок кайрылып артка барышка!

[Шериев Ж., 2000: 201]

Бул ыр саптарынан Бабурдун алыста калган өз мекенине болгон сагынычын, кусалыгын билип алабыз. Ал эми «Оюн-зоок, шаттык туулган жерде калышкан» деген ыр сабын окуганында ар бир инсан жүрөгү сыздап кетет. Демек, Бабур бул жашоодо жашап туруп, бирок оюн-зоок, шаттык дегенди билбейт, кайгылуу жашайт. Оюн-зооктор, шаттыктар баары ошол өз мекенинде калган. Улуу Бабур үчүн улуу болуп турса да, эч кандай жагымдуу окуялар, жакшы күндөр да аны кубанта албайт. Акын кайгыга чөмүлүп жашоого мажбур, аргасыз. Бул кандай кыйын, жүрөк ооруткан көрүнүш. Кана, колдон келсе, акындын каалаганын орундата алсаң. Бирок, арга жок, аны акын өзү да айтып жатат: «Мен өзүм каалап, көктүккө салып кеткенмин, шылтоо да, жол жок кайрылып артка барышка!».

Тар жолдо дайым эл жөлөк болот эмеспи,

Азаптуу күндө элимден уктум кеңешти.

Ачылды көңүл, а бирок калды түпкүрдө,

Арылбай менден кусанын тагы эң эски! [Шериев Ж., 2000: 202]

Кандай гана ыр саптары ээ. Бабур дайыма эл менен бирге, элдин кеңешин угат, ага таянат, акындын эң негизги жөлөгү да – эл! Азаптуу

күндөрдө элдин кеңешин угат, көңүлү ачылат, бирок жүрөгүнүн түпкүрүндө эч арылбай турган, кетпей турган эски кусанын тагы дагы эле турат.

Ой-кырга сүйрөп жашоонун өктөм агымы
Калтырды менден үйүмдү, мал-жай, багымды.

Таажылуу башым кириптер болуп ар ишке,

Өксүтүп кайгы сындырды далай шагымды. [Шериев Ж., 2000: 202]

Бабурдын рубаилеринен мекенге болгон кусалыкты сезип, туюп окуганында, бүгүн өз мекенибиздин, ушул биз турган Андижандын топурагы, суусу, абасы, үй-жайыбыз, үй-бүлөбүз, мал-жайыбыз, багыбыз канчалык ал үчүн кадырлуу болгонун окуп, айланага башкача көз менен карап алабыз десек жаңылбайбыз. Анткени, бул саптардан мекенибиздин кадыр-баркы эң баалуу жана теңдеши жок кымбат экенин билебиз. Бабурду жашоонун өктөм агымы ой-кырга сүйрөп кетти. Анын үйү, мал-жайы калды, таажылуу башы ар түрдүү сыноолорго, кыйынчылыктарга кириптер болду. Мекенинен алыста болгон Бабур кайгыга батып, эчен жолу шагы сынды. Ошентсе да, ал өз максатын ишке ашырып, алыскы бөтөн журттарда Бабурийлердин адилеттүү империясын негиздеп, өтө зор далай иштерди турмушка ашырды.

Ооба, Бабурдун лирикалык ырлары анын адамзатка калтырган баа жеткис зор мурасы болуп саналат.

Анын лирикалык ырларынан, рубаилеринен адамдык сапатты бийик туткан адилеттүү өлкө башчысы болгонун көрүүгө болот.

Ооматың келип алтын баш жетсе дөөлөткө,

Уу тырмак болуп элинди салба мээнетке.

Беш күндүк өмүр, кыйшайр баштан ооматың,

Эчен жан өткөн күч менен элди жөөлөткөн. [Шериев Ж., 2000: 201]

Бабурдун жогорку саптарынан улам, ал ооматы келип, дөөлөткө жеткен алтын баш өз элине уу тырмактуу болуп, элин кыйнап жибербестигин эскертип жатат. Андан ары өмүр беш күндүк, баштан ооматың да кетет, күч менен элди кыйнаган, жөөлөткөн жандардын эчени өтүп кеткенин айтат.

Ар качанда таза болсун да – намысың, жүрөгүң,

Өзгөлөр да сага адам, адил болор билемин.

Өзгөлөргө зордук кылсаң – өзүң жабыр көрөрсүң,

Кыянаттын курбаны болуп кордук менен өлөрсүң. [Шериев Ж., 2000: 201]

Биз тараптан тандап алынган жогорку Бабурдун рубаилеринен алынган айрым үзүндүлөрдү Маматибраим Жаныбеков которгон. Рубаиде инсанды ар качан намысы, жүрөгү таза болсун да, эгер ошондой болсоң, сага башка адамдар да адил болот, билем дейт акын ыр саптарында. Эгер адам башкаларга зордук-зомбулук көрсөтсө, өзү жабыр көрөт, ошол кыянаттын курманы болуп, кордук менен өтүп кетээрин эскертет. Акындын эң чоң максаты элди кыйнабай, адил башчы болуу эсептелет. Инсандагы адамгерчилик, мээримдүүлүк, намыстуулук, таза жүрөктүүлүк, адилдик сапаттарын акын даңазалайт.

Жанрдык жагынан Бабурдун поэзиясы Чыгыштын классикалык салты менен шай келишип, көп түрдүүлүгү менен айырмаланат. Казал, рубаи, туюк, месневи, фард жана башка жанрлар Бабурдун лирикасын камтып турат.

Бабур чет элде жашаса да өзүнүн эски өзбек тилин унутпай, чыгармаларын ошол тилде жазып келген. Анын чыгармаларынан эң жогорку орунду автобиографиялык чыгармасы «Бабур наме» ээлейт. Бул чыгармасы өзбек классикалык адабиятында теңдешсиз чыгармалардан болуп эсептелет. Ал дүйнөнүн көптөгөн тилдерине, анын ичинде кыргыз тилине да которулуп, жогору бааланган.

Азыркы учурда Андижанга келип калсаңар, шаарда Бабурдун атына коюлган эң көрүнүктүү жайлар бар: Багу Бабур, Бабур айкели, Бабурдун символдук күмбөзү, Бабур атындагы борбордук китепкана жана башка эң кооз жайлар бар. Бул да болсо, Бабурдун мекендештери эч качан унутпай турганын далилдеп турат.

Дүйнөлүк тарыхта, дүйнөлүк адабиятта Захириддин Мухаммед Бабур түбөлүк из калтырган, анын чыгармалары адамзаттын жашоосунда өз ордун ээлеп жашай берет.

Пайдаланылган адабияттар:

1. Шериев Ж. «Байыркы адабияты тарыхы». Ош, 2000. - 218 б.
2. Акматалиев А. Байыркы орток түрк адабиятынын очерки. Окуу куралы. – Бишкек, 2001. –156 б.
3. <https://ky.wikipedia.org/wiki>

Hakimjonova Ra'no,
O'zMU o'zbek adabiyotshunosligi
kafedrası o'qituvchisi

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR LIRIKASIDA IJTIMOIY MOTIVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida uchraydigan ijtimoiy motivlar tadqiqiga bag'ishlangan. Shuningdek, ijtimoiy motivlarning Bobur ijodidagi ahamiyatiga tayanib, motivlar tasniflangan.

Tayanch so'zlar: motiv, an'anaviylik, devon adabiyoti, ijtimoiylik, sof san'at, ruboiy, g'azal.

Annotation. The article is devoted to the study of social motives found in the poetry of Zahiriddin Muhammad Babur. Motives are also classified based on the importance of social motives in Babur's work.

Keywords: motif, tradition, devon literature, sociality, pure art, rubai, ghazal. mystical teachings, exaggeration, modern poetry, traditional poetry.

Bobur nafaqat tarix sahnasiga, balki she'riyat maydoniga ham alohida ob-havo bilan kirib kelgan shaxsdir. Boburgacha bo'lgan she'riyatimiz tabiatiga an'anaviylik, bir xillik xos edi. Bobur she'riyatida shaxsiy dard, kayfiyat yarq etib ko'zga tashlana boshladi. G'azal janri, umuman devon she'riyati Navoiy va Bobur ijodigacha faqat ishqiy mavzuda yozib kelingan. Bu holni Abdurauf Fitrat ham o'z

izlanishlarida Lutfiy, Atoyilar asosan saroy bazmlarida soqiylik qilgan go‘zallarning ko‘z, qoshlarini vasf etganlarini ta'kidlab o‘tadi. [Fitrat A., 2000: 41]. Bundan ko‘rinadiki, ular hayotning ijtimoiy tomonlarini qalamga olishni she'riyatning vazifasi, deb bilmaganlar.

Adabiyot maydoniga biri vazir, biri shoh bo‘lgan faoliyat kishilari kirib kelishi bilan, turkiy g‘azal va boshqa she'riy janrlar mavzu jihatidan yangilandi, boyidi. Ular she'riyatga ijtimoiy nafas olib kirdilar. Albatta, bu bilan Lutfiylar avlodi yozgan ishqiy g‘azallar ijtimoiylikdan xoli edi, deb ham bo‘lmaydi. Chunki ular Temuriylar davri saroy bazmlari manzarasini bir qadar ochib beradi. Adabiyotshunos olim D.Quronov badiiy adabiyot ham ijtimoiy ong, ham san'at sohasi sifatida ikkiyoqlama mohiyatga egaligini aytib o‘tadi. [Quronov D., 2007: 25]. Shunga ko‘ra, mumtoz she'riyatimizda keng qo‘llangan sham va parvona juft motivlari qatida ijtimoiy hayot manzaralarini ham ko‘rish mumkin. Odamlar tun kirgach, sham yoqishgan va sham yorug‘ida ijodiy ilhom olishgan. “Ijtimoiylik shaxsning fitratidagi azaliy ibtido bo‘lib, u hamisha bo‘lgan va barcha davrlar adabiyotida o‘zini namoyon etadi”. [Hamdamov U., 2017: 16].

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosini asosan ruboiy va g‘azallar tashkil etadi. Bundan tashqari Bobur masnaviy, masnu', tuyuq, fard janrlarida ham samarali ijod etgan.

Masnaviylari, asosan, ishqiy maktub tarzida bitilgan. Zero, A.Fitrat ta'kidlaganidek: “Dostonlar maktublar (ko‘brak sevgi maktublari) masnaviy yo‘sunli yoziladir”. [Fitrat A., 2006: 54]. Masnu'lari yorga murojaat shaklida bitilgan.

G‘azal janri ko‘proq ishqiy mavzular uchun qulay bo‘lgani tufayli, Bobur g‘azallaridan ko‘ra ruboiylarida ijtimoiy motivlar ko‘proq uchraydi. Bobur lirikasida ijtimoiy motivlar biografik xarakterga ega.

Mumtoz adabiyotimizda ijtimoiy mavzudagi she'rlar Navoiy ijodidan boshlab yozila boshladi va takror-takror qo‘llanilishi natijasida motiv holiga keldi. Shulardan kelib chiqib Bobur ijodida uchraydigan nisbatan barqarorlashgan ijtimoiy xarakterdagi she'r namunalari tahlilga tortamiz.

1. Salaf shoirlar ijodida qo‘llanilgan motivlar:

Jahon va odamlarning, yoru do‘stlar va el bevafoolidan ezilgan hamda ulardan yiroq bo‘lishni maqsad qilgan lirik qahramon motivi:

Diyoru yordin Bobur jafoyu javr ko‘p ko‘rdi

Xush ulkim yordin qat' aylabon tarki diyor etsa, “Xush ul ozodakim, elning arosidan kanor etsa” yoki “Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul ahli jahondin yaxshiliq” kabi misralari Boburning sertashvish qismatida uning ko‘nglini yaralagan taqdir va do‘stu yor tufayli qalbida paydo bo‘lgan iztiroblar mahsulidir.

Navoiyda ham bunday motivlar ko‘p uchraydi:

Chun jahon birla jahon ahlig‘a yo‘q ermish vafo,

Ey Navoiy, men fano sarrishtasin mahkam tutay.

Bobur shoh shoir edi. Shu bois uning shohlik faoliyati bilan bog‘liq, doimiy el bilan muloqoti tufayli yuzaga kelgan turfa kechinmalari ham she'riyatda o‘z ifodasini topgan. Shulardan biri el bilan lirik qahramonning chiqisholmasligi motividir:

Ulfatim el birla ozdur, ko'pdur el javri manga,
Ne mening tavrimga yoqar elga, ne el tavrimga

yoki

Go'shae tutsam jahonning elidin g'am ko'rmasam,
Istaram el ko'rmasa meni, men ham ko'rmasam

Shu bilan birga, elga yaxshilik qilish, xayr ulashishni o'zi uchun doimiy dasturilamal deb bilgan Bobur shaxsi ham namoyon bo'ladi:

Bori elga yaxshilik qilg'ilki mundin yaxshi yo'q,
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.

Navoiy ijodida ham bu motiv yuqori pardalarda kuylangan edi:

Manga ishq dardi emas muhliku bas,
Zamon dardi, ahli zamon dardi hamdur.

Bobur ruboiylarida uchraydigan yana bir xarakterli motiv bu may motividir. Bobur ijodida may tasavvufiy emas, balki ijtimoiy mazmun kasb etadi. Bunday ruboiylar Umar Xayyom merosida ham salmoqli o'rin tutadi: "Kel, kelki dami o'lturubon may icholing, Dunyo g'amiyu ranjidan zamone kecholing". Bobur mayni taqdir va falakdan kelayotgan tashvishlardan qutulishning chorasi sifatida ham, ko'ngilga xush keluvchi bahor, yoz fasllarining bezagi sifatida ham tarannum etadi:

Bahor faslidur may havosi boshimda,
Ayoq tut manga, soqiyki, xush xavoyidur.

yoxud

Yoz bo'ldiyu bo'ldi yana jannat kibi yozi,
Xush ul kishikim, aysh ila o'tgay qishu yozi

Bobur may motivini o'ziga xos tarzda ko'pincha fasllar bilan bog'lab tasvirlaydi. Bahor, yoz fasllari may motivi bilan deyarli yonma-yon ifodalanadi:

Bahor ayyomidur dog'i yigitlikning avonidur,
Ketur soqiy, sharobi nobkim ishrat zamonidur.

"Xush ulki bahor fasli bu dunyoda, Mendin gazagu taom, sendin boda", "Xotirni bahor faslida gasht oladir", "Yoz fasli yor vasli do'stlarning suhbatini, Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor" misralari ham mazkur motivning turfa xil ko'rinishlaridir. Atrof-muhitdan, qismatdan zada bo'lgan shoir "men"i ko'bmarta mashaqqatni ifoda etadi:

Necha bu falak solg'usi g'urbatqa meni,
Har lahza tugongusiz mashaqqatqa meni.
Ne chora qilay, netayki tengri go'yo,
Mehnatni menga yaratdi, mehnatga meni.

Yoxud "Menkim, g'amu mehnat bila xu qilmishmen" misralarida Boburning mashaqqatga to'la qismati manzaralari gavdalanadi.

2. Bobur ijodiga xos bo'lgan motivlar:

Bobur ruboiylarida bot-bot duch kelinadigan eng faol motiv bu jamiyat bilan, yaqinlari bilan birgalik hissini tuyish va undan rohatlanish motividir. Bobur faoliyat insoni bo'lgani, ya'ni shoh bo'lgani sababli ko'pchilikning huzurini, ahbobning birlashuvi, totuvligini istagan. Shu mazmundagi qator ruboiylariga duch kelamiz devonda:

Ahbob, firoqingiz birla el netgay,
Sizlarga kishi ne chora aylab etgay?
Jam'iyatingizni jam' tutqay tengri,
Boburni dog'i bu jam'da jam' etgay.

yoki

Ahbob yig' ilmoqni farog'at tutungiz!
Jam'iyatngiz borini davlat tutungiz!
Chun gardishi charx bu durur, tangri uchun,
Bir-birini necha kun g'animat tutungiz! –

kabi ruboiylarida yaqinlari, do'stu yor, a'yonlari bilan birgalikni Haqdan kelguvchi davlat deb biladi va uni g'animat tutmoqni avvalo inson, ham shoh sifatida ularga nasihat qiladi.

“El suhbatiniki orzu qilmishmen, Ne xushlug' ila bu guftugu qilmishmen” ruboiysi, “Ahbob yig'inidin necha qolg'oymen”, “Ahbobdin ijtinob qilmoq mushkil”, “Ey el, borib ahbobqa nomimni degil”, Yoki g'azallarida “Do'stlarning suhbatida ne xush o'lg'ay bahsi she'r” kabi misralari Bobur shaxsining yolg'izlikdan ko'ra, ko'pchilikning diydori va huzuriga tolib bo'lganini ko'rsatadi.

Boburga qadar hammom mavzusi she'riyatimizda ishlatilgan emas. Bobur ushbu mavzuni motiv darajasiga etkazdi. Uning ruboiylarida “Hammomki qildim ko'rungizkim ayyom”, “Hammomki, ark ichinda paydo qildim” kabi ifodalarga duch kelamiz.

Bobur she'riyatiga xos etakchi motivlardan yana biri bu vatan sog'inchi motividir:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z erni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin ne yuz qarolig' bo'ldi.

Vatan sog'inchi motivi Boburgacha bo'lgan she'riyatimizda yo'q edi. Ma'lumki, musofirlikdagina, vatandan judolikdagina Vatan sog'inchi tuyiladi. Sog'inch tuyg'usining o'zi yiroqlikni talab etadi. Shu boisdan Boburni Hind sori yuzlashtirgan taqdir har nafas vatan sog'inchini ham Bobur qalbida tomir yozdiraveradi va bu tuyg'ular she'riyat bag'ridan o'ziga qo'nim topadi.

Boshqa bir ruboiysida “Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi, oh”, desa, yana birida “Oyirdi meni bir yo'li xonumondin”, “Ko'pdin berikim yoru diyorim yo'qtur” kabi armon tavsirlarini ko'ramiz.

“Ijtimoiylik darajasi epik va lirik asarlarda jiddiy farqlanadi. Ba'zan lirik asarlarda ijtimoiylikdan asar ham yo'qday ko'rinadi. Ayrimlar, xususan, “sof san'at” tarafdorlari ayni shu holni mutloqlashtirmoqchi bo'ladilar, she'riyat faqat ko'ngil ishi bo'lishi kerak degan gaplar eshitiladi. Xo'sh, insonning ko'nglidagi tuyg'ular, iztirobu quvonchlarning o'zi kelib chiqish jihatidan ijtimoiy emasmi?” [Quronov D., 2007: 27].

“Biroq yaratilishi jihatidan, dunyoga munosabat, o'sha dunyo tufayli paydo bo'lgan hissiyotlar, fikrlar nuqtayi nazaridan tom ma'noda shaxsiy hodisadir”. [Quronov D., 2007: 27].

Bobur she'riyatga realistik ruh olib kirdi. Chunki uning lirik merosi shaxsi va hayotidan suv ichadi. Shunga ko'ra, "Boburnoma"da ko'ndalang qo'yilgan masalalar epik ko'lamda bo'lib, lirika tabiatiga zid bo'lgani bois shoir ijtimoiy voqelikdan yuzaga kelgan hislarini she'rga solgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Boburning ayrim she'rlarining yozilishidagi ijtimoiy ahamiyat haqida tayaniladigan birlamchi manba Boburnomaning o'zidir.

Boburning ijtimoiy mazmundagi she'rlari ko'p. Biz motiv darajasiga etganlarini tahlilga tortdik. Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda Bobur lirikasida qo'llanilgan ijtimoiy motivlarni salaf shoirlar ijodida takrorlanib kelgan motivlar hamda Bobur ijodiga xos bo'lgan motivlar, deya tasnifladik. Zero, motiv tushunchasining o'zi ham "bir shoir ijodi yoki bir davrda yashagan shoirlar ijodi doirasida takrorlanuvchi poetik obraz"dir. [Quronov D., 2010: 180].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. – T.: "Fan", 1994.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: "Yulduzcha", 1989.
3. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. – T.: "Ma'naviyat", 2000.
4. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. – T.: "Ma'naviyat", 2006.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: "Fan", 2007.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: "Akademnashr", 2010.
7. Hamdamov U. XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Avtoreferat. – T., 2017.

Jurayeva Dilafruz,
Samarqand viloyati pedagogika
markazi katta o'qituvchisi

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BADIY-FALSAFIY QARASHLARINING MANBALARI, TADRIJI VA YETAKCHI TAMOYILLARI

Annotatsiya: maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning bizgacha yetib kelgan asarlari ma'naviyatimiz xazinasining bebaho durdonalaridan ekanligi ta'kidlangan. Uning asarlaridagi inson barkamolligi, ma'naviy - axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari bugungi kunda ham qimmatliligi bayon etilgan. Bobur badiiy ijodida ishlatilgan jumla, ibora, so'zlarni badiiy mahorat nuqtai-nazari bilan tadqiq etish g'olib va mag'lub shaxs psixologiyasi orqali davr ijtimoiy siyosiy holatini ochib berish imkoniyatini yaratganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy - axloqiy tarbiya, badiiy mahorat, g'olib va mag'lub shaxs psixologiyasi.

Abstract: the article says that the works of Zakhiriddin Muhammad Babur that have reached us are among the priceless masterpieces of the treasury of our spirituality. The value of his ideas about human perfection and spiritual and moral education in his works is still affirmed today. It is explained that the study of

sentences, phrases and words used in Babur's work, from the point of view of artistic skill, created the opportunity to reveal the socio-political situation of that time through the psychology of the winner and loser.

Key words: spiritual and moral education, artistic skill, psychology of winner and loser.

Falsafa tarixi umuminsoniy falsafiy tafakkurning rivojlanish yo'lini yagona jarayon sifatida aks ettiradi, falsafaning tarixiy tahlili, ijtimoiy jarayonlarni tuzumli tahlili amalga oshiradi.

Bobur o'zbek badiiy-estetik tafakkurda tabiatni estetik talqinini olib kirgan, badiyatning lirik janrini rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning lirik merosi hajman uncha katta bo'lmas-da, mavzu doirasi, g'oyaviy mohiyati va shakliy takomili bilan ajralib turadi. Bobur tor davrasida o'z davrining shoirlari bilan mushoiralar uyushtirib turgan. Demakki, uning ijodi shu vaqtlarda charxlangan. "Boburning bizgacha yetib kelgan lirik merosi 4000 misraga yaqin bo'lib, ular g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard va masnaviylerden iborat". [Xasanov S., 2011:11] Bobur lirikasi ma'lum darajada shoirning avtobiografiyasidir. Uning o'ynoqi va ta'sirchan, sodda va ravon tilda aytilgan she'rlari hayotiy hodisalar va turmush voqealari zaminida namoyon bo'ladigan shoirning qalb tug'yonlarini ifodalaydi.

O'z hayoti davomida charxning ne-ne jabru jafolarini tortgan, "ahli jahondin yaxshilig"ni kam ko'rgan, sharoit taqozosi bilan "o'z yurtni qo'yib, hind sorig'a yuzlangan" mutafakkirning ijodida o'z davrining yetuk olimlar, arboblarni asarlari, qarashlari asosiy manba vositasini o'tagan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O'zbek xalqining dovrug'ini dunyoga taratgan ulug' ajdodlarimizdan biri o'laroq, ul zot bizni tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o'rgatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xor bo'lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi. Biz Bobur Mirzoni ulkan davlat arbobi sifatidagina emas, qomusiy alloma, mumtoz shoir sifatida ham cheksiz qadrlaymiz. Bobur o'zbek xalqining buyuk farzandi, milliy g'ururidir". [Karimov I., 1996:158]

Boburning "Boburnoma"si nafaqat tarixiy, ilmiy asar, balki turkiy (chig'atoy) tilining ko'pligidan foydalanib, yuksak mahorat bilan yozilgan badiiy asardir. Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida, axloqiy-estetik, ijtimoiy-siyosiy qarashlarida inson aql-zakovatini ulug'lab – inson bunyodkor, bilim olish – kamollikka yo'l, tinimsiz ijodiy, halol mehnatga, hayot haqiqatini qidirishga intilishi kabi tamoyillar ustuvor bo'lgan. Ammo inson aql-zakovatini tarbiyalash, o'tmishdoshlarning hayotiy tajribasiga va o'z tajribasiga tayangan holda kamol toptirish kerak bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur bilim olish, ilmiy haqiqatlarni anglashga erishish yo'lida uchragan murakkabliklarni, goho esa o'tib bo'lmas to'siqlarni juda yaxshi his etar edi.

Bobur o'zini Alisher Navoiyning iste'dodli shogirdlaridan biri deb hisoblagan. Ular bir-birlariga xat orqali muloqot qilishgan, lekin ikki mutafakkir uchrashmagan. Bobur lirikasi o'sha davr Sharq mumtoz she'riyatining g'azal,

ruboiy, tuyuq, masnaviy va boshqa janrlarida mashhur bo'lgan. U o'z badiiy-falsafiy ijodida chinakam muhabbat, tabiiy tuyg'ular, oliyjanob insoniy fazilatlarni kuylagan. O'z vatanini tark etishga majbur bo'ldi, Vatan haqida, hayot mazmuni haqida she'rlar yozgan, xalqni san'atga, bilim olishga chorlagan. Boburning ma'naviy merosini turli davrda turlicha talqin qilindi. "Zahmatkash olimlar Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayevlar tomonidan 1948-1949 yillarda "Boburnoma"ning ikki jildligi kirill yozuviga tabdil qilinib, chop etilgan. Shu yillari "Boburnoma" sharqshunos Mixail Sale tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, kitob holda bosilib chiqqan". [Xasanov S., 2011:19]

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si qimmatli manba bo'lib, unda Bobur o'zining kelib chiqishi, urushlari, Hindistonda tashkil etgan imperiyasi haqida batafsil ma'lumot beradi. Bobur Qobulda yashagan paytda yarim ko'chmanchi kishi edi, u turli tillarning urf-odat va an'alarini yaxshi bilgan. "Boburnoma" asarida kishi va joy nomlari ko'p bo'lsa-da, ular qiziqarli va o'qishga qulay. Bobur merosi tariximizni kelajak sari yetaklovchi haqiqatdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, sharqshunoslar tomonidan e'tiborga olinmaydi. 1980 yilda YuNESKO Fransuz tiliga yangi tarjima uchun tanlov e'lon qilgani buning isbotidir.

"Boburnoma" nafaqat tarixiy-ilmiy asar, balki turkiy (chag'atoy) tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda yuksak mahorat bilan yozilgan badiiy asardir. To'g'ri, bu nasriy asarning asosiy obyektini tarixiy voqealardir. Biroq muallif o'sha tarixiy voqealarni hikoya qilish bilan cheklanmaydi. Bu badiiy asarga xos bo'lgan metafora, tenglama, metateza, epitet, giperbola va hokazo. "Boburnoma"da bezaklardan mohirona foydalanilgani beixtiyor diqqatni tortadi.

"Boburnoma"da turkiy tilli xalqlarning ertaklari, maqollari, iboralari, metaforalari ko'p uchraydi. Bobur bu asarida o'z davrining adabiy tili – chag'atoy tilidan foydalanadi. Buni "Boburnoma"ning istalgan sahifasini ochish bilan isbotlash mumkin. Demak, "Boburnoma" muallifi, shubhasiz, tarixiy voqealarning yorqin tasvirini obrazli so'zlar bilan yaratgan iste'dodli ijodkordir. Ayniqsa, o'zi bevosita ishtirok etgan qonli janglar, qirg'inbarot urushlarni tasvirlashda o'ziga xos badiiy mahoratni ko'rsatgan.

Bobur ijodida bugungi turkiyzabon xalqlar, ya'ni o'zbek, turkmanlar haqida hikoya qilinadi. O'sha asrning qator o'zbek xonlari, jamoat arboblari, qahramon va shoirlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bu asarda qadimiy o'zbek zaminining tabiati ko'rgan, qo'l tegizgandek yorqin tasvirlangan.

Bobur o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlarida mardlik va jasoratni ulug'laydi. XIX asrning taniqli sharqshunosi N.I.Veselovskiy shunday fikr bildirgan: "Boburning qahramonligi deyarli cheksizdir. Uning butun umri qahramonlik namunasidek tuyuladi. U hatto ikki yuz kishilik otryadi bilan Shayboniyning o'n besh ming qo'shini bo'lgan Samarqandni egallashda ham tavakkal qildi. U nafaqat tavakkal qildi, balki haqiqatan ham dushmani shahardan haydab chiqardi. Bobur o'ziga xos qurollar yordamida qudratli Hindistonni Ibrohim Lo'didan tortib oldi". [Belova N., 1997: 49]

Bobur o'z yurti – tog'lar, daryo va ko'llar, o'rmonlar, hayvonot va qushlarning tabiatini yuksak badiiy-estetik mahorat bilan tasvirlaydi. Bobur

sinchkov bo‘lgan. Muallif ta’riflab bera olmaydigan hayratlanarli manzaralarni lirik misralarda tasvirlaydi. Jahonga mashhur sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold “Boburnoma”ga yuksak baho berib, uni “turk tilidagi nasrning eng yaxshi namunalaridan biri” deb atagan. Bir so‘z bilan aytganda, “Boburnoma” chinakam qomusiy asardir. U turli sohalar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Boburning bu asarida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari shuningdek, adabiyoti, tili va etnografiyasiga oid noyob materiallar to‘plangan.

Bobur arab, fors va turkiy tillardagi she’rlarning yozilishi, tuzilishi, bo‘g‘in soni haqida qiziqarli mulohazalar beradi. U turkiyda bitilgan she’riyatda uzun va qisqa bo‘g‘in almashtirish usulida yangi estetik qimmatga ega, sharqona nafislik bag‘ishlaydigan – aruzni yaratdi. Arab va fors she’riyatida aruz haqida ko‘plab ilmiy risolalar Boburdan oldin ham yozilgan. Turkiy she’riyat hali nazariy jihatdan o‘rganilmagan edi. Bobur X-XV asrlardagi oltmishdan ortiq she’riy she’rlaridan parchalar keltirar ekan, “haqiqiy she’r faqat arab yoki fors tillarida yoziladi, turkiy til yuksak badiiy she’r yozishga yaramaydi”, degan fikrni qat’iyan rad etadi. Boburning eng muhim asari uning nomini avloddan avlodga o‘tkazib, tarix sahifalarida abadiy qoldirgan “Boburnoma”dir.

Boburning butun hayotini o‘z ichiga olgan bu avtobiografik asar har yili sodir bo‘lgan muhim tarixiy voqealarni hikoya qiluvchi xronikadir. “Boburnoma” shak-shubhasiz, iste’dodli shaxs qalamiga mansub, boy, majoziy tilda yozilgan haqiqiy san’at asaridir. Unda Bobur yaratgan jonli tasvirlar, ohangrabo so‘zlar, tabiat manzaralari va boshqalar o‘ziga xos badiiy-estetik mahorat bilan tasvirlangan. Demak, bir paytlar barcha turkiy qabilalar tushunadigan chig‘atoy tilida yozilgan “Boburnoma” bugungi kunda qaysi xalqning yodgorligi hisoblanadi. “Boburnoma” o‘zbek xalqi tarixi, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek tili va ma’naviy hayotining boshqa sohalariga qanchalik aloqador edi. Bir paytlar o‘zbek ziyolilari “Boburnoma”ni o‘zbek xalqi tarixi asari sifatida tan olishgan. Bunday munosabat bildirish noto‘g‘ri hisoblanadi. Chunki Boburning bu asari keyinchalik o‘zbek, turkman va boshqa turkiy xalqlarning etnik tarkibiga kirgan qabilalar haqida hikoya qiladi. Bu asarda bir qator o‘zbek xonlari, qahramonlari, jamoat arboblari, shoirlari haqida juda qimmatli ma’lumotlar mavjud. Qadimgi o‘zbek zaminidagi qishloqlar, daryolar, ko‘llar, tog‘lar, shuningdek, o‘simlik va hayvonlar haqida gap ketadi.

“Boburnoma” turkiy tilli xalqlarning ertaklari, maqollari, iboralari, metaforalariga tez-tez duch keladi. Demak, “Boburnoma” muallifi majoziy tilda tarixiydir. U, shubhasiz, voqealarning yorqin manzarasini yaratgan iste’dodli rassomdir. Ayniqsa, o‘zi bevosita ishtirok etgan qonli janglar, qirg‘inbarot urushlarni tasvirlashda o‘zining mahoratini ko‘rsatadi”. [Boburnoma, 2002:156]

Boburning o‘z she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo “Boburnoma”ning 1518-1519-yillar voq‘ealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Qobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan.

Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy

iqtisodiy hayoti bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo'ljallangan "Mubayyin"da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to'g'risida ham shar'iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she'riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, "Xatti Boburiy", shuningdek musiqa san'ati va harb ishlariga maxsus bag'ishlangan qator risolalari ham bo'lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. "Xatti Boburiy"da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

Boburni Hojagon tariqatiga bo'lgan yuksak ehtiromi, diniy-falsafiy sohada egallagan bilimi uni "Mubayyin" asarini yozishga turki bo'lgan. Masnaviy shaklida yozilgan ushbu asar hafif bahrida foilotun-mafoilun-foilun qolipida bo'lib, jami 2258 baytdan tashkil topgan. Asarga xanafiya mazhabida islom asoslari asos qilib olingan bo'lib, kitobi imon, kitob-us-salot, kitob-us-zakot, kitob-us-savm, kitob-ul-haj kabi beshta bosh bo'limdan iborat. Asarning ayni paytga qadar topilgan 8 ta qo'lyozmasi mavjud bo'lib, ular asosida bir qator ilmiy nashrlar tayyorlangan. Jumladan, S.Hasanov (2000), T.Seyhan (2004), H.Hasanov (2011) kabi olimlar tomonidan o'zbek va turk tillaridagi nashrlari e'lon qilingan.

"Boburnoma" Hindistonning davlat tili – hindiy tiliga Yugjit Navalpuriy tomonidan tarjima qilinib, 1974-yilda Yangi Dehlida Hindiston adabiyot akademiyasi tomonidan nashr etilgan.

Asar so'zboshisida "Boburnoma"ning ahamiyati haqida ingliz sharqshunosi F.Talbotning quyidagi so'zlari keltiriladi: "Hozirgi Hindistonni o'rganmoqchi bo'lgan kishi ishni, eng yaxshisi, Boburning xotiralarini mutolaa qilishdan boshlagani ma'qul. Bu nashrning qimmatli tomoni – unda izohlarning ko'pligidir. Agar 1960-yili o'zbek tilidagi nashrda 600 dan ziyodroq izoh berilgan bo'lsa, hindiy tilidagi nashrda ularning soni 2600 dan ziyod. Ayni paytda tarjimada ayrim nuqson va kamchiliklar ham yo'q emas. Lekin shularga qaramay, mazkur hindcha nashr "Boburnoma"dagi Hindistonga oid so'zlar ma'nosi va imlosini aniqlashda muhim ahamiyatga ega". [Valixo'jayev B., 1998: 6]

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Boburning diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-estetik qarshilarini bir tizimga solib o'rganish, Boburning ma'naviy merosini pedagogik, siyosiy, falsafiy, tarixiy, filologik tadqiqot obyektiga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Boburning yashagan davri siyosiy beqaror, diniy-mafkuraviy muhit hukmron bo'lgan bir davr bo'lib, mutafakkirning asarlarida bu aks etgan. Axloqiy-estetik kategoriyalarni o'z ijodida tahlil qilinishi o'z davridagi ijtimoiy muammolar, shaxsiyatdagi ziddiyatlar bilan bog'langan. G'oliblik va mag'lublik obrazida Bobur ikki shaxsli, ikki qiyofali ko'rinadi. Bunday shaxs qiyofasidagi psixologizm, ikki qiyofali jarayonni o'rganish va rahbar kadrlar tayyorlashda, yoshlarni tarbiyalashda ahamiyatini belgilash juda muhimdir.

Bobur axloqiy komillik haqidagi fikrlarida aql va ilmning rolini alohida qayd etadi. Uning so'zlariga ko'ra, biz qaragan har bir narsada yashirin xazina bor. Shoir milliy-diniy qadriyatlarni singdirish bilan birga, zamonga moslashishni ham

muhim, deb biladi. Chunki, har kim o‘z davrining farzandi. Mutafakkir sog‘lom fikrni baxtga olib borish yo‘lidir, deydi. O‘zini bilgan kishi yaratganni biladi va nafs zulmatidan poklanadi. Bu vaqtda inson qalbining sof, forig‘lanish jarayoni bo‘ladi. Sharq falsafasiga ko‘ra, qalb zangdan tozalanmaguncha yorug‘likni aks ettira olmaydi. Inson qalbi va yuzi mumtoz adabiyotda oynaga qiyoslanadi. Bu qalb nuri yuz va ko‘zlarda aks etadi. Uning ta’kidlashicha, inson ichidagi yorug‘lik kuchi bilan tirikligida abadiylikka erisha oladi.

Inson o‘z ruhiga qul bo‘lmasligi kerak, o‘zini tanigan odam ruhini aqliga bo‘ysundirib, mangulikka erisha oladi. Mutafakkir fikricha, aql Xudoning bizga bergan in‘omidir. Ruh aql bilan abadiy yashaydi. Yaratganning in‘omi bo‘lgan anglash qobiliyati, qalbidagi muhabbat va ishonch inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Shuncha hayotiy qiyinchiliklarga qaramasdan Bobur o‘z ma’naviyatini himoya qildi, ularni axloqiy qadriyatlarni bardavom tutdi, aql ko‘rsatgan yo‘ldan bordi va ilm eshiklarini qunt bilan ochib, o‘zi izlagan nurni topdi. Ana shu nur, ya’ni tafakkur nuri unga ijodiy ilhomni bergan.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Boburning badiiy-falsafiy qarashlarining manbalari, tadriji va yetakchi tamoyillari o‘z davrining yetuk mutafakkirlari, diniy arboblardan va ziddiyatli vaziyatlardan kelib chiqqan. Badiiy-falsafiy qarashlari g‘azallarida, she’rlarida aks etgan, tabiat va jamiyat hodisalari haqida g‘oyalar mavjud. Ikkinchidan, mutafakkirning ijodida fuqarolik tarixi, falsafa xususan, adabiyoti, til va etnografiyasiga oid materiallar to‘plangan. Diniy-axloqiy maqsadda yaratilgan asarlarining mazmuni bilan ommaga oson tanishtirish maqsadida Bobur o‘zining bor shoirlik mahoratini namoyish qilib uni nazmda yaratdi. Bu asarlar fiqh ilmi mutaxassislari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A., Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -Toshkent. 1996. – B. 158.
2. Xasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. - Toshkent. 2011.
3. Belova N.A., Veselovskiy N.I. Rus gumanitar fanlarining taniqli arbobi (qisqacha ma'lumot) - Sankt-Peterburg, 1997.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent. 2002.
5. Valixojayev B. “Boburnoma”ning yangi tarjimai. - Guliston. 1998.

Suyunova Shohsanam,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti tadqiqotchisi

TEMURIYLAR SAROYI SHOIRI KAMOLIDDIN BINOIYNING O‘ZBEKCHA SHE’RLARI VA BOBUR MIRZO BILAN MUSHOIRASI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mumtoz adabiyotimiz yorqin vakillaridan biri Binoiy ijodi va uning hukmdorlar saroyidagi faoliyatiga bag‘ishlanadi. Ma’lumki, fors- tojik shoiri Mavlono Binoiy Muhammad Shayboniyxon saroyida

xizmat qilgan va o'zbekcha she'rlar ham yozgan. Shuningdek, Binoiy "Shayboniynoma" nomli tarixiy asar muallifi hamdir. Kamoliddin Binoiy Sulton Husayn Boyqaro va Sulton Ya'qub Oqqo'yunli saroylarida xizmat qilgan. Saroy shoiri Kamoliddin Binoiy o'zbek xoni Muhammad Shayboniyxonning harbiy safarlarida ham hamrohlik qilib, u bilan doimiy she'riy bahslar va mushoiralar o'tkazgan. Mavlono Binoiy Samarqandda ma'lum muddat Bobur Mirzo saroyidagi adabiy majlislarda ham ishtirok etgan.

Kalit co'zlar: Muarrir, saroy shoiri, o'zbekcha she'rlar, adabiy kechalar, "Shayboniynoma", she'riy bahslar, qasidalar, temuriylar, shayboniylar, ruboiy.

Abstract: This scientific article talks about the specific features of the work of the historian and poet Binai. It is known that Maulana Binai, who was the court poet of Muhammad Shaibani Khan, wrote poems in Uzbek language as well as Persian-Tajik. Binai is also the author of the historical work "Shaybaniynoma". Kamoliddin Binai served in the palaces of Sultan Husayn Boykara and Sultan Yakub Aqkoyunli. The court poet Kamoliddin Binai accompanied the Uzbek khan Muhammad Shaibani Khan on his military trips and held constant poetic debates and discussions with him. Maulana Binai also participated in literary gatherings in Babur Mirza's palace in Samarkand for some time.

Keywords: Historian, court poet, Uzbek poems, literary environment, "Shayboniynoma", poetic debates, kasidi, Timurids, Shaybanids, rubai.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, mumtoz adabiyotimiz yorqin vakili, shoir, tarixchi va musiqashunos Kamoliddin Ali ibn Muhammad Sabz Binoiy (1453-1512) asosan uch hukmdor – Sulton Husayn Boyqaro, Sulton Ya'qub Oqqo'yunli hamda Muhammad Shayboniyxon saroylarida xizmatda bo'lgan.

Mavlono Binoiy sermahsul shoir bo'lib, 3 ta devon tuzgan. Shoir yana "Behro'z va Bahrom" dostoni, "Majma' ul-g'aroyib" ("Ajoyib voqealar majmu'i") qasidasi hamda "Shayboniynoma" va "Futuhoti xoniy" ("Xonning g'alabalari") tarixiy asarlarini yozgan. Shoir Binoiyning umri asosan saroyda o'tgan va o'z qasidalarida ko'plab hukmdorlarni madh etgan.

Birinchiidan, Mavlono Binoiyning Hirot adabiy muhitida o'z o'rni bo'lib, manbalar shoirning Sulton Husayn Boyqaro saroyi, Jomiy, Navoiy kabi ulug' shoirlar, vazirlar va boshqa ziyolilarning mushoiralarida ishtirok etib, g'azallar o'qiganini tasdiqlaydi: "O'zi yana so'z qasri ruknlarining mohir ustodi edi. Qudrat qo'li falak korxonasi rangini to'kmagay, undan bunyod asosli binoni biror kishi ko'rmagay. Fitrat muhandisi to'qqiz toqli falak ostida muqarnas yasashda bundayin ma'no qoidalaridagi ustodlikni hech kim eshitmagan. Lafz juzvlari ustaxonbandini uningdek choloklik bilan qo'yolmasdi. Baytlar qoidasi asosining guldastini hech kim uningdek dastur bilan bog'lamagan. Zamonasining fozillari zumrasida Sulton Husayn Mirzo Ko'ragon suhbatini (saroy adabiy majlislari)da doimiy bo'lardi". [Sharofuddin Roqim, 1998: 71-72] Binoiy ijodi haqida Navoiy "Majolis un-nafois"da to'xtalgan: "Bag'oyat qobiliyati bor. Avval tahsilga mashg'ul bo'ldi...Xatg'a ishq paydo bo'ldi. Oz fursatda obodon bitidi. Andin so'ng ilmi musiqiyg'a mayl ko'rganib, Advor ilmi bilan bot o'rganib, xili ishlar tasnif qilib

advorda dag'i risola bitidi...Bu sifati salbi uchun faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo'q erdi, o'z boshicha qilg'on uchun hech foyda bermadi... Har taqdir bila bu matla' aningdurkim:

Ba surma harki siyah, kard chashmi yori maro,

Basoni surma siyah kard ro'zgori maro. [Alisher Navoiy, 2012: 340-341]

(Mazmuni: Kimki yorimning ko'zlarini surma bilan qoraytirgan bo'lsa, xuddi surmadek mening ro'zg'orimni qora qildi.)

Ikkinchidan, Binoiy Hirotidan Oqqo'yunlilar saltanati poytaxti Tabrizga Sulton Ya'qub saroyiga kelib, Bobur iborasi bilan aytganda, "harifi majlis" (Majlis suhbatdoshi) bo'lgan. "Boburnoma"da shoir Binoiyning Oqquyunlilar saltanatiga, ya'ni Ya'qubbek saroyiga 1487-yilda borganligi zikr etilgan: "...Iroq va Ozarbayjonga Ya'qubbek qoshig'a bordi. Ya'qubbek qoshida yomon emas edi, harifi majlis(suhbatdosh) bo'lib edi. Ya'qubbek o'lgandan so'ng ul viloyatlarda turmay Hiri(Hirot)ga qaytdi". Ya'ni, Sulton Ya'qub Binoiyning o'z saroyida "harifi majlis"-suhbatdosh lavozimiga tayinlaydi. Zayniddin Vosifiyning yozishicha, Mavlono Binoiy Sulton Ya'qub bilan uchrashuvini shunday hikoya qilgan: "Tabriz viloyatiga yaqinlashdik. Ya'qubbek mulozamatiga musharraf bo'ldik. Bu dilnavoz shoh dedi: "Bizning diyorda sizlarga nimalar yoqdi?" Men: "Darvesh Dehakiy suhbatidan o'zga hech narsa yoqmadi", dedim. Darveshni madh va vasf qildim. Shoh Dehakiy huzuriga chorladi.

(Majlisda Dehakiy) Shoh bilan uchrashganda (yo'lda yozilgan) g'azalni taqdim etdi. Majlisda yuz chog'lik kishi o'tirgandi. Majlisda g'azalni tinglab, hammaning kayfiyati ko'tarildi. Podsho so'radi: "Hazrati Darvesh faqirdan nene talab qiladilar?" Darvesh: "Podshohimizning umrini tilaymiz", - dedi [Zayniddin Mahmud Vosifiy, 1979: 120] Binoiy Sulton Ya'qub huzuridagi ana shunday majlislarda ko'p marotaba ishtirok etgan. "Sulton Ya'qub vafot etgach, Binoiy Hirotga qaytib, Alisher Navoiy tomonidan yaxshi kutib olinadi va uning mushoiralarida qatnashishga muvaffaq bo'ladi. Ammo shu vaqtda askiyabozlik yig'inida qo'pol hazil qilib, Navoiyning dilini og'ritib qo'yadi...

Shundan so'ng Binoiy Samarqandga Sulton Ahmad Mirzo huzuriga ketadi. U bu shaharda Navoiyga bag'ishlab yozilgan "Majma' ul-g'aroyib" qasidasida ulug' shoirning mushoiralari unga jon bag'ishlovchi obi hayot ekanligini e'tirof etgan:

Hamchu obi hayot majlisi tu,

Ruhi jon ast ruhbaxshi jinon. [Sirojiddinov Sh., 1996: 49-54]

(Mazmuni: Sening majlising hayot suvi kabidir, U jonga ruh bag'ishlaguvchidir).

Mirzo Muhammad Haydar Do'g'latning yozishicha, Navoiy va Binoiy o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga quyidagi voqea sabab bo'lgan: "...Binoiydurki, bular ham fozil va shoir erdilar. Bularning Mir Alisherning orasida (majlislarda) hamisha bahslar o'tar erdi. Va ul zarofatki bularning orasida o'tibdur, mashhurdur.

Binoiy aytibdurki, Mir Alisherning boshig'a zarofatning havosi tushibdur. Mir Alisher ham zarofatlik bo'lg'aymu deb. Mir Alisher aytibdurki, Binoiy devona bo'lubdur. Binoiyning dorushshifog'a olib borib davolanglar va nuxudob beringlar,

debdu. Bu jihatdin Binoiy qochib Iroqqa borubdu. Iroqda Sulton Ya'qub tarbiyat qilubdurlar. Necha muddatda keyin yana yonib Hirotg'a kelibdu. Mir Alisher kishi yiborib chorlab olib kelibdu. Lutfu marhamat birla oshnoliq qilubdurlar. Va in'omu ehson ham qilubdurlar. Va o'tgan voqeag'a uzr aytibdurlar. Ondin Mir Alisher so'rabdurki, Iroq viloyati (Oqqo'yunlilar davlati) qandoq joy ekan, deb? Binoiy ayttilarki, iroqiylarning bir qismi ishi manga xo'b ko'rindiki, ular aslo turkiy she'r aytmas ekanlar. Mir Alisher ayttilarki, siz hanuz hushyor bo'lmagan ekansiz, mundoq taarruzni tark qiling. Oshnoliq va yorliq arosidagi ittihadning so'zini ayting, rost so'z aytingki, mening devonlarimning orasida qaysi matla'ni yaxshi ko'rdingiz. Binoiy aytiki, xalq arosida hammag'a bu matla' marg'ubdurki:

Ko'karakimdur subhning pirohanidin chokrok,
Kifrikim shabnam to'kulgan sabzadin namnokrok.

Mir Alisher aytiki, siz ajab e'tirozchi odam ekansiz, bu matla'ni men Mavlono Sohibdin sotib olib edim, bu jihatdin bu so'zni aytasiz, dedi. Binoiy aytiki, manga mundoq so'zni ravo ko'rmang, mening sizda taarruz qilg'ali haddim bormu? Men voqeani bilmas erdim. Mundin bo'lak yaxshi matla'laringiz ham bor. Bu matla' ham ondin yaxshiroqdurki:

Boshimizdin soyai sarvi qadding kam bo'lmasun,
Zoti poking bo'lmasa, olamda odam bo'lmasun.

Mir Alisher aytti, bu matla' Mavlono Lutfiyningdur. Siz hargiz taarruzni tark qilmabsiz, deb yana ikkovlon ozor yuzidin judo bo'lishdilar[5, 286-287 b]".

Albatta, 1492-yilga qadar Sulton Ya'qub Oq quyunli turkman (1478-1490) va Boysunqur (1490-1493) saroyida xizmat qilgan Kamoliddin Binoiy Samarqandga kelgach, dastlab Xoja Ubaydulloh Ahrorning ikkinchi o'g'li Xoja Qutbiddin Yahyo (1500-yil 11-avgust kuni o'ldirilgan) va Samarqand hukmdori Sultonali Mirzoning xizmatiga kirgan. 1496-yilning iyul oyida shoir va tarixshunos olim Muhammad Solih (1535-yilda vafot etgan) bilan birga ma'lum muddat Bobur Mirzoning xizmatida bo'lgan. Binoiy Boburning Samarqanddagi saroyi mushoiralarida qatnashgan, jumladan qasida, g'azallar va quyidagi o'zbekcha ruboiyni Bobur huzuridagi she'riyat kechalariga taqdim etgan. Bobur ta'biri bilan aytganda, "bu ruboiyning so'ng'gi misraining qofiyasini radif qilib, o'zga qofiya bila bir (turkiy tilda) bir ruboiy aytdi:

Mirzomki, shohi bahru bar bo'lg'usidur,
Olamda hunar birla sar bo'lg'usidur.
Bir muhmal uchun muncha inoyat bo'ldi,

Musta'mal agar desam, nelar bo'lg'usidur". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 81]

Uchinchidan, 1500-yil iyul oyidan boshlab u Muhammad Shayboniyxonning saroy shoiriga aylanadi. [Ahmedov B., 1994: 216] "Samarqand Muhammadxon Shayboniyxon qo'liga kirgach, unga mulozim bo'lib, xonning saltanat saroyi ichkilari qatorida xizmatda turdi". [G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir, 2013]

"Buxoro yohud Movorounnahr tarixi" kitobida Herman Vamberi bu haqda shunday yozgan: "Keyinchalik Movarounnahrqa ketib, Sulton Mahmud saroyi doirasida e'tibor qozongan va nihoyat, Shayboniy Muhammadxon uni saroy shoiri

qilib olgan”. [Herman Vamberi, 1990: 73] Binoiy Shayboniyxon bilan ko‘plab mushoiralar uyushtirgan.

Muhammad Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma”sida Mavlono Binoiy Shayboniyxon bilan harbiy yurishlarda ham birga bo‘lgani hamda safarlarda tashkil etilgan mushoira kechalarida ham qatnashgani qayd etilgan. Harbiy mahorabada mag‘lub bo‘lgan asir xonlar – Sulton Ahmadxon va Sulton Mahmudxonlarning avf etilishi munosabati bilan bir majlisda Binoiy turkiycha ruboiy aytgan: “Fazlu kamol binosining bonusu, diqqat va xayol asosining quruvchisi mavlono (Kamoliddin) Binoiy o‘sha voqeaga bag‘ishlangan bu ikki ruboiyni (o‘sha) mahalga munosib tuzib, (Shayboniy)xonning kimyoasar nazarlariga keltirdi.

(Birinchi) ruboiy:

Ul xonki tariqi karamu ehsondir,
Shohlar bori chashmu, jism aro jondir.
Gar muruvvat etib bag‘ishladi xonlarni,
Andin chi ajab xalifaturrahmondir.

(Ikkinchi) ruboiy:

Yo‘qdur, sendek arshad quvvatli xon,
Ham pok etak bilan futuvvatli xon.
Xonlarni olib bag‘ishladi muruvvat,
Kim ko‘rdi sening kabi muruvvatli xon”.

[Hofiz Tanish Al-Buxoriy, 1999: 74]

Shuningdek, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” asari - muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Akademik Bo‘riboy Ahmedovning yozishicha, Sharqshunoslik institutida 844-raqamda saqlanayotgan yagona nusxa hisoblangan bu nusxa (hammasi bo‘lib 41 varaqdan iborat, hajmi 22X 31,5 sm; chiroyli nasta‘liq xatida) noyob nusxa hisoblanadi va Shayboniyxonning shaxsiy kotibi Mirza Muhammad Munshiy tomonidan ko‘chirilgan. Shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, uning ba‘zi varaqlarini (3a, 24 a, 31 a va b.q) Muhammad Shayboniyxon o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan... “Shayboniynoma”ning noma‘lum naqli hajm jihatdan 844-raqamli nusxadan ikki barobar ziyod (104 varaq) va “Futuhoti xoniy” (“Xonning fathlari”) deb atalib kelingan...

Biz (Bo‘riboy Ahmedov) “Shayboniynoma” noma‘lum naqlining har uchala nusxasini bir-biri bilan solishtirib o‘rganish natijasida “Shayboniynoma” ham, “Futuhoti xoniy” ham bir asar degan xulosaga keldik...Binoiy uni 1503-yilga qadar yozgan. Asarning “Shayboniynoma” deb shuhrat topgan qisqa naqli esa 1505-yilgacha bo‘lib o‘tgan voqealar (1505-yili Xorazmning ko‘chmanchi o‘zbek qo‘shini tarafidan istilo qilinishi)ni o‘z ichiga oladi...

Xo‘sh, “Shayboniynoma” qisqartirilgan nusxasining paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘lgan? Asarning kengaytirilgan naqli, birinchidan, faqat 1500-yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi, ikkinchidan esa og‘ir uslubda yozilgan, unda ortiqcha she‘riy parchalar ko‘p. Ma‘lumki, 1500-yildan keyin ham Shayboniyxon davlati tarixida ko‘p voqealar sodir bo‘ldi: 1505-yili Xorazm, 1506-yili Balx, 1507-yili Xuroson ko‘chmanchi o‘zbek qo‘shinlari tomonidan istilo etilgan. Shubhasiz, o‘zbek xoni mana shu voqealarning ham asarda aks ettirilishini istagan,

qolaversa uning uslubini ham soddalashtirishni Binoiydan talab qilgan. Shundan keyin asarning qisqacha naqli paydo bo'lgan. [Ahmedov B., 1994: 246-247] Bizningcha ham, hukmdorlar shoiri "Devon" idagi quyidagi she'rida Binoiyning aynan mazkur "Shayboniynoma" si qisqartirilgan nusxasini nazarda tutgan bo'lishi mumkin:

Ey Binoiy bu kitobing bo'ldi kech,
Bir seningdek qayda bo'lgay qo'li kech.
Bizga Urganch yurishida yaramay,
Sen farog'atda bo'lursen qo'li kech.
Ketdi ush moling qaroqchi qo'lidin,
Ne turursen emdi anda ko'li kich. [Şeybani Han Divani, 1989: 42]

Binoiy 1510-yildan Nasaf (Qarshi) shahrida yashay boshlagan. 1512-yilda Eron shohi Ismoil Safaviyning Qarshi shahridagi qatli omida shahid bo'lgan.

Muxtasar aytganda, Binoiy ijodini chuqur o'rganish hamda "Shayboniynoma" asarini o'zbek tiliga o'girib, tadqiq etish muhim ahamiyatga ega, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharofuddin Roqim. Tarixi tomm. -T.: Ma'naviyat, 1998.-B.71-72.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. -T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012. -B.340-341.
3. Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoe'ul vaqoe'. (Nodir voqealar). -T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1979.-B.120.
4. Sirojiddinov Sh. "Navoiy zamondoshlari e'tirofida". – Samarqand: Zarafshon, 1996. –B. 49-54.
5. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. -T.: O'zbekiston, 2011. -B. 286-287
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -T.: Sharq NMAK BT, 2002. –B.81.
7. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -T.: O'qituvchi, 1994. - B.216.
8. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. -T.: O'zbekiston, 2013. -B.1094.
9. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. - T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1990. - B.73.
10. Hofiz Tanish Al-Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob. - T.: Sharq NMK BT, 1999. -B.74.
11. Şeybani Han Divani. (Inceleme-Metn-Yaqub Qorasoy). - Konya, 1989. C.42.
12. Qorayev Sh. O'zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. - T.: Ilm – fan va ma'naviyat, 2024. – B.310.
13. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. Monografiya. - T.: Intellekt, 2023. -B. 262.

BOBUR LIRIKASINING TOJIK TILIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Zullisonayn shoir va shoh - Bobur o‘z shirinbayonligi bilan o‘zbek va tojik adabiyotida yetuk lirik shoir sifatida e‘tirof etilgan. U o‘zining jo‘shqin asarlari bilan she‘riyat olamiga salmoqli hissa qo‘shgan. Shu bois uning lirik she‘riyati asrlar osha dunyo ahlining tilida aylanib, bugun ham o‘z qadrini yuqotmagan.

Kalit so‘zlar: zullisonayn, shirinbayon, fard, madhiya, darvish, rindiy.

Abstract: Zullisonayn poet and king - Babur is recognized as a mature lyrical poet in Uzbek and Tajik literature with his sweet poetry. He made a significant contribution to the world of poetry with his passionate works. That's why his lyric poetry has become the language of the people of the world for centuries and has not lost its value even today.

Key words: zullisonayn, sweet, fard, hymn, dervish, rindiy.

Boburning lirik she‘lari devon shaklida to‘plangan bo‘lib, ularning nusxalari Parij va Hinduston kutubxonalarida saqlanmoqda. Uning yozgan asarlaridan ma‘lum bo‘ladiki, u g‘azal, ruboiy, qit‘a, tuyuq, masnaviy va fard kabi turli lirik janrlarda she‘rlar yaratgan. Bobur ash‘orini o‘qiganda, ular orasida ruboiy janri alohida o‘rin tutganini tezda payqash mumkin.

Bobur lirik g‘azalining mazmun va mohiyatini hayot lazzati, ishq va muhabbat madhiyasi, inson go‘zalligi, o‘z yurtiga muhabbat, begonalik dardi va iztiroblari, yomon ishlardan nafrat va g‘azab, ma‘rifat vasfi kabilar tashkil etadi. Shuning uchun ham shoirning bosh lirik qahramoni o‘zidir. Bobur Movarounnahrda markazlashgan davlat tashkil eta olmay, o‘z vatanidan uzoqda yashagan bo‘lsa-da, u o‘z yurtdoshlarini eslab, savob ishlar qilgan va bu ma‘no uning aksariyat she‘rlarida ifodalangan.

Bobur lirik she‘rlarining aksariyatida eng yaxshi insoniy fazilatlar madh etilgan. Shuning uchun ham mashhur xonandalar uning asarlarini bugungi kunda ham o‘z ijodiy dasturlariga joylashtirmoqda, maktab darsliklarida ham alohida o‘rin tutadi.

Boburning “Boburnoma” asari nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham munosib o‘rin tutadi. Asar lug‘at-ensiklopedik xususiyatga ega bo‘lgani uchun ma‘lum bir tarixiy-madaniy davrning ko‘plab sohalarini belgilash uchun katta ahamiyatga ega. “Boburnoma” 1525-1530-yillarda — Bobur umrining oxirida yozilgan bo‘lsa-da, otasining taxtga o‘tirgan davridan (1494-yil) o‘zining vafotigacha (1530-yil) sodir bo‘lgan voqealarni tasvirlaydi va ularning markazida muallifning o‘zi turadi.

“Boburnoma”da fikrni tasdiqlash uchun ba‘zan tojik shoirlarining baytlari keltirilishi Boburning tojik adabiyotining yaxshi bilimdoni ekanligini ko‘rsatadi.

Bobur “Boburnoma”sida mehribon va insonparvar inson sifatida quyidagi satrlarni tojik tilida yozgan:

Hazar kun zi dardi darunhoi resh,
Ki reshi darun oqibat sar kanad.
Baham barmazan to tavonā dile,
Ki ohi ҷahone ba ham barzanad.

Mazmuni: (insonlarning alamli ichki olamidan nihoyatda ehtiyot bo‘lgan kim, oxir-oqibat yuzga aks berishi mumkin, iloji boricha hej qanday qalb egasini ranjitmang, mabodo bu qayg‘u dunyoni xo‘rsinib to‘qnashtirmasin). Xuddi shu kabi yana bir ruboyisida quyidagicha keltiradi:

Darveshonro garchi na az xeshonem,
Lek az dilu ҷon mu‘taqidi eshonem.
Dur ast mago‘y shohā az darveshā,
Shohem, vale bandai darveshonem

Mazmuni: (bizni darvishlar bilan xeshligimiz yo‘q, biroq jonu dilimiz bilan ularga ishonamiz, shohlikni darvishlikdan uzoq deb o‘ylamang, biz shohmiz, biroq darvishlarga ham bandamiz).

Darhaqiqat, bir insonning shaxsiyatida ikki xislat – shohlik va darvishlikni tajassum etilishi o‘ta maroqli tuyuladi. Ushbu ma‘noni badeiyat bilan yuqoridagi baytlarda aks ettirgan. Chunki Bobur o‘z she‘riyatini markaziy obrazida o‘zi turadi. Shuni ham aytish joizki, ushbu aro‘z vaznida yozilgan ruboyida Bobur o‘rinli qofiyadan tashqari tazod san‘atidan (shoh – darvish) mahorat bilan foydalangan. Bularning hammasi shundan dalolat beradiki, u tojik tilidagi she‘r yozish norma va talabliridan boxabar bo‘lgan.

Bobur fardlarni yaratishda, ham o‘zbek tilida va ham tojik tilida mohir usto bo‘lgan. Ular o‘zining serma‘noligi bilan ikki xalqning adabiy boyligida muhim o‘rin tutadi, hamda o‘zida Boburning falsafiy, irfoniy, badiiy mahorat, tafakkur va shaxsiyatini tajassum etadi. U o‘zini rindiy qiyofasini qo‘yidagi fardida mohirlik bilan bayon etadi:

Xarobotivu rindu butparastam,
Ba olam harchi mego‘yand, hastam.

Mazmuni: (men butga sig‘inaman, rind bo‘laman, xarobotga o‘taman, meni haqqimda nima desalar desin, biroq men o‘zim dunyoda borligimni bilaman).

Bobur ushbu bayt orqali ishq-muhabbat va oshiqlik maslakida ustuvor ekanligini bayon etadi.

Yuqorida bayon etganimiz kabi Bobur o‘z ijodida ikki tilda ham badiiy-ma‘naviy va lafziy san‘atlaridan ustakorlik bilan foydalanilgan:

Xeç kas chun man xarobu oshiqu rasvo mabod,
Xeç mahbube chu tu berahmu beparvo mabod.

Ushbu baytda “vo”- qofiya va “mabod” radifidan tashqari, “man”, “tu”, “oshiq”, “mahbuba” so‘zlari orqali tazod san‘atidan foydalanganligi ayon bo‘ladi...

“Boburnoma” nasriy-badiiy asarning yorqin namunasi. Bobur o‘zi guvohi bo‘lgan voqea va hodisalarni ketma-ketlikda, ularning sodir bo‘lgan joylari, nomi bilan birga yozib qoldirgan. Asarda geografik joylar, odamlarning mashg‘ulotlari, dehqonlar, hunarmandlar, turli kasb egalari hayotining tavsifi

lugʻatshunos nuqtai nazardan berilgani Boburning keng dunyoqarashi va bilimdonligini koʻrsatadi.

Shuningdek, “Boburnoma”da XV-XVI asrlarda yashab oʻtgan tarixiy shaxslar, jumladan, Umarshayx Mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad, Hisravshoh, Jomiy, Navoiy, Hiloliy, Behzod va boshqalar toʻgʻrisida aniq va mufassal, hamda ularni na faqat podshoh va lashkarboshi sifatida, balki voqealarni hikoya qiluvchi shaxs sifatida maʼlumotlar keltirilgan.

Ayni paytda Bobur Alisher Navoiy kabi oʻzbek adabiy tili taraqqiyotida alohida oʻrin tutganini “Boburnoma”da ham koʻrish mumkin. Shu bilan birga tojik tiliga mansub boʻlgan soʻzlardan oʻz oʻrnida bamavqeʻ foydalangan. Xususan, xalq ogʻzaki ejodining keng qoʻllanilishi, maqol va matallarning oʻz oʻrnida qoʻyib ishlatgani, oʻsha davrda xalqqa yaqin boʻlgan uslubda ifoda etishi va shu kabilar ijodining mashhurligini taʼminlaydi.

Hozirgi kunda Boburning koʻp janrlardagi ijodi oʻzbek tilidan tojik tiliga tarjima qilgani juda oʻrinlidir. Chunki taʼlim tojik tilida olib boriladigan maktablarda uning ijodidan namunalar keltirib, shogirdlarni Bobur dunyoqarashi bilan oshno etish ayni muddaodir. Bundan tashqari uning sheʼriyatiga muxlis – xonandamizga ancha savobli ish ham boʻladi desak xato qilmagan boʻlamiz.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, “Boburnoma” qomusiy xususiyatga ega ilmiy-badiiy asar sifatida fan va madaniyatning koʻplab sohalari uchun hamon yuksak qadriyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Бобур. Шеърлар. - Тошкент: Ўзбекистон давлат бадий адабиёт нашриёти, 1957.
2. Бобур. Бобурнома. - Тошкент, 1959.
3. Фарҳанги забони тоҷикӣ, ҷилди 1, - Душанбе, 201
4. Саъдиев С., Намидов Х. Адабиёт. (10 синфлар учун дарслик), - Тошкент: “Чўлпон” нашриёти, 2017.
5. Нусратулло Чумъахоҷа, “ Бадеияти шеъри форсӣ-тоҷикии Бобур, “Овози тоҷик”, № 83, 2023.
6. Никматов Н. “Бобурнинг форс-тоҷик тилидаги ижодига нуқтаи назарлар”, “ International Scientific Conference” Uzbekistan, - Tashkent, 2022.

Musayev Shohsuvor Tursin oʻgʻli
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
4-bosqich talabasi

BOBUR RUBOIYLARIDA HASBI HOL TALQINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ruboiylari tahlil etiladi. Unda his-tuygʻu va fikrlarning uygʻun tarzda ifodalanishiga oid qarashlar bayon etiladi. Bobur ijodiyotida yurt va Vatanga muhabbat, ezgu insoniy fazilatlar tarannumi, oliyjanob tuygʻular tasviri yetakchilik qiladi. Bobur

ruboiylarida ona Vatanga intilish, g'urbat, hijron mavzulari keng yoritilgan. Bobur lirik she'riyatining, jumladan, g'azaliyotining mavzusi, bir tomondan, mumtoz g'azalchilikda yetakchi o'rin egallagan ishq mavzusi bo'lsa, ikkinchi tomondan, shoirning hayot hodisa-voqealaridan olgan taassurotlari: muvaffaqiyatlar shodiyonasi, muvaffaqiyatsizlik tufayli zamon va uning jafakorligidan nolish; o'zi tug'ilgan vatandan uzoqlashgani tufayli vatan va vatandoshlarini qo'msash, o'rni bilan pand-nasihati berish kabi mavzulardan iborat. Maqolada ana shu jihatlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ruboiy, hasbi hol, an'ana, vatan sog'inchi, tuyg'ular ifodasi.

Abstract: This article analyzes the Rubai's of Zahiruddin Muhammad Babur. It describes views on the harmonious expression of feelings and thoughts. Babur's art is dominated by the love of the country and the Motherland, the praise of noble human qualities, and the depiction of noble feelings. In Babur's Rubaiyat, the topics of longing for the Motherland, exile, and emigration are widely covered. The theme of Babur's lyric poetry, including his ghazals, is, on the one hand, the theme of love, which occupies a leading place in classical ghazal poetry, and on the other hand, the poet's impressions of life events: the joy of success, the lamentation of time and its cruelty due to failure; It consists of themes such as the need for the homeland and compatriots due to being far away from the country of their birth, giving advice instead. These aspects are analyzed in the article.

Key words: rubai, hasbi hol, tradition, homesickness, expression of feelings.

Bobur mirzo ijodiy kamolotining oliy samarasi uning ruboiylaridir. Ruboiy qisqa va shiddatli kechgan shoir va sarkarda hayotining tabiatiga mos. Bobur mirzo to'rt satrda yuragida o'ylar, yillar to'planib qolgan dard-u hasratini ayon etgan edi. Abdurauf Fitrat shoirning bu fazilatini aniq qayd qilib, yozadi: "Bizning shoirlarimizdan o'zini Xayyomga o'xshatishga tirishganlari ko'p. Navoiyning, Lutfiyning, Umarxonning, Fazliyning va boshqalarning xayyomona ruboiylari yo'q emas, bor. Lekin bularning hech biri ruboiyda Xayyomga yaqinlasha olmadi... Xayyomga yaqinlashishga muvaffaq bo'lgan birdan-bir shoir Bobur mirzodir. Boburning ruboiylarida bo'lgan ochiqlik, soddalik Xayyomga o'xshaydi" [Valixojayev B., 1993: 138-139].

Bu fikrni Oybek quyidagicha tasdiqlaydi: "Boburning ruboiylari uning poeziyasining cho'qqisidir. Boburdan oldingi va keyingi shoirlar bu bobda unga yeta olmaganlar. Umar Xayyomning ruboiylari kabi uning ruboiylari ham falsafiy fikrlarga boy, shaklan mukammal" ["Jahon adabiyoti" jurnali, 2005, 2-son].

Biz bu o'rinda Bobur mirzoning ayrim ruboiylarini sharhlab bayon etishni maqsad etib, diqqatimizni ko'proq ularning yaratilishiga sababchi bo'lgan tarixiy voqealarga qaratdik.

*Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,
Bu ikki muyassar o'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.*

Bu armonli satrlar Bobur mirzo hayotining muxtasar tarixiga o'xshaydi. Biz bu ruboiy qachon yaratilganini aniq bilmaymiz, u shoirning yigitlik ayyomida ham,

umrining shomida ham yozilgan bo‘lishi mumkin. Agar bu satrlar yigitlikda yozilgan bo‘lsa, bu istak — bashorat, umr so‘ngida bitilgan bo‘lsa, achchiq nadomatdan darak beradi.

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi...

Bobur mirzoning ko‘ngil murodi ajdodlari tuprog‘ida yuzaga kelgan buhronni bartaraf etish, Samarqand taxtini egallash bilan Movarounnahrda bobokaloni Sohibqiron Amir Temurning yagona saltanatini qayta tiklash edi. Ammo, «mudom to‘qnashuvlar, biroq taqdir o‘qig‘a tadbir qalqoni dosh bera olmagach, biror natija chiqara olmadi». Uning qizi Gulbadanbegim “Humoyunnoma”da yozadi: “To‘liq o‘n bir yil davomida Movarounnahr o‘lkasida chig‘atoy, temuriy va o‘zbek sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar qildilarki, ularning sonini to‘la bayon qilishga qalam tili ojiz va nuqsonlidir. Jahongirlik bobida hazratimiz tortgan qadar mashaqqat va xatarlar kam kishilarga uchragan. U hazratga duch kelgan uqubat va xatarlar oz podshohlarga duch kelgan. Uch qayta Samarqandni qilich zo‘ri bilan fath qildilar. Birinchi marta podshoh bobom hazratlari o‘n ikki yoshda, ikkinchi martada o‘n to‘qqiz yoshda va uchinchi marta esa yigirma ikki yoshda edilar... Olti oy davomida Samarqandni olmoqqa urindilar, lekin maqsadlariga yeta olmadilar”.

Yo barcha murodlarni tark etsa kishi...

Bu satrda Bobur mirzoning boshqa bir iztirobi, boshqa bir armoni yashirin. O‘n bir-o‘n ikki yoshidan boshlab umri shiddatli jangu jadal, mashaqqat-u sarsonlik ichida kechgan, murodiga yetolmay ona yurtdan quvg‘in bo‘lgan Bobur mirzo keyinchalik ulug‘vor saltanat tuzishga erishgan bo‘lsa-da, ko‘ngli g‘arib bo‘lib qolaverdi.

Uning mas‘um ko‘ngli halovat istar, saltanat esa halovat berolmasdi. Uning nazarida “Podshohlik bila yolg‘izlik rost kelmas”. Shu sababdan ham o‘zini podshohlikdan qutqarmoq tilagan Bobur umrining shomini ijodga, so‘fiyona turmushga bag‘ishlashni orzu qilardi.

Aslida bu uning eng botiniy armoni edi, barcha istaklarni tark etish istagi edi. O‘sha yillari Bobur xilvatninishlikni ixtiyor qilish maqsadida bir necha marta: “Ko‘nglim saltanat va podshohlikdan olindi, shu Zarafshon bog‘ida bir burchakda o‘tirsam, podshohlikni Humoyunga bersam”, — degan edi. U dunyodan ko‘z yumish oldidan ham “Shu maqsadimga yetmadim” – deya armon qiladi.

Bu ikki muyassar bo‘lmasa olamda,

Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi...

Darhaqiqat, oxir-oqibat shunday bo‘ldi. Bobur mirzo bu ikki murodiga ham yetolmadi. Birinchi murodi zabun bo‘lgach, hijratga — Kobulu Hind «sorig‘a yuzlanib, boshini olib oyoq yetguncha» ketdi.

“Boburnoma”da shunday satrlar bor: “Xotiringa keldikim, tokay sargardon bo‘lub turmoq kerak, bir tarafg‘a talab qilolayin deb... Ulug‘-kichik meni umidvorlik bila irgashib yuruydurg‘onlar ikki yuzdin ko‘prak, uch yuzdin ozroq bo‘lg‘ay. Aksar yayoq va iliklarida tayoq va oyoqlarida choruq va eginlarida chopon erdi” [Qudratullayev H., 2009,25].

Shu borishda Kobulu G‘aznini egallagan Bobur olti yildan so‘ng yana bir karra Shoh Ismoil ko‘magida Samarqand taxtini egallashga urinib,

shayboniylardan ikki daf'a mag'lubiyatga uchragach, manguga tarki vatan qildi. Shundan so'ng, Gulbadanbegim yozganidek, "yana Movarounnahrni qo'lga kiritish xayolini tamoman ko'ngildan chiqarib tashladilar".

Ammo, qizining "ko'ngildan chiqarib tashladilar" deb aytgan Ona Vatan orzusi Bobur mirzoni eng so'nggi kungacha tark etmadi. Umrining shomida eng qayg'uli va mahzun satrlarni bitdi:

*Tole'yo 'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yub, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Bu ruboiy, biz yuqorida tadqiq qilgan ruboiyning davomiga o'xshaydi. Bundagi chorasiz alam o'z murodiga yetolmagan kishi ko'nglidagi iztiroblar natijasidir. Tole yo'qligi tufayli baloga uchragan Bobur qanday xatolar haqida gapiradi? U balki Andijonni mustahkam qilmay, yoshlik zavqidan mast, yengil-yelpi tayyorgarlik bilan Samarqand ustiga yurish boshlagani, oqibatda ham Andijondan, ham Samarqanddan ayrilganini nazarda tutayotgandir? Yoki ikkinchi marta Samarqandni fath etgach, ko'p o'tmay, qamalda qolib, suyukli opasi Xonzodabegimni Shayboniyxonga o'z qo'li bilan berib qo'ygani, egachisining og'ir qismatiga aybdorligini aytmoqchimi? Yoki uchinchi marta — Samarqandni egallash istagi zo'r kelib nomunosib ishga qo'l urgani — sunniy mazhabli Movarounnahrda shia' mazhabli Shoh Ismoil qo'shinini boshlab kelganini aytmoqdami?

Ha, albatta! Bobur mana shularning barchasi xatolig' bo'lganini aytib, alam chekmoqda. Mana shu xatolar, ayniqsa, so'nggi xato sababidan, muarrixlardan biri yozganidek, "Movarounnahr xalqi boshda podshoh (Bobur)ning bu g'alabasidan mamnun bo'lsa ham, oxirida undan ko'zlagan umidi yuzaga chiqmadi". Bobur mirzoning so'nggi xatosi tufayli nafaqat oddiy xalq, o'sha davrning nufuzli shaxslari ham undan norozi bo'lgan edi. Norozi bo'lish nima, undan yuz o'girgan edi. Bu o'rinda mazkur davrning yirik arboblardan biri Shayx Xudoydodi Valiy bilan bog'liq voqeani eslash kifoya. Shoh Ismoilning amiri a'zami bo'lmish Najmi Soniy qo'shini ko'magida 1511-yilning kuzida Samarqandni egallagan Bobur mirzo Shayx Xudoydodi Valiy huzuriga vakil yuborib, shu paytgacha shayboniylarni qo'llagani uchun unga dashnom berish maqsadida o'z huzuriga chorlaydi. Shunda Vali bobo Bobur mirzoning shia'lar bilan ittifoq tuzganiga ishora qilib, "Bu yerda kim musulmonroq bo'lsa, o'sha podshoh bo'ladi", — deb uning huzuriga borishdan bosh tortadi. Bu achchiq so'zlar chorasiz qolganidan noto'g'ri tadbirga qo'l urgan sargardon mirzoning yurak-bag'rini umrining oxirigacha kuydirib yurdi.

Bobur mirzo aynan shu mash'um xatosi tufayli «ne yuz qarolig' bo'ldi?» deb faryod chekadi:

*O'z yerni qo'yub, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Badiiy adabiyotning asosini quyidagi poetik unsurlar tashkil etadi: ma'no, shakl, ruh va obraz. Buyuk iste'dod egalarining asarlarida, odatda, ma'no umumbashariy g'oyalarni ifoda etsa, shakl va ruh millatning tabiatini aks ettiradi.

Obraz individual poetik tafakkur mahsuli sifatida yuzaga kelsa-da, o'zida millatning ruhini ifodalaydi. Milliylikdan xoli tuyg'uning ta'sir kuchi bo'lmaganidek, milliy ruhdan mosivo tafakkur ham qanotsiz qushga mengzaydi. Shunga ko'ra, milliylik – adabiyotning asosiy mezoni. Ta'bir joiz bo'lsa, jahon badiiy-estetik tafakkuri ko'rigida muayyan millat adabiyotini ajratib ko'rsatuvchi bosh xususiyat, o'zgalardan farqini namoyon etadigan asosiy belgi bu – milliy ruhdur. Shuning uchun milliy ruhning ifoda yo'sinlarini, tasvir mezonlarini o'rganish adabiyotshunoslikning o'zak ilmiy muammolaridan. Adabiyotda milliy ruh ifodasi, bizningcha, quyidagi tamoyillar asosida namoyon bo'ladi: 1) millatning asl tabiatini, siyratini aks ettirish; 2) poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi; 3) poetik obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi.

Millatning yomonlikka yomonlik bilan emas, yaxshilik bilan javob qaytara olish fazilati shoir lirikasida o'ziga xos badiiy talqin etiladi. Shoirning boshqa bir g'azalidan olingan quyidagi bayt mazmuni ham buni tasdiqlaydi:

Bobur, ul umr seni so'kkan uchun

Umr borincha duo qilg'aysen.

Hatto so'kkan odamning haqiga ham duo qilish, tabiiyki, hammaning ham qo'lidan kelmaydi. Olijanoblikning, insoniy kamolotning cho'qqisi bo'lgan bunday xulosaga kelish osonmi? Ham oson, ham qiyin. Osonligi shundaki, bu nainki shoh va shoir Boburning, balki mansub bo'lganimiz millatning asl tabiatiga xos yuksak fazilat. Qiyinligi shunda ko'rinadiki, yomonlikka nafrat – inson fitratiga xos tuyg'u. Ushbu nafrat yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarishni taqozo etadi. Nafratni yengish, yomonlikka yaxshilik bilan javob berish, shu jihatdan ham oson emas. Buning uchun ushbu fazilat insonga qondan o'tgan bo'lishi kerak.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur!

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur!

Shoir she'rlarida millatning mentaliteti bilan bog'liq quyma fikrlar ohorli ifoda etiladi. “Nimani eksang, shuni o'rasan”, degan xalq maqoli hayot sinovlaridan o'tib, tasdig'ini topgan falsafiy to'xtam. Muborak hadislardan birida ham: “*Dunyo – oxiratning ekinzoridir*” deyiladi. Demak, xalqimiz to'rt so'zda ixcham va lo'nda ifodalagan “Nimani eksang, shuni o'rasan” maqolida millatning asl tabiati va e'tiqodiy tushunchalar teran asoslarda uyg'unlashib ketgan. Mashhur ruboiysida Bobur ana shu mazmuni o'quvchining qalbini titroqqa soladigan darajada ta'sirli va go'zal badiiy shaklda ohorli talqin etgan.

Buyuk shoir umrining aksar qismida yor-u diyor firoqida yashadi. Temuriy shahzodalar o'rtasida ittifoq yo'qligi, o'zaro toj-u taxt talashuvlari oqibatida buyuk Sohibqiron Amir Temur asos solgan muazzam saltanat tanazzulga yuz tutganidan iztirob chekdi. Hindistonda ulkan davlatga asos solib, temuriylar hukmronligining umrini qariyb uch yarim asrga uzaytirishga muvaffaq bo'ldi. Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahhob” tazkirasida aytilganidek: “(Bobur) chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi. Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatlariga ega bo'lib, uni saqlab qolishda ko'p sa'y-harakatlar va jonini ayamadan jahd-u jadallar ko'rsatdi. Mardona to'qnashuvlar qildi, ammo

taqdir o‘qig‘a tadbir qalqoni dosh bera olmagach, biror natija chiqara olmadi... Mulk qo‘ldan ketgach, tab’ to‘tisi hind shakkaristoniga mayl bildirib, dengiz mavjli e’tiborini Hindiston mamlakatlarini egallashga sarf qilib, qorong‘ulik o‘lkasini quyosh yog‘duli qilichi shu’lasi nurlari bilan charog‘on etib, humoyun tole’ tufayli muxolif lashkariga shikast yetkazib, feruz baxt bilan shohlikning feruz taxtiga hazrat Dehlida komron o‘lturdi”.

Ushbu fikrlar Boburning milliy urf-udumlarni, xalq turmush tarzini, eng muhimi, hayot falsafasini teran anglagan va lirik asarlarida betakror ifodalagan shoir ekani isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi.- T.: “O‘zbekiston”, 1993.
2. Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: “Sharq”, 2009.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. - T.: “Sharq”, 2008.
4. Jalilov S. “Bobur haqida o`ylar” -T.: “Sharq”- 2006.

“BOBURNOMA”NING JAHONIY O‘RNI VA SHUHRATI

Zokirjon Mashrabov,

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi, professor

“BOBURNOMA” NASHRLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma” asari ustida tadqiqotlar olib borayotgan yosh olimlar uchun “Boburnoma” asarining ilk tarjimasini hamda uning zamonaviy tillarga amalga oshirilgan tarjimalari, shuningdek, ularning tarjimonlari haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Ma’lumotlar tarjima nashrlarining tadrijiyligini aniqlashda yaqindan yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Bobur, “Boburnoma”, Markaziy Osiyo, Hindiston, tarjima, Beverij, Tekston.

Annotation. Conducting research on the "Baburnama" for young scholars, the article summarizes the early and later translations of "Baburnama" into modern languages, as well as information about their translators. The data closely helps in determining the sequence of years of translation publications.

Key words: Babur, Baburnama, Central Asia, India, translation, Beveridge, Thakston.

“Vaqoye”, “Voqeoti Boburiy”, “Boburiya”, “Voqeanoma”, “Tavorixi Boburiy”, “Tuzuki Boburiy” yoki “Boburnoma” shahanshoh Bobur tomonidan turkiy tilda yozilgan mumtoz badiiy yodgorliklardan biri bo‘lib, adabiy va tarixiy qimmatga ega bo‘lgan asarlar ichida eng yuqori o‘rinni egallaydigan manbadir. U o‘tmish tariximiz, ma’naviy qadriyatlarimiz, qolaversa, umuman Markaziy Osiyo va Hindiston, Afg‘oniston va Pokiston mamlakatlari tarixini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Shu bois ham bu asar o‘n oltinchi asrning o‘zidayoq boshqa tillarga tarjima qilina boshlangan. Ingliz tarixchisi Elfingstoun bu asarni “Osiyo tarixini haqqoniy yoritgan asar” deb baholagan. Ikkinchi ingliz tadqiqotchisi Leyn Poulning ta’biricha: “Agar biron tarixiy hujjatni boshqa guvohliklarsiz ham haqqoniy deb qabul qilish mumkin bo‘lsa, bunday hujjat Boburning yodnomasi, ya’ni “Boburnoma”dir” degan edi.

Asar boburiylar hukmronligi davridayoq to‘rt marta fors tiliga tarjima qilingan. Humoyun va Akbar hukmronligi davrida “Boburnoma” bilan bir qatorda Bobur mirzo qo‘lyozmalarining ko‘pchiligi bir necha nusxada ko‘chirtirilgan: Bobur mirzoning g‘azallari to‘plami – Devon, “Mubayyin”, “Risolai Volidiya”, “Xatti Boburiy”, “Aruz risolasi” shular jumlasidandir. “Boburnoma”, “Boburiya” nomi bilan yuritilayotgan bu asar Markaziy Osiyo, keyinroq esa bir necha Ovrupo tillariga, shu jumladan, ingliz va fransuz tillariga qayta-qayta tarjima qilingan. Ular orasida Annetta Suzan Beverij hamda Uiller Tekstonning asl turkiy matndan qilgan tarjimalari eng yaxshi tarjima asarlari hisoblanadi.

1858-yilda britaniyaliklar Hindistonni bosib olgach, ular hind jamoasini boshqarishda qator qiyinchiliklarga duch keldilar. Chunki mamlakatda mavjud

bo'lgan turli til, turlicha din, e'tiqod va sharqona turmush tarzi yevropacha qonun-qoidalarni tan olmas, masalaga yevropacha qarash esa boshqaruv ishini mushkullashtirar edi. Shu bois qirolicha Viktoriyaning buyrug'iga binoan boburiylar davrida yaratilgan barcha asarlar qo'lyozmalarini to'plab olib ketdilar va ularning barchasini ingliz tiliga o'girib, Hindiston shtatlarini boshqarish uchun Londondan tayinlanadigan voliyar va viloyat hokimlari qo'liga tarjima qilingan asarlar, xususan "Boburnoma"ni dasturulamal sifatida berish va undan hind jamoasini boshqarishni o'rganish ta'kidlab ko'rsatish odat tusiga kirgan edi.

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tasarrufidagi Xalqaro Bobur ilmiy ekspeditsiyasi o'z safarlari chog'ida ushbu asarning ko'plab nusxalari hamda tarjimalarini Andijondagi "Bobur va jahon madaniyati" kitob muzeyida mujassamlashtirib kelmoqda.

Quyidagi tarzda "Boburnoma" asta-sekin dunyo bo'ylab tarqala boshladi:

1. Humoyunshoh hukmronligi davrida (1530-1555-yy.) "Boburnoma" ikki marta: dastlab Shayx Zayn Vafoiy tomonidan, ikkinchi marta esa Poyanda Hasan tomonidan turkiydan fors tiliga o'girilib, qo'lyozma sifatida xattotlar tomonidan ko'chirildi va o'quvchilar e'tiboriga havola etildi.

Uchinchi marta Akbarshoh hukmronligi davrida (1556-1605-yy.) Abdurahim Xonixonon tomonidan turkiydan fors tiliga o'girildi.

To'rtinchi marta esa Shoh Jahonning farmoniga binoan Abu Tolib Turbatiy tomonidan fors tiliga o'girildi. "Boburnoma"ning ana shu nusxalaridan Yevropada "Boburnoma" boshqa tillarga tarjima qilina boshladi.

2. "Boburnoma"ning noma'lum qo'lyozmadan olingan parchalari 1705-yilda Vitsen tomonidan golland tiliga tarjima qilinib, Amsterdamda nashr etildi.

3. Xususan, asarning ingliz tilidagi ko'plab tarjima nusxalari mavjud. Dastlab 1775-1811-yillarda yashagan ingliz sharqshunosi Jon Leyden 1809-yilda ingliz tiliga tarjima qilishga kirishgan. U bevaqt vafot etgach, bu ishni shotlandiyalik rohib, sharqshunos olim Uilyam Erskin davom ettirgan va 1816-yilda oxiriga yetkazgan. Jon Leyden va Uilyam Erskin hammuallifligidagi o'zbekcha va forscha nusxalarini solishtirish asosidagi ushbu tarjima 1826 -yili Londonda nashr etildi. Bu tarjima o'z navbatida 1921 -yilda Uayt King tomonidan to'ldirilib nashr etildi.

1905-yilda Londonda Beverij xonim "Boburnoma"ning Haydarobod qo'lyozmasining faksimiliyesini sinkografiyada chop ettirdi. Beverij xonim tomonidan "Boburnoma"ning ingliz tiliga qilingan tarjimalari 1921-, 1989- va 1990 -yillarda Hindistonda qayta-qayta chop etildi. 2006 -yili hamda 2017-yillari Dilip Xiro so'zboshisi bilan ham 2 marotaba chop etildi.

1993 -yilda amerikalik taniqli sharqshunos Garvard universiteti professori Uiller Tekston "Boburnoma"ni ingliz tiliga o'girgan bo'lsa, 1995-yilda yangitdan tarjima qilingan "Boburnoma"ning ingliz tilidagi nashri Oksford universiteti nashriyotida chop etildi. Bu nashrga professor Uiller Tekstonning o'zi muharrirlik qilib, so'z boshi yozgan. 2002-yilda professor Uiller Tekston "Boburnoma"ni yana tarjima qilgan va tahrir etgan inglizcha nusxasini AQSHda qayta nashr ettirdi. Bu kitobga taniqli jamoat arbobi Salmon Rushdi so'zboshi yozgan.

4. "Boburnoma" nemis tiliga birinchi marta Yulius Klaprat tomonidan 1810 -yilda, 1828-yilda esa nemis sharqshunos olimi Amadeus Kayzer tomonidan tarjima

qilingan bo‘lib, ular ingliz tili orqali o‘girilgan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi davrida (1939-1945) turkiydagi asl nusxa, forsha va inglizcha tarjimalari asosida ham nemis tiliga o‘girilgan. Nemis tilidagi keyingi ancha tuzuk tarjima 1990 -yilda Wolfgang Shtammler tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, uni tarjimon fransuz tilidagi nusxadan o‘giran.

Germaniyalik tarixchi olim va tarjimon Xelmut Dalov esa asarni 2015- va 2022 -yillarda Porso Shamsiyev tayyorlangan 1960 -yildagi nashrdan foydalangan va asarni Germaniyada chop ettirdi.

5.1857-yilda Qozon shahrida rus sharqshunos olimi Nikolay Ilminskiy tomonidan “Boburnoma”ning asl turkiy nusxasi toshbosma usulida nashr ettirildi. 1948 -yilda esa rus tarjimoni Mixail Sale tomonidan “Boburnoma”ning rus tiliga qilingan tarjimasini Toshkentda nashr qilindi. Unda asarning 1504-1505 -yillargacha bo‘lgan voqealari bayon qilingan. 1958-yilda “Boburnoma”ning to‘la ruscha tarjimasini Mixail Sale tomonidan Toshkentda nashrdan chiqdi. Bu asar 1993 -yilda tarix fanlari doktori Sabohat Azimjonova tahriri ostida qayta nashr etilgan bo‘lsa, 2008 -yilda aynan Mixail Sale tarjima nusxasi asosida Vahob Rahmonov mas’ul muharrirligida jiddiy tuzatishlar bilan Bobur fondi tomonidan “Sharq” nashriyatida qayta chop etildi.

6.1948-1949-yillarda o‘zbek olimlari Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayevlar tomonidan 2 ta kitob shaklida “Boburnoma” birinchi bora Boburning ona tilida nashr etildi. 1960 -yilda esa Porso Shamsiyev tomonidan “Boburnoma”ning to‘la nusxasi Toshkentda chog‘ishtirish va tuzatishlar asosida qayta chop etildi. Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayevlarning ushbu o‘zbekcha nashri, yapon olimi Eyji Mano tuzgan ilmiy tanqidiy matni va Tehrondagi “Guliston” muzeyidagi “Bobur kulliyoti”ga asoslangan holda esa 2002-yilda Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi homiyligida Saidbek Hasanov tomonidan nashr etildi.

2008-yilda “Boburnoma”ning o‘zbek olimlari Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo‘jayevalar tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga qilingan tabdili Bobur xalqaro jamoat fondi homiyligida Toshkentda nashr etildi. Jumladan, 2002-yildan to shu kungacha asarning bu tabdili fond homiyligida 8 marotaba chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 25-yanvar 2023-yilgi PQ-20-sonli “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorining “Boburnoma” asarining zamonaviy o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi tabdilini yaratish” haqidagi maxsus 6-bandi ijrosi yuzasidan “Boburnoma”ni yangi oq va qora rasmlar bilan to‘ldirilgan, zamonaviy o‘zbek tilidagi tabdili tayyorlanib, “O‘zbekiston” nashriyatida 5000 nusxada Bobur fondi grifi bilan chop etildi.

7.Asarning fransuz tiliga qilingan tarjimalari 1871-yilda fransuz olimi Pave de Kurteyl hamda 1980-1985-yillarda ikkinchi marta fransuz olimi Bakyu Grammont tomonidan tarjima qilinib, nashr ettirildi.

8.1924 -yili “Boburnoma” ilk marotaba urduga Mirzo Nosiriddin tomonidan tarjima qilinib, Dehlida chop ettirilgan bo‘lsa, “Tuzuki Boburiy” nomi bilan 1969 -yilda Axtar Nadviy tomonidan, 2000-yilda Hasan Bek tomonidan uchinchi marotaba rangli suratlar bilan bezatilgan holda chop etildi.

9. Taniqli turk olimi Rashid Rahmati Arat tomonidan dastlab 1943-1944-yillarda asar “Babur vaqaye” (Baburun xatirati) sarlavhasi ostida 2 jildda, keyinroq 1987-yilda Anqarada, xususan, uning yana bir turkcha nusxasi 1993-yilda Istanbulda turk olimi Mesut Shen tomonidan nashrga tayyorlanib chop etildi.

10. “Boburnoma”ning hindcha tarjimasini Yugjit Navalpuriy tomonidan amalga oshirilgan va 1974-yilda Dehlida chop etilgan. O‘ziga xosligi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi, ammo Boburning fors tilidagi farmonlari va Hindistondagi sarkorlardan tushadigan yillik daromad haqidagi ma’lumotlar tushirib qoldirilgan.

11. 1992 -yili asar Hamit Temur tomonidan Pekinda uyg‘ur tilida chop etildi.

12. 1995-yilda yaponiyalik tarixshunos olim Eyji Mano tomonidan “Boburnoma” inglizcha kirish qismi bilan yapon tilida Kioto universiteti nashriyotida chop etildi. Ushbu nashr tez orada muxlislar tomonidan sotib olingani bois kitob 2006-yilda yana qayta nashr qilindi.

13. 1997-yilda Vang Jilay tomonidan Pekin shahrida xitoy tilida chop etildi.

14. 2001-yilda ispaniyalik olim Marisa Komasa tomonidan “Boburnoma” asari ispan tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarilgan.

15. 2008-yilda arab olimasi, Misrdagi Ayn Shams universiteti professori Majida Maxluf “Boburnoma”ni arab tiliga tarjima qilib, Qohirada qayta-qayta nashrdan chiqardi. Aynan shu tarjima sababli bugungi kunda 20 dan ortiq arab tilida so‘zlashuvchi davlatlar asarni o‘z ona tillarida o‘qiydilar.

16. 2011-yilda ozarbayjonlik jurnalist, navoiyshunos va boburshunos professor Ramiz Asker “Boburnoma”ni ozarbayjon tiliga tarjima qilib, uning bir necha nusxasini o‘zbek xalqiga in’om qildi.

Xuddi shu yili professor Fuzuli Bayat “Boburnoma”ni ozar tiliga o‘girib, nashr ettirdi.

17. 1990 -yili Almati shahrida Bayuzoq Kojabekov tomonidan “Boburnoma” rus tilidagi tarjima asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022-yilda qozog‘istonlik professor olim Islom Jemeney tomonidan Mozori Sharifning “Ulug‘bek” nashriyotida tayyorlangan “Boburnoma” (Eyji Mano ilmiy matni) Hidoyatulla Hidoyat nashri asosida qozoq tiliga o‘girildi. Mazkur nashrning o‘ziga xos jihati shundaki, asar, shaxs va joy nomlari tavsifi bilan o‘quvchiga taqdim etilgan.

18. “Boburnoma” asari Afg‘onistonda ham bir necha marotaba nashr etildi. Jumladan, 2007-yilda mashhur olim Shafiqa xonim Yorqin tomonidan Kobulda (Kobul voqealari) fors-dariy tilida chop ettirildi.

2007-yilda Hidoyatulloh Puqniyor “Boburnoma”ning Eyji Mano yaratgan ilmiy matnini Afg‘onistonda nashr ettirdi. 2020-yilda navoiyshunos va boburshunos olim Burhoniddin Namiq tomonidan “Xurshidiy” nashriyotida dariy tilida hamda 2023-yilda Mozori Sharifda boburshunos Rahim Ibrohim tomonidan arab grafikasidagi eski o‘zbek tilida tayyorlangan nashrlar so‘nggi nashrlar hisoblanadi.

19. 2023-yilda Z.M. Bobur tavalludining 540 yilligi munosabati bilan asar Italiyaning Rim shahridagi Teti Editore nashriyot uyida mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda atoqli italyan adibi Franko Kardini so‘zboshisi bilan tarjimon Federiko Pastore tomonidan italyan tiliga o‘girildi: “Boburning o‘lmas ijodi dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Endilikda uni tengsiz Petrarka va Dante, Mikelanjelo va Bokachcho tilida o‘qish imkoniyati tug‘ilganidan behad

xursandman. Ishonchim komilki, “Boburnoma” kitobxonlarda katta taassurot uyg‘otadi...” de-yiladi mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tarjima asar so‘zboshisida. Kitobni tayyorlashda professor Shuhrat Sirojiddinov va italiyalik taniqli turkshunos, professor Federiko De Rensi ilmiy va adabiy muharrirlar sifatida ishtirok etishgan.

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tashkil etilganidan to shu kungacha 30 ga yaqin fondning jamoatchilik asosidagi bo‘limlarini tashkil etgan. Aynan italiyalik olim, “Sandro Editore” nashriyot uyining rahbari janob Sandro Teti rahbarligida tashkil etilgan Italiya bo‘limi ham kelajakda Bobur va boburiylar ilmiy merosini jahon bo‘ylab targ‘ib tashviq qilishga xizmat qiladi, degan fikrdaman.

20. Shuningdek, asar Bobur mirzo tavalludining 540 yilligi munosabati bilan 2023-yilda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, taniqli yozuvchi va adib Kenesbay Karimov tomonidan qoraqalpoq tiliga tabdil qilinib, Sahhof nashriyot uyida chop etildi.

Maqolam so‘nggida shuni aytmoqchimanki, Bobur mirzoning o‘lmas ijod namunasi dunyoning yana boshqa tillariga ham tarjima qilinishda davom etmoqda. Yuqorida nomlari tilga olingan “Boburnoma” tarjimalari Bobur xalqaro jamoat fondi tasarrufidagi “Bobur va jahon madaniyati” muzeyida jamlanishda davom etib, asar turli mamlakatlardagi sharqshunos va tarixchilar, tilshunos va adiblar tomonidan katta ishtiyoq bilan o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2017.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar. Qomusiy, ilmiy va ilmiy-omtabop materiallar to‘plami (A-B). 1-jild. – Toshkent: “Zilol buloq”, 2023.
3. Rustamxo‘jayev Sh. Jahon madaniyati va Bobur” muzeyidagi adabiyotlar bibliografiyasi. To‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashr, - Andijon. 2012.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov, - Toshkent: “Sharq”, 2002.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayevalar tabdili, -Toshkent: “O‘qituvchi”, 2008.
6. Baburname. (Memories of Babur) Annette Susannah Beveridge, - New Dehli, reprinted 1989.
7. Zahiriddin Muhammed Babur. Baburname. Qaraqalpaq tilinde, «Sahhof» nashriyoti, 2023.
8. Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. “Sandro Editore” publication, 2023.
9. Захириддин Мухаммад Бабур. Бабурнаме. (перевод М.Сале). -Ташкент, 1993.
10. Захириддин Мухаммад Бабур. Бабурнаме. – Ташкент: “Шарк”, 2008.

Mirzo KENJABEK,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston
islom sivilizatsiyasi markazi bo‘lim boshlig‘i

SHARQ MANBA‘LARIDA BOBUR MIRZO ASARLARINING NOMLANISHIGA DOIR ILMIY-TARIXIY MA‘LUMOTLAR

Bismillahir-Rohmanir-Rohiy.

Ilmiy haqiqatni qabul qilish ilm ahllarining, ziyolilarning insof-adolati va fazilatiga daxldor xususdir. Haqiqiy ilm sohibi hech qachon dalil-isbot bilan asoslangan haqiqatni rad etmaydi, uni sidqidildan qabul qilib, boshqalarga ham qabul qildirish harakatida bo‘ladi.

So‘zni sodda eslatma bilan boshlamoqchiman. Bir mahallar matbuot va kitoblarda hazrati Boburning ismi “Bobir” yozilar edi. Bir ilmiy maqola sabab bo‘lib, bu xato isloh qilindi va barcha nashrlarda bu sharaflı ism Bobur deb to‘g‘ri yoziladigan bo‘ldi.

Buyuk shoir, qomusiy alloma, nodir tarjimon, benazir shaxs – Zahiruddin Muhammad Bobur hazratlarining ismi va asarlari nomi masalasida yana ba‘zi bir ilmiy islohlarga zarurat bor. Masalan, Bobur Mirzoning o‘z asl ismi qanday bo‘lsa, aynan o‘shanday yozish va o‘qish zarur, chunki bu atoqli otdir. U zotning asl nomi “Zahiriddin Muhammad”mi yoki “Zahiruddin Muhammad”mi? Arab tili qoidalariga ko‘ra, zamma bilan “Zahiruddin” yozilishi shart. Buning ustiga, bu muborak ismni buyuk Naqshbandiya shayxi, benazir alloma va avliyo, Xojagon silsilasining 19-murshidi komili Xoja Ubaydulloh (quddisa sirruhu) hazratlari qo‘yib berganlar.

Mashhur muarrix alloma Abdulhay Lakhnaviy-Hasaniy “Nuzhat ul-xavotir” (“Xotiralar sayri”) asarida yozadi: “U zotning ismini hazrati Xoja Ubaydulloh Ahrorning o‘zlari Zahiruddin Muhammad deb qo‘yganlar, lekin turkiy xalqlar orasida Boburshoh deb mashhur bo‘lgan, juda ko‘p ilmlarda dengizdek ilm olgan”... (“Nuzhat ul-xavotir” (“Xotiralar sayri”, 314-bet).

Bobur Mirzoning jahon kutubxonalarida mavjud bo‘lgan barcha asarlari tariximizda birinchi marta to‘liq jamlanib, 2021–2022 yillarda olti jilddik Kulliyot tarzida nashr etildi. Bu nashrning hammasida buyuk muallif nomi Zahiruddin Muhammad Bobur deb to‘g‘ri yozildi. Bundan oldin – 2014 yilda chop etilgan “Mubayyan va nasriy bayoni” kitobida ham bu ism ana shunday yozilgan edi. Ilmiy jamoatchilik bu atoqli otga hurmat ko‘rsatib, mazkur islohgga xolis va xayrxoh nazar bilan qarashlari va bu to‘g‘ri xulosani qo‘llab-quvvatlashlari umid qilinadi. Ya‘ni, barcha turdagi adabiyotlarda “Zahiruddin Muhammad” deb yozishimiz ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Atoqli sharqshunos olimimiz Porso Shamsiyev “Boburnoma” asari haqida yozadi: “Asarning asli nomi **“Boburiya”** bo‘lsa-da, uni **“Voqe’anoma”**, **“Tuzuki Boburiy”**, **“Voqe’oti Boburiy”** deb atadilar, keyinchalik asar **“Boburnoma”** degan nom bilan mashhur bo‘lib ketdi” (*“Boburnoma” asariga yozilgan so‘zbohi, Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1965*). Kitob oddiy qilib **“Voqe’ot”** deb ham atalgan.

Asar tarixlar davomida xil-xil nomlar bilan atalgan bo‘lsa-da, “Boburnoma” degan nom uzukka ko‘z ko‘ygandek o‘rniga tushgan, butun dunyo boburshunos olimlari “Boburnoma” degan nomni e‘tirozsiz qabul qilganlar, shuning uchun bu nomga hech e‘tiroz bo‘lgan emas. Olti jildik Kulliyotda ham shu nom saqlandi va qavs ichida nisbatan mashhur bo‘lgan “Voqe’oti Boburiy” degan nomi qayd etildi.

Lekin “Mubayyan” va “Aruz risolasi” (“Mufassal”) asarlarining nomlari haqida bunday deya olmaymiz, chunki bular haqida ancha bahs-munozaralar bo‘lib, asosli va asossiz gaplar ham aytilgan.

“Mubayyan” asari Temuriylar va Boburiylar davri ijtimoiy, oilaviy, diniy madaniyatining ravshan ifodasidir. Shoh Bobur «Mubayyan» kitobi orqali buyuk faqih zot ekanini namoyon etadi, asarni o‘z valiahd o‘g‘illari Nosiruddin Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallab, ularning siymosi orqali butun xalq ommasiga besh farz fiqhiy masalalarini ta‘lim qiladi. Darhaqiqat, asarda muqaddas islom dinining besh rukni: iymon-e‘tiqod, namoz, ro‘za, zakot va haj masalalari go‘zal she‘riy tilda bayon etilgan. Tahqiq natijasida shunga shohid bo‘ldikki, “Mubayyan” asarining asosiy tayangan manba‘lari muborak “Muxtasari Viqoya” hamda “Hidoya”i sharif kitoblaridir. Asardagi duo matnlari esa asosan “Kutubi sitta”da, ya‘ni hazrati Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy, Imom Abu Dovud, Imom Ibn Moja, Imom Nasoiy kabi olti ulug‘ muhaddisning kitoblarida, ba‘zan Imom Tabaroniy asarida kelgan hadislardan hamda Imom G‘azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asaridan tanlab olingan.

“Mubayyin”mi, “Mubayyan”mi? Bobur Mirzo saroyida Shayx Zaynuddin Xavofiy kabi zot munshiy bo‘lib xizmat qilgan va Bobur Mirzoning “Mubayyan” (“Ochiq bayon etilgan fiqhiy masalalar”) asariga “Mubayyin” (“Fiqhiy masalalarni ochiq ayon etuvchi kitob”) degan sharh yozgan.

Bobur Mirzoning fiqhiy asari nomi “Mubayyan” ekani bugungi kunda to‘liq isbotini topgan va bunga hech shubha qolgan emas. Buni rus sharqshunosining gapiga tayanib, faqat o‘zimizning olimlarimizdan ikki-uchtasi “Mubayyin” deb yurityapti, xolos. Holbuki, bu jiddiy xatodir. Bu haqiqatga doir rad qilib bo‘lmaydigan bir necha ilmiy dalillarni ta‘kid bilan eslatib o‘tamiz:

1. Tarixchi olim Abdulhay Lakhnaviy-Hasaniy “Nuzhat ul-xavotir” (“Xotiralar sayri”) asarida yozadi: “U (Zahiruddin Muhammad Bobur) juda ko‘p ilmlarda dengizdek ilm olgan. Uning fiqhi Hanafiyda (Hanafiy mazhabi asosida) “Mubayyan” nomli asari bo‘lib, unga shayx Zaynuddin (ibn Qutbuddin al-Hanafiy) al-Xavofiy “Mubayyin” degan sharh yozgan” (*“Nuzhat ul-xavotir”, 314-bet*).

Qani, bu mustahkam dalilni kim rad etadi?

2. Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» (“Sevimli zotlar yodnomasi”) (XVI asr) asarida aytiladi: “Bobur podshohning fazilatlari bisyor va kamolotlari beshumordir. Aruz xususida yozgan risolasi (“Risolai aruz”) bir dengizdirki, ichi javohiru durlar bilan to‘ladir. Fiqh masalalarini yana bir risolada mubayyan qilgan (ochiq bayon qilgan)ki, yozuvchisi donishmandligidan nishonadir. Turkiy va forsiyda yaxshi she’rlari bordir. O‘shal fiqh risolasining nomi ham «Mubayyan»dir» («Muzakkiri ahbob», fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. 51-53-betlar).

3. “Muzakkiri ahbob”ning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 4282-raqamda saqlanayotgan nusxasidagi “mubayyan karda” (“ochiq bayon etgan”) va “nomi risola niz “Mubayyan” ast” (“risolaning nomi ham “Mubayyan”dir”) iboralariga ko‘ra, asar nomi “Mubayyan” ekanligi shubhasizdir (*Hasanxoja Nisoriy, “Muzakkiri ahbob”, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 4282-raqamda saqlanayotgan qo‘lyozma. Hijriy 996 sanada (milodiy 1587-yil, 12-dekabrü kuni), shanba, muqaddas muharram oyining 15-kuni ko‘chirib tugallangan. 34-a sahifa*).

Qani, asl Sharq manbalarida kelgan bu mustahkam dalillarni kim rad etadi?

4. “Urdu doirai ma’orifi Islomiya” (“Ma’orif”) ensiklopediyasining 3-jildi, 818-sahifasida Bobur Mirzo yozgan kitoblar nomi keltirilib, jumladan, aytiladi:

“Mubayyan” – ب (bo) fathali, ي (yo) tashdidli-fathalidir (ya’ni, Mubayyan – مُبَيَّن); bahri xafifi maxbun vaznida bir masnaviydir.. **“Risolai aruz”da** aytilishicha, hijriy 928, milodiy 1521 sanada tamomlangan. Bu sodda bir pandnoma bo‘lsa-da, bundan Boburning fiqhda anchagina dilchaspligi (ko‘ngli fiqhga muhabbatli ekanligi) va aqidasi mustahkam bir hanafiy ekanligi ma’lum bo‘ladi. “Mubayyin” kitob sharhining nomidir. Uni Boburning munshiysi shayx Zayn yozgan. Bu asar “Fiqhi Boburiy” deb ham atalgan” (“Urdu doirai ma’orifi islomiya” ensiklopediyasi, urdu tilida. Panjob universiteti nashri, hijriy 1392, milodiy 1972-yil. 3-jild, 818-sahifa).

Bu o‘rinda “fathali”, “tashdidli” deya arabiy e’roblarning aniq keltirilishi asarning nomi “Mubayyan” ekanini uzil-kesil isbot qiladi. Insofi bor odam bu ulug‘ dalilni rad etadimi?

5. Turk boburshunos olimlari hamisha fiqhiy asar nomini “Mubayyan” deb qayd etganlar. Turkiya Diyonat vaqfi Islom ensiklopediyasida “Mubayyan” asarining nomi ba’zi manba’larda “Dar fiqhi Mubayyan” yoki “Fiqhi Boburiy” tarzida kelishi qayd etiladi. Bundan asarning asl nomi “Mubayyan” ekani ayon bo‘ladi (399-sahifa).

6. Asarning bir qismi Beryozin tomonidan 1857-yilda Qozon shahrida “Xrestomatiya Tyurki” kitobi tarkibida “Mubayyanul-Islom” nomi bilan chop etilgan. 1905 yilda Toshkentda nashr etilgan nusxa ham shunday nomlangan. Bas, qaysi so‘z ilova etilmasin, asarning asl nomi “Mubayyan” ekani anglashiladi (*Turkiya Diyonat vaqfi Islom ensiklopediyasi, 399-sahifa*).

7. Abdulqodir al-Bayzouniy “Muntaxab ut-tavorix” (“Tarixdan saylanmalar”) asarida asarning nomi “Mubayyan” ekanini oshkor ta’kidlaydi (1-qism, 343-sahifa);

Rengking qalamiga mansub inglizcha tarjima, 1-qism, 450-sahifa – Turkiya Diyonat vaqfi Islom ensiklopediyasi, 399-sahifa).

8. Boburiylar sulolasidan Akbarshohning vaziri va yaqin safdoshi Abul-Fazl Allomiy tomonidan (1589–1601 yillarda) yozilgan “Akbarнома” (“Ta’rixii Akbariy”) kitobida asar nomi “Mubayyan” deb aytiladi va bu risola shuhrat qozonib, ko‘p qadr topgani bildiriladi (*“Akbarнома”, 278-sahifa – Turkiya Diyonat vaqfi Islom ensiklopediyasi, 399-sahifa).*

Bundan asarning nomi “Mubayyan” ekani ravshanlashadi.

9. Tehrondagi “Kutubxonai saltanat”da (Davlat kutubxonasida) saqlanayotgan Bobur kulliyoti ichida ham asar nomi “Mubayyan” deb bitilgan, mazkur nusxa hijriy 931 (milodiy 1525) yilda ko‘chirilgani ma’lum qilinadi.

10. Asar haqida Turkiyada qilingan ilmiy tadqiqotlarda hamisha “Mubayyan” degan nom bilan qayd etilgan. Bu esa Turkiya tadqiqotchi olimlari mazkur masalani diqqat va ilmiy xolislik bilan o‘rganganlarini ko‘rsatadi.

11. Endi dalillarning eng muhimi va eng ulug‘iga o‘tamiz. Bobur Mirzo kitob xotimasida yozadi:

Chun bayon etdim anda shar’iyyot,

Ne ajab, gar dedim “Mubayyan” ot, -

ya’ni, “Unda shar’iy masalalarni bayon etganim uchun kitobni “Mubayyan” (“Ochiq bayon qilingan shar’iy masalalar”) deb nomladim”. Bu o‘rindagi “shar’iyyot” (“shar’iy masalalar”) so‘zi “Mubayyan”ga ishorat qiladi. Ya’ni, “Ochiq bayon etilgan shar’iy masalalar” demakdir. Bobur Mirzo e’tiborni ochiq bayon etilgan shar’iy masalalarga qaratyapti, “Men bayon etdim” deyapti, “kitob bayon etdi” demayapti. Agar e’tibor shar’iy masalalarga emas, kitobga qaratilsa edi, “Mubayyin” (“Ochiq bayon etuvchi kitob”) deb o‘qish mumkin bo‘lar edi. Holbuki, bu o‘rindagi so‘zni qat’iyan “Mubayyan” deb o‘qish mumkin. Shuning uchun dunyo olimlari “Mubayyan” degan nomga to‘xtalgan.

Biror ilmiy haqiqatning isboti uchun dalilni xorijiy sharqshunoslarning so‘zidan emas, balki, Sharq manbalarining o‘zidan olishimiz lozim. Demak, barcha turdagi darslik va ensiklopediyalarda asar nomi “MUBAYYAN” deb to‘g‘ri qayd etilishi zarur.

“Aruz risolasi” haqida xolis mulohazalar. Aruz – she’r vaznlari, o‘lchov va hijolari haqidagi fan bo‘lib, ma’rifiy she’riyat qoliplari, hijolarning uzun-qisqaligi asosida vujudga kelgan. Hazrati Alisher Navoiy Aruz fani nazm o‘lchovlarining o‘lchovi bo‘lib, sharafli fan ekanini, shu bois, nazm ilmining martabasi bag‘oyat buyuk martaba ekanini ta’kidlaydilar: “Ammo bilgilkim, aruz fannikim, nazm avzonining mezonidur, sharif fandur. Nevchunkim, nazm ilmining rutbasi bag‘oyat biyik rutbadur” (*Alisher Navoiy. “Mezonul-avzon”. Mukammal asarlar to‘plami, yigirma jildlik, 16-jild).*

Turkiy-o‘zbek tilidagi aruz risolalari. Aruz sharafli ilm bo‘lgani sababidan adabiyot olamida aruz ilmi qoidalariga doir mumtoz asarlar bitilgan. Turkiy-o‘zbek adabiyoti tarixida aruz ilmiga oid eng birinchi risola Shayx Ahmad Taroziyning «Fununi balog‘a» (“Balog‘at fanlari”) asaridir (*Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-jild, «Mezon ul-avzon» izohlaridan).* Undan keyin Alisher Navoiyning

«Mezonul-avzon» kitobi, undan soʻng esa Bobur Mirzoning «Aruz risolasi» turkiyda yozilgan.

Navoiy va Bobur asarlaridan oldin yozilgan aruz risolalari. Alisher Navoiy aruz ilmiga oid “Mezonul-avzon” asarida oʻzlaridan oldin mazkur ilmga oid asar yozgan Shams Qays, Xoja Nasr Tusiy va Abdurahmon Jomiy kabi aruz nazariyasining asoschilari hamda bu ilmga asos solgan Xalil ibn Ahmad ismlari va asarlarini eslab oʻtadilar.

Xalil ibn Ahmad – aruz ilmining voziʻi, yaʼni asoschisi boʻlib, aruzga oid asari “Kitobul-ayn” deb nomlangan. Shams Qays – Shamsuddin Muhammad ibn Qays Roziy aruz ilmi ustozlaridan boʻlib, Eronning Roy shahrida tugʻilgan. “Al-moʻjam” asari mashhur boʻlgan. Xoja Nasir Tusiy – Abdu Jaʼfar Muhammad ibn Hasan Nasiruddin Tusiy – ijtimoiy-axloqiy mavzularda koʻp asar yozgan boʻlib, bu iqtibosda u kishining “Meʼyorul-ashʼor” nomli aruz nazariyasiga oid asari koʻzda tutilmoqda. “Asosul-iqtibos” asarini ham aruz nazariyasiga oid deyiladi. Mavlono Abdurahmon Jomiy – ulugʻ alloma, shayx, shoir va mutafakkir zot. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”da u zotning «Risolai aruz» asari aruz sanʼati haqidagi eng mukammal qullanmalardan biri deb taʼkidlanadi (*Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 3-jild, 622-bet*).

Biz Bu aziz zotlarning risolalarini faqat hazrat Navoiy asari orqali bilamiz.

Aruzga oid risolaning nomi. Afsuski, baʼzi nashrlarda (1971) Aruzga oid asar nomi “Muxtasar” deb notoʻgʻri belgilangan. Bu xato fikr maqolalardan-maqolalarga koʻchib kelmoqda. Bobur Mirzo asarning bir necha oʻrnida “muxtasar” degan soʻzni qoʻllaydi, lekin bu ibora asarning nomi degani emas.

Masalan, “Aruz risolasi”ning bir necha joyida “muxtasar” soʻzi uchraydi.

Birinchi joyda bu soʻz Ahmad Manshuriyning “Kanzul-gʻaroyib” asari haqida “moʻjaz bir asar” degan maʼnoda keladi. Dalil: “Mutalavvin sanʼatda mundogʻ debtur: “Rashid(uddin) Vatvot nakl karda, ki Ahmad Manshuriy muxtasare soxta va onro Xurshidiy sharh karda va nomash “Kanzul-gʻaroyib” nihoda... va jumlai on muxtasar az in abyoti mutalavvinist...”.

Maʼnosi: “Rashid(uddin) Vatvot naql qildikim, Ahmad Manshuriy moʻjaz bir asar yozdi, unga Xurshidiy sharh bitti, nomini “Kanzul-gʻaroyib” (“Ajoyibotlar xazinasini”) deb atadi, u asar toʻligʻicha ushbu rango-rang tovlanib turuvchi baytlardan iboratdir”.

Ikkinchi joyda soʻz “Aruz” risolasi haqida boradi va “moʻjaz asar”, “qisqa risola”, “kamtarona kitob” degan maʼnoda keladi. Dalil: “Sheʼr ahli arosida shoyiʼ vaznlarda ustoddin gʻarro ashʼor kelturulgay, to bu muxtasar bu vasila bila fusaho nazariqʼa manzur va shuʼaro tiliga mazkur boʻlgʻay” (*Shahiruddin Muhammad Bobur, Aruz risolasi. Parij nusxasi. inv. № 1308, v. 44b.*).

Maʼnosi: “Sheʼr ahli orasida ustozdan keng tarqalgan vaznlarda yorqin va porloq sheʼrlar keltiriladi, toki bu moʻjaz (kamtarona) asar fasohatli zotlar nazariqʼa manzur boʻlib, shoirlar tiliga tushsin”.

Uchinchi joyda gap Sharaf Romiyning “Muqaddimai salavot” asari haqida boradi. Dalil: “Sharaf Romiy bu vaznda Imom Abu Hanifa mazhabida bir fiqhi muxtasare nazm qilib, “Muqaddimai salavot”gʻa mavsum”.

Ma'nosi: "Sharaf Romiy Imom Abu Hanifa mazhabida bir fiqh asarini nazm yo'lida bitdi, u "Muqaddimai salavot" deb ataladi".

To'rtinchi joyda ham "muxtasar" degan so'z "mo'jaz, kamtarona asar" degan ma'noda keladi va gap Bobur Mirzoning "Mubayyan" asari haqida boradi. Dalil: "Ta'rix to'qquz [yuz] yigirma sekkizda, men dag'i Imom Abu Hanifa mazhabida Tengri tavfiqi bila bir fiqhe nazm qildim, "Mubayyan" g'a mavsum". "...Chun bu muxtasar safarda bayozg'a bordi, ul munosabat bila musofir masoyilini bitildi" («*Aruz risolasi*», varoq 45a.).

Ma'nosi: "Men ham to'qqiz yuz yigirma sakkizinchi yilda Tangrining yordami bilan Imom Abu Hanifa mazhabida bir fiqhiy asar nazm qildim (she'riy yo'lda bitdim), u "Mubayyan" deb nomlanadi". "Bu mo'jaz, kamtarona, nochiz asar ("Mubayyan" asari) safarda yozilgani munosabati bilan unda eng birinchi safardagi musofir namozining masalalari bitildi".

Bu keyingi "muxtasar" degan so'z "Aruz risolasi"ga emas, balki qat'iy "Mubayyan" asariga tegishlidir. Chunki shu so'zdan so'ng Bobur Mirzo "Mubayyan"dagi "Musofir masoyili"dan (Musofir namoziga oid masalalardan) yana 27 bayt misol keltiradi. Agar "muxtasar" so'zini asar nomi deb tushunilsa, u holda "Mubayyan" asarining nomini ham "Muxtasar" deyishga to'g'ri keladiki, bu esa jiddiy xatodir.

"Muxtasar" so'zi qaysi ma'noda keladi? "Muxtasar" so'zi – lug'atda: 1) "qisqartirilgan, qisqa qilingan, ixtisor etilgan; qisqa, mo'jaz, ixcham, 2) kichik, mayda, qisqa shaklli; 3) arzimas, kamtarona, nochiz, e'tiborga noloyiq" degan ma'nolarda keladi.

Bu so'z "mo'jaz, ixcham, arzimas, nochiz, kamtarona" degan ma'nolarda kelganda asar muallifi o'z kamtarligi, xoksorligi va tavozu'korligini izhor etgan bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiy "Xamsatul-mutahayyirin" asarida Mavlono Abdurrahmon Jomiy haqlarida yozadilar:

"...Chun **bu muxtasarda** ("Majolis un-nafois" asarida) mazkur bo'lg'on jamoatning ra's va raisi ul zoti nafis va bu risolada mastur bo'lg'on guruhning muqtado va peshvosi ul gavhari yaktodur, muborak ismlari bu avroqda sabt bo'lurdin guzir va yozilmasa dilpazir ermas erdi, jur'at bo'ldi" (*Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami, 15-jild, "Xamsatul-mutahayyirin", "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1983*).

Matndagi "chun bu muxtasarda" iborasi "bu mo'jaz asarda", "bu ixcham kitobda", "bu kamtarona risolada" degan ma'noda kelmoqda.

Hazrat Navoiy mazkur ("Xamsat ul-mutahayyirin") asarida yana aytadilar: "Alarni (Mavlono Jomiy) chun mundoq xushhol ko'rdum, ayttingim: «Himmat tutsalar, bu dastur bilan bu fan (muammo janri) qoidasida **muxtasare** raqam qilsam (bir asar bitsam)».

"Alar dedilar: «Sen bu tashvishni tortma». Hamul ikki-uch kunda manzumi **muxtasarni** tahrir qildilar".

Faqir yana istid'o qildimkim, amr bo'lsa, mundin osonroq qilsa bo'lg'ay, deb, ma'mur bo'lg'ondin so'ngra «Mufradot» g'a mavsum **muxtasarni** ("Mufradot" deb nomlangan mo'jaz, ojizona, kamtarona asarni) bitidim va alar xizmatig'a yetkurdum. Qabul nishonasi mundin o'tmaskim, bovujudi muncha rasoilkim, holo

arodadur, maxdumzodag'a **ul muxtasarni** o'qurg'a ishorat bo'ldi va ul bu **muxtasar**da muammo fannig'a vuquf topti" (*Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami, 15-jild, "Xamsatul-mutahayyrin", "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1983*).

Mana shu parchadagi to'rt o'rinda ham "muxtasar" so'zi "asar" "qisqa asar", "mo'jaz asar", "ixcham kitob", "kamtarona risola" degan ma'nolarda kelmoqda. Baski, "Aruz risolasini" "Muxtasar" deb nomlovchi olimlarimiz bu so'zning asl ma'nolarini tadqiq qilmasdan chalg'iganlar.

"Majolis un-nafois" asaridan: "Ul jumladin, soliki atvor va koshifi asror, ya'ni, hazrati Amir Qosim Anvor (quddisa sirruhu)dur. ...tayammun jihatidin bu **muxtasarni** (kamtarona, mo'jaz asarni) alarning sharif ismlari bila ibtido qilildi".

Bu o'rinda so'z "Majolis un-nafois" asari haqida bormoqda.

Alisher Navoiy yana "Ta'rix i anbiyo va hukamo" (XV-232) asari haqida so'zlab: "Chun bu muxtasarda (mo'jaz, ixcham, ojizona asarda) matlub ixtisordur", deydi.

Yana "Ta'rix i muluki ajam" (521) asari haqida so'z yuritib: "...bu muxtasarda ul kunjoyish (sig'ish imoni) yo'qturkim, borhasin bitilgay, ikki-uch kalima bilan ixtisor qilildi", deydi.

"Nazm ul-javohir" (17) kitobi haqida so'zlab: "...chun bu muxtasar maqolatda (qisqa bobda) so'z marotibi bisotining kushoyishi yo'q erdi", deydi.

Yana "Mezon ul-avzon" (XIV-136) asari haqida aytadi: "...Aruz fanida bu muxtasar (ixcham, qisqa asar) sabt bo'ldi va anga "Mezon ul-avzon" ot qo'yuldi".

Hazrat Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"dek muhtasham asarni ham muxtasar (kamtarona, ojizona asar) degan sifat bilan tavsiflaydi (XV-78) va: "Ammo bu muxtasarda muncha zikri bila iktifo qilindi" deydi.

Xullas, Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarini, jumladan, "Majolis un-nafois", "Xamsatul-mutahayyiriyin", "Ta'rix i anbiyo va hukamo", "Ta'rix i muluki ajam", "Nazmul-javohir", "Mezonul-avzon", "Sirojul-muslimiyn"ni, hatto "Nasoyimul-muhabbat" kabi qomusiy asarini ham tavozu' va xoksorlik ila "muxtasar" – kamtarona, ojizona asar deb nomlaydi.

Bas, Bobur Mirzo ham mumtoz adabiyot sohiblarining ana shu odob va rioyatiga ergashib, o'z asarini "muxtasar" demoqda. Agar bu so'zni asarning nomi deb tushuniladigan bo'lsa, yuqorida zikr qilingan kitoblarning hammasini "Muxtasar" deb nomlashga to'g'ri keladiki, bu katta xatodir.

Mumtoz adabiyot vakillari o'z ta'lif va tasniflari haqida so'zlab, "muxtasar" so'zini qo'llagan bo'lsalar, "mo'jaz asar", "qisqa asar", "kamtarona, ojizona asar" degan ma'noni ifodalagan va kitobxon huzurida ulug' odob va xoksorlikni namoyon qilgan bo'ladi. Bas, aruz haqidagi kitobning nomi, shubhasiz, "Aruz risolasi"dir, aslo "Muxtasar" emasdir.

Bobur Mirzoning o'z so'zi. Asarning Bobur Mirzo o'z qalami bilan atagan nomi "Aruz" (ya'ni, "Aruz risolasi")dir. Bunga dalil muallifning asarda keltirgan o'z so'zlaridir. Bobur Mirzo yozadilar: «**Aruz** itmomidin (ya'ni, "Aruz risolasi" tamomlanganidan) ikki-uch yil so'ng, Hindiston fathining so'ngg'i yili, Sanbal sarig'a borur fursatta bir mutatavval bayt o'n olti rukn bila aytilib erdi» (*Aruz risolasi*", varoq 44 b.).

Yana bir dalil: “Urdu doirai ma’orifi Islomiya” (“Ma’orif”) ensiklopediyasida “Mubayyan” kitobi haqida aytiladi: ...**“Risolayi aruz”da aytilishicha, asar hijriy 928, milodiy 1521 -sanada tamomlangan**” (3-jild, 818-bet).

Mana shu mustahkam dalillarga tayanib, jahon boburshunos olimlari asarni “Aruz risolasi” deb atashga to‘xtalغانlar.

Asar nomi Natan Mallaevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida “Mufassal” nomi bilan qayd etiladi (N. M. Mallayev, *O‘zbek adabiyoti tarixi, Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti, 1965. 637-bet; Saidbek Hasan izohidan*)).

Bu nom qaysi dalilga tayanadi? Taniqli olim (marhum) “Mufassal” degan nomni qaerdan olgan? Muallif bu nomni Bobur Mirzoning vafotidan keyin “Boburnoma”ga ilova qilingan matndan olgan. Chunonchi, ilovada aytiladi:

“Va ul podshoh (Zahiruddin Muhammad Bobur), aruz va qofiyag‘a ham risolalari bor va ul jumladin, «**Mufassal**» degankim, ushbu fan (aruz ilmi) sharhi bo‘lg‘ay, ko‘pdin-ko‘p yaxshi tasnif qilibturlar” (“*Boburnoma; Hindiston davri voqealari*).

Muallifi ma’lum bo‘lmasa-da, ilova Bobur Mirzoga yaqin davrda bitilgan. Bundan boshqa biror manbada asar “Mufassal” degan nom bilan qalamga olinmagan. Shunga qaramay, kitob nomini “Aruz risolasi”dan keyin qavs ichida “Mufassal” deb qayd etishning ilmiy haqiqatga zid joyi yo‘q.

Lekin dunyo Boburshunos olimlarining xulosasiga qo‘shilgan holda, yakdillik bilan asarni Bobur Mirzoning o‘z so‘zlari ila “Aruz risolasi” deb atash maqsadga muvofiqdir. Barcha bosqichdagi adabiyot darsliklarida, ensiklopediya kitoblarimizda mana shu nomni tanlash o‘rinli bo‘ladi.

ANDIJON TOMONLARDA

Rost so‘zimga ishon, deb so‘yladim yolg‘onlarni,
Do‘st tutdim telba xayol, devona tug‘yonlarni,
Lekin mudom istadim bir yaxshi zamonlarni,
Daraklaring bormi, yor, Andijon tomonlarda?

Ne tong, ismingni aytib tongni uyg‘otar bo‘lsam,
Ne baxt, kulgu – nur sochib tong kabi otar bo‘lsam!
Men Toshkent tomonlarda gunohga botar bo‘lsam,
Kokillaring bo‘lsin dor Andijon tomonlarda.

Qirg‘in-qirg‘in yillarning qorong‘u hijroni bu,
Sunbul-sunbul sochlarning samoga isyoni bu,
Jon chekkan juvonlarning chiqmay yotgan joni bu –
Gar bor bo‘lsa Kuyganyor¹ Andijon tomonlarda!

Ishqing qo‘lda torimdir, sadolari shod bo‘lsin,

¹ Kuyganyor – Andijon viloyatidagi bir qishloq nomi.

Ul sayrasa, yolg‘onu g‘am qasri barbod bo‘lsin,
Yuz turli makonlarda ming turli faryod bo‘lsin,
Qo‘llarimdan tushsa tor Andijon tomonlarda.

Umid telba oshiqning mushkulin oson qilgay,
Dard chekkanlar shodlik ham ko‘rsalar, gumon qilgay,
Nahot, endi ketding, deb yuragim fig‘on qilgay,
Taralsa bir «Yor-u yor» Andijon tomonlarda.

«Anda jonim» degan so‘z tarixlarda bayondir,
Gar qadaming bejodir, gar niyating yomondir,
Oyoq bossang, parcha yer chinqirmog‘i ayondir –
Bobur Mirzo joni bor Andijon tomonlarda.

1984

Prof. Dr. Münevver Tekcan
Kocaeli Üniversitesi Fen- Edebiyat Fakültesi
Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü Eski Türk Dili,
Türkiye

SAMARKAND IN THE *BABUR-NAMA*: THE KHANATE'S CROWNING JEWEL

Abstract: This reading of *Babur-nama* focuses on a short chapter titled "Description of Samarkand", deciphering the translated material and attempting to analyse the multiple interpretations of the text. While the section in question critiques a story that alternates between a fictional and supposedly fascinating reality, *Babur-nama* and the characterisation of Samarkand determine each time Samarkand is mentioned in *Babur-nama* and evaluate how the city was mentioned. As this study aims not to interpret *Babur-nama* as a social history or establish a law of cause and effect, it instead seeks to use the reconstructed boundaries to explore new possibilities and create reading pleasure by reconstructing new meanings in *Babur-nama*. The study underlines Samarkand as the centre of attention for demonstrating the Khanate and its varied aspects. Babur's records function as an inventory for the Khanate, including Samarkand seen as a family heritage and its buildings considered crown jewels. Despite numerous handovers, the city's architecture has stayed unaltered, suggesting an earlier mythical past, much like diamonds and priceless stones.

Keywords: Samarkand, *Babur-nama*, reconstructing, khanate

Annotatsiya: “*Boburnoma*”ning bu mutolaasida “Samarqand ta’rifi” nomli qisqa bobga e’tibor qaratilgan bo‘lib, tarjima qilingan materialning shifrini ochib, matnning ko‘p talqinini tahlil qilishga harakat qilinadi. Ko‘rib chiqilayotgan

bo‘lim xayoliy va go‘yoki maftunkor voqelik o‘rtasida almashinadigan hikoyaning tanqidi bo‘lsa, “*Boburnoma*” va Samarqandning xarakteristikasi “*Boburnoma*”da Samarqand har gal zikr etilganini belgilaydi va shahar qanday tilga olinganiga baho beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi “*Boburnoma*”ni ijtimoiy tarix sifatida talqin qilish yoki sabab-oqibat qonunini o‘rnatish emas, balki u “*Boburnoma*” asarida yangi ma‘nolarni qayta qurish orqali yangi imkoniyatlarni o‘rganish va o‘qish zavqini yaratish uchun qayta qurilgan chegaralardan foydalanishga intiladi. nom. Tadqiqotda Samarqand xonlik va uning rang-barang tomonlarini namoyish etishning diqqat markazida ekanligi ta‘kidlanadi. Boburning yozuvlari xonlik uchun inventar sifatida xizmat qiladi, jumladan Samarqand oilaviy meros sifatida ko‘riladi va uning binolari toj javohiri hisoblanadi. Ko‘plab topshiriqlarga qaramay, shahar arxitekturasi o‘zgarmadi, bu esa olmos va bebaho toshlar kabi oldingi afsonaviy o‘tmishni ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, *Boburnoma*, qayta qurish, xonlik

Introduction

Samarkand, an enduring motif of Silk Road romance and previously the hub of several routes and commercial roadways, is one of the few iconic places in the World that has received attention from several books. The city dates back to the 7th century BC. is "Old Afrasiab", which is said to have undergone its greatest development during the Timurid period, which lasted from the 14th to the 15th and early 16th centuries. Samarkand is known as the birthplace of the Renaissance. The Timurid Renaissance was the capital of its empire, the site of many madrassas and the centre of Islamic teachings. Over the centuries, the city has maintained an academic focus on the arts and sciences and is renowned for its intellectual activity.

On the other hand, since Samarkand is a centre of artistic and scientific thought, the city has spectacular architecture, including the Registan Mosque and Madrasahs, the Bibi-Khanum Mosque, the Shakhi-Complex Zinda, all of Gur-Emir and Ulugh- Beg Observatory. It is now a popular tourist destination and an integral part of Uzbekistan's modern identity.

This article is read from two translations.¹ The purpose of the article is not to explain social history or to suggest causal laws but to use the reconstructed boundaries to explore new possibilities and provide good reading to reconstruct ideas of new meaning in *Babur-nama*. Thanks to the wisdom and experience accumulated over time, rereading the diary will always reinvent itself, showing that the “story” will constantly reinvent itself. The reader is the space in which all the diverse aspects of the text meet and reproduce the text.

¹ Western translators have endorsed the *Babur-nama* with literary values and have given it credence as a source of information about the past. The best-known translation was written at the beginning of the 20th century by Annette S. Beveridge (Beveridge 1922). More recently, at the end of the 20th century, another translator W. M. Thackston (Thackston 1993) tried to modernise Beveridge’s language. Throughout this paper quotes from these translations are annotated by B and T respectively. This is followed by the page number of the translation and then, in brackets, the folio number in the original manuscript.

It was made into the capital after many battles. Babur besieged Samarkand three times, each time gaining and losing control of the city. Its legendary value made it a desirable price. It was a jewel in the Khanate's crown and a symbol of magnificence imprinted in Babur's memory, eternally shining but only in the past. In one sense, the *Babur-nama* could be regarded as a narrative history, but its significance in Central Asian history and culture elevates it to a more profound significance.

Even though the Timurid monarchs and the accounts contained in Babur's narrative are regarded as part of national identity and culture, it has virtually iconic dimensions with symbolic value beyond the narrative. The inspiration for the *Babur-nama* translation may be traced back to nineteenth-century European Orientalism and Colonialism, with locations such as Samarkand providing backgrounds for a Romantic adventure, which resulted in yet another narrative. On the other side, the Soviet Union attempted to invent its own story in the twentieth century, however, the modern era is resurrecting the past with enormous heroic statues of Baburid Empire commanders and narratives in the *Babur-nama*.

Samarkand according to *Babur-nama*

Babur portrays Samarkand as a centre with links to various attributes used to promote the Khanate. It also serves as an inventory for the Khanate, which considers Samarkand as a family heirloom and its architecture as its crown jewels. Although the city had changed hands several times, its buildings remained intact and, like gold and precious stones, Samarkand maintained a link to a more glorious past. According to Babur, the world is divided into civilised and non-civilised parts. In this remote part of the world, the Khanate needed to appear civilised and cultured. Samarkand was a significant Silk Road crossroads between East and West, located "in the fifth clime, 99° 56' longitude, 40° 40' latitude" T91(44b). This location separates Samarkand from the natural world and places it under the authority of mathematics and science, which the Khanate desired to be associated with.

In terms of geography, the Babur narrative is inward-looking, with Samarkand at the core of eight cities in the north, south, east, and west; consequently, Babur sees Samarkand as the hub of a declining world, rather than the peripheral regions of a civilised world. Since Samarkand was at the heart of the fading Silk Road in the 16th century, Central Asian cities lost their significance as the Silk Road, once a symbol of human unification, became obsolete. His great-great-great-grandfather's culture has spread far beyond his planet. Samarkand had formerly been at the centre of vital trade lines connecting Europe in the West and China in the East; these were cultures that Babur wished to emulate, but could only be remote. On the other hand, Babur links Samarkand, with Islam. "Samarkand had become Muslim during the time of Caliph Uthman" T91(44b). This connects a link to a particular era, a point in time, and a reference to an important Islamic figure and ruler. In Samarkand one of Muhammad's Companions, Qusam Ibn Abbas, was born in Medina in 624 and died in Samarkand in 677. He was a participant in the Arab conquest of Central Asia and

had a tomb outside the Iron Gate, strengthening the link to Islam. The contemporary authorities promote links inspired more by Babur than 'historical fact,' and huge heroic statues depicting figures from the past are still proudly presented to visitors.

By referring to Alexander the Great, Babur is cautious, noting, "Iskandar must have founded Samarkand." B75 (44b), not "Iskandar established Samarkand." Reading from the twenty-first century could question why certain private memoirs are treated with such caution. Babur was born within the Khanate and as such was a part of it; consequently, allusions to figures such as Alexander the Great must have been interpreted with caution from his perspective. Following a great warrior with an important religious leader, Babur, in these words, questions the ethics of war. The solemnity associated with Alexander is tied to Islamic concepts of peace that occasionally appear in *Babur-nama*. In this setting, Babur was willing to utilise Iskender and Osman to expand the Khanate and deal with the challenges that emerged.

According to the Babur, "Timur Beg made it [Samarkand] his capital; no ruler so magnificent has ever made it a capital before." B75 (44b). When Babur states, "I ordered that the fortress be pasted off," this places Samarkand within Babur's family. T91 (44b) Babur sent his forces to measure the fortress's walls and marched his warriors around the circumference of the fortress, counting their steps. Pacing off the castle was one method of finding Babur's inheritance in two dimensions, and measuring the distance around its walls was another way of exercising control over a protecting symbol. Babur was able to count the paces around the fortress.

This also may be a measure of each generation against the next. Appearing to understand measuring and its underlying mathematics was important to the Khanate who wanted to appear educated. "The people are all Sunnis." T92 (44b) Samarkand is becoming more and more well-defined by turning attention to its population and their beliefs. This is made more tangible by referring to the people as "followers of religious law." Man-made law and religious law are connected through the fortress and the forces inside. Babur continues "There is no province known to have produced so many leaders of Islam as Transoxiana." T92 (44b) Note that it is the province and hence its power structures that have produced these religious leaders and not their fathers and mothers. Yet, the *Babur-nama* reminds us that these leaders of Islam also represent a theological split. "Theologians are divided into two groups, the Maturidites and the Ash'arites. Although they are both Sunni, they nevertheless signify a division. This can be read in several different ways. On one level, there is a connection between provincial administration and religious sects, but on another level, the Khanate, a higher form of government, is considered to transcend Islamic boundaries.

In several parts of the *Babur-nama*, connections between important people and the cities where they worked or were born are established. In the case of Samarkand, exponents of dialectic theology and jurisprudence are included with

authors. Samarkand is represented as a theological and intellectual hub. Although this is true, it is a misleading connection since those in the provincial government and the Khanate are taking advantage of a coincidence. However, the people/place connection cannot be ignored; Timur Beg established Samarkand as his capital through his personal actions.

Samarkand and its Surrounding Areas

In other aspects, the Babur narrative is contemplative, with Samarkand functioning as the focal point among eight towns, implying that it is the focal point of a decaying world. The locations of cities are described concerning one another. Babur's language of measurement would always keep him aside from what he desired to be a part of. The traveller may travel from one city to another, but he will never reach the next town. Location in proximity to Samarkand, as well as historical context, are crucial. However, this is a history constructed by the Khanate and transmitted through to Babur. Timour, my great-great-grandfather, founded Samarkand in the 1370 century, which remains permanently in the past.

The *Babur-nama* locates the Kohik Water relative to Samarkand, it “flows along the north of Samarkand ... The Kohik Water is so-called because it comes out from underneath the upland of the Little Hill (Kohik).” B76 (45a)

From the Kohik river branches a large waterway or canal called the Dargham. The Dargham is manmade and branches from the natural river, which it nearly surpasses, “like a large river, cut off from the Kohik Water” B45a. The *Babur-nama* regards culture and civilisation as reshaping and regulating nature. Natural landmarks such as rivers and hills are situated relative to man-made cities. “The Kohik Water flows along the north of Samarkand” B76 (45a)

From the Dargham “are irrigated the orchards and the exurbs of Samarkand.” T93 (45a) For any town, or city, large or small, water, in the form of a river, is an important feature. In the 16th century, Cities like Samarkand were projected as centres of learning and culture. Controlling natural water sources, such as the Dargham, was part of this perception. According to the *Babur-nama*, “All the gardens and the suburbs and some of the tūmāns of Samarkand are cultivated by it.” B76 (45a) The Dargham has been described as part of an irrigation scheme, for the orchards, gardens and the suburbs of Samarkand.

This ‘small river’ reaches as far away as Bukhara and Karakul 30 or 40 leagues away and now this “large river ... receives no increase from the cultivation and habitation for which it supplies water.” T93 (45a) Cultivation can be disassembled to reveal multiple meanings and discrepancies. Pomegranates nourish a culture that provides absolutely nothing in return. The T translation of the *Babur-nama* cautions that “for three or four months during the summer, no water reaches Bukhara.” T93 (45b) The Dargham River has run dry. The old B translation is less direct. “large as the river is, it is not too large for its dwellings and its culture, during three or four months of the year, indeed, its water does not reach Bukhārā.” B77(45a) The most recent translation suggests that too much

water is taken from the river the older translation suggests that the river cannot provide enough water. Deconstructing the translations indicates perceives at the beginning and close of the twenty-first century that could never have existed in their original context.

Babur documents and categorises buildings, gardens, and meadows as part of his great-great-grandfather Timur's inheritance. Timur's authority and influence are displayed in Samarkand and its surrounding cities. Babur writes about what he inherited. He finds himself at the head of a Khanate that wants to use Timur's past greatness to promote itself.

More subsequently, Soviet planners comprehended Timur's achievements differently, arguing that "the culture of earlier centuries was an expression of the feudal mode of production, and the town's heritage and its monuments were symbols of the patriarchal mode." [Azzout, 1999:162].

Fruits

The grapes, melons, apples, and pomegranates of Samarkand appear to convey a sense of confidence or safety. Fruit is a common theme in Babur's accounts. Eating luscious, juicy fruit along the roadside in the heat of July must have appealed to a young prince. For all travellers eating the local produce is popular and appeals directly to the senses. Babur typically refers to the rivalry between cities over who can grow the tastiest fruit. Competition to grow the greatest fruit may serve as a replacement for the heavy-weight politicians who were attempting to find Samarkand's place in a world where its standing was deteriorating. It has already been suggested that fruits like pomegranates might correspond to the bourgeoisie. As a final possibility, the disproportionate amount of space given to sweet succulent fruits may have associations with an adolescent prince who had lost his father and became the ruler of an empire. The *Babur-nama* adds, In Samarkand *Ashlıg vāfir, mevāsı farāvān qavun, uzum yaxshi bolur.*" Grain and fruit are plentiful there, and melons and grapes are excellent.^{B3(f2a)}

Grain and grapes may be a prelude to alcohol beverages which Babur will taste in the romantic age of his life and later on in his life become a dominant thought in his mind. Asfara, "*aqar suları, safalıq bagcheleri bar*" has running waters, beautiful little gardens (baghcha) and many fruit trees but almonds for the most part in its orchards."^{B7(f3)}

There is a beautiful contrast between the flowing water and almond orchards which sandwich the gardens and fruit trees. Andijan has "fruits in abundance, excellent grapes and melons."

^{B3(2a)}Aush has "a fine climate, an abundance of running waters and a most beautiful spring season. "^{B4(2b)} Marghinan is "*pur-ni'met. Anārı ve oruki asru xūb bolur*" a fine township full of good things. Its apricots and pomegranates are

most excellent.^{B6(3a)} Apricots and pomegranates are treated in abundance throughout the Fergana chapter, and are repeated, creating a seductive succulence.

"Grapes, melons, apples, and pomegranates, all fruits, are indeed, good in Samarkand" ^{T77 (45b)}. They could be even better after deconstructing the text.

Conclusion

Today, several areas of Samarkand surrounding the remaining monuments are popular tourist attractions for sightseeing and souvenir shopping. The monuments listed in the Babur accounts have represented numerous things at various times. Taking many translations of material from the *Babur-nama* produces a pseudo-text with multiple interpretations. This paper attempted to approach a more human Babur by understanding several meanings. The study emphasised *Babur-nama*'s history rather than the several histories it became a part of. Babur similarly categorises Timur's bequest into buildings, gardens, and meadows. It is a text and a manifestation of language, which serves as the channel through which we comprehend everything.

Consequently, *Babur-nama*'s meta-narrative recognises Samarkand as a hub for promoting the Khanate and its many different characteristics. Babur's accounts serve as an inventory for the Khanate, which regards Samarkand as a family heirloom and its architecture as crown jewels. Even though the town had changed hands several times, the architecture remained intact and Samarkand, like jewels and valuable stones, maintained an association with a more legendary past.

References

Azzout, Mounira (1999). *The Soviet Interpretation and Preservation of the Ancient Heritage of Uzbekistan: The Example of Bukhara*. The Aga Khan Program for Architecture.

Beveridge, Annette Susannah. *Babur-Nama: Memoris of Babur*. 1979. Vols. 1,2. 2 vols. New Delhi: Munshiram Manoharlal Publishers PVT Ltd., 1922.

Mano, Eiji (2006). *Babur-Nama (Vaqa'yi ')*. *Critical Edition based on Four Chaghatay Texts with Introduction and Notes*, 2nd Revised Edition (Kyoto Shokado).

Tekcan, Münevver (2021). "Biographies of Babur: A Selection", *Prof. Dr. Zokirjon Masrabovga Armug'on, Bobur İzida O'tgan Bir Umr*, Post Yayınları, İstanbul.

Tekcan, Münevver (2018). "The *Baburnama* As Primary and Secondary Source Material", International Congress on Social Sciences IV, Valaiha University Press, Romania.

The Babur-nāma in English (Memoirs of Babur) (1922) Volume 1 by Annette Susannah Beveridge. On the internet archive.

Wikipedia (2024). *James Elroy Flecker*. (accessed April 19, 2024). http://en.wikipedia.org/wiki/James_Elroy_Flecker

Zahiruddin Muhammad Babur Mīrzā: *Baburnama* (1992) (Vol. 1). by Wheeler M. Thackston, Cambridge, MA, USA: The Department of Near Eastern Languages and Civilizations, Harvard University.

Otajonov Ne'matilla,
filologiya fanlari doktori,
Impuls tibbiyot oliygohi professori,
Xalqaro Bobur va Amir Temur
mukofotlari sovrindori

“BOBURNOMA” TARJIMALARIDA ILMIY-ADABIY ANIQLIKNI YARATISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: **Tarjima** – asl nusxa (original)ning boshqa tildagi teng qiymatlisini vujudga keltirish bo‘lsa, **tadqiqot** – bu asar haqida muhokama yuritish, uni tahlil qilish, tushuntirishdir. Biroq masalaga chuqurroq yondashgan kishi tadqiqotlarning tarjimaga **bevosita** yoki **bilvosita** aloqasi, ta’siri borligining shohidi bo‘ladi. Bu – ilmiy ishlarning tarjimaga bilvosita ta’siridir. Mazkur maqolada tarjima, tadqiqot, tahlil, kompleks tadqiqotlar haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: tahlil, tarjima, tadqiqot, bilvosita, bevosita, kompleks tadqiqot, aniqlik, tanqidiy matn.

Abstract: Translation is the creation of an equivalent of the original in another language, while research is the discussion, analysis, and explanation of the work. However, a person who approaches the issue in depth will see that research has a direct or indirect connection and influence on translation. This is an indirect effect of scientific works on translation. This article talks about translation, research, analysis, comprehensive research.

Key words: analysis, translation, research, indirect, direct, complex research, precision, critical text.

«Boburnoma»ning tarjimalari bilan bir qatorda, Bobur va uning adabiy, ilmiy merosi to‘g‘risidagi tadqiqotlar ham yuzaga kela boshladi. Buning boisi nimada? Ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish bilan asarning tarjimalarini tahlil qilish orasida qanday bog‘lanish bor?

Shunchaki olib qaraganda, bu ikki soha orasida aydarlik aloqa yo‘qday ko‘rinishi mumkin. Chunki tarjima asl nusxa (original)ning boshqa tildagi teng qiymatlisini vujudga keltirish bo‘lsa, tadqiqot bu asar haqida muhokama yuritish, uni tahlil qilish, tushuntirishdir. Biroq masalaga chuqurroq yondoshgan kishi tadqiqotlarning tarjimaga bevosita yoki bilvosita aloqasi, ta’siri borligining shohidi bo‘ladi. Ayniqsa, asar o‘g‘irilgan tilda amalga oshirilgan ilmiy ishlar uni ommalashtirish, asarning yangi o‘quvchilar orasida tezroq tushunilishini yengillatish, tarjima saviyasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu ma’noda ingliz olimlari olib borgan ilmiy izlanishlar «Boburnoma»ni kitobxonlarga kengroq singdirish, uning mazmuni, mohiyati, ahamiyatini ochib berishga xizmat qilib, asl nusxa haqida to‘g‘ri tasavvur tug‘dirdi, o‘quvchilar mashhur kitobni chuqurroq tushunib o‘qishga muyassar bo‘ldilar.

Leyden-Erskin tarjimasining (1921-yilgi nashri) birinchi jildini qo‘lga olganda, avval V. Erskinning muqaddimasi, so‘ngra kitobni qayta bosmaga tayyorlagan L.U.Kingning so‘zboshisiga duch kelinadi. Bu muqaddimalardan

soʻng kattakon bir ilmiy risola beriladiki, unda Bobur va boburiylar, «Boburnoma»ning yozilish tarixi, xususiyatlari, ahamiyati toʻgʻrisida tarixiy va adabiy maʼlumotlar uchraydi, shu bilan birga XV-XVI asrlar Oʻrta Osiyo hayoti xarakteristikasi, Bobur oʻz asarida taʼriflagan shaharlar, oʻlkalarning «hozirgi» ahvoli bayon etiladi. Bu ilmiy maʼlumotlarning hammasi, turgan gap, kitobxonni asarni tushunishga tayyorlaydi, uning qiziqishini kuchaytiradi hamda shu yoʻl bilan tarjimaning ommalashuviga yoʻl ochadi, ilmiy qimmatini koʻtaradi. «Boburnoma» haqida yozilgan alohida tadqiqotlar xususida ham shuni aytish mumkin.

Bu - ilmiy ishlarning tarjimaga **bilvosita** taʼsiridir. Tadqiqotlarning tarjimaga **bevosita** taʼsir etishi esa yanada muhimdir. Chunki uzoq oʻtmishda yaratilgan murakkab asarni tarjima qilishning oʻziyoq ulkan ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish bilan barobar. Bunday **tarjima tadqiqotning** mushkulligi va qimmatini shundaki, u qandaydir chegaralangan soha boʻyicha, bir tomonlama boʻlmay, balki turli sohalar toʻgʻrisidagi koʻp tomonli, **kompleks tadqiqot** boʻlishi lozim. Geograf «Boburnoma»dan faqat oʻzini qiziqtirgan maʼlumotni topishga intiladi, muarrix asardagi tarixiy faktlargagina eʼtibor beradi, adabiyotchi uni badiiy-estetik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Oʻz navbatida tarjimon ham adabiyotchi va til bilimdoni, ham geograf va etnograf, ham tarixchi va botanik, tabiatshunos sifatida ishga kirishadi. Shuning uchun ham bu sohalarning barchasiga oid ilmiy tushunchalar, soʻzlar, terminlarni aniq, ravshan tasavvur qilmogʻi lozim. Buning ustiga, tarjimon muallif uslubini, bayon tarzini berishni doimo yodda tutishi zarur.

J. Leyden, V. Erskin, A. Beverijlarning izlanishlari, mashaqqatli mehnatlari bunga yaxshi misoldir. Ular bu ishga butun umrlarini bagʻishladilar. Aslida, V. Erskin oʻz tarjimasining dastlabki variantini nashr etishi mumkin edi. Lekin u bunday qilmadi ishining puxtaligiga koʻzi yetmay, asl nusxa tilini biladigan mahalliy mutaxassislar, yevropalik sharqshunoslardan yordam soʻradi, ulardan oʻrgandi. Bu bilan ham chegaralanmay, qoʻlyozmalar ustida mustaqil ish olib bordi, ishonchli manbani qoʻlga kiritishga intildi. J. Leyden tarjimasini bilan oʻzini so- lishtirib, oʻz xatolarini ham, Leyden xatolarini ham birma-bir tuzatib chiqdi, amalda yangi **tarjimani** yuzaga keltirdi. Bu chuqur bilim asosida har tomonlama izlanish, qiyoslash, tahlil va tahrir ishlarini bajarish, kuchli aqliy, ham ijodiy ham ilmiy xarakterga ega boʻlgan mehnat jarayonini boshdan kechirish demakdir.

Shuncha izlanishlar, mashaqqatlar evaziga qoʻlga kiritilgan tarjima asliga juda yaqinligi bilan mutaxassislar eʼtirofiga sazovor boʻldi. Shunga qaramay, V. Erskin tarjimasini ham baʼzi nuqsonlardan xoli emasdi. Bularni Pave de Kurteyl va A. Beverijlar sezishib, oʻz tarjimalarida bunday nuqsonlarga yoʻl qoʻymaslikka harakat qildilar.

Nomlari qayd etilgan ikki sharqshunos olimning bilim darajasi avvalgi tarjimonlarnikidan balandroq edi. Ular tarjimaga qoʻl urishdan avval oʻzlari tanlagan soha boʻyicha **olim, tadqiqotchi** sifatida muayyan ish olib bordilar. Ikkinchidan, Beverij xonim ham, Pave de Kurteyl ham asl nusxa tilini puxta egallagan mutaxassislar edi. Bu esa ularga «Boburnoma» qoʻlyozmalari ustida bevosita ishlash imkonini bergan. A. Beverij xonimning yangi tarjimini amalga oshirish niyati yoʻq edi (bu yuqorida aytib oʻtildi), lekin asar qoʻlyozmalari ustida

ko‘p yillar ilmiy-tekshirish ishlari olib borgach, Bobur merosini u tobora keng va teranroq tushuna boshlaydi, «Boburnoma»ning tub mohiyatiga tobora chuqurroq kirib boradi, muallifning o‘ziga xos uslubi, asardagi jumla tuzilishi, grammatik shakllargacha farqlaydi, har bir so‘z va iboraning ma‘nosi unga oydinlashadi. Natijada V. Erskin tarjimasining nuqsonlari ko‘z oldida yanada oydinlasha boradi va yangi tarjima zarurligiga ishonch hosil qiladi. Beverij jonim qilgan tarjima mavjud inglizcha tarjimalar orasida ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi.

Klassik asarlar tarjimasida ana shunday muntazam, jiddiy ilmiy izlanishlar asosida amalga oshadigan, bosqichma-bosqich, asliga yaqinlashib boradigan evolyutsion ijodiy jarayondir. «Boburnoma» tarjimasidagi aniqlik faqat ilmiy faktlarning puxtaligi emas, balki **ilmiy-adabiy aniqlik**dan iborat. Chunki, agar tarjimon ilmiy ma‘lumotlarni to‘g‘ri bersa-yu, muallif uslubini buzsa, asarning badiiy qimmatiga putur yetkazadi, o‘quvchiga shoir Bobur merosi emas, balki oddiy bir tarixchining asari taqdim etiladi.

Leyden-Erskin va Beverij xonim tarjimalarida asarning o‘ziga xosligi, badiiy xususiyatlari yaxshi saqlangan. Biroq bu har ikkala tarjima ham bir xil saviyada ekan, degan fikrga olib bormasligi kerak. Leyden-Erskin tarjimasining uslubi yengilroq, ommaviyroq, tili soddaroq bo‘lib, asar ingliz kitobxoniga osonroq «hazm bo‘ladigan» alfozda taqdim etilsa, Beverij xonim tarjimasida ancha vazmin bo‘lib, ilmiy uslubga ko‘proq amal qilingan. Keyingi tarjima **ilmiy aniqligi** bilan Leyden-Erskinlarning ishidan farq qiladi. Leyden-Erskinlar ko‘proq «Boburnoma»dagi **badiiy-tasviriy** xususiyatlarni saqlab qolish, muallifning kechinmalari, hissiyotlarini ham o‘quvchiga yetkazishga intilganlar. Masalan: Bobur Qobulga borar yo‘lda, Chaxcharon vohasidan tog‘ orqali o‘tadi. Uning bilan birga borgan el-ulus, askar va ulov qishda, qalin qor bo‘ronida nihoyatda qiyin ahvolda qoladi. Shunga qaramay, Boburning shaxsiy tashabbuskorligi, mardligi qiyinchiliklarni yengib o‘tishda asosiy omil bo‘ladi. Muallif ana shu qiyinchiliklarni o‘ta jonli tasvirlaydi.

Boburning shu paytdagi ruhiyati, safdoshlari va navkarlariga bo‘lgan insoniy dilkash munosabatlari quyidagi parchada o‘ta ta‘sirchan ifodasini topgan: «Men havolning og‘zida kurak olib, qor kurab, o‘zimg‘a bir takiya miqdori yer yasadim, qorni ko‘ksungacha qozdim, hanuz yerga yetmaydur edi. Bir nima yelga panoh bo‘ldi, o‘shanda - o‘q o‘lturdim. Har necha dedilarkim, havolg‘a boring, bormadim. Ko‘ngulga kechtikim, borcha el qorda va chopkunda, men issiq uyda va istirohat bila, munda borcha ulus tashvish bila mashaqqatta, men munda uyqu bila farog‘atda. Muruvvattin yiroq va hamjihatlilikdin qiroq ishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin, bir forsi masal bor: «**Marg bo yoron surast**»¹. Ushandoq chopkunda qozg‘on yasag‘on chuqurda o‘lturdum, namozi xuftong‘acha qor oncha chopqulab yog‘dikim, men engashib o‘lturib edim, orqamg‘a va boshimg‘a va quloqlarimning ustiga to‘rt el-lik qor bor edi».

¹ Do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lim to‘yidir.

Inglizcha (Leyden - Erskin) tarjimada mazkur parcha quyidagicha berilgan: «Men g'orning (havol) og'zida qo'limga kurak olib, qor kurab o'zimga bir joynamoz miqdori yer yasadim, qorni ko'ksimgacha qozdim, hanuz yerga yetmaydir edi. Harna yelga panoh bo'ldi. O'sha g'orda o'ltirdim. Yigitlarim: g'orga keling, deb har necha undadilar, bormadim. Ko'ngulga keldi: barcha kishilarim qorda va bo'ronda qolsa-yu, men issiq uyda va istirohat bilan yotamanmi, munda barcha odamlar tashvish bilan mashaqqatda yursalar-u, men g'or ichida uyqu bilan farog'atda turamanmi? Bu nomardlik bo'lardi, bu hamjihatlikdan yiroq ishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin. Bir forsiy masal bor: **Marg bo yoron surast** - do'stlar bilan birga bo'lgan o'lim to'ydir. Ushandoq bo'ronda o'zim qazib yasagan chuqurda o'ltirdim; nomoz xuftongacha qor ancha bo'ron bilan yog'dikim, men engashib o'ltirgandim, orqamga va boshimga va quloqlarim ustiga to'rt ellik qor bor edi.» (11 qism, 19-20-21-betlar.)

Qish peyzajining bir butun ko'rinishi, qorning yog'ishi, uning kuchayishi, qalinligi - shu obyektning realistik kartinasi tarjimada o'z ifodasini topgan.

Tarjimon esa tasvirni jonli, asliga monand bera olgan. Bobur 1506-1507-yillar voqeasini bayon qilarkan, unda ko'chmanchi turkmanlar hazorasi bilan olib borilgan jangni tasvirlaydi. Uning navkarlari kerakli shijoatni ko'rsata olmagan paytlarida o'zi ularni hujumga ruhlantiradi. Muallif bu voqea va uning haqidagi mulohazalarini masnaviy shaklida bayon etadi. Unda askarlarning psixologiyasi, jang-u jadal tasviri o'zining realistik ifodasini topgan.

Tarjimada she'rning barcha badiiy fazilatlari aks etgan deb bo'lmaydi. Unda vazn, qofiyaga mutloq e'tibor berilmagan. Bu nasriy tarjima, biroq nasriy bayon emas. She'rni misrama-misra o'girib, tarjimonlar asl nusxadagi obrazli ifodalar hamda tasvirni aniq yetkaza olganlar. O'rni bilan dastlabki misralarda alleteratsiya yaratish yo'li bilan ohangdoshlikning yuzaga kelishiga ham muvaffaq bo'lingan. Asardagi turkiy, forsiy she'rlarning aksariyati shu usulda tarjima qilingan bo'lib, bunda Boburning yetuk shoirligi, ta'bi baland adib bo'lganligini ingliz o'quvchilariga yetkazish nazarda tutilgan,

Asarda bir-biridan farq qiluvchi tabiat manzaralari, o'lka va viloyatlarning tasviri ko'p uchraydi. Bobur muayyan joylarni tasvirlaganda detallarga jiddiy e'tibor beradi, ularning nozik nuqtalarini topa oladi, jonli peyzajlar yaratadi. Uning tasviri qisqa, lekin aniq, ifodali. Buni Hindiston tasvirida ham ko'rish mumkin: «**Hinduston** mamoliki vasi' va purmardum va purhosil viloyat voqi' bo'lubtur. Sharqi va janubi, balki g'arbi ham Muhit daryosiga muntahi bo'lur. Shimoli bir tog'durkim, Hindukush va Kofiriston va Kashmir tog'lari bila payvastur. G'arbi shimoli Kobul va G'azni va Qandahor vaqi' bo'lubtur. Jami' Hinduston viloyatining poytaxti Dehli ermish. Sulton Shihobiddin G'uriydan so'ng, Sulton Firuzshohning oxir ahdigacha aksar Hinduston Dehli salotining taxti zabtida ekandur».

A. Beverij xonim ham bu tasvir tarjimasida Bobur mahoratini saqlashga harakat qilib, hiyla realistik peyzaj yaratgan: «Hindiston keng mamlakat, uning xalqi ko'p, mevalari xilma-xil. Sharqi va janubi, balki g'arbi ham Muhit daryosig'a (okeanga) tutashgandir. Shimoli bir tog'durkim, Hindukush va Kofiriston va

Kashmir tog'lari bilan tutashgandir. G'arbi shimolida Kobul va G'azni va Qandahor voqi bo'libtur. Jami Hindiston viloyatlarining poytaxti Dehlidir. Sulton Shihobiddin G'uriyning vafotidan keyin (hij riy 602, milodiy 1206), Sulton Firuzshohning (To'g'loq turk, hijriy 790, milodiy 1388) oxir ahdig'acha, Hindistonning katta qismi Dehli sultonda o'sha darining qo'l ostida bo'ldi».

Tarjima bejirim bo'lishidan tashqari, Beverij xonim Sulton Shihobiddin G'uriy, Sulton Firuzshohlarning vafot qilgan yillarini ham ko'rsatib, to'ldirib, kitobxonga zarur ma'lumot bergan. Lekin Beverij xonim «Boburnoma»dagi o'lka va viloyatlarni sodda, ravon uslubda tasvirlasa-da, ba'zan Bobur qalamidan chiqqan nozik tomonlarni payqamay qoladi. Masalan, muallif: «Hindustonda ham tog'lar bordur. Ul jumladin bir toge tushubtur, shimoldin janubqa boqa boriptur», deb tog'lar tasvirini boshlasa (343), tarjimon tasviri: «Boshqa bir tog' shimoldin janubqa boqa boriptur» (485-bet) tarzida ikkinchi jumladan boshlagan. Yoki shu parchada Bobur: «Mevot viloyatiga yeta bu tog'lar ulug'roq bo'lur. Mevotdin o'tub, Biyona viloyatig'a borur»... desa, mazkur gap inglizcha tarjimada: «Mevotdin o'tub, Biyona viloyatiga borur» tarzida ikkinchi jumladan davom etgan, ora-chirada jumlar tushirib qoldirilgan. Bobur esa yuqorida qayd etilganiday, har bir o'lkaning tasvirida xilma-xil ma'lumot beradigan, kishining diqqatini tortadigan jozibador uslub tanlaydi, har bir detalga jiddiy yondoshadi, iloji boricha uni ko'zdan qochirmaslikka harakat qiladi.

Yoxud muallifning hajv borasidagi mahoratini ko'rsatadigan parchalar tarjimasini ko'raylik. Ma'lumki, Bobur mohir yumorist bo'lgan. Shoir mubolag'a, kinoyadan foydalanish yo'li bilan obrazning qiyofasini ochadi, yengil kulgi, tagdor hazil orqali salbiy xislatni tanqid ostiga oladi. Bobur hajviyoti o'sha davr kishilarining alfozi, xatti-harakati, psixologiyasi, xarakterini tasavvur etishga ko'maklashadi. Masalan, Xisravshohning qallobligi, hukmronlik qilgan mamlakatini vayron qilganini tasvirlab: «Yuz ming la'natdur qiyomatqachakim, har kim Xisravshohning bu af'olini eshitsa, la'nat qilsun. Bu af'olini eshitib la'nat qilmog'on ham sazavori la'nat bo'lsun», deydi. Zunnun arg'un to'g'risida yozadi, «Shatranjg'a ko'p ma'shuf edi. El bir ilik ila o'ynasa, u ikki ilik bilan o'ynar edi. Har necha ko'ngli tilar o'ynar edi» (235). Mir Murtoz haqida: «Shatranjg'a ko'p shag'afi bor ekandur, bu martabadakim, agar ikki harif uchrasa, biri bila shatranj o'ynab, yana birining etagini tutub o'lturur ekandurkim ketmagay deb».

Inglizcha tarjimalarda ham Boburning o'tkir satirasi, nozik yumori yaxshi aks etgan. Xisravshohning qallob, g'alomus va fahshgo'yiligi, xalq boshiga keltirgan moddiy va ma'naviy kulfatlari sanoqsizdir. Tarjimon Xisravshohning xatti-harakatlari, qiliqlari, axloq-atvorini, barcha salbiy xususiyatlarini kitobxonga to'la yetkaza olishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqa olgan ham.

«Boburnoma»da hajv bilan yumor doim bir-birini to'ldirib boradi. Lekin shoir hech qachon kishilarning jismoniy nuqsonlaridan kulmaydi, balki hajv ostiga olingan kishining xislatlarini, xulq-atvorini achchig'langan hisning hamlasi bilan fosh etadi. Shuni aytish keraki, Bobur beparda so'zlarni yoqtirmagan, parnografik she'rlar yoki shunga yaqin qo'pol hajviy asarlarni xush ko'rmagan. Bular tarjimalarda o'z ifodasini topgan.

Ammo Boburning «Bu fursattakim, «Mubayyin»ni nazm qiladur edim» jumlasini «shu fursattakim, mazkur she'rini nazm qila yotgan edim» deb o'giriladi, «Mubayyin» to'g'risida xabar berilmaydi. Oqibatda bir muhim adabiy-tarixiy dalil tarjimada tushib qolgan.

Shunday qilib, ayrim nuqsonlarga qaramay, Leyden-Erskin, Beverij xonim «Boburnoma»ning inglizcha ilmiy tarjimasini yaratish yo'lida ko'p mehnat qildilar va katta muvaffaqiyatga erishdilar. Yevropa «Boburnoma»ni shu tarjimonlar orqali tanidi, ularning ko'p yillik ijodiy izlanishlari tufayli o'zbek klassik adabiyotining yirik namunasi umumjahoniy mavqega ko'tarildi. «Boburnoma» tarjimalari tarixi, asarning monand tarjimasini bunyod etish evolyutsiyasi, to'plangan tajriba, ilmiy kuzatishlar tadqiqotchiga juda boy material beradi. Bu o'rinda ingliz tarjimonlari va olimlarining mukammal tarjimini qo'lga kiritish uchun olib borgan tadqiqotlari, sharh tavsiflari, ilmiy kashfiyotlari diqqatga loyiq. Bu ishlar tarjimashunoslik tarixi va nazariyasi masalalariga aloqador bo'lib, hozirgacha maxsus o'rganilmagan. Asarning inglizcha, fransuzcha, nemischa, forschacha, ruscha tarjimalarini qiyoslab, solishtirib chiqilganda, ular orasida anchagina farqlar borligi ma'lum bo'ldi. Faqat uslubdagi tafovut emas, balki tarjimalarning ilmiy aniqligida, saviyasida ham katta farq bor.

Turli xil kamchiliklarning sodir bo'lganligini tarjimonlarning til bilish darajasi, ishga qay nuqtayi nazardan yondashganligi, ijodiy mehnatning me'yori bilan izohlash mumkin. Ro'y bergan kamchiliklarning asosiy sababi «Boburnoma»ning tanqidiy matni hanuzgacha yaratilmaganidadir. Tarjimonlar turli yillarda ko'chirilgan, nuqsonlardan xoli bo'lmagan turli qo'lyozmalardan foydalanib kelmoqdalar. Annetta Beverij xonim va Pave de Kurteyl muayyan bir ishonchli nusxa tanlab, o'sha asosda tarjima qilganlar, lekin baribir, buni tanqidiy matn deb qabul qilib bo'lmaydi. Oqibatda yana turli xil tarjimalar paydo bo'lishi va bunday chalkashliklar davom etishi mumkin.

Binobarin, «Boburnoma» kabi nodir, yirik tarixiy-adabiy manbani izchil o'rganish, ishonchli nusxalar asosida tanqidiy matnni bunyod etish, asardagi tarixiy, arxaik so'zlar, terminlarga mukammal izohli lug'atlar tuzish sharqshunos, tilshunos, tarjimashunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ishonchli manba bo'ladigan tanqidiy matnni tuzishda, «Boburnoma»ning mukammal original nashrini yaratishda asarning mavjud (ayniqsa, Pave de Kurteyl, Beverij xonim, V.Erskin, Uayt King) tarjimalaridan ham foydalanish lozim. Tarjimonlar olib borgan ilmiy kuzatishlar, izlanishlar, taklif va rejalar ham bu ishda matnshunos olimlarga juda qo'l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Salomov G'., Otajanov N. Jahongashta "Boburnoma". - Toshkent, 1996. 112-bet
2. Sultonov X. Boburning tushlari.— Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. 243-245 betlar.
3. Xorijda boburshunoslik (Tadqiqot, talqin va maqolalar) – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2008. 3-bet.

4. Muni Lal. Baber. Dehli, India. Vikas Publishing House, 1977, p. 7.
5. Beverij A.S. “Boburnoma” – ingliz tilida. Turkiy asl nushadan inglizchaga tarjima - London, 1921. 38- bet.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi – Toshkent: “Sharq”, 2017. 150-bet.
7. Xolbekov M. Ulug‘ adibimiz fransuz sharqshunosligi saxifalarida. Bobur abadiyati. - Toshkent: “Bayoz”, 2018. 109-bet.
8. Otajonov N. “Boburnoma” jahon kezadi – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1984. 23-bet.
9. Otajonov N. “Boburnoma” G‘arb olimlari tadqiqotlarida.//“Bobur va dunyo” jurnali, 2017, avgust, 1-son, 40-bet.
10. Abdullayeva R. G‘arb olimlari Navoiy va Bobur ijodi xaqida. Bobur abadiyati – Toshkent: Bayoz, 2018. 263-bet.

Sulaymonov Isroil,
filologiya fanlari doktori,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti

“BOBURNOMA”DA SHAXS RUHIYATINI TASVIRLASHDA MUALLIF MAHORATI

Annotatsiya. Maqolada “Boburnoma”da muallifning jang va kurash maydonlari tasvirida shaxslarning xarakteri, ichki olami, ruhiy-psixologik holatlari, ularning ruhiyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni tavirlashda muallif mahorati kabi msalalar g‘oliblik va mag‘lublik prizmasi orqali tahlil qilingan.

Kalt so‘zlar: Bobur, muallif dunyoqarashi, Sulton Ibrohim, hind jangchilari tasviri, ruhiy holat, “g‘oliblik” va “mag‘lublik”.

Annotation. In this article is given an analysis of Babur’s overview, his points on social-political situation of that time, being master of poet in using words and expressions, his abilities to reveal social-political situation of that time through psychology of winner and being winner by prisms of his abilities in terms of historicion, politic and impartially expert.

Key words: Babur, overview of author, Sultan Ibrakhim, Babur expert of his age, psychological condition of he«winner», and «being winner».

“Boburnoma”ning Hindiston tasviriga bag‘ishlangan o‘rinlarida, xususan, jang va kurash maydonlarining tasvirida Boburning xarakter xususiyatlari, ichki olami va ruhiy o‘zgarishlarini ifodalovchi lavhalarga ko‘p duch kelamiz. Muallif asarida bunday lahzalarni tasvirlashda beixtiyor tarixiy, esdalik asar uslubidan tabiiy ravishda chekinib, badiiy asar yaratayotgan adibga aylanib qolishini o‘zi ham sezmagani ko‘rinadi. G‘oliblik sururi bo‘lmasi, Boburning lirik shoir, hayotni chindan sevuvchi, umrni o‘tkinchiligini va uni xush o‘tkazishni qayta-qayta nazmiy asarlarida qayd etgan adib, bunda ham tasvirlarda o‘zini erkin sezib, voqea-hodisalarni qalamga olishda uni badiiy ifodalashga harakat qiladi.

Tarixiy shaxslar – bek va a'yonlar, sarkardalar va oddiy askar tasvirida biz «Boburnoma» muallifining badiiy tasvirlarga boy satrlarini ko'ramizki, muallif bu paytda yaxshi kayfiyatda bo'lgan chog'ida, raqiblar ustidan g'olib kelib, g'oliblik nashidasi ta'siri ostida ifoda etilgan tasvirlarda bu hol yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Boburning Hindistondagi g'alabasi unga shon-shuhrat keltirishi tabiiy hol edi, albatta. Bu g'oliblikni saqlab qolish uchun u shiddat bilan ish olib boradi, Hindistonni mayda rojalik va kichik feodallar davlatidan bir mustaqil, mustahkam davlatga aylantiradi.

Shu bois Hindistonning birinchi prezidenti Javoharla'l Neru o'zining «Hindistonning kashf etilishi» va «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Boburning Hindiston tarixida tutgan o'rni haqida ancha ibratli so'zlarni yozib qoldirgan: «Bobur shu paytgacha o'tgan madaniyatli va jozibador insonlar orasida eng yetuklaridan bir edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutassiblikdan yiroq edi». [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 7]

«Boburnoma»da uning hindistonlik raqiblarini o'ziga bo'ysundirish, mag'lubligini isbot etishining o'ziga xos badiiy tasviri berilgan. Bir o'rinda Bobur G'ozixon nomli hind lashkarboshisini tasvirlar ekan, uning ichki olami, ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishni shu darajada badiiy ifodalaydiki, bu jarayon mag'lub G'ozixonning g'olib Bobur bilan muloqotida o'z aksini topgan. Bobur G'ozixonning ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tasvirlash uchun munosib so'z va iboralarni tanlab ishlatadi: «Buyurdimkim, o'shal ikki qilichkim, bizning bila urushur uchun belga bog'lab edi, bo'ynig'a ostilar. Mundoq rustoyi va loda mardak bo'lg'aymukin, ishi bu yerga yetib, hanuz taallul qiladur. Ilgarrak kelturdilar. Buyurdumkim, qilichlarni bo'ynidin oldilar. Ko'rushur vaqt yukunmakta ta'xir qiladur. Buyurdumkim, oyog'ini tortib yukundurdilar. Ilgari o'lturg'uzub, bir hindustoniyl bilur kishiga buyurdimkim, bu so'zlarni biror-biror anga xotir nishon qila aytkil. ...O'zungni va o'g'lonlaringni, balujlarning darbadarliklaridin qutqordim. Xaylxonalarigiz va haramlaringizni Ibrohimning bandixonasidin xalos qildim. Uch karo'r Tatarxonning viloyatini sanga inoyat qildim. Sening haqqingda yomon bordimmukim, to'shung bila belingga ikki qilich bog'lab, cherik tortib, bizning viloyatlarning ustiga kelib, mundoq sho'r va fitna solursen. Qari mabhut mardak bir-ikki so'z og'zida-o'q puypadi, so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi». [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 188]

Yuqoridagi matnda Bobur bo'layotgan suhbatning ta'sirini oshirish uchun G'ozixonning ruhiy holatini tasvirlashda, badiiy sayqal berishda uning ruhiy holatidagi o'zgarishga e'tibor qaratib, «qari mabhut mardak bir-ikki so'z og'zida-o'q puypadi, so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi», deydi. Bunda Boburning so'z tanlashiga qoyil qolish kerak. U G'ozixonga aytgan ta'sirli, kishiga qattiq tegadigan so'zlarni «muskat» so'zi bilan umumiy tarzda ifodalaydiki, bu so'z achchiq, hazm qilib bo'lmaydigan ma'nosida kelib, mag'lub G'ozixonning o'sha paytdagi holati, ruhiyati va nochor ahvolda qolganligini ifodalab kelgan, ayni paytda Boburning so'z tanlash mahorati, uni o'rnida ishlata bilishidan ham darak beradi.

Bobur Hindiston sultoni Ibrohim Lo'diy bilan jangga kirishar ekan, Panipat shahri uchun bo'lgan urush oldidan ancha hayajonga tushganligi, noma'lum shahar, joy o'zi ta'kidlaganidek, «vatandin ikki-uch oychilik yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushib edi. Ne biz alarni tillarini bilur edik, ne alar bizning tilimizni» bois ma'lum darajada vahimaga tushadi. Shunda ham Boburning jasurligi, vazminlik bilan bir qarorga kelishi va sharoitni ob'ektiv baholay olishi qo'l kelib, vaziyatni o'nglab oladi. Ana shu lahzada ham g'olib Boburning shiddati, uning fikr mantiqi, juda qisqa muddatda o'zini tutib olishiga, ruhiy holatida o'zgarish sodir bo'lsa ham atrofdagilarga sezdirmasdan, to'g'ri qarorga kelishiga sabab bo'ladi. Aslida bu «g'arib qavme» bilan bir marta ham muomala qilishga to'g'ri kelmasdan, bundan keyin ular bilan bir muhitda yashashga majburligimuammosi Boburning ko'ngliga g'ulg'ula solsa-da, mag'rur holda shunday xulosaga keladi: «Cherik eli ba'zi xeyle mutaraddid va mutavahhim edilar. Taraddud va tavahhum betaqribdur. Nekim azalda Tengri taqdir qilibtur, andin o'zga bo'lmas. Agarchi alarni ham ayb qilib bo'lmas, haq alar jonibi edi. Ne uchunkim, vatandin ikki-uch oychiliq yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bilur eduk, ne alar bizning tilimizni». [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 192]

«Boburnoma»da g'olib Bobur bilan mag'lub Ibrohim Lo'diyning yakkamayakka uchrashuvi jang maydonida bo'lib o'tadi, bu lashkarboshilar faqat bir marta kurash maydonida o'zaro yuzma-yuz duch keladilar. Bobur Ibrohim Lo'diyning ruhiy holatini juda jonli, hayotiy tasvirini beradi. Bunda mag'lubligini his etgan Hind sultoni jang maydonida Boburningqorasi ko'rinishi bilanoq, unda sarosimalik boshlanadi, o'z harakatini nazorat qilolmay qoladi. Ibrohimning bunday holatini badiiy tasvirlagan muallif jang maydonidagi g'olib Bobur va mag'lublikni his etayotgan Ibrohimning ichki olamini juda jonli tasvirini bera olgan: «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko'rundi, hech yerda darang qilmay, tez-o'q keladur edi. Ilgarrak kela bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi, bu tartib va yasolnikim, mulohaza qildilar, hasr bo'lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung'idek bedarang kela oldi». [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 193]

Boburning yuqoridgi tasviriga e'tibor bersak, Sulton Ibrohimning jang maydonidagi bu harakati muallif tomonidan shunchalik jonli ifodasini topganki, «Boburnoma»dagi shunga o'xshash tasvirlarasarni tarixiy asardan ko'ra ko'proq badiiy asar sirasiga kiritishga asos bo'ladi. Ibrohim Lo'diy ruhiy holatida Boburning jang maydonida qorasi ko'ringunga qadar bo'lgan paytdan uning nazari tushishi bilan shunchalik tez o'zgarish sodir bo'ladiki, bu o'zgarish Bobur shuhratini eshitganu uning o'zini ko'rmagan Hind lashkarboshisi uchun dahshat bo'lib ko'rinadi. Ibrohim Lo'diyning bu sarosimali harakatida biz g'olib Boburning shiddati, o'z raqibiga nisbatan ustun kelgan, jang maydonini boshqarib turuvchi g'olib sarkardani ko'ramiz. Boburning «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko'rindi, hech yerda darang qilmay, tez-o'q keladur edi», «bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi», «turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib», «ne tura oldi», «ne burung'idek bedarang kela oldi», degan jumllarida nihoyatda hayotiy tasvir o'z aksini topgan. Bu tasvirda Sulton Ibrohimning xayolidan nima

o'tganligi Boburga ma'lum emasku, ammo bu harakat orqali u raqibining avvval bezovta bo'lgani, keyinroq esa, voqiea shiddatli tus olib, dinamizm oshgan sari Hind lashkarboshisining harakatida sarosimalik, jang maydonini aniq tasavvur qila olmaslik, raqibi Boburning vahimasi bosganligini «Boburnoma»ning zukko o'quvchisi teran anglay oladi. Chunki, Sulton Ibrohimharakatidagi bu o'zgarishlar, tashvish va iztirobli holatlar muallif tomonidan yuksak badiiyat bilan ifodalagan.

«Boburnoma»da muallifning Ibrohim Lo'diy ustidan g'alaba qozongandan keyingi faxriya tarzida bayon qilingan «ichki nutqi» mavjud bo'lib, unda g'olib Boburning bu yurtda qo'lga kiritgan yutuqlari, kurashlar natijasida chekkan azoblari, bu zahmatlar evaziga qo'lga kiritgan mulklari, shon-sharafi va g'oliblikdan shodlanib, bildirgan ichki nidosi quyidagicha beriladi: «... Bhiradin Biharg'acha afg'on tasarrufida edi, podshohi Sulton Ibrohim edi. Viloyat hisobi bila besh lak cheriki bo'lmoq kerak edi. Ul fursatta yurub, umarosi muxolafat maqomida edilar. ...Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik va vase' mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduk. Tavakkulimizga yarasha Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyi' qilmay, mundoq zo'r g'animni **mag'lub** qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o'zumizning zo'r va quvvatidin ko'rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o'zumuzning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur». [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 195]

Bu o'rinda, garchi Bobur kamtarlik bilan, komil musulmon sifatida barcha g'alabalarining bosh sababchisi Olloh ekanligini qayta-qayta takrorlasa ham, agar uning o'zida bu g'oliblikka azm bo'lmasa, shijoat va g'ayrat bo'lmasa, murodiga yetishi mushkil edi. Boburning bu nidosini biz aslicha qabul qilib, uning qalbida Ollohga bo'lgan yuksak e'tiqod mustahkam o'rnashgani, birzum bo'lsa ham aslo kam bo'lmaganligi, o'zining muvaffaqiyatlarini ana shu e'tiqod tufayli ishonch va sadoqat bilan izhor qilganligi ham unga maqsadiga ershish baxtini nasib etgan edi.

«Boburnoma»da hind askarlarining orasida Bobur tomonidan tasvirlangan haqiqiy fidoiylar ham borki, ular o'z mamlakatlari, yurtlarini Bobur lashkarlaridan mardonavor himoya qilganlar. Shu bilan birga, Bobur lashkarlari orasida vahimaga tushish, dushman harbiy kuchini aslidan ko'p, deb gap tarqatadiganlar ham bo'lgan. Bobur bu kabi jangchilariga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lgan, ularni jang maydonida ruhiy tetikligini saqlash, dushman hiylasiga berilmaslik borasida jiddiy ish olib borgan: «Qarovulliqqa borg'onlar xabar yetkura olmaslar, balki qo'rg'ong'a ham kira olmaslar. Qo'rg'on eli qo'rg'ondin yiroqroq va besurfaroq chiqarlar. Yog'iy zo'rroq kelib, bularni durbatur. Sangarxon janjuha anda shahid bo'ldi. Bu g'avg'oda Kattabek jibasiz-o'q chopib chiqar. Bir kofirni yayoqlatib olur mahalda Kattabekning bir navkarining qilichini olib, Kattabekning kitfig'a-o'q chopar. G'alaba tashvishlar tortti. Raana Sangaaning g'azosid kela olmadi. Necha mahaldin so'ng yaxshiroq bo'ldi. Vale ma'yubroq bo'lubtur. Qismtoy va Shoh Mansur barlos va har kimki, Bayanadin keldi, bilmon qo'rqonlarimu edi, yo elni qo'rqutqonlarimu edi: Kofirning cherikini jald va jarrorliq bila asru ko'p sitoyish va ta'rif qildilar». [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 219]

Bunda Bobur lashkarlarining ruhiy holatiga alohida e'tibor berib, bu tushkunlikni bartaraf etish uchun kurashganini bayon etish bilan birga, lashkarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari haqida ham ma'lumot bermoqda. Albatta, Boburning o'zi ta'kidlaganidek, lashkariga ham oson emasdi. Begona yurt, nomuvofiq ob-havo, begona til kishilarining ruhiy holatiga ta'sir etmasdan qolmasdi. Shunga qaramasdan, Boburning rostbayonligi ustun kelib muxolifat askarining payt poylab, «Kattabekning bir navkarining qilichini olib» Boburning bir layoqatli bekiga zarba berishi, hatto uni «g'azo» kabi o'sha davrda juda muhim bo'lgan jangdan quruq qoldirganini tasvirini bergan muallif asarida realistik tasvirga keng o'rin bergan, mazkur voqeaga badiiy tus berib, raqib askari shijoatini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan asarning shu o'rnida lashkarlarining dushman qo'shinlarini aslidan ko'p deb gap tarqatgan, lashkar orasiga tahlika solishga harakat qilgan o'z safdoshlarining kamchiligini ham ochib beradiki, bu muallifning asarda rostbayonlikni shior qilishining yana bir namunasidir.

Boburning Hindistondagi faoliyatida, asosan uning g'oliblik davri ko'zga tashlanadi. Amir Temur tasarrufiga kirgan yerlarga egalik qilish, buyuk bobosi saltanatini bor bo'y-basti bilan qaytadan tiklash asl maqsadi bo'lgan Bobur, butun harbiy salohiyatini ana shu maqsadga sarflaydi, bu yo'lida to'g'anoq bo'lgan raqiblarga, hatto temuriy shahzodalarga qarshi ayovsiz kurash olib borishiga ham to'g'ri keladi. Hindistonda Chanderiy viloyati uchun olib borilgan jangning tasviri «Boburnoma»dagi eng jonli, realistik lahzalardan iborat bo'lib, unda muallif yuksak badiiy mahoratini namoyon etgan. Bu tasvir, eng avvalo, hind xalqining o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, unga sodiqligi, ushbu yo'lda hech narsadan qaytmasligi kabi jihatlarini yuksak badiiyat bilan tasvirlab bergan. Ikkinchi tomondan, bunday epizodlar asarda anchagina bo'lib, Boburning tarixiy voqealarni qanday bo'lsa boricha aks ettirish, ahd qilgan rostbayonligiga sodiq qolish, agarda bunday tasvirlar uning jang maydonidagi harakatlarining g'oyasiga ma'lum darajada zid bo'lsa ham, dushmanlarining ruhiy tetikligi, tug'ilgan yurtiga muhabbati bois Bobur lashkarlariga asir tushgandan ko'ra o'limni afzal ko'rishlarini hayotiy tasvirlab berishi katta jasorat sirasiga kiradi. Bunday lahzalar «Boburnoma»ning shuhratin yanada oshirgan, muallifning badiiy mahoratini yaqqol ko'rsatib bergan.

Bunda Bobur raqib tomoni bo'lgan hindlarning ruhiy holati, jang maydonida murakkab sharoitda ham o'zlarini tuta bilishlari, o'limga mardonavor borishlari, o'zlari emas, xotinlari, farzandlarini ham g'olib Bobur lashkarlariga asir tushishidan ixtiyoriy o'limni afzal ko'rganliklari juda jonli, hayotiy ifodasini topgan. Ushbu satrlar g'olib Boburning shu lahzadagi g'alabasini ko'rsatsa ham, ma'naviy g'oliblik hind xalqi tomonida ekanligini, hind xalqi uchun begona yurtlarga kirib kelgan lashkarlarga munosabatini bildirgan. Ikkinchi tomoni, Boburning bu tasviri go'yo tarixiy asarni emas, yuksak badiiy nasr namunasini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Muallif hind lashkarlarining ruhiy holatini, o'limga tik boqib, uni qahramonlarcha qabul qilib, ruhiyatlarida hech qanday o'zgarish zohir bo'lmaganini «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», degan jumlar orqali tasvirlaydi. Matndagi «oldururlarini jazm qilib,

xotunlarini chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, «yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», «ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur», «aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi», kabi jumllalarda esa hind lashkarining ruhiy holati, ichki kechinmalari o'ta hayotiy ifodasini topgan: «Andak fursattin so'ngra kofirlar tamom yalang'och bo'lub kelib, urusha kirishtilar. G'alaba elni qochurub, fasildin uchurdilar. Bir necha kishini chopqulab, zoyi' qildilar. Fasilning ustidin bot borg'onlarining jihati bu ekindurkim, oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturtub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kelmishlar. Oxir to'sh-to'shdin zo'r qilib, fasil ustidin qochurdilar. Ikki yuz-uch yuz kofir Mediniy Ravning havolisig'a kirdi. Ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur. Aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi». [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 235]

Bobur yuqoridagi matnda hind lashkari bilan sodir bo'lgan, kishi tasavvur qilishi mushkil ruhiy holatni keltiradi. Bunda adib hind lashkarining ruhiy holatini yuksak darajada tabiiy, hayotiy tasvirlab beradiki, unda vatan himoyasi yo'lida jonini ham ayamaydigan kishilarning umulashma obrazi yaratilgan. Mantiqan qaraganda, o'limga jon-jahdi bilan tik boruvchi shaxs bo'lmasa kerak. Bobur hindlarning vatanparvarligini ko'rsatish uchun ularning «rag'bat» bilan o'limni qarshi olishlarini tasvirlamoqda. Bu so'z hindlarning ichki olami, o'limni pisand qilmasligi, ruhiy holatida sodir bo'lgan bu o'zgarishlarni taqdiri azalning hukmi sifatida qabul qilganligini so'z ta'siri orqali ifodalaganki, uning badiiy mahoratidan darak beradi: «Aksar bir-birlarni o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur», «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», jumllarida Bobur gapda qator kelgan so'zlar orqali so'z mantiqini kuchaytirmoqda. Har bir so'z oldin kelgan so'zning ta'sir kuchini oshirib, bu urush dahshatini o'quvchiga real hayotda sodir bo'lganidek ta'sirli va ishonarli ifodalab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, «Ona yeridan ta'qib ostida ajrab, Hind yerida qo'nim topgan Bobur ijodiga ko'chgan ruhiy kechinmalarida davrning beshafqat qonunlari o'z kuchida qolaverdi. Balki xuddi shu sabablardandir, Bobur boshida toji, ostida taxti bo'la turib «noraso dunyo», adolatsiz «taqdiri azal»ning nayranglariyu jamiyatning noshudliklariga befarq qarolmay, u ham hamma taraqqiyparvar ijodkorlar singari o'z zamoniga sig'madi». [Nizomiddinov N., 2012: 107]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ. 2002. – 336 б.
2. Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент: Шарқ, 2014. – 744 б.
3. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Тошкент: Маънаввият», 2008. 451-бет.

4. Сулаймонов И. Ғолиблик сурури, мағлублик изтироблари. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 175 б.
5. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler. M., Thackston. – New York & Oxford, 1996.
6. Низомиддинов Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент: Fan va texnologiya, 2012 йил. – Б.107.
7. Хайриддин Султон. Бобурийнома. Тошкент: Маънавият, 2019, 440-б.
8. Қаюмов А. Асарлар. 5-жилд. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодиёти. – Тошкент, «Мумтоз сўз», 2009. 78-б.
9. Қодиров П. Юлдузли тунлар. Бобур. - Тошкент: Шарқ, 52-55-б.
10. Sulaymonov I.I (2017). Analysis of Babur’s opinion about Shaybanikhan // Philadelphia, USA. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (53), 196-200.
11. Sulaymonov I.I. Description of Victorious and Vanquished Man psychology in «Boburnoma» // International Journal of Science and Research (IJSR). – India, 2018. Volume 7. Issue 1. – P. 1220-1223.

Berdiyev Xusan Xolnazarovich
 filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
 O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika
 instituti dotsenti

“BOBURNOMA”DA NOMI ZIKR ETILGAN SHOIRLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga mashhur asari – “Boburnoma”da tasvirlangan muhim masalalardan biri – o‘sha davr ijodkorlari haqidagi malumotlar tahlil etiladi. Shu asosda ijodkor shaxslar, xususan, shoirlar va ularning ijod yo‘nalishiga xos masalalar yoritib berilishiga ahamiyat qaratiladi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, ijodkor shaxslar, adabiy asar, devon, ijod yo‘nalishi, davr adabiy muhiti.

Annotation: This article analyzes one of the important issues described in the world-famous work of Zahiriddin Muhammad Babur – “Baburnama” - the information about the creators of that time. On this basis, it is important to highlight the issues specific to creative personalities, especially poets, and their creative direction.

Key words: “Boburnama”, creative personalities, literary work, divan, direction of creativity, literary environment of the period.

Zahiriddin Muhammad Bobur mohir sarkarda, o‘tkir siyosatchi va adib, diniy va dunyoviy ilmlarning bilimdoni, dunyo fothalari orasida munosib o‘rin olgan buyuk siymo va faylasuf shoir. Uning merosi doimo tadqiqotlar ob‘ekti bo‘lib kelgan. Xususan, “Boburnoma” asari turli davrlarda turli tillarga bir necha bor tarjima etilgan. Uning namunalari Angliya, AQSH, Hindiston, Turkiya singari

mamlakatlar qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgani va atroflicha tadqiq etilayotgani fikrimizning yorqin dalilidir.

Asarning hozirgi yozuvdagi ilk nashri o‘tgan asrning 1948-1949 yillarida chop etilgan. P.Shamsiev, S.Mirzaev tomonidan tayyorlangan mazkur ikki qismdan iborat nashrning xarakterli jihati shundaki, unda kishi va geografik nomlar ko‘rsatkichi, lug‘at, ayrim izohlar, shuningdek, tarjimalar ilovasi berilgan. “Boburnoma”ning keyingi nashrlari 1960, 1989, 2003-yillarda amalga oshirildi. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, “Boburnoma”ning ilmiy tadqiqi va ommalashtirilishida ko‘plab o‘zbek olimlarining xizmatlari beqiyos. A.Fitrat, P.Shamsiyev, S.Mirzayev, V.Zohidov, X.Nazarova, B.Valixo‘jayev, S.Shukrullayev kabi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar fikrimizning dalilidir.

“Boburnoma”da keltirilgan turli janrdagi she‘rlar orasida shohlar, vazirlar (shahzoda, vazirzodalar), hokimlar, bek va sarkardalar, turli kasb-hunar egalari, shuningdek, mashhur so‘z san‘atkorlari qalamiga mansub namunalar uchraydi. Ayni paytda esa, akad. B.Valixo‘jayevning e‘tirof etishicha, “Boburnoma”da Navoiy tomonidan “Majolis un-nafois”ga kiritilgan shoirlarning juda oz qismi to‘g‘risida (Abdurahmon Jomiy, Muhammad Solih, Shayxim Suhayliy, Sayfiy Buxoriy, Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Hotifiy va shu kabilar) fikr yuritilgan. Bobur shoirlarning ba‘zilari haqida gapirar ekan, ularning “Majolis un-nafois” yaratilishidan so‘nggi davrdagi hayoti va ijodiga doir yangi ma‘lumotlar beradi. Bu jihatdan “Boburnoma”ning shoirlar va san‘at ahliga bag‘ishlangan qismlari “Majolis un-nafois”ning o‘ziga xos tarzda davomi kabi tuyuladi.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, Bobur biror ijodkor haqida fikr yuritish jarayonida, eng avvalo, uning badiiy ijod sohasidagi o‘ziga xos o‘rni va mavqei hamda yutuqlari, shu jumladan, biror bir asaridagi nuqsonli jihat bo‘lsa, bunga ham e‘tibor qaratadi. Bu bilan u o‘zining adabiy muhitdan yaqindan xabardor bo‘lganligini namoyish qila olgan, deyish mumkin.

Asarda shaxsi va she‘riyati haqida to‘xtalib o‘tilgan, ijodidan namunalar berilgan yoxud nomlari zikr etilgan shoirlar haqidagi ma‘lumotlarni shartli ravishda quyidagicha guruhlariga ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Hayoti va faoliyati bayon qilingan yoki ijodidan namuna keltirilgan ustoz shoirlar: Hoja Hofiz, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayx Sa‘diy, Xoja Xisrav va h.k.

2. Devon tartib bergan shoirlar: Ahmad Hojibek (Vafoiy), Mahmud Barlos, Mullo Binoiy (Kamoliddin Binoiy), Sulton Husayn Boyqaro (Husayniy), Shohg‘arib Mirzo (G‘aribiy), Shayhim Suhayliy (Suhayliy), Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Shoh Husayn Komiy, Hiloliy, Ahliy va h.k.

3. Xushta‘b va she‘rshunos kishilar: Mirzo Ahmad, Ali Forsiy Barlos, Xoja Abdullo Marvoriy, Mir Ataullo Mashhadiy.

4. She‘rlari el orasida mashhur bo‘lganlar va “ta‘bi nazmi bor” ijodkorlar: Boysung‘ur Mirzo (Odiliy), Darveshbek, Mullo Muhammad Tolib Muammoyi, Kichik Mirzo, Muhammad Husayn Mirzo, Hasan Ali Jaloyir (Tufayliy), Hoja Abdullo Marvoriy (Bayoniy), Sayid Hasan, Mir Sarbarahna, Kamoliddin Husayn Gozurgohiy, Mullo Abdulg‘afur Loriy, Mir Ataullo Mashhadiy, Osafiy, Abdullo Masnaviygo‘y, Mir Husayn Muammoyi, Mullo Muhammad Badaxshon

(Badaxshiy), Yusuf Badeiy, Muhammad Solih, Pahlavon Muhammad Busaid, Mavlono Sayyidiy shoir, Shayx Abdulvohid Forig‘iy, Shayx Zayn, Mullo Alixon, Turdibek Xoksor, Mavlono Shihob, Muammoyi (Faqiriy), Surx Vadoyi, Mulla Baqoyi kabilar.

5. Nomi zikr etilmagan shoirlar ijodidan keltirilgan namunalar asarning quyidagi sahifalarida uchraydi: 77, 195, 238, 243, 282, 320, 321, 340.

6. Faqat nomi zikr etilgan (Mullo Hijriy shoir), shuningdek, adabiy muhitga aloqasi bo‘lmagan kishilar (Boqi Chag‘oniyoniy).

“Boburnoma”da nomi zikr etilgan shoirlar turli mavzularda ijod etishgani keltirilgan ma’lumotlardan ham ayon bo‘ladi. Shu bila bir qatorda, bu o‘rinda shoirning o‘z siymosi ham yorqin gavdalanganini aytib o‘tmoq joiz. Prof. A.Abdug‘afurov e’tirof etganidek, «Boburnoma»da butun ko‘lami bilan ko‘ringan yetakchi xususiyat – o‘z holati va kechirmishlarini, kayfiyati va taassurotlarini, shodlik va tashvishlarini, intilish va orzularini bayon etish – Boburning ilk g‘azal va ruboiylaridayoq to‘la-to‘kis yuzaga chiqqan. Badiiy so‘zga, she’riyatga Bobur o‘zligini, o‘z ruhiy olamini «ochish» vositasi deb qaragan. Xuddi shuning uchun ham muallif shaxsiy hayot lavhalari hamda uning real ruhiy kechinmalari bilan bevosita bog‘liqlik Bobur lirikasining xos belgisi darajasiga ko‘tarilgan.

Ko‘rinadiki, “Boburnoma”da nomi zikr etilgan ijodkorlar safi ancha keng bo‘lib, ularning badiiy ijoddagi mavqeyi turlichadir. Hozirgi davr o‘quvchilariga bu xususda batafsil ma’lumot berish, birinchi navbatda, “Boburnoma” haqida ular olgan bilimlarni yanada boyitadi. Ikkinchidan esa, o‘sha davrda badiiy ijod bilan shug‘ullangan, ammo hozirgi kunda mashhur bo‘lmagan juda ko‘plab so‘z san’atkorlari bo‘lganligi haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.

Ne‘matova Hulkar Abdulbakiyevna,

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“BOBURNOMA”DA SAFAR TAASSUROTLLARI TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Boburnoma” asari o‘rta asrlar turkiy xalqlar mumtoz adabiyotidagi safarnoma janrida yaratilgan asarlarning eng sarasi ekanligi, “Boburnoma”ning 1502-yil voqealari tasviridagi Bobur Mirzoning fikrlarida safarnomaning tuzilishi uchun asos bo‘ladigan ikki nazariy omil: yo‘l motivi va sayohatchi obrazining mavjudligi, shuningdek, “Boburnoma”da Hindiston nabototi, hayvonot dunyosi bilan bog‘liq ma’lumotlarda muallif qiyoslash yo‘lidan borganligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: “Boburnoma”, safarnoma janri, yoʻl motivi, sayohatchi obrazi, mumtoz, voqea, Hindiston, qiyoslash.

Annotation: In this article, the work "Boburnoma" is the best of the works created in the travelogue genre in the classic literature of the medieval Turkic peoples, Babur Mirza's thoughts in the description of the events of 1502 in "Boburnoma" are two theoretical factors that form the basis for the structure of the travelogue: the road motif and the existence of the image of the traveler, as well as the fact that the author followed the path of comparison in the information related to the flora and fauna of India in "Boburnoma".

Key words: "Boburnoma", travelogue genre, road motif, traveler image, classic, event, India, comparison.

Dastlab “Vaqoye”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, shuningdek, “Boburiya”, nomlari bilan shuhrat qozongan, bugungi kunda esa “Boburnoma” deya yuritiluvchi asar mana necha asrlar oʻtsa-da, jahon adabiyoti va manbashunosligining noyob yodgorligi sifatida eʼtirof etib kelinmoqda. Mazkur asar bugungi kunga qadar oʻzbek adabiyotidagi dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar sifatida oʻrganilgan.

“Boburnoma”... Quriganda ham hidi gurkirab turadigan dastorboshga oʻxshaydi bu asar — har gal qoʻlga olganda yangitdan ifor taratadi. Shuning uchun uni bot-bot oʻqiyman. Tilining bir oz murakkabligi shunga daʼvat etsa ham ajab emas. Ammo har galgi mutolaa chogʻida avvalgisida anglamagan yo chala uqqan maʼnolarni topib zavq qilaman”. [Isomiddinov Z., 2008: 2] Jahon ayvonida oʻzining munosib oʻrniga ega boʻlgan, millatimizning faxr-u iftixori boʻlmish Zahiriddin Muhammad Bobur haqida soʻz ketganda, avvalo, buyuk shoh va shoir timsoli koʻz oʻngimizda gavdalanadi. Darhaqiqat, ham jismi, ham dili, ham amali komillikdan darak berib turgan bu ulugʻ zot qilichi ila dunyoga, qalami ila koʻngillarga kirib bordi va ularni zabt etdi. Taqdir uni yoshligidanoq turli koʻrgiliklar bilan sinadi. Bobur doimo komillik sari intilardi. Xavf-xatarga, jang-u jadallarga toʻla hayotini nurafshon chizgilar ila jilolantira oldi. Mohir sarkarda, sohir shoir nomini oldi. Esdalik xotiralarini mahorat bilan qalamga olib, uni moʻjazzgina “Vaqoe” (“Voqealar”) deb atadi.

Insoniyat tarixida yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosi (Anetta Beverij) deya tan olingan “Boburnoma” ayni paytda oʻrta asrlar turkiy xalqlar mumtoz adabiyotidagi safarnoma janrida yaratilgan asarlarning eng sarasidir. “Boburnoma”ning 1502-yil voqealari tasviridagi Bobur Mirzoning quyidagi fikrlari safarnomaning tuzilishi uchun asos boʻladigan ikki nazariy omil: yoʻl motivi va sayohatchi obrazining mazkur asarda ham mavjudligini tasdiqlaydi. Toj-u taxt qoʻlidan ketgan, yagona markazlashgan davlat barpo etishdek orzusi yoʻqqa chiqqan Bobur Mirzo shunday yozadi: “Oxiri bunday sargardonlik va bu xil qoʻnimsizlik jonga tegdi... bu xil xorlik va zorlik bilan elga koʻringuncha oyogʻim etgancha ketsam yaxshi. Xitoyga bormoqni niyat qilib, bosh olib ketish harakatiga tushdim. Kichiklikdan beri Xitoy taraflarga havasim bor edi. Biroq saltanat va boshqa bogʻlanishlar tufayli bu niyat muyassar boʻlmasdi. Saltanat ham ketdi... Safar moneliklari bartaraf boʻldi...” [Isomiddinov Z., 2008: 88]

Tarixdan ma'lumki, Bobur Mirzo safarni Xitoy emas, Kobul azimatidan boshladi. Bobur Mirzo safar xaritasini Movarounnahr, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston mamlakatlari hududlari doirasida kuzatish mumkin. "Boburnoma"da bu mamlakatlarning tarixi, xalqi, ularning urf-odatlari, tabiati, nabotot va hayvonot olami haqida qimmatli, ishonchli ma'lumotlar berilgan. "Asarda mingtacha geografik nom-mamlakat, shahar, qishloq, qal'a, dasht, tog', dovon, dara, daryo, ko'prik, kechik, ko'l, chashma, bog', yaylov, o'tloq va boshqa joylarning nomlari tilga olingan. Yuzlab geografik nomlar tarixiy va lug'aviy jihatdan izohlangan". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1989: 114] Eng e'tiborlisi, muallif-sayyoh minglarcha ma'lumotlar, faktlar ichida yo'qolib qolmaydi. U quruq reportyor yoki voqeanavis emas. Muallif-sayyoh Bobur Mirzo o'zining o'y-kechinmalari, hayrat-u quvonchlari, alam-u iztiroblari bilan har yerda hozir-u nozir. Safari davomida o'quvchisini unga notanish, noma'lum joylar, el-u elatlar, ularning urf-odati, an'analari, hayvonlar, qushlar, o'simliklar dunyosi bilan tanishtirar ekan, o'z navbatida ularga shaxsiy munosabatini, balosini ham beradi: "Doim xotirg'a etar edikim, Hindustonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur... Hindustonning yana uch ishidin mutazarrir erduk: bir issig'idin, yana bir gardidin, yana bir tund elidin..." (To'qqiz yuz o'ttiz ikkinchi (1525) yil voqealari) [Isomiddinov Z., 2008: 275] kabi taassurotlarini o'qib turib, ingliz sharqshunosi Monstyuart Elfinstonning "Bu xotiralarda buyuk turkiy podshoning hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg'ulari har qanday mubolag'a va pardalashlardan holi. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini... oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasi... Lekin muallifning yorqin xarakteri asarga eng ko'p joziba bag'ishlaydi", - [Gadoyev K., 2012: 12] degan fikriga qo'shilamiz. Chunki, sayyoh-muallif obrazi safarnoma janrining markaziy masalalaridan biri ekanini nazariy manbalardan yaxshi bilamiz. Bobur Mirzoning sinchkov sayyohlarga xos nigohini Hindiston o'lkasining ta'rifida yanada teranroq kuzatishimiz mumkin. "Hinduston mamoliki vase va purmardum va purhosil viloyat voqe bo'lubtur. Sharqi va janubi, balki g'arbi ham Muhit daryosig'a muntahi bo'lur. Shimoli bir tog'durkim, Hindikush va Kofiriston va Kashmir tog'lari bila payvasttur. G'arbi shimoli Kobul va G'azni va Qandahor voqe bo'lubtur. Jami' Hinduston viloyatining poytaxti Dehli ermish" [Isomiddinov Z., 2008: 248], – deb yozadi Bobur Mirzo Hindiston kengliklarini ta'riflab.

"Boburnoma"da Hindiston nabototi, hayvonot dunyosi bilan bog'liq ma'lumotlarda muallif qiyoslash yo'lidan borganligini ko'ramiz: "Agarchi bo'dana Hinduston maxsusasi emasdur, vale to'rt-besh jins bo'danadurkim, Hinduston maxsusidur. Bir bo'danadurkim, bizning viloyatlarg'a borur bo'danadin ulug'roqdur. Yana bir bo'danadurkim, ul viloyatg'a borur bo'danalardin qisqaroqdur, Qanot-quyrug'ining qizilroq rangi bor" [Isomiddinov Z., 2008: 257], – deya aniq ma'lumotlar beradi. Bobur Mirzo shu taxlit zumaj, ola qarg'a, hakka, maynak, bag'riqora, sandug'och, charz, lo'cha, chalsiy kabi 30 ga yaqin qushlar haqida ma'lumot beradi.

Bobur Mirzoning Hindiston baliqlari haqidagi ma'lumotlari ham o'ziga xos: "Hinduston baliqlarining go'shti laziz bo'lur edi va qiltig'i bo'lmas. Ajab chust

baliqdirlar. Bir qatla bir suvning ikki tarafidin to‘r solib keldilar, to‘rning bir tarafi suvdin yarim qaridin ko‘prak yuqori edi, baliqlarning ko‘pragi to‘rdin bir qari yuqorroq sachrab o‘ttilar” [Isomiddinov Z., 2008: 259], deb yozadi muallif Hindiston baliqlarining hushyorligidan zavqlanib. Sayyoh-muallifning sinchkov nigohidan Hindistonning quruqlikda yashovchi, suvda hayot kechiruvchi hayvonot olami, betakror o‘simliklar dunyosi chetda qolmaydi. Muallif pashkal – yomg‘ir mavsumiga tegishli: “Sovan, bodun, kuvor, kotik” deb nomlanuvchi oylar haqida ma‘lumot berish orqali kitobxonni Hindistonning o‘ziga xos iqlimi bilan tanishtiradi. “Boburnoma”da yerli aholi haqida: “Yana bir latofati budurkim, har sinfdan va har hirfagardindan behad va benihoyat ko‘pto‘r. Har ish uchun va har nima uchun jami muqarrar va muayyandurkim, ota-onalaridin beri ul ish va ul nimani qila kelgandurlar” [Isomiddinov Z., 2008: 268], – deydi.

Agarda safarnoma janri “eng qadimgi va o‘zgaruvchan janrlardan biri... Barcha imkoniyatlarga ega bo‘lgan janr” [Gadoyev K., 2012: 8] ekanligi hisobga olsak, Bobur mirzoning “Boburnoma”si safarnoma janri imkoniyatlari doirasida yozilgan, deya olamiz. Shu nuqtai nazardan ham aytish mumkinki, safarnomalarga xos bo‘lgan jihatlarni bir qarashda ma‘lum shaklga mos tushmasligi ushbu janr imkoniyatlari cheklanmaganligidandir. Nafaqat o‘zbek adabiyotining, balki jahon adabiyotining noyob durdonalaridan biriga aylangan Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asari ham yo‘l ocherklarining bir turidir.

“Boburnoma” o‘rta asrlar turkiy xalqlar mumtoz adabiyotidagi yo‘l xotiralari janrida yaratilgan asarlarning eng sarasidir. “Boburnoma”da yo‘l xotiralari janriga xos nafaqat ayrim paragraflar, balki butun-butun boblar mavjud. Shuning uchun ham “Boburnoma” yo‘l xotiralarining asosi, klassik namunasi hisoblanadi” [Ivanov N., 2003].

“Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san‘atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina “Boburnoma” uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir”. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008: 3] Mirzo Bobur talqinidagi ma‘lumotlarning yangiligi, qiziqarliligi, qiyosiyliigi, eng muhimi, ularning taqdim etilishida shoir, ijodkor, olim nigohining sezilib turishi “Boburnoma” muvaffaqiyatini ta‘minlagan omildir: “Boburnoma” – Bobur sarguzashtlarining voqeiy tarixiy lavhalari” dan iborat ekanligini hisobga olsak, uni bevosita safarnoma sifatida ham to‘la e‘tirof etish mumkin. Asar eng mukammal safarnomalarga xos bo‘lgan jamiki xususiyatlarni o‘zida namoyon eta olgan. “Boburnoma” – talqin va tahlil ko‘lami keng, umume‘tirof etiluvchi, e‘zozga munosib asar sifatida avlodlarga buyuk meros bo‘lib qoluvchi asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zuhridin Isomiddinov. Boburning bir jumlasini. //“Tafakkur” jurnali, 2008. 2-son.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 368 b.

3. Gadoyev K., Berdiyeva S. Jahongashta sayyoh olimlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 272 b.

4. Иванова Н. Жертва географии: русский писатель открывает (и закрывает) мир. // Дружба народов, 2003. № 8.

5. Тойбайев Э.М. Эволюция развития казахских путевых очерков// доклад сделанный на международной конференции «Массовая коммуникация Казахстана в XXI веке: реалии и прогнозы развития», 18 марта 2005 г. <http://www.conf.freenet.kz>

6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 288 b.

Xasanova Mashxura,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti

“BOBURNOMA”DA ULUG‘BEK MIRZO TASVIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada barcha zamonlarning mashhur siymosi, davlat va ilm ishlarini teng yuritgan, temuriylarning eng mashhur vakillaridan sanalgan Ulug‘bek mirzoning fan, madaniyat, adabiyot sohasidagi ulkan ishlari, jamiyat hayotidagi o‘rni va uning “Boburnoma”dagi tasviri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy, etnografik asar, temuriylar davlatchiligi, temuriyzoda, Ulug‘bek mirzo, imoratlar.

Annotation: In this article, the famous person of all times, who managed the affairs of the state and science equally, Ulugbek Mirza, one of the most famous representatives of the Timurids, will be considered about the great works in the field of science, culture, literature, his place in the life of the society and his image in "Boburnoma".

Key words: historical, ethnographic work, Timurid statehood, Timurid era, Ulugbek Mirza, buildings.

“Boburnoma” nafaqat tarixiy, etnografik, fan tarmoqlari haqida ma’lumot beruvchi asar, balki temuriylar davlatchiligi haqida ham mukammal izohlar bergan asardir. “Boburnoma”da Amir Temur va uning o‘g‘illaridan tortib nevaralarigacha u yoki bu tarzda ma’lumot berilgan. Ulardan biri insoniyat taraqqaiyotiga ulkan hissa qo‘shgan temuriyzoda Ulug‘bek mirzodir.

Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asarida keltirilishicha, «Ammo mag‘fur sulton sa’id, shahid Ulug‘bek Ko‘ragon, (qabri (hamisha) ravon bo‘lsin) podshohi olam, odil, g‘olib va sohibi himmat edi. Ilmda oliy martabaga erishdi. Maoniyda mo‘yni (ham) teshar edi. Uning zamonida ulamoning darajasi ko‘tarildi va fuzalo zo‘r martabaga erishdi. (Mirzo Ulug‘bek) xandasa¹da, daqoyiq

¹ Geometriya

namo, hay'at ilmi¹ masalalarida Majastiy² kusho edi. Hukamo va fuzalo ittifoqdirlarki, islomiyat davrida, balki, (Iskandar) Zulqarnaynning zamonidan shu davrgacha, ilmi hikmat³da Ulug'bek Ko'ragonday podshoh saltanat taxtida qaror topgan emasdur». [Ahmedov B., 1967: 57-59] Shayx Ahmad Taroziy esa o'zining «Funun ul-balog'a» asari muqaddimasida "Ul saltanat daryosining gavhari va madilat konining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, kayosat mamlakatining shohi, shahanshohi azam, shahriyori alam, sohibus sayf va-l qalam, farmondehi turku arabu ajam, mag'isiddin va-d davron amir Ulug'bek Ko'ragon", - deydi. [Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, 2002: 75] Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da Ulug'bek mirzo haqida boshqa, masalan, Husayn Boyqaroga bergan ta'rificha to'liq ma'lumot bermaydi. Bunga sabab uning esdalik asarligi bo'lishi mumkin. Ammo asarning yigirmadan ziyod o'rnida Ulug'bek mirzo eslanadi.

Xususan, birinchi bor Bobur ona tomonidan bo'lgan bobosi Yunusxon haqida ma'lumot berib, uning egachisini Ulug'bek mirzo o'g'li Abdulazizga olib berganligi, shu munosabat bilan Yunusxonning otasi Vaysxon vafotidan keyin Charos tuman beklaridan Mirak turkman xonni uch-to'rt ming uyluk mo'g'ul ulusi bila Ulug'bek mirzog'a ko'mak olib yana mo'g'ul ulusini olishi uchun keltirgani, ammo mirzo muruvvat qilmay ba'zilarini asir qilib, ba'zilarini, qaytarganini yozib bu "mo'g'ul ulusida bir tarix bo'ldi", - deydi. Shundan so'ng Vaysxonning ikkinchi o'g'li Esan Bug'axon fursat topib kelib, Farg'ona viloyatini Kandibodomgacha chopib, kelib Andijonni olib, elini tamom asir qilganligini yozgan. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 65]

Ikkinchi bor amakisi Sulton Ahmad mirzo tasvirida uni Ulug'bek mirzodan keyin hech kim unday qushchi podshoh bo'lgan emasligini va uning amirlaridan Sayid Yusuf o'g'loqchining otasini Ulug'bek mirzo rioyat qilganligi haqida yozadi. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 75]

Keyingi o'rinda esa Samarqand shahrining tasvirini berar ekan, Temur va Ulug'bek mirzolarning imoratlari va bog'lari bu yerda ko'p ekanligini, ulardan Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqoh, ularga yaqin bir yaxshi hammom solganini, u "Mirzo hammomi" nomi bilan mashhurligini, bu madrasaning janubida bir masjid barpo qilganini, u parcha-parcha yog'ochlarni taroshlab qurilganligi uchun "masjidi Muqatta" nomi bilan mashhurligini yozgan. Bobur Ulug'bek mirzoning oliy imoratlaridan biri deb Ko'hak arig'i yoqasida uch oshyonlik rasadxona qurganligi va Ulug'bek mirzo bu rasad bilan Ziji Ko'ragoniyni bitganligi, hozirgacha (Bobur mirzo zamonida) bu zij amal qilayotgani, boshqa zijlarga kam amal qilinishi haqida yoza turib, mirzodan avval va keyin tuzilgan zijlar haqida ham ma'lumot berib ketadi. Yana Ko'hakning atrofida Bog'I maydon deb nomlanuvchi bir bog' solgani, bog'ning o'rtasida ikki oshyonli ustunlari toshdan qilingan Chilsutun nomli bino qurgani, ushbu

¹ Astronomiya

² Ptolomey Klavdiy

³ Fizika

bog'chada yana Chinixona nomli chordara solgani, chinnini Xitoydan kishi yuborib keltirganini aytadi. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 103-104]

Keyingi ma'lumot tazkiralarda, tarixiy va badiiy asarlarda ruhiy iztirobning kulminatsiyasi sifatida tasvirlanadigan olimning fojeali o'limi haqidadir. Samarqand va Shahrisabz oralig'idagi yerlar haqida gapirilar ekan, Bobur Samarqandni Amir Temur tomonidan katta o'g'li Jahongir mirzoga bergani, uning vafotidan keyin mirzoning o'g'li Muhammad sultonga berilgani, Shohrux mirzo butun Movarounnahrni o'g'li Ulug'bek mirzoga, undan so'ng esa "besh kunlik o'tar dunyo uchun shunday donishmand va qari otasini shahid qilgan" Abdullatif mirzoga o'tganini yozib, aksar tarixiy asarlarda keltirilgan:

Ulug'bek bahri ulumu xirad,

Ki dunyovu dinro azo' bud pusht,

Zi Abbos shahdi shahodat chashid,

Shudash harfi tarix Abbos kusht,- [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:107]
ta'rixini keltiradi.

Ammo Abdullatif mirzoning hukmronligi ham olti oyga bormaydi. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytadigan bo'lsak: "O'tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o'lturdi. Har oyinakim, saltanat Shiruyag'a vafo qilg'oncha anga qildi". [Alisher Navoiy, 1997: 94] Undan so'ng Samarqand taxtiga Ulug'bek mirzoning kuyovi, Ibrohim sultonning o'g'li Abdullo mirzo (Hofiz Xorazmiyning Ibrohim sulton vafotiga bag'ishlangan marsiyasida eslangan – ta'kid bizniki. M.X.) o'tiradi.

Shayboniyxon tomonidan Samarqand qamal qilinganda Bobur mirzo shaharning o'rtasida Ulug'bek mirzo madrasasining tomining ustiga oq uy tikib o'tirganligi haqidagi ma'lumotda uchraydi: "Men va Qosimbek va yovug'umdagi ichkilar va yigitlar bila ko'mak bo'lduk. Bu maslahat uchun shahrning o'rtasida Ulug'bek mirzoning madrasasining tomining ustida oq uy tikib o'lturdim. Uzga beklarga va yigitlarga darvoealarda va girdo-gird qal'aning fasilida buljorlar uloshildi". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:144]

Keyingi ma'lumotni Istalif va Istarg'ich shaharlari ta'rifi keltirilganda, bu shaharlarni Ulug'bek mirzo Xuroson va Samarqand deb atashi, Istalifda Ulug'bek mirzo tomonidan barpo etilgan Bog'i Kalon nomli bog'ni egalariga bahosini berib olgani haqida keltiradi. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960:192] Ulug'bek mirzo tomonidan barpo etilgan yana shunday bog'lardan biri haqidagi ma'lumotni onasi Qutlug' Nigorxonim vafoti munosabati bilan beradi: "Ulug'bek mirzo tog'domanasida bog' imorat qilib edi, Bog'i Navruziy otliq. Varasasining ruxsati bila yakshanba kuni bu boqqa kelturub, men va Qosim ko'kaltosh tufroqqa topshurduk". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 213] Asarda Ulug'bek mirzo tomonidan qurilgan binolarning ayrimlari nomlari bilan, ayrimlari esa "...mirzo tomonidan qurilgan imorat" shaklida keltirilaveradi. Xususan, onasi vafotidan so'ng zilzila sodir bo'lganda ana shunday imoratlarning boloxonasida o'tirgan Jahongir mirzo o'zini yerga tashlagani, Xudo saqlab ozor yetmagani haqida yozadi. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 214] "Boburnoma"da mirzo tomonidan solingan Langar yo'sinliq bog'cha va Bog'i Bihisht [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 259] haqida fikr bildirilganda Ulug'bek mirzo eslangan.

Xulosa qilinganda aytish mumkinki, barcha zamonlarning mashhur siymosi, davlat va ilm ishlarini teng yuritgan, temuriylarning eng mashhur vakillaridan sanalgan mirzo Ulug‘bek o‘z davrining nafaqat shoirlari, balki tarixchilari, tazkiranavislari, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan din va dunyo homiysi sifatida ulug‘landi. Ular tomonidan olim va podshohning siyosiy, ijtimoiy, ilmiy faoliyati yuqori baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ, 20 томлик. 13-том. - Т.: 1997.
2. Аҳмедов Б., Давлатшоҳ Самарқандий. - Тошкент: “Фан”, 1967, 57-59 бетлар.
3. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002 йил 1-сон, 75-бет.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. - Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. 65-бет.

Saidova Rayhon Bekturodovna,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU tadqiqotchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“VAQOYE”DA SHOIRLARGA BOBUR MIRZO BAHOSI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada mumtoz o‘zbek adabiyotining mashhur namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning “Vaqoye” asaridagi she‘r va shoirlik haqidagi qarashlar tadqiq etiladi. Unda o‘zbek mumtoz she‘riyatining yorqin siymosi Zahiriddin Muhammad Boburning she‘r-u shoirlikka doir qarashlari va badiiy-estetik talqinlari tahlil etiladi. Shu bilan birga mavzuni o‘rganishda mumtoz va zamonaviy adabiyoti vakillari ijodiga ham o‘rni bilan murojaat etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek mumtoz adabiyoti, vaqoe, nazm, devon, she‘r-u shoirlik, Zahiriddin Muhammad Bobur, badiiyat, turkiy til, tahlil va talqin

Abstract: This scientific article examines the views of the famous Uzbek literature on poetry and poetry in the famous work of Zahiriddin Muhammad Babur. It analyzes the views and artistic-aesthetic interpretations of Zahiriddin Muhammad Babur, a bright figure of Uzbek classical poetry. At the same time, in the study of the topic, works of representatives of classic and modern literature are also referred to.

Key words: Uzbek classic literature, story, poem, devan, poetry, Zahiriddin Muhammad Babur, badiyat, Turkish language, analysis and interpretation

Dunyodagi eng qadimiy adabiy janrlardan bo‘lgan biografiya-tarjimayi hol islom tamaddunida o‘ta muhim tadqiqot sohasi sifatida ahamiyat kasb etdi. U dastlab arab adabiyotida shakl, mazmun va uslub jihatidan umumiy ko‘rinishga ega bo‘lgan. So‘ngra fors va turkiy adabiyotga o‘tib, o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan va yanada boyib ketgan. Shaxs haqida berilgan har qanday batafsil yoki qisqa, tarixiy yoki afsonaviy, mifologik ma‘lumotlarning tarjimayi hol deb hisoblanishini hisobga olsak, u juda keng ko‘lamda va ko‘plab turlarga ega degan xulosaga kelish mumkin. Bu o‘rinda ta‘rif, tahlil, talqin, tanqid, maqto‘v, qiyoslash, o‘z davri hodisalarini bayon qiluvchi voqeanomalar ham alohida o‘z uslubiga ega.

Darhaqiqat, arab tilidagi manbalarda yozma tarixiy manbalar sifatida ko‘rsatilgan payg‘ambarimiz hayotining turli jabhalarini tasvirlaydigan ma‘lumotlar mavjud. Turkiy adabiyotda xon va sultonlar haqida yozilgan voqeanomalarda shoirlar hayotini, tarjimayi holini tasvirlaydigan biografik xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan o‘rinlar ko‘plab uchraydi. Ammo ta‘kidlash kerakki, tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi epik xarakterdagi asarlar hozirgi biografiya namunalaridan yiroq bo‘lib, ularga adabiy asar sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Shunday ijod namunalaridan biri Bobur Mirzoning “Vaqoye” asari bo‘lib, unda yoritilgan to‘rt yuzdan ortiq shoirlar hayoti, asarlari nomi va ijodiga berilgan baho bugungi maqolamizning tadqiqiga asos bo‘ldi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Vaqoye” asari nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti xazinasini boyitgan durdona asar hisoblanadi. Ilk marotaba bu asar xususida adabiyotshunos Abdurauf Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobida asarning qismlarini chop etadi. Kitobga kiritilgan parchada faqat Bobur Mirzoning Hindiston bilan bog‘liq ma‘lumotlarning ham ayrim qismlarigina kiritilgan edi. [Abdurauf Fitrat, 2009] “Vaqoye”da keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, ularda shoirlarni maqtash, tanqid qilish, ijod ahli bilan bog‘liq voqealarda xolis bo‘lish, zarur o‘rinlarda ularni himoya qilish maqsadida yozilganligini kuzatish mumkin. Asarda nomlari keltirilgan shoirlar hayotining bosqichlari, egallagan lavozimlari va asarlarining nomlari ko‘rsatilgan. Muallifning bundan ko‘zlagan asosiy maqsadi shoirlarni unutilishdan qutqarish, o‘zigacha va o‘zi yashab turgan davrdan hikoya qilish bo‘libgina qolmay, ijodkor va adabiyotshunoslikning chuqur tadqiqotchisi sifatida shoirlilik va she‘r xususidagi qarashlarini ifoda etishga ham harakat qilgan. Ustoz-salaflari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xisrav Dehlaviy kabi Sharq adabiyotining ulug‘ darg‘alarini hurmat qilgan holda ularning ijodini teran anglaydi va o‘rganadi. Masalan, Abdurahmon Jomiy xususida juda qisqa ta‘rif berganligini o‘sha davrda ijod ahli orasida Jomiy shuhratining eng yuqori darajada ekanligi va ortiqcha madh-u tahsinga hojat kerak emasligiga yo‘yish mumkin. “...Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo‘q edi. She‘ri xud ma‘lumdur. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta‘rifqa ehtiyoji bo‘lg‘ay”. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 240]

Bir qisqa jumla bilan benazir shoirni “...bu jam‘ning saromad va san‘atkori” demog‘i Bobur Mirzo nazdida Jomiy iste‘dodi uzundan uzun balandparvoz baholarga muhtoj emasligini anglatadi. Bobur Alisher Navoiy nazmiga

to'xtalganda, juda ko'tarinki pafos bilan ta'rif-tavsif qiladi. Kunimizda har bir she'rsevarga yod bo'lib ketgan quyma satrlarni zavq-shavq bilan ifodalaydi: "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. To turkiy til bila she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 233] Bobur Mirzo Navoiyning asosiy asarlarini sanab o'tish barobarida, shoirning shaxsiyati oilaviy ahvoli, "ahli fazl va ahli hunarg'a" ko'rsatgan murabbiyliklari xususida bergan ma'lumotlari qiymati "Boburnoma"dan oldingi va keyingi asarlardan ahamiyati jihatdan anchayin yuqori turadi. Boshqa shoirlar xususida ma'lumot berish barobarida ham Alisher Navoiyga daxldor nuqtalariga diqqat qaratadi. Alisher Navoiyning ijodi yuzasidan keltirgan dalillari nechog'li qimmatli ekanligi haqidagi fikrimizni quyidagi ma'lumot bilan isbotlasash mumkin. Alisher Navoiy Samarqandda bo'lgan vaqtda unga homiylik qilgan Ahmad Hojibek haqida "Boburnoma"da shunday qaydlar bor: "Xushta'b va mardona kishi edi, "Vafoiy" taxallus qilur edi. Sohob devon erdi, she'ri yomon emas edi, bu bayt aningdurkim:

Mastam, ey muhtasib, imro'z zi man dast bidor,
Ihtisobam bikun on ro'z ki yobi hushyor.

Mir Alisher Navoiy Hiridin Samarqandg'a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo'lur edi". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 77] Bobur Mirzo hamma sohada nihoyatda yetuk bo'lgan, jumladan, musiqada ham jiddiy shug'ullanib "Musiqah ilmi" risolasini yozgan. Insonni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bekam-u ko'st ko'rishni istaganlik orzusi Alisher Navoiyning har bir shaxs qaysi sohada bo'lmasin "kamol kasb et"mog'i lozimligi xususidagi g'oyalar bilan ayni bir xil bo'lgan.[Haqqul Ibrohim, 1991: 23] Shu talab ikki ulug' shoirning inson kamolotiga borasidagi o'xshash jihatlaridan yana biri hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, "Boburnoma"da nomi zikr qilingan shoirlarning ko'plari she'r va musiqani bir-biridan ayirmagan holda ijod qilganligini kuzatiladi. "Yana Xo'ja Abdullo Marvoriy edi, burun sadr edi, so'ngra ichki va muqarrab bek bo'lub edi. Purfazoyil kishi edi, qonunni oncha kishi chalmaydir, qonunda girift qilmoq muning ixtiroyidir. Xututni xo'b bitir, ta'liqni xo'broq bitir edi, inshoni xo'b qilur edi, xushshabat kishi edi, she'r aytur edi. "Bayoniy" taxallus qilur edi. She'ri o'zga haysiyotg'a boqa ko'p furudtar edi, vale she'rni xo'b tanir edi". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 237] Shoir Binoiy haqida keltirgan ma'lumotida "...Burunlar musiqiydan bexabar ekandur, bu jihatdin Alisherbek ta'n qilur ekandur. Bu yil mirzo Marvg'a qishlay borg'anda Alisherbek ham borur. Binoiy Hirida qolur. Ul qish musiqiy mashq qilur. Yozgacha oncha bo'lurkim, ishlar bog'lar. Yoz Mirzo Hiri kelganda savt va naqsh o'tkarur. Alisherbek taajjub qilib tahsin o'qur".[Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 242] Bobur she'riyatida yoshligidan mutafakkir shoirga hurmati tufayli Alisher Navoiyning bir qator g'azal va ruboiylariga shakl va mazmun jihatidan yaqin ijod namunalari uchraydi. Ulug' shoirlarning ijodiy an'analari ruhida yozilgan she'rlari mavjudligi barobarida Zahiriddin Muhammad Bobur she'r xususida, shoirlar borasida, adabiy jarayonga munosabatida "Vaqoye"da shaxsiy qat'iy va sobit fikrini dadil ilgari suradi. Ba'zi ijod ahlini maqtovlarga burkab, ayrimlari xususida esa oshkora va ayovsiz tanqid qilib yozadi: "Ta'bi nazmi bor edi, devon tartib qilib erdi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmag'on yaxshiroqdur". [Zahiriddin

Muhammad Bobur, 1960: 82] Sulton Mahmud haqida aytilgan bu soʻzlar Mirzo Boburning sheʼrga nisbatan juda sinchkov va jiddiy yondashganligini anglatadi. Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur oʻz davri adabiy muhitini noziktaʼb shoir nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilgan. Adabiyotshunos V.Zohidov “Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy merosi” maqolasida bu xususda quyidagi fikrlarni keltiradi. “Bobur qator formalistik usul va vositalardan sunʼiy jimjimadorliklardan bemaʼni chuchmalliklardan qochish kerakligini aytadi, oʻz fikrini aniq, rostgoʻylik bilan ifoda qilishga intilish zarurligini juda koʻp uqtiradi”. [Zohidov V., 1960:15] Bobur Mirzo shoirlar ijodini tahlil qila turib, ularning ayrimlari ijodida mavzu chegaralanganligi, shaklda taqlidchilik ustunligi, mazmun oʻzligi haqida yozadi. Chuqur dalil va isbotlar keltirib, fikrni sodda, ravon va tushunarli tarzda ifodalash kerakligini uqtiradi. “Vaqoye”ning bir necha oʻrnida fikri fodalashda uslubning sodda boʻlmogʻi kerakligi haqidagi qaydlarga takror-takror urgʻu berilganligi muallif uchun bu muammoning zarurligini anglatadi. Humoyun Mirzoga qilgan murojaatida ham voqeani rost va “betakalluf” soʻzlash kerakligini, oʻqigan kishiga tushunarli va huzurbaxsh boʻlishi lozimligini aytadi”. Xat biturda takalluf qilay deysan, ul jihatdin mugʻlaq boʻladur. Betakalluf, pok alfoz birla bit, senga ham tashvish oz boʻlgʻay oʻqigʻuvchigʻa ham”. [Qodirov P. 2008: 306] “Boburnoma”ning tili ravon, xalqona qochirimlar, hazil-mutoyiba bilan berilgan oʻrinlari muallifning shoirona zakiyligini toʻla namoyon qilgan. Abdurahmon Jomiy bilan shoir Shayxim Suhayliy suhbatida ana shunday xalq orasida latifaga aylanib ulgurgan. Muallif “Vaqoye”da voqeani quyidagicha bayon qiladi: “Yana Shayximbek edi. “Suhayliy” taxallus qilur uchun Shayxim Suhayliy derlar edi. Bir tavr sheʼr aytur edi. Qoʻrqqudik alfoz va maoniy darj qilur edi. Aning abyotidin biri budur:

Shabi gʻam gird-bodi oham az jo burd gardunro,
Furu burd ajdahoyi sayli ashkam rubʼi maskunro.

(Mazmuni: gʻamli kechalarda ohimning quyuni osmonni oʻrnidan qoʻzgʻatdi, koʻz yoshim selining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi). Mashhurdurkim, bir qatla bu baytni Mavlono Abdurahmon Jomiy xizmatida oʻqubtur. Mavlono aytibturkim: “Mirzo sheʼr aytasiz yo odam qoʻrqutasiz?” Devon tartib qilib erdi. Masnaviyoti ham bor”. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 236] Sezib turganingizdek, Zahiriddin Muhammad Bobur mumtoz adabiyotning inja tadqiqotchisi sifatida shu birgina hazilga yoʻyilgan voqeani keltirish orqali shoirning sheʼr oʻqish madaniyati, ifoda usulining, ovoz ohangining muhimligi, soʻzlarni qoʻllashda yuksak fasohat lozimligi, haddan ortiq mubolagʻa va oʻrinsiz boʻrttirishlarning sheʼr eshituvchi uchun yoqimsiz holat paydo qilishi kabilarga urʻgʻu berib ketadi. Adabiyotshunos Vahob Rahmonov “Bobur ham adabiyot nazariyasi, ham badiiyat yaratuvchi omillar – sheʼr sanʼatlaridan mohirona foydalanish kerakligiga alohida ahamiyat bergan”, - deya taʼkidlaganini eslatib oʻtish joiz deb hisoblayman. “Boburshoh: shoh va shoir maqolasida. [Rahmonov V., 2008] Bir oʻrinda shoir Binoiy haqida maʼlumot berar ekan, uning Alisher Navoiy bilan boʻlgan suhbatini zarofat bilan bayon qiladi. [Qudratillayev H., 2011] Umuman olganda, “Boburnoma”da bir necha oʻrinlarda Binoiy obrazi Alisher Navoiy dahosiga bogʻliq oʻrinlarda talqin etiladi. Binoiy feʼl-atvoridagi soʻzga

chechanlik, zakiylik va oʻrni kelganda tap tortmay javob qaytarish kabi shaxsiyatidagi xususiyatlar keltirilgan quyidagi hazil voqeada koʻzga tashlanadi. [“Tarixi Rashidiy”] “...bir kun Shatranj majlisida Alisherbek oyogʻini uzatur. Binoiyning (orqasi)ga tegar. Alisherbek mutoyiba birla derki, “ajab baloyastdar hiri agar poy daroz mekuni ba (pushti) shoir merasad”. Binoiy derkim, “agar jam mekuni ham ba (pushti) shoir merasad”(Ajab bir balodirki, Hirotda oyogʻingni uzatsang, shoirning orqasiga tegadi. Yigʻsang ham shoirning orqasiga tegadi”.[Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 242] Movarounnahrning shaharlari haqida maʼlumotlar berilishi barobarida oʻsha hududda nomi mashhur shoirlar nomi ham qayd qilinganligi Bobur Mirzoning ijod ahliga boʻlgan eʼtiborini anglatadi. Masalan, Axxi haqida soʻz yurita turib,”...Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 62] Beklarning ichida ham ham yarogʻ, ham qalam bilan shahd qilgan shoirlar ham tilga olinadi: “Yana biri Mahmud Barlos edi. Navondoklik barloslardindur. Sulton Abusaid mirzo qoshida ham bek edi... Mahmud barlos Hisorni bermay, yaxshi sahladi. Shoir edi, devon tartib qilib erdi”. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 87] Shoirlarning, atrofidagi ijod ahlining qoʻllab-quvvatlab turganligi ham Bobur Mirzoni ilhomlantirgan, masalan, Hisordan kelgan shoir Mullo Hijriyning qilgan mulozamatidan Bobur anchayin ilhomlanganligini va uning takallufidan ushbu baytni bitganligini aytadi.

Takalluf har necha surat tutulsa andin ortuqsen,

Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen.

Tarixda Zahiriddin Muhammad Bobur shoirlar xususida hech bir oʻrinda bir yoqlama fikr yuritmaydi. “Yana Muhammad Solih edi, choshniliq gʻazallari bor,agarchi hamvorligʻi choshnisicha yoʻqtur, turkiy sheʼri ham bor yomon aytmaydur. Soʻngra Shayboniyxon qoshigʻa kelib edi, filjumla rioyat qilib edi. Shayboniyxonning otigʻa bir turkey masnaviy bitibdur. “Ramali musaddasi maxbun” vaznidakim “Subha” vazni boʻlgʻay,bisyor sust va furudtur, ani oʻqigʻon kishi Muhammad Solihning sheʼridan beeʼtiqod boʻlur. Bir yaxshi bayti budur:

Boʻldi Tanbalgʻa vatan Fargʻona,

Qildi Fargʻonani tanbalxona”

Raqibi Shayboniyxon tomonga oʻtib ketgan boʻlsa-da, shoir Muhammad Solih haqida ham ham haqiqatni boricha ifoda etadi. Jahonda ham shoir ham shoh boʻlgan podshohlar adabiyotimiz tarixida talaygina. Ammo ular orasida Bobur dahosiga yeta olganlari kam. Birgina Shayboniyxonning qalam ahliga munosabatida uning insoniylik xarakterini yaqqol koʻra olasiz. “Vaqoye”da shunday keltiriladi: Shayboqxon (Shayboniyxon) Hirotni egallagandan keyin “jamʻi ahli sheʼr va ahli taʼbni Mullo Binoiyga tuttur”ganligini va xalq orasida mashhur boʻlgan bir qitʼani keltiradi. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 270] Taʼma ilinjida boʻlgan Binoiy shoirlarga zulm oʻtkazganligini aytadi. Koʻrinib turibdiki, isteʼdodli shoirlarni qadrlash, sheʼr zavqini anglash, shoirona saviya va ulugʻlik Bobur dahosigagina xosdir. Bu xususda ustoz adabiyotshunos Ibrohim Haqqul: “Bobur podshohlik bilan shoirlik rost kelavermasligini yaxshi bilgan. Bobur oʻz memuarida zohiriy safar, sarguzasht va kurashlarni bayon etgan. Sheʼrlarida esa u koʻngil va ruh sayohatiga daxldor maʼno hamda tuygʻularni

tasvirlab beradi”. [Haqqulov I., 2007] Bobur o‘z zamonasida shoirlikni ulug‘ martabaga ko‘tara oldiki, Mohlaroyim Nodira uning nasli ekanligidan haqli ravishda faxr-u iftixor qiladi.

Siyodat xonadoni shohi Bobur nasli pokimen, xudoyo,
Rahmat ayla barcha ajdodi izomimni. [Nodira, 2002: 54]

Keyingi davr biografik asarlari uchun ham “Vaqoye”da nomlari keltirilgan shoirlar bilan bog‘liq ma‘lumotlar adabiyot tarixi va taraqqiyotini belgilovchi manba bo‘lib qoldi. Jumladan, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida she‘r va shoirlik haqida berilgan qaydlarning tub asosi ham bevosita “Boburnoma”ga borib taqaladi. [Abulg‘ozi Bahodirxon, 1990: 13]

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - T.: O‘zFA nashriyoti. 1960.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). – T.: “Ma‘naviyat”, 2009. B. –7
3. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
4. Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. - T., “Cho‘lpon” nashriyoti.1990.
5. Nodira. Devon. - Toshkent: “Sharq” nashriyori, 2002
6. Qobilov U. Zahiriddin Muhammad Bobur she‘riyatida mumtoz an‘anaviy obrazlar talqini. Uluslararo ilmiy-nazariy konferansiya materiallari. Toshkent – 2023-275.
7. Zohidov V. Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy merosi. - T.: O‘zFA nashriyoti.1960. 15-bet .
8. Haqqulov I. “Kamol et, kasbkim”. -T.: “Cho‘lpon” nashriyoti. 1991
9. Rahmonov V., “Boburshoh ;shoh va shoir. ”Ma‘rifat” gazetasi, 2008
10. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 312 б.
11. Maqsud Shayxzoda. Tanlangan asarlar. 6 jildlik. 4-jild. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1972. 295-346

Omonova Orasta Xudoyor qizi
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU doktranti

“BOBURNOMA”NING XORIJDA O‘RGANILISH TARIXI VA TARJIMALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoh, sarkarda, yetuk davlat siyosiy arbobi, shoir, adib, tilshunos, faqih, tarixshunos, mutafakkir, qomusiy olim Zahiruddin Muhammad Boburning hayoti, badiiy-ilmiy merosi, “Boburnoma” asarining xorijiy mamlakatlarda o‘rganilishi va ilmiy tadqiqotlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit soʻzlar: ijod, nasr, nazm, sheʼr, shoir, meros, qoʻlyozma, tazkira, tadqiqot, tarjima, boburshunoslik, ilmiy gʻoya, olim, sharqshunoslik, qomusiy olim.

Abstract: In this article, the life, artistic and scientific heritage of Zahiruddin Muhammad Babur (1483-1530), a great representative of Uzbek classic literature, king, general, accomplished statesman, poet, literary linguist, jurist, historian, thinker, encyclopedist, "Boburnoma" study and scientific researches of his work in foreign countries are discussed.

Key words: creativity, prose, poem, poet, heritage, manuscript, translation, research, translation, folklore, scientific idea, scientist, oriental studies, encyclopedist.

"Boburnoma" muallifi Zahiruddin Muhammad Bobur [1483-1530]ning koʻplab qiziqishlari orasida adabiyot, ayniqsa, muhim oʻrin tutadi. Odatdagidek, u asarida ham soʻzlarini saralab, oʻrinsiz foydalanishlardan uzoqda va koʻpincha voqeani ochiq tarzda ifodalaydi. Ushbu maqolada asosan Bobur hayoti va ijodining xorijiy olimlar tomonidan har qaysi jihatdan oʻrganilishi, "Boburnoma" ning tarjima nusxalari haqida maʼlumot berishga harakat qildik.

Adabiy aloqalarda tarjimashunoslik muhim koʻprik vazifasini oʻtagan. Sababi, tarjima sohasi hech qanday masofa yoxud chegara bilmas vosita hisoblanadi. Mutarjimlik (yaʼni tarjimashunoslik) - sharaflil va ayni paytda, oʻta mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining Yevropada, ayniqsa, nemiszabon mamlakatlarda qay darajada tarjima qilinganligi, oʻrganilganligi tarixiga alohida toʻxtalib oʻtsak.

Bobur asarlari tarjimalari tahlili haqida gap ketganda, u yaratgan asarlar hattoki, shoir hayotligi davrida fors tiliga oʻgirilib oʻrganilgan [Саломов Ф., 1984: 3-6], - degan maʼlumotlar ham bor. Demak, buyuk mutafakkir asarlari tarjimasi uzoq tarixga borib taqaladi. Biroq, biz asosan, bobomiz asarlarining Gʻarb dunyosiga kirib borishi haqida fikr yuritmoqdamiz. Yetuk olimimiz Muso Todjixodjayev bergan maʼlumotlarga tayangan holda shuni ayta olamizki, Germaniya va shu kabi boshqa nemiszabon davlat olimlari bu borada juda faol boʻlgan [Тоджиходжаев М., 2016. 4-5]. Bobur asarlari tarjimalari tarixiga ham nazar tashlar ekanmiz, Navoiy kabi oʻz davrida asarlarining shuhrat qozonib, tarjima nusxalari yaratilganiga guvoh boʻlamiz. Shuni ham alohida taʼkidlash joizki, shoirning oʻzi avvalo mohir muttarjim edi Bahouddin Naqshbandning davomchisi, Xoja Ahror Valining "Volidiya" diniy-falsafiy asarini sheʼriy koʻrinishda tarjima qilgan. Birgina "Boburnoma" asari fors, golland, ingliz, fransuz, nemis, turk, rus va boshqa oʻnlab tillarga tarjima qilindi. Yevropa tillaridagi nusxalar uchun ham aynan ingliz tilidagi bevosita tarjima asos boʻlib xizmat qildi. U jahon adabiyotida "Boburnoma"ning birinchi va toʻliq ingliz tilidagi tarjima boʻlib, eski oʻzbek tilidan tarjima qilingan. Muallif shotlandiyalik sharqshunos olim va tarixchilar **Jon Leyden (1775-1811)** va **Uilyam Erskin (1773-1852)**. Har bir nusxa yana qayta bir necha marta nashr ettirildi. Deylik, birgina ingliz tilidagi "Boburnoma" 9 marotaba nashr etildi. Nemis tilidagi birinchi tarjima esa bilvosita yaʼni ingliz tilidan olmon mutarjimi Kayzer Amadeus

tomonidan amalga oshirildi. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda boburiylar imperiyasining asoschisi, shoir va yetuk davlat siyosiy arbobi bo'lgan. Uning hayoti va ijodi nafaqat Markaziy Osiyo va Hindiston, balki Yevropadagi ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortdi. Yevropa olimlari Boburning tarixiy ahamiyati va madaniy merosini o'rganish maqsadida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Ushbu maqolada biz Bobur hayoti va ijodini tadqiq etgan muhim yevropalik tadqiqotchilarni ko'rib chiqamiz.

Vasiliy Bartold - taniqli rus sharqshunosi va tarixchisi Vasiliy Bartold o'z tadqiqotlarining katta qismini Markaziy Osiyo, jumladan, Bobur a'zosi bo'lgan temuriylar sulolasi tarixiga bag'ishlagan. Bartold temuriylar va ularning madaniy ahamiyati haqida bir qancha muhim asarlar yozgan. Uning tadqiqotlari Boburning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rnini tushunishga zamin yaratdi.

Hermann Goetz - mashhur nemis hindologi va tarixchisi, Hindiston tarixi va madaniyatini chuqur o'rgangan. U o'z ijodining bir qismini Bobur va boburiylar sulolasini o'rganishga ham bag'ishlagan. Goetz Boburning Mug'ullar imperiyasining asoschisi sifatidagi rolini tahlil qilishga va uning siyosiy va madaniy xizmatlarini e'tirof etishga hissa qo'shgan.

Andre Uink - gollandiyalik taniqli tarixchi, o'rta asrlar Hindistoni va Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatiga ixtisoslashgan. U Temuriylar sulolasi va xususan Bobur haqida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Uink asarlarida Bobur duch kelgan siyosiy va harbiy qiyinchiliklar va uning boburiylar imperiyasini barpo etish strategiyalari haqida muhim tushunchalar berilgan. Bu yevropalik olimlarning hissalarini Bobur haqidagi tasavvur va uning tarixiy ahamiyatini kengaytirishga yordam berdi. Uning tadqiqotlari Boburning Markaziy Osiyo va Hindistonning siyosiy manzarasiga ta'sirini tushunishga, shuningdek, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalariga qo'shgan madaniy xizmatlarini e'tirof etishga xizmat qildi.

Yevropada hozirgi kunda Boburga, umuman, o'zbek mumtoz adabiyotiga o'zgacha hurmat va katta qiziqish qaraladi. Ayniqsa, Karl Brokkelmann, Ingeborg Baldauf, Barbara Kellner-Heinkele, Alfred Kurella, Erika Taube kabilar ham bu borada ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Keyingi izlanishlarimizda ularning tadqiqotlari haqida fikr yuritamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mīr 'Alīšīr Nawā'ī Akten des Symposiums aus Anlaß des 560. Geburtstages und des 500. Jahres des Todes von Mīr 'Alīšīr Nawā'ī am 23. April 2001. – WÜRZBURG, 2016.

2. Саломов Ф. Таржима ташвишлари. - Тошкент: G'. G'улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.

3. Тоджиходжаев М. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. - Тошкент: Вауоз, 2016.

4. Эркинов А. Мумтоз адабиётимиз G'arb олимлари нигоҳида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2018, №3.

“BOBURNOMA”DAGI SHE’RLARDA FALSAFIY-AXLOQIY MAVZULAR IFODASI

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma”dagi she’rlarda falsafiy-axloqiy mavzular ifodasi haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Muallif asardagi she’rlarda falsafiy-axloqiy mavzular va ularni o‘zaro birlashtirib turadigan jihatlarni ochib berishga intiladi.

Maqolada “Boburnoma”dagi falsafiy-axloqiy mavzudagi she’rlar tahlil qilinib, ularning asar badiiy qimmatida tutgan o‘rni ilmiy jihatdan yetarli dalillar orqali isbotlashga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, Zahiriddin Muhammad Bobur, falsafa, axloq, falsafiy-axloqiy mavzu, shoh va darvesh, so‘z qudrati, lavh ul-mahfuz.

Annotation: In this article, the researcher describes his comments about the expression of philosophical and moral themes in the poems of “Boburnoma”. In the poems of the work, the author tries to reveal the philosophical and moral themes and aspects that unite them.

In the article, the author analyzed the philosophical-ethical poems in “Boburnoma” and tried to prove their place in the artistic value of the work through scientifically sufficient evidence.

Key words: “Boburnoma”, Zahiriddin Muhammad Babur, philosophy, ethics, philosophical-ethical topic, king and dervish, power of words, lavh ul-mahfuz (letter of fate).

O‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘nan sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishida pand-nasihatning birinchi o‘ringa qo‘yilishi Sharq mumtoz adabiyotiga xos bo‘lgan muhim jihatlardan sanaladi. Shu sababli mumtoz she‘riyat asosini falsafiy-axloqiy mavzusi tilga olingan pand-nasihat ruhidagi asarlar tashkil qiladi.

Shubhasiz, bu holat “Boburnoma”ni ham chetlab o‘tmagan. Atoqli adabiyotshunos olim E.Shodiyev ta‘kidlaganidek, Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu asarida ayrim yig‘ilish va suhbatlarda turli munosbatlar bilan fors-tojik adiblari, xususan, Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiyning “Panj ganj”, Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlaridan falsafiy-axloqiy ruhdagi she‘riy parchalarni ko‘plab keltiradi. [E.Shodiyev, 1991: 7-8-b.]

Asarida keltirilgan she‘r va she‘riy parchalarning aksariyati falsafiy-axloqiy mavzuda bo‘lib, o‘zida turli axloqiy g‘oyalarni aks ettiradi. Jumladan:

Agar sad sol moni var yake ro‘z

Biboyad raft az in kohi dilafro‘z. [Boburnoma, 2002: 99]

Mazmuni: Agar yuz yil va gar bir kun umr bor,

Bu dilkash qasrdan ketarsan nochor. [Boburnoma, 2008: 98]

Bu baytda umrning o'tkinchiligi, muvaqqat ekanligi, ya'ni odam yuz yil yoki bir kun yashasa ham, baribir, bu dunyodan o'tishi muqarrarligi g'oyasi o'z aksini topgan.

Asarning to'qqiz yuz to'qqizinchi (1503-1504) yil voqealari" bobida fitnachi bek va amirlar ta'sirida ukasi Jahongir mirzo bilan oralarining buzilishi haqida, o'zining Xurosonga ketishga qaror qilganligining sababi haqida ma'lumot berarkan, Bobur o'zining xos amirlaridan Boqibekning tilidan ushbu mojarolar, ya'ni qo'sh hokimiyatchilik va uning oqibatlarini haqida Sa'diy qalamiga mansub "Guliston" asarining "Suhbat odobi haqida"gi sakkizinchi bobiga mansub quyidagi she'riy parchani keltiradi:

Dah darvesh dar gileme bixusband,
Du podshoh dar iqlime nag'unjand.

Nimi none gar xurad mardi Xudoy,
Bazli darveshon kunad nime digar.

Mulki iqlime bigirad podshoh,
Hamchunon dar bandi iqlime digar. [Boburnoma, 2002: 103]

Mazmuni: O'nta darvesh bir gilamda yotar bemalol,
Ikki shohning bir iqlimga sig'ishi mahol.

Topsa Allohning jo'mardi agar bitta non,
Yarmin berar darveshlarga sindirib shu on.

Egallasa shoh bir iqlim mulkini, beshak,
Fikri-dardi ikkinchi bir iqlim bo'lajak. (tarjima bizniki – N.H.)

Keltirilgan she'riy parchada Sa'diy Sharq mumtoz she'riyatida an'anaga aylangan shoh va darvesh mavzusini qalamga oladi. Unda darvesh timsoli orqali bag'rikeng, boriga qanoat qiladigan mo'min kishilarni, shoh timsoli orqali esa dunyoning o'tkinchiligini bila turib, unga ko'ngil qo'ygan, xasis va ziqna odamlarni tasvirlagan. Parchada yana Allohning jo'mardi timsoli ham tilga olingan bo'lib, u saxiy, saxovatli, haqiqiy insonlarning timsoli sanaladi. Parchada xokisorlik va kibr, saxiylik va xasislik, qanoat va ochko'zlik, qisqasi, inson ruhiyatining ikki qutbi – yaxshilik va yomonlik haqidagi falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, "Boburnoma"da keltirilgan she'r va she'riy parchalarning aksariyat qismi yaxshilik va yomonlik g'oyasini tashiydi. Jumladan,

Tu bad kunandai xudro baro'zgor sipor,
Ki ro'zgor turo chokarest kiyna guzor. [Boburnoma, 2002: 126]

Mazmuni: Yomonlik qilganni hayotga topshir,
U qasding olguvchi mulozimingdir. [Boburnoma, 2008: 125]

Yana:

Har neku badeki dar shumorast,

To dar nigari salohi korast. [Boburnoma, 2002:148]

Mazmuni: Har yaxshi-yomonki mulohaza qil,

Xayrli ishlarga sabab bo'lar, bil. (Tarjima bizniki – N.H.)

Asarda keltirilgan falsafiy mavzudagi she'riy parchalarda azaliy va abadiy qonuniyatlar – ajdodlar turmush tajribasidan kelib chiqqan xulosalar haqida fikr yuritiladi. Insonni har bir qadamini o'ylab bosishga, hayotida duch kelgan muammolarni hal qilishda yetti o'lchab bir kesishga undaydi:

Zamini sho'ra sunbul bar naylorad,

Dar o' tuxmi amal zoyi' magardon.

Nako'n bo badon kardan chunonast,

Ki band kardan bajoi nekmardon. [Boburnoma, 2002:149]

Mazmuni: Sho'rlagan zaminda bitmaydi sunbul,

Unga urug' sepib, zoe qilmagil.

Yomonga shu kabi qilsang gar amal,

Yaxshiga yomonlik qilish bilan teng. (Tarjima bizniki – N.H.)

Asarda so'z qudratiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

“Xat bitimoqdin va bizni tilamoqdin munkir bo'lub, rustoiyona va durusht javoblar yibordilar. Ul rustoiliklaridin biri bu edikim, Shohbek manga bitilgan xatning orqasida beklar beklarga, balki ulug'roq martabaliq beklar kichikrak chargalik beklarga muhr bosar yerda qog'ozning o'rtasida muhr bosib yiboribtur. Agar mundoq rustoiyona harakatlar qilmasa erdi va bu nav' durusht javoblar yibormasa edi, ish munga yetmas edi. Nechukkim:

Siteza ba joyi rasonad suxan,

Ki vayron kunad xonadoni ko'han". [Boburnoma, 2002:156]

Tabdili: “Xat yozganlari va bizni chorlaganlaridan Muqim va Shohbek mutlaqo tonib, betamizlarcha qo'pol javoblar yuborishdi. Betamizligining biri shu ediki, Shohbekning menga bitilgan xati orqasida beklar beklarga, aniqrog'i ulug'roq martabaliq beklar kichikroq mansablik beklarga muhr bosadigan joyda – qog'oz o'rtasiga muhr bosib yuboribdi. Agar bunday g'aliz harakatlar qilmasa va bunday qo'pol javoblar yubormasa edi, ish bunga borib yetmasdi. Negakim: [Boburnoma, 2008: 157-158]

Zug'um-la joyida aytilgan kalom,

Ko'hna xonadonni aylagay vayron". (Tarjima bizniki – N.H.)

Falsafiy mazmundagi she'riy parchalar turli falsafiy, axloqiy g'oyalarni o'zida aks ettiradi va muallif ulardan muayyan voqea-hodisani xulosalash sifatida foydalangan. Jumladan: “Kishimizning ozig'a boqmay, Tengriga tavakkul qilib, naqoralarni qoqib, g'anim sori boqib yuruduk.

Ko'p-u ozg'a Tengridur berguchi,

Bu dargohda yo'qtur kishining kuchi. [Boburnoma, 2002:158]

“...Bularning ig'vo va angizidin Shayboqxon Hiridin tog' yo'li bila meni Qandahorda xayol qilib, Qandahor ustiga ilg'ar, ushmuni mulohaza qilib, Qosimbek tajribaliq kishi muhassilliqlar bila Qandahordin bizni ko'churdi.

Har chi dar oyina javon binad,

Pir dar xishti puxta on binad". [Boburnoma, 2002:159]

Tabdili: ...Bularning ig‘vo va tezlashi bilan Shayboqxon Hirotdan tog‘ yo‘li orqali, meni Qandahorda deb o‘ylab, Qandahor ustiga yuradi. Shularni mulohaza qilgan, tajribalik Qosimbek olingan o‘ljalar bilan bizni Qandahordan ko‘chirdi. [Boburnoma, 2008: 161]

Mazmuni: Yosh ko‘zguda ko‘rgan har narsaki bor,

Keksa pishiq g‘ishtga qarab ko‘rolar. (Tarjima bizniki – N.H.)

Umrning o‘tkinchiligi, hech kimning abadiy yashashga imkoni yo‘qligi, shu sababli berilgan umrni behuda o‘tkazmaslik, uni arziyas turmush tashvishlariga sarflamaslik g‘oyasi boshqa Sharq xalqlari kabi mumtoz adabiyotimizda ham asosiy tamoyillardan biri sanaladi. Bobur ham o‘z asarida bunday g‘oyani ilgari surishni chetda qoldirmagan. Asar sahifalarida quyidagilarni o‘qiymiz:

Oxir elning mundaq bedilliklarini surub va bu nav’ sustluklarini ko‘rub, bir tadbir xotiring‘a yetti. Jami’ beklarni va yigitlarni chorlab dedimkim:

“Beklar va yigitlar!

Har ki omad ba jahon ahli fano xohad bud,

Onki poyandavu boqeist, Xudo xohad bud.

Har kimki hayot majlisina kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manziliga kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidin kechgusidur. Yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bila o‘lgan yaxshiroq.

Banomi neko‘ gar bimiram ravost,

Maro nom boyadki, tan margrost. [Boburnoma, 2002:223]

Tabdili: Oxiri, odamlarning bunday qo‘rqoqlik va sustliklarini ko‘rib, bir reja o‘ylab topdim. Barcha bek va yigitlarni chaqirib shunday dedim:

“Beklar va yigitlar! [Boburnoma, 2008: 257]

Mazmuni: Jahonga kelgan zot ahli fanodir,

Doimiy va boqiy yolg‘iz Xudodir. (Bayt tarjimasi bizniki – N.H.)

Hayot majlisiga kirgan odamning har biri oxir-oqibat ajal qadahidan ichadi va tiriklik manziliga kelgan har bir kishi oxiri dunyo g‘amxonasidan kechib ketadi. Yomon nom bilan tirik yurgandan, yaxshi nom bilan o‘lgan afzal. [Boburnoma, 2008: 257]

Mazmuni: Yaxshi nom-la o‘lsam, yetar men uchun,

Menga shu nom kerak, tana o‘lim-chun.

Bobur o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubida ham farzandiga o‘git-nasihat tariqasida bir qator falsafiy g‘oyalar aks etgan she‘riy parchalarni keltiradi: “... Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringizdir. Qopuda kelgan ishni taqdir qilmangiz. Garonjonlik bila kohilliq podshohlik bila rost kelmas.

Jahongire tavaqquf barnayobad,

Jahon onro buvad, ki beh shitobad

Hama chizi zi ro‘yi kadxudoyi,

Sukun meyobad illo podshoyi. [Boburnoma, 2002:234]

Tabdili: Sizlarning jonni tikib, qilich soladigan paytingiz keldi. Omadingiz kelganida, uni boy berib qo‘ymang. Beparvolik va sustkashlik bilan podshohlik muvofiq kelmaydi. [Boburnoma, 2008: 257]

Muallif ushbu fikrining isboti sifatida baytni shunday o‘girdik:

Mazmuni: Jahongirlik to‘xtab turmaydi bir on,

Jiddiy tirishganga bo'ladi jahon.
Podshoh amri bilan hamma narsa, bas,
To'xtashi mumkindir, ammo shohlikmas...

“... Yana xatlaringda yolg'uzluq, yolg'uzluqkim, debsen, podshohliqta aybdur,
nechukkim debturlar:

Agar poy bandi rizo pesh gir,
Va gar yaksvori sari xesh gir. [Boburnoma, 2002:243]

Mazmuni: Oyog'ing band: rizoni oldingga sol,
Gar yakka otliqsan, o'z zimmangga ol.

O'z davrining kishisi sifatida Bobur ham lavh ul-mahfuzga – taqdiri azalga, ya'ni odam hayotida ro'y bergan yoki beradigan barcha narsa Alloh tomonidan uning taqdiriga bitilganiga ishonardi. Shu sababli o'z hayotida sodir bo'lgan ayrim voqealarni aynan taqdiri azal nuqtai nazaridan baholaydi va unga mos she'riy parchalarni fikrining isboti sifatida keltiradi. Jumladan: “... Bu oxshom g'arib voqi'a dast berdi. Kechaning uch pocig'a yovuq kemada suron va g'avg'o chiqti. Chuhralar – har kim kemanding bir yig'ochini olib, ur-ur deb qichqirishadurlar. “Farmoyish” kemasi men takya qilg'on “Osoyish” kemasining yonida edi. Bir tunqator anda edi, uyqudin ko'z ochib ko'rarkim, bir kishi “Osoyish” kemasiga ilik qo'yub chiqar xayolidadur. Ustiga tashlar; suvga cho'mub, chiqarida tunqatorning boshiga chopar; ozroqcha zaxm kelib edi, suv sari-o'q kochar. G'avg'o bu jihattin ekandur. Manerdin kelgan kechasi ham kemanding yaqinida bir-ikki tunqator bir necha hindustoniyni quvlab, ikki qilich va bir xanjarlarini kelturub edi. Tengri taolo saxladi.

Agar tig'i olam bijunbad zi joy,
Naburrad ragi to naxohad Xudoy. [Бобурнома, 2002: 256-257]

Mazmuni: Joyidan qo'zg'olsa gar olam tig'i,
Tomir kesmas, yo'qdir Xudo buyrug'i. (Tarjima bizniki – N.H.)

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, “Boburnoma”dagi she'rlarning aksariyati falsafiy-axloqiy mavzuda bo'lib, kitobxonning asarda tasvirlangan voqealardan to'g'ri xulosa chiqarishiga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “Шарқ”, 2002.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Табдил. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2008.
3. Шодиев Э. Бобур ва тожик адабиёти. – Тошкент, Адабий мерос, 1991, № 4 (58).

ANNETT BEVERIJ VA “BOBURNOMA”

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarining ingliz tiliga tarjima va qiyosiy tahlilini amalga oshirgan ingliz sharqshunosi Annet Suzanna Beverij va uning ilmiy tadqiqot ishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Beverij asarni tarjima qilish bilan birga uning qo‘lyozma faksimilisini ham e’lon qilgan. “Boburnoma”ning qo‘lyozmalarini qiyosiy o‘rgangan va o‘z munosabatlarini bildirib o‘tgan. A.S.Beverij xonim tadqiqotlari bilan boburshunoslik sohasiga ulkan hissa qo‘shgan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, A.S.Beverij, tarjimalar, faksimil, Hindiston, Haydarobod, “Humoyunnoma”, Qozon nusxasi.

Annotation: The article provides information about Annet Suzanne Beveridge, who translated and compared Zahiriddin Muhammad Babur's Boburnoma into English, and about her research work. In addition to translating the work, Beveridge also published a facsimile. He comparatively studied the manuscripts of the Boburnoma and expressed his views. Ms. A. Beveridge has made significant contributions to the field of beekeeping through her research.

Keywords: "Boburnoma", A.S. Beveridge, translations, facsimile, India, Hayderabad, "Humoyunnoma", Kazan copy.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari yozilganiga besh asrga yaqin vaqt o‘tganiga qaramay, haligacha dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Har bir fan yuzasidan tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchi albatta, ushbu memuar asarga murojaat qiladi. Ayniqsa, adabiyotshunos, geograf, tarixchilar eng ko‘p tadqiq qilgan yo‘nalish egalari hisoblanishadi. Ushbu asarning asl nusxasi va qo‘lyozmalaridan jahonning turli tillariga tarjimalar va qiyosiy tahlillar qilingan. Shu jumladan ushbu maqolamizda inglizcha tarjima va tadqiqotlar olib borgan va ulkan yutuqlarga erishgan angliyalik Annet Suzanna Beverij¹ haqida va uning “Boburnoma” asari bo‘yicha tahlillari bilan tanishtirmoqchimiz.

Taniqli ingliz boburshunos olimi Annet Suzanna Beverij 1842-yil 13-dekabr Angliyaning Stourbrij shahrida tug‘ilgan. Tarixga qiziqishi tufayli 1872-yil oktyabr oyida u Britaniya kemasida Hindistonga suzib boradi [1]. U yerda ayollar ta’lim olish huquqi uchun kurashgan. Xususan, Mahila Vidyalaya deb nomlangan alohida ayollar maktabini ochishga erishgan. Bu maktab ko‘p yillar davomida faoliyat ko‘rsatgan va keyinchalik bu ayollar Bethune kolleji bilan birlashtirilgan [2].

Keyinchalik Annet Suzana Hindistondagi Britaniya elchixonasi ishchisi, sharqshunos Henri Beverijga turmushga chiqadi.

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Annette_Beveridge

Hindlar madaniyati, qo‘lyozma yodgorliklariga qiziqqan Beverij xonim ularni o‘rganadi va asarlar yozadi.

A.S. Beverij boburiylar davlati asoschisi Boburning “Boburnoma” asarini qiyosiy tahlil asosida fors va turkiy manbalardan foydalanib, 1912—1922-yillarda to‘rtta kitob holda ingliz tilida nashrettirdi [3].

Shuningdek, u boburiy hukmdor Humoyunning tarjimai holi - “Humoyunnoma”ni fors tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan. Bu memuar asar uning singlisi Gulbadan Begim tomonidan yozilgan bo‘lib, uni Beverij mehr bilan “Malika Atirgul g‘unchasi (Princess Rosebud)” deb atagan [4].

Annet Suzanna Beverij 1929-yil 29-martda 86 yoshida Londonda vafot etgan. Beverijlar avlodlari hozirda Angliyaning Shottermill shahrida yashab kelmoqdalar [5].

Beverij xonim “Boburnoma” inglizcha tajrimasi bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borgan. Xususan, asarning turli davlatlardagi qo‘lyozma nusxalari ustida qiyosiy tahlillarni amalga oshirgan. Ayni paytda eng mukammal hisoblangan “Boburnoma”ning Buxoro nusxasini ham qisman o‘rganishga muvaffaq bo‘ladi.

Buxoro qo‘lyozmasi haqida A.S.Beverij bunday yozadi: “Haydarobod qo‘lyozmasiga oid fikrlarga oydinlik kiritish uchun ko‘p ishlashimga to‘g‘ri keldi. Buxoro qo‘lyozmasining yoshini aniqlash unchalik qiyin emas. Mendagi ma‘lumotlar u 1709-yili ko‘chirilganiga shubha tug‘dirmaydi. Bu haqda janob Senkovskiyning ma‘lumotlari ham mavjud”[6].

A.S.Beverij xonim “Boburnoma”ning mavjud qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish asosida ularning jadvalini tuzadi. Uning fikricha, Bobur podshohning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan qo‘lyozma yo‘qolgan. A.Beverij Boburshohning o‘zi 1529-yili Samarqandga Xoja Kalon Xoja Yahyoning nabirasiga yuborgan “Vaqoyi” qo‘lyozmasi hanuz Xoja Kalonning oilasida saqlanayotgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi. Mashhur «Tarixi Rashidiy» asarining muallifi Muhammad Haydar Dug‘latga yuborilgan nusxani esa Koshg‘arda saqlanayotgan bo‘lishi ehtimoli bor, deydi [7]. Keyinchalik, Rossiya elchisi bilan Buxoroga kelgan Temur Po‘lat Buxoro nusxasi deb atalayotgan qo‘lyozmani sotib oladi. Beverij xonim bu haqida ham keltiradi:

«I‘m Timur-Pulad son of Mirza Rajah son of Pay-chin, bought this hook Babur-nama after coming to Bukhara with /the/ **Russian Florio Ben Beneveni**, enjoy of the Padshah . . . whose army is numerous as the stars... May it he well received! Amen! O Lord of both Worlds».

Tarjimasi: “Men Temur Po‘lat, Mirzo Rajab Poychin o‘g‘li rus Florio Beg Beneveni bilan Buxoroga kelganimda askarlari yulduzlar kabi behisob... Podshohning «Boburnoma»sini sotib oldim. Ikki olam sarvariga rahmatingni ato et. Omin!”[8].

Temur Po‘lat kitobni olaturib sotuvchidan Bobur hayoti, tarixi haqida ham so‘ragan. Suhbat davomida asar haqida «Buxoro Boburnoma»si degan chalkash xulosaga kelgan.

Annetta Susan Beverij 1714-yili Temur Po‘lat Buxorodan sotib olgan va Buxoro nusxasi deb yuritiladigan qo‘lyozmaga oid alohida jadval tuzgan. Oltita

qo‘lyozmani yo‘qolgan yoki hali topilmagan, deb hisoblagan A.S.Beverij “Boburnoma”ning quyidagi nusxalarini ro‘yxatga kiritadi:

1. Edinburg (Shotlandiya) Milliy Kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma(Adv.18.3.18);
2. Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma (Add.No 26324);
3. Hindiston jamiyati Indian Office qo‘lyozmasi (№ 178);
4. Bengal Osiyo Jamiyati (Asiatic Society of Bengal) qo‘lyozmasi (№ 121);
5. Manchesterdagi Lindeniana kutubxonasi nusxasi;
6. Haydarobod nusxasi;
7. Sank-Peterburg Davlat universiteti kutubxonasi qo‘lyozmasi (№ 0.683);
8. Sank-Peterburg Tashqi ishlar kollegiyasidagi (hozirgi Rossiya FA Sharqshunoslik instituti, Sank-Peterburg bo‘limi) qo‘lyozmasi (№ 685);
9. Sank-Peterburg Osiyo muzeyidagi qo‘lyozma (№ 590);
10. Senkovskiy qo‘lyozmasi (hozirgi Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sank-Peterburg bo‘limidagi) qo‘lyozma (№ 117).

Anetta Beverij mavjud qo‘lyozmalarni qayta o‘rganish jarayonida, “Boburnoma”ning asl nusxasiga eng yaqin matnni aniqlash uchun eng muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga keladi. Bular: Elfinston, Haydarobod va Georg Yakob Kerr nusxalaridir. Yapon olimi, professor Eiji Mano “tanqidiy matn”ni yaratishda Elfinston va Haydarobod nusxalaridan asosiy tayanch manba sifatida foydalanganligi sababi ham shunda.

Beverij xonim Elfinston qo‘lyozmasiga ishonchsizlik bilan qaragan bo‘lsa-da, “Boburnoma”ga qiziqish eng avval Bobur Mirzoning yurtida boshlanganligini tasdiqlashi jihatidan bu qo‘lyozmaning ahamiyati katta.

1905-yili Kerr nusxasini A.S.Beverij xonim faksimil holida nashr ettirdi. Kerr va Haydarobod nusxalarini qiyosiy o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, Kerr nusxasi o‘zining til xususiyatlari va hajmi jihatidan Xaydarobod nusxasidan qolishmaydi. Bu qo‘lyozmaning qachon va kim tomonidan ko‘chirilgani noma’lum. Ushbu nusxa matni ham to‘liq bo‘lsa-da, Qozon bosmasiga qiyoslanganda tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari borligi ma’lum bo‘ladi. Umuman olganda, har ikkala qo‘lyozma ham ayrim nuqsonlardan holi emas [9].

London nusxasining afzalligi shundaki, bunda A.S.Beverij xonim qo‘lyozmaning faksimilisini ilova qilgan. Asar oxirida kishi ismlari, joy nomlari, qabila na urug‘ nomlarining mukammal ko‘rsatkichlari berilgani va ingliz tilidagi o‘n betlik so‘zboshi nashrning ilmiy qiymatini oshirgan. Lekin ko‘rsatkichlarning transliteratsiyasiz arab yozuvi bilan berilishi nomlarni to‘g‘ri qo‘yish masalasini anchagina qiyinlashtirgan.

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, 1948-1949-yillarda “Boburnoma” matnshunos olimlar Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev tomonidan arab alifbosidan Kirill alifbosiga tabdil qilinib, ikki kitob shaklida chop qilindi[10]. Nashrga Y.G‘ulomov va R.Nabiyevlar so‘zboshi yozgan. Unda “Boburnoma”ning o‘rganilishi, tarjimalari to‘g‘risida muxtasar ma’lumot beriladi. Bu nashr yangi

o‘zbek alifbosida kishi ismlari, jug‘rofiy nomlar ko‘rsatkichi, lug‘at, qisqa izoh va tarjimalar ilova etilgani bilan ahamiyatlidir.

Beverij xonim izlanishlari va qiyosiy tahlillaridan shunisi ma’lumki London va Kerr nusxalari bilan bir qatorda biz Buxoro nusxasi deb atayotgan Sank Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti filialida “D-685” raqam ostidagi saqlanayotgan nusxasi eng muhim va “Boburnoma”ning asl nusxasiga eng yaqin manba deb xulosa qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sastri , History of the Brahmo Samaj 1911. - p. 258
2. Beveridge, A.S., The Babur-nama in English (Memoirs of Babur) - Volume I. London:Luzac and Co. Retrieved 14 December 2017.
3. Beveridge A.S., (1898). Life and writings of Gulbadan Begam (Lady Rosebody).Calcutta. Retrieved 14 December 2017.
4. Beveridge A.S. The Haydarabad Codex of the Babar-nama. Part II. JRAS. 1906. No. IVThe Buk-hara VIS. - p 80.
5. Xoshimova M.D., “Boburnoma” asarining tadqiqiy matnini yaratish muammolari (o‘zbek, ingliz va yapon nashrlari misolida. Diss., Toshkent 2007. – BB. 13,22.
6. Boburnoma, I tom, 1948-yil, II tom 1949-yil. Nashrga tayyorlovchilar Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev.
7. Beveridge A.S., The Haydarabad Codex of the Babar-nama. Part II. JRAS. 1906. No. IVThe Buk-hara VIS p 80.
8. Beveridge A.S., The Haydarabad Codex of the Babar-nama. Part II, JRAS, 1906, No. IV.The Buk-hara MS.. p,g.
9. Xoshimova M.D., “Boburnoma” asarining tadqiqiy matnini yaratish muammolari (o‘zbek, ingliz va yapon nashrlari misolida. Diss., Toshkent 2007. – B. 13.
10. Boburnoma, I tom, 1948-yil, II tom 1949-yil. Nashrga tayyorlovchilar Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev.

G‘ofurova Gulhayo Tolibjon qizi,

Andijon viloyati, Andijon shahar

48-umumta’lim maktabi ingliz tili o‘qituvchisi

JAHON ADABIYOTIGA “BOBURNOMA”NING INTEGRASIYASI

Annotasiya: Maqolada birinchi “Boburnoma” tarjimalarining tadqiqi, uning tadrijiy rivojlanish bosqichlari, shoh asarning 20 dan ziyod nomda bosilib chiqishi, 30 dan ortiq xorijiy tillarga o‘girilishi, Sharq Renessansining marvaridi - “Boburnoma”ni xorij Boburshunosligida o‘rganilishi, Bobur Mirzo haqida yozilgan roman, qissa, doston, she'r, monografiya, esse, maqola, dissertatsiya,

ilmiy tadqiqotlarni qay biri roman-u qaysinisi “Ajoyib kishilar hayotidan” turkumida yozilgan kitoblar haqida gap boradi.

Kalit soʻzlar: “Toj kiygan darvesh”, shoirlar sultoni, dunyo kitobxonlari, ma'lumotlar xazinasi, buyuk xukmdor, kommentariyalar, Bobur portreti

Abstract. For the first time, this article examines the translations of "Boburnoma", its gradual development stages, the publication of this masterpiece in more than 20 titles, its translation into more than 30 foreign languages, the study of the pearl of the Eastern Renaissance - "Boburnoma" in foreign Babur studies, a novel written about Babur Mirza, a short story, epics, poems, monographs, essays, articles, dissertations, scientific studies, some of them are novels, some of them are written in the series "From the life of wonderful people".

Keywords: "King Errant", Sultan of Poets, World Readers, Treasure of Information, Great Rulers, Commentaries, Portrait of Babur

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning nomini butun jahonga tanitgan shoh asardir. U nafaqat oʻzbek adabiyotida balki jahon adabiyoti tarixida munosib oʻrin egallab kelmoqda. “Boburnoma” tarixiy badiiy asar sifatida turkiy xalqlar nasrining yorqin ilk namunalaridan biri sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu asar nodir tarixiy manba boʻlish bilan birga ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob hamdir. “Boburnoma” yozuvchi xotiralari, esdaliklaridan tashkil topgan. Shu sababdan uning asl nomini muallifning oʻzi “Vaqoe'noma”, ya'ni “Voqealar kundaligi” deb atagani bejiz emas. “Bobur qalamiga mansub shoxona asarning turli tillarga qilingan tarjimalarini kuzatgan olimlar qiziq bir xodisani qayd etishgan. Kitob yigirmadan ziyod nom ostida bosilib chiqqan. Chunonchi: “Voqeoti Boburiy”, “Voqeanomai podshoxi”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Vaqoe”, “Voqeanoma”, “Bobur podshoxning tarjimai holi”, “Boburiya”, “Bobur memuarlari”, “Esdaliklar”, “Bobur tarixi”, “Gʻaroyib tarjimai xol”, “Sharxlar”, “Ma'murnoma”, “Boburning xayoti”, “Tuzuk”, “Podshoxnoma”, “Bobur xotiroti”, “Bobur bitiklari”, “Boburnoma-ingliz tilida” va x.k. [Salomov Gʻ., Otajanov N., 1996: 112]

Bu keyinchalik esa uni “Boburnoma” deb atash rasm boʻlib qolgan. Bu hol asarning har bir yangi tarjimasida ayricha bir tamoyil bilan uning bagʻriga kirib borilganini koʻrsatuvchi dalildir.

Jahon adabiyoti maydonida daho san'atkorlar, buyuk ijodkorlar oʻzlarining shoh asarlari bilan nafaqat milliy adabiyotlarni boyitib kelganlar, balki umumbashariy badiiy tafakkur tadrijiga ham munosib hissa qoʻshganlar. Dunyo tanigan oʻzbek adiblari orasida Zahiriddin Muhammad Boburshohning alohida oʻrni bor. U ham ulugʻ millatparvar adib, ham buyuk saltanatning asoschisi, ham olamiy tafakkur sohibi boʻlgan alloma, odil siyosat va saxiy qalam bilan boshqargan “toj kiygan darvesh”, [Boltaboyev X. 2008: 3] “shoirlar sultoni” [Boltaboyev X. 2017: 22] haqida koʻplab mamlakatlarda yuzlab tadqiqotlar yuzaga kelgan. Birgina Buyuk Britaniyada Boburshoh faoliyati, uning sulolasi va asarlariga oid tadqiqotlar XVI asrdan keyin faol bir jarayonga aylangani sir emas. [Boltaboyev X. 2008: 3]

“Boburnoma” XVI asrdan hozirgacha ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, ispan, xitoy, arab, yapon, turk, rus, hind, urdu va boshqa 30 dan ortiq tillarga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Boburiylar hukmronligi davomida bu asar to‘rt marta fors tiliga, keyinroq esa bir necha yevropa tillariga tarjima qilingan. Ular orasida A. S. Beverij xonimning asl turkiy matndan qilingan tarjimasi eng yaxshi tarjima hisoblanadi. Jumladan, Boburshunos hind olimi Muni La'l Bobur ijodining dunyoviy ahamiyati haqida to‘xtalib, “Boburnoma” asarini dunyoga tarqatgan va tanishtirgan A. S. Beverij xonim haqida shunday deydi: “A.S.Beverij Bobur esdaliklarini turkiy tildagi asl nusxasini ingliz tiliga o‘girib muhim ibtido yasagan. Bu tarjima nusxasi Bobur shaxsiyatini aniqroq ta’riflab bergan. Muallif Boburning til imkoniyatlarinigini tasvirlab qolmay, balki uning o‘ziga xos dunyoqarashini ham yaqqol ko‘rsatib o‘tgan. Bu tarjima Bobu saltanati tarixi bilan qiziqqan ingliz tilida so‘zlashguvchi xalqlar uchun bebaho yutuq deb atalsa arziydi.” [Lal M., 1977: 7] Bu bilan Muni La'l ingliz tilida so‘zlovchi xalqlar adabiyotida ham Boburning o‘z mavqeyi mavjudligiga alohida urg‘u bergan.

Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakatlar olimlarining ilmiy tadqiqotlarida “Boburnoma”ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi. “Boburnoma”ning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘ldi.

J. Leyden va U. Erskin yevropalik boburshunoslar ichida **“birinchi kashshof”**, **“dunyo kitobxonlari”** [Beverij A.S. 1921: 38] oldida katta xizmatni ado etgan yirik sharqshunos – tarixchi, tarjimon edilar. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921 yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma” tarjimalari 8 million nusxada 9 marta nashr qilindi.

Keyingi yillarda “Boburnoma”ning prof. V. Tekston tomonidan AQSHda (Kembrij Sh. Harvard universiteti, 1993, 1996) ikki jildda, mukammal so‘zlik, ko‘rsatgich va sharh-izohlar bilan uch tildagi matni chop etildi.

Qayd qilinganidek, “Boburnoma” qo‘lyozmalari matnida ba’zi yillar (1504-1505, 1509-1518, 1520-1524) tafsiloti uchramaydi. 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu izlanish bo‘lgan o‘rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma’lum darajada tiklaganlar. “Boburnoma” forscha (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A. Kayzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828y), Pave de Kurteyl tomonidan to‘la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. “Boburnoma”ni tarjima qilish va tadqiq turli mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkin) ham “Boburnoma”dan parchalarni tarjima qilganlar. N.I.Ilminskiy “Boburnoma”ni Qozonda (1857), O‘zbekistonda M.Sale “Boburnoma”ni rus tiliga to‘la tarjima qilib, 3 marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi. P.Shamsiyev va S.Mirzayevlar tomonidan “Boburnoma”ning ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi.

Bobur ijodiga qiziqish XVI asrdayoq boshlangan. Dastlab, Usmoniy davlati, Angliya, Ispaniya va Fransiya qirolliklarining tashqi siyosatiga oid rasmiy hujjatlarda aks etgan. Keyinchalik “Boburnoma” asari ma’lum bo’lgach, uning ijodiga qiziqish kuchayib, boburshunoslik sharqshunoslikning alohida yo’nalishi sifatida shakllana boshlagan.

Muhammad Faxriy Xiravayning “Ravzatus-salotin” (1555) tazkiralarda Bobur podshoh ijodiga shoir sifatida qaralgan va qisqa ma’lumot berilgan. Keyingi davrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Ozarbayjon va Hindistonda yozilgan tazkiralarning ko’pchiligida Bobur haqida ma’lumot keltirib, uning g’azal va ruboiylaridan namunalar berilgan. [Z.M.Bobur ensiklopediyasi 2017: 150]

Boburni buyuk shoir va adib sifatida e’tirof etish, “Boburnoma”ga kamyob tarixiy manba sifatida qaralib, asarni tarjima qilish va tadqiq etish; 4) Boburga o’ziga xos buyuk tarixiy shaxs sifatida qarash. So’nggi yo’nalish, asosan, Bobur siymosi va hayratomuz taqdiridan ta’sirlanib yozilgan badiiy va publisistik asarlar yozish an’anasi keng tarqalgan.

Yevropa ilm ahliga “Boburnoma”ni tanitishda gollandiyalik olim Vitsenning xizmati katta bo’lib, u 1705-yilda asardagi Farg’ona vodiysiga oid tasvirlarni tarjima qilib Amsterdamda nashr ettirgan. Vitsendan sal avvalroq 1697-yilda mashxur fransuz olimi Bartalome D-Erbalo Molenli yevropada birinchilardan bo’lib, “Sharq kutubxonasi yoxud Sharq fuqarosining bilimiga doir qomuslar” turkumini tashkil etgani hamda unda Amir Temur, Alisher Navoiy va Boburmirzo ijodi, hayoti, faoliyati, xususan «Boburnoma» haqida ilk bor fransuz kitobxonlariga batafsil va muhim ma’lumotlarni keltirgani ma’lum bo’ldi. [Otajonov N., 1984: 23].

Fransiyada o’rta asrlardan buyon Sharq, bizning tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, buyuk ajdodlarimiz ilmiy-ma’naviy merosimiz katta qiziqish bilan o’rganilishini birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov «Fransuz sharqshunoslari bu sohada kashshoflik qildilar va ajoyib natijalarga erishdilar» [Xolbekov M., 2018: 108] deya juda yuqori va to’g’ri baholagandi.

«Boburnoma»ning fransuz sharqshunosi Jan Lui Bakkyu Grammon tomonidan turk chig’atoy tilidan tarjima qilinishi, 1980-yilda Parijda YuNESKOning maxsus nashri «Bobur kitobi» deb atalishi va yuksak mukofotga sazovor bo’lishi buning yorqin isbotidir.

Luvr (Fransiya) Oliy maktabining professori, temuriylar, turkiylar trixiga oid bir qancha asarlar muallifi Jan Pol Runing “Bobur shaxsiyati, uning beqiyos strategiyasi Sharqiy Ovruponing taqdirini butunlay o’zgartirib yubordi. Xindiston va Yaqin Sharq taqdirida sezilarli iz qoldirdi. Temur va Bobur bashar tarixining buyuk siymolaridandir» degan e’tirofi, ehtirom-u tahsinga sazovor. [Xolbekov M., 2018: 109]

Ushbu asar tufayli o’zbek xalqining adabiy merosi bilan yevropa xalqlari tanisha boshlagan bo’lsa, shuningdek, ingliz sharqshunoslari ta’riflagan "**Boburiyana davri**" [Otajonov N., 1984: 23] ham boshlangan edi. Lekin Boburning yevropadagi chinakam shuhrati roppa-rosa 100 yildan keyin, XIX asr boshlarida qaror topdi. Bu ishda ingliz sharqshunoslarini xizmati katta bo’ldi. Ular kitobni tarjima qilib nashr va tadqiq qilish, Bobur hayotini o’rganishni qizg’in

davom ettirdilar. Umuman, Boburning hayoti, shaxsiy qobiliyatlari yevropa tadqiqotchilarini hayratda qoldirgan edi. Bobur siymosida ular ulkan sarkarda, mohir davlat arbobi, dilbar dilkash insonni ko‘rdilar. Tarixshunos Elfiniston Boburni «Sharqning Yuliy Sezari», «Toj kiygan darvesh» romanining muallifi Flora Anna Stil «Biz buyuk mo‘g‘ullar deb yanglish atab kelganimiz Bobur Hindiston imperatori, shoir askar, pahlavon, musiqachi va ochiq ko‘ngil rostguy inson» deya xatosini tan oladi. [Otajonov N., 2017: 40]

Shuni unutmaslik kerakki, bunda tarjima va barcha keyingi tadqiqotlarning boshida «Boburnoma» tarjimoni, davlat va jamoat arbobi Vilyam Erskin ilmiy-adabiy faoliyatining alohida o‘rni bor.

V.Erskinning sharq adabiyoti buyicha olib borgan ishlari Britaniya muzeyida saqlanadi. Bu nodir qo‘lyozmalarni hamda Erskinning turli fan sohalariga doir ishlarini 1865-yilda o‘g‘li Klaud Britaniya muzeyiga sovg‘a qilgan. Mazkur majmua orasida Xumoyun va Jahongir davriga oid qo‘lyozmalar, Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» qo‘lyozmasi, Abul Fazlning «Akbarnomasi, Akbarshohga doir va boshqa o‘nlab noyob qo‘lyozmalarni uchratish mumkin.

Bundan tashqari, Erskinning arab, fors, turk, sanskrit, hind tillariga oid 436 dan ortiq ishlari ham Britaniya muzeyida saqlanadi.

Sharqshunos olim Charlz Riyo asos solgan uch qismli katalog esa 2586 qo‘lyozmani o‘z ichiga olgan. Asosiy to‘plovchi V.Erskin bo‘lib bunda «Temurdan Boburgacha, Boburdan Avrangzeb-gacha» bo‘lgan nodir manbalarni uchratish mumkin. Bu ishlar ham alohida e‘tiborga loyiqdir.

Xorijdagi boburshunoslikning ko‘lami beqiyos keng bo‘lib, birgina V.Erskin faoliyati bilan chegaralanib qolmay, undan keyin yanada yuqori cho‘qqilarga ko‘tarilganini qayd etish kerak.

«Boburnoma» asari dunyoning ko‘plab mamlakatlariga yetib borishga ulgurdi, bir necha o‘nlab xorijiy tillarga, hattoki Pokistonda sindiy lahjasiga o‘girilishi, qayta-qayta nashr etilgani asarning besh asrlik noyob adabiy-tarixiy durdona ekanligidan dalolat beradi. XIX asrga kelib asarning ingliz, fransuz, olmon tillariga qayta-qayta tarjima etilishi Evropa olimlarini yanada jo‘shqinlashtirdi. G‘arbiy yevropada Bobur ijodiga u yoki bu tarzda murojaat etmagan yirik sharqshunos kam qoldi.

“Bobur ijodi G‘arbiy yevropa sharqshunosligida turli maqsad va darajada tadqiqot ob‘ekti bo‘lishi hamda tarjima etilishi jihatidan buyuk nemis klassigi I.V.Gyote o‘zining «Sharq-u G‘arb devoniga yozgan sharhlarida «Yetti buyuk alloma» deb atagan Hofiz, Firdavsiy, Nizomiy, Sa‘diy, Jomiy, Anvari, Rumiylar merosidan ham bir qadar ustun turajagi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan dalildir” [Abdullayeva R., 2018: 263]. 1987-yilga kelib manbaning barcha tarjimalar tajribasi umumlashtirilgan holda birinchi marta turk olimlari tomonidan tanqidiy matn yaratishga intilish sezildi. Buning natijasida 2000-yili «Boburnoma» uchinchi bor turk tilida 622 sahifada chop qilindi. “Boburnoma”ning bu qadar ko‘p tillarga tarjima qilinishi, qayta-qayta nashr etilishi, jahon bo‘ylab shuhrat topishiga sabab nasriy tasvirning g‘oyat haqqoniyliги hamda keng qamrovligidir.

«Boburnoma»ning g‘arblik tarjimonlari J.Leyden, V.Erskin, A.Kayzer, Pave de Kurteyl, L.U.King va boshqa sharqshunoslar Bobur va uning asarlariga

adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki tarixiy-etnografik va lingvistik nazardan yondashganlar, ular tarjimalarga yozgan soʻzboshi, izoh va sharhlarida bu asarni XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston, Hindistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aniq, roʻyi rost tasvirlovchi hujjat, mazkur hududlarning geografiyasi, oʻsimlik va hayvonot dunyosi, etnografiyasi haqida ishonchli maʼlumot beruvchi manba deb baholaydilar.

Tan bermay ilojimiz yoʻq: Bobur Mirzoning nomini dunyo afkor ommasiga tanitgan, ijodini jahon miqyosida shoyon etgan ham shu evropaliklar, eng avvalo inglizlar boʻldi. Ingliziy, farangiy va olmoniy tarjimalar, jahonshumul maʼrifat elchilari yangligʻ shavkatli fohit va shoirning nomini etti iqlimga yoydilar.

Barselona universiteti professori, sharqshunos olima, «Boburnoma» tarjimoni Merse Komasi xonim kitobni Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovga hurmat va ehtirom ramzi sifatida taqdim etishi, yapon olimi Eyji Manoning 30 yil mobaynida 4 jildidan iborat «Boburnoma» ilmiy-tanqidiy matni va tarjimasini yaratishi, keyingi besh yil ichida uzilgan yil voqealar mavjud toʻrtta qoʻlyozma asosida toʻldirilgan holda qayta chop qilishi alohida eʼtiborga loyiqdir.

Italiyaning tarixiy ilmiy-ommabop adabiyotlarga ixtisoslashgan etakchi nashriyotlaridan biri "Sandro Teti Editore" nashriyot uyi Zahiriddin Muxammad Boburning mashhur "Boburnoma" asarini italyan tilida yuqori poligrafik sifatda chop etdi.

Ushbu nashr Boburiylar davriga oid 96 ta badiiy miniatyura bilan bezatilgan. Bu suvratlar oʻsha zamon uchun tarixiy, geografik, etimologik omillarni toʻliq hisobga olgan holda, kitob qahramonlarining xarakterlari va ichki dunyosini xaqiqiy, realistik tarzda ochib beradigan rang tasvirning ilgʻor yoʻnalishi boʻlgan. Mashhur moʻʼjaz rasmlar ranglar palitrasi, nafis bezaklari va teran manosi bilan ajralib turadi. Tarjimon Federiko Pastore kitobga yozgan sharxida "Boburnoma" "oʻz davrining kundalik xayotini qayta tiklashga imkon beradigan, islom tamadduniga xos avtobiografik asarning ilk rostgoʻy namunasi" ekaniga alohida urgʻu beradi.

Bu shunchaki tarixiy qiymatga ega boʻlgan kundalik, sayohatnoma, xotira, avtobiografiya, solnomagina emas, balki ushbu muhtasham asar muallif hukmdorning oʻz zamonasida mavjud boʻlgan soxta va balandparvoz adabiy uslublarni inkor etadigan ilmiy-badiiy salohiyatini ham yaqqol namoyon etadi.

Kitob davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning soʻzboshisi bilan ochiladi. Yapon olimi Eyji Mano uni "Oʻzbek tilininig va XV-XVI asrdagi Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston, Hindiston boʻyicha maʼlumotlar xazinasi"[Mano E., 1996: 19] deb atasa, Prezidentimiz Boburni soʻz sanʼatiga mehr qoʻygan buyuk hukmdor yoxud saltanatni sevgan buyuk adibdir, "Boburnoma" esa Sharq Renessansining marvaridir, [Mirziyoyev Sh., 2023] deb taʼrif beradilar.

Javoharlaʼl Neru turmada oʻz qiziga bagʻishlab yozgan "Dunyo tarixiga bir nazar" kitobida "uning ajdodlari toʻgʻridan-toʻgʻri Temurga va Chingizxonga borib taqaladi. U muayyan darajada ana shu fohitlarining qudratini va harbiy isteʼdodini oʻzida mujassam etgan eng fashatli va orif kishilar sirasiga mansub, diniy mazhablarga, mutaassiblarga berilishdan xoli, sanʼat, adabiyotga ixlos qoʻygan,

gullar-u bog'larni sevgan, turk tarixining eng buyuk siymolaridan biri deb ta'rif beradi" [Neru J., 1990: 147].

Xalqimiz uzoq asrlardan buyon buyuk shoh Boburni emas, shoir va olim Boburni qadrlab, e'zozlab kelmoqda. Uning ijodi ayni zamonda O'rta Osiyo xalqlari bilan Hindiston xalqlari o'rtasidagi uzoq tarixga ega bo'lgan do'stlik zanjirining bir xalqasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Ajoyib mehnatsevar va iste'dodli afg'on va hind xalqi Bobur maqbarasini bir necha asrlardan buyon e'zozlab, saqlab kelayotganligi shoir Boburga bo'lgan yuksak hurmatning, o'zbek xalqiga bo'lgan qardoshlik tuyg'usining yorqin namunasidir. Uning ijodiy merosini bugungi kunda afg'on va hind olimlari ham qunt bilan o'rganmoqdalar. Bularning hammasi Bobur ijodi ma'lum ma'noda baynalminal do'stlik ramzi bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Bobur ijodini har tomonlama o'rganish, undagi eng yaxshi narsalarni o'zlashtirish, ommalashtirish adabiyotshunosligimiz oldida turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Salomov G., Otajanov N. Jahongashta "Boburnoma". -Toshkent, 1996. 112-bet
2. Xorijda boburshunoslik (Tadqiqot, talqin va maqolalar) -Toshkent: "Mo'mtoz so'z", 2008. 3-bet.
2. Boltaboyev H. Ingliz tilidagi manbalarda Bobur siymosi.// "Bobur va Dunyo jurnali", 2017, № 2, 22-bet.
3. Muni Lal. Baber. Dehli, India. Vikas Publishing House, 1977, p. 7.
4. Beverij A.S. "Boburnoma" – ingliz tilida. Turkiy asl ruschadan inglizchaga tarjima. - London, 1921, 38- bet.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: "Sharq", 2017. 150-bet.
6. Otajanov N. "Boburnoma" jahon kezadi. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1984. 23-bet.
7. Xolbekov M. Ulug' adibimiz fransuz sharqshunosligi saxifalarida. Bobur abadiyati. – Toshkent: "Bayoz", 2018. 109-bet.
8. Otajanov N. "Boburnoma" jahon kezadi. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1984. 23-bet.
9. Otajanov N. "Boburnoma" G'arb olimlari tadqiqotlarida. "Bobur va dunyo" jurnali, 2017-yil avgust, 1-son, 40-bet.
10. Babur-nama(vaqayi) concordance and classified indexes by Eiji Mano, Fouword, Kyoto, 1996, p.XIX.
11. Abdullayeva R. G'arb olimlari Navoiy va Bobur ijodi haqida. Bobur abadiyati. – Toshkent: "Bayoz", 2018. 263-bet.
12. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, ("Boburnoma" asarining Rim shaxridagi "Sandro Teti Editore" nashriyoti tomonidan chop etilgan (2023 r.) italyan tilidagi tarjimasi uchun yozilgan so'zboshi) 2023 yil 15 may. Toshkent shahri.
13. Javoharlal Neru. Dunyo tarixiga bir nazar.// Sharq yulduzi, 1990, №10, 147-bet.

BOBURNING “RISOLAYI ARUZ”IDA JANRLAR TADQIQI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotshunos sifatida qoldirgan merosi va ular orasida aruzshunoslik ilmiga oid “Risolayi aruz” asari haqida soʻz boradi. Mazkur asar va uning adabiyotshunoslikda tutgan oʻrni, unda qayd etilgan mumtoz janrlardan tuyuq, ruboiy janriga oid qarashlar tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: ruboiy, “Risolayi aruz”, tuyuq, vazn, dubaytiy, tarona ruboiy.

Annotation: This article talks about the legacy of Zahiriddin Muhammad Babur as a literary critic and among them the work "Risalayi Aruz" on the science of dream science. This work and its place in literary studies, views on the genre of rubai, different from the classical genres mentioned in it, are analyzed.

Key words: rubai, "Risolayi Aruz", tuyuq, weight, dubayti, tarona rubai.

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzining “Risolayi aruz” asarida aruz ilmiga oid bir qator qarashlarini ifoda etar ekan, kichik lirik janrga mansub boʻlgan turlar va ularga misollar keltirib oʻtadi. Eʼtiborlisi shundaki, Bobur aruzdagi har bir bahr haqida alohida toʻxtalganda, avval oʻsha bahrga yetarlicha taʼrif berib, soʻngra unga tegishli janr va xususiyatlariga diqqatni qaratadi. Jumladan, ruboiy janriga quyidagicha taʼrif beradi: “Bilgilkim, ruboiykim du bayti va tarona ham derlar, vazni hazaj bahrining muzohafotidindur. Sheʼrning avzonidin ushbu vazndurkim gʻoyat latofatidin ustozlar anga haddi muayyan muqarrar qilibturlar, bu ajam shuarosining muxtarotindur, yigirma toʻrt nav kelibtur, majmui oʻn vazndin murakkabdur: mafoiylun (solim), mafoilun (maqbus), mafoiylu (makfuf), mafuvlun (axram), mafuvlu (axrab), foilun (ashtar), fauvl (ahtam), faul (majjub), fo (muzoll), fa (axrami majjub)”[“Risolayi aruz”, 55-bet].

Koʻrinadiki, Bobur ruboiy janrining ikki turi mavjud ekanligiga alohida urgʻu berib, bu janr hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida bitilishini oʻz risolasida qayd etib oʻtadi. Shuningdek, bu janrning asosiy xususiyatlarini ochib berishda Bobur Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodidan ruboiyning har ikki turiga qator namunalar keltiradi. Quyidagi ruboiy Navoiy qalamiga mansub boʻlib, axram vazniga oid ruboiylar qatorida beriladi:

Yo rab, ne ofatdur ul husn-u jamol,
Kim yoʻqtur yer ila jahon ichra misol.
Ming qatla shukrin desam oz erur,
Gar boʻlsa bir zamon manga komi visol.

[Zahiriddin Muhammad Bobir, 1971: 58]

Bu ruboiyning afoili quyidagichadir:

Mafuvlun mafuvlun mafuvlu fauvl
Mafuvlun mafuvlun mafuvlu fauvl
Mafuvlun mafuvlun mafuvlu faul

Mafuvlun mafuvlun mafuvlu fauvl.

Bobur Navoiyning axram shajarasiga mansub uch ruboiy yozganligini aytib, bu namunalarning barchasini risolaning ruboiyga oid ma'lumotlar qatorida ilova qilib o'tadi.

Ma'lumki, tuyuq turkiy adabiyotga xos janrdir. Tuyuq janriga oid fikr va mulohazalarni "Risolayi aruz" asaridan avvalroq yaratilgan asarlar, jumladan, Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"ida uchratamiz.

Shayx Ahmad Ibn Xudoybod Taroziyning 1437-yilda maydonga kelgan «Funul ul-balog'a» asarida aruzdagi she'riyatning qator nazariy-poetik jihatlari, janr tarkibi haqida turkiy tildagi ilk, juda muhim sharhlar, talqinlar keltiriladi. Jumladan, muallif asarning birinchi-avvalgi qismida she'r navlari, janrlari xususida to'xtalib uning tur va janrlarini birma-bir sharhlaydi. O'sha davr she'riyatining mo'jaz janrlari sanalmish qit'a, ruboiy, fard kabilar haqida ham ixcham, aniq ta'riflar keltiradi. Muallif ruboiyning hosi (hissiy) va musarraf (taron) navlari haqida so'z yuritish bilan birga «Va ruboiyning bir nav'i taqi bo'lur. Oni mujannas derlar. Aningdek bo'lurkim, ruboiyning qofiyasida tajnis rioya qilurlar. Va bu turk shoirlarining ixtirosidir. Muni turklar tuyuq derlar», deb o'sha davming (ya'ni XV asr I- yarmi) Muhammad Temur Bug'o, Xoji Aqcha Qandiy va boshqa turkiygo'y shoirlarining «Mujannas»laridan namunalar keltiradi.[Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, 1996: 83].

Mazkur asardan so'ng turkiy tildagi adabiyotshunoslikka oid asar bu - Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asaridir. Asarda tuyuqqa oid qarashlar keng bayon etilganbo'lib, uning to'rt misradan iborat bo'lishi, shuningdek, ramal bahrida yozilib tajnisli bo'lib kelishini aytib o'tganlar. Shuningdek, Alisher Navoiy o'zbek she'riyati materiallariga tayangan holda tuyuq janri haqidagi qarashlarini ham ma'lum darajada nazariy jihatdan umumlashtiradi hamda uni "turk shuarosi xossasi" deb ta'kidlaydi: "Birisi «tuyug'»durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundog'kim:

Yo Ra b, ul shah/d-u shakar yo / labmudur?

Yo magar shah/d-u shakar yo/labmudur?

Jonima pay/vasta novak /otqali

G'amza o`qin /qoshig`a yo/labmudur?»

Foilotun, foilotun foilon

- V - - / - V - - / - V ~ [Alisher Navoiy, 1967: 182]

Alisher Navoiyning tuyuq haqidagi fikrlari «Muhokamat ul lug'atayn», "Majolis un-nafois" asarlarida ham ma'lumotlar uchraydi.

Alisher Navoiyning kichik zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur ham adabiyotshunoslikning bu qirrasiga – mumtoz she'riy janrlarga o'zining "Risolayi aruz" asarida alohida to'xtalib o'tgan. U ramal bahri haqida so'z yuritganda turkiy adabiyotga xos bo'lgan tuyuq janriga oid namunalarni tahlil qiladi: "Mavlono Abdurahmon Jomiy "Salamon-u Absol" va Mir Alisher Navoiyning "Lison ut tayr"ini nechukkim ajam shuarosi ruboiy vaznig'a haddi muayyan muqarrar qilibturlar, turk fusahosi ham bu vazng'a haddi muayyan muqarrar qilib qilib ikki bayt aytibdurlar, "tuyuqqa" mavsumdur bu vaznlar mo'g'ul xonlari bila turk

salotining “tuyuq”ning ko‘p ishtihori bor erkandur”. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1971: 163-bet].

Bobur tuyuqning turlariga diqqat qaratib, har uch qofiyada tajnis bilan keladigan turi ko‘p uchrashligini ta’kidlaydi:

La’lidan jonimg‘a o‘tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.
Men vafosi va’dasidin shodmen.
Ul vafo bilmonki, qilmas yo qilur.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, 1971: 163]

Ushbu tuyuqning qofiyasida kelgan tajnisga olingan so‘zlar “yoqilur” 1-misrada “yoqmoq, o‘t olmoq” ma’nosida, 2-misrada “yo qilur” – “yoy qilur”, 4-misrada esa “yoki qilur” ma’nosida qo‘llangan.

Tajnisli tuyuqlarning ushbu xili o‘zbek adabiyotida eng ko‘p tarqalgani va rivoj topgani a,a,b,a tarzida qofiyalanib, 1, 2, 4- misralarida tajnislar ishlatilgan turidir. O‘zbek shoirlari, asosan, tuyuqning shu turida asarlar yaratganlar, tuyuq deganda ko‘proq shunday asarlarni ko‘zda tutganlar. Hatto Alisher Navoiyning o‘zi ham «shoirlar tuyuqda tajnis qo‘llashga harakat qiladilar», desa ham tuyuqnavislikda uning tajnisli saklidan chekingan emas. Navoiyning tajnissiz yozilgan tuyuqlari umuman yo‘q.

“Risolayi aruz”da nafaqat uch misrada, balki tuyuqning har bir misrasida tajnis bo‘lishini ham aytib o‘tadi: “Tuyuqda yana bir necha nav xotirg‘a yetibdurkim hech yerda ko‘rulmaydur. Biri ulkim har to‘rt qofiyada tajnis qilinubtur nechukkim:

Vasldin so‘z derga yo‘q, yoro manga,
Hajr aro rahm ayla kel, yoro menga.
O‘qung etti ko‘b yomon, yoro manga
Marhami lutfung bila yoro manga”

[Zahiriddin Muhammad Bobur, 1971: 164]

Shuningdek, risolada Bobur tuyuqning uch misrasidagi radif tajnis sifatida qo‘llangan turiga ham murojaat qiladi.

Mehrkim ko‘kka qilur ohang tong,
Ollida bo‘lsa emas berang tong.
Holiyu ikki labidek bo‘lmag‘ay,
Hindu ar keltursa shakar tang tong.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, 1971: 164]

Ma’lumki, she’riyatda hojib o‘ziga xos ritmni hosil qiladi. Hojib (ar. “darvozabon; pardali”) – bu she’rda qofiyadosh so‘zlar orasida aynan takrorlanib keladigan so‘zlar birikmasi [S.Matjon, Sh.Sariyev. O‘zbek adabiyoti, 12-b]. Bobur o‘zining “Risolayi aruz”ida tuyuq janrida tajnisdan oldin hojib kelgan o‘rinlarga ham diqqat qaratadi: “Yana biri ulkim tajnisdan burno uch yerda hojib rioyat qilinibtur” deya quyidagi tuyuqni misol sifatida keltiradi:

Ne balo biyik turur davlat bog‘i,
Ko‘hi g‘amni ne bilur davlat bog‘i,
Himmate tut dag‘i davlat istagil,
Himmating bo‘lsa bo‘lur davlat bog‘i.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, 1971: 164]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolayi aruz” asari aruz ilmi va u bilan bog‘liq mumtoz lirik janrlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик, 14-том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.
2. Ҳасанов С. Бобирнинг “Аруз рисоласи” асари. –Тошкент, 1981. –96 бет.
3. Matjon S, Sariyev Sh. O‘zbek adabiyoti. –Toshkent, 2005. –200 bet.
4. Валихўжаев Б. Алишер Навоий ва унинг издошлари талқинида туюқ.// Адабий мерос, 3-том. 1973. 148-151-бетлар
5. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1993. –191 бет.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Мухтасар. – Тошкент: Фан, 1971. –500 бет.
7. Xoliqulova G. O‘zbek mumtoz she‘riyati janrlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. I qism. -Samarqand: SamDU, 2017. – B.98.
8. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хази́на, 1996. – Б.212.

Ziyodaxon Teshaboyeva

Alisher Navoiy nomidagi
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

**“BOBURNOMA”DA ZUHRABEGIM HAQIDAGI TASVIRLARDA
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING INGLIZCHA
TARJIMALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va uning uch turdagi inglizcha John Leyden va Villiam Erskin (1826), Susanna Beverij (1921) va Vilyer Tekston (1996)ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar tarjimasiga bag‘ishlangan. Xususan, tarixiy shaxs Zuhrabegim haqidagi tasvirlarda muallif tomonidan qo‘llangan frazeologik birliklarning tarjimada uzatilish masalasi ko‘riladi. Har bir tarjimonning yondashuvlari va tarjima variantlari qiyosiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Zuhrabegim, frazeologik birlik, tarjima, o‘tar dunyo, besh kunlik dunyo, ekvivalent.

Annotation. This article is dedicated to Zahiriddin Muhammad Bobur's work “Boburnoma” and its different English translations made by John Leyden and William Erskine (1826), Susannah Beveridge (1921) and Wheeler Thackston (1996), and translations of phraseological units. Here, in particular searched the images of historical person Zuhra Begim and the issue of the translations of phraseological units used by the author. In this article analyzed in comparison, and analysis of translators’ approaches and translation options of each translator.

Key words: Zuhra Begim, phraseological unit, translation, transitory world, five-days world, equivalent.

Xalqlar madaniyatini tarjimasiz o‘rganib bo‘lmaydi, u til bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson o‘zi ulg‘ayib, o‘sgan joyning tili va madaniyatini to‘la egallab olsagina, u tilning haqiqiy egasi bo‘ladi. Xalqning milliyligi, urf-odatlari, an‘analari, adabiy yodgorliklari, frazeologik birliklarida aks etadi. Bu nozik qirralar ushbu til egalariga dunyoni o‘ziga xos talqin etish va tasavvurlarida namoyon bo‘ladi. Xalqning o‘ziga xosligi miliy-madaniy belgilarida va hayotning turli jabhalarida ham saqlanib qoladi.

Frazeologik birliklarning milliy va madaniy jihatlari haqida gapirar ekanmiz, “Boburnoma” asarida qo‘llangan frazeologik birliklarning barchasi milliy va madaniydir. Turkiy xalqlar madaniyatini chuqur egallagan, qomusiy bilim sohibi, Zahiriddin Bobur “Boburnoma” asarida ham tasviriy vositalarga boy, o‘ziga xos uslubda bitgan. Ularning orasida shunday frazeologik birliklar ham mavjudki, ular aynan qaysi millatga va qanday din egalariga mansub ekanligini asardan

ajratib olish uncha qiyin bo‘lmaydi. Tarixiy shaxs Zuhrabegim va uning gapini ikki qilmagan Sulton Ali mirzo haqida ko‘rishimiz mumkin:

Бу беш кунлук ўлар жон учун ёмон от била борди. Хотун сўзига кириб, ўзини некномлар чаргасидин чиқарди. Мундоқ кишининг вақойини мундин ортуқ битиб бўлмас. Бу йўсунлук шаниъ ҳаракотни мундин ортуқ эшитиб бўлмас [Boburnoma, 2002: 78]. **Bu besh kunluk o‘lar jon uchun yomon ot bila bordi** gapida muallifning asar qahramoniga nisbatan munosabati, achinish hissi aks etadi, uning inglizcha tarjimalari esa quyidagicha. Shuningdek, ushbu ajratib ko‘rsatilgan gap shaklidagi ibora, y’ani frazeologik birlik deb hisoblaymiz. Chunki uning mazmuni - **besh kunluk**- juda oz umr ko‘rish va **bormoq** esa o‘lmoq ma’nosida keladi, shuning uchun ham gap shaklidagi frazeologik birlik deb aytamiz.

Yuqoridagi asliyat misoli tarjimasida Leyden–Erskinda quyidagicha tarjima qilinadi: *From his over-anxiety to preserve **this transitory and mortal life, he left a name of infamy behind him**; and, from following the suggestions of a woman, struck himself out of the list of those who have earned for themselves a glorious name. It’s impossible to write any more of the transactions of such a personage, and impossible to listen any farther to the recital of such base and dastardly proceedings* [Leyden-Erskin, 1826: 84]. – **Bu o‘tkinchi va foniyl dunyoda** ne mashaqqat bilan yaxshi nom saqlash o‘rniga, ayol taklifiga amal qilib, **ortidan uyatli nom qoldirdi**, dong taratganlar qatoridan chiqib, o‘zini badnom qildi. Ushbu mashhur shaxs haqida bundan ortiq bitib bo‘lmaydi va har qanday bu kabi otaning uyatli qilmish hikoyasiga quloq tutib ham bo‘lmaydi (muallif tarjimasida).

Yuqoridagi asliyat misoli tarjimasida S.Beverijda quyidagicha tarjima qilinadi: *For a matter of **this five-days mortal life, he died with a bad name**; having entered into a woman's affairs, he withdrew himself from the circle of men of good repute. Of such people's doings no more should be written; of acts so shameful, no more should be heard* [S.Beverij, 1921: 128]. – **Bu besh kunlik o‘tar dunyoda, yomon nom bilan ketdi**; ayol gapiga kirib (ishlariga aralashib), o‘zini yaxshi, obro‘li erkaklar safidan chiqardi. Odamlarning bu kabi qilmishlarini bundan ortiq yozib bo‘lmaydi; uyatli amallarini bundan ortiq eshitib bo‘lmaydi.

Yuqoridagi asliyat misoli tarjimasida V.Tekstonda quyidagicha tarjima qilinadi: *For the sake of **this transitory life he departed with a bad name**. By listening to the words of women, he removed himself from the circle of those of good repute. Of such a person no more can be written; of such horrible acts no more need be heard* [V.Tekston, 1996: 95]. – **O‘tkinchi hayot uchun u yomon nom bilan ketdi**. Ayol so‘ziga kirib, obro‘li, yaxshi kishilar doirasidan o‘zini chiqardi. Ushbu shaxs to‘g‘risida bundan ortiq yozib bo‘lmaydi; bu kabi daxshatli qilmishini u haqida bundan ortiq eshitib bo‘lmaydi.

Birinchi inglizcha tarjimada *This transitory and mortal life, he left a name of infamy behind him* – bu o‘tkinchi va foniyl hayotda ortidan uyatli nom qoldirdi, deb berilsa ikkinchi inglizcha tarjimada: *Five-days mortal life, he died with a bad name* – besh kunlik foniyl hayotdan u yomon nom bilan o‘ldi va uchinchi inglizcha tarjimada esa *This transitory life he departed with a bad name*-bu o‘tkinchi hayotdan u yomon nom bilan ketdi, tarzida tarjima qilinganini ko‘ramiz.

Yuqoridagi uch turdagi tarjimalardan Leyden–Erskin, ya’ni birinchi inglizcha deb nomlagan tarjima variantni aslyatga muqobil tarzda berilgan deb aytolamiz. Ularning tarjimasida “Boburnoma”ning aslyat mazmuni va shakliga ham mos tushishini ham guvohi bo’ldik.

“Boburnoma”dagi Samarqand podshohi Zuhrabegim yengilishiga ko’zi yetgan va qiyin vaziyatda qolgan bir paytda noto’g’ri qaror qabul qilishi haqida muallif asarda quyidagicha bayon etgan: *Бу бедават хотун чун ноқиси ақл эди, эрга тегар ҳавоси била ўғлининг хону монин барбод берди. Шайбонийхон бир зарра нарво ҳам қилмади, балки гума-гунчачидек кўзга илмади* [Boburnoma, 2002: 78]. Yana shu mavzuni davom ettirgan holda yuqoridagi keltirilgan parchada *xonu monin barbod berdi* gapi frazeologik birlik hisoblanadi. Ushbu matnni ham inglizcha tarjimalarini o’rganib chiqamiz.

Yuqoridagi parchaning tarjimasida Leyden–Erskinda quyidagicha beriladi: ... *so that the wretched and weak woman, for the sake of getting herself a husband, gave the family and honour of her son to the winds. Nor did Sheibani Khan mind her a bit, or value her even so much as his other handmaids, concubines, or women* [Leyden-Erskin, 1826: 84]. – ... shunday qaysar va irodasiz ayol, o’ziga er tanlamoq uchun, **oilasini va o’g’lining obro’sini havoga sovurdi**. Na Shayboniy Xon unga ozgina e’tibor qildi, va na qo’l ostidagi ayollari yoki jazmanlari, kanizaklari kabi qadrlamadi. Ushbu matndagi *gave the family and honour of her son to the winds*-oilasi va o’g’lining obro’sini havoga sovurdi, gapida aks etadi.

Aslyat matni S.Beverijda quyidagicha tarjima qilinadi: *As for that calamitous woman who, in her folly, gave her son's house and possessions to the winds in order to get herself a husband, ShaibanI Khan cared not one atom for her, indeed did not regard her as the equal of a mistress or a concubine* [S.Beverij, 1921: 128]. – Mushkul holatda qolgan ayol nodonligi va er egasi bo’lmoq uchun **o’g’lining uyini va mol-mulklarini havoga sovurdi**. Shayboniy Xon unga zarracha e’tibor qaratmadi, jazmanlari va kanizaklari qatoridagi ayolchalik uni teng ko’rmadi. S.Beverijning tarjimasida *gave her son's house and possessions to the winds* – o’g’lining uyini va mol-mulklarini havoga sovurdi, tarzida tarjima qilgan.

Aslyat matni V.Tekstonda bunday beriladi: *In her lust to get a husband, that wretched, feeble-minded woman brought destruction on her son. Shaybani Khan paid her not the slightest attention and regarded her as less than a concubine* [V.Tekston, 1996: 95]. – Erga moyillik va erishish istagidagi bu qaysar, esi past xotin **o’g’lini butkul barbod qildi**. Shayboniyxon jazmanlariga qaratgan e’tiborchalik uni ko’zga ilmadi. Tarjimada *brought destruction on her son* ya’ni, *o’g’lini butkul barbod qildi*, tarzida o’g’irgan.

Aslyatdagi *xonu monin barbod berdi*ga Leyden–Erskinlar *gave the family and honour of her son to the winds* – oilasi va o’g’lining obro’sini havoga sovurdi tarzida o’g’irsalar, S.Beverij *gave her son's house and possessions to the winds* – o’g’lining uyini va mol – mulklarini havoga sovurdi, deb ifodalaydi. V.Tekston esa podshoh ayol haqidagi ta’rifni tarjimada ayanchli bir holat, qo’shimcha ifodaga o’rin qoldirmay, *brought destruction on her son* – o’g’lini butkul barbod qildi, deya tarjimani yakunlaydi. Zuhra Begim qarori va Shayboniyxon bilan bo’lgan voqea

xalqni chuqur hayratga solgan hodisa esa unutilmas voqea sifatida tarixiy manzaralarda saqlangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, uch turdagi tarjimalarni ko‘zdan kechirganda, tarjimonlar tarixiy shaxs, y’ani ayol kishiga beriladigan muallif bahosiga va u tomondan qo‘llangan iboralar tarjimasiga befarq emasligi ko‘zga tashlanadi. Asliyat mazmunini tarjimada qayta tiklash jarayonida bu jihatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuning barobarida asliyatdagi bir frazeologik birlikning bir emas bir necha muqobili bilan uzatilishiga guvoh bo‘lamiz. Ular esa ekvivalentlik vazifasini ham bajara oladi. Frazeologik birliklar mazmunini olib o‘tishda uch tarjimon uch turdagi variantlarni taqdim etishgan asliyat mazmunini aks ettira olishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 p.
2. Bo‘tayev Sh., Irisqulov A. English Uzbek-Uzbek English dictionary. –T.: Fan. – 2009. – 848 p.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – 335 б.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.–Т.: Ўқитувчи, 2008. –287 б.
5. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.: Русский язык.–1984. 942 с.
6. Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London, 1826. – 432 p.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Т.: 1992. – 378 б.
8. Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996. – 554 p.

Yusupova Orziboni Sunnatovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

BOBUR G‘AZALLARIDA UNDALMANING LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada undalmaning lingvopoetik vosita sifatida qo‘llanilishi, bu birlikning mazmun mundariyasi, tinglovchiga murojaatdan tashqari, subyektiv munosabat, baho munosabatini hosil qilishi Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallari misolida o‘rganilgan. Bobur g‘azallarida undalma vositasida shakllanadigan “nido” san’ati, “iltifot”, “istifhom” kabi badiiy san’atlarda undalmaning o‘ziga xos o‘rni Bobur mahoratiga bog‘liq holda tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: Bobur gʻazallari, undalma, lingvopoetika, nido, iltifot, istifhom.

Annotation: In this article, on the example of Zakhiriddin Mukhammad Babur's ghazals are studied the use of reference unit as a linguopoetic tool, the content of this unit, and in addition to addressing the listener also researched the formation of subjective and evaluation attitude. In Babur's ghazals, the special role of the impulse in artistic arts such as the art of reference unit, “iltifot”, and “istifhom” which is formed by means of impulse, is analyzed depending on Babur's skills.

Key words: Babur's ghazals, reference unit, linguapoetics, “nido”, “iltifot” “istifhom”.

Zahiriddin Muhammad Bobur gʻazallari XVI asr eski oʻzbek adabiy tili davri namunalaridan boʻlsa-da, ifodaning soddaligi, ravonligi, ixchamligi, oʻzbek tilining soʻz boyligidan samarali foydalanganligi, badiiy tasvir vositalarini mahorat bilan qoʻllaganligi bilan ajralib turadi. Bobur gʻazallarida oʻxshatish, metafora, jonlantirish, mubolagʻa, antiteza, parallelizm kabi tildagi usul va badiiy til vositalarining oʻziga xos koʻrinishlari mavjud. Bu shoirning til birliklariga alohida eʼtibor bilan yondashganligidan, har bir til birligining ifoda imkoniyatlarini juda yaxshi anglaganligidan dalolat beradi. Oʻz fikrimizni shoir gʻazallarida qoʻllanilgan undalmalar va bu undalmalarning lingvopoetik xususiyatlari orqali isbotlashga harakat qilamiz.

Undalma – “soʻzlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxs yoki predmetni ifodalagan soʻz yoki soʻz birikmasi” boʻlib [Oʻzbek tili grammatikasi, 1976: 59], badiiy matnda nafaqat murojaat birligi, balki ijodkorning badiiy niyatini ochib berishga xizmat qiluvchi, oʻzida turlicha maʼnolarni tashiydigan, taʼsirchan vosita sifatida faol ishtirok etadi, oʻz vazifasidan tashqari qoʻshimcha vazifa bajaradi. Masalan, Bobur gʻazallarida undalmalar nafaqat oʻsha davrga xos va janr talabi bilan qoʻllanilgan poetik murojaat birliklari, balki shoir maqsadini, niyatini amalga oshiruvchi vosita hamdir. Maʼlumki, hozirgi oʻzbek adabiy tilida undalmalar qarindosh-urugʻ, doʻst-oʻrtoq, lavozim, ijtimoiy faoliyat, jismoniy belgi, yer va osmon jismlari, hayvon-parrandalar, oziq-ovqat, oʻsimliklar, vaqt maydonlari kabi qator mavzuiy guruhlariga doir soʻzlar bilan ifodalanadi [Akbarova Z., 2006: 74]. Bu mazmuniy ifoda maydoni sheʼriy janrlarda koʻchma maʼno hosil qilishi bilan yanada kengayadi. Mumtoz adabiyotimiz namunalarida oshiqning maʼshuqaga murojaati *jonon, sarvi xiromon, shoʻxi nodon, sulton, parivash, quyosh, pari, gul, yor, dilrabo, vafodor, mahvash, siymbar, lola, bahori husn, nozik nihol, nozukbadan, koʻrkaboy* kabi bir qancha soʻzlar bilan ifodalangan va bu soʻzlarning koʻpchiligi yorga nisbatan qoʻllanilgan boʻlib, oʻz maʼnosida emas, koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan. Bobur gʻazallarida ham *yor, pari, sarvinoz, mohitobon, oy, quyosh, siymin tan, gul, gulandom, sarv, yuzi nasrin* kabi soʻzlar yorga nisbatan oshiqning xitobi, murojaati tarzida undalma vazifasini bajargan va lirik qahramonning yorga munosabatini ifodalashga ham xizmat qilgan:

Eshingga bosh urarmen telbalar yangʻligʻ yurub,

Ey pari, yo‘l ber visolingg‘aki, ketmay bosh urub [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1994: 19; keyingi namunalar ham shu manbadan olingan].

Undalma odatda gap boshida kelganda tinglovchi diqqatini jalb etish, muloqot o‘rnatish vazifalarini bajarsa, gap o‘rtasi va oxirida kelganda hurmat, ehtirom, yaqinlik, erkalash, suyish, g‘azab, alam, achchiqlanish kabi so‘zlovchining subyektiv munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bobur g‘azallarida qo‘llanilgan undalmalarda, ayniqsa, lirik qahramonning yorga murojaatida ana shunday ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalovchi undalmalar faol qo‘llanilgan. Hassos shoir lirik qahramonlarining yorga murojaatida samimiy erkalash, mehribonlik, otashin muhabbatini bildiruvchi olqishlar, xushmuomalalik aks etadi:

Xating bila yuzung-u kokuling sening, ey jon,
Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon (47-bet).

Yuzungdin ayru men xor, ey azizim.

Kishi guldin ayirmas xorlarni(62).

Bobur g‘azallarida lirik qahramon yorga murojaat qilganda yorni ko‘p ayblamaydi yoki yor zulmi, hijron azobidan falakka shikoyat qilmaydi, raqibga nisbatan salbiy munosabat ham ko‘zga tashlanmaydi. Ayrim hollarda yorni bemehr, bedard, nomehribon kabi yengil koyish bilan kifoyalanadi:

Mening ko‘nglumni hardam og‘ritib parvo qilmaysen,
Sen, ey bedard, naylaykim, ko‘ngil dardini bilmaysen (45-bet).

Shu o‘rinda aytish zarurki, shoir g‘azallarida yorga murojaatni ifodalovchi undalmalardan tashqari *soqiy, tabib, bog‘bon, zohid, rafiq, do‘st* so‘zlari ham undalma vazifasida kelganligini ko‘ramiz. Bu so‘zlar ma‘lum nutqiy maqsad bilan qo‘llanilib, shoir g‘azallari mavzu ko‘lami bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, ijtimoiy-falsafiy xarakterdagi “O‘lum uyqusiga borib, jahondin bo‘ldum osuda” deb boshlanuvchi g‘azalida lirik qahramonning do‘stga murojaati juda o‘rinli qo‘llanilgan:

O‘lum uyqusiga borib, jahondin bo‘ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do‘stlar, ko‘rgaysiz uyquda.
Nekim taqdir bo‘lsa ul bo‘lur, tahqiq bilgaysiz,
Erur jang-u jadal, ranj-u riyoza barcha behuda (54-bet).

Biz foydalangan “Devon” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1994: 17-68]dan Boburning yuzdan ortiq (117 ta) g‘azallari o‘rin olgan bo‘lib, ularning aksariyatida undalma mavjud. Shoir bu undalmalarni qo‘llashda o‘ziga xos yo‘l tutgan, ya‘ni ko‘p o‘rinda undalma misra o‘rtasi va oxirida qo‘llanilgan. Bu esa, shoir tomonidan g‘azalda qo‘llanilgan har bir so‘zga katta “yuk” tashlanganidan dalolat beradi. Chunki Bobur g‘azallarida qo‘llanilgan har bir undalma shunchaki murojaat ma‘nosida emas, balki shoir maqsadini to‘laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi vositadir. Bilamizki, undalma mumtoz adabiyotimizda alohida badiiy san‘at – nido san‘atini hosil qiladi: “She‘riyatimizda juda keng qo‘llangan nido usuli lirik qahramonning boshqa shaxslarga, narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan holda o‘zining ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, tilaklari, mulohazalarini bayon qilishini nazarda tutadi. Bu xil tasvir asardagi timsollarning ma‘naviy qiyofalarini jonliroq, ta‘sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi”

[Hojiahmedov A., 1999: 110]. Bu usul Bobur gʻazallarida ham ayni maqsadlarda qoʻllanilgan.

Bundan tashqari, undalma orqali shoir bir vaqtning oʻzida bir necha shaxsga murojaat qilganligini koʻramiz. Masalan, “Ul parining tigʻidin qoʻrqutma meni, ey raqib” gʻazalida oshiq raqibga, yorga, tabibga hamda Boburga murojaat etadi:

Ul parining tigʻidin qoʻrqutma meni, ey raqib,
Ishqida boshingʻa mening har ne kelsa, yo nasib.
Evrulib boshingʻa, ey oy, qilmisham tarki vatan,
Rahm qilgʻil mangakim, sargashtadurmen, ham gʻarib.

misralarida lirik qahramon raqibga murojaat bilan ishqning ogʻir sinovlaridan qoʻrqmasligini aytsa, 2-baytda yorga murojaat qilish orqali undan mehr-oqibat kutadi. 3-baytda oʻz holatini, telba boʻlish sababini tushuntirgan oshiq keyingi baytda oʻz dardiga davo yoʻqligini tabibga murojaat bilan ifodalaydi:

Telba boʻlmoqligʻdin oʻzga choraye yoʻqtur mangʻa,
Ul parirol nogahon ar chiqsa uydin yosanib.
Jonga berkitgan oʻqin chekmak manga ranje durur,
Qoʻygʻil ul oʻqni, chekay deb ranj chekma, ey tabib.

Maqtaʻda esa murojaat orqali nega oʻz dardiga davo yoʻqligi sababini tushuntiradi:

Boburo, hargiz quloq sheʻringga ul gul solmadi,
Gulga ne parvoki yuz faryod qilsa andalib.

Eʻtibor bersak, 5 baytli ushbu gʻazalda har baytda maʻlum shaxsga murojaat qilish orqali lirik qahramon ichki kechinmalari, oshiqlik ahvoli, yorga umidi original tarzda tasvirlangan.

Bobur oʻz ijodida undalmaning lingvopoetik xususiyatlaridan nihoyatda oʻrinli foydalangan mohir qalam ustalaridandir. Uning asarlarida undalma nafaqat murojaat birligi, subyektiv munosabatni ifodalovchi, gapni mazmunan murakkablashtiradigan vosita, balki boshqa imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda ishtirok etuvchi hamdir. Masalan, Bobur gʻazallarida undalma zulqofiyatayn (qoʻsh qofiya keltirish) sanʻatini vujudga keltirganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, “Xating aro uzoring sabza ichinda lola” deb boshlanuvchi gʻazalida gʻazalning 2-baytidan maqtaʻga qadar undalma ichki qofiyani shakllantirishga xizmat qilgan:

Barcha parilar, ey jon, girdingda zor-u hayron,
Goʻyo erur namoyon oy tegrasida hola.
Mehru vafoni, ey yor, koʻp koʻrdi sendin agʻyor,
Jabr-u jafoni bisyor qilding manga havola.
Hajringda, ey parirol, koʻzumdin uchti uyqu,
Har kecha tonggʻa degru ishimdur oh-u nola
Yuz safhasinda xatlar yoshdinki, har taraf bor
Ishqingda Bobur aylar bu navʻ yuz risola (54-bet).

Bundan tashqari, Bobur gʻazallarida undalma orqali iltifot imkoniyati yuzaga chiqadi. Iltifot “alanglamoq” maʻnosida boʻlib, lirik va liro-epik sheʻriyatda soʻzlovchi shaxsning koʻchishi (birinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga, ikkinchidan birinchi yo uchinchiga, uchinchidan birinchi yo ikkinchiga koʻchishi)ni ifodalaydi. [Hojiahmedov A., 1999: 63] Boburning “Yordin ozor koʻnglim ichra behad

bordur” deb boshlanuvchi g‘azalida lirik qahramon holati birinchi shaxs tilidan berilib, maqta’da Boburga murojaat tariqasida ikkinchi shaxsga ko‘chadi:

Yordin ozor ko‘nglim ichra behad bordur,
Ey xush ul ko‘ngil –anga ne yor-u ne ozordur.
Necha ko‘rsatsamvafo-yu mehr etarjabr-u jafu,
Nechakim men zormen, mendin ul oy bezordur.
Ko‘zi hajrida, yuzi yodida, so‘zi shavqid,
Xotirim afgor-u jismim zor-u ko‘z xunbordur.
Senda, Bobur yo‘q gunah, yorning itobi kam emas,
Jurmsiz doim itob aylar – ajab dildordur. (27-bet)

Quyidagi g‘azalda esa lirik qahramon yorga murojaat etib, so‘rash orqali o‘zining dil izhori, yordan o‘pka-ginalarini bayon etmoqda. Bu usul mumtoz adabiyotda istifhom deb ataladi. “So‘ramoq” ma’nosini ifodalovchi bu usul she’riy asarlarda lirik qahramoning ichki olami, qalbida mavjlanayotgan tuyg‘ulari, pokiza orzularini kimgadir yoki nimagadir murojaat etib so‘rash orqali, savollar vositasida aks ettirishni nazarda tutadi. Yetuk ijodkorlar ushbu usudan foydalanib g‘oyat ta’sirchan asarlar yaratganlar. Ularning she’rlarida savollar har qaysi baytda takrorlanib, asar g‘oyasini qayta-qayta ta’kidlashga xizmat qiladi” [Hojiahmedov A., 1999: 112].

Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo‘ldi?
Ul lutf ila ehson qani, ey yor, ne bo‘ldi?
Kettim meni hayron eshigingdin, demading hech:
“Ul telbai hayron qani, ey yor, ne bo‘ldi? (66-bet)

Olti baytli ushbu g‘azalda undalmaning takror qo‘llanishi qahramon so‘rog‘i kimga qaratilgani ta’kidi bo‘lib, ham so‘roq mazmunini kuchaytirgan, ham murojaat birligining baytning muhim tarkibiy qismiga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Xullas, Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarida undalma nafaqat murojaat birligi sifatida qo‘llanilgan, balki lirik qahramonning subyektiv munosabatlarini ifodalash, ta’kidni kuchaytirish, ma’lum poetik usullarni hosil qilishda ishtirok etish kabi lingvopoetik vazifalar bajargan.

Adabiyotlar:

1. Акбарова З. Тил ва мурожаат // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. - №3. – Б.92-95.
2. Акбарова З. Мурожаат шаклининг тасниф асослари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. - №3. –Б.74-76.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Тошкент: Фан, 1994.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. –140 б.
5. Умарова Н. Таҳаллуснинг ундалма сифатида берилиши// Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. - №4. –Б.81-83.
6. Ўзбек тили грамматикаси. II том.–Тошкент: Фан, 1976. –560 б.
7. Ножиаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.

Ishanjanova Munosibxon Saidahmadovna,
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

“BOBURNOMA” ASARI FRANSUZCHA TARJIMASIDA ETNOGRAFIK BIRLIKLARNING LEKSIK-GRAMMATIK NOMUTANOSIBLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimada etnografik birliklarning turli usullarda berilishi, shuningdek, ularning leksik-grammatik nomutanosibligi “Boburnoma” asarining fransuz tilidagi tarjimasi misolida yoritiladi.

Kalit soʻzlar: tarjimashunoslik, etnografik birliklar, xususiy fenomenlar, madaniy tafovutlar, maʼno va mazmun, semantik xususiyat.

Annotation: This article deals the assignment of ethnographic units in translation in different ways, as well as their lexical-grammatical disparity by the example of the French translation of the work “Boburnoma”.

Keywords: translation, ethnographic units, private phenomena, cultural differences, meaning and content, semantic feature.

Tarjimashunoslik haqida ilmiy bilimlar Rimda paydo boʻlgan boʻlib, uning tarixiy bosqichi Aristotel, Sitseron va Goratsiyalarga borib taqaladi. Yunon va lotin tillarini mukammal oʻzlashtirgan ushbu olimlar tarjimada soʻzlarni, avvalo, maʼno tarozisida oʻlchash lozimligi va soʻng uni tarjimada qoʻllash ahamiyatli ekanligi haqidagi fikrlari hozirgacha oʻz qimmatini yoʻqotmaganligi seziladi.

Fransiyada ilk tarjimalar N.Belle va Malerb tomonidan amalga oshirilgan. Tarjima nazariyasi esa oʻtgan asrning 20-30-yillariga kelib chuqur tadqiq etila boshlandi. Yevropa va rus olimlari Amos, Postget, Finkel, Alekseev [Roger Bell, 2001] va oʻzbek olimi S.Siddiq, Gʻ.Salomov izlanishlarida tarjima nazariyasi fan sifatida talqin qilingan, lekin, A.Reformatskiyning fikricha, tarjima amaliy jihatdan ahamiyat kasb etsa-da, nazariy jihatdan tilshunoslikning bir boʻlimi ekanligi taʼkidlanadi. [Холбеков М., 2014]

Oʻzbek tarjimashunosligida dastlabki izlanishlar J.Jumaniyozov, J.Sharipov, Gʻ.Salomov, Q.Musayev va M.Xolbekovlar tomonidan olib borilgan. Tarjima orqali tillarning oʻzaro farqlari va umumiy xususiyatlari talqin etilar ekan, uning tillararo grammatik, leksik, semantik kabi jihatlari oʻrganilmay turib, lingvokultrologik, kognitiv xususiyatlarini ochib berish qiyin kechadi [Абдуазизов А, 2014]. Masalan, “oʻlmoq”, “yashamoq”, “yulduz”, “stol”, “oyna” kabi tushunchalar semantik jihatdan umumiy sanalib, ular tarjimada muammo keltirib chiqarmaydi, lekin “Boburnoma” asarida uchraydigan “shunqor boʻlmoq”, “dunyo yuzini koʻrmoq”, “xatna toʻy”, “sochqi”, “suyunchi” kabilar oʻzbek xalqi madaniyatiga oid boʻlib, tarjimada sharq madaniyatidan xabardor boʻlish talablarini keltirib chiqaradi. Tillar grammatikasi ham turlicha ekanligi, jumladan, fransuz tilida rod mavjudligi yoki murojaat shakllarining jinslararo oʻziga xos ifodalanishi madaniyatlar tafovutini keltirib chiqaradi. Tilda qanchalik xususiy fenomenlar koʻp boʻlsa, tarjima shunchalik qiyinlashib boradi. Tillarda madaniy belgilar tizimlashtirib oʻrganishni taqozo etadi. E.Sepir tilni madaniy jihatlarni aks

ettirishiga ko‘ra, uni madaniyat yuragi deya, ataydi. Madaniyatni aks ettiruvchi so‘zlar etnografik birliklarni tashkil etishi bilan ham tillararo tarjimada aksini tadqiq etish ahamiyatli sanaladi.

“Boburnoma” avtobiografik memuar asar hisoblanib, unda Bobur hayoti, istilolari va uning hukmronligi davrida duch kelgan turli xalqlarning yorqin tasviri keltirilgan. Ushbu asar matni turli tillarga tarjima qilinarkan, etnogeografik birliklarning aniq ko‘rsatilishi voqealarning haqiqiyli va boyligini saqlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, “Boburnoma”dagi etnografik birliklarni tarjima qilish tarjimondan yuqori mahorat va bilim talab etadi.

Milliy urf-odatlar, hodisalar millatning o‘zigagina xos bo‘lsa, tarjima qilinmaydi: sari, chopon, mahsi, qibla, madrasa kabilar. Lekin ayrim birliklar mazmunan mos so‘zlar bilan talqin etiladi. Masalan: “Boburnoma”da Umarshayx Mirzoni tasvirlashda quyidagi satrlar keltiriladi.

Shakl-shamoili: past bo‘yli, yumaloq soqolli, sarg‘ish yuzli norg‘ul kishi edi. To‘nni rosa tor kiyar edi. Shunchalikki, belbog‘ bog‘laganda qornini ichiga tortib bog‘lalar, bog‘lagandan so‘ng o‘zini qo‘yib yuborsa, ko‘pincha bog‘lari uzilib ketardi. Kiyimoq va yemoqda betakalluf edi. Sallani dastorpech (maxsus salla o‘raydigan kishi) o‘rab qo‘yardi. U zamonda sallalar butun to‘rto‘rama bo‘lardi. Tekis chirmab, uchini osiltirib qo‘yardilar. Yoz paytlari mahkamadan boshqa yerlarda aksar mo‘g‘ulcha bo‘rk kiyardi. [Boburnoma, 2008: 32]

Tarjimada: Aspect physique et habitudes. Umar Chaykh Mirza etait un personnage corpulent et de petite taille, avec une barbe ronde et un visage charnu. Il portait sa tunique si serree que, pour en nouer les cordons, il contractait son ventre et, quand il lui rendait sa liberte apres avoir noue les cordons, il arrivait tres souvent que ces derniers se rompissent. Il etait sans recherche dans sa mise et dans sa nourriture. Sur son **turban**, il enroulait **1’echarpe** une seule fois alors qu’en ce temps-la, on l’enroulait quatre fois et **sans pli**. En ete, il portait la plupart du temps le bonnet mongol, sauf au Conseil toutefois [Jean-Louis BACQUE-GRAMMONT, 1985: 30].

Bakegramon ushbu satrlar tarjimasida *salla*, *bo‘rk* etnografik birliklarni, umumleksikaga daxldor so‘zlarni qo‘llaydi. Sallani *turban* kabi o‘g‘irinishi va uni sharf bilan bir marotaba o‘raladi, deyiladi, lekin asliyatdagi *dastorpech* so‘zi tushib qoladi. Mo‘g‘ulcha *bo‘rk* bosh kiyimi esa *bonnet* so‘zi bilan keltiriladi, lekin bu bosh kiyimi etnik jihatdan ham farq qiladi. Lekin tarjimom asarni tavsiflash usuli orqali tarjima qilgan bu so‘zlarni izohi berilmasa-da, tavsiflari orqali matn tarkibida mazmun kasb etishiga erishgan.

Yana bir misol: Oxiri Alisherbek ham elchilikka keldi. Harchand harakat qilsalar ham, Badiuzzamon mirzo Astrobodni inisiga bermoqqa rozi bo‘lmadi: „Mening o‘glim Muhammad Mo‘min mirzoni xatna qilganda, mirzo unga bag‘ishlagan”, dedi. [Boburnoma, 2008: 53]

Bu misolda xatna qilmoq fe‘li etnografik xususiyat kasb etadi.

Fransuz tilidagi tarjimasida quyidagicha aks etadi: Depuis lors et jusque’a cette annee, il y eut entre eux un grand va-et-vient d’ambassadeurs. Finalement, Ali Chir Beg vint lui aussi en ambassade mais, quelque effort qu’il fit, Badiuzzaman Mirza ne consentit point a donner Astarabad a son frere cadet. Il *pretendait* : « *Le*

mirza a accorde ce gouvernement a mon fils Muhammad Mumin a **l'occasion de sa circoncision**.» [Jean-Louis BACQUE-GRAMMONT, 1985: 66].

Tarjimada xatna qilmoq fe'li ot bilan ifodalanib berilgan bo'lsa-da, mazmun aynan sunnat ma'nosini aks ettiradi. Lug'atlarda **l'occasion de la circoncision-sunnat qilish marosimi** deb beriladi. Bu tarjimada grammatik nomutanosiblik kuzatiladi.

Urf-odatni aks ettiruvchi *sochqi* etnografik birligi "Boburnoma"da uchraydi.

Humoyun tug'ilganidan besh-olti kun o'tgach, Chorbog'ga chiqib, Humoyun tavalludining to'yi bo'ldi. Katta-kichik beklar, katta-kichik sochqi biror yerda ko'rilmagan edi. Juda yaxshi keltirdilar. Ko'p oq tanga to'kildi [Boburnoma:164].

Tarjima: Lorsque Humayun fut age de cinq ou six jours, je me rendis au parc ou une fete fut donnee en l'honneur de sa naissance. Tous les begs, petits et grands, apporterent **des pieces d'argent**. Je n'ai jamais vu un tel amoncellement de pieces d'argent [Jean-Louis BACQUE-GRAMMONT, 1985:253].

Bakegramon sochqi tarjimasini **des pieces d'argent - tanga pullar** deb keltiradi. Bu yerda tarjimon sochqini o'rganib uni tanga pullarni sochilgani tasavvuri bo'yicha leksik izohlash usulida o'giradi. Tarjimaga bunday mazmunan yondashuv ham asliyati o'zga tilda berishda muvaffaqiyat olib kelishi kuzatiladi.

Leksik o'zgarish quyidagi misolda ham kuzatildi: Menga umidvorlik bilan ergashib yurgan ulug'-kichik ikki yuzdan ko'proq, uch yuzdan ozroq edi. Ko'pchiligi piyoda, qo'llarida tayoq, oyoqlarida choriq va egnilarida chopon edi. Qashshoqlik shu darajada ediki, ixtiyorimizda ikkitagina chodir bor edi. Mening chodirim validamga tiklanardi. Menga har yurtda olachuq (kapa) yasardilar. [Boburnoma, 2008: 100]

Tarjimada: Ils etaient presque tous a pied, s'aidant d'un baton pour marcher, et portaient des brogues aux pieds et de **longs manteaux** sur les epaules. Nous etions si pauvres que nous ne possedions que deux tentes pour nous tous. La mienne etait dressee pour ma mere et, a chaque etape, mes compagnons dressaient un **alachuq** pour mon propre usage. [Jean-Louis BACQUE-GRAMMONT, 1985: 125]

Bunda *chopon* milliy libosi fransuz tiliga o'girilganda *uzun palto* tarzida berilgan bo'lib, choponning milliy rangi ko'rinmagan. Lekin *olachuq* etnografizmi ekvivalentlarga mos emasligi uchun o'z holda berilgani kuzatiladi. Tarjimon bu holda *alachuq* tarzida berib, satr ostida uning izohini keltiradi.

Xulosa qilsak, etnografik birliklar milliylik xususiyat aks ettirishiga ko'ra murakkab lisoniy hodisa bo'lganligi sababli ularni tarjimada ifodalash ham tarjimondan alohida mas'uliyat talab qiladi. Chunki etnografik birliklar asardagi milliylikni tasvirlovchi vositalar sifatida umumleksikadan ko'ra ko'proq asarning milliy hamda etnik qiymatini oshirish kabi uslubiy o'ziga xosliklarni ifoda etishda ishtirok etadi. Shuning uchun etnografik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni maqsadga muvofiq tarjima qilishga intilish badiiy asarni qayta yaratishga tengdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Roger. N. Bell. Translation and translating, (theory and practice). London, New York. 2001.

2. Холбеков М. Таржима назарияси ва танқиди муаммолари мавзусига бағ‘ишланган давра суҳбати / «Ўзбекистон адабиёти ва санъати». – Тошкент, 2014. №10.

3. Абдуазизов А. Таржима назарияси ва танқиди муаммолари мавзусига бағ‘ишланган давра суҳбати «Ўзбекистон адабиёти ва санъати». – Тошкент, 2014. №10.

4. Z.M. Bobur. Boburnoma. – Toshkent: „O‘qituvchi“, 2008. – 288 b.

5. Jean-Louis BACQUE-GRAMMONT. Livre de Babour. – Paris: 1985. – 338 b.

Алтмишева Ё.М.

д.ф.ф.н. (PhD), г.Андижан
Андижанский государственный
институт иностранных языков

АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ «БАБУРНАМЕ» НА РУССКИЙ ЯЗЫК

Аннотация: мақолада “Бобурнома”нинг асли ва русча таржима матнини қиёслаш натижасида тиббиёт терминларининг ўгирилиши таҳлил қилинади. Муаллиф терминларнинг нотўғри таржимасини ўқувчига таъсири нуқтаи назаридан кўриб чиққан.

Калит сўзлар: терминлар, махсус лексика, таржима усуллари, рус тили, таржима мувофиқлиги.

Аннотация: в статье анализируется передачи медицинских терминов на материале сопоставления оригинала и перевода «Бабурнаме» на русский язык. Автор рассматривает результат неправильного перевода терминов с точки зрения воздействия на читателя.

Ключевые слова: термины, специальная лексика, приемы перевода, русский язык, переводческое соответствие.

Abstract: the article analyzes the transfer of terms based on the comparison of the original text and the translation of "Baburnama" into Russian. The author considers the result of incorrect translation of terms from the point of view of the impact on the reader.

Keywords: terms, special vocabulary, translation techniques, Russian language, translation correspondence

Перевод является тождественным или эквивалентным в том случае, если реакция иноязычного читателя во всех существенных чертах соответствует реакции читателя сочинения на исходном языке. В тексте «Бабурнаме» значительна роль медицинской терминологии как неповторимых средств воссоздания национальной и языковой картины мира отдельного народа. Использование лексики, относящейся к сфере медицины, на языке оригинала в тексте усиливает уникальность известного сочинения. Поясним сказанное на конкретных примерах.

«Навоси бисёр мутааффиндур, кузлар безгак кўп бўлур» [5, 36]/ «В воздухе Андиджана ест гнилость, осенью многие болеют лихорадкой» [4, 20]; «Баъзи жарохатқа марҳамдек дору қўяр эди». [5, 94] «К некоторым ранам он прикладывал лекарство вроде мази». [4, 92]

Трансляция текста осуществляется в два этапа, которая состоит из анализа оригинала с глубоким пониманием языковой картины писателя и синтеза, т.е. в передаче содержания на другой язык. В процессе перевода оба указанных этапа тесно связаны между собой. Понимание текста с позиции транслатолога составляет обязательность окончательного вывода о содержании переводимого текста и максимално полное понимание исходного текста и понимание иноязычного текста через призму специфики русского языка.

В настоящее время ведутся исследования по изучению узкоспециальной лексики переводов, по способам передачи на другой язык реалий и терминов медицины в переведенных произведениях и толкования трудных для перевода терминов через пояснение их семантики, а также путем выявления преимуществ и трудных сторон непосредственного и опосредованного перевода оригинала произведений и др.

Целью нашей статьи является выявление медицинских терминов в сочинении «Бабурнаме» Захириддина Мухаммада Бабура и составит классификацию тематических ресурсов.

В масштабах узбекской и зарубежной терминологии в историко-литературном направлении на материале трудов Лейчика В.М., Гринева С.В.; Мелникова Г.П.; Суперанской А.В., Подолской Н.В., Василевой Н.В.; Татарина В.А.; А.Мадвалиева, М.Умарходжаева, Дадабаева Х., Абдушукурова Б., Бектемирова Х., Даниленко В.П., Исмоилова М., Шарипова А., Холмановой З., Хожиевой А., Бегматовой Э. и др. А ученые Усманхаджаев А., Абилов У., Тураханова М., Касимов А. осуществили исследования, основанные на изучении медицинской терминологии. Они рассматривали медицинскую терминологию в грамматическом и лексико-семантическом планах. Исследователь Наврузова М. посвятила свою работу происхождению и образованию медицинских терминов.

Несмотря на труды отечественных и зарубежных ученых о медицинской терминологии, в частности использование их в литературе, изучение терминологической лексики произведения всё еще нуждается в широком исследовании.

Энциклопедические познания Бабура проявляются в «Бабурнаме» в использовании и описании научной и специальной лексики, в частности, объяснении медицинских понятий. В «Бабурнаме» термины, обозначающие понятия, связанные с медициной, были сгруппированы в тематические группы следующим образом: медицинских профессий, заболеваний, лекарственных средств и медицинских инструментов.

Использование медицинских терминов способствует обогащению языка художественных произведений профессиональными словами, которые создают художественную картину мира автора произведения. Медицинская лексика анализируемого сочинения объединяет специальные и неспециальные

медицинские названия, функционирующие в научной и других подсистемах языка. Основную часть медицинской лексики составляет медицинская терминология.

Медицинские термины входят в вербально-семантический уровень языковой личности писателя, который заключается в отборе терминов, в лексическом наполнении тематических групп и в способах семантического преобразования терминов. На лингво-когнитивном уровне термины являются средством раскрытия идейного замысла писателя. Все это обуславливает особое место термина в создании художественной картины мира писателя.

В рамках данного исследования термин адекватность перевода трактуется в соответствии с относительным равенством реконструкции смысловой модальности исходного текста, исходя из уникальности любого текста и, следовательно, принципиальной невозможности подбора точного соответствия исходного и переводного текстов, как относительная равнозначная реконструкция семантической модальности оригинала.

Далеко не все термины соответствуют этому требованию даже в пределах одной категории терминов, в нашем случае в переводе медицинского термина, например: «Мафосил захмати жиҳатидин намоз қила олмас эди, рўза ҳам тутмас эди». [5, 128] «Вследствие болезни суставов [Султан Хусейн] не мог совершат молитвы, поста он также не держал» [4, 99]; «Яна бир бу ким, ул фурсатта андоқ от ўлати бўлдуким, тавила-тавила отлар йикилиб ўла киришти». [5, 43] «Еще: в это время на коней напал такой мор, что они валилис и издыхали целыми косяками». [4, 30] Данное обстоятельство представляет определенное затруднение для точного понимания текста и осложняет работу переводчика.

Для передачи названия профессий в медицине отраженной в сочинении эпохи транслатолог удачно использовал синонимы слова. Например, *бахши* означает «врач, целитель»: «мусоҳиб йўсунлуқ табиби» [5, 258] «в качества врача». [4, 215] Деятельность *лекаря*, *бахши* основана на лечении пациента лекарственными травами, растениями, их корнями, настоем цветов, плодов и т.д. В сочинении термин «целитель» используется и для врачей. *Лекар*, *бахши* признаны целителями всех болезней и психических недугов. Для обозначения «врач, лечащий человек» также наблюдается двойное употребление обоих терминов: *бахши*, *лекар* (врач).

Сравним: «Табиблар бу балога не чора қилғойлар» [5, 133] / «Чем могут помоч лекари в этой беде?» [4, 103]. Параллельное использование слов *табиб*, *бахши* / *лекар*, *врач* и *бахши*; *ориза*, *мараз*, *захмат* / *болезн*, *недуг* также подтверждает, что данные слова являются абсолютными синонимами. Если в основе термина *лекар* лежит объект лечения, то в основе лексемы *бахши* лежит деятельность человека, направленная на лечение. *Бахши* также используется в современном узбекском языке. В толковом словаре отмечены два значения этого слова. *Бахши* сегодня употребляется в диалектах преимущественно во втором значении, которое зафиксировано в толковом словаре. Он выражает «лекаря, который лечит универсальными методами и

практиками». Слово также используется в разговорной речи и означает «лечение, исцеление».

Помимо того, что слово *табиб/ лекар, врач*, занявшее место в лексиконе сочинения употребляется в значении «врач», следует также отметить, что арабское заимствование вступило в синтагматическую связь с чисто тюркской лексемой и участвовало в развитии системы медицинских терминов того времени: «...менинг онам Кутлуқ Нигорхонимга хасба марази ориз бўлди, фасод қилдилар, ноқис воқий бўлди» [5,с.124] / с моей матерью Кутлук Нигар ханум приключилас болезн хасбе¹ [4,с.126]; «Гандамакка тушганда, манга тунд резандалиқ бўлди» [5,с.185] / «...когда мы стали лагерем в Гандамаке, у меня сделался сильный насморк» [4,с.150].

Бабур использует в сочинении термины, обозначающие медицинские профессии, наименования различных видов заболеваний, названия лекарственных средств и медицинских инструментов: «Шанба куни бир аёқ сут ичтим. Якшанба куни ҳам бир аёқ сут ичтим, «гили махтум»ни ҳам араққа ҳал қилиб ичдим» [5, 218] / «В субботу я выпил чашку молока, в понедельник тоже выпил чашку молока и выпил еще разведенной печатной глины» [4, 251]; Менинг бутумнинг ярасига бучқоқ ёкмокни буюрди, фатила қўймади. Илдиздек нимани ҳам бир қатла едурди [5, 94] / К ране на моем бедре он велел прикладывает жженую шерст, а фитиля не вкладывал. Кроме того, он один раз дал мне съест какой-то корешок [5, 128].

Можно сказать, что наличие медицинских терминов, использованных в «Бабурнаме», свидетельствует о глубоких познаниях автора в сфере медицины.

Использование в сочинении медицинской лексики обуславливает их познавательную ценность, а также позволяет глубоко понимать текст. Наличие в мемуарах Бабура большого количества медицинских терминов потребовало тщательного поиска переводческих соответствий данной лексики на русском языке. Анализ переводческих ошибок в «Бабурнаме» показал, что профессиональный переводчик должен знать не только грамматику и лексику иностранного языка, но и в полной мере владеет специальной лексикой, использованной в оригинале, владеет искусством герменевтики.

Типология медицинских терминов, актуализированных в «Бабурнаме», а именно:

1) обозначающие профессию: *бахши, жарро, табиб/ бахши, лекар, врач, костоправ*.

2) Обозначающие диагнозы, болезни: *безгак, ўлат (чума), иситма, зоча заҳмати, ориза, обила заҳмати, жароҳат, яра, бучқоқ, ҳасба, фасод, сабб дуёнг, мафосил, заҳмат, дард, мариз, кулундж, мараз, совуқ элтмоқ, афлаж, қулоқ озриги, добгули, ҳарорат, сиҳҳат, озриқ, титроқ / лихорадка, мор, горячка, температура, жар, оспа, кор, рана, язва, чирей, болезн суставов,*

¹ М.Салье : Хасбе — корь. Бабур Захириддин Мухаммад. Бабурнаме. Записки Бабура. – Ташкент: изд. АН УзССР, 1958. –528 с.

болной, куландж, простуда, отморожение от холода ног и рук, кашел, паралич, болезн уха, недомогание, исцеление, бол, озноб и т.д.

3) Обозначающие части организма: *шахраг, сафро, пойча, илдиз, эт, сўнгах, қон/кост, кров, главная артерия, жила, мясо, стопа, желч.*

4) Обозначающие лекарственные средства: *дору мағзи, илдиз, марҳам, бучқоқ, ҳиндувона, нарғис, жуллоб, доруий кор, симоб, афюн, мурч / порошок, корешок, маз, жжeная шерст, арбуз, нарцисс, настойка, лекарство, слабительное, ртут, опиум, (черный) перец* и т.д.

5) Обозначающие медицинские инструменты и методы лечения: *фасод, ништар, муолажа, фатила, мудаво, фасд қилмоқ, мусҳил/отворение крови, фитил, лечение, пустиг кров, прокалывание иглой (вскрытие гнойной раны).*

Изучение медицинской терминологии «Бабурнаме» может пролить свет на вопросы формирования и развития этой части терминологии современного литературного языка, внести ясность в некоторые идейно-художественные вопросы сочинения, ибо медицинская лексика относится к числу важнейших частей структуры произведения.

Исползованная литература:

1. Алтмишева Ё. (2023). О переводе исламских юридических терминов «Бабурнаме» на русский язык. *Рол наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).*

2. Алтмишева Ё. М. (2021). «Бабурнаме» как образец мемуарной литературы Востока. *Языки и литература в поликультурном пространстве* (pp. 168-170).

3. Алтмишева, Ё. М. (2021). Адекватность перевода контентов религиозного содержания в «Бабурнаме». *Theoretical & Applied Science 1 (07), 158-170.*

4. Бабур Захириддин Мухаммад. Бабурнаме. Записки Бабура. – Ташкент: изд. АН УзССР, 1958. –528 с.

5. Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2002. – 336 б.

Sharipov Azizjon Azimovich

*O‘zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi
“Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi mudiri,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

MIRZO BOBUR NOMI BILAN BOG‘LIQ AYRIM TOPONIMIK MA’LUMOTLAR

Annotatsiya. Bugungi kunda “Boburnoma”ning tarixiy geografiyasi, shuningdek, Bobur davlatining yangi qirralariga tegishli yangidan yangi ma’lumotlar to‘planib ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Ushbu toponimik izlanishlar

natijalari, shubhasiz, ilmiy jihatdan nomoddiy merosining bir qismi bo‘lgan toponimlarni saqlash, qadimiy nomlarini qayta tiklash, toponimlarning yig‘ma materiallarini tayyorlash, respublika toponimiyasi genofondini boyitish orqali tarixiy toponimik tadqiqotlarni nazariy va amaliy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Mirzo Bobur bilan bog‘liq mikro va makrotoponimlar salmog‘i nafaqat Markaziy Osiyoda balki Shimoliy Hindiston hudida ham keng tarqalgan. Mazkur toponimlarning shakllanishi, nomlanishi (etimologiyasi), shubhasiz, bevosita Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati bilan bog‘liqdir. Muallifning mazkur maqolasida Markaziy Osiyo va Hindiston hududidagi Mirzo Bobur nomi bilan bog‘liq ayrim toponimlar hususida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Zahiriddin Muhammad Bobur, toponimlar, Boburtepa, Boburiy, Boburpur, Boburiy masjid.

Abstract. Today, new information about the historical geography of “Boburnoma”, as well as new aspects of Babur’s state, is being collected and introduced into scientific circulation. The results of these toponymic studies undoubtedly serve to bring historical toponymic research to a new level theoretically and practically by preserving toponyms, restoring their ancient names, preparing collective materials of toponyms, enriching the gene pool of toponymy of the republic, which is part of the intangible scientific heritage.

Micro- and macrotoponyms associated with Mirzo Babur are widespread not only in Central Asia, but also in Northern India. The formation and naming (etymology) of these toponyms is undoubtedly directly related to the personality of Zakhiriddin Muhammad Babur. This article by the author examines some toponyms associated with the name of Mirzo Babur in Central Asia and India.

Key words: Zakhiriddin Muhammad Babur, toponyms, Baburtepa, Baburi, Baburpur, Baburi Mosque.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Ikkinchi Renessans davrini ifoda etgan Amir Temur va Temuriylar saltanati tarixi, shu jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Respublika rahbariyatining Bobur shaxsiyatini abadiylashtirish, uning merosini o‘rganish borasidagi qator qaror va farmonlarining qabul qilinishi, Temuriylar davri tarixi o‘rganish va tadqiq etish bilan bog‘liq O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Xalqaro Amir Temur hayriya jamoat fondi va Bobur nomli xalqaro jamoat fondi kabi qator ilmiy muassasalar vujudga keldi. “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-sonli Qarori ham boburshunos olimlarni yanada ko‘proq ilmiy izlanishlar olib borishlariga o‘ziga xos turtki bo‘ldi desak, xech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Temurshunos olimlarning sarmahsul faoliyati natijasida temurshunoslik va boburshunoslik sohasida katta ilmiy yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ayniqsa Bobur ensiklopediyasi chop etilishi jahon ko‘lamidagi ilmiy yangilik bo‘ldi. Boburshunos olimlar O.Bo‘riyev va A.Sharipov tomonidan Zahiriddin Muhammad Bobur

davlati xaritasining tuzilgani¹ ham ana shunday muhim yangiliklar sirasiga kiradi. Temuriylar saltanati tarixi haqida o‘z davrida asarlar yaratilgani, uzoq o‘tmishdan bizning zamonamizgacha yetib kelgan ushbu yozma meroslar hozirgi vaqtda jahonning turli qo‘lyozma xazinalarida saqlanib kelinmoqda.

Ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari “Boburnoma”da Markaziy Osiyo (Movarounnahr, Mo‘g‘uliston, Badaxshon, Xuroson va Afg‘oniston) va Shimoliy Hindistonning 2000 ga yaqin joy nomlari tilga olingan. Mazkur toponimlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularning geografik o‘rni (lokatsiyasi)ni aniqlash va fandagi tarixiy ahamiyati ko‘rsatish bugungi kunda tarixchi-geograflarning diqqat markazidan o‘rin olmoqda.

“Boburnoma”ning tarixiy geografiyasi, shuningdek, Bobur davlatining yangi qirralariga tegishli yangidan yangi ma’lumotlar to‘planib ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Ushbu toponimik izlanishlar natijalari, shubhasiz, ilmiy jihatdan nomoddiy merosining bir qismi bo‘lgan toponimlarni saqlash, qadimiy nomlarini qayta tiklash, toponimlarning yig‘ma materiallarini tayyorlash, respublika toponimiyasi genofondini boyitish orqali tarixiy toponimik tadqiqotlarni nazariy va amaliy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada biz Markaziy Osiyo va Hindiston hududidagi Mirzo Bobur nomi bilan bog‘liq ayrim toponimlar hususida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Bugungi kunda O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Pokiston hamda Hindiston hududlarida Bobur nomi bilan bog‘liq “*Bobur*”, “*Boburtepa*”, “*Boburiy*”, “*Boburpur*” kabi bir qancha aholi maskanlari mavjudligi qayd etilgan. ko‘plab qadamjoylar mavjud. Jumladan: “Bobur” deb atalmish aholi maskani Afg‘onistonning Kunar viloyati, Chavkayi tumanida mavjud. Ushbu qishloq Jalolobodning shimoli-sharqida, Kunar daryosining o‘ng sohilida joylashgan. Yana bir qishloq Afg‘onistonning Zobul viloyati, Shomulzayi (Shamulzayi) tumanida mavjud bo‘lib, G‘azna shahidagi Obi-Istoda ko‘lining janubida joylashgan. Afg‘onistonning Parvon viloyati, Shayh Ali (Shekh Ali) tumanidagi qishloq ham “Bobur” deb ataladi. Bu aholi maskani Kobulning shimoli-g‘arbida, Bomiyon tog‘larining 2300 m. balandligida joylashgan bo‘lib, bu yerdagi tog‘lar ham “Ko‘hi Bobur” (“Bobur tog‘lari”) deb ataladi. Ushbu qishloq janubidan “Boburnoma”da ko‘p marta tilgan olingan G‘urband daryosi oqib o‘tadi. Kobuldan Bomiyon va Shibartu dovoni orqali Ko‘hmardga olib boruvchi yo‘l, ushbu Bobur qishlog‘idan o‘tgan. Asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi mazkur qishloq aholisi o‘zlarini “boburiy” (Boburiylar avlodidan) deb hisoblaydilar.

O‘zbekiston hududida ham Bobur mirzo bilan bog‘liq ko‘plab tarixiy joy nomlari mavjud va ular asosan “**Boburtepa**” shaklidagi toponimlardir. Jumladan, “Boburtepa” deb atalmish aholi maskani Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani Pasttol qishloq fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan. 1500-yili Bobur mirzo Shahrisabz(Kesh)dan Hisorga borayotib Langar soyining chap yoqasida

¹ Ushbu xarita O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining № SAP 02278 raqami bilan ixtirochilik patenti sifatida ro‘yxatga olingan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Rasmiy Axborotnomasi / Sanoat namunalari Davlat reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanoat namunalari haqida ma’lumotlar nashri hamda Sanoat mulki muhofazasi portali patent platformasi (<https://my.ima.uz/>)da e’lon qilingan.

toʻxtagan va bu yerdagi qishloq keyinchalik Bobur nomi bilan bogʻlangan. [Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi, 2017: 162] Bundan tashqari “Boburtepa” nomi bilan qayd etilgan bir qancha arxeologik yodgorliklar ham mavjud. Mazkur toponimlar ham Oʻzbekiston madaniy meros obʼektlari sifatida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrda 846-sonli Qarori bilan Moddiy madaniy merosning koʻchmas mulk obʼektlari milliy roʻyxatiga kiritilib, davlat muhofazasiga olingan. “Boburtepa” turkumidagi toponimlardan biri – Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani “Elobod“ MFY da joylashgan I–VI asrlarga tegishli yodgorlik; Navoiy viloyatining Xatirchi tumani “Binokor” MFY da joylashgan yodgorlik hamda Surxondaryo viloyatining Uzun tumani “Oq masjid“ MFY hududida joylashgan mil.avv. I ming yillikka tegishli Govurgon arxeologik yodgorlik ham “Boburtepa” deb ataladi.

Qirgʻiziston hududida ham Bobur bilan bogʻliq qadamjoylar mavjud. Eng mashhur joy sifatida bevosita Bobur tomonidan qurilgan “Bobur xujrasi”ni qayd etish mumkin. Ushbu xujra tavsifi asnosida “Boburnoma”da tilgan olingan Oʻsh shahri, undagi tabiiy, tarixiy-geografik joylar haqida kengroq maʼlumotga ega boʻlamiz.

Maʼlumki, Oʻsh shahri markazida, Alisher Navoiy, Qurbonjon dodxoh (Kurmandjan Datka) va Sapar Aytiev koʻchalari oraligʻida joylashgan kichikkina, moʻjaz togʻ (uzunligi taxminan 3 km, eni 1,5–2 km, eng baland choʻqqisi 1176 m) mavjud. “Boburnoma”da “Barokoʻh” deb tilga olingan mazkur togʻ, bugungi kunda Taxti-Sulaymon (mahalliy nomi Sulaymon-Too) deb ataladi.

Dastlab arab geografi Istaxriyning “Kitob masolik va mamolik” asarida Fargʻona viloyatiga tegishli boʻlgan Oʻsh shahrining asosiy togʻi sifatida eslatilgan. “Boburnoma”da ham Oʻsh shahri tavsifida mazkur togʻ va undagi obidalar haqida anchagina muhim maʼlumotlar keltirilgan. “Yana bir Oʻsh qasbasidir. Qoʻrgʻonining sharqi-janubiy jonibida bir mavzun togʻ tushubtur, Barokoʻhgʻa mavsum. Bu togʻning qullasida Sulton Mahmudxon bir hujra solibtur, ul hujradin quyiroq **ushbu togʻning tumshugʻida tarix toʻqquz yuz ikki (1496-1497)da men bir ayvonliq hujra soldim.** Agarchi ul hujra mundin murtafiʼdur, vale bu hujra bisyor yaxshiroq voqiʼ boʻlubtur, tamom shahr va mahallot oyogʻ ostida... Barokoʻh togʻi domanasida, shahr bila bogʻning arosida bir masjid (togʻning janubida) tushubtur, Masjidi Javzo otliq. Togʻ tarafidin bir ulugʻ shahjoʻy oqar. Ushbu masjidning tashqari sahni nishebrok, se bargalik, pursoya, safoliq maydon voqiʼ boʻlubtur. Har musofir va rahguzar kelsa anda istirohat qilur... Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu togʻda paydo boʻldi: pichoq dastasi va takband va baʼzi nimalar qilurlar, xeyli yaxshi toshdur”¹. Bobur yosh boʻlishiga qaramay uning meʼmoriy yechimiga alohida eʼtibor qaratgan. Ushbu obida oʻzining ayanchi tarixiga ega. 1963 yili, Sovetlar

¹ Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома / Таҳрир ҳайъати: А.Абдурашидов, Б.Алимов ва бошқ.; П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрл.: С. Ҳасанов; Масъул муҳаррир В.Раҳмонов. – Тошкент: Шарқ, 2002. 26, 3а варақлар; Keyingi oʻrinlarda, ushbu maqolada uchraydigan “Boburnoma”dan olingan iqtiboslar mazkur nashrda qayd qilingan betlarga emas, balki shartli ravishda “Boburnoma” qoʻlyozmasining Haydarobod nusxasidagi varaqlariga havola qilishni lozim topdik.

davrida mazkur hujra “diniy maskan” sifatida buzib tashlangan, 1990 yil boshida bir muncha qayta tiklangan. Baroko‘h tog‘ tevaraklarida, Bobur sanab o‘tgan obidalardan tashqari qadimiy xammom xorabasi (XI–XII asr), Abdullaxon raboti (XVI asr), Osaf ibn Burxiya maqbarasi (XVIII asr) ham saqlanib qolingan. Bobur eslatgan “shohjo‘y arig‘i” esa Oqbura daryosidan olinib, Baroko‘hning shimoli-sharqidan, Abdullaxon raboti orqali oqib o‘tadi.

Bugungi kunda, Baroko‘h va undagi madaniy obidalar YuNESKOning 2009-yil 29-iyundagi qarori bilan Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga ham kiritilgan.

Hozirgi Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonda o‘zlarini Bobur avlodidan deb biluvchi, etnik afg‘on-pushtun qabilalaridan tarkib topgan “**Boburiy**” nomidagi bir qancha aholi maskanlari ham mavjud. Shulardan biri Afg‘onistonning Logar viloyati, Baraki-Barak tumanida (Kobulning janubida, Logar daryosining o‘ng sohilida) joylashgan qishloq bo‘lsa, yana biri Pokistonning Sind viloyati, Lorkana shahridan 30 km.janubda, Sind (Hind) daryosining o‘ng sohilida joylashgan aholi maskani hisoblanadi. Mazkur qishloq yaqinida YuNESKO madaniy ro‘yxatiga kiritilgan Moxendjodaro arxeologik yodgorligi ham joylashgan.

Bundan tashqari, “Boburiy” nomidagi aholi maskanlari Hindistonda ham mavjud. **Babūri, Bābarī, Babri** shaklida uchraydigan mazkur toponimlarning aksariyati, asosan, Uttar-Pradesh shtatida joylashgan, chunonchi: **a)** Chandauli (Chandauli) tumanidagi shaharcha. Banoras (Varanasi)ning janubi-sharqida, Chandra-Prabxa daryosining o‘ng sohilida joylashgan; **b)** Jamna daryosining o‘ng sohilida, Agraning shimoli-g‘arbida (Agra–Madhura avtomobil yo‘li ustida) joylashgan qishloq; **v)** Gomati (Go‘mti) daryosining o‘ng sohilida, Lahnau–Sultonpur avtomobil yo‘li ustida joylashgan qishloq hamda – **g)** Sonbxadra (Sonbhadra) tumani Banoras (Varanasi)dan 120 km janubda, Co‘n daryosining chap sohilida joylashgan aholi maskani. Qishloq, asosan, yonida joylashgan Dhanraul (Dhandhraul Dam) suvombori bilan sug‘oriladi.

Hindistonda, shuningdek, “**Boburpur**” yoki “**Babarpur**” (**Babarpur, Baberpur**) shaklidagi joy nomlari ham qayd etilgan. Bular – **a)** Haryana shtatida (Panipat shahridan 8 km janubda, poytaxt Dehlidan 100 km shimolda, Jamna daryosining o‘ng sohilida) joylashgan shahar. Ushbu maskan Panipat jangidan so‘ng asos solingan (1526) deb e‘tirof etiladi va bugungi kunda ham Bobur davrida Movarounnahr va Xurosondan ko‘chib kelgan kishilarning avlodlari istiqomat qilishadi. Boburpurdagi bir necha maishiy va ma‘muriy ob‘ektlar (bozor, temir yo‘l bekati, jumladan xotin-qizlar kolleji va h.k.) Bobur nomi bilan ataladi. Shahar ichidan oqib o‘tuvchi katta anhor ham Boburpur deb nomlanadi [Yo‘ldoshev B., 2011: 11]; **b)** Dehlining Shohdara (Shahdara, Shadara) tumanidagi (poytaxtdan 12 km shimoli-sharqda, Jamna daryosining chap sohilida joylashgan) **Babarpur** aholi maskani; **v)** Uttar-Pradesh shtatining ikki hududida ham **Babarpur** nomli qishloqlar mavjud, biri Agradan 40 km shimoli-sharqda, Tandla-Avagarx avtomobil yo‘lida joylashgan bo‘lsa, ikkinchisi Itova shahridan 40 km janubi-sharqda, Itova–Kanpur avtomobil yo‘lida joylashgan. Bundan tashqari **g)** Hindistonning Panjob shtatida (Ludxiyana shahridan 35 km janubda) joylashgan Boburpur aholi maskani ham qayd etilgan.

Bobur va Boburiylar davlati hududida o‘z davrida ko‘plab me‘moriy obidalar, bog‘u-rog‘lar barpo etilganligi sir emas. Hindiston hududida Bobur davrida yaratilgan dastlabki obidalaridan biri bu **Boburiy masjid** hisoblanadi. Ushbu masjid Bobur Xaryana shtatida, Panipat shahrining Karnal tumanida joylashgan bo‘lib, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diy ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga Bobur farmoni bilan hijriy 934 (1527)-yilda barpo etilgan. Masjid Boburning zavjasi va shu nomli qizi Ma’suma-sulton Begim (mahalliy aholi tilida Mussammat Kabuli Begym)ga bag‘ishlab qurilgan bo‘lib, uning me‘morchiligi ma’lum darajada Samarqanddagi temuriylar uslubidagi masjidlarni eslatadi.



Bobur masjidi. Panipat, Hindiston

Ingliz me‘mori Katerina Esherning ta’kidlashicha, ushbu Boburiy masjid orqali Hindistonga Temuriylar uslubidagi yangicha arxitektura san’ati kirib kelgan: “Garchi Bobur masjidining ba’zi elementlari Lo‘diylar davridagi me‘moriy obidalarda ham uchrasa-da, unda Temuriylarga xos uslub sezilib turadi”, - deb yozadi u. Qizil qumtosh, qora va oq marmardan qurilgan mazkur masjid katta gumbazli, o‘lchami 53,75x16,5 m bo‘lgan namoz o‘qiladigan ulkan xonaqox, muhtasham peshtoq qarshisida to‘rt burchakli keng maydon va quduq ham mavjud. Qur’oni Karim oyatlari bilan ziynatlangan masjid peshtoqida binoning qurib bitkazgan sanasi ham qayd etilgan. Shuningdek, Bobur bu yerda Kobul bog‘larini eslatuvchi qalin bog‘u rog‘lar ham barpo qilgan. Keyinchalik, Humoyun mirzo ham Panipat yaqinida Salimshoh suriy ustidan qozonilgan g‘alabani xotirlash uchun mazkur bog‘ markazida hijriy 934 (1556-1557)-yilda “Fathi Muborak” nomli tosh supa qurdirgan. Bugungi kunda ushbu masjid hududi mahalliy aholi orasida


“Bobur masjid” (Bābarī Masjid) va “Bog‘i Kobuliy masjid” (Kabuli Bagh Mosque) nomi bilan ham mashhur.

Hindiston fath etilganidan so‘ng, Bobur formoni bilan bunyod etilgan masjidlardan yana biri Uttar-Predesh shtatidagi Ayodha shahrida, Gogra (Gxagxara) daryosining bo‘yidagi **Boburiy masjid (Bābrī Masjid)**dir. Garchi “Boburnoma” va boshqa yozma manbalarda ushbu masjidning qurilishi haqida ma’lumotlar uchramasa-da, biroq uning peshtoqidagi yozuvlariga ko‘ra, masjid hijriy 935 (1528-1529)-yilda Boburning harbiy lashkarboshchisi, Aud (Avad) viloyatining noibi Mir Boqi Toshkandiy (ba’zi manbalarda Mir Boqi Isfaxoniy) tomonidan qurilganligi qayd etilgan. Shaharning Ramkot (“Ram qal’asi”) deb nomlanuvchi tepalikda joylashgan ushbu masjid o‘zining ayanchi taqdiriga ega. Hinduizm aqidasi ko‘ra, “Ramayana” hind eposining afsonaviy qahramoni Rama (Ramachandra Janmabxumi) Ayodhada tug‘ilgan va mahalliy hindularning fikricha, boburiylar bu yerda ilgari mavjud bo‘lgan Rama saroyi va Honumon ibodatxonasini buzib, masjid qurish orqali ularning muqaddas joyini tahqirlagan. 1992- yil 6-dekabrda 150 ming kishidan iborat Vishva Hindu Parishad va Bharatiya Janata partiyasining mutaassibchi hindular olomoni ushbu Boburiy masjidini vahshiylarcha vayron qilishadi. Garchi 1992-yil 16-dekabrda Hindiston hukumati tomonidan Bobur masjidining buzilishiga olib kelgan holatlarni tekshirish uchun maxsus “Liberxon komissiyasi” tuzilgan bo‘lsa-da, biroq rasmiy hukumat tomonidan mas’ul aybdorlarni aniqlash va jazolash ishlari samarasiz qolgan. Bu esa, o‘z navbatida, butun Shimoliy Hindiston, shuningdek, Bangladeshning turli hududlarida musulmonlar va hindular o‘rtasida qonli to‘qnashuvlariga, Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi nizoliy vaziyatlarni keskinlashishiga sabab bo‘lgan.

Bobur masjid o‘rnida, haqiqatan ham hindlarning ko‘hna ibodatxonasi bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi to‘g‘risida baxsli masala kun tartibiga ko‘tariladi va 2003-yildan boshlab Allohobod Oliy sudning qarori asosida, masjid hududida arxeologik qazishmalar olib boriladi. Natijada arxeologlar masjid o‘rnida Kushonlar davriga oid qandaydir qadimiy imorat qoldiqlari, uy anjomlari va turli hayvon suyaklari topilganligini e’tirof etishadi. Oliy sud arxeologik dalillar asosida “Boburiy masjid poydevorlari “mahalliy va islomiy bo‘lmagan inshootlar” asosiga qurilgani, shuningdek, masjid qurilishi uchun bu inshootlar boburiylar tomonidan maxsus buzib tashlanganiga oid hech qanday dalil va isbot yo‘q” degan xulosaviy qaror chiqaradi. Biroq shunga qaramay, Hindiston Oliy sudi ushbu masjid hududida haqqaqatdan ham Ram ibodatxonasi mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi baxsli masalaga ham oydinlik kiritolmaganligini ham ma’lum qiladi. Haqiqatdan ham masjid o‘rnida qandaydir ko‘xna imoratlar bo‘lgani shubhasiz, biroq bu yerlar Bobur mirzo davridan ancha yillar oldin vayron etilgan yoki qarovsiz va tashlandiq xaroba ko‘rinishida bo‘lgani ehtimoldan holi emas.



Boburiy masjid.
19-asr oxiridagi fotosurat.
Ayodha, Hindiston



Mutaassibchi hindular tomonidan masjidning buzulishi.
1992-yil 6-dekabr. Ayodha, Hindiston

Yozma manbalarda Dehli sultonlari (Baxlulxon, Iskandar va Ibrohim Lo‘diy) davrlarda hindlarga nisbatan diniy murossasizlik siyosatini olib borilganligi, ko‘pgina ibodatxonalar vayron etilganligi, bu esa, saltanat aholisining katta qismi bo‘lgan hindlarning keskin noroziliklariga sabab bo‘lgani to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qayd etilganiga ham guvohmiz. Aksincha temuriy-boburiylar davridagi ulkan obodonchilik davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, hususan, Mirzo Boburning qarovsiz, harob yerlarni obod qilgani va muhtasham saroylar va bog‘i bo‘stonlar barpo etgani nafaqat yozma manbalardan (“Boburnoma”da bunday ma‘lumotlar talaygina) balki bizgacha yetib kelgan imoratlardan ham ma‘lum. Zero, vayronkorlik Bobur va uning avlodi tabiatiga mutlaqo zid tushuncha edi: “Doim xotirg‘a yetar edikim, **Hindustonning bir ulug‘ aybi budurkim**, oqar suvi yo‘qtur. Har yerda o‘lturushluq bo‘lsa, charxlar yasab, oqar suvlar qilib, tarxliq va siyoq yerlar yasasa bo‘lur. Agraga kelgandin bir necha kundin so‘ng ushbu maslahatqa Juun suvidin o‘tub, bog‘ yerlarini mulohaza qilduk. **Andoq besafo va harob yerlar edikim**, yuz karohat va noxushluq bila andin ubur ettuk. Bu yerning makruhlig‘i va noxushlig‘idin **chorbog‘ xayoli xotirdin chiqti**”¹, - deb yozgan edi Bobur. Bunday bunyodkor tabiat unga bobokaloni Sohibqiron Amir Temurdan meros ekanligini ham ta‘kidlagan edi: “Nechukkim “Zafarnoma”da Temurbekning “Masjidi sangin” imoratini qilurda Mullo Sharaf[iddin Ali Yazdiy] mundoq mubolag‘a bila bitibdurkim, Ozarbayjon va Fors va Hinduston va yana o‘zga mamolik sangtaroshlaridin har kunda ikki yuz kishi masjidida ish qilurlar edi. **Bir Agrada ushbu Agraning sangtaroshlaridin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sekson kishi ish qilurlar edi. Yana Agrada va Sekriyda va Bayanada va Do‘lpurda va Gvaliyarda va Ko‘yilda ming to‘rt yuz to‘qson bir sangtarosh har kunda mening imoratimda ish qilurlar edi.** Har xirfagar va har korgardin ushbu qiyos bila Hindustonda behad va benihoyatdur².

XIX asrning mashhur ingliz me‘mori Grexaam Pikford o‘zining “Audning tarixiy obidaları (Historic Structures of Oudhe)” nomli kitobida: “Bobur

¹ “Бобурнома”, 299б, 300а варақлар.

² “Бобурнома”, 292а варақ.

Masjidining akustikasi va uning me'moriy yechimi haqida gap ketganda minbardan taralayotgan ovozning tarqalishi va proeksiyasi XVI asrning boshqa binolariga qaraganda ancha rivojlangan va taraqqiy etgan edi. Bu inshootda ovozning noyob joylashishi tashrif buyuruvchini hayratda qoldirishi aniq", - deb ushbu masjidning me'moriy uslublari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldiradi.

Darhaqiqat, Boburiylar bunyodkorligining e'tirofi, hech mubolag'asiz, har davrda ma'lum va mashhur bo'lgandi. Bobur masjidining buzulishi bugungi kunda ham ko'pgina musulmon tashkilotlar orasida norozilik harakatlariga olib kelmoqda va ba'zi hind-islom mujohidlarining terrorchilik hujumlari uchun bahona sifatida qaralmoqda....

Bobur mirzo tomonidan qurdirilgan yana bir obida Dehlidan 355 km sharqda, Uttar-Pradesh shtatining Sambhal (Gang daryosining chap sohilidagi) shahrida joylashgan **Shohi Juma masjid (Shahi Jama Masjid)** hisoblanadi. Mazkur obida 1528-yilda barpo etilgan bo'lib, qurilish ishlariga Boburning ishonchli beklaridan Jaloliddin Hindubek qavchin tayinlangan. Turli davrlarda qayta ta'mirlanib kelingan mazkur masjid bugungi kunda ham nisbatan yaxshi saqlangan obidalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq Boburning ushbu masjidi atrofida ham bugungi kunda havotirli (bu masjid ham, go'yoki hindlarning ibodatxonasi o'rnida barpo etilganligi va uni ham buzub tashlash lozimligi to'g'risidagi) habarlar tarqalmoqda.

Hindiston hududida Bobur davrida barpo etilgan bog'lar ham talaygina, shulardan biri bu "**Bog'i fath**" (G'alaba bog'i)dir. Mazkur bog' Agraning janubi-g'arbida, Sekriy (Sigiriy) tog'i etagida, Sekriy qal'asi (hozirgi nomi Fathpur-Sikri shahri) yaqinida Boburning Mevar viloyatining hukmdori, rajput Rana Sanga (Sangram Singx; 1482–1528) ustidan qozonilgan g'alabasi (1527) sharafiga barpo etilgan. Bobur 1528-yili Ramazon hayitini ushbu bog'da o'tkazishga qaror qiladi va bu yerdagi maxsus tosh supa ustiga oq uy (chodir) tikib, bayramni nishonlaydi: "O'tgan ramazon iydi Agrada bo'lub edi. Bu qoida xalal topmasun, deb yakshanba salx oqshomi iyd qila Sekriyg'a borildi. Sekriyda solg'on "Bog'i fath"ning g'arbi-shimol tarafidag'i tosh sufa tayyor bo'lub edi. Ul sufa ustida oq uy tikib, anda iyd qilildi"¹. Bobur Bog'i Fathni obod qilishga katta e'tibor qaratgan. Atrofini qalin devorlar bilan o'rab, markazida ayvonlariga ega sakkizburchakli temuriylar uslubidagi ko'shk va boshqa turli imoratlar ham qurdirgan. "Bog'i fath"ni favvorali ulkan toshhovuzlar ham bezatib turgan. Me'mor ustalar ishidan qoniqmagani uchun, Bobur ularning ba'zilarini hatto jazoga tortirganini ham eslatadi: "Tong boshida bu yerdin tebrab, bir paharda Sekriyda solg'on boqqa yetib tushuldi. Bog'ning tomi va chohning imoratlari xotirxoh bo'lmag'on jihatidin ish ustidag'ilarni tahdid va siyosat qilildi"². Gulbadanbegim ma'lumotiga ko'ra, Bobur ushbu bog' uchun "Debalpurda bir butun toshni o'yib o'n gaz hajmlik hovuz yasalgan edi. U yerdan Sigiriy (ya'ni Bog'i Fath)ga jo'nadilar. Ko'lning o'rtasida katta supa yasashni buyurdilar. Bu supa tayyor bo'lgach,... supada o'tirar edilar.

¹ "Бобурнома", 330а варақ.

² "Бобурнома", 344б варақ.

Sigiriy[Bog‘i Fath]da shiypon (ko‘shk) ham bino qilingan edi. Bu shiyponning “Turxona” (yuqori hujra)sida o‘lturub, qur‘on yozar edilar”¹.

Umuman olganda tarixiy toponimlarga jahonning nomoddiy merosi, qolaversa umummilliy qadriyatlarning bir qismi sifatida qarash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Etnonimlar vaqt o‘tishi bilan ma‘lum bir hudud nomiga aylangan va etnotoponim ko‘rinishida mahalliy xalqlarning lug‘at boyligida saqlanib qolingan. Buni mazkur maqolada Bobur shaxsiyati bilan vujudga kelgan toponimlar sifatida ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Mirzo Bobur bilan bog‘liq mikro va makrotoponimlar salmog‘i bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyoda balki Shimoliy Hindiston hudida ham keng tarqalgan. Mazkur toponimlarning shakllanishi, nomlanishi (etimologiyasi), shubhasiz, bevosita Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati bilan bog‘liqdir. “Boburnoma”da tilga olingan ushbu toponimlar, shuningdek, Bobur va boburiylar qadami yetgan joylarda yozma manbalarga tayangan holda arxeologik va etnografik eskpeditiyalar uyushtirish, bu borada maqsadli ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Toponimlar tadqiqi orqali aniqlangan ilmiy natijalar “Boburnoma”ni birlamchi manba sifatidagi ahamiyatining yangi tomonlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Бўриев О. “Бобурнома”даги топонимлар изоҳли луғати / Масъул муҳаррир М.Исҳоқов. – Т.: Наврўз, 2015.

2. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси: монография / ЎзБР ФА Темурийлар тарихи давлат музейи, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти; Таҳрир ҳайъати Б.Абдуҳалимов (мас.муҳаррир), А.Аҳмедов, Д.Юсупова, А.Хўжаев, М.Исҳоқов, Х.Файзиев. – Тошкент: Мумтоз со‘з, 2017. – Б. 285.

3. Бўриев О., Шарипов. “Заҳириддин Муҳаммад Бобур давлати” харитаси.//Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Расмий Ахборотномаси / Саноат намуналари Давлат реестрида рўйхатдан ўтказилган саноат намуналари ҳақида маълумотлар нашри. – Тошкент, 2022 йил № 5 (253). – Б.161-162. (ОАК).

4. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома /Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Йўлдошев. – Тошкент: “Очун”, 2022, – 128 б.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси (қайта ишланган иккинчи нашр) /Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. Бош муҳаррир: А.Аъзамов. – Т.: “Шарқ” НМАК Бош таҳририяти, 2017. – 688 б. [40 бет илл.]

6. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома / Таҳрир ҳайъати: А.Абдурашидов, Б.Алимов ва бошқ.; П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрл.: С. Ҳасанов; Масъул муҳаррир В.Раҳмонов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.

7. Йўлдошев Б. Бобурпур. – Тошкент: “Сано-стандарт”, 2011. – 60 б.

¹ Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. 15а варақ

Rasulova Istoda Abdulatifovna,
Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA INTERFERENSIYA HODISASI

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida mavjud bo'lgan interferensiv holatlar aniqlangan. Boburning chig'atoy tilidan tashqari, fors-tojik tilini mukammal bilganligi “Boburnoma” asarida ishlatilgan fors-tojikcha maqollarning va leksikaning ishlatilishi asardan parchalar keltirib isbotlandi. Bu shundan dalolat beradikim Bobur bilingv, ya'ni ikki til egasi bo'lgan, chunki interferensiya faqat bilingv nutqidagina o'zini namoyon qilishi maqolada isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, fors-tojikcha maqollar, interferensiv holatlar, interferensiya, bilingvizm.

Abstract: In the article, the interfering situations present in Zahiriddin Muhammad Babur's work "Baburnoma" are identified. Babur's perfect knowledge of Persian-Tajik language, in addition to Chigatay language, is proven by the use of Persian-Tajik proverbs and lexicon used in "Boburnoma" by quoting excerpts from the work. This proves that Babur was bilinguist, that is, bilingual, because the article proved that interference manifests itself only in bilingu speech.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, "Boburnoma", Persian-Tajik proverbs, interfering cases, interference, bilingualism.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh – Zahiriddin Muhammad Bobur, o'z asarlari bilan adabiyotshunoslik olamida buyuk iz qoldirgan. U 1483-yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan, uning otasi temuriylardan Umarshayx Mirzo, onasi Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo'lgan. Ikki tomonlama ulug' insonlarning farzandi edi. Bobur qisqa umri davomida katta ilmiy meros qoldirdi. Boburning she'riy merosi ko'p qirrali va boy. Uning nasriy asarlari (1519) “Qobul devoni”ga, so'ngra (1529-30) “Hind devoni”ga jamlangan. Asarlari hayotiy mavzularga bag'ishlanganligi hamda sodda tilda yozilganligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari islom dini asoslarini ochib bergan “Mubayyin” nomli she'riy asari, Xo'ja Ahrori Valiyning tasavvufga oid “Volidiya” tarjimasini, Boburning o'zi ixtiro etgan yozuvi “Xatti Boburiy” alifbosi, “Boburnoma” me'muar asari, ilmiy asari “Aruz haqida risola”si kabi asarlarning muallifi bo'lib, bu asarlari bilan ilm-fanning rivojiga o'zining hissasini qo'shgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari juda qimmatli tarixiy memuar asar bo'lib, unda Movarounnahr, Xuroson, Hindiston kabi mamlakatlar haqida, ularning geografiyasi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Aslida “Boburiya”, keyinchalik “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Voqeoti Boburiy” deb atadilar, oxiri bu asar “Boburnoma” nomi bilan

mashhur bo'lgan, bu asar Hindistonda eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan. "Boburnoma" juda ko'p tillarga, chunonchi, fors, ingliz, nemis, fransuz, rus tillariga tarjima qilingan.

Boburning nabirasi Akbarshoh boshchiligida "Boburnoma" asari chig'atoy tilidan fors tiliga tarjima qilingan. U paytlar bu asar "Voqeoti Boburiy" nomi bilan tanilgan. "Boburnoma"ning to'liq matni 1857-yilda turkolog H.U.Ilmenskiy tomonidan Qozonda nashr etilgan. Shundan keyin A.Beverichxonim "Boburnoma"ning Haydarobodda topilgan qo'lyozmasini bosmadan chiqardi. Har ikkala nusxada ham ayrim kamchiliklar mavjud edi. Bu nashr nusxasining qachon va kim tomonidan ko'chirilgani noma'lum. Bu ham to'liq tekst bo'lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Mavjud nusxalardan foydalangan holda 1848-1949-yillarda "Boburnoma" asarining to'liq nashri bosmadan chiqdi. Bu nashr o'zbek alifbosida geografik nomlar ko'rsatkichi, to'liq lug'at, ba'zi bir qisqa izoh va tarjimalar ilovasi bilan bosilgan edi. Shundan keyin "Boburnoma" ning to'liq matni 1960-yili qayta nashrga tayyorlandi va nashr etildi. [Toshpulatovna T. Y., 2022: 77]

"Boburnoma" asarida Bobur fors-tojik tilini ham mukammal bilgani, xalq og'zaki ijodidan xabardor bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Asarda fors-tojikcha maqollarining ishlatilishi buning yorqin dalili. *Masalan*: Uzram battar oz gunoh (Uzri gunohidan yomonroq), Deh kunjovu daraxton kujo (Qishloq qayda-yu, daraxtlar qayda), G'ofil az injo randa az anjo manda (G'ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan), Marbo yoron sur ast (Do'stlar bilan birga bo'lgan o'lish to'ydir), Dah darvish dar yak gilame buxsoband va du podshoh dar iqleme nag'unjand (O'n darvesh bir gilamga sig'ib yotarlar, ikki podsho bir iqlimga sig'maydi)va boshqalar.

Bu maqollar Boburning ikki tilli zullisonayn shoir ekanligiga ishora. Hozirgi kunda tilshunoslar bir tilga ikkinchi tilning ta'sirini interferensiya hodisasi sifatida qaraydilar. Boburning "Boburnoma" asarida mavjud bu holatlar bevosita interferensiyaga ishora qiladi. Tillarning aloqasi natijasida, ko'pincha, interferensiya ro'yobga chiqadi, bilingv yoki polingvlar nutqida birdan ortiq til bilan yaxshi tanishligi natijasida til me'yorlariga bo'ysunmaslik va undan chetga chiqish holatlari yuz beradi. Zero, "Har bir adabiy tilning hozirgi holatini to'g'ri belgilash, uning taraqqiyot yo'llarini aniqlashda til tarixining usullarini puxta o'rganish, ulardagi ayrim grammatik kategoriyalarini hozirgi til elementlari bilan chog'ishtirib tekshirish o'zbek tilshunosligi va turkologiyasining muhim masalalaridan biridir"[Muxtorov Z. Rajabov N. 1960: 6]. Quyida "Boburnoma"da mavjud ba'zi bir interferensiv holatlarni tahlil qilamiz. Tahlilga tortilgan barcha misollar Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridan olingan. [3.M.Бобур, 1990: 368]

Masalan, Farg'ona viloyatining **girdo-girdi** tog'larida yaxshi yayloqlari bor. (8-bet) Tobulg'u bir yig'ochdur, **po'sti** qizil, aso qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, qushlarga qafas qilurlar, **tarosh qilib** tirgaz qilurlar, xeyli yaxshi yig'ochdir. (8-bet) Sulton Mahmud mirzoning necha ishlaridan vazi' va sharif va sipohi va raiyat mutanaffir va **gurizon** bo'ldilar. (23-bet) **Badzabon** va **fahshg'o'y xudpisand** va tiyra mag'z **mardak** edi. (29-bet) Oxir otaliq, o'g'ulluk orasida bu

guftu-go‘ylar anga munjar bo‘ldikim, otasi otasining ustiga va o‘g‘li o‘g‘lining ustiga Balx Astrobodqa cherik torttilar. (40-bet) Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshg‘a mashg‘ul edilar kim, otasidek **kordiyda** va **kordon** podshoh tushchilik yo‘l kelib ramazondek mutabarrak va aziz oyg‘a kechalik fursat qolib, otasidan iymanmay, tengridan qo‘rqmay, hanuz ishi chog‘ir, ichmak edi nashot bila, majlis oroliq edi inbisot bila. (40-bet) Necha yilkim, Astrobod hukumati Badiuzzamon mirzoda edi, havoli va havoshisi va yigit-yalangi bisyor **purzavq** va **purzeb** bo‘lur edi. Turdi Muhammadqa ham mastlar to‘la – to‘la ayoqlarini **pay-darpay** berib, oz fursatda masti loyaqil qildilar.(208)

“Boburnoma” asaridan olingan gaplarda uchraydigan **girdo-girdi, po‘sti, tarosh qilib, gurizon, badzabon, fahshg‘o‘y xudpisand, mardak, guftu-go‘ylar, kordiyda, kordon, purzavq, purzeb, pay-darpay** kabi so‘zlar forscha so‘zlar bo‘lib bu bevosita bilingv nutqida yuziga keladi. Bolaligidan ikki tilda bemalol muloqot qila olgan kishilarni ham bilingvistlar deb ataymiz, aslida ham bu atama ko‘proq ikki tilli muhitda yashash natijasida shakllangan bilingvizmni ifodalaydi. Bu kabi misollarni asarda ko‘plab uchratishimiz mumkin, o‘sha davrda davlat tili fors-tojik tili bo‘lganligini sababli, asardagi farmonlar ko‘plab g‘azal va tuyuqlar to‘liq fors-tojik tilida yozilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, interferensiya faqat ikki va undan ortiq tilni mukammal bilgan shaxs nutqida o‘z ifodasini topadi, ko‘rib o‘tilgan misollardan shu ko‘rinadiki, Boburnoma asarining tahlilidan Zahiriddin Muhammad Boburning ko‘p tillarni mukammal bilgan tilshunos olim ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Bu asar sodda tilda yozilganligi, go‘zal tasviriy ifodalar, o‘xshatishlardan o‘rinli foydalanilganligi bilan benihoya qimmatli bo‘lib, asarda ishlatilgan maqollar uning nafaqat turk va fors-tojik tillarini mukammal bilishi, balki xalq og‘zaki ijodi va madaniyati bilan yaxshi tanish ekanligini isbotlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazarova X. “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. -T.: 1980.
2. Toshpulatova, T. Y. Zahiriddin Muhammad Bobur merosida tilga oid munosabatlar tahlili.// *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2022, 2 (14), 76-80. (23.01.2024)
3. Muxtorov Z., Rajabov N. O‘zbek tili tarixini yanada chuqur o‘rganaylik.// O‘zbek tili va adabiyoti 1960. 6-bet.
4. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. [Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев; Муҳаррир А.Ўктам]. – Т.: Юлдузча, 1990. 368 б.
5. Rasulova, I. Interferensiyaning mohiyati va turlari.// «Глобаллашув жараёнида лингвистика назарияси ва лингводидактика муаммолари» мавзусидаги дистанцион халқаро илмий-амалий конференция. (р. 20).
6. Rasulova, I. Lingvomadaniy interferensiya va uning til o‘rganishdagi salbiy ta’siri rus va o‘zbek tillari va madaniyati misolida. *JournalNX*, 449-452.

“BOBURNOMA” ASARIDA MUDDAT UL-UMR VA MUDDATI MADID IZOFIY BIRIKMALARINING INGLIZCHA TADQIQI

Annotatsiya: O‘zbek klassik adabiyoti namunasi bo‘lgan “Boburnoma” asari O‘rta Osiyo xalqlari haqida eng qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Bobur asarlari leksik tadqiqotchilari o‘zbek tiliga o‘zlashgan ko‘pgina izofiy birikmalari qo‘llanilganligini ta’kidlashadi. Ushbu maqolada “Boburnoma” asarida ishlatilgan *muddati madid* va *muddat ul-umr* izofali birikmalar ma’nosi va ularning inglizcha tarjimasini ko‘rib chiqamiz.

Tayanch tushunchalar: “Boburnoma”, izofa, muddati madid, muddat ul-umr, tarjima, ma’no.

Abstract: The work “Boburnoma”, an example of Uzbek classical literature, contains the most valuable information about the peoples of Central Asia. The lexical researchers of Bobur’s works note that many borrowings have been used in the Uzbek language. In this article, we will look at the meaning of the izafas “*muddati madid*” and “*muddat ul-umr*” used in “Boburnoma” and their English translations.

Key words: “Boburnoma”, izofa, muddati madid, muddat ul-umr, translation, meaning

Buyuk davlat arbobi, salohiyatli sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqurroq tadqiq qilish va turli xil tillarga tarjima qilish hamda uni butun dunyoga tanitish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. O‘zbek tarjimashunosligida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi izofiy birikmalar hozirgacha tarjima nuqtayi nazardan tadqiq qilinmaganligini ko‘rishimiz mumkin. “Boburnoma”da qo‘llangan izofiy birikmalarning ingliz tilidagi tadqiqi, ularning tarkibiy qismlari mazmuniy, grammatik va funksional jihatdan tarjima qilinmagan.

Izofa (forscha: “qo‘shimcha”), shuningdek, ezafe, izafet, izafe, izafat, izafa va izofa (tojikcha: izofa,), ba’zi Eron tillarida uchraydigan grammatik qo‘shimchadir. Shuningdek, ikki so‘zni bir-biriga bog‘lovchi turkiy va hind kabi fors ta’siridagi tillar tarkibida ko‘rishimiz mumkin. Fors tilida u bog‘langan so‘zlar orasidagi urg‘usiz qisqa unli -e yoki -i (-ye yoki -yi) dan iboratdir.¹

Forscha grammatik atama izofa arabcha idāfa (“qo‘shimcha”) tushunchasidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, u ikki yoki undan ortiq otlarni bog‘lashga xizmat qiladi. Biroq, Eron tilidagi izofa grammatik birlikni (hatto olmoshni) bildirsa, arab tilida idāfa so‘zi aslida ikki so‘z o‘rtasidagi munosabatni bildiradi. Arab tilida idāfa konstruktsiyasidagi ikkita so‘z ega-ega qurilishida aytiladi. Arab tili darsliklarida arabiy izofaning ikki turi mavjudligi haqida ma’lumotlar bor :

¹ From Wikipedia, the free encyclopedia

1) haqiqiy izofa (ma'nosi va aytilishi bo'yicha bo'lgan izofa) arab tilida إِضَافَةٌ مَعْنَوِيَّةٌ (izofatun ma'naviyatun) deb aytiladi va qaratqich-qaralmish munosabatini ifodalaydi;

2) shakliy izofa (izofa shaklida aytiladigan murakkab sifat) arab tilida إِضَافَةٌ لَفْظِيَّةٌ (izofatun lafziyyatun) deyiladi. Shaklan izofiy birikma bo'lsa-da, mazmunan izofiy birikma emas. Shakliy izofa – izofa shaklidagi murakkab sifattir. Shakliy izofa ba'zan “lafziy izofa” deb ham aytiladi. Bunga sabab – u shakl jihatdan, ya'ni talaffuzda izofali birikma, ma'no jihatdan esa murakkab sifattir. Bunday izofada uning aniqlanmishi (ya'ni qaralmishi) sifat yoki sifatdosh bilan ifodalangan bo'lib moslashmagan aniqlovchi (ya'ni qaratqich) bilan murakkab sifat tuzib keladi. U doim aniq holatda bo'ladi. [Xalidov B., 1981: 140-142]

Shuning uchun M.Amonov tadqiqotlarida “Boburnoma”da qo'llanilgan arabcha izofali birikmalarni ikkiga ajratib o'rganishni lozim topganlar. “Boburnoma”da, asosan, haqiqiy izofa uchraydi: “Favoid ul-kibar”, “Mezon ul-avzon”, “Maxzan ul-asror”, “Mantiq ut-tayr”, “Lison ut-tayr”, “G'aroyib us-sig'ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoyi ul-vasat”, “Favoid ul-kibar” “Badoyi us-sanoyi” kabi asarlar nomi, “Dor ul-xilofa”, “Dor ul-harb”, “Dor ul-islom”, “Imod ul-mulk”, “Majlis ul-ushshoq”, “Rabb al-olamin”, “Umdat ul-mulk”, “haqiqat it-hol” singari birikma va iboralar.

Biroq oz bo'lsa-da, shakliy izofalar ham uchraydi: qutto ut-tariyq, xulosat ul-axbor, nodir ul-asr, muttafiq ul-kalima, muti ul islom, *muddat ul-umr*, karim ut-tarafayn, doim ul-avqot, dastur ul-anvor, azim ush-sha'n kabi. [Amonov M., 2002]

Demak *muddat ul-umr* bu arabcha shakliy izofa hisoblanadi. Ma'nosini M.Amonov shunday ta'riflagan: *muddat ul-umr* arabcha izofiy birikmasi *umr bo'yi* ma'nosini anglatadi.

(**Asliyat**) *O'lum dag'dag'asi xotirdin raf bolib, ochliq shiddati eldin daf boldi. Umrumuzda muncha farog'at qilmaydur eduk. **Muddat ul-umr** amonlig' va arzonlig' qadrini muncha bilmaydur eduk. Ishrat usrattin so'ng, farog'at mashaqqattin keyin lazzatliqroq va yaxshiroq ko'runur.*(BN:111)

(**Tabdil. 2008**) *O'lim vahimasi ko'ngildan ko'tarilib, ochlik shiddati eldan daf bo'ldi. Umrimizda buncha farog'at qilmagan edik. **Umr bo'yi** omonlik va arzonchilik qadrini bunchalik bilmagandik. Ishrat falokatdan so'ng, farog'at mashaqqatdan keyin lazzatliqroq va yaxshiroq ko'rinadi.*(BN:84)

(**Wheeler Thackston**) *The fear of death was driven from our minds, [96] and the pangs of hunger were alleviated. Never in our lives(umrimizda) had we been so relieved. Never had we appreciated safety and comfort so much. Ease and relief seem all the more pleasurable after hardship and distress. (Boburnoma. p 132) [Thackston W., 1996]*

(**Susannah Beveridge**) *Never in all our lives (butun hayotimizda umr bo'yi) had we felt such relief! never in the whole course of them have we appreciated security and plenty so highly. Joy is best and more delightful when it follows sorrow, ease after toil. (Baburname. p148).*[Beveridge A.S., 1921]

Asarda payt ma'nosini anglatuvchi izofali birikmalar orasida tarkibi arabcha so'zlardan iborat fors-tojik izofali birikmalari uchraydi¹:

(Asliyat) Xo'jand ham muddati madid edikim, Umarshayx mirzo devonig'a taalluq edi, bu fataratga ul sarkorda futur bo'lg'on uchun Sulton Ahmad mirzog'a boqib erdi(BN:31-bet). Mazkur jumlada muddati madid izofali birikmasi **“uzoq muddat”** ma'nosini anglatib kelyapti.

Asarning P.Shamsiyev tomonidan tayyorlangan 1989-yil “Yulduzcha” nashriyotida chop etilgan nusxasi bilan V.Rahmon tomonidan tayyorlangan 2008-yil “O'qituvchi” nashriyotida chop etilgan nusxasidagi izofiy birikmalar qiyoslab ko'rsatilgan (2.1-jadval) va muddati madid shunday ifodalangan:

Muddati madid(31b) – uzoq muddat (47b).

Muddati madid izofiy birikmasining inglizcha tarjimalarini ko'rib chiqamiz.

(Tabdil, 2008) Xo'jand ham uzoq muddatlardan beri Umarshayx mirzo davlatiga taalluqli edi. Biroq bu to's-to'olonlarda hokimidan putur ketgani uchun Sulton Ahmad mirzoga qarar edi.

(Wheeler Thackston) Khodzhent had long belonged to (uzoq tegishli bo'lgan)Umar-Shaykh Mirza's administration. However, because the rule in that administrative area had become slack during this interregnum, the people had begun to look to Sultan Ahmad Mirza.

(Susannah Beveridge) Khujand for a considerable time (ancha vaqt) had been dependent on Umar Shaikh Mirza's Court (diwan) but of late had looked towards SI. Ahmad Mirza on account of the disturbance in the Farghana government during the interregnum.

Xulosa qilsak, demak, Takston o'z tarjimasida **in our lives (umrimizda)** deb bergan bo'lsa, Susanna Beverij **all our lives (butun hayotimizda, ya'ni umr bo'yi)**, Takston **had long belonged to (uzoq tegishli bo'lgan)**, Susanna Beverij **for a considerable time (ancha vaqt)** deb tarjima berishgan bunda kalka (so'zma-so'z tarjima) usulidan foydalangan. “Boburnoma” asarining hali to'liq o'rganilmagan jihatlari talaygina. M.Amonov izofalar ma'nolarini o'zbek tilida qanday yoritib bergan bo'lsalar, ushbu izofaviy birikmalar ingliz tilida qanday tarjima qilingan ekan, degan savol tug'iladi va tarjimalarini o'rganishga undaydi. Shuning uchun “Boburnoma”dagi izofalar inglizcha tarjimasini jiddiy o'rganish muhim vazifalardan biri deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Farg'ona. –2020.
2. Beveridge A.S. Baburname. – 1921.
3. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. – B.73.
4. Thackston W. “The Baburname” Smithsonian Institution Washington C. Oxford University Press – 1996.

¹ Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. Farg'ona – 2020 yil

5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – 2002.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008. – 288 b.
8. Халидов Б. Учебник арабского языка.- Ташкент.1981. – с.140-142.

Prof. Dr. Ercan ALKAYA

Fırat Üniversitesi, İnsan ve Toplum Bilimleri Fakültesi,
Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü.
Elazığ/TÜRKİYE.

Gökçe BAYSAK, Fırat Üniversitesi, Sosyal Bilimler
Enstitüsü, Çağdaş Türk Lehçeleri ve
Edebiyatları Anabilim Dalı Yüksek Lisans Öğrencisi.
Elazığ/TÜRKİYE.

TARİHÎ TÜRK LEHÇELERİNDE VE KARLUK GRUBU TÜRK LEHÇELERİNDE /b/ SESİ

Özet

Karluk grubu Türk lehçelerinde /b/ ünsüzünün görünümü üzerine yapılan bu çalışmada /b/ sesinin değişimleri ele alınmıştır. Çalışmanın amacı, Eski Türkçeyi esas alarak /b/ ünsüzünden hareketle lehçeler arasındaki benzerlikleri ve farklılıkları göstermektir. Çalışma tarihî Türk lehçeleri ve Karluk grubu olarak iki ana başlık altında ele alınmıştır. Tarihî lehçelerde; Eski Türkçe, Eski Uygur Türkçesi, Karahanlı Türkçesi, Harezmi Türkçesi, Kıpçak Türkçesi, Çağatay Türkçesi ve Eski Oğuz Türkçesi ele alınmıştır. Bu dönemlerin sözlükleri taranmış ve elde edilen kelimelerin karşılaştırmaları yapılmıştır. Çağdaş Türk lehçelerinde; Karluk grubu Türk lehçeleri ele alınmıştır. Bu lehçelerin sözlükleri taranmış ve /b/ ünsüzünü barındıran kelimeler ön seste, iç ses ve son seste karşılaştırılmıştır.

Çalışma dört bölümden oluşmaktadır. Birinci bölüm giriş kısmıdır. Bu bölümde /b/ sesi ile ilgili genel bir değerlendirme yapılmıştır. İkinci bölümde lehçeler tarihî ve Karluk grubu Türk lehçeleri olarak ayrılmıştır. Her lehçe grubunun sonunda /b/ ünsüzünün görünüm tablosu yer almaktadır. Çalışmanın sonunda sonuç ve kaynaklar bölümü yer almaktadır. Sonuç bölümünde lehçelerin genel değerlendirilmesi, benzerlik ve farklılıkları maddeler halinde belirtilmiştir.

Anahtar Kelimeler: Karluk Türk Lehçeleri, Tarihî Türk Lehçeleri, /b/ Ünsüzü

/b/ Sound in Historical Turkic Dialects and Karluk Group Turkic Dialects

Abstract

In this study on the appearance of the /b/ consonant in the Karluk group Turkic dialects, the changes of the /b/ sound are discussed. The aim of the study is to show the similarities and differences between dialects based on the /b/ consonant in Old Turkic. The study is discussed under two main headings: historical Turkic dialects and Karluk group. In historical dialects; Old Turkic, Old Uyghur Turkic, Karakhanid Turkic, Khwarezm Turkic, Kipchak Turkic, Chagatai

Turkic and Old Oghuz Turkic were discussed. The dictionaries of these periods were scanned and the words obtained were compared. In contemporary Turkic dialects; Karluk group Turkic dialects are discussed. The dictionaries of these dialects were scanned and the words containing the /b/ consonant were compared in the front sound, inner sound and final sound.

The study consists of four parts. The first part is the introduction. In this section, a general evaluation has been made about the /b/ sound. In the second section, dialects are divided into historical and Karluk group Turkic dialects. There is a table of appearance of the /b/ consonant at the end of each dialect group. At the end of the study, there is a results and resources section. In the conclusion section, the general evaluation of the dialects, their similarities and differences are stated in items.

Keywords; Karluk Group Turkic Dialects, Historical Turkic Dialects, /b/ Consonant

1. Giriş

Tonlu, patlayıcı, çift dudak ünsüzü olan /b/ sesi; Türkçe kelimelerde başta, ortada ve sonda bulunabilir. Bu ses /p/ ünsüzünün tonlu şeklidir (Alkaya, 2014: 72).

Ön seste yer alan /b/ ünsüzünün gelişimi ile ilgili farklı görüşler vardır. Bazı araştırmacılar birincil bir şekilde bulunduğunu kabul ederken bazı araştırmacılar ise bu ünsüzü Proto Türkçe döneminde *p- olarak kabul etmiştir. /b/'nin birincil olarak bulunduğunu Ramstedt, Poppe ve Räsänen savunurken Scherbak, Abdullayev ve Gadziyeva gibi bazı dilciler Ana Türkçe *b-'li yapıların *p- 'li şekillerle kullanılması gerektiğini iddia etmiştir. Clauson ise Köktürk ve Mani harfli metinlerde p- ve b- ünsüzlerinin ayrı ayrı harf işaretleriyle gösterilmesinden yola çıkarak Ana Türkçede her iki yapının da birincil olarak bulunabileceğini savunmuştur (Akt. Karaca, 2022: 9).

Tarihî Türk lehçelerinde ve Karluk grubunda ön seste b~p~m~v değişimleri görülmektedir. Bu değişimlerin dışında ön sesteki /b/ sesi genel anlamda korunmuştur. Ön sesteki b > m ses değişimi şartlı bir değişimdir. Kelime içerisinde bulunan n, m, ñ ünsüzlerinin etkisi ile /b/ ünsüzünün m'ye dönüşmektedir. Türkçede ön seste asli bir /p/ ünsüzü bulunmamaktadır. /p/ ünsüzü b~p~m~v denkliliği ile ön seste var olmaktadır (Karaağaç, 2015: 150-153).

İç seste /b/ ünsüzü iki ünlü arasında kaldığında /v/ ve /p/ seslerine dönüşmektedir. Kıpçak grubu Türk lehçelerinde b > v; b > y ses değişimi sıkça görülmektedir. İç seste b > m değişimi iki ünlü arasında görülmektedir (Karaağaç, 2015: 153-156).

Son seste /b/ ünsüzünün genel olarak v/ w ünsüzlerine dönüşmektedir. Kıpçak grubu Türk lehçelerinde son seste b > v; b > y ses değişimi görülmektedir (Karaağaç, 2015: 157). Tarihî ve çağdaş Türk lehçelerinde "sub" kelimesinin sonunda bulunan /b/ ünsüzünün büyük oranda düştüğü görülmektedir.

2. Tarihî Türk Lehçelerinde /b/ Sesi

2.1. Ön Seste

Tarihî Türk lehçelerinde /b/ sesinin ön seste korunduğu, süreklileştiği ve bir kelimedede (bol-) düştüğü görülmektedir.

2.1.2. Korunma

b > b

ET *bar*

E. Uyg. *bar*; Krh. *bar*; Hrz. *bar*; Kıpç. *bar*; Çağ. *bar* "var, mevcut"
krş. EOT *var* (Tekin, 2003: 239; Caferoğlu, 1968: 32; Üşenmez, 2006: 147; Cihan, 2021: 477; Toparlı vd., 2014: 23; Kunos, 1902: 21; Ciğa, 2013: 721).

ET *ber-/bir-*

E. Uyg. *bir-*; Krh. *bér-*; Hrz. *bér-*; Çağ. *ber-* "vermek"
krş. Kıpç. *ver-*; EOT *vér-* (Tekin, 2003: 240; Caferoğlu, 1968: 44; Üşenmez, 2006: 154; Cihan, 2021: 480; Hadi, 2005: 37; Toparlı vd., 2014: 302; MTAD16: 283).

ET *bol-*

E. Uyg. *bol-*; Krh. *bol-*; Hrz. *bol-*; Kıpç. *bol-*; Çağ. *bol-* "olmak"
krş. EOT *ol-* (Tekin, 2003: 241; Caferoğlu, 1968: 47; Üşenmez, 2006: 164; Cihan, 2021: 484; Toparlı vd., 2014: 34; Hadi, 2005: 47; MTAD16: 268).

ET *biş-*

Krh. *biş-*; Hrz. *biş-*; Kıpç. *biş-*; Çağ. *biş-*; EOT *biş-* "pişmek" (Tekin, 2003: 241; Üşenmez, 2006: 161; Cihan, 2021: 483; Toparlı vd., 2014: 32; Hadi, 2005: 45; MTAD16: 235).

2.1.3. Süreklileşme

b > m

ET *ben*

E. Uyg. *men*; Krh. *men/ min/ ben*; Hrz. *men*; Çağ. *bên/ mèn*; EOT *men* "ben"
krş. Kıpç. *ben* (Tekin, 2003: 250; Caferoğlu, 1968: 129; Üşenmez, 2006: 310; Cihan, 2021: 540; Argunşah, 2021: 161; Türk, Doğan ve Şerifoğlu, 2016: 74; Toparlı vd., 2014: 27).

ET *biñ/ miñ*

E. Uyg. *ming*; Krh. *miñ*; Hrz. *miñ*; Kıpç. *min*; Çağ. *min*; EOT *min* "bin" (Tekin, 2003: 250; Caferoğlu, 1968: 130; Üşenmez, 2006: 310; Argunşah, Yüksekaya, 2016: 69; Toparlı vd., 2014: 184; Hadi, 2005: 186; MTAD16: 265).

b > v

ET *bar*

EOT *var* "var, mevcut"
krş. E. Uyg. *bar*; Krh. *bar*; Hrz. *bar*; Kıpç. *bar*; Çağ. *bar* (Tekin, 2003: 239; Ciğa, 2013: 721; Caferoğlu, 1968: 32; Üşenmez, 2006: 147; Cihan, 2021: 477; Toparlı vd., 2014: 23; Kunos, 1902: 21).

ET *ber-/bir-*

Kıpç. *ver-*; EOT *vér-* "vermek"
krş. E. Uyg. *bir-*; Krh. *bér-*; Hrz. *bér-*; Çağ. *ber-* (Tekin, 2003: 240; Toparlı vd., 2014: 302; MTAD16: 283; Caferoğlu, 1968: 44; Üşenmez, 2006: 154; Cihan, 2021: 480; Hadi, 2005: 37).

2.1.4. Düşme

b > Ø

ET *bol-*

EOT *ol-* "olmak"

krş. E. Uyg. *bol-*; Krh. *bol-*; Hr. *bol-*; Kıpç. *bol-*; Çağ. *bol-* (Tekin, 2003: 24; MTAD16: 2681; Caferoğlu, 1968: 47; Üşenmez, 2006: 164; Cihan, 2021: 484; Toparlı vd., 2014: 34; Hadi, 2005: 47).

2.2. İç Seste

Tarihî lehçelerde /b/ sesinin iç seste korunduğu ve süreklileştiği görülmektedir. Düşme örneği bulunmamaktadır.

2.2.1. Korunma

b > b

ET *yalbar-*

Kıpç. *yalbar-* "yalvarmak"

krş. Çağ. *yalvar-*; EOT *yalvar-* (Tekin, 2003: 258; Toparlı vd., 2014: 307; Hadi, 2005: 328; MTAD: 284).

ET *yabız*

E. Uyg. *yabız* "yavuz"

krş. Krh. *yawuz/ yavız*; Hr. *yawuz*; Kıpç. *yavuz*; EOT *yavuz* (Tekin, 2003: 257; Caferoğlu, 1968: 278; Üşenmez, 2006: 464; Cihan, 2021: 596; Toparlı vd., 2014: 316; MTAD16: 285).

2.2.2. Süreklileşme

b > v

ET *abla-*

E. Uyg. *avla-*; Kıpç. *avla-*; Çağ. *avla-*; EOT *avla-* "avlamak"

krş. Krh. *awla-*; Hr. *awla-* (Tekin, 2003: 237; Caferoğlu, 1968: 26; Toparlı, 2007: 16; Hadi, 2005: 24; MTAD16: 231; Üşenmez, 2006: 139; Cihan, 2021: 473).

ET *yalbar-*

Çağ. *yalvar-*; EOT *yalvar-* "yalvarmak"

krş. Kıpç. *yalbar-* (Tekin, 2003: 258; Hadi, 2005: 328; MTAD: 284; Toparlı vd., 2014: 307).

ET *tebe*

E. Uyg. *teve*; Hr. *deve*; Kıpç. *deve*; Çağ. *təvə*; EOT *deve* "deve"

krş. Krh. *te(é)we* (Tekin, 2003: 253; Caferoğlu, 1968: 235; Cihan, 2021: 495; Toparlı vd., 2014: 60; Hadi, 2005: 275; MTAD16: 241; Üşenmez, 2006: 395).

ET *yabız*

Kıpç. *yavuz*; EOT *yavuz* "yavuz"

krş. Krh. *yawuz/ yavız*; Hr. *yawuz*; E. Uyg. *yabız*; (Tekin, 2003: 257; Toparlı vd., 2014: 316; MTAD16: 285; Üşenmez, 2006: 464; Cihan, 2021: 596; Caferoğlu, 1968: 278).

b > w

ET *abla-*

Krh. *awla-*; Hr. *awla-* "avlamak"

krş. E. Uyg. *avla-*; Kıpç. *avla-*; Çağ. *avla-*; EOT *avla-* (Tekin, 2003: 237; Üşenmez, 2006: 139; Cihan, 2021: 473; Caferoğlu, 1968: 26; Toparlı, 2007: 16; Hadi, 2005: 24; MTAD16: 231).

ET *yabız*

Krh. *yawuz/ yavız*; Hr. *yawuz* "yavuz"

krş. Kıpç. *yavuz*; EOT *yavuz*; E. Uyg. *yabız* (Tekin, 2003: 257; Üşenmez, 2006: 464; Cihan, 2021: 596; Toparlı vd., 2014: 316; MTAD16: 285; Caferoğlu, 1968: 278).

2.3. Son Seste

Tarihî Türk lehçelerinde /b/ sesinin son seste süreklileştiği ve bir kelime (sub) düştüğü görülmektedir.

2.3.1. Süreklileşme

b > v

ET ab

E. Uyg. *av*; Kıpç. *av-*; Çağ. *av*; EOT *av* "av"

krş. Krh. *aw*; Hr. *aw* (Tekin, 2003: 237; Caferoğlu, 1968: 25; Toparlı vd., 2014: 16; Hadi, 2005: 23; MTAD16: 231; Üşenmez, 2006: 139; Cihan, 2021: 473).

ET sub

E. Uyg. *suv/su*; Kıpç. *suv/su*; "su"

krş. Krh. *su*; EOT *su*; Hr. *suw* (Tekin, 2003: 252; Caferoğlu, 1968: 211; Toparlı vd., 2014: 242-243; Üşenmez, 2006: 370; MTAD16: 277; Cihan, 2021: 566).

ET seb-

E. Uyg. *sev-*; Krh. *sev-*; Kıpç. *sev-* "sevmek"

krş. Hr. *sew-* (Tekin, 2003: 252; Caferoğlu, 1968: 201; Üşenmez, 2006: 358; Toparlı vd., 2014: 233; Cihan, 2021: 561).

ET eb

E. Uyg. *ev*; Krh. *ev*; Kıpç. *ev*; Çağ. *ev*; EOT *ev/év* "ev"

krş. Hr. *ew* (Tekin, 2003: 242; Caferoğlu, 1968: 68; Üşenmez, 2006: 207; Toparlı vd., 2014: 77; Hadi, 2005: 89; MTAD16: 246; Cihan, 2021: 501).

b > w

Krh. *aw*; Hr. *av av* "av"

krş. E. Uyg. *av*; Kıpç. *av-*; Çağ. *av*; EOT (Tekin, 2003: 237; Üşenmez, 2006: 139; Cihan, 2021: 473; Caferoğlu, 1968: 25; Toparlı vd., 2014: 16; Hadi, 2005: 23; MTAD16: 231).

ET sub

Hr. *suw* "su"

krş. E. Uyg. *suv/su*; Kıpç. *suv/su*; Krh. *su*; EOT *su* (Tekin, 2003: 252; Cihan, 2021: 566; Caferoğlu, 1968: 211; Toparlı vd., 2014: 242-243; Üşenmez, 2006: 370; MTAD16: 277).

ET seb-

Hr. *sew-* "sevmek"

krş. E. Uyg. *sev-*; Krh. *sev-*; Kıpç. *sev-* (Tekin, 2003: 252; Cihan, 2021: 561; Caferoğlu, 1968: 201; Üşenmez, 2006: 358; Toparlı vd., 2014: 233).

ET eb

Hr. *ew* "ev"

krş. E. Uyg. *ev*; Krh. *ev*; Kıpç. *ev*; Çağ. *ev*; EOT *ev/év* (Tekin, 2003: 242; Cihan, 2021; Caferoğlu, 1968: 68; Üşenmez, 2006: 207: 501; Toparlı vd., 2014: 77; Hadi, 2005: 89; MTAD16: 246).

2.3.2. Düşme

b > Ø

ET *sub*

E. Uyg. *su*/ *su*; Krh. *su*; Kıpç. *su*/ *su*; EOT *su* "su"

krş. Hr. *su*; (Tekin, 2003: 252; Caferoğlu, 1968: 211; Üşenmez, 2006: 370; Toparlı vd., 2014: 242-243; MTAD16: 277; Cihan, 2021: 566).

b		ET.	E. Uyg.	Krh.	Hrz.	Kıpç.	Çağ.	EOT
	Ön Seste	b	b, m	b, m	b, m	b, v, m	b, m	b, v, m, Ø
	İç Seste	b	v, b	w, v	w, v	b, v	v	v
	Son Seste	b,	Ø, v	Ø, v, w	w	Ø, v	v	Ø, v

3. Karluk Grubu Türk Lehçelerinde /b/ Sesinin Görünümü

/b/ sesi Karluk grubu Türk lehçelerinde ön seste kimi kelimelerde korunmuş, kimi kelimelerde ötümsüzleşmiş, kimi kelimelerde ise süreklileşmiştir.

3.1. Korunma

b > b

ET *bar*

Özb. *bâr*; Uyg. *bar* "var, varlık" (Tekin, 2003: 239; Yusuf, 1993: 169; Kurban, 1995: 30).

ET *bar-*

Özb. *bâr-*; Uyg. *bar-* "varmak" (Tekin, 2003: 239; Yusuf, 1993: 169; Kurban, 1995: 30).

ET *ber-*

Özb. *ber-*; Uyg. *ber-* "vermek" (Tekin, 2003: 240; Yusuf, 1993: 171; Kurban, 1995: 35).

ET *bir*

Özb. *bir*; Uyg. *bir* "bir (1)" (Tekin, 2003: 241; Yusuf, 1993: 22; Kurban, 1995: 43).

ET *biz*

Özb. *biz*; Uyg. *biz* "biz" (Tekin, 2003: 241; Yusuf, 1993: 23; Kurban, 1995: 45).

ET *bulut*

Özb. *bulut*; Uyg. *bulut* "bulut" (Tekin, 2003: 241; Yusuf, 1993: 24; Kurban, 1995: 52).

ET *beş/ biş*

Özb. *beş*; Uyg. *beş* "beş" (Tekin, 2003: 240; ÇTL2: 67; ÇTL2: 136).

ET *bol-*

Özb. *bol-*; Uyg. *bol-* "olmak" (Tekin, 2003: 241; Yusuf, 1993: 123; Kurban, 1995: 47).

3.1.1. Ötümsüzleşme

b > p

ET *biş-*

Özb. *piş-*; Uyg. *piş-* “pişmek, olgunlaşmak” (Tekin, 2003: 241; Yusuf, 1993: 132; Kurban, 1995: 323).

ET *biç-*

Özb. *biç-*; Uyg. *piç-* “biçmek” (Tekin, 2003: 240; Yusuf, 1993: 21; Kurban, 1995: 322).

ET *bıçak/ biçek*

Özb. *piçâk*; Uyg. *piçak* “bıçak” (Gabain, 2000: 268; Yusuf, 1993: 21; Kurban, 1995: 322).

3.1.2. Süreklileşme

b > m

ET *ben/men*

Özb. *men*; Uyg. *men/ meñ* “ben” (Tekin, 2003: 240; Yusuf, 1993: 20; Kurban, 1995: 267).

ET *bäñü/ bänğü/ bänigü/ bänkü*

Özb. *mangu*; Uyg. *meñgü* “sonsuz, bengi” (Tekin, 2003: 240; Yusuf, 1993: 258; Kurban, 1995: 267).

ET *bin-/min-*

Özb. *min-*; Uyg. *min-* “binmek” (Tekin, 2003: 250; Yusuf, 1993: 264; Kurban, 1995: 273).

ET *buñ*

Özb. *mung*; Uyg. *muñ* “üzüntü, tasa, dert” (Tekin, 2003: 242; Üşenmez, 2016: 275; Kurban, 1995: 279).

ET *biñ, miñ, biñ*

Özb. *ming*; Uyg. *miñ* “bin (1000)” (Tekin, 2003: 241; Yusuf, 1993: 22; Kurban, 1995: 273).

3.2. İç Seste

/b/ sesi Karluk grubu Türk lehçelerinde iç seste ötümsüzleşme ve süreklileşme örneği göstermektedir.

3.2.1. Ötümsüzleşme

b > p

ET *ķabar-*

Uyg. *ķapar-* “kabarmak”

krş. Özb. *ķāvâr-* (DLT: 673; Üşenmez, 2016: 383; Kurban, 1995: 220).

ET *öbke*

Uyg. *öpke* “öfke” (Tekin, 2003: 251; Kurban, 1995: 306).

3.2.2. Süreklileşme

b > v

ET *yabız*

Özb. *yāvuz*; Uyg. *yavuz* “kötü, fena” (Tekin, 2003: 257; Üşenmez, 2016: 505; Kurban, 1995: 462).

ET *ķabar-*

Özb. *ķāvâr-* “kabarmak”

krş. Uyg. *ķapar-* (DLT: 673; Üşenmez, 2016: 383; Kurban, 1995: 220).

ET *avla-*

Özb. *ovla-* “avlamak”

krş. Uyg. *olimağ* (Tekin, 2003: 237; Yusuf, 1993: 15; Kurban, 1995: 295).

ET kabış-

Özb. *qâvuş-*; Uyg. *kaçuş-* (Tekin, 2003: 245; Yusuf, 1993: 91; Kurban, 1995: 227).

ET yalbar-

Özb. *yâlvâr-*; Uyg. *yalvur-* (Tekin, 2003: 258; Yusuf, 1993: 173; Kurban, 1995: 457).

b > y

ET tebe/ tebi

Özb. *tuya* "deve"

krş. Uyg. *töge* (Tekin, 2003: 253; Yusuf, 1993: 38; Kurban, 1995: 423).

3.3. Son Seste

/b/ sesi Karlık grubu Türk lehçelerinde son seste süreklileşme ve düşme örneği göstermektedir.

3.3.1. Süreklileşme

b > v

ET sub

Özb. *suv* "su"

krş. Uyg. *su* (Tekin, 2003: 252; Yusuf, 1993: 147; Kurban, 1995: 364).

ET ab

Özb. *ov* "av" (Tekin, 2003: 237; Yusuf, 1993: 15).

b > y

ET eb

Özb. *uy*; Uyg. *öy* "ev" (Tekin, 2003: 242; Yusuf, 1993: 49; Kurban, 1995: 309).

ET seb-

Özb. *suy-*; Uyg. *süy-* "sevmek" (Tekin, 2003: 252; Üşenmez, 2016: 441; Kurban, 1995: 370).

3.3.2. Düşme

b > Ø

ET sub

Uyg. *su* "su"

krş. Özb. *suv* (Tekin, 2003: 252; Kurban, 1995: 364; Yusuf, 1993: 147).

b		Özb.	Uyg.
	Ön Seste	b, p, m	b, p, m
	İç Seste	v, y	p, v, g
	Son Seste	v, y	y, Ø

Karlık grubu Türk lehçelerinde /b/ sesinin görünümü

SONUÇ

Sonuç olarak tarihî ve çağdaş Türk lehçelerinde ön seste, iç seste ve son seste bulunan /b/ sesinden hareketle;

Tarihî Türk lehçeleri ve Karlık Türk lehçelerinde en çok görülen ses değişimi süreklileşme, en az görülen ses değişimi ötümsüzleşme olmuştur.

Tarihî Türk lehçeleri ve Karlık Türk lehçelerinde ön seste /b/ ünsüzü yer yer korunmaktadır. Türk lehçelerinde ön seste b~p~m~v denkliğinin yaşandığı

görülmektedir. Bu değişimlerin dışında ön sesteki /b/ sesi genel anlamda korunmuştur. Ön seste b > m ses değişimini tespit edilmiştir. Ön sesteki b > m ses değişimi şartlı bir değişimdir. Kelime içerisinde bulunan n, m, ñ ünsüzlerinin etkisi ile /b/ ünsüzünün m'ye dönüşmektedir. Türkçede ön seste asli bir /p/ ünsüzü bulunmamaktadır. /p/ ünsüzü b~p~m~v denkliği ile ön seste görülmektedir.

3. Tarihî Türk lehçeleri ve Karluk Türk lehçelerinde son seste en çok süreklileşme ve düşme örneği görülmektedir. Süreklileşme örneklerinin çoğunluğu b>v/ w ses değişimiyle oluşmaktadır. Düşme örneği ise en çok ET "sub" kelimesinin sonunda yer alan /b/ ünsüzünün düşmesi ile görülmektedir. ET "ben/men" kelimesini tarihî Türk lehçelerinin hepsinde m"li, Karluk Türk lehçelerinde de m"li şekli kullanılmıştır. Kelime içinde yer alan /n, ñ/ seslerinin etkisi ile ön sesteki /b/ ünsüzü /m/ olmuştur. ET "biñ" kelimesini tarihî lehçelerin hepsi m biçiminde de görülür.

Lehçe ve Ağız Kısaltmaları

Çağ. : Çağatay Türkçesi

EOT: Eski Oğuz Türkçesi

ET. : Eski Türkçe

E. Uyg. : Eski Uygur Türkçesi

Hrz. : Harezmi Türkçesi

Krh. : Karahanlı Türkçesi

Kıpç. : Kıpçak Türkçesi

Özb. : Özbek Türkçesi

Uyg. : Yeni Uygur Türkçesi

Kaynaklar:

Alkaya, E. (2014). *Mişer Tatar Türkçesi*. Kesit Yayınları.

Argunşah, M. (2021). *Çağatay Türkçesi*. Kesit Yayınları.

Argunşah, M. ve Sağol Yüksekaya, G. (2016). *Karahanlıca Harezmi, Kıpçakça Dersleri*. Kesit Yayınları.

Caferoğlu, A. (1968). *Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü*. TDK Yayınları.

Çiğ, Ö. (2013). Süheyl Ü Nev-Bahâr (Metin-Aktarma, Art Zamanlı Anlam Değişimleri, Dizin); Yüksek Lisans Tezi.

Cihan, S. (2021). *Mukaddimetü'l-Edeb (Yozgat Nüshası)-(Giriş, Metin, Notlar, Sözlük-Dizin)*; Doktora Tezi.

Hadi, B. (2005). *Çağatay Azerbaycanca Sözlük*. Tebriz.

Karaağaç, G. (2015). *Türkçenin Ses Bilgisi*. Kesit Yayınları.

Karaca, V. İ. (2022). *Çağdaş Türk Lehçelerinde Ünsüzler*; Yayınlanmamış Doktora Tezi.

Kúnos, I. (1902). *Šejx Sülejman Efendi's Çağatay-Osmanisches Wörterbuch 1 ve 2*. Budapest.

Kurban, İ. (1995). *Yeni Uygur Türkçesi Sözlüğü*. TDK Yayınları.

SHAHGOL, Nasser Khaze, YAGHOOBİ, Valiollah, AGHATABAİ, Shahrouz. (MTAD16).

Tekin, T. (2003). *Orhun Türkçesi Grameri*. TDK Yayınları.

- Toparlı R., Vural H. ve Karaatlı R. (2014). *Kıpçak Türkçesi Sözlüğü*. Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Üşenmez, E. (2006). *Karahanlı Türkçesi Sözlüğü*; Yüksek Lisans Tezi.
- Üşenmez, E.; Boltabayev, S. ve Tuğlacı, G. (2016). *Özbekçe-Türkçe Sözlük*. Türk Dünyası Vakfı.
- Yusuf, B. (1993). *Türkçe-Özbekçe ve Özbekçe-Türkçe Sözlük*. Ziyouz Kutubxonasi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA ZAMONAVIY ADABIYOT

Hasanov Shavkat,
filologiya fanlari doktori,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori,
Ro‘ziqulova Dilbar,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU magistranti

HOZIRGI SHE’RIYATDA BOBUR OBRAZI TALQINLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan zamonaviy dostonlar tahlil qilingan. A.Mahkam, T.Nizom, S.Sayyidlar talqinidagi Bobur timsolining tarixiy haqiqatga nechog‘lik muvofiq kelishi, bu asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda ijodkorlarning poetik mahorati masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: “Boburnoma”, shoh va shoirlik rutbasi, poetik mahorat, ijodkor “men”i, tarixiy haqiqat, individual uslub, badiiy tafakkur, postmodernizm va intermatn, mumtoz mohiyat, ijodkor dunyoqarashi.

Abstract: This article analyzes modern epics dedicated to Zahiriddin Muhammad Babur. Attention is paid to the compatibility of the image of Babur with historical reality in the interpretation of A.Mahkam, T.Nizam, S.Sayyid, the ideological and artistic features of these works, and the poetic skill of the creators.

Key words: “Baburnama”, royal-poetic rank, poetic mastery, creative “I”, historical truth, individual style, artistic thinking, postmodernism and intertext, classical essence, creative worldview.

Shohlik va shoirlik rutbalari qismatiga bitilgan shaxslarning hayot yo‘li oson kechmaganligi tarixdan yaxshi ma‘lum. Vujud bilan ruhning, aql bilan tuyg‘uning munozara-yu mojarosini shohlik va shoirlikka ham nisbat berishadi. Chunki shohlik hukmronlikni, shoirlik hurlig-u erkni istaydi. Taqdiri azal qalbiga shoirlik iqtidorini berib boshiga davlat tojini kiydirgan ulkan shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

“Boburnoma” ning 1501-1502-yili voqealarida shoir shunday deb yozadi: “Bu olamda o‘tgan vaqoi tush va xayoldek ko‘zumga va ko‘nglumga ko‘rinar va kechar edi”. Voqelikning tush va hayol sifatida jilvalanishi ijod ahli uchun oliy in‘om, Tangri inoyati.

Hazrat Navoiy amirlikdan voz kechib, o‘zlarining adabiy orzularini amalga oshirishga imkon topganlar, biroq saltanatdorlik udumlariga ko‘ra Boburda “bir sorig‘a boshin olib ketish” imkoniyati yo‘q edi. Shu bois “Boburnoma” da shoxlik va shoirlik taloshi aro iztirob va hasratga to‘lgan qalbning ingroqlarini, nolalarini tinglaymiz. Hazrat Navoiy temuriylar tamaddunining eng yorqin yulduzi bo‘lsa, Bobur shu saltanat tanazzulga yuz tutgan davrning porloq yulduzi edi.

Badiiy asarlarga adabiy-estetik munosabat bildirilgan, sharhlar bitilgan, izohlar berilgan ijod namunalari adabiyot tarixidan yaxshi ma‘lum. O.Matjonning

hazrat Navoiy dostonlaridan ta'sirlanib yozgan dostoni, U.Azimning "Xamsaga tatabbu" turkumi, Faxriyorning "Rumiyona"si va boshqalar shular jumlasidan. Shular singari S.Sayyidning "Xamsa" hayratlari" mutafakkir shoirning dostonlari, "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" "Boburnoma" ta'sirida yaratilgan o'ziga xos dostonlardir. O'zga asarlar ta'sirida yaratilgan, ulardan iqtiboslar keltirilgan, obraz va syujetiga havola va imo-ishora qilingan asarlar postmodern adabiyotda intermatn deb ataladi. Ana shu intermatnlilik tufayli S.Sayyid "Boburnoma" dagi hayratlar, voqealar, kechinma va obrazlarni yangicha talqin qiladi, ya'ni Bobur talqinlarining yangicha badiiy versiyasini yaratadiki, mazkur doston ana shu jihatlari bilan ma'rifiy va estetik qiymat kasb etadi. Mazkur asarning yuzaga kelishiga Bobur ijodi va hayotidagi eng nozik nuqtalari – xotiralar, o'y-kechinmalar, bayt, misra va ruboiylar asos qilib olinganligini muallifning o'zi ham ta'kidlab o'tadi. Doston turli lirik janrlar – universal she'r, g'azal, ruboiy, muxammas kabilardan tashkil topgan bo'lib, goh Bobur, goh lirik qahramon tilidan insho etiladi. Chunonchi, Boburning

Zulfing cherigini yig'ki, jami

Bu fitnadin asru quzg'olibtur, - misralari S.Sayyid tomonidan quyidagicha davom ettiriladi:

Bir tup sochlaringga chirmosh bo'lsaydim,

Xol-u labing birla tutosh bo'lsaydim.

Dunyo cherigini mag'lub aylabon,

Zulfing cherigiga talosh bo'lsaydim. [Sayyid S., 2023: 269]

Shu tariqa Bobur olamiga yangi safar boshlanadi. Ushbu dostonda barhayot an'analarning navatorona talqinlarini ko'ramiz. Asar tarkibidan o'rin olgan har bir she'r "Boburnoma" dan olingan muayyan epigraf bilan boshlansa-da, unda Boburning dunyoqarashi, she'r ohangi saqlanib qolingan bo'lsa-da, S.Sayyid unda o'zining ko'ngil kechinmalarini tamomila original usulda yarata olishga erishgan, shuningdek, asarning kompozitsion tuzilishi ham o'ziga xosligi bilan e'tiborni tortadi. Asarning nomlanishi bejizga "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur..." deyilmagan. Bu birinchidan, Mirzo Boburning satri, ikkinchidan S.Sayyid "Boburnoma"dan olgan hayratlarini yuzta she'r ko'rinishida ifoda etadiki, ushbu asarni o'qigan kitobxon Bobur va zamondosh shoirimizning e'tibori va e'tirofini topgan yuzlab kayfiyatlar, kechinmalar, hayratlar tajassumini his qiladi.

To'lan Nizom dostonchilik borasida katta tajribaga ega. Uning "Cho'lpon, "Girya" asarlari istiqloq davri o'zbek dostonchiligida o'ziga xos mavqeyiga ega. Zamonaviy dostonchilikning muhim fazilatlaridan biri – ularda epiklik usullariga kechinmalar eshligining jo'r etilayotganidadir. To'lan Nizomning "Uch so'z" dostoni 1995-yilda yozilgan bo'lib, Zahiriddin Boburning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. "Uch so'z"ning kompozitsion tuzilishi ancha murakkab. Unda dramatik dostonlarga xos dialogni ham, lirik dostonlarga xos kechinmalar ifodasini ham, epik dostonlarga xos voqeabandlikni ham uchratish mumkin. Lekin dialoglarda dramatik dostonlarga xos keskinlik va taranglik yetishmaydi, muallif o'zining shoirlik iqtidorini harchand ishga solmasin, lirik manzaralarda tabiiylik va jo'shqinlik sezilmaydi, asarning umummatiga singib ketmaydi. Bularning bari liro-

epik tasvir o‘rnini voqeanavislik, tarixnavislik egallaganligi uchun yuzaga keladi. Dostonning jiddiy kamchiligi shundaki, unda epik asarlarga xos bo‘lgan prozaizm o‘zga tasvir usullarini bosib tushadi. Asar uchun tanlab olingan voqelik qahramonlar xatti-harakati orqali emas, muallif nutqi orqali reallashadi. Asosiy voqealarning aksariyat qismi muallif nutqi va uchinchi shaxslar tilidan hikoya qilib berilishi natijasida 2-shaxs, ya’ni Mirzo Boburning ruhiyat manzaralari, undagi qarama-qarshiliklar, dunyoqarashida yuzaga kelgan o‘zgarishlar silsilasi tasviriga ehtiyoj sezilmaydi. Shu bois “hayot prozasi” asar ruhiga o‘z hukmini o‘tkazadi. Bobur nutqiga o‘rin ajratilgan she’riy parchalarda ham epik turga xos batafsillik, voqeabandlik davom etadi.

To‘lan Nizom dostonchilik borasida katta tajribaga ega ijodkor. Uning qator she’riy qissa va dostonlari iliq kutib olindi. Biroq “Uch so‘z” dostoni xususida bunday deyish qiyin. “Uch so‘z” da ham T.Nizom boshqa dostonlarda bo‘lgani kabi turli she’riy shakllardan foydalanadi. Ammo doston markazida turgan syujet voqealari tarix elagidan o‘tgan hodisalarning quruq bayoni bo‘lib qolgan.

Bir mavzuga bir qancha ijodkorlar murojaat qilishi mumkin. Lekin har bir asar o‘zicha betakror bo‘lmog‘i, mavzuning boshqalar ilg‘amagan qirralarini kashf etmog‘i lozim. To‘g‘ri, dostonda ayrim-ayrim hollarda uchrab turadigan ajoyib lirik kayfiyat tasvirlari mavjud, biroq bu tasvirlar mustahkam asosga ega bo‘lmagan voqealarning sayozliklarida yo‘qolib ketadi. Har qanday badiiy asar ehtiros va samimiyat mahsuli bo‘lgandagina kitobxon qalbiga yo‘l topadi. Bizningcha, “Uch so‘z” dostonidagi poetik asos shoir qalbida yetilmasdan yozilgandek taassurot qoldiradi. Shu bois asardagi ob’ektivlashtirilgan xarakterlarning xatti-harakatida, o‘ylarida sun’iylik, zo‘rma-zo‘rakilik seziladi.

Shoir dostonda Boburning Afg‘onistondagi hayotiga Bubna ismli qiz bilan bog‘liq bir rivoyatni keltirib o‘tadi. Asarning ancha qismnini egallagan bu tasvir axborot tarzida yozilgan maqolaga o‘xshab ketadi. Cho‘pchaknamo bu tasvir o‘rniga shoir Bobur ruhiyati manzaralariga e’tibor qaratganda, asar emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lardi.

Xush keldingiz, aziz mehmon,
Sizni kutib ko‘z nigoron,
Quchoq ochur ahli afg‘on,
Qadamingiz bosh ustina [Nizom T., 1998: 226]

Afg‘on xonining qizi Boburni mehmon sifatida kutib olishi asarda bachkanalikni, yolg‘onni vujudga keltiradi. “Agar shoir Tarixga, Xronologiyaga, Geografiyaga ochiqdan-ochiq qarshi borsa, bu uning o‘zi yaratgan san’atiga qarshi borganligidir. Bu shoirning asari uchun halokat demakdir. Muxlislar bu holni shoirni umuman hurmat qilmaganliklaridagina kechirilishi mumkin”. [Лесин, В.М., Пулинецъ О.С., 1971: 149] “Badiiy asarda bosh qahramon asarning bosh g‘oyasi va umumiy ruhini pafos darajasida ushlab turishi lozim. Yo‘qsa, asar pafosiga ham, qahramon jozibasiga ham putur yetadi”, - deb yozadi adabiyotshunos B.Nazarov. [Nazarov B., 1979: 215]

Asardagi poetik g‘oyaning pishib yetilmaganligi dostonning lisoniy qurilishiga ham o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Maloli kelmasin, aziz o‘quvchim,

Bul bobni o‘rtacha insho aylasam, - [Nizom T., 1998: 220]

deb, shoirning o‘zi ham asarning quruqroq chiqayotganligini payqaydi. Dostonda na adabiy til, na poetik til qurilishiga muvofiq kelmaydigan g‘aliv jumlar bisyor. “Bobur qutqarildi yomon ahvolda” [Nizom T., 1998: 217], “Odamlarning bo‘yin bukdi” [Nizom T., 1998: 206], “Kosoniy hayrat qildi” [Nizom T., 1998: 207], “Hamma bilsun sirr-u asrorga” [Nizom T., 1998: 202], “Samarqandan keldi darak, Samarqandga hujum kerak” [Nizom T., 1998: 202] kabi qator omonat misra va jumlar yosh boshlovchi ijodkorning xomaki mashqlarini yodga soladiki, oqibatda asardagi xarakter qiyofalari ham xiralashadi.

T. Nizom Bobur hayotini to‘la qamrab olishga intilganligi bois bo‘lsa kerak, syujet voqealari tarqoq holda namoyon bo‘ladi. Boburning biografiyasi ko‘p va xo‘p yozilgan, uni jiddiy janr bo‘lgan dostonda qayta bayon etishning hojati yo‘q. Boburning hayoti va ijodi “oliy ehtiroslar qurshovida aks ettirishga” arzigulik faktlarga boy. To‘lan Nizom ana shu faktlarni saralab, yagona bir o‘zanga solganida Bobur haqida yangi bir doston yuzaga kelardi.

Asqar Mahkam dostonlarida liro-dramatizm yetkachi tasvir usuli hisoblanadi. U “hayot prozasi”ga yo‘l qo‘ymagani holda, voqelikning dramatik nuqtalariga lirik harorat bag‘ishlaydi. A.Mahkam dostonlarida dramatik kayfiyatlar lirizm vositasida, lirik kechinmalar esa dramatik holatlar silsilasidan o‘sib chiqadi. Bu ikki tasvir usuli shoir dostonlarida bir-birini to‘ldirib, boyitib boradi. Hayot voqea-hodisalari hamda insoniy munosabatlarning past-balandini, murakkabligi va ziddiyatlarini falsafiy tafakkur sintezidan o‘tkazish o‘z mohiyat-e‘tibori bilan liro-dramatik tasvir birligini talab etadi.

“Tavajjuh” dostoni Bobur hasratlariga doir. Bu hasratlar ruhning poyonsiz sarhadlaridan, ko‘ngilning tub-tublaridan sizib chiqadi.

Tun kechar. Yulduzlar xira va sovuq –

Ayozli tonglarning taqaddus bodi,

Bir yonda-gunohlar, bir yonda-armon,

bir yonda Vatanning a‘zosi, yodi... [Mahkam A., 1998: 258]

Voqelikning dramatik suvratlari ko‘ngil hasratlari ko‘zguna jonalana boshlaydi. O‘zga yurtda shoh bo‘lishdan ko‘ra o‘z yurtida gado bo‘lishni afzal ko‘rgan Bobur uchun Vatan yodi mukarram. Shu bois yulduzlar xira va sovuq ko‘rinadi, ayozli tonglardan sovuq bod taraladi, gunohlar va armonlar qalb mehrobiga bosh qo‘yadi. Hayotiy mantiq bilan dalillangan bu liro-dramatik kayfiyat keyingi misralarda yanada avj oladi.

Lovullar oy aro falak dog‘lari,

sirg‘alar bulutlar uzra bir tobut.

Poyida daryolar yutmishdir o‘lib,

ustida yaraqlar qo‘rg‘oshin sovut.

Qamishzor chayqalar lashkargoh kabi,
Qoniga belanib kuylaydi azal.
Ko‘z yoshlar sizilib oqqan jismdan
tikilar sipohlar yozmishi-ajal... [Mahkam A., 1998: 258-259]

Bu liro-dramatik tasvir zamirida butun boshli romanga asos bo‘la oladigan syujet yastanib yotibdi. Liro-dramatik tasvirlar qo‘shiluvining sharofati tufayli epopeyalar uchun mavzu bo‘la oladigan voqelik ixcham satrlarga jo bo‘ladi. Shu sabab so‘nggi yillarda shoirlarimiz bu tasvir usulidan samarali foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Yuqoridagi she‘riy parcha o‘z holicha faqat lirik emas, yo faqat dramatik emas. Metaforik tafakkur narsa va buyumlarga jon ato etar ekan, biz oy shu‘lalariga belanib lovullab borayotgan falak dog‘larini, bulutlar uzra sirg‘alib borayotgan tobutlarni, bu tobutlar poyida yotgan o‘lik daryolarni, qo‘rg‘oshin sovut yanglig‘ qotib qolgan daryo sirtini ko‘rgandek bo‘lamiz. Qamishzor shunchaki qamishzor emas, bu o‘lim sari yuzlangan lashkarning qarorgohi, taqdiri azal har kungi qo‘shig‘ini shunchaki takrorlayotgani yo‘q, u o‘z qoniga belanib kuylayapti, ko‘z yoshlardan namiqqan sipohlar jismidan qismat yozig‘i – ajal boqib turibdi.

Bobur monologi sifatida yangraydigan “Tavajjuh” tili muallif nutqining polifonik ko‘rinishidir. Bobur ruhidagi g‘alayon, tuyg‘ular taloshi shaxs va taqdiri azal munosabati tarzida ro‘yobga chiqadi.

Topmadim, ey, Bobur, na biror odam,
Na Vatan, na mozor, na yor-u mehr...
Yo, tangrim, iymonni salomat qilgil,
Yo, tangrim, oson qil, o‘zing madad ber!.. [Mahkam A., 1998: 255]

“Men” bilan boshlanib “men” bilan poyoniga yetadigan kechinmalarning tizimi muallifning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini tushunishga imkon beradi. Asarning biror satrida epiklik unsurlari uchramaydi, barcha misralar ruhiy kechinmalar tahliliga qaratilgan. Biz ana shu kechinmalar tahlili vositasida voqelikdan ogoh bo‘lamiz.

Lirik “men” asosiga qurilgan dostonlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda turli davrlar, zamonlar, xalqlar tarixi birlashib ketadi, yuz yilliklar, ming yilliklar yagona nuqtaga jam bo‘ladi. Lirik qahramon go‘yoki insoniyat tarixining markazida turgandek taassurot qoldiradi. U barcha voqea-hodisalarga “aralashadi”, o‘zi ham ishtirok etayotgandek xulosa qoldiradi. O‘z qalbi va ongida bong urayotgan tarixiy voqea-hodisalarni chamalaydi, o‘lchaydi, xulosa-saboqlar chiqaradi, muayyan umumlashmalarga keladi.

Asqar Mahkam Boburni shakllantirgan diniy va tasavvufiy ilmlardan yaxshi ogohlighi, Bobur asarlari va dunyoqarashidan xabardorligi bois shoh va shoir Boburning xarakterini izchil va mantiqiy ochib berishga erishgan.

Ma‘lumki, har yetuk asarda qahramon nutqidan uning kasb-kori, duyoqarashi, yoshi, jinsi, jamiyatda egallab turgan mavqei anglashilib turadi. Jumladan, “Tavajjuh”da ham aytilayotgan har bir so‘z, fikr, misra faqat va faqat Boburga

xosligi sezilib turadi. Bobur o‘ylari vositasida muhit shafqatsiz tahlil etilar ekan, unda Bobur va muallif qarashlari yaxlitlik kasb etadi.

“Tavajjuh”da Bobur ruhiyati keng ko‘lamda izchil va mantiqan o‘z ifodasini topadi. Asqar Mahkam Bobur hayoti va faoliyatining tarixiy sanalariga emas, balki uning psixologiyasiga, ruhiyat manzaralariga e’tibor qaratadi.

Topmadim, qonimga belanib ilkimni,
Artaman ko‘ksimdan ishqing dog‘larin.

As‘hoblar jasadin chuqurlarida,

Chumoli izlaydi dil ushoqlarin. [Mahkam A., 1998: 254]

Boburning barcha lirik asarlarida, “Boburnoma”da insoniy dard va iztirob, inson qismatining chigalliklari, mahzun ko‘ngilning samimiy izhori balqib turadi. Shu ruh, shu pafos “Tavajjuh” dostoniga ko‘chgandek taassurot qoldiradi, shoh va shoir Boburning ruhi bezavoli tilga kiradi, xarakterining yangi-yangi qirralari ochiladi.

“Tavajjuh”dagi Bobur timsolida bandalikka bo‘ysungan aftoda shoh, umrning oniy kayfiyat yanglig‘ omonat, ajoyib tush misol o‘tkinchiligini anglab yetgan shoir, kuloh, kachkul va chorig‘idan bo‘lak hech vaqosi bo‘lmagan darvish, insoniyat tarixiga tafakkurning sovuq ko‘zlari bilan boqayotgan faylasuf, judoliklar va ayroliqlardan zada va ozurda bo‘lgan ko‘ngil faryod chekadi, nola qiladi, tavallo etadi, o‘tinadi, o‘kinadi.

Yo, Rabbii, tog‘larning qorlari kuysin,

Buloqlar charaqlab oqsinlar kuyi.

Kushxona poyida yashagan itdek,

Boburing bu olam haqqidan to‘ydi. [Mahkam A., 1998: 258]

“Tavajjuh” asos e’tibori bilan lirik doston bo‘lsa-da, unda Bobur o‘ylarining, andishalarining, kechinmalarining epik va dramatik keng qamrovliligi asar tabiatini tayin etadi. “Tavajjuh” dostoni shaklan lirik, mazmunan dramatik, mantiqan epikdir.

Lirik turning lakonik xususiyati, ko‘chma ma’no tashuvchi badiiy tasvir vositalarining faol qo‘llanishi, mazmunning salmoqdorligi, asar syujeti uchun dramatik asosning tanlanishi dostoniga alohida shukuh bag‘ishlagan, Bobur Mirzoning betakror xarakterini tiklashga imkon bergan.

Adabiyotimizda Bobur haqida anchagina prozaik asarlar yozildi. Bu asarlarning yaratilishida “Boburnoma”, “Humoyunnoma” kabi memuar bitiklar muhim manba vazifasini o‘tadi. Biroq Boburning lirik siymosi ilk bor “Tavajjuh” dostonida o‘zining ravshan ifodasini topdi.

J.Neru aytganidek, Bobur dilbar shaxs. Bu shaxsning dilbarligini ko‘rsatish ijodkordan katta mehnat talab qiladi. Bobur haqda yo‘l-yo‘lakay yozib bo‘lmaydi. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan uchala doston ham buni ko‘rsatib turibdi.

Albatta, dostonnavislikdagi va boburshunoslikdagi ijodda muvafaqqiyatlar bilan birga kamchiliklarning ham bo‘lishi tabiiy hol. Bu kamchiliklar ham kelgusidagi ishlarda saboq vazifasini o‘tasa, ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davronova M.I. Hozirgi she'riyatda individual uslub poetikasi. Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 224 bet.
2. Hasanov Sh. O‘zbek dostonlari badiiyati. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2023. – 208 bet.
3. Лесин, В.М., Пулинецъ О.С. Словник литературознавчих терминив. – Киев: Радянська школа, 1971. -487 с
4. Маҳкам А. Ҳақ. Сайланма. – Душанбе: Адиб.1998. - 512 б.
5. Назаров Б. Давр ва қаҳрамон // Ўзбек адабий танқидчилиги. – Т.: Фан. – 1979, - Б. 199-215.
6. Низом Т. Сайланма. Шеърлар, дostonлар, рубоийлар. – Т.: “Шарқ”, 1998. - 384 б.
7. Саййид С. Вақт ҳайкали: дostonлар, – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2023. – 418 б.

Nosirov Azmiddin Normamatovich,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori,
filologiya fanlari doktori

BOBUR SHOH IZTIROBLARINING BADIY TALQINI

Annotatsiya. Tarixiy shaxslar siyosini badiiy talqin etuvchi turli mavzu va janrdagi asarlar mavjud bo‘lib, bularning mohiyatida shaxs va davr muhitining talqinlari etakchilik qiladi. Shu jihatdan, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ijodi, tarix sahifalaridagi faoliyatini badiiylik, tarixiylik jihatdan talqin etgan asarlarga umumiy tarzda tahliliy yondoshilgan. Bu asarlarning tarixiy, biografiyaviy talqinlarida shaxs ifodasining turli qirralariga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: badiiylik, tarixiylik, haqiqat, mahorat, istirob, talqin.

Annotation. There are works of various themes and genres that artistically interpret the figures of historical figures, and the interpretations of the person and the environment of the time lead in their essence. In this respect, the works that interpret the life, work, and activities of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur in the pages of history from an artistic and historical point of view are generally analytically approached. In the historical and biographical interpretations of these works, various aspects of personality expression are expressed.

Key words: artistry, historicity, truth, skill, passion, interpretation.

Dunyo xalqlari jahon sivilizatsiyasiga juda ulkan hissa qo‘shgan bo‘lsa, bu ko‘hna Turon zamini ham buyuk allomalarning yaratgan asarlari bilan jahoniy shuhrat topdi bu taraqqiyotga betakror hissa qo‘shganligi alohida qayd etilmoqda. Bu o‘lka buyuk allomalarni, qomusiy olimlarni, adabiyot va san’at taraqqiyotida

betakror o‘ringa ega bo‘lgan o‘nlab shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazgan. Mustaqillik yillariga kelib ijtimoiy hayotimizdagi jiddiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, barcha jabhalarda islohatlar yuksak darajada amalga oshirilmoqda. Tariximizga, ma‘naviy-merosimizga bo‘lgan munosabatlar ham jiddiy o‘zgardi. Buyuk tarixiy shaxslar, tarix sahnasidagi hukmdorlar, madaniy-ma‘naviy merosimizning yorqin namoyondalarini hayoti va ijodini haqqoniy o‘rganish va tahlil etish an‘analari yuzaga chiqdi.

Iste‘dodli shoir Xurshid Davron bir o‘rinda shunday yozadi: “Bobolar tarixi ular qoldirgan meros quyoshga o‘xshaydi. Ularga peshvoz yursang, peshonang yorug‘, yo‘ling porloq, umring ibratli, ko‘zlaring nurli bo‘ladi. Agar ulardan orqa o‘girsang, faqat qora soyangni ko‘rasang, xolos”. Haqli ta‘kidlanganidek, buyuk avlodlarning qoldirgan ma‘naviy merosi, bugungi kunda hayotimizni nurafshon, qalblarimizni imon nuri bilan oziqlantirmoqda.

Sharq mamlakatlari, qolaversa, dunyo tarixida etakchi o‘rin egallagan, buyuk sarkarda, iste‘dodli so‘z san‘atkori, qat‘iy iroda egasi, boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bu buyuk siymo o‘z hayotini, tarixini, hayot yo‘lini haqqoniy tasvirlab bergan shoh va shoirdir.

Bobur-shoir tarixnavis yozuvchi, kumudor, sarkarda, sayyok tabiatshunos, aruzshunos, etnografiya olim sifatida ko‘z o‘ngimizda jonlanadi. Hindiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan, juda katta madaniy me‘rosni vujudga keltirgan Z. M. Bobur hayoti va ijodi haqida Javohirlal Ne‘ru shunday yozadi: «Bobur dunyoga ma‘lum eng madaniyatli va eng dilbar kishilardan» biri deganda o‘z davridayoq mutlaqo haq gapni qayd etgan edi. Tarixda biror hukmdor o‘zga bir yurtni o‘z tasarrufiga olib, u erda hukmronlik qilib tarix sahifalarida ijobiy baholanmagan. Ammo shoh va shoir, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solgan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nafaqat hind tarixchilari, davlat va siyosat arboblari, balki dunyo tarixchilari ham yuksak baho berganligini alohida qayd etmoq zarur.

Eron adabiyotining yirik namoyandasi, Amerkada tahsil olgan, Parijda yashab qolgan Iroj Aminiy Boburning Hindistonda Panipat jangi oldidan askarlariga qarata aytgan quyidagi fikrlarni alohida ta‘kidlaydi: “Har kimsa bu jahonga kelarkan, oxiri yo‘g‘likka ketadi, abadiy g‘oluvchi yolg‘iz Ollohdir. Hayot majlisiga kirgan odamning har biri oxir-oqibat ajal qadahidan ichadi va tiriklik manziliga kelgan har bir kishi oxiri dunyo g‘amxonasidan kechib ketadi. Yomon nomi bilan tirik tirik yurgandan, yaxshi nom bilan o‘lgan afzal. Tanri taolo bunday saodatni bizga nasib qilibdi va bunday davlatni bizga yaqin aylabdi. O‘lgan – shahid va, o‘ldirgan – g‘oziy”. Bu fikrlar zamirida achchiq haqiqat mavjud, Vatandan yiroqda, ortga qaytishga imkon yo‘q bir holati o‘z ifodasini topgan.

Hind tarixchisi L. P. Sharma 1988-yilda yaratilgan «Mo‘g‘illar imperiyasi» asarida shunday yozadi: «Bu sulola vakillari (Boburiylar nazarda tutilmoqda) Hindistonni uzoq davr mobaynida mohirlik bilan boshqarib turdi. Mamlakatning juda katta qismida siyosiy birlikni saqlab, bu ulkan imperiyaning tinchlikda gullab – yashnashini ta‘minlay oldilar. Bu sulola mamlakatga Boburdan Avrangzebgacha bo‘lgan qobiliyatli hukmdorlarni ketma – ket etkazib berib turdi... Shuningdek,

adabiyot va tasviriy san'atning har sohada o'sib rivojlanishiga rahnamolik qildilar».

Ko'riniyabdiki, bu fikrlarda Zahiriddin Muhammad Boburning etuk insoniy fazilatlari yuksak baholanishga asos bo'lgan. SHuning uchun ham Boburning tarix sahnasidagi faoliyati turli davrlarda ham ijobiy baholanganligi bejiz emas. Ana shunday buyuk siymo nafaqat hukmdor, balki, o'z hayot yo'lining murakkab va ziddiyatlarga boy bo'lgan istirobu quvonchlarini, murakkab va mashaqqatli turli xil yurishlarni, botiniy olamidagi qarama – qarshiliklarni haqqoniy aks ettiruvchi «Boburnoma» nomli asarining muallifidir.

Bobur shoh taxt tepasiga chiqqan bir davrda o'zaro ziddiyatlar juda kuchaygan, toju taxt kurashlari avj olgan bir davr edi. Qarama-qarshiliklar keskinlashgan bunday davrda Bobur shoh o'zligini va g'ururini, temuriylar saltanatini saqlab qolishga intiladi. SHuning uchun ham o'z yurtida amalga oshira olmagan bunyodkorlik ishlarini o'zga yurtlarda yuzaga chiqardi, bu esa asrlar davomida e'zozlanishi uchun asos bo'lmoqda.

O'zida shohlik, shoirlik xislatlarini mujassamlashtira olgan, ulkan qalb egasi bo'lmish Zahiriddin Muhammad Bobur hayotining asosiy qismini sargardonlikda, jang-u jadallarda o'tkazganiga qaramay, beqiyos darajadagi nodir adabiy meros qoldirgan zotdir. Mirzo Bobur tarixda, nafaqat, ulug' sarkarda va hukmdor, balki buyuk shoir, tarjimon sifatida ham nom qoldirgan. Tarixda Zahiriddin Muhammad Bobur hind xalqining iste'dodli vakillari tomonidan etuk insoniy fazilatlarga ega shaxs sifatida baholangan. Javoharlal Ne'ru bu haqida so'z yuritib: "Bobur dilbar shaxs, undanda Akbar dilbarroq shaxsdir", - deb yozadi. Bobur hayoti davomida Vatanidan olisda, Vatan hajrida hayot kechirganligi bois, ijodining aksariyat qismini Vatanga bo'lgan muhabbati, Vatan sog'inchi ifodalangan she'rlar tashkil etadi. SHuni alohida e'tirof etish lozimki, hech bir shoir, aytish joiz bo'lsa, hech bir shoh Bobur kabi Vataniga bo'lgan muhabbatini bunchalar ko'p, bunchalar go'zal kuylay olmagan. Vatan mavzusi, ayniqsa, Bobur ruboiylarida etakchi mavzulardan biri hisoblanadi:

Ko'pdin berikim, yor-u diyorum yo'qtur,
Bir lahza-u bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Sizga ma'kumki, Mirzo Bobur Vatanini tark etgach, avval Kobulda, so'ngra Hindistonda hukmronlik qiladi. Shoir shunday mamlakatning podshohi bo'lsa-da, ancha vaqtdan buyon " ...diyorum yo'qtur", -deydi. Ammo "diyor" so'zidan oldin qo'llangan "yor" so'zi tushunchaga aniqlik kiritadi. Ya'ni bu o'rinda Bobur yor deya Vatanini nazarda tutadi, boshqa bir yurt hukmdori bo'lsa-da, diyorum yo'q deydi, o'zga yurtda o'zini musofir ekanligini, bu yurt hech qachon o'ziniki bo'lolmasligini, shu sababli ham beqaror bir holatda ekanligini ta'kidlaydi. Bu erga o'z ixtiyorim bilan kelgan bo'lsam-da, o'z xohish, istagim, niyatim bilan kelmadim, ya'ni majburiyat meni bu erga olib keldi, deydi. SHohlik taomiliga ko'ra o'z vataniga qaytish istagi bo'lsa-da, ijtimoiy muhit imkon bermasligiga urg'u beradi.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z erni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
YOrab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Bobur ilk misralarda tole'sizligi joniga ko'p ozor etkazayotganligidan, qanday ish qilmasin xato bo'lib chiqayotganligidan nola qiladi. Keyingi misralarda mana shu tole'sizligi tufayli o'z yurtini tark etishga majbur bo'lishini, Hindiston tomon yo'nalganligini yuzi qaroliq, xatolig' ekanligini, zero, o'z Vatanidan ketib, o'zga yurtdan baxt izlaganligi uchun ham yuzi qarolig' deya, ta'kidlagan. Boburning Vataniga bo'lgan muhabbatining cheksiz ekanligini kuzatamiz. Bobur ijodida, ayniqsa, ruboiylarida Vatan, Vatanga bo'lgan muhabbatni kuylash katta o'rin egallaydi.

Shoir lirikasi turfa xil mavzularda yaratilgan bo'lsa-da, hasbi-hol xususiyati bilan bir qatorda, qayd qilinganidek, Vatanni kuylash, qalbdagi hasratlarni, alam-u istiroblarni, baxt va baxtsizlikni aks ettiradi. Bir-biriga zid bo'lgan shohlik va shoirlik temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Boburda mujassamlashgan edi. O'z davrining etuk shaxsi, tarix sahnasida betakror iz qoldirgan ijodkorlik bilan uzviy birlikda, Hind o'lkasida hukumdor sifatida katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Shuning uchun ham hind xalqi bilan bir qatorda dunyo xalqlarijuda yuksak darajada e'zozlaydi.

Buyuk simo obrazini yaratish an'anasi 16-asrlardan boshlangan bo'lsa-da, XX asrga kelib, yanada teranroq o'z badiiy talqinini topa boshladi. Iste'dodli ijodkor Oybek "Bobur" nomli tugallanmay qolgan dostonini 60-yillardayoq yaratishga intilgan bo'lsa, keyinchalik Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Asqar Mahkam kabi o'nlab ijodkorlar she'riyatda uning obrazini yaratdi. Ammo epik talqinda Primqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romanini yaratdi. Romanda Boburning taxt tepasiga chiqqan davrdan boshlab, umrining so'ngi lahzalarigacha bo'lgan davr talqini o'z ifodasini topgan. Asarda tarix haqiqati juda go'zal ifodasini topadi. Birgina tarixiy fakt, yozuvchiga o'nlab sahifalardagi Bobur ruhiyatini, uning psixologiyasini, xarakterini ochishga, yoritishga xizmat qilganligini kuzatish mumkin. Gulbadan Begimning "Humoyunnoma" asarida qiqa bir jumla bo'lib, u quyidagicha: "U kishi kasal yotgan vaqtida podshoh hazratlari Hazrat Murtoza Ali (xudo unga karam qilsin) mozoriga boruvchi (kishini) ko'rishni istadilar. U boruvchini chorshanba kunidan (beri) saqlar edi. O'zlari istirob va betoqatlik bilan seshanba kuni kuzatdilar. Havo nihoyatda issiq edi. Dil – jigari kuyar edi. O'sha boruvchidan, xudoyo, agar jon berish mumkin bo'lsa, menki Boburmen, umri jonimni Humoyunga bag'ishlaymen, deb duvo qilishini so'radilar. Shu kunni o'zidayoq jannat makon Hazratning toblari qochib g'oldi. Humoyun podshoh esa o'z boshlaridan suv quyib, tashqariga chiqdilar va ko'rgani kelganlarni qabul qildilar, bodshoh bobomning kasalliklari tufayli ichkariga olib kirdilar. Yaqin ikki-uch oy (kasal bo'lib) yotib qoldilar" (Humoyunnoma-39-bet). Mana shu faktga asoslangan holda Bobur shohning juda go'zal ruhiy olamini talqin etadi va kitobxonda unga nisbatan yanada kuchliroq mehrni uyg'otadi. Romanda muallif talqiniga e'tibor qarataylik:

– Hazrati oliylari ko'p tashvish chekmang, Parvordigor g'oyibdan shifo yuborgusidir, - dedi. – Tabiblardanki ish chiqmadi, endi xudo yo'lga dunyo

molidan tasaddiq qilmoq kerak. Bobur shayxulislomning gapiga tushinolmay: - Qaysi moldin? – deb so‘radi.

- Jon omon bo‘lsa javohir topilur. O‘shal... ashxas olmos yaxshi tasadduq bo‘lg‘ay. Bobur jamna ustida o‘tirganda Humoyun keltirib ko‘rsatgan olmosni esladi. – Ko‘hinurnimi? SHayxulislom tasdiq ma’nosida bosh irg‘adi. Bobur hushini bir joyga yig‘ib: Taqsir, kinga tasaddiq qilaylik? – deb so‘radi... – Murtoza Ali mozoriga, - dedi. Din yo‘liga. – Taqsir, nazaringizda o‘shal olmos azizmi yoki mening jonim aziz?.. – Undoq olmoslarning yuztasidan sizning bir mo‘yingiz azizroqdir! – Minnatdormen! Undoq bo‘lsa, men Humoyunga jahondagi barcha olmoslardan ham azizroq narsamni qurbon qilmoqchimen. Faqat bu qurbonni sizi bizga o‘xshagan bandalari emas, zarur bo‘lsa, Parvardigorni o‘zi olsin!.. E, Parvardigor! Deb iltijo qildi. Menki Boburmen, agar jon berish mumkin bo‘lsa, umri jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroyil mening jonimni olsinu xudo Humoyunga shifo bersin!”

Har ikki asarda ham Bobur o‘g‘liga kelgan og‘ir dardni, ya’ni ajalni o‘ziga oladi. Tarixiy manbadagi fakt ijodkor fantaziyasining talqiniga asos bo‘ladi. CHunki Boburshoh farzandi Humoyunga Ko‘hinurdan ham aziz jonini fido qiladi. Bu talqinlarning zamirida o‘g‘lining sog‘ayib ketishigina emas, balki – ertasini ham saqlab qolish, shayxulislom kabi din peshvolaridan bir umr asrab qoladi. Bu esa Boburning donishmandligidan, insoniyligini buyukligidan, jumradligidan, fidoiyligidan – eng asosiysi mehribon ota ekanligidan dalolat beradi.

Axir, toj-u taxt uchun Abdulatif Mirzo otasi Mirzo Ulug‘bekning o‘limiga sababchi bo‘lgan, Husayn Mirzodek hukmdor o‘z nevarasini qatl qilish farmoniga imzo chekkan buyuk bir avlodning tipik vakili sifatida Bobur shoh mutloq o‘z oilasining metin irodali shaxsi ekanligini tarixda juda ko‘p bor isbotlagan.

Xullas, etuk insoniy fazilatga ega insonni shuning uchun ham dunyo xalqlari e‘zozlashi bejiz emasligini, biz avlodlar esa asosli xulosalar chiqarishimiz zarurdir. Buyuk ajdodlarimiz merosi har bir yosh avlod uchun, uning ma’naviy kamolati uchun asos ekanligini teran anglamog‘imiz ham farz, ham qarzdur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ağga, Ferruh. Eski Türkçe kö:k tenri ve kö:k kalık İklemeleri Üzerine. Türk-bilig. İstanbul 2015.
2. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Sino-standart” nashriyoti, 2017.
3. Erhan Aydın. Orhon yazıtlarıç. Köl Tegin, Bilge Kağan, Tonyukuk, Ongi, Küli Çor. – Turkiya, İstanbul. Bilge Kültür Sanat. Basım Eylül 2018.
4. Стеблева И.В. Поэзия тюрков VI-VII веков. – Москва, Главная редакция восточной литературы. 1964.
5. Қаюмов А. Қадимият обидалари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1971.
6. Öküz, Yusuf Zıya. Tükçenin Sadeleşme Tarihi Genç kalemler ve Yeni Lısan Hareketi. TDK Yayınları. – İstanbul, Ankara. 1995.

7. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – Москва, “Нука”, Главная редакция восточной литературы. 1967.
8. Davron Xurshid. Samarqand xayoli. – Toshkent: Kamalak, 1992.
9. Шоҳ Исмил Хатойй. Найларам ул жаннати, ичинда дилдор бўлмаса. Табдил ва сўз боши муаллифлари Р.Абдуллаев, С.Ғайбуллаев. – Тошкент: “Lesson press” нашриёти, 2020.
10. Насиров А. Бадиият ва трихий ҳақиқат. Монография. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2001.
11. Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. Monografiya. – Istanbul, KESIT nashriyoti, 2019.
12. Nasirov A. **Expression of spiritual experiences in art** // International Jurnal on Integrated Education // Volume 3, Issue XI, November 2020. Impact Faktor 2020: 7.03. 181-182 str.
13. Nasirov A. **Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels** // Academicia: An International multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.
14. Nasirov A. **Feature of simbolic interpretation.** International Jurnal on Orange Technologies // Indoneziya. 2021 / Mart. 21. 71-76-betlar. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/issue/view/63> Impact Faktor-7.15.
15. Насиров А. Характер и художественная интерпретация. Образование, наука и инновационные идеи и мире. Международный научно-образовательный электронный журнал. – Фергана, Каканд, 2022. 34-37-стр.
16. Nasirov A. Turk adabiyoti. Uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston, –Samarqand, SamDU nashri, 2020.

Davronova Mahfuza,
Sharof Sharidov nomidagi SamDU professori,
filologiya fanlari doktori

PIRIMQUL QODIROV ROMANLARIDA TEMURIY MALIKALAR TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan, tarixiy asarlarga murojaat etgan yozuvchi Pirimqul Qodirov ijodini tadqiq etishga qaratilgan. Unda “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” hamda “Ona lochin vidosi” kabi tarixiy asarlar tahlil doirasiga olib kiritilgan bo‘lib, temuriy malikalarning asardagi ahamiyati o‘rganilgan. Jumladan, Qorako‘z begim, Fotima og‘a begim, Qutlug‘ nigor xonim, Eson davlat begim, Xonzoda begim, Zuhra begim, Xadicha begim, Mohim begim, Hamida begim, Gaharshodbegim singari temuriy malikalarning o‘rniga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, tarixiy shaxslar, temuriy malikalar, ijod, yozuvchi, tasvir, ruhiyat, fojia.

Annotation: This article is aimed at researching the work of the writer Pirmkul Kadirov, who left an indelible mark on Uzbek literature and turned to historical works. Historical works such as "Starry Nights", "Avlodlar Dovani" and "Mother's Falcon's Farewell" were included in the scope of analysis, and the importance of Timurid princesses in the work was studied. In particular, attention is paid to the place of Timurid princesses such as Karakozbegim, Fatima Aghabegim, Kutlug Nigorbegim, Eson Davlatbegim, Khanzodabegim, Zuhrabegim, Khadijabegim, Mohimbegim, Hamidabegim, Gaharshadbegim.

Key words: historical novel, historical figures, Timurid princesses, creativity, writer, image, spirituality, tragedy.

Pirmkul Qodirov o'zining betakror san'ati bilan kitobxon qalbini zabt eta olgan yozuvchilardan biridir. U zamonaviy asarlar yozish bilan bir qatorda tarixiy asarlarga ham murojaat etadi. Adib ijodida temuriylar davri alohida ahamiyat kasb etadi. P.Qodirov ularda XV asr voqealarini aks ettirishga harakat qiladi. Bu asarlarda ayniqsa, temuriylar davri, uning sulolasi va ular o'rtasidagi o'zaro kurashlar o'z ifodasini topgan. Yozuvchi bu davrning ziddiyatlari, tojt-taxt uchun bo'lgan kurashlar qatorida davrning tarixiy shaxslari, ularning murakkab hayoti va fojiasini yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ayniqsa, temuriy shahzodalar hayoti yozuvchini tinch qo'ymaydi. Uni yangi-yangi asrlar yozish sari undaydi. Shu sabab P.Qodirov temuriylar davrini bir emas uch asariga ham asosiy voqea sifatida kiritadi. Shu tariqa adibning bu davr va uning qahramonlariga bo'lgan chuqur ehtiromi aks etadi. Birinchi asar "Yulduzli tunlar" (hozirda "Bobur") 1974-yilda, ikkinchi asar "Avlodlar dovoni" (hozirda "Humoyun va Akbar") 1988-yilda, uchinchi asar "Ona lochin vidosi" (hozirda "Shohruh va Gavsharshodbegim") 1997-yilda nashr etiladi. Adib nafaqat temuriy shahzodalar balki o'sha davrda yashagan va mamlakat hayotining rivojiga muhim hissa qo'shgan malikalar to'g'risida ham fikr yuritadi. Ularning murakkab hayoti va fojiali taqdiri bilan kitobxonni tanishtira boradi.

"Yulduzli tunlar" asarida bir qancha malikalar xususida so'z yuritilgan. Jumladan, Qorako'z begim, Fotima og'a begim, Qutlug' nigor xonim, Eson davlat begim, Xonzoda begim, Zuhra begim, Xadicha begim, Mohim begim obrazlari yoritilgan. [Qodirov P., 1988: 488] Asarni o'qish jarayonida Qorako'z begim haqida to'liq ega bo'lmaymiz. Yozuvchi uni Umarshayx Mirzoning kenja xotinlaridan biri ekanligi to'g'risida asarning faqat boshida fikr bildiradi. Fotima og'a begim haqida esa bir oz to'xtalib, uni Jahongir Mirzoning onasi ekanligi, Jahongir Mirzo o'z akasi Bobur Mirzoga qarshi chiqishida shu ayolning roli bo'lganligi to'g'risida mulohaza yuritadi. Uni Axxi qo'rg'onidagi holati bilan ichki kechinmalarini yoritib beradi.

Adib Eson davlat begim obrazini to'liq yoritishni o'z oldiga maqsad qilmagan. Biroq bu obrazga tarixiy fatlar orqali yonashish orqali uning oila va jamiyatdagi o'rnini aniqlash mushkul emas. Adib bu malikani to'liq tasvirlamasada, biroq Umarshayx xonadonining yetakchi ayoli akliligi, u saba shoh xonadonidagi barqarorlik ta'min etilganligini anglashimiz. Mumkin. Asarda muhim o'rin tutgan malikalardan Qurlug' nigor xonim va Xonzoda begim

hisoblanadi. Qutlug' nigor xonim asarda suyuqli yor, ona, maslahatchi sifatida ifoda etiladi. Bu obraz ayniqsa, Bobur taxtga o'tirishi bilan bog'liq bo'lgan voqealarda yetakchilik qiladi. Umarshayx Mirzo falokatidan so'ng Boburga xat yuboradiki, u zudlikda yetib kelishi va taxtni egallashi lozimligi ayonlashadi. Farzandiga bo'lgan mehri unga har doim yordamlashish, maslahat kabi jarayonlarda toblana boradi. Ibrohim G'afurov "Hayotning toza ko'zgusi" maqolasida: "Pirimqul Qodirov hamma asarlarida ham inson hayotining juda katta ma'naviy-axloqiy masalalarini ko'tarib chiqadi. Lekin bu masalalarni keskin bir tarda emas, balki osoyishta, vazmin, allaqanday o'ziga xos yumshoqlik, mayinlik va nozik bir olijanoblik bilan hal qilishga intiladi, uning asarlarida hatto jiddiy qahramonlar uchun hayot-mamot masalasi bo'lgan to'qnashuvlar ham juda o'ychan va bosiqlik bilan, rahmdillik bilan hal qilinganligini ko'rish mumkin"[G'afurov I., 1978: 195]. Adabiyotshunos to'g'ri e'tirof etganlaridek, yozuvchi temuriy malikalar qiyofasi va ularning ruhiyatini yotishida ham bu usuldan voz kechmaydi. Ular hayotiga juda vazminlik bilan yondashadi.

Malikalarning fojiali hayotini esa Zuhra begim va Xadicha begim misolida tasvirlaydi. Zuhra va Xadicha begim, o'z hoyu-havaslarini barcha narsadan ustun qo'yishi bois, ular hayoti fojiali yakun topadi. Ijodkor bu bilan u xoh oddiy inson, xoh malika bo'lsin manmanlik, kibrga berilish va o'z hirsini ustunroq qo'yish alal oqibat halokatga olib kelishini mana shu ikki taqdir misolida ta'kidlagandek bo'ladi go'yo. Shu qatorda Xonzoda begim obrazi ham to'g'risida ham asarda salmoqli o'rinni egallaydi. Adib bu obrazni yoritir ekan, undagi yigitlarga xos shijoat, ukaga bo'lgan mehru sadoqat, oilaga bo'lgan muhabbat, aql-zakovatda tengsizlik, nafosatda misilsiz inson, milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassamlashtirgan shaxs sifatida gavalantiradi. Bu holatni o'z hayotini tahliliga qo'yib, Shayboniyxonga turmushga chiqib, Boburdek buyuk sarkardani avaylab-asrashi bilan izohlash mumkin. Shu orada Shayboniyxon obraziga ham e'tibor qaratishimiz lozim topiladi. Shayboniyxon temuriy malikalarning eng go'zali va eng suyuqlisiga o'ylanadi. Asarda Zuhra begim tomonida Shayboniyxonga xat ham o'rin olgan. Ushbu xatda Zuhra begim agar Shayboniyxon o'z nikohiga olsa, unga Samarqand eshiklarini ochib berishi haqidagi ma'lumot joy olgan. Shayboniyxon hiyla ishlatib, Samarqanddi egallaydi. Biroq temuriy malika bo'lgan Zuhra begimga o'ylanishdan bosh tortadi. Shayboniyxon bu malikani o'ziga munosib yor sifatida ko'rmaydi. Natijada Zuhra begim xalqiga, temuriylarga xiyonat qilganligi bois hayoti fojiali yakun topadi. "Yulduzli tunlar" asarida temuriy malika Xonzoda begim obrazi alohida ahamiyatga ega. U Ahmad Tanbal boshiga solgan ko'rguliklarga qaramay o'zini o'zligini saqlab qolgan malika sifatida xotiradan yaxshi joy oladi. Xonzoda begim aql-idroki va odamiyligi bilan asardagi boshqa obrazlardan tubdan farq qiladi. Yozuvchi bu obrazni zo'r nafosat bilan ta'riflaydi.

"Avlodlar dovoni" asarida esa Xonzoda begim, Hamida bonu, Beka begim, Chang bibi, Gulbadanbegim, Mevajon kabi obrazlarni kiritadi. [Qodirov P. 1989: 544] Bu asarda yozuvchi Hamidabonuga ko'proq o'z nazarini qaratadi. Uning ham alq-zakovatini, shijoatini, go'zallikda tengi yo'q bir qiz sifatida e'tirof etadi. Adib "Yulduzli tunlar"da Xonzoda begim chavgon o'ynaganligi haqida to'xtalib o'tadi. "Humoyun va Akbar"da ham chavgon o'yiniga yana bir bora murojaat etadi.

Yozuvchi aynan endi Xonzoda begim kabi Hamida bonuni ham bu o‘yingga ishtiyoqi baland ekanligini ta’riflab, shu o‘yin sabab Humoyun va Hamida boni o‘rtasidagi munosabatga debocha yasaydi. Yozuvchi xuddi shu o‘yin sabab Fazliddin va Xonzoda begim munosabatini kiritgan bo‘lsa, “Humoyun va Akbar”da ham adib shu yo‘lni tanlaydi. Bu ikki obrazni bir-biriga yaqinlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Bu ikki malika har jihatdan bir-biriga yaqinligini asarni o‘qish jarayonida seza boshlaymiz. Natijada esa, Xonzoda begim tanlagan kelin aynan Hamida bonu ekanligiga hech shubha qilmaymiz. Asarda Hamida bonu Humoyun sabab shahrdan-shaharga, tog‘u-adirlardan ko‘chib yurganligida ham malikalarga xos fazilatlarni saqlab qoladi. U o‘z yoriga sodiq ayol qiyofasida gavdalanadi. Faqat shugina emas, balki go‘dak Akbardan ajrab uni Mohlaroyim tarbiyasiga berganida bir necha yillar diydoriga mushtoq bo‘lib yurganida ham o‘zligidan tonmaydi. Yozuvchi bu obrazni ona va sevikli yor qiyofasida go‘zal ifoda etadi. Akbarning she’riyatga maftunkorlik, o‘z otasiga sodiq frazand hamda temuriylarga xos shijoatkor inson bo‘lib yetishida Hamida bonuning sa’yi-harakatlari beqiyos. Albatta, Humoyunning haqiqiy taxt vorisi sifatida o‘sib ulg‘ayishida ham ona tarbiyasining o‘rnini ta’kidlash joizdir.

Ona qiyofasida biz Mohim begimga ham e’tibor qratishimiz joizdir. Asarda u quyidagi holatda tasvir etiladi: “ Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marta aylanadi-yu:

- E, parvardigor! – deb iltijo qildi. – Menki Boburmen, agar jon berish mumkin bo‘lsa, umru jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroyil mening jonimni olsinu xudo Humoyunga shifo bersin!

Mohim begim yig‘idan to‘xtab, Boburga qo‘rquv aralash hayrat bilan tikilib turardi. Keksa shayxulislom esa hozirning o‘zidayoq Humoyunning sog‘ayib ketishini va Boburning holsizlanib yiqilishini kutganday ancha vaqt ota-bolaga baqrayib qarab turdi. Lekin kutilgan mo‘jiza yuz bermadi. Behush Humoyun alahlab bir nima dedi-da, yana jim bo‘ldi. Bobur boshini quyi solib xobgohdan chiqib ketdi. Unda hech qanday o‘zgarish yuz bermagani esa shayxulislomni sarosimaga soldi”. [Qodirov P. 1988: 455-456] asarda Mohim begimga u darajada katta ahamiyat qaratilmagan. Birqo mana shu tasvirda ham Mohim begimni farzandidan xavotir olayotgan ona, sevikli yori qilayotgan ishidan hayratga tushgan yor bo‘lib gavdalanadi. Mohim begimning boshiga tushgan umidsizlik uni umuman gangsitib qo‘yadi. Ollah hukmi oldida o‘zini ojiz sezadi, bu ojizlik esa asarda yig‘I aralash hayrat qiyofasida o‘z aksini topadi.

Ona obrazini P.Qodirov yana bir obrazida ifoda etadi. Bu obraz “Ona lochin vidosi” asaridagi Gavharshodbegimdir. [Qodirov P., 2001: 239] Adib bu obrazni yaratishda ko‘proq tarixiy faktlarga tayanadi. Shu sabab asarda Gavharshodbegim ruhiyati to‘la yoritilmagan. Bu haqda Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘zining “Yangilanishlar muntazamligi” maqolasida Gavharshodbegim obraziga alohida to‘xtalib, u haqda quyidagi fikrlari bayon etadi: “suyosatning o‘yinlari, taqdirning hukmi shundaki, o‘g‘il Hirotga kira olmaydi. Ona esa yolg‘iz jigarbandini poytaxtga taklif qila olmaydi. Ulug‘bek ancha qarigan, Gavharshodbegim-ku, bu dunyodan u dunyoligi yaqin. Xullas, qo‘l yetkuday joyda turgan ona-bola, o‘z istaklariga zid o‘laroq bir-birlari bilan kurisha olmaydi va sal keyin Ulug‘bek

o'ldiriladi. Mana shu tarixiy vaziyat ichida o'lgan badiiy imkoniyatlar yashiringan edi. Unda hukmdorning, insonning, ayolning, onaning fojiasi butun ko'lam bilan ko'rsatilishi mumkin edi. Asarda esa yozuvchi buni bir necha og'iz so'z bilan axborot tarzida aytib ketavergan. Holbuki, bu vojiani ichida nurlantirish, uni butun ko'lam bilan taqdiralar misolida ko'rsatish mumkin edi". [Yo'ldoshev Q., 2007: 112] Darhaqiqat yozuvchi Gavharshodbegimni o'y-xayollarga berilib o'tirgan ko'yida tasvir etadi va Amir Temurning nazariga tushgan kelin sifatida asarga kiritadi. U butun umri davomida bu nazardan chetda qolishni istamaydi. Shu sabab u har doim Shohruh Mirzoning yonida jangu-jadallar qurshovida hayotini o'tkazadi. U sodiq yor, hamdam, hamdard inson sifatida asarda gavdalanadi. Biroq Q.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek to'laqonli yoritilmagan. Ona-farzand munosabati chigalligicha qolaveradi.

Xullas, P.Qodirovning tarixiy asarlarida nafaqat shoh, shahzodalar balki malikalar obrazi ham o'z ifodasini topa olgan. Bu asarlarda ularning ichki tug'yonlari aks etgan. Davlat ishlarida ularning o'rni ham yozuvchi nazaridan chetda qolmagan holda tasvirlangan. Shu barobarida ularning eshtiroki asosida davr qiyofasini adib asarlarida to'liq tasvirlab bera olgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov П. Юлдузли тунлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1988. - 448 б.
2. Фафуров И. Ҳаётнинг тоза кўзгуси //Шарқ юлдузи. - 1978. № 11. - Б. 194-199.
3. Қодиров П. Авлодлар довони. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1989. - 544 б.
4. Қодиров П. Она лочин видоси. Тарихий роман – Тошкент: «Шарқ», 2001. – 239 б.
5. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Академнашр, 2007 – 659 б.

Karimova Yulduz Akulovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

“RUHUM YARATIB EDING LATOFAT BIRLA...” (Xayriddin Sultonning “Saodat sohili” qissasi misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada vosita obraz Hofiz Ko'ykiy orqali besh kunlik dunyoning foniyiligi, Ollohning abadiy va azaliyligi, imtihonining barhaqligini yod etib turgan Bobur Mirzoning tragik qiyofasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: badiiy konsepsiya, ruhoni holat, tragik portret, badiiy axborot, assotsiativ fikr, poetik vazifa.

Annotation. This article explores the tragic image of Babur Mirza, who remembers the five-day mortality of the world, the eternity and eternity of Allah, and the finality of his test through the character Hafiz Koyki.

Key words: artistic concept, spiritual condition, tragic portrait, artistic information, associative thought, poetic task.

“Kamil xilqat bo‘lgan inson barcha narsada takomilni, yetuk muntazamlik va muzayyanlikni ko‘rmoqchi bo‘ladi. Uning oliy orzusi – olamni ham, o‘zini ham nuqsonlardan xalos etish” [Komilov N., 2005: 38], – deb yozadi adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov.

Nuqsonsiz odam, mukammal olam – bu oliy idealga yetishish dushvor, ammo undan inson ko‘ngil uzib, yuz o‘girib ketolmasligini ham anglab “Muttasil ravishda o‘z xatti-harakati, aytgan so‘zlarini tahlil qilgan, o‘zini mudom chig‘iriqdan o‘tkazib turgan Bobur arzimagan nojo‘ya xatti-harakati, kichik bir ayb-u xatosi uchun ham o‘zini kechirmagan... Qisqa umrida ulug‘ ishlarni qilib ulguraganiga qaramay, o‘z faoliyatidan sira qoniqmay umrining behuda, besamar o‘tgan yillari uchun o‘zini yozg‘irib...” [Ochilov E., 2012: 72] iztirob chekkan.

Bobur Mirzoning ana shunday ruhoniylarini atoqli yozuvchi Xayriddin Sulton o‘zining “Saodat sohili” qissasida ta’sirchan tasvirlaydi: “Bog‘ etagida, azim shamshod va dafna daraxtlari orasida qad ko‘targan muazzam toqi ravoqda Bobur yolg‘iz o‘tirar edi. Umrining so‘nggi yillarida u saroydagi xushchaqchaq suron bilan to‘la bazm-u tomoshalardan sovigan, jon olg‘uvchi hind raqqosalarining sitamkor ishvalari ham, bulbuligo‘yo shoirlarning shon-shuhrat ko‘yida o‘rtanib aytguvchi dilrabo baytlari ham endi ko‘ngliga zavq bag‘ishlamas edi. U ko‘p vaqtini ko‘zdan yiroq, xilvat shu toqi ravoqda tanho o‘tkazar... Bunday paytlarda Bog‘i Nurafshonga teran sukunat cho‘kar, olampanohning dardmand, miskin kayfiyatini sezgan saroy ahli, mulozimlar un chiqarmaslikka tirishar edilar” [Sulton X., 1997: 324].

Tasavvuf olamida “Ibodatlarda ichida qalb o‘ylarini isloh qilmoqlikdan ko‘ra manfaatliroq ibodat yo‘qdir” [Homidiy H., 2021: 72], – deyiladi.

Bog‘i Nurafshon tuning teran sukunati qa’rida qalb o‘ylari islohiga tutingan Bobur Mirzoning Ruh g‘amida chekayotgan iztiroblari o‘quvchiga uning quyidagi ruboysini eslatadi:

Ruhum yaratib eding latofat birla,
Qilding anga tanni hamroh ofat birla,
Ruhumni chu tan uyiga kelturdung pok,
Mundin bori eltma kasofat birla. [Bobur, 1994: 93]

Munojot va iltijo ohangidagi bu ruboiy tiriklik – tan uyining tashvishlariga chalg‘ib ruh kamolotidan chekinib qolgan, besh kunlik dunyoning foniyligi, Ollohning abadiy va azaliyligi-yu imtihonining barhaqligini yod etib turgan Bobur Mirzoning qissadagi tragik portreti: miskin va dardmand qiyofasini ochiqlagandek bo‘ladi.

Qissa badiiy konsepsiyasi asosan Bobur Mirzo va Hofiz Ko‘ykiyning odam va olam haqidagi falsafiy, ma’naviy, diniy va dunyoviy suhbatlari mag‘zida ochiladi. Zukko kitobxon bu suhbatlarning barchasi oqshom payti kechayotganiga

e'tibor qaratishi tabiiy. Hatto yozuvchi "oqshom"ga yuklangan badiiy ma'noning salmog'ini urg'ulash maqsadida bir safar Bobur Mirzo Hofiz Ko'ykiyni ertalab yo'qlayotgani xabarini eshitganida uning xayolidan o'tgan o'yni shunday keltiradi: "Bobur uni shu paytgacha hali biron marta ertalab yo'qlamagan – oqshomlarigina suhbatga chorlar edi" [Sulton X., 1997: 330].

Ruhoniy suhbatlar uchun oqshom, tun pallasidan ham halovatliroq onlar bo'lmasligini muallif to'g'ri ta'kidlaydi, qolaversa, "Tun – ma'naviy jang hamda taqvodorlar uchun duolar fursati" [Mingboyeva D., 2022: 142].

Oqshom... Yor yuziga tun o'zining qora pardasini yoygan palla. Bu parda nafaqat yer yuzini qoplaydi, balki aql-u tafakkuri, iymon-e'tiqodi mos tushgan, ruhan tutash, qalban yaqin, biri-biriga ma'nau ehtiyojmand ikki insonni zaminiy, nafsoniy tashvishlar bag'ridan ajratib olib yuzma-yuz tillashish, dillashish fursatini yaratadi. Ayrim lahzalarda esa bir-birlarini unutib, o'z ko'ngillari bilan yolg'iz qolish imkonini beradi.

Bobur Mirzo o'zi aytganidek:

Sanga ko'nglimdaging dedim, ey yor,
Emdi sendin javob umidim bor. [Bobur, 1994: 116]

Ko'nglidaging deb, ko'ngildan javob kutgan ikki buyuk suhbatdosh obrazini qissada yozuvchi o'ziga xos sirli, ayni paytda muzayyan yaratadi.

E'tirof etish kerakki, qissadagi ayni shu lahzalarning tasviridagi sohirlik, latiflik, mahzunlik suhbatdoshlar ko'ngildan ko'chib, kitobxonga ham yuqadi.

–...olampanoh, bu kun oqshom g'oyat latif...

–Ha-ha... – Bobur bosh irg'adi. – Latif, latif.

Xiyla vaqt so'zsiz-sadosiz qoldilar. Quyosh bog' ortida jimirlab oqayotgan Jamna suviga zar kokillarini yuvmoqda edi. Nihoyat, Bobur intihosizdek tuyulgan jimlikni buzdi:

–O'shning oqshomlari ham ko'p so'lim, tarovatli bo'lur, – dedi.

Hofiz Ko'ykiy bosh irg'adi.

–Bu olamda men kezmagan yurt kam qoldi – deb davom etdi Bobur o'ychan ohangda. – Ne-ne go'zal maskanlarni zabt etmadim. Lekin hech qayda O'shdek latofatlig' bir viloyatni ko'rmadim...

U xayolga cho'mgancha tag'in jim qoldi [Sulton X., 1997: 325].

Suhbat asnosida Bobur Mirzoning tez-tez jim qolishi, o'rtaga cho'kayotgan sukunat nimaga ishora? Bu qanday jimlik? Uni jimlik deb bo'ladimi o'zi?

Jimlik tili so'zdan tiyilgan, qalbi isloh bilan band insonning ruhoniy holati. Aslida, bu tasvirda o'zlikni anglashning olis manzil-marohillaridan o'tib, umr mazmuni-yu tiriklik mohiyatining tubiga yetgan, olamning ruhoniyyat dunyosiga borlig'i bilan singib ketgan, zohiran tun bag'ridagi teran sukunatga some', ammo qalbidagi iztirob bo'ronlarini bosish, armon og'riqlarini yengish uchun o'z a'mol va amallar bisotini beayov taftish qilayotgan Bobur Mirzoning miskin qiyofasi uning botiniy bedorligiga kontrast chizilgan.

Adabiyotshunos Ergash Ochil aytganidek, "Barcha buyuk zotlar o'zlariga nisbatan xuddi shunday shafqatsiz bo'lishgan. Zero, o'z-o'zi bilan kurashmoq insoniy kamolot yo'li..." [Ochilov E., 2012: 72]dir.

Qissada O'sh oqshomining latifligini eslash bilan uyg'ongan xotira epkini Bobur Mirzoning yugurik xayolini o'ttiz yillar ortga Vatanda qolgan Baroqko'h tog'lari tomon yetakladi.

– U yerda bir ustuvor tog' bor. Baroqko'h derlar. Men O'shni olganimda – tarix to'qqiz yuz ikkida Tangri taolo inoyati bilan ushbu tog'ning tumshug'ida bir ayvonliq hujra soldim... Tamom shahar va mahallot oyoq ostida edi. Hanuz o'sha hujra ko'z o'ngimdan ketmaydur. Ayniqsa, shu kunlar... Qani edi, inon-ixtiyorim o'zimda bo'lsa-yu besh kunlik gunohkor umrning qolganini o'sha hujrada o'tkarsam!" deya tuyqusdan shivirladi Bobur [Sulton X., 1997: 325].

Qissada Bobur Mirzo ta'kidlagan "ayniqsa shu kunlar" izohi boburshunos olim Hasan Qudratullayev fikrlarida oydinlashadi: "Vafotidan ikki yil oldin Bobur umr karvoni manzilga yetayotganini ma'lum darajada anglaganga o'xshaydi. U ayniqsa, 1527-1528-yil voqealarida tez-tez farzandlariga vasiyatnoma nasihatlar qiladi, mulklarini zurriyotlari va yaqinlariga taqsimlab, o'zining bosh vorisi sifatida Humoyunga ko'p maktub va farmonnamo yozishmalar jo'natadi" [Qudratullayev H., 2018: 225].

Demak, Bobur Mirzo din va dunyo ishlaridan xabardor, o'zi va o'zgalar holidan ogoh, hushyor inson sifatida qazo-yu qadar hukmiga tayyor turgan.

Aynan o'sha paytdagi Bobur Mirzoning ruhoniy holati, qalb kechinmalarini Xayriddin Sulton "Saodat sohili"da ishonarli badiiy ifoda eta olgan.

Hofiz Ko'ykiy bilan suhbatda Bobur Mirzoning komil musulmonga xos sifatlari ochiladi. Dunyo o'tkinchi. Bobur Mirzo nazarida neki o'tkinchi, u qimmatga ega emas.

Bobur Mirzo lirikasidagi ayrim o'zini o'zi malomat va mazzamat etish ruhidagi asarlarning mohiyatidan xabardor o'quvchi qissa muallifining Bobur Mirzo nutqida qo'llagan gunohkor umr ta'rifini ham ishtibohez qabul qiladi. Shu asnoda ruhoniy halovatga erishish uchun barcha nafsoniy qutqulardan yuz o'girib, shohlik martabasi-yu mamlakatdorlik dabdabasini birgina hujraga almashishga tayyor Bobur Mirzo obrazida Xayriddin Sulton hindlar e'tirof etgan qalandar podshoh himmatini, komil inson ma'rifatini, g'urbatdagi g'arib iztiroblarini jamlay olgan.

Qolgan "besh kunlik gunohkor umrni" Vatanda Baroqko'hdagi hujrada o'tkazish ilinji hajr va davron ishlaridan bezib, umr shomi qarshisida mahtal turgan g'amzada qalb – Bobur Mirzoning ushalmas orzusi, imkonsiz tanlovi ediki, bekorga ham yozuvchi bu ilinjning izhoriga armon, o'kinch, iltijo va ishonchsizlik ohanglarini qorishtirmagan. Qissaning aynan shu o'rnida Ollohning bahr-u inoyatidan umidvor, xalq va Haq rizosi uchun bir umr harakatda yashagan bu dilovar insonning haqli e'tirofi yodingizga tushadi: "Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla, Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur". Darhaqiqat, taqdir hukmi va tarix tanlovi shunday. Bobur Mirzo esa uni mardonavor qabul qilgan. Bobur Mirzo shaxsining fojeligini ham, ulug'vorligini ham shu joyda ko'rinadi.

XX asrning mashhur mutafakkirlaridan biri Erix Fromm: "...axloqiy, falsafiy, siyosiy, psixologik yoki ijtimoiy muammolarni idrok etish fikrlovchi kishining psixik strukturasi ta'siri orqali shakllanadi. Muhabbat, adolat, tinchlik, o'z jonini fido qilish singari har bir shunday tushuncha, har bir doktrina individning xarakter

tuzilishi tomonidan belgilanadigan emotsional asosni o‘zida mujassamlashtiradi... Masalan: jasorat tashqi kuchlarga qarshi o‘z individualligini qaror toptirish emas, balki bo‘ysunishga tayyor turishini, iztiroblarga chidashni anglatadi” [Fromm E., 2021: 289], – deydi.

Shu fikrga suyangan holda aytish mumkinki, “Olamning qariyb yarmini qilich bilan, yarmini qalam bilan zabt etgan, bir og‘iz kalomiga ming-minglab odamlarni muntazir itoatda tutgan, hamisha sha‘n-u shavkat og‘ushida muzaffar yashagan” [Sulton X., 1997: 339]. Bobur Mirzo jasorati jang maydonlarida qarshi kuchlarga qahramonlarcha turib berishdama, balki ruhoniyl zarofat, yorqin, jozibador xarakter sohibi o‘laroq o‘rni kelganda bo‘ysunishni ham bilishida, itoat yo‘lini tuta olishida g‘am-iztirob yukini matonat va sabr bilan ko‘tarishida ham ko‘rinadi.

“Saodat sohili”da Bobur Mirzo jasoratining ana shu keyingi – ikkinchi qirrasining talqini asar konsepsiyasining o‘zagini tashkil etadi.

Qissa so‘ngida bemor to‘shagida yotgan Bobur Mirzoning Hofiz Ko‘ykiyga o‘qib bergan:

Yo qahr-u g‘azab birla meni tufroq qil,

Yo bahr-u inoyatingda mustag‘roq qil.

Yo rab, sengadur yuzim – qaro, xoh oq qil

Har nav sening rizong erur, andoq qil [Sulton X., 1997: 338] –

ruboiysi “...suronli umri so‘nggi manzil sari borayotgan ulkan muztarib qalbning kelgusi nasllar oldida berajak iztirobli hisobi, davron hukmi qarshisidagi ma‘yus o‘tinchi, Olloh huzuridagi tazarrusi” [Sulton X., 1997: 339] esa-da, lekin unda ayni paytda boburona jasoratning ikkinchi qirradi: ilohiy qudratga cheksiz ishonch, hukmiga itoat, adolatiga bo‘ysunish, rizosi va inoyatiga talab kabi iymon tuyg‘ularining mardona ifodasi ham seziladi.

E‘tirof etish kerakki, Xayriddin Sulton bosh qahramon ruhoniylati, ma‘rifati, tafakkuri oziqlangan ildizlarni ko‘rsatishda, insoniy mohiyatini ochishda, anglash va anglatishda Bobur Mirzoning o‘ziga, uning so‘ziga asar yakunida o‘rinli murojaat qilishi qissaning g‘oyaviy-badiiy ko‘rkamligini oshirgan.

Muhimi, Bobur Mirzo tilidan aytilgan “besh kunlik gunohkor umr” iqrori bilan “Yo qahr-u g‘azab birla meni tufroq qil” tazarru ruhidagi ruboiysining mazmunan ichki aloqadorligi bosh qahramon obrazining hissiy tonalligini oshirish bilan birga asarning fojeiy ruhini ham quvvatlantirgan.

Bobur Mirzo tilidan aytilgan “dard bor, darmon yo‘q” iqrori ham bosh qahramon jismoniy-ruhiyl holati haqida o‘quvchida tragik tasavvur uyg‘otadigan muxtasar, ammo assotsiativ fikrlashga undaydigan badiiy axborotdir.

Boshiga yog‘ilgan qayg‘u-alamga, yelkasiga tushgan dard yukining zalvariga chidamay dod solib, faryod chekayotgan kishiga qarab Robiya Adaviya: “Sen qayg‘usizlikdan dod degin” [Homidiyl H., 2021: 62], – deya asl haqiqatga ishora qilgan ekan.

Dard, g‘am, qayg‘u, hajr, ozor, mehnat, g‘urbat – bular Bobur Mirzo ko‘nglining doimiy hamrohlari Bobur Mirzo ko‘nglini ulg‘aytirgan, tozartirgan, Haq va haqiqatga yaqin etgan bu tuyg‘ularning moddiylashgan tasvirni shoirning ruboiylarida goh habibga, goh yorga, goh do‘stga dil izhori, hasrat, gina ohanglarida yuzaga chiqqanini ko‘ramiz.

Mashhur bir gʻazalida “Koʻnglumdin oʻzga mahrami asror topmadim” deya hasratlangan Bobur Mirzo goʻyoki ummon oldida tomogʻi qaqrab yurgan inson kabi. Yon-atrofida uning bir ogʻiz soʻziga, bir ishorasiga tayyor turgan son-sanoqsiz mulozimlari, beklari, ahli haram, farzandlari, yaqinlari. Ammo ularning barchasi Bobur Mirzoning koʻz oldida, koʻngliga esa yoʻl topa olmaganlar, koʻzdan koʻngilga oʻta olmaganlar. Shuning uchun ham “Koʻnglim kibi koʻngilni giriftor topmadim” deya nadomat chekadi shoir.

Mavlono Oybek oʻzining “Bobur” dostonida Bobur Mirzo koʻnglini rost taʼriflagan:

Yuzi munavvar, oʻtkir aql, dil,
Bobur hisga boy, azimdir koʻngil.

Eʼtirof etish kerakki, bu aslida Bobur Mirzo fenomenini belgilaydigan taʼrif. Oʻtkir aql, nozik dil, zarif tuygʻular, iztirob va armonlar makon etgan bu koʻngil darchalarini ochmoq, uni anglamoq, tushunmoq, bu azim koʻngil koʻtarib yurgan zalvarli yukka yelka tutmoq uncha-muncha odamning qoʻlidan kelmagan ekan bunda ularni ayblab boʻlmasligini ham tan olishimiz zarur.

Bobur Mirzo bir sodiq doʻst, dildosh habib ilinjidagi koʻngil xohishlarini oʻz ruboiysida shunday izhor qiladi:

Jismimda isitma tobidin otashdur,
Jonimgʻa balo-u gʻussa bebarkashdur.
Koʻp dard ila gʻamdin manga noxushluq edi,
Sen soʻrgʻali, ey habib, koʻnglim xushdur. [Bobur, 2021: 295]

Jismi darddan, isitma otashidan, koʻngli yolgʻizlik gʻamidan bezovta boʻlayotgan shoir habibning soʻrovidan quvonchga toʻladi, qalbi orom topadi. Balo-yu gʻussa, dard, gʻam, noxushluq kabi koʻngil sifatlariga yuklangan zalvarli maʼno Bobur Mirzoning habibsiz, doʻstsiz qolgan ruhiy holatining badiiy ifodasiga xizmat qilgan.

“Boburnoma” – Bobur Mirzoning umr kitobi, sheʼrlari esa shoir ruhoniyyatining oynasi. Bobur Mirzoning ruhoniyy koʻzgusida aks etgan koʻngil istaklarini anglab yetgan Xayriddin Sulton “Saodat sohili”da Hofiz Koʻykiy obraziga Bobur Mirzo koʻngliga yoʻl topish, juda oz fursatda “mahrami asror” maqomiga erishishdek katta badiiy missiya yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. – Toshkent: Fan, 1994. – 144 b.
2. Fromm, Erix. Ozodlikdan qochish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 325 b.
3. Homidiy H. Tasavvuf. Qaraniydan RumiYGacha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 400 b.
4. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2005.
5. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – Toshkent: Adabiyot, 2022. – 280 b.
6. Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2012.
7. Qudratullayev H. Boburning adabiy-estetik olami. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2018. – 384 b.

8. Sulton X. Saodat sohili. Boburiynoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 416 b.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 1-jild. Devon. – Toshkent: Zilol buloq, 2021.

Xurramov Olmos,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi

PIRIMQUL QODIROV IJODIDA BOBUR SIYMOSI

Annotatsiya. Maqolada Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida Bobur shaxsiyati, hayot yo‘lining o‘ziga xosligi shundaki, u mana shunday talato‘p zamonlarda mard, insofli, to‘g‘riso‘z hukmdor; hayot voqeligi va botin tuyg‘ularini nozik aks ettira oladigan nozikta‘b shoir, bilimdon olim, ideal darajadagi oila boshlig‘i – ota sifatida namoyon bo‘lganligi, hayotining keyingi davrlarida vatanjudolik, raqiblar zulmidan ezilgan, shu bilan birga qalbida muhabbat o‘ti lovullab turgan lirik-fojiaga yo‘g‘rilgan komil musulmon, fojiaviy qahramonga aylandi. Bularning hammasi Bobur shaxsiyati ko‘lamini kengaytirishi bilan birga, Bobur obrazi talqinini o‘ta murakkablashtirilgan jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy xarakter, Bobur biografiyasi, asar sujeti, to‘qima obraz, asar kompozitsiyasi, tarixiy-badiiy asar, qahramon ruhiy olami, tarixiy vaziyat, badiiy konsepsiya.

Annotation. In the article, the novel "Starry Nights" by Pirimkul Kadyrov is explored, delving into the multifaceted personality and remarkable life journey of Babur. Within the tumultuous context of his era, Babur emerges as a courageous, truthful, and just ruler. He exhibits not only leadership prowess but also a proficiency in poetry, scientific inquiry, and exemplary familial roles, portraying a nuanced understanding of life's realities and internal emotions. However, as his life progresses, he grapples with the burdens of patriotism, the machinations of rivals, and the enduring presence of love in his heart. Evolving into a symbol of a devout Muslim grappling with lyrical tragedy, Babur transforms into a tragic hero. This comprehensive examination sheds light on the complexity of Babur's character, delving into the intricacies of his persona and the historical context that shaped it.

Key words: historical character, biography of Babur, subject of the work, textile image, composition of the work, historical-artistic work, spiritual world of the hero, historical situation, artistic concept.

“Yulduzli tunlar” va “Humoyun va Akbar” romanlari markazida turgan tarixiy shaxs biografiyasi, unga xos fojiaviy, dramatik holatlar hamda vaziyatlar murakkabligi, markaziy shaxs xarakteri, ijtimoiy, madaniy, adabiy faoliyati diapozoniga ko‘ra roman shakli va mazmunini belgilagan. Masalan, “Yulduzli tunlar” bu jihatdan nihoyatda boy va keng ko‘lamlidir. Bobur biografiyasining o‘ziga xosligi, xarakteridagi o‘nlab individual jihatlar bu romanda yozuvchi imkoniyatining ko‘lamdor bo‘lishiga imkon tug‘dirgan.

Yozuvchi “Yulduzli tunlar” asari syujetini o‘ziga xos tarzda quradi. O‘quvchini birdaniga markaziy qahramon bilan uchrashtirmaydi. Romanning “Qil ustida turgan taqdirilar” deb nomlangan birinchi faslida ikki sevishgan – Tohir va Robiya taqdiriga xos tahlikali vaziyatlarni ularning dialoglari, ichki kechinmalari orqali ochib beradi. Shu tariqa o‘quvchini ham tahlikali voqealar shoh Bobur qismatiga xos fojiviy vaziyatlar dunyosiga olib kiradi. Mana shu nuqtada boshlangan fojiviy pafos romanning so‘nggi fasligacha izchil tarzda ushlab turiladi.

Tarixiy-badiiy asarga reallik va haqqoniylik bag‘ishlaydigan vositalardan yana biri tarixiy xarakter hisoblanadi. Nazariy jihatdan xarakter milliy, ijtimoiy-tarixiy va muayyan tarixiy obyekt shaxsiyati (atrof-muhit bilan munosabati, o‘zgalar nigohida boshqalardan ajralib turadigan tipik xususiyati, botiniy fikr-o‘y va tuyg‘ularining o‘ziga xosligi) umumlashgan nuqtada namoyon bo‘ladi. Adabiyotdagi xarakter tushunchasi haqida tarixiylik nuqtayi nazaridan fikr yuritar ekan, V.Y.Xalizev shunday yozadi: “...“xarakter” termini san‘atning nobadiiy reallik bilan turli-tuman aspektlardagi munosabatlarini tasdiqlaydi”. [Xalizev V.E., 1999: 40] Shu xulosa doirasida adabiy xarakterning mazkur “turli-tuman” aspektlar bilan munosabatlariga doir bir nechta omillarni sanab o‘tadi. Biz ishimizning maqsadi va tabiatidan kelib chiqib, tarixiy xarakter quyidagi aspektlar bilan uzviy munosabatda tug‘iladi degan to‘xtamga keldik. Bular: a) tarixiy xarakterning biron-bir millat doirasiga mansubligi; b) tarixiy xarakterning tarixiy prototip yashagan davr xususiyatlarini singdirganligi; v) tarixiy shaxs biografiyasi, atrof-muhitga ma’lum boshqalardan ajralib turadigan xos xususiyati va siyratining muvofiq tarzda namoyon bo‘lishi.

“Yulduzli tunlar” romanida xarakter masalasi haqida to‘xtalar ekan, adabiyotshunos A.Nosirov shunday xulosani ilgari suradi: “Yozuvchi Bobur xarakteridagi o‘zgarishlarni uning xatti-harakatlari yoshi personajning nutq va ta’riflari orqali yoritib boradi”. [Nosirov A., 1999: 96]

Ushbu fikr-xulosalarni tarixiy shaxs Boburning badiiy xakteri misolida talqin etadigan bo‘lsak, quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz:

1. “Yulduzli tunlar” va “Humoyun va Akbar” markazida turgan tarixiy Bobur va boburiylar deyarli olti-yetti asr mobaynida musulmon etikasi doirasida shakllangan, islom aqidalariga amal qilib yashab kelayotgan turkiy (turkiy-barlos) millat vakili. Shuning uchun ularga xos milliy xarakter boburiy hukmdorlarning musulmonligi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Ular o‘zlari duch kelgan holat hamda voqeotlarni Allohning irodasi deb biladilar va bunga qat’iy tarzda ishonadilar. Boshlamoqchi bo‘layotgan barcha ishlariga Allohdan madad so‘raydilar. Hayotlarida uchragan yaxshiliklarni Yaratgandan, yomonliklarni esa o‘zining nomunosib ishlaridan deb biladilar. Bobur ham boburiyzodalar ham davlat hukmdorining farzandi bo‘lishlariga qaramasdan, o‘zlarini Allohning bir o‘jiz bandasi deb biladilar. O‘zgalardan o‘zlarini ustun qo‘ymaydilar. Ayni jihat ularga nisbatan adolatparvar, saxovatli, oila a’zolarining haqqini ado etadigan solih farzand yoki oila boshlig‘i bo‘lishga undaydi. Bunday turk-islom millatiga mansublik xususiyati, ayniqsa Bobur shaxsiyatida, “Boburnoma”ning ilk satrlaridayoq yaqqol ko‘rinadi. U o‘zining toj-taxt sohibi bo‘lishini

hukmdorlikning silsilaviy an'analari, otasining nogoh halok bo'lishi yoki turli siyosiy vaziyatlar bilan emas, aynan Yaratganning xohish-irodasi bilan izohlaydi: "Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldum". [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 34]

2. Bobur Mirzo yashagan davr sohibqiron Amir Temur asos solgan ulkan saltanat bo'lib olinayotgan, asta-sekin inqirozga yuz tutayotgan siyosiy jihatdan o'ta besaranjom, tarang vaziyatga to'g'ri keldi. Bu davrda jamiyat ichra harbiy vaziyatlarga xos shafqatsiz qonuniyat hukm surar, bunga mamlakatdagi yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan odamlar, shohdan gadogacha bo'lgan ijtimoiy tabaqa vakillari amal qilishga majbur edi. O'z saltanatining podshosi sifatida Bobur mana shu jarayonlarda faoliyatda bo'lgan ijtimoiy izdihomning birinchi safida turgan. Tinimsiz davom etgan siyosiy o'yinlarda ishtirok etgan. Jang-u jadallardagi safning oldini egallagan. Zarur o'rinlarda odam ham o'ldirgan.

3. Bobur shaxsiyati, hayot yo'lining o'ziga xosligi shundaki, u mana shunday talato'p zamonlarda mard, insofli, to'g'riso'z hukmdor; hayot voqeligi va botin tuyg'ularini nozik aks ettira oladigan nozikta'b shoir, bilimdon olim, ideal darajadagi oila boshlig'i – ota sifatida namoyon bo'ldi. Hayotining keyingi davrlarida vatanjudolik, raqiblar zulmidan ezilgan, shu bilan birga qalbida muhabbat o'ti lovullab turgan lirik-fojiyaga yo'g'rilgan komil musulmon, fojiviy qahramonga aylandi. Bularning hammasi Bobur shaxsiyati ko'lamini kengaytirishi bilan birga, Bobur obrazi talqinini o'ta murakkablashtiradi. "Boburnoma"ning "Farmoni Zahiriddin Muhammad Bobur G'ozu" deb nomlangan bo'limchasida keladigan ushbu ruboiy mazmunan Bobur davri, muhiti, shaxsiyatiga xos murakkab holatlarning lirik izohi desak yanglishmagan bo'lamiz:

Islom uchun ovorayi yozi bo'ldum,
Kufforu hunud harbsozi bo'ldum,
Jazm aylab erdim o'zni shahid o'lmoqqa,
Al-minnatu lillahki, g'ozu bo'ldum.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 229]

Albatta, Bobur va boburiylar obrazini keng va tarixan real tarzda shakllantirish uchun bu jihatlar e'tiborga olinishi shart. Yozuvchi P.Qodirov ba'zi dindorlar, imomlar, mullalar masalasida biroz cheklanishlarga yo'l qo'yganiga qaramasdan, har uchala obraz xarakterini talqin etishda yuqorida biz keltirgan badiiy prinsiplarga amal qilishga uringan. O'ta murakkab tarixiy vaziyatlarda hukmdorlik qilgan ikki boburiy shahzoda – Humoyun va Akbar xarakteridagi barcha musbat va manfiy jihatlarni badiiy polotnoga ko'chirishda bir lahza bo'lsin tarixiy davr, tarixiy shaxs dunyoqarashi, vaziyatlar murakkabligini unutmagan. Trilogiyadagi markaziy obrazlar atrofidagi boburiylar sulolasi vakillari, shu dinastiyaga xizmat qilgan tarixiy shaxslar obrazlari, ba'zi to'qima obrazlarni muayyan tizim sifatida kuzatganimizda bunga to'laroq amin bo'lamiz.

Nazariy adabiyotlarda qayd etilishicha, tarixiy asarlarda talqin etilgan obrazlarning aniq sistemaga aylanishi janr to'laqlonligini belgilovchi muhim omillardan biridir. [Krinichnaya N.A., 1987: 197] P.Qodirovning "Yulduzli tunlar"

va “Humoyun va Akbar” romanlarida xuddi shunday sistemaning yetakchi ekanligini ko‘ramiz. Masalan, “Yulduzli tunlar” romanidagi obrazlar dunyosi badiiy sistema sifatida uch bosqichni tashkil etadi. Har bir bosqich markaziy qahramon – Bobur Mirzo hayot yo‘lining muhim bir davrini ifodalashga xizmat qiladi.

Birinchi bosqich, o‘spirin bola hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, bu obraz atrofidagi badiiy sistemani Boburning ota-onasi, opasi, ukasi va boshqa yaqin qarindoshlari tashkil etadi. Hali shaxs va hukmdor sifatida shakllanishga ulgurmagan Bobur obrazi mana shu obrazlar fonida to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Biz uni otaning ishongan farzandi (valiahdi), onaning arzandasi, opaning tayanchi, ukaning faxri, buvining ko‘z quvonchi sifatida ko‘ramiz. Bu bosqichda Bobur hali to‘la-to‘kis siyosiy sahnaga chiqmagan, hayotning shafqatsiz sinovlari oldida tushkunlik va iztirob olovida qovrilmagan. Bu bosqichda Boburda bolalik sho‘xliklari, o‘yinqaroqligi, shu bilan birgalikda, bo‘lajak hukmdorga xos qat’iyat va jo‘mardlik sezilib turadi.

Hali Umarshayx Mirzo halokatga uchragani haqidagi xabar yetib kelmagan, o‘z mulozimlari bilan chavandozlik mashqlarini bajarayotgan Bobur o‘zidagi iroda va chapdastlikni sinab ko‘rish uchun otdan otga sakrab o‘tayotganda jarohat olishiga ozgina qoladi. Boshidan sallasi uchib ketadi. Ammo shunday tahlikali va nozik vaziyatda o‘spirin Bobur o‘zini raso yigitlarga xos vazmin, xotirjam tutadi. Kichik bir mulozim, xos navkariga bo‘lgan munosabat-muloqotda komil axloq, odamiylik namunasini ko‘rsatadi:

“- *Sizda ayb yo‘q edi...*

Navkar unda katta bir in‘om olganday astoyidil minnatdor bo‘lib ta‘zim qildi. Bobur No‘yonga tayinladi:

- *Katta onam bilmasinlar.*
- *Muddaomiz o‘zi shu, amirzodam,-kuldi No‘yon va boshqa mulozimlarga sirdoshlarcha ko‘z qisib qo‘ydi*”. [Qodirov P., 20]

Bizningcha, mana shu epizod tasviri orqali yozuvchi o‘quvchi ko‘z o‘ngida ko‘ngli pok, kechirimli, saxovatli, jasur va zukko Bobur siymosini gavdalan tiradi. O‘spirin Boburni seldek bosib kelayotgan fojiali voqealar sinoviga tayyorlaydi. Voqealar davomida tarix maydonida jonlanadigan Eson davlat begim, Qutlug‘ Nigor xonim, Fotima Sulton begim, Xonzoda begim singari Boburga qon jihatidan yaqin ayollar, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo singari erkaklarning tarixiy obrazlarini tasvirlaydi.

Ikkinchi bosqichda biz Bobur Mirzoni yigit yoshida, sarkarda, yo‘lboshchi sifatida shakllangan, siyosiy bo‘hronlar girdobida toblangan to‘laqonli shaxs sifatida ko‘ramiz. Ushbu biografik obrazga xos psixologik, falsafiy, ma‘naviy va ijtimoiy dinamikani kuzatamiz. O‘spirin Boburda yuqorida sanalgan fazilatlar bu bosqichda endi davlat, mamlakat miqyosida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Bobur o‘n olti yoshga to‘lgan yili biryo‘la Andijon va Samarqandning qo‘ldan ketishi, Bobur ruhiyatida tushkun holat ustunlik qilayotgan bir vaziyatda u onasi Qutlug‘ Nigor xonim va opasi Xonzoda begim bilan uchrashadi. Bu uchrashuv epizodiga P.Qodirov ajoyib bir detalni kiritadi. Shu detal vositasida o‘z qahramonining tushkun holatdan chiqib ketganini tasvirlaydi. Bu nozik va sharaflil vazifa Bobur

uchun hammadan ham yaqin bo'lgan ikki ayol – onasi va opasi bajaradilar. Ya'ni tushkun ruhiyatdagi Boburga onasi va opasi sohibqiron Amir Temur qilichini taqdim etadilar: “Qilich uncha og'ir emas edi. *Bobur uni beliga taqqanda hamma narsa ko'ziga boyagidan boshqacha – allanechuk sokin va salobatli ko'rindi*” (ta'kid bizniki – O.X.) [Qodirov P., 93]. Shundan so'ng go'yoki Bobur ruhiyatida jangovar ajdodlari tabiati qayta uyg'onadi. Afg'oniston, Hindiston sarhadlarini shu qilich bilan zabt etgan jahongir Bobur ulkan “mo'g'ullar imperiyasi” (Yevropalik boburshunoslar ta'biri) hukmdoriga aylanadi. Bu Bobur biografiyasidagi so'nggi uchinchi bosqichni tashkil etadi.

Uchinchi bosqichda Boburni ko'proq opasi, ayollari, qizlari, o'g'illari doirasida ko'ramiz. Boburiylarga xos eng ichkin va murakkab fojialarga guvoh bo'lamiz. Masalan, Boburning o'n bir yillik ayriliqdan keyin (Xonzoda begim Shayboniyxon o'limidan keyin qaytib kelishi sahnasi) opasi bilan uchrashgan sahnani olaylik. Tarixiy vaziyat tufayli bir-biridan bevaqt judo bo'lgan qondoshlar uchrashganlarida Xonzoda begim o'z ukasini tanimaydi: “Bu Bobur edi. *Lekin Xonzoda begim ukasini soqol-mo'ylov qo'ymagan o'n to'qqiz yoshli silliqqina yigit qiyofasida eslab qolgan edi*” (ta'kid bizniki – O.X.) [5.212]. Ushbu sahnaning bir nuqtasida Bobur, umuman, Bobur avlodlariga xos milliy xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi. Opa-uka o'rtasidagi ko'p yillik ayriliq, so'ngsiz iztiroblar, saltanat miqyosidagi fitna va gap-so'zlar, Xonzoda begimning Shayboniyxon qo'liga o'tishi bilan bog'liq turli taxminlarning barchasi muloqot jarayonidagi ikki jumlada o'z yechimini topadi. Bobur qondosh opasini dushman qo'liga tashlab kelgan uka sifatida o'zini aybdor deb biladi. Shu sabab opasiga aytgan birinchi so'zi: “Men sizning iningizmen! Gunohkor iningiz Bobur”. Xonzoda begim esa aksincha, bu ishda o'zini gunohkor deb hisoblaydi: “Boburjon! Siz... Siz o'shanda mendan ranjigansiz!.. Bilamen... Boshingizga ta'na toshlari yog'ilgan... Men... aytolmagan edim. O'zim uchun emas, siz uchun” [Qodirov P., 212-213]. Undov va ko'p nuqtalarga boy ushbu muloqotda har ikkala podshohzoda aybdorlik, gunohkorlik yukini o'z zimmasiga oladi. O'z qondoshini ruhiy iztirobdan xalos qilishga intiladi. O'z tug'ishgani, qondoshi uchun o'zni fido qilish fazilati umuman olganda milliy mentalitetimizga xos xususiyat. Qolaversa, Bobur va boburiylar tabiatining muhim va noyob jihatidir. Buni P.Qodirov juda yaxshi his qiladi va trilogiyaning bir nechta o'rinlarida yuksak poetik pafosga yo'g'irib tasvirlaydi. Bu jihat Boburning betob o'g'li Humoyun atrofidan aylanib, uning dardini o'ziga olgan tarixan mashhur sahna tasvirida kulminatsion nuqtaga ko'tariladi.

Bobur bir ota sifatida o'g'li Humoyunning o'ziga o'xshashidan, bo'y-bastidan, harb va boshqa ilmlarni mahorat bilan o'zlashtirganidan faxrlanadi. Bobur Kobulda o'zining a'yonlari bilan ziyofat qilib o'tirganida Humoyun otasiga chavandozlik mahoratini ko'rsatadi. Yugurib ketayotgan otidan ketma-ket uchta otga sakrab o'tadi. Bobur bu voqeani kuzatib, o'zining Andijonda o'tkazgan baxtiyor kunlarini eslaydi. Ahli a'yonlari oldida o'g'lini alqaydi: “Tangrim Humoyunni yomon ko'zdan asrasin... Chavandozlikda bizdan o'tadigan ko'rinadir”. Mushoira sahnasida bu jihat yanada chuqurroq ochiladi [Qodirov P., 241].

Ayni paytda Bobur tadbirkor siyosiy arbob sifatida o'zga raiyat hukmdorlari, qo'l ostidagi siyosiy elita bilan uzviy munosabatlar jarayonida to'laqonli obraz sifatida namoyon bo'ladi. Romanda Boburning adolatli hukmdor ekani ko'plab epizodlarda o'z isbotini topgan. Lohurni egallash uchun o'rmon oralab qo'shin tortib ketayotgan Bobur Hindubek va bir filbon bilan muloqot qiladi. Bu muloqotdan Boburning tengsiz siyosatchi, saxovatli hukmdor, o'zgarlar manfaatini o'ylaydigan insonparvar shaxs ekani aniq bilinadi. Asli hind millatiga mansub filbon Boburning dushmani Ibrohim Lo'dining xasisligi, undan raiyatning bezgani haqida gaplari Boburga xos yuqoridagi sifatlarning yanada bo'rtib ko'rinishini ta'minlaydi. Lohur hukmdori Davlatxonga esa "Shafqatsizga biz ham shafqatsizmiz" der ekan, biz Boburning odilligiga yana bir bor amin bo'lamiz [Qodirov P., 263]. Boburning adolatpesha hukmdorligi malika Bayda tomonidan zaharlanish sahnasida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bobur jangda yengilib qochayotgan Ibrohim Lo'di ortidan quvadigan "xossa tobir" (maxsus qism) boshlig'i, asli Ulug'bek Mirzo avlodidan bo'lgan Qosimtoyni ta'qibga jo'natar ekan. Unga buyruq bermaydi, balki duo qiladi: "Siz bizning ilg'orimizsiz. Tangrim yoringiz bo'lsin! Yenging-u yengilmang! Omin!". [Qodirov P., 268] Bu sahna Boburning odil hukmdor, mohir rahbar ekanligini ko'rsatishi bilan birga Allohga e'tiqodi mustahkam, musulmon podshoh ekanini ham asoslashga xizmat qiladi. Ibrohim Lo'dining o'limidan keyin uning onasi malika Baydaga ko'rsatgan muruvvati Boburga xos bag'rikenglik, shoirona halimlikdan dalolat beradi. "Bobur mulozimlari tomonga yuzlandi:

- Minba'd malikaga hech kim ozor bera ko'rmasin, *hamma uni mo'tabar onamizdek ehtirom qilsin!*" (ta'kid bizniki – O.X.). [Qodirov P., 279] Bobur o'z dushmanining onasini o'z onasidek e'zozlashlariga amr beradi. Bu faqat amr emas, Boburning samimiy istagi ham edi. Ammo dushman baribir dushmanligini qiladi. Malika bayda bunday ulug' saxovat va samimiyatni tushunmaydi. Bunday ulug' saxovatga noloyiq ish qiladi, Boburni zaharlaydi.

Boburning ona yurt sog'inchi bilan chekkan iztiroblari talqini romanning eng yuksak tragik pafosini tashkil etadi. Bobur mavlono Fazliddin bilan uchrashuvlarida yurt haqida iztirob bilan eslaydi. Hindistonning jazirama havosi haqida gap ochgan Xoja Kalonbek Boburdan shunday javob eshitadi:

- Movarounnahrday salqin o'lkadan chiqqan odam hind issig'iga o'rganishiga aqlim bovar qilmaydir!

- Nechun! Asli Shahrizabzning lochin urug'idan bo'lgan Xisrav Dehlaviy hindda yetmish yil umr ko'rmish. Bunga ne deysiz? [Qodirov P., 284] Bu bilan bir tomondan noqulay ob-havodan qiynalib, yurtga ketishni orzulab qolgan Xoja Kalonbekka tanbeh bergan bo'lsa, ikkinchi tomonda o'z vatandoshi Xisrav Dehlaviy timsolida turkiy millatga xos vatanparvarlik, ulug' maqsadlar yo'lida har qanday mashaqqatga chidash, sabr-qanoatni ulug'laydi. Ajdodlar o'tmishiga hurmat bajo keltiradi.

Hindistonning issiq iqlimi bilan bog'liq bu sahna "Boburnoma"da shunday aks etgan: "Xoja Kalon chun Hinddin mutanaffir erdi, borurida Dehlining uyining imoratlarining tomida bu baytni bitibdurkim: "Agar sog'-salomat Sinddan o'tib ketsam, Hindistonni yana havas qilsam yuzim qora bo'lsin" (o'zbekcha tarjimai

olindi – O.X.). Biz Hindustonda turub, mundoq zarofatomiz bayt aytmoq va bitmoq besurattur. Ketmakdin bir kudurat bo‘lsa, ba nav’ zarofattin ikki kuduratdur. Men dag‘i badihada bir ruboiy aytib, bitib yibordim:

Yuz shukr de, Boburki, Karimu g‘affor,
Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.
Issiqlig‘ig‘a gar senga yo‘qtur toqat.
Sovuq yuzin ko‘ray desang G‘azni bor”.

[Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002: 211]

Ushbu epizod romanda shunday badiiy izohini topgan: “Mushoiraning nozik qoidalariga moslab yaratilgan bu badiha Hindubekning zavqini keltirdi. U devorga sovuq gap yozib ketgan Xoja Kalonning basharasi ham Boburga nechoqlik sovuq ko‘rinishini tasavvur etib, beixtiyor kulib yubordi. Bobur otgan o‘qining nishonga tekkanini shu zavqli kulgidan sezdi-yu, yengil bir so‘lish oldi...” [Qodirov P., 288] Saltanat egasi sifatida Bobur o‘zga diyorning har qanday mashaqqatiga chidashga majbur. Qolaversa, uning metin irodasi oldida bu kabi mashaqqatlar o‘ta mayda bo‘lib ko‘rinadi. Ammo atrofdagilarning Bobur uzoq turkiy o‘lkadan kelib qurgan saltanatiga bunday munosabati faqat saltanatning emas, balki vatanini tashlab kelgan hukmdorning, umuman vatan degan muqaddas tushunchaning ham ma‘lum ma‘noda qadrsizlanishi edi. Ammo Bobur buyuk shaxs, shoirona qalb sohibi bo‘lgani uchun ham bu holatga hukmdor yoki harb kishisi sifatida javob bermaydi. Nozik, shoirona javob bilan o‘z “raqib”ini mot qiladi. Ayni paytda “Boburnoma”dan muvaffaqiyatli tarzda iqtibos qilingan bu baytlar Bobur obrazining o‘quvchi ko‘z o‘ngida yanada ulug‘vorroq namoyon bo‘lishini ta‘minlaydi.

Boburning o‘zini zaharlagan malika Baydani jazolash sahnasi ushbu obrazning umuminsoniy mohiyatini yanada teranroq ochilishini ta‘minlaydi. Barcha a‘yonlar, hatto hind millatiga mansub amaldorlar ham Malika Baydaga o‘ta og‘ir jazo berilishini talab etadilar. Birovi uning tilini sug‘urib olishni, boshqasi quturgan fil oyog‘i ostiga tashlashni, yana biri oyoq-qo‘lini bog‘lab minora ustida qoldirish, qushlarga yem qilishni talab etadi. Ammo Bobur malikaga nisbatan tamomila o‘zgacha “jazo” qo‘llyaydi:

“- Bu malikaning barcha mol-u dunyosini musodara qilib, Jamna bo‘yida bir bug‘ayi xayr qurdiring. Barcha xizmatkorlari o‘sha bug‘ada xizmat qilsin, butun boyligi, molu dunyosini yetim-yesirlarga xayr-ehson qilib ulashinglar”, deya farmon beradi. [Qodirov P., 297] Malikaning o‘zini esa tirik qoldiradi. Bu tom ma‘noda musulmon hukmdorning qarori edi. U hatto o‘z zarariga qilingan jinoyatni raiyat (hind xalqi) manfaatiga bo‘yinsundiradi. Yetimlar, nochorlarga himmat qilar ekan, asli zolim hukmdor bo‘lgan Ibrohim Lo‘dining onasiga bundan ortiq jazo bo‘lmasligini ta‘kidlaydi. Bu ishi bilan adolatparvar hukmdor, chin mo‘min fazilatini namoyon etadi. Shu bilan birgalikda mazkur epizod yozuvchining Bobur shaxsiyati, tabiati, u shakllangan islom muhiti, islom etikasini nihoyatda nozik anglagani, munosib talqin etganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, P.Qodirov badiiy konsepsiyasining mohiyatini Buyuk Temur boshlab bergan sulolaga xos mislsiz tarix bilan bir qatorda boburiylar saltanatini boshqargan hukmdorlar shaxsiyatidagi betakror iste‘dod, shoh va

san'atkor sifatida namoyon bo'luvchi shaxs, tarixiy obraz konsepsiyasi tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Хализев В.Е. Теория литературы. - Москва: Высшая школа, 1999.
2. Носиров А.Н. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида). Филол. фан. номз.дисс.-Т., 1999.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. - Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2002.
4. Криничная Н.А. Русская народная историческая проза. Вопросы генезиса и структуры.-Ленинград: Наука, 1987.
5. Qodirov P. Yulduzli tunlar. WWW.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007.
7. Умуров Ҳ., Носиров А. “Юлдузли тунлар” ва танқидчилик. – Самарқанд: Зарафшон. 2000.
8. Каримов Ҳ. Пиримқул Қодиров ижодий олами. -Тошкент: “Тафаккур”, 2020.
9. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2015.
10. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикasi. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2018.

Ergasheva Rayhon O'tkir qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası o'qıtuvchisi

ZAMONAVIY SHE'RIYATIMIZDA BOBUR TIMSOLI (Sirojiddin Sayyid she'riyati misolida)

Annotatsiya: Maqolada hozirgi zamon she'riyatimizda Zahiriddin Muhammad Bobur timsolini gavalantirish, uning ijodidan ozuqa olish shoir Sirojiddin Sayyid ijodi misolida tahlil qilinadi. Shoir ijodida Bobur obrazi yangicha talqin qilinadi, o'z ijod yo'lida uni yana qayta kashf qiladi hamda ijodinini bu obraz bilan boyitadi.

Tayanch so'zlar: lirika, ko'ngil, g'azal, ruboiy, memuar, “Boburnoma”, shoir, badiiy mahurat.

Annotation: The article analyzes the embodiment of the image of Zahiriddin Muhammad Babur in our contemporary poetry, taking inspiration from his work on the example of the work of the poet Sirojiddin Sayyid. In the work of the poet, the image of Babur is interpreted in a new way, he rediscovers it on the way of his creation and enriches his work with this image.

Key words: lyric, soul, gazal, rubai, memoir, "Boburnoma", poet, artistic skill

Buyuklardan ilhomlanish yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratilishiga sababchi bo'ladi. Iste'dodi baland Sirojiddin Sayyid ixlos bilan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"sini, g'azal va ruboiylarini mutolaa qilgan. Boshqa shoirlar bir asardan bir ilhom uchqunini olsalar, Sirojiddin Sayyid ushbu qomusiy asardan yuzlab marotaba ilhomlangani bilan bizni hayratga soladi. "Biz, boburshunoslar, Bobur "Devoni" – uning ruhiy-hissiy tuyg'ularining marvarid shodasi, "Boburnoma" - shoh va shoirning kundaliklari, sarguzashtlaridir,- der edik.

"Boburnoma" deyarli har bir asrda bir necha marotaba nomini o'zgartirib turganidek (hozirgacha "Boburnoma" 25 nomda atalgani ma'lum. Chunonchi, asli "Vaqoe'" (voqealar) deb nomlangan bu asarning qo'lyozma va nashrdagi keyingi nomlaridan: "Voqeanoma", "Voqeoti Bobur", "Boburiya", "Tuzuki Boburiy", "Bobur esdaliklari"... oxirgilaridan biri "Voqeoti Kobul"), shoir Sirojiddin Sayyid esa "Boburnoma"ning yangi mohiyatini kashf etgan.

*Shoh shoirning ohnomasi - "Boburnoma",
Harb-u zarb, janggohnomasi - "Boburnoma".
Firdavsiyning «Shohnoma"si bordir agar,
Turkiylarning shohnomasi - "Boburnoma".[1]*

Sirojiddin Sayyid "Boburnoma" - esdaliklar asarining o'zidan she'riyatning qaynoq manbalarini ilg'ay olgan. "Boburnoma" havolarida deb atash joiz bo'lgan bu she'rlarni mutolaa qilar ekanmiz, bu to'plam ahamiyatining ikki qirradi diqqatimizni tortadi:

- birinchidan, "Boburnoma" mavzu hududlarida kezingan bu she'rlar mumtoz adib shinavandalari e'tiborini hozirgi zamon she'riyatiga jalb etadi;
- ikkinchidan, hozirgi zamon adabiyoti ishqibozini mumtoz adabiyotni o'qishga rag'batlantiradi" – deb yozadi adabiyotshunos Vahob Rahmon. [1]

Bu she'rlari bilan shoir XVI asr kishilari hayoti, xulq-atvori, baxti va fojiasini bugungi kitobxon uchun yangidan kashf etgan; uslubi qisqalik va lo'ndalikka moyil Bobur talqinlari jo'yaklari ushbu nazmiy ifodalarda sho'x o'qar jilg'alarga aylangan; Bobur ko'z qirini tashlab o'tgan voqea-hodisaga zamondosh shoirimiz maxsus to'xtab qaragan va uni to'rt tomondan kuzatib, miniatyur lavhani yirik polotnoga aylantira olgan va bugungi kitobxon uchun muhim axloqiy-g'oyaviy yo'riqlar manzur etgan. Shoir "Boburnoma" nomli to'qqiz bandli she'rida buyuk qomusiy asarni mohiyatan tahlil etib, har bir banddagi fikrlaridan "Boburnoma"ni quyidagi badiiy nomlarda ataydi: – *Qadrnoma, Taqdirnoma, Jabrnoma, Harbiynoma, Kabirnomasi, Botirnomasi, Xotirnomasi, Sabrnoma...*

To'plamdagi har bir she'rgina emas, har bir baytda shoir bir yangi ta'sirchan fikriy kashfiyot manzur etishga urinadi va bunga muvaffaq bo'ladi. "Andijon ko'rinadir" she'rining to'rt baytiga nazar tashlasak, Samarqandni olib, bag'ri qon bo'lib qamaldan chiqqani, ulug' orzusi katta bobosi Amir Temur shaxsi, umidsizlik fojiasi, kelgusidagi falokatlar tahlikasi sharpalari o'ta ta'sirchanlik bilan qalamdan quyilganiga amin bo'lamiz:

*Ot chopib yurganlarim yodimga tushsa har zamon,
 Qirlarida lolalar bag‘rimda qon ko‘rinadir.
 Ey Samarqand, alvido, osmonlaringni o‘ylasam,
 Har bulutdin menga bir sohibqiron ko‘rinadir.
 Bir xazon yaprog‘idek men bu diyordin ketmisham,
 Ko‘zima ikki jahon bargi xazon ko‘rinadir.
 Tog‘laring ham boshima sermar chaqinlardin qilich,
 Ey falak, niyatlaring asru yomon ko‘rinadir.[1]*

To‘plamni o‘qib turfa kayfiyatlar tuygan kitobxon yengil tortib, "Bobur yozishi kerak bo‘lgan she‘rlarni Sirojiddin Sayyid davom ettiribdi" deya qoniqadi. Zamondosh shoirimizning ushbu "Boburnoma" voqealariga o‘ziga xos naziralarini bastakorning she‘r tanlab, musiqa bastalaganiga ham o‘xshatish mumkin. Chunki Sirojiddin Sayyid she‘r bag‘ishlagan u yoki bu voqeani "Boburnoma"dan o‘qigan kitobxon unchalik ahamiyat bermasligi yoki unda bu darajada kuchli taassurot qoldirmasligi mumkin edi. Vaholanki, bu voqea-hodisalar haqidagi she‘rlar o‘sha shaxs, kishilar, voqea hodisa haqida xilma-xil taassurotlar uyg‘otadi: jilmaytiradi, kuldiradi, afsuslantiradi... Xullas, turfa hislar olamiga olib kiradi. Temuriyzoda Boburning "Boburnoma"sida yuz xil mavzu va siyosiy-axloqiy masalalarga daxl etiladi. Shoir sidqidildan yozilgan, mehr va samimiyat bilan bitilgan o‘z bag‘ishlovlarida kitobxonni buyuk qadriyat sohiblari va milliy qadriyatlarimiz mohiyatini anglashga, shoh va sultonlarimizning millat tarixidagi buyuk shaxsiyatlarini kashf etishga urinadi. Mumtoz she‘riyat va adabiyotdan bahramandlik baxti o‘sha matnlardagi nuqtani – fikriy kashfiyotni idrok etishdadir.

Sirojiddin Sayyid "Boburnoma" havolari”dagi she‘rlarining har birida qalamga olingan voqea-hodisa yoki shaxs haqidagi mohiyatga kitobxon diqqatini torta oladi. Masalan, Bobur otasi Umarshayx Mirzoning "Shohnoma" va "Xamsatayn" - ikki "Xamsa"ni o‘qiganligini aytib o‘tadi, xolos. Endi zamonaviy shoirimizning bu xabarning o‘zini keltirib, undan yangi fikriy kashfiyot qilganini qarang:

*"Shohnoma" o‘qiydi Umarshayx Mirzo,
 O‘qir "Xamsatayn"lar ohnomasini.
 Bilmaski, o‘z o‘g‘li aylagay insho,
 Bir buyuk millatning "Shohnoma"sini...*

Sirojiddin Sayyid ham o‘zi ulug‘lagan o‘zbek "Shohnoma"si mutolaasidan - "Boburnoma"dan ilhomlanib yuzta turli hajmdagi she‘rlar va muxammaslar yozgan. Aruzda yozish oson emas. Buning uchun nainki so‘zni nozik xis etish, uni mahorat bilan saralay olish, muayyan mezonga sola bilish zarur. Hatto bular ham kifoya qilmaydi. Buning uchun mumtoz adabiyot mutolaasidan lazzat olmoq "bilimlar uchligi" — ilmi aruz, ilmi bade‘, ilmi qofiya sirlarini egallamoq talab etiladi. Sirojiddin Sayyid juda ko‘p zamondoshlaridan shu kabi fazilatlar sohibi ekani, bilganlarini amaliyotda maxrrat bilan qo‘llay olishi bilan alohida ajralib turadi. Bugungi shoirlardan kamdan-kami bunday salohiyatga ega ekani sir emas. Zahiriddin Muhammad Boburning "Bahor ayyomidur.." nomli hazaji musammani solim vaznida yozilgan quyidagi mashxur muhammasda yozilgan g‘azaliga bog‘langan taxmis shoirning yuksak salohiyatiga yana bir dalildir:

*Bulut ermas, ko'k uzra tarqagan ko'ngil gumonidur ,
Gumon qilmak bu damda begumon dilning ziyonidur ,
Ko'kargan xor-ila xaslar tiriklikning nishonidur ,
Bahor ayyomidur dag'I yigitlikning avomidur ,
Keltur soqiy, sharobi nobkim , ishrat zamonidur.*

To'g'ri, "xor ila xaslar"ga ko'karmoq sifatini berish biroz g'alat. Ushbu "aybg'ina"ni e'tiborga olmaganda, taxmis vazn jihatdan ham, mazmun e'tibori bilan ham Bobur g'azaliga mutanosibdir. [2]

Shoir ijodida, albatta, vatan, jismonan kuchlilik, shoir tabiatlilik kabi mavzulari Bobur obrazi bilan bog'laydi. Masalan, vatanga bo'lgan tuyg'ulari "Vatan nadur" she'rida quydagicha ifodalaydi:

*Vatan nadir — anglang ranju ozoridan,
So'rang uni podshoh Bobur mozoridan.
Uz zurryodin haydab gulshan gulzoridan,
Devonlarda bag'ri biryon yurt edi bu.* [3]

Shoirning Boburga bag'ishlab "Shoh Bobur", "Tarix" va "Mir temuriy qovunlari" she'rlarida ham vatanni alohida mehr bilan ta'riflab o'tadi:

*Sevinch senmisanmu yo mung senmisan?
Sog'inch senmisanmu ovunch senmisan?
Men seni beparvo tiliklaydurman,
Boburni yig'latgan qovun senmisan?! [2:222]*

"G'alaba va iftixor" she'rida o'zbek o'g'loniga madat so'zlarini aytadi:

*Senda jam shiddatning qancha-qanchasi,
Hazrati Boburning yo'lbars panjasi.* [4]

"She'riyat" nomli she'rida she'riyat maydonini chamanzorga o'xshatadi. Bu chamanzorda gul-u rayhonlar bor. Ularning qanchasi Bobur kabi bargi xazon bo'lgan shoirlardir deb ham go'zal tashbeh keltiradi. She'riyatda Bobur ijodi insonga dalda beradi. Ona tilini Boburdan meros bo'lib qolganligiga urg'u beradi:

*Bobur Mirzo sog'ingan ul qovunlarday,
Qolib ketding ne-ne dovul quyunlarda.
"Boburnoma"ng jabrnomang bo'ldi sening,
Har nomang bir sabrnomang bo'ldi sening.
Avlodlarga mangu meros dastxatimsan,
Millatimsan, ona tilim, davlatimsan.* [4]

"Mutolaa" she'rida Bobur va uning "Boburnoma"sini o'qishga chorlaydi:

*«Boburnoma» uzra kechalar
Yuraklaring sherday to'lg'onar.
Bobur bo'lib, shoh-shoir bo'lib
Usmir qalbing qayta uyg'onar* [3:47] deydi.

Shoir Bobur va Navoiyning ijodini misli egizak, qosh-u ko'z va toj-u taxtga o'xshatadi va masofalarni qalban "Manzillar" nomli she'rida yaqinlashtiradi:

*Misli egiz ko'zu qoshu
Misli yaxlit taxtu toj,
Boburgacha — besh yuz toshu
To Navoiy — ming yog'och.* [2-j 61]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi davr she'riyatimizda shoir Sirojiddin Sayyid ijodi Bobur she'riyati bilan oziqlangan. Shoir keyingi yosh avlodga Boburning ijodiy merosini o'qib o'rganishga da'vat etish bilan birga o'zbek mumtoz adabiyotining yuksakligini namoyon ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиётшунослик луғати./ Қуронов Д. ва бошқ.—Т.: Академнашр, 2010. – 310 б.
2. Саййид С. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур// Раҳмон В. “Бобурнома” ҳаволаарида. Тошкент: Ўзбекистон, 2010. -160 б. 154-бет
3. Саййид С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд.—Т.: «Шарқ», 2008. 362-б.
4. Саййид С. Сўз йўли: Сўз йўли.: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд.—Т.: «Шарқ», 2007. 250-б.
5. Sirojiddin Sayyid. Eldoshlarim, dildoshlarim.—Т.:Adabiyot. 2021. 21-75-betlar.
6. Sayyid S. Ko'ngil sohili, Tanlanga asarlar. 2-jild. – Т.: “Sharq” , 2008. – 367 b.

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU doktoranti

ASQAR MAHKAM IJODIDA MIRZO BOBUR SIYMOSI TALQINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Asqar Mahkamning “Tavajjuh” dostoni poetik tahlilga tortilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur siymosini ochib berishda ijodkor mahorati, zamonaviy she'riyat va mumtoz an'analarga xos ma'rifiy-tasavvufiy g'oyalar tahlili yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tavajjuh,tazarru, ma'rifat, darvesh, pir, podshoh, ko'ngil.

Annotation: In this article, the epic "Tavajjuh" by Askar Mahkam is poetically analyzed, focusing on the portrayal of Zahiriddin Muhammad Babur. The analysis emphasizes the creative prowess, contemporary poetry, and classical traditions of enlightened-mystical concepts.

Key words: “Tavajjuh,” "tazarru," enlightenment, dervish, guide, king, and the heart.

She'riyat shunday bir ummonki, unga g'arq bo'lmay turib asl mohiyatini his etish amrimahol. Har qanday she'r idrok va hissiyotning o'zaro uyg'unlashuvi hamda ilohiy bir ilhom natijasidir. Shoir she'r yozar ekan, she'rda o'z shuuri chegaralarigacha bo'lgan ma'nolarni ifodalashga qodir. Shunday shoirlar borki, bir necha misrada butun bir insoniyatni fikrlashga undovchi g'oyalarni tarannum etadi.

Satrlari xalq qalbi va tiliga ko'chadi. Asl she'r shoirning ko'zgudagi aksi kabi bo'lmog'i lozim, yo'qsa maddohlik botqog'i o'z domiga tortib ketishi mumkin. Qalbidagi chin ma'rifat so'zlariga ko'chgan, adabiyot osmonidagi so'nmas yulduzlardan biri Asqar Mahkam ham asl shoirlardan edi. Shoir she'riyati bilan tanishgan kitobxon bevosita uni Haqni tanigan va Haqni kuylagan ijodkor sifatida taniydi. She'rlarida ma'rifiy-tasavvufiy g'oyalar, mumtoz an'analarga xos ma'nolar zamonaviy shakllar bilan uyg'unlikda ifoda etiladi.

Asqar Mahkam she'riyatda o'z yo'li va uslubiga ega ijodkordir. Shoir qalbidagi jimlik–isyon juda kuchli, ifodalash uslubi esa bir qadar sokin va silliq, o'ziga xosliklardan iborat. Shoir ijodini maqsadi Haqni anglash bo'lgan bir yo'lga qiyoslash mumkin. Bir adabiyotshunos olim aytganidek: *“Kamolot yo'lidagi ijodkorlarning izlanishlari ikki bosqichda kechadi. Birinchisi – so'z hajri..., ...ikkinchi bosqichi nur hijronidir”*. [Sayyid Na'matulloh Ibrohim, 1998: 7] Asqar Mahkam ham bu bosqichlarda izlanishning teran va mashaqqatli yo'llarini bosib o'tdi. Mumtoz ijodkorlarga bo'lgan oshnolik uning qalbida Haqni anglash maqsadiga aylandi. Allohning kalomi va suyakli payg'ambari sunnatlarini chuqur o'rganishga undadi. Bu ikki manzilni bosib o'tgan ijodkor borki, adabiyot osmonida o'z yo'li va o'rniga ega yulduzga aylanadi. Asqar Mahkam qalbida tajalliy etgan nur, teran tavajjuhni paydo qildi. Bu tavajjuh faqat unga xos, o'ziga xos edi va bu so'z qudrati ila dunyo yuzini ko'rdi. Shoir qalbidagi bu holatni uning *“Tavajjuh”* dostonidagi ayrim boblar tahlili orqali anglashni maqsad qildik.

Shoir *“Tavajjuh”* dostonida dunyo va insoniyat haqidagi qarashlarini Mirzo Bobur obrazi yordamida ifodalaydi. *““Tavajjuh”dagi Mirzo Bobur obrazi shoir “men”i bilan qorishib ketgan holda ko'z o'ngimizda ogohiy bir insonni paydo qiladi”*. [Sayyid Na'matulloh Ibrohim, 1998: 8] Ushbu doston 1989–yilda yozilgan bo'lib, jami 12 bobdan iborat:

Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur ro'zg'origa doir; *“Mirzo Bobur tazarrusi”*; *“Mirzo Boburning qazo va qadar haqida o'ylaganlari”*; *“Mirzo Boburning muroqabasi”*; *“Mirzo Boburning Vatan haqida o'ylari”*; *“Mirzo Boburning ulusga arzi”*; *“Mirzo Boburning fano va baqo haqida o'ylaganlari”*; *“Mirzo Boburning Alisher Navoiyga maktubi”*; *“Mirzo Boburning Vatanga marsiyasi”*; *“Mirzo Boburning Shayboniyxonga maktubi”*; *“Mirzo Boburning Xo'jandda shayx Maslahatdin maqbarasi qoshidagi o'ylari”*; Xotima. *“Mirzo Boburning piri shayx Hikmatulloh ibn Ziyodullohga maktubi”*.

Yuqoridagi har bir bob Bobur tafakkurining turli qirralarini ochib berishga xizmat qiladi, lekin butun bir voqelikni aks etmaydi. Adabiyotshunos olim Sh. Hasanov asar mohiyati haqida so'z yuritib shunday deydi: *“Tavajjuh... Boburning o'z–o'ziga, ko'ngliga xitobi, malomati... Bunda voqeliknimas, voqelik sharpalarini ilg'ash mumkin. Dostondan voqelikni izlash, quyuuq tuman aro atrofqa qarashdek gap. Asarning butun qurilishi lirik tasvir usuliga bo'ysundirilgan. Bir she'rdek o'qiladi”*.

Darhaqiqat, asarni o'qigan kitobxon ko'z o'ngida Mirzo Boburning qalb kechinmalari, dunyo illatlariga bo'lgan isyoni, insoniyatning qora taqdiridan afsus-nadomat chekkan shoir iztiroblari namoyon bo'ladi. Buni doston muqaddimasida Boburning o'z ro'zg'ori– temuriylar oilasidagi parokandaliklardan shikoyati

misolida ham ko‘rish mumkin. Shoir bu o‘rinda Bobur Mirzo ijodida qayta-qayta jaranglagan so‘z– “topmadim” kalimasidan mohirona foydalanadi. “Topmadim” so‘zi misralar boshida takror-takror kelarkan, kitobxon Boburning qiyinchilik va iztiroblarga to‘la hayot yo‘lini bevosita his qiladi, ko‘z o‘ngida jonlantiradi. Muqaddima “*Topmadim temuriy shahrudlar aro...*” misrasi bilan boshlanadi. Bunda Bobur o‘z oilasidan shikoyat qiladi. Ma‘rifatni pulga almashgan shahzodalar, taxt uchun bir-birini ayovsiz o‘ldirgan qondosh jigarlar holatidan qalbida buyuk bir iztirob, alam va hasrat tuyadi.

Shoir milliy tariximizning qora illatlariga bo‘lgan nafrati va isyonini, o‘sha davr ishtirokchisi bo‘lgan Mirzo Bobur tilidan bayon qilmoqda. Shoir fikricha, turkiy millatning haq yo‘ldan adashishiga dastlabki sababchilar–temuriy shahzodalar go‘yo. Albatta shoir buni ochiq bayon qilmaydi. Bobur tili bilan birma-bir oshkor qiladi.

...Topmadim, shohlardan keyin beshoxlar

Eshakdek mindilar tillo taxtlarni,

bir karra zinodan bo‘lgan bolalar

bir karra zinoga sotdi xalqlarni. ... [Mahkam A., 1998: 253]

Anaforaga asoslangan takrorlar doston badiiyatida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Ya‘ni Bobur shaxsiyati va shoir “men”i birgalikda qorishib kuchli bir isyonni paydo qilganki, buni so‘z bilan ifodalashda takrorlar yordamga kelgan. Ta‘sirchanlikni oshirib, shoir ruhiyatini jonlantirishga xizmat qilgan.

Dostonning “Mirzo Bobur tazarrusi” nomli ikkinchi bobi alohida o‘ringa ega. Bizningcha, ushbu bobni asarning kulminatsiyaga boy bo‘g‘ini desak xatò bo‘lmaydi. Bobda Mirzo Bobur o‘zining gunohlarga qorishgan hayotidan shikoyat qiladi. Butun vujudi bilan Haqqa tavba- tazarru qilib, to‘g‘ri yo‘lga kirmoqlikni istaydi. Bu dunyoning o‘tkinchiligi, shoh-u gado bir banda ekanligi, dunyo ne‘matlariga emas, haqiqat yo‘liga intilib yashash kerakligi g‘oyasi bobning asosini tashkil qiladi.

Keyingi misralarda shoir Bobur siymosida ikki insonni ko‘radi. Birinchisi ruh– gado; ikkinchisi vujud – podshoh yashaganligiga ishora qilib shunday deydi:

...Shoyad bir bokira saboh oldidan –

bu majnun ruhimdan chekinar vujud.

Birimiz podshohu birimiz gado.

yashadik bosirqi tun yanglig‘ o‘truk. ... [Mahkam A., 1998: 255]

Mirzo Bobur bir vaqtning o‘zida ham oddiy gunohkor banda sifatida, ham butun bir mamalakat taqdiriga mas‘ul podshoh sifatida Allohga tavba qiladi. Xatolaridan qalbida pushaymonlik tuyadi. O‘z-o‘zini malomat qiladi.

Unutdik bul ko‘prik so‘l tomonida

umrimiz haqqini, qazo haqqini.

Qay yonda bir mo‘min ko‘rsak o‘ldirdik,

bo‘g‘izlay boshladik Xudo xalqini. ... [Mahkam A., 1998: 255]

Shoir bir o‘rinda Boburni o‘z xatolariga iqror bo‘lib jazosini olishga tayyor gunohkor banda sifatida tasvirleydi va bu isyon–tavba takrir san‘ati vositasida namoyon bo‘ladi.

...Temuriy esam-da, Mirzo esam-da,

men banda... men banda... men banda... [Mahkam A., 1998: 258]

Bobur podshoh sifatida tavba qilar ekan, uning tavbasi butun bir xalq nomidan jaranglaydi. O‘z maqsadlari yo‘lida qurbon bo‘lgan xalqni, shahid ketgan askarlarni, ularning ayriliqda qolgan oilasi va yetim farzandlari oldida o‘zini gunohkor sanaydi. Ba’zi o‘rinlarda shoir misra takroridan foydalanib, Bobur qalbidagi chin tavbani kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalandiradi. Bu dunyoga ko‘ngil qo‘ygan insonlarga, ayniqsa, dunyo lazzatlariga qul bo‘lgan sultonlarga qarata xitob qiladi.

*...Ey, vujud qullari, fano itlari,
ruhingiz gavharin pok tuting baddan,
Tanangiz daraxti chirib bitmasdan,
bir ko‘ngil uzlatin tutingiz vatan...* [Mahkam A., 1998: 256]

Moddiy dunyoga bog‘lanib oxiratni unutgan kimsalar “vujud qullari”, “fano itlari” deya ta’riflanmoqda. Ushbu ramziy o‘xshatish mumtoz adabiyotda, xususan, Alisher Navoiy ijodida ko‘p uchraydi. Bu o‘rinda shoir mumtoz an‘analarga xos tasvir usulini zamonaviy she‘riyatda mohirona qo‘llagan.

Shoir Bobur siymosini tasvirlar ekan, uni dunyoga qo‘l siltagan zohid sifatida tasavvur qilishga undaydi. O‘xshatish san‘atidan unumli foydalanadi. Boburni kushxona poyida kun o‘tkazuvchi itga o‘xshatadi. Bu it kushxona qoldiqlardan to‘yib, keyinchalik bularga e‘tibor bermay qo‘ygani kabi Bobur ham bu olam haqqidan to‘yganligini tan oladi. Vujudan podshoh bo‘lsa -da, qalbida zohidona ruh ufurib turadi. Yana bir o‘rinda shoir tilidan Bobur o‘z nafsiga qarata shunday deydi:

*...Bir aso keltiring va bitta kuloh,
go‘daklar eshakdek minsin taxtimni.
Sen kulma, sen kulma faqat, besh kunlik
Tupugi sharobu tuklari tillo...* [Mahkam A., 1998: 263]

Oshiq ahli borki, uning maqsadi ko‘ngil sirlarini ochmoqdir. Sharq mumtoz adabiyotida ko‘ngil muhim obraz darajasiga ko‘tarilgan. Shoir bu obrazni zamonaviy she‘riyatda Bobur tilidan jonlantiradi. Boburning o‘z ko‘ngliga qarata qilgan shikoyati lirik takrorlar yordamida ta’sirchanlik kasb etadi. Shoir ko‘ngilni bag‘irdagi musofirga o‘xshatadi

*...Qismatingni ayon aylading oxir,
mendani qolajak kul, sendan qolar kul.
Ey, mening bag‘rimga qo‘ngan musofir,
Ey ko‘ngil, ey ko‘ngil, ey telba ko‘ngil! ...* [Mahkam A., 1998: 265]

Ko‘ngil dunyosi insoniyat uchun Alloh tomonidan berilgan bir mo‘jiza bo‘lib, butun umrini bu sinoatni anglashga bag‘ishlagan ne-ne zotlar o‘tmadi. Bizningcha, Bobur bu sirni yechishga urinmaydi, u faqat ko‘ngilidan otilib chiqqan isyondan yana shu ko‘ngliga shikoyat qiladi xolos.

*...Sen ham oshiq eding, men ham oshiqman,
Ey ko‘ngil, ey ko‘ngil, ey telba ko‘ngil!...
...sen bir Gado eding, men podshoh edim
Ey ko‘ngil, ey ko‘ngil, ey telba ko‘ngil! ...* [Mahkam A., 1998: 265]

Dostonda Vatan tavsifi deyarli har bir bobda uchraydi. Bizga ma'lumki, Vatanga bo'lgan muhabbat va sog'inch dardini Mirzo Boburchalik hech kim his qilolmaydi. Shoir Asqar Mahkam ham buni chuqur idrok etib, tug'ilib-o'sgan ona zaminga bo'lgan muhabbatini Bobur tilidan tasvirlaydi. Yana bir jihati borki, bu satrlar shoirning mustamlaka qilinib, erki toptalgan vataniga bag'ishlangan marsiyasi hamdir. Va bu marsiyani shoir o'zi yashab turgan zamondan uzoq tarixga, Bobur Mirzoning tiliga ko'chiradi. Bu ikki ruhning Vatan haqidagi qarashlari birlashib, buyuk bir dardni paydo qiladi. Bu dard shoir mahorati va anaforik kompozitsiya vositasida so'zga ko'chadi.

*...Vatan– xotirasi jizg'anak tana,
Vatan– tili kesib tashlangan oqin.
Vatan– go'rlar uzra avaxtaxona,
Vatan– ajdodi haq, avlodi xoin.
Vatan– tashlangan non, tashlangan uvoq,
Vatan– muazzinlar so'yilgan masjid, ... [Mahkam A., 1998: 270]*

Erki va dini toptalgan zamin, tarixi unutilgan millat qayg'usi shoirni ushbu satrlarni bitishga undaydi. Millatni uyg'onishini istaydi. Bobur tilidan Xalqqa qarata ey xalq, qachongacha qaram yashaysan, qachongacha shu holingga shukr qilasan... qachon erk uchun odim otasan deya xitob qiladi:

Bobur Mirzo yashagan qisqa hayoti davomida Vatan sog'inchi uni bir lahza ham tark etmadi. U butun umr unib-o'zgan diyorini qumsab yashadi. Shoir Boburning sog'inch iztiroblarini vujudi bilan his etdi va qog'ozga ko'chirdi.

*...Vatan– isiriqning bo'ylariga g'arq,
Vatan– Zahiriddin o'g'loningdan ton.
Vatan– quyoshini o'g'irlatgan Sharq,
Vatan– jonimni-da yegan Andijon. ... [Mahkam A., 1998: 281]*

Bobur vujudi ulg'aygan Vatani sifatida Andijonni ko'radi, undan ayrilganidan hasrat chekadi. Yana bir o'rinda esa zohid qalbining qaytariqlariga ko'nadi, iymondan boshqasiga qo'l siltaydi.

*...Ey sen– qilichi qon, yurak–bag'ri qon,
Andijonda jonin itlar talagan,
Tog'u toshlar oshib yurgan bemakon,
Mana, senga iymon atalgan vatan! ... [Mahkam A., 1998: 298]*

Umuman olganda, dostonda Vatan qiyofasi turlicha talqin qilinadi. Har bir satrda shoir qarashlari Mirzo Bobur tavajjuhi bilan uyg'unlashuv kasb etadi. Asarda e'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir jihat shuki, shoir Boburning Alisher Navoiyga, Shayboniyxonga, piri Hikmatulloh ibn Ziyodullohga qilgan murojaatini maktublar tarzida ifodalaydi. Bu maktublarda Boburning shoir, shoh va tariqat yo'liga kirgan murid sifatidagi qarashlari bayon qilinadi. Ularga dunyo illatlaridan shikoyat qiladi. Albatta bu shikoyat Asqar Mahkamning qalbida isyon otgan, vijdonini har lahza qiynoqqa solgan arznoma hamdir. Shoir Bobur tilidan hazrat Navoiyga qarata shunday deydi:

*...Talashib tushganlar bitta qorindan–
turkiylar turkiyni qildilar qirg'in.
Pirim, Siz yakqalam qilgan bu yurtlar*

Yakka–yakka bo‘lib so‘ydi bir–birin,

Oyoq osti bo‘ldi Qoshg‘ariy tili

Unutildi she‘ru ishqu zarofat, ... [Mahkam A., 1998: 287]

Parchada shoir turkiy ellarning parokandaligi, turkiy tilning, turkiy qadriyatlarning poymol bo‘lishidan siqiladi. Din peshvolarining soxta iymonlaridan qalbida chuqur og‘riq tuyadi. Bu achchiq hissiyotlarni tasvirlashda ham misra takroridan unumli foydalanib, ta’sirchanlikka erishadi. Boburning Shayboniyxonga yuborgan maktubida esa sultonlarga xos vazminlik va vatanparvarlik, bobosi Temurga xos fidoyilik va jasurlik xislatlari sezilib turadi. Bobur Shayboniyxonga ikkimiz ham suyagi qilichga aylangan ermiz, kun kelib jismimiz tugab bir siqim tuproqqa aylanamiz deya o‘git beradi. Bobolaridan meros vatanni tortib olayotganini pastkashlikka yo‘yadi, hatto mag‘lub holida ham bosh egmaydi.

...Xon, na siz g‘ozisiz va na men– g‘olib,

muzaffar bo‘lmasiz taxtdan yiqilsam.

Sipohlar lohimni sanochga solib,

kallamni barkashda keltirsalar ham. ... [Mahkam A., 1998: 290]

Shoir Mirzo Boburning Hikmatulloh ibn Ziyodullohga maktubini doston xotimasida beradi. Murid doim o‘z murshidi komilidan haq yo‘l umidida bo‘ladi. Bobur ham o‘z piriga qalbini o‘rtayotgan iztiroblardan, hayoti davomidagi gunohlaridan, toyilishlaridan shikoyat qiladi. Boburning kamolotga erishgan shayx ekanligi iqrori bilan boshlanadi. Chunki tariqat yo‘liga kirishning birinchi sharti Haqqa yetishgan ustozni izlab topmoqdir. Shoir purning komil ekanligini “...*Vahdat kechasida giryon edingiz...*” misralari orqali ayon qiladi.

Keyingi misralarda Bobur o‘z taqdiridan, dunyo sinovlaridan, podshohlikning og‘ir yukidan shikoyat qilib shunday deydi:

...Qiblagoh, yig‘ladim, yirtib bo‘g‘zimni,

ko‘ngil qoni kuydi yuzimdan oqib.

Men qandoq musulmon deyman o‘zimni

vayron elatlarning ko‘ziga boqib? ... [Mahkam A., 1998: 295]

Bobur dostonning ko‘p o‘rinlarida o‘zini qalban darvesh, vujudan shoh ekanligiga qayta-qayta iqror bo‘ladi. Bu iqrorlik xotimada yanada kuchaytiriladi.

...Qiblagoh, goh savob, goh gunoh ichra

yalangayoq darvish, oltintoj shohman. ... [Mahkam A., 1998: 295]

... Qiblagohim, so‘ng bor shafolat qiling,

dayr mahshargohi ichra fanoman.

Tojim uzra kuloh kiyganman, tilang,

Zahiriddinman men–minbad Gadoman... [Mahkam A., 1998: 300]

Shoir Boburni piriga qo‘l berib tariqat yo‘liga kirgan murid sifatida gavdalantiradi. Murid va murshid o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashda valiy, zohid, pir, kuloh, darvish, fano, vahdat, tasbih dayr, gado, it kabi tasavvufiy istilohlardan foydalanadi. Bilamizki, Sharq adabiyotida bu istilohlar hikoyat va rivoyatlar orqali obraz darajasiga ko‘tarilgan. Shu qatorda Alisher Navoiy, Sa‘diy Sheroziy, Fariddin Attor kabilar ijodini keltirishimiz mumkin. Zamonaviy adabiyotda ham bu obrazlar yangicha qiyofalarda talqin qilinmoqda.

Shoir doston badiiyatini oshirish uchun takrorga asoslangan she'riy san'atlardan unumli foydalanadi. Takrir san'atiga ham ko'p murojaat qilgan. [*Ey ko'ngil, ey ko'ngil, ey telba ko'ngil!; men banda... men banda... men banda*] Misralar boshida "topmadim" so'zini qayta-qayta keltirib anaforani hosil qilgan bo'lsa, "Vatan" so'zini takrori anaforik kombinatsiyani yuzaga keltirgan. Dostonda nido san'atini ko'p o'rinlarda kuzatish mumkin. Shoir Boburning Allohga munajatida "Yo, Tangrim", "Yo, Rabbiy", "Yo Bor Xudo" birikmalaridan foydalanadi. "Ey" so'zi go'yoki bir chaqiriq vazifasida insonlarga, xalqqa, ko'ngliga, yorga, pirga, ustoziga, vataniga nisbatan ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, Asqar Mahkamning "Tavajjuh" dostonida dunyo haqiqati va insoniyatning mash'um taqdiri haqidagi qarashlar ta'sirchan bo'yoqlarda ifodalangan. Shoir qalbidagi tavajjuhni ifodalashda uzoq tarixga qaytadi va bu tavajjuh Mirzo Bobur tilidan ajdod va avlodlarga xitobnoma kabi yangraydi. Dostonda Bobur shaxsiyati quyidagicha ochib beriladi:

Birinchidan, Mirzo Bobur siyratan Haqqa intilgan darvesh, suratan xalqi g'amida yashagan sulton sifatida;

Ikkinchidan, bu dunyoga qo'l siltagan zohid, ma'rifatga intilgan olim sifatida;

Uchinchidan, Vatanni sevuvchi, uning kelajagi uchun qayg'urgan vatanparvar sifatida;

To'rtinchidan, Haqni kuylagan shoir, tariqat yo'liga kirgan murid sifatida gavdalantiriladi.

Shoir doston badiiyatini oshirish uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, lirik takrorlardan– anafora, epifora, misra takrori va anaforik kombinatsiya kabilardan unumli foydalanadi. Nido, istiora, o'xshatish singari she'riy san'atlar ham Mirzo Bobur ruhiyatini jonlantirishga xizmat qiladi. Doston Bobur tilidan butun insoniyatga qarata aytilgan nido kabi yangraydi:

...Ogoh bo'l, hech narsa qolmas olamda,

ogoh bo'l, hech narsa qolmas, ey inson!

Ogoh bo'l, hech narsa qolmas olamda,

ogoh bo'l qolgaydir birgina iymon! ... [Mahkam A., 1998: 278]

Asqar Mahkam har bir satrda kitobxonni ma'rifatga undaydi, Haqqa da'vat etadi. Uning ijodi ma'rifiy–tasavvufiy g'oyalar asosiga qurilgan bir yo'l kabidir. Bizningcha, bu yo'l hozirgi zamon she'riyatida o'ziga xos yo'nalishning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkam A. Haq.–Dushanbe: "Adib", 1998. - 551 b.
2. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari.–Toshkent, 2010.
3. Sayyid Na'matulloh Ibrohim. Ruhning rangin sadolari. A.Mahkam "Haq".–Dushanbe, "Adib",1998. - 551 b.

XAYRIDDIN SULTON QISSALARIDA BOBUR SIYMOSI
(“Saodat sohili” qissasi asosida)

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Xayriddin Sultonning “Saodat sohili” qissasining badiiyati, sujeti va kompozitsiyasidagi o‘ziga xosliklar, tili va uslub jihatdan ahamiyati, yozuvchining obraz yaratish va so‘z qo‘llash mahorati atroflicha tahlil qilingan. Bobur siymosining qissada bayon etilgan o‘ziga xosliklari ilmiy va nazariy jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Qissa, personaj, badiiy obraz, poetika, sujet, kompozitsiya, komil inson.

Annotation. In this thesis, the artistic, subject and compositional features of Khairiddin Sultan's short story “Saodat sahili”, the importance of language and style, the writer's skills in creating an image and using words are thoroughly analyzed. The peculiarities of Babur's character described in the story have been scientifically and theoretically studied.

Key words: Short story, character, artistic image, poetics, subject, composition, perfect person.

Xayriddin Sulton bugungi o‘zbek qissachiligida o‘ziga xos ovoz, o‘ziga xos uslub bilan bir-biridan original asarlar yaratib kelayotgan adiblardan biri. Adib qissalari pishiq va puxtaligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton adabiyotga o‘tgan asrning 70-yillarida kirib keldi. Adib adabiyotimizga yangi mavzular, yangi qahramonlar olib kirdi, uning personajlari nihoyatda tabiiyligi, hayotiyliigi, milliyliigi va zamon bilan makonning uzviyligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton qissalarida insonning qalb kechinmalari, ruhiy tug‘yonlari milliylikka yo‘g‘rilgan holda tasvirlanadi. Adib o‘z oldiga insonning qalb kechinmalarini, qalb sirlarini yechishni maqsad qilib qo‘yadi. Personajlar haqida so‘zlar ekan, ular haqida, ularning hayoti haqida batafsil hikoya qilish yo‘lidan bormaydi, balki qahramonlar boshidan kechirgan eng murakkab vaziyatni yoki mana shu vaziyatga daxldor voqeani oladi va shu asosda xarakter yaratadi. Ularning xatti-harakatlari, ichki kechinmalari psixologik jihatdan asoslanadi, personajlar nutqi shunday mahorat bilan beriladiki, kitobxon beixtiyor qahramonlarning samimiyligiga ishonadi.

Xayriddin Sulton “Saodat sohili” qissasida ham obrazlar o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlanadiki, adib oddiy voqea-hodisalar zamiridagi nozik jihatlarni ilg‘ab, ularga muhim ma‘no-mohiyat yuklaydi. Milliy ma‘naviyatga daxldor, xalqning o‘lmas udum va an‘analariga oid muammolar o‘ziga xos yo‘sinda ifodalab beradi. Yozuvchi Boburning hayoti va ijodiga qiziqish paydo bo‘lishi haqida bunday deydi: “O‘n to‘rt yoshlarimda ilk bor bu nuroniy siymoning tasviri chekilgan suvratni ko‘rdim. O‘lis qishloq maktabi, qahraton qishning dilgir kunlari, adabiyot xonasi devoriga osilgan muhtasham portret va undan muloyim tabassum ila boqib

turgan, shohona sallasiga ukpar jig'a qadalgan ulug'sifat insonning bori-borlig'i murg'ak tasavvurimga shu qadar teran o'rnashdik, dars paytida ham, tanaffus chog'lari ham uning mardona chehrasidan ko'z uzolmas edim. Bu nurli qiyofa mujassam shijoat, mujassam iztirob bo'lib tuyular, suvrat ostidagi "Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi, Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi, O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim, Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi" degan sodda, hazin misralar bir o'qishdayoq yod bo'lib ketgan, shu satrlarni ko'cha-ko'yda ham, dala-dashtda ham takrorlab yurar edim. Ularning ma'yus ma'nosi, shikasta ohangi dilimga qattiq ta'sir qilar, o'z-o'zidan yig'lagim, uzoq bir joylarga bosh olib ketgim kelar edi. Shu yo'sinda Bobur Mirzoning mardlik va muruvvatda, zakovat va matonatda tengsiz shaxsiyatiga maftun bo'lib qoldim. Men uni otamday, onamday, farzandimday yaxshi ko'rib qoldim". Bobur shaxsiga shu tarzda maftun bo'lib qolgan Xayriddin Sultonov dastlab u haqda "Yo'lbarsning tug'ilishi" nomli kinohikoya, undan keyin esa "Oy botgan pallada" hikoyasini yozdi. Bu asarlarning asosiy qahramoni sifatida Boburni ko'rsatdi. Xayriddin Sultonovning Boburning shoh va shoir sifatidagi murakkab siymosini gavdalantirish yo'lidagi dadil intilishi "Saodat sohili" qissasida, ayniqsa, yorqin ko'rindi. 1981-yilda "Yoshlik" jurnalining dastlabki sonida bosilib chiqqan ushbu qissa "Usta Binoqul, qani turing, shom tushmay, huv dovonga yetib olaylik! O'sha dovonga yetaylik, u yog'i-yo Razzoq!" deb boshlanadi. "Saodat sohili" – Xayriddin Sultonovning birinchi yirik asari. Bu qissa jozibador badiiy tilda yozilgan, qahramonlar holati, ichki kechinmasini ta'sirchan gavdalantirgani bois darhol o'quvchilar e'tiborini tortdi. Ushbu qissa tili tarixiy mavzudagi eng yaxshi asarlarga xos jihatlar yorqin aks etgan. Unda tarixiy muhit, voqealar kechayotgan manzil-makonlar manzarasi jozibador tasvirlangan. Qahramonlarning dialog, monologlarida ham tarix nafasi yaqqol seziladi. Qissa Hindistonga, Bobur huzuriga borish maqsadida yo'lga chiqqan Hofiz Ko'ykiy va usta Binoqulning boshidan kechirganlari tasviri bilan boshlanadi. Binoqul Bobur bilan birga Hindistonga kelgan otasini daraklab, Hofiz Ko'ykiy bilan birga yo'lga chiqadi. Ammo yo'lda ular ketayotgan karvonni qaroqchilar talaydi. Qochayotib Binoqul oyog'i toyganidan tog' unguridagi chuqurlikka yiqilib tushadi. Umurtqasi qattiq shikastlanganidan yo'l yurolmay halok bo'ladi. U o'limidan oldin Hofiz Ko'ykiyga: "Armonim ichimda qoldi, taqsir. Padarimning daragini bilsam edi. Bobur shohni bir ko'rsam... Taqsir, mana shu kitobni men unga ixlos bilan tortiq etmoqchi edim. O'zim kitobat qilib edim. Bilmaysiz, taqsir, o'zim ham bilmayman, lekin nechundir xudo mening mehrimni ul zotga tushirgan. So'nggi tilagim ham, vasiyatim ham shu: bu kitobni Bobur hazratlariga eltib, duoi salomimni yetkaz gaysiz" deydi. Qissada Hofiz Ko'ykiyning Hind diyoriga borib, Bobur shoh bilan uchrashib, shogirdi usta Binoqulning vasiyatini amalga oshir gani ta'sirchan hikoya qilinadi. Hofiz Ko'ykiy ilm o'rganishga umrini bag'ishlagan, bu yo'lda cheksiz mashaqqatlar tortgan mutafakkir zotlarning mujassam siymosi sifatida taassurot uyg'otadi. Hofiz Ko'ykiy qissada dunyoning qariyb yarmini kezgan jahongashta odam, hayotning qadrini, tiriklikning nechog'li ulug' ne'mat ekanini teran anglagan, so'qqabosh, vorasta – ozod, erkin odam deb ta'riflanadi. Boshidan kechirganlari-yu kechinmalari haqiqatan uning shunday zot bo'lganligi haqida tasavvur uyg'otadi.

Xayriddin Sulton Hofiz Ko‘ykiy xarakterini dastlab Binoqulning ustozlari to‘g‘risidagi mulohazalari orqali ta‘riflanadi.

Xayriddin Sulton Boburning kechinmalarini tasvirlashda obrazli ifoda, tashbehlar qo‘llaydi. Bu bilan uning shoirona qalbini aniq ifodalaydi. Ayni o‘rinda ishlatilgan “ularning bari barmoq orasidan shuvillab to‘kilgan qum singari xotirasi qatlaridan bir-bir sirg‘alib tushayotganini sezdi” degan jumla Boburning xayolga botib turgan holatini aniq gavdalantiradi. Hofiz Ko‘ykiy Boburga hayotda juda ko‘p narsalarni ko‘rgan, kechirgan, mushohada qilgan odamlarga xos muomala qiladi. Hofiz Ko‘ykiy dastlabki uchrashuv chog‘idayoq Boburga: “Ona vataningizdan, ko‘z ochib ko‘rgan viloyatlaringizdan sizlarga ko‘pdan ko‘p duoi salomlar keltirdim. Ota yurtimizning tabarruk yodi muborak xotirlaridan ko‘tarilmagan bo‘lsa kerak...” deb aytadi. U bu tarzda gap boshlash bilan Boburning kayfiyatini, vataniga, vatandoshlariga munosabatini bilmoqchi bo‘ladi. Bobur ham alloma Hofiz Ko‘ykiyning ko‘nglidagi o‘yini sezganday ovozi titrab: “Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? Unutgan kishining ko‘zlariga tiriklayin tuproq to‘lmasmi?” deb javob beradi. Vatandan ayrilgan, dushmanlari tomonidan o‘z diyorida quvib chiqarilgan Boburning o‘rnida bir kishi bo‘lganida u alamzadaga aylanardi va vatanini bu qadar sog‘inib eslamasdi. Hofiz Ko‘ykiy shuni aniqlash maqsadida ham “Ota yurtimiz”ning tabarruk yodi muborak xotiralaridan ko‘tarilmagan bo‘lsa kerak” deb savol beradi. Boburning vatanini sog‘inib yashashini bilganidan keyin mamnun bo‘lgach: “Haq so‘zni aytdingiz, olampanoh. Komil inson kindik qoni to‘kilmish yurtni hargiz unuta olmas. Inchunun, sizga atalmish bir omonatni topshirmoq menga qismatlig‘ qarz edi. – U qo‘ynidan nafis saxtiyon muqovali kitobni olib, Boburga avaylab uzatdi”. Alisher Navoiyning Binoqul tomonidan ixlos va mehr bilan kitob qilingan “Nasoyim ul-muhabbat” asarini qo‘lga olar ekan, “Muhabbat nasimi kelgan yurtga jon sadaqa bo‘lsin” deydi. Kitob nomidagi “nasim” degan bir so‘zdan bunday ma‘no anglashi ham Boburning qalbida vatan sog‘inchi g‘oyat yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Xayriddin Sulton Bobur xarakterini uning vatanni sog‘inishi, qo‘msashi orqali ochadi. Shoir va shoh Boburning qalbini uning ota-bobolari yurtini eslab azoblanishi asosida gavdalantiradi. Boburning vatan sog‘inchini uning tushi bilan bog‘lash, uni “saodat sohili” deb nomlash yozuvchining o‘ziga xos badiiy topilmasiga aylangan. Hofiz Ko‘ykiyning Boburga “siz tushlaringizda intilgan manzil-saodat sohili vatanda” deyishi ham qissaning eng ta‘sirchan o‘rniga aylangan. Hofiz Ko‘ykiydan bu javobni eshitganda Bobur qanday holatga tushgani, atrof qanday ko‘rinish olgan asarda quyidagi tarzda jozibali tasvirlangan: “Bobur birdan yalt etib qaradi. Shohning sarxush ko‘zlarida nogoh o‘kinch ko‘lankasi paydo bo‘lganini ko‘rib, Hofiz Ko‘ykiy g‘ayrushuriy tarzda uning dilidagi bitmas jarohatga tig‘ tortganini payqadi-yu, xijolat chekib, yerga tikildi. Ufq quyoshni o‘z bag‘riga dafn etdi. Bulutlarning ko‘ksi qonga to‘ldi. Olisdagi tog‘lar unsiz faryod chekdi. Yorug‘ olamda bu faryodni muazzam toqi ravoqda o‘z xayollariga g‘arq bo‘lib o‘tirgan ikki kishidan bo‘lak biror kimsa eshitmadi”. Ushbu qissada Bobur xarakterining eng muhim jihati – uning doimo vatani sog‘inchi bilan iztirob chekib yashagani, o‘z umrini, ko‘rgan-kechirganlarini taftish

qilib yurgani, ilm-ma'rifatga mehr qo'ygan kishilarga g'amxo'rlik ko'rsatgani ta'sirchan tasvirlangan.

Xayriddin Sultonning «Saodat sohili» qissasini o'qib biz bobomiz Bobur Mirzoning inson sifatidagi ichki olami, ruhiy dunyosidan, shoirlik, shoirlikning jamiyat hayotidagi o'rni, insoniyat tafakkurini oshirishdagi mas'uliyatidan xabardor bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: 2004. B – 22.
2. Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: Ma'naviyat, 2010.
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi – T.: Sharq, 2002. B – 111
4. Бахтин М. Эстетика словесного творчества.– М.: Искусства, 1979. С 9.
5. Sulton X./ Saodat sohili: -T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot va matbaa ijodiy uyi, 2005.

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

XURSHID DAVRON SHE'RLARIDA BOBUR TASVIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga bag'ishlangan she'rlari tahlil qilingan. Shoir va lirik qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlaridagi o'zgarishlar haqida ba'zi mulohazalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: she'r, ruhiyat, badiiy tasvir vositalari, shakl va mazmun, sonet.

Annotation. This article analyzes the poems of the national poet of Uzbekistan Khurshid Davron dedicated to the personality of Zahiriddin Muhammad Babur. Some comments about the inner experiences of the poet and the lyrical hero, changes in their mental state are presented.

Key words: poetry, spirituality, means of artistic representation, form and content, sonnet.

So'nggi yarim asr davomida Bobur va boburiylar tarixini o'rganish va tadqiq etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi. Adabiyotshunos olimlar H.Yoqubov, V.Zohidov, H.Sulaymonov, sharqshunos olim S.Azimjonova va professor H.Qudratullayevlarning Bobur hayoti va ijodi bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir. Ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda badiiy ijodda ham Bobur shaxsiyatini o'rganish, uning murakkab hayotini tasvirlash maqsadida O'zbekiston xalq yozuvchisi P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", va "Avlodlar dovoni" romanlari, O'zbekiston xalq shoirlari: A.Oripov, E.Vohidov, X.Davron, S.Sayyidlarning bir qator she'rlari dunyo yuzini ko'rdi.

Xususan, shoir Xurshid Davronning Bobur dahosini anglash, ziddiyatlarga to'la hayot yo'lini tasvirlash, shoh va shoir munosabatidagi eng nozik jihatlarni ilg'ab she'rga solish mahorati diqqatga sazovordir. Shoirning "Ey tilim, ey elim, ey ona tuproq" turkumidan o'rin olgan "Zahiriddin Muhammad Bobur", "Vatan haqida yetti rivoyat" turkumidan "Lola gulli piyola", "Bobur", "Boburnomaga bir nigoh" kabi she'rlari ayni mavzuga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. Adib o'z tuyg'ularini shunchaki ko'ngil mayli, ilhomning quyilib kelishi, oniy vaziyat ta'sirida she'rga solmagani satrlar mazmunidan ham anglashilib turadi.

Otlar yelar, tillarang xazon

Suvoriylar uzra sochilar.

Elas-elas yangraydi azon –

Tog'lar uzra osmon ochilar.[Davron X., 1997: 148].

Ma'lumki, Bobur Samarqandni butunlay tark etib, Afg'onistonga ketayotganida kech kuz edi. Shoir tabiat tasvirini qahramonning ruhiy holati bilan uyg'un tarzda tasvirlash orqali o'quvchi diqqatini jalb eta oladi. She'riyatda inson hislarini tabiat hodisalariga hamohang ifodalash ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Tong qorong'usida shahardan chiqib ketayotgan Boburning ortidan elas-elas azon tovushining yangrash ham bejizga emas. Azon musulmonlarni namozga, ibodatga chorlovchi maxsus chaqiriqdir. Uni oldinda Hisor tog'laridan oshib o'tishning mashaqqati, o'ziga tegishli bo'lmagan hududlarda buyuk saltanat barpo etish zahmatlari kutib turganiga bir ishoradir. Zero, "Badiiy matn inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg'unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasida aloqa badiiy yaxlitlikning kafolati, unda subyekt va obyektning ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g'oya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyati o'z ifodasini topadi"[Nosirov A., 2012:15]. Shoir va lirik qahramon o'rtasidagi munosabat she'r davomida yangi oqimga yuz tutadi. Endi shoir shunchaki qahramonning tasvirini berish bilan cheklanmaydi, uni so'roqqa tuta boshlaydi hamda oldinda yuz berishi aniq bo'lgan voqealar haqida ogohlantiradi.

"Zahiriddin, qayga borursan,

Bobong taxtin, yurtningni tashlab?!

Qora taqdir seni qul kabi

Qayonlarga ketmoqda boshlab?!

Zahiriddin, bu qanday savdo,

Qora hijrat sari yuz tutmoq?

Yuragingni etar-ku ado –

Tirik turib Vatandan ketmoq?

Zahiriddin, ortga bir qara,

Ortga bir boq, toki sen omon.

Axir keyin tushlaringda ham

Bu tuproqni ko'rmog'ing gumon". [Davron X., 1997: 148-149]

She'rning ta'sirchanligini, kitobxon qalbi va xotirasidan mustahkam o'rin egallashining mezonlardan biri shoirning badiiy san'atlardan foydalana olishida

ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi har bir band lirik qahramonga nido yo'sinida boshlanadi. Uni yurakni ado etuvchi ayriliqning davomiyligidan, yurtidan uzoqda kechgan har bir lahza uchun afsus va nadomatlar chekajagidan xabardor etadi. Tabiiyki, shoir oradan o'tgan davr mobaynida qahramonning taqdiri qay tomonga o'zgarib ketishidan xabardor, ammo Boburning o'zi *qora taqdiriga qul* va *qora hijrat* sari yuz tutmoqqa majbur. Shoirning go'zal tashbehlari, ritorik so'roqlardan, takrorlardan foydalanishi, qahramon ruhiy holatiga oid chizgilarning aniqligi she'r tuzilishi va mazmuniga o'zgacha joziba bahsh etadi. Boburning taqdirini mushohada etish asnosida lirik qahramon tilidan aytilgan ushbu satrlar shoirning bu mavzuga hali yana ko'p bor murojaat etishiga ishora qiladi:

Alam bilan yuragi urar,

Shivirlaydi titroq lablari:

"Hamma yerdan ko'rinib turar

Samarqandning minoralari". [Davron X., 1997: 149]

Chindan ham shoir bu mavzuni keyingi she'rlarida yanada teran tafakkur yuritib davom ettirdi. Xurshid Davron o'zbek adabiyotini nafaqat mazmundor va dolzarb tarixiy mavzudagi asarlar bilan, balki Yevropa adabiyotiga xos milliy shariyatimizda kam uchrovchi yangi janr namunalari bilan ham boyitdi. Ijodkorning "Ey tilim, ey elim, ey ona tuproq" sonetlar turkumi bunga dalil bo'la oladi. Turkumdan jami o'n to'rtta sonet o'rin olgan va ularning barchasi tariximiz va milliy adabiyotimizda o'z o'rnini va zalvoriga ega bo'lgan shaxslarga bag'ishlanadi. Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan sonet yuqorida tahlil etilgan she'rning mazmuniy davomi desak adashmaymiz. Chunki sonetda Vatandan yiroqda ulug' saltanat barpo etgan, ammo umr shami asta so'nib yo'qlik olami sari yuz burgan podshohning ichki hislari, ruhiy holati o'z aksini topadi. She'r janr talablariga muvofiq ikkita to'rtlik (katrena) va ikkita uchlik (terseta)dan iborat jami o'n to'rt misrani tashkil etadi.

Sen borsan, chidayman dilim ohiga,

Panipatmas, armon qo'zg'atar titroq.

Bir umr zordirman yurtim hokiga,

Meni olib ketgin, ey ona tuproq. [Davron X., 1997: 64]

Janr talabiga mos ravishda birinchi bandda lirik qahramon va uning kechinmalari, ona vatandan judolik hissi, Movaraunnahr tuprog'iga qaytish istagi haqidagi fikr o'rta tashlanadi. Umuman olganda, Hindiston tuproqlari Bobur va boburiylar uchun begona sanalmaydi. Chunki buyuk Sohibqiron 1398-yilda Hindistonni fath etib o'z davlati tarkibiga kiritganligini hisobga olsak, Boburning bir umrlik orzusi bo'lgan Amir Temur saltanatini qayta tiklash orzusining bir qismini amalga oshirdi deya olamiz. Ammo Bobur yashagan davrda Hindiston o'z mustaqilligini tiklab olgan alohida davlat edi. Temuriylar tasarrufida esa faqatgina Xuroson va Movaraunnahr sarhadlari qolgandi.

Qaydadir hasratim bitilgan tosh bor,

Qaydadir buzilgan xonaqom bordir.

Ul tosh bardoshimdir, ul tosh yoshimdir,

Xonaqoh – buzilgan ona diyordir [Davron X., 1997: 64].

Keyingi bandda an'anaga muvofiq oldingi to'rtlikdagi fikr rivojlantiriladi. Buyuk temuriylar davlatining parchalanishi, shahzodalar o'rtasidagi tortishuvlar, ichki nizolar natijasida parokanda bo'lgan, bir vaqtlar dunyoning juda katta qismini egallagan saltanatning butunlay barham topishidan yuragida toshdek qattiq va og'ir dardning paydo bo'lganiga ishora seziladi.

*O'lim paymol etdi dil niyatimni,
Lekin dunyoda sen borsan-ki, tilim,
Umidim tirikdir, tirikdir dilim. [Davron X., 1997: 64].*

Tersetaning birinchi bandida yechim beriladi. Bobur orzularining armonga aylanishida o'lim unga to'sqinlik qildi. Ammo lirik qahramon kelajakdan umidvor. Ona tili yashagani muddatcha avlodlari uning armonlarini ro'yobga chiqarishiga umid qiladi.

*Alishardim butun saltanatimni
Yurtimning bir chimdim xoku xasiga,
Turkiston bog'larin xush nafasiga. [Davron X., 1997: 64].*

She'ning xotima qismini shoir umrining katta qismini ona diyor diydoridan mahrum holda o'tkazgan podshohning iztiroblarga to'la kayfiyati bilan yakunlaydi. Bobur lirikasida Vatandan ayrolik, ona yurt sog'inchi vasfiga bag'ishlangan she'rlar salmoqli o'rinni egallaydi. Shoirning mahorati ham ayni she'rlar ta'sirida yozilgan o'z asarini kitobxonga xuddi Zahiriddin Muhammad Bobur tilidan aytilgandek tabiiy ravishda singdira olishida namoyon bo'ladi. Sonet milliy adabiyotimizga Yevropadan kirib kelgan bo'lishiga qaramay, Xurshid Davron yaratgan barcha sonetlar o'zligimizni anglash, milliy mentalitet, tarixiy shaxs va voqealarning badiiy talqinlari bilan bog'liq lavhalarni ochib berganligi bilan ahamiyatlidir. "Sonetda milliylik ko'proq til va she'r tuzilishi bilan, baynalminallik esa band va mazmun bilan aloqador" [To'ychiyev U., 1992: 189] ekanligini unutmashimiz zarur.

Shoirning "Vatan haqida yetti rivoyat" turkumidagi "Lola gulli piyola" asari Boburning ichki tuyg'ularidagi evrilishlar, ruhiy holatidagi beqarorlik, yuragidagi dardning haddi a'losiga chiqqan tasviri bilan muhimdir.

*Agra aro
Kezadi mish-mish:
Saltanatning egasi Bobur
Qirq kundirki, xasta yotarmish,
Xira tortmish ko'zlarida nur. [Davron X., 1997: 196]*

Boburning xastaligi nima? Nega uning ko'zlari xira tortib, surati tuproq rangiga kirdi? Nega malikalarning dardlari haddan ziyoda, jondan aziz farzandlarining diydori, xos tabiblarning bilim va urinishlari bekor ketmoqda? Boburni bu qadar holsiz, loqayd qilib qo'ygan dard nima ekan? Shoir keyingi misralarda barcha savollarning javobini Boburning tushkun kayfiyati tasvirida berishga urinadi.

*Zarafshonbog' ichida tanho
Holsiz, tolg'in sayr aylarmish,
"Koshki o'lsam dag'i bu darddan
Bo'lsam xalos", - deya aytarmish. [Davron X., 1997: 196]*

She'r avvalida qo'yilgan bu kabi savollarga shoir donishmand chol yordamida javob topadi. Sharq mumtoz adabiyotida yo'ldan adashganlarga, yechimi yo'qday tuyilgan muammolar qarshida o'jiz qolgan qahramonlarga donishmandlarning yo'l ko'rsatishi motivi ko'p uchraydi. Rivoyat drammatizmga boyligi va ramziy ifodalarga to'laligi bilan shoir ijodida alohida o'rin tutadi. Xastalik – ona yurt sog'inchi, donishmand chol – o'zlikni anglashning so'nggi bosqichi, lola gulli piyola – Ona Vatanga qaytish orzusining timsolidir. Xastalik, ya'ni ona yurt sog'inchi Boburni umrining oxiriga qadar tark etmadi, u goh oshkora, goh pinhona ravishda shoh qalbini o'rtovchi olovga aylandi. Bu dard nafaqat Bobur, balki u bilan birga Hindiston fathida qatnashgan, tinchlik zamonlarida hind tuproqlarida katta mol-mulk egasiga aylangan sarkardalarning yuraklarida ham so'nmas olov yoqdi. Donishmandning bir kaft tuproqqa qarab fol ochishida ham juda katta ramziylik pinhon. Aslini olganda, odamning kaft chiziqlari, kristall shar, kartalar, qahva quyqasi va Qur'oni karim kabi muqaddas kitoblar yordamida fol ochish Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Shoir bir kaft tuproqqa qarab fol ochish yordamida lirik qahramonning ruhiy ehtiyojini, uni qiynayotgan ayriliqning og'irligini o'quvchi tasavvurida jonlantirishga erishadi.

Donishmand hind qildi bashorat:

*“Uni ta'qib aylar piyola,
Piyolaga chekilgan surat:
Yetti dona qip-qizil lola”.*

Yana aytdi: “Shundan shoh lohas,

Shundan shohning dilida faryod.

Ul piyola bo'lmish muqaddas

Shoh yurtining xokidan bunyod”. [Davron X., 1997: 197]

Ta'kidlanganidek, donishmand chol – o'zlikni anglab yetishning eng so'nggi bosqichi. Shoh dardining darmoni, barcha ko'ngil yaralarining shifosi birgina yurt xokidan bunyod bo'lgan piyolada mujassam. Piyolaga chekilgan lolalar nega aynan yettita? Sharq mamlakatlarida yetti raqami mo'jizaviy ahamiyat kasb etgan. Yetti sayyora, yetti iqlim, yetti kun, yetti qavat osmon, yetti mo'jiza kabi tushunchalarga diqqat qaratilgan. Hazrat Navoiy ham o'z asarlarida yetti qasr, yetti yo'lovchi, yetti vodiy kabi yetti soni bilan bog'liq motivlarni gavdalantirgani sir emas. Xurshid Davron piyoladagi yetti lola timsolida Bobur ishqining real hayotda amalga oshirish imkoni cheklangani yohud mutloq ilojsizlik holatining botiniy tuyg'ular bilan emas, ilohiy olamga tegishli ekanligiga diqqatni tortadi. Bobur va uning sipohlarida ona yurtdan o'zi bilan olib kelgan jang qurollari mavjud. Ammo ular juda sovuq, ularda vayron etuvchi kuch mujassamlashgani uchun ham bu qurollarni vatandan yodgorlik sifatida ulug'lab bo'lmaydi, musofirlikda ular kishi qalbini isita olmaydi. Samarqanddan Bobur bilan birga chiqqan beklar, navkarlarning yuragida ona vatanga qaytish orzusi armonga aylandi. “Boburnoma”da ham Movaraunnahr diyorida keltirilgan ne'matlar, buyumlar Boburni naqadar hayajonga solgani, ularga bo'lgan ehtiroمنىng yuksakligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bobur ularga oddiy buyum sifatida emas, balki ona vatanning bir parchasi sifatida baho berishi, qadrlashi faqatgina shu tuyg'ularni

boshdan kechirgan insonlargagina ayondir. Piyolaning sinib qolishi ham tasodifiy hodisa emas. Boburning Samarqandga oid orzularining ham darz ketishidir. U endi Vatanga qayta olmasligini, bir paytlar dunyoni boshqargan temuriylar davlatini qayta tiklashdek buyuk maqsaddan voz kechish, taqdirga ko'nishdan boshqa chorasi yo'qligini tan olishining ramziy ifodasidir.

Qaror bitdi

va hamma ko'ndi –

G'amni tuyib xasta vujudda,

Piyolani maydalab ko'mdi

Mo'ysafid bek shahardan chetda. [Davron X., 1997: 198]

Ba'zan aql tan olgan imkonsiz ishlarni yurakning tan olgisi kelmay qaysarlik qiladi. Lirik qahramonning ham qalbi va aqli o'rtasida murosasizlik mavjud. Ammo Bobur vujudidagi bu ikki azaliy raqiblar muhorabasida aql g'alaba qozonganini shoir juda chiroyli tasvirlaydi. Aslida shaharning cheti Bobur yuragining eng pinhon, eng chuqur joyidir. Siniq piyolani, ya'ni Ona vatanga qaytish orzusini u qalbining hech kim daxl qila olmaydigan yeriga ko'mdi.

Bobur qaytdi taxtiga yana –

Garchi dilda g'am ildiz otmish,

Garchi Vatan sog'inchi siyna

Aro xuddi xanjardek botmish. [Davron X., 1997: 198]

Bo'lib o'tgan voqea Boburning tahlikali, murakkab va notinch hayotida unga hamrohlik qilgan barcha turkistonlik beklarning oromini buzdi. Qalb yaralarini tirnab, ularning eng nozik nuqtalariga ta'sir ko'rsatdi. Tunlari oromi buzilgan beklarning ufqqa behush boqishlarini hind madaniyatiga xos bo'lgan morbozlarning ilonni kuyga rom qilishiga o'xshatishi ham shoir mahoratidan darak beradi.

Shomda quyosh botayotganda,

Yer ostiga ko'mik piyola

Siniqlari uzra gulxanday

Tovlanadi yettita lola. [Davron X., 1997: 198]

Inson hislarini atrofdagilardan yashirishga qanchalik urinsa, yolg'iz qolganda shunchalik uning asiriga aylanadi. Kuni bilan saltanat tashvishlarini yelkasida ko'tarib yurgan podshoh ham tunda o'z dardlaridan qochishga joy topa olmaydi. Yuragining eng tubiga ko'milgan siniq piyola uzra lolalar qaytadan bosh ko'taradi. Rivoyat shu qadar katta mahorat bilan she'rga solinganki, kitobxon Boburning dardlariga, psixologik o'zgarishlariga, ruhiy iztiroblariga bevosita daxldorlik hissini tuyadi. "Markazida Inson obrazi turgan har qanday asar agar u yuksak iste'dod, falsafiy ruh, umuminsoniy g'oya asosida yaratilar ekan, butun dunyoga daxldor bo'la oladi. Demakki, bunday asarlar jahon adabiyoti durdonalari ro'yxatiga kiritilishining obektiv belgisi hisoblanadi"[Davlatova A., 2021:90]. Biz bu ta'rifni Xurshid Davronning yuqorida tahlil etilgan va umuman tarixiy mavzuda yaratilgan barcha asarlari uchun tegishli deya olamiz.

Xulosa qilib aytganda, shoirning Bobur mirzoga bag'ishlangan asarlari g'oyaviy-badiiy mukammalligi, betakror tashbehlarga boyligi, ziddiyatli

kechinmalarning turlicha tovlanishlari tarixiylik mezonida mahorat bilan qalamga olinganligi bilan e'tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatova A. Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. - T.: "Tafakkur", 2021.
2. Носиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. - T.: "Фан", 2012.
3. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. T.: - "Sharq", 1997.
4. To'uchiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 2-jild. Lirika. T.: - "Fan", 1992.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TARIX, ETNOGRAFIYA, DAVLATCHILIK VA HUQUQ MASALALARIGA DOIR QARASHLARI

Mirzaev Avazbek,
Andijon davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLARNING IQTISIDIY-IJTIMOY MASALALARGA DOIR QARASHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar hukmronligi davrida iqtisodiy-ijtimoiy siyosat tizimida qo'llanilgan moliya va soliq sohasiga oid qarashlar mazmunan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: meros, iqtisodiy munosabatlar, tijorat, soliq, boj, zakot, daromad.

Abstract: In this article, Zahiriddin Muhammad Babur and the views on the financial and tax sphere, which were used in the economic and social policy system during the reign of the Baburites, are analyzed.

Key words: inheritance, economic relations, commerce, tax, duty, zakat, income.

Iqtisodiy tafakkur jamiyat taraqqiyotiga faol ta'sir etadigan omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy iqtisodiy tafakkurning umumbashariy insonparvarlik darajasi milliy merosni sinchiklab o'rganishga bevosita bog'liq. Shu bois, ma'naviy xazinani o'rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarishdagi muhim sahifalardan biri markaziy osiyolik mutafakkirlarning puxta asoslangan iqtisodiy qarashlari, g'oyalari va nazariyalaridir.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "...Bu buyuk zot o'n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o'zini o'tga ham, cho'qqa ham urdi, hech qanday dushmandan ham, sinovdan ham qo'rqmadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o'tdi. O'z avlodlariga Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatni, ezgu fazilatlarni meros qilib qoldirdi". [Мирзиёев III, 2017: 488]

Binobarin, davlat arbobi, olim va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)ning serqirra ilmiy-amaliy merosidagi tadqiqot talab sahifalaridan biri – iqtisodiy masalalar ekanligini ta'kidlash mumkin. Xususan, qomusiy asar «Boburnoma» bilan bir qatorda «Mubayyin»da ijtimoiy-iqtisodiy muammolar muhokamasi va yechimiga e'tibor qaratilgan. Bobur iqtisodiy mulohazalarining negizi islom shariati qoidalari bilan chambarchas bog'langan. Boburning ezgu fikrlari ezgu amaliyot bilan yo'g'rilgan. Chunonchi, u kishining qarashlarida iqtisodiy munosabatlarning takomillashtirilishi evaziga mamlakat birligi va saltanat mustahkamligi ta'minlanishi, tinchlik, osoyishtalik va me'yordagi soliqlar iqtisodiyot ravnaqining muhim omillari sifatida ta'kidlangan. Bobur yuritgan iqtisodiy siyosat mamlakat obodligi va raiyatni ijtimoiy himoyalashga xizmat qilgan. Jumladan, u kishi yuritgan iqtisodiy siyosatda ishlab chiqarish va tijorat

munosabatlariga, soliq va boj to'lovlariga tabaqalashtirilgan adolatli yondashuv qo'llanilgan. Mol-mulk, boylik miqdori bir nisob (80 gramm oltin)ga yetgan kishilar muhtoj aholiga ixtiyoriy ravishda o'z daromadlaridan zakot berishini joriy etilgan. Zakot ham mol-mulk turiga qarab tabaqalashtirilgan. Yangi o'zlashtirilgan yerlar 2-3 yilga soliqdan ozod etilgan. Musulmonchilikdagi an'anaviy yer solig'i-hiroj ikki toifaga bo'lingan: muqassam va muvazzar. Muqassam olingan hosilning miqdoriga bog'liq bo'lib, uning uchdan biridan-yarmigacha bo'lgan qismi ko'zda tutilgan. Muvazzar esa soliq solinadigan yerning maydoniga bog'liq ravishda belgilangan. Shuningdek, "Agar yerdan ikki hosil olsang, hirojni ham ikki marta to'la" deb ham qayd etilgan.

Sug'oriladigan yerlar uchun belgilagan suv solig'idagi imtiyoz sun'iy vositalar (koriz, chig'irlar) qo'llanilishiga qarab belgilangan. Boburning ta'kidlashicha: "Agar sug'orish davrida chig'ir qursang, olingan hosilning o'ndan birining yarmini (5 %) soliq uchun to'lashing kerak".

Markaziy Osiyo va Hindistonning Buyuk ipak yo'lida joylashganligi sababli, tijoratning iqtisodiyot ravnaqidagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilgan. Savdo karvonlarining havfsizligi qat'iy nazoratda bo'lgan. Musulmon savdogarlaridan olinadigan "tamg'a" solig'i bekor qilingan. Ulardan olinadigan savdo yig'imi savdo aylanmasiga nisbatan 20 misqol (1 misqol – 4,5 gramm) oltindan 1 misqol hisobidan belgilangan. Shuningdek, soliq hissasi daromad hissasiga nisbatan kamayib borgan. Boburshoh musulmon bo'lmaganlardan olinadigan «tamg'a» solig'ini ham rasmiy tarzda bekor qiladi [Мамабаев З., 2013: 195]. Musulmon bo'lmagan mamlakatlar savdogarlaridan olinadigan soliq miqdori musulmon savdogarlaridan olinadigan soliq miqdoriga tenglashtirilgan.

Boburiylar davrida obodonchilikka alohida e'tibor berildi, savdo-sotiq rivojlantirildi, shahar va qishloqlarga oqar suvlar keltirilib, bog'-rog'lar yaratildi. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar esa faqatgina soliqlar orqali qoplanishi mumkin edi. Bobur va uning vorislari davrida soliq masalalari muhim o'rinni egallagan.

Boburning «Mubayyin» asari to'la ravishda qonunlar va iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, uning nomi ham «qonunlar izohi» ma'nosiga ega. Butun islom mamlakatlaridek, Movarounnahr va Xurosonda ham «zakot» ma'lum miqdorda va muayyan shart-sharoitlarda olinadigan soliq ma'nosida qo'llaniladi hamda naqd pul va savdo yig'imi shaklida to'planadi. Soliqni hisoblash uchun soliq olish ob'ektining «nisobi», ya'ni mol-mulkning zakot berishga layoqatli bo'lish uchun belgilangan miqdori aniqlangan, hisobdan kam mulkdan soliq olinmagan. Buning sababi, daromadi kam bo'lgan shaxslar imkoniyati cheklanganligi uchun daromad solig'iga tortilmagan.

Boburiyshohlar xazinasining boyish maibalari savdo solig'i, saltanatda zarb qilingan pullar, musodara qilingan egasiz mollar, tuz solig'i, davlat ixtiyoriga keladigan yillik o'lpon to'lovlari, urushlardan olingan ulushlarning beshdan bir qismi, sovg'alar hamda yer soliqlardan iborat edi. Mahalliy xokimiyat soladigan soliqlar «ahbob» deb atalib, asosan, mahalliy ehtiyojlarga sarflanardi. Bobur va Humoyun davrida hindlarga jiz'ya solig'i solinar, musulmonlardan esa zakot olinardi. Akbar bu diniy maqomdagi soliqlarni bekor qildi.

Bundan tashqari davlatlararo tovar almashinuvi va bu vaqtda boj to'lovi masalasi ham ko'rib chiqilgan. «Boburnoma»da bir yurt tovarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi ehtiyojlarining qondirilishi va ularning iqtisodiyot ravnaqidagi ahamiyati to'la bayon qilinadi. Bobur savdo-sotiqning xalqlar o'rtasidagi bebaho ahamiyatini juda chuqur tushungan. Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo'llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkiga ziyon yetkazish kabi salbiy illatlarga ayovsiz munosabatda bo'lgan. Bu siyosat Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va boshqa temuriylar siyosati bilan ma'lum. O'sha davrda Bobur savdogarlardan olinadigan savdo yig'imining ham adolatli va xolisona tashkil qilinishiga katta ahamiyat bergan. Musulmon savdogarlarining savdo aylanmasidan savdo yig'imi 20 misqol (4,5 gramm) oltindan 1 misqoli shaklida olingan, eng muhimi soliq hissasi daromad hissasiga nisbatan kamayib borgan, ya'ni daromad ko'payishi bilan soliq kamaygan va boylik jamg'aruvchilar uchun o'ta manfaatli bo'lgan. Akbar jizya, ziyoratchilardan olinadigan soliqni, soliq to'plovchilarning maoshi (dorug'a)ni, chopar hamda amaldorlar uchun to'lanadigan yig'im (qo'nalg'a)ni, bozordan yig'iladigan bir qancha soliq va jarimalarni bekor qildi. Akbar zamonida ichki va tashqi savdo rivojlandi [ЎЗМЭ, 2000: 432].

Yer uchun olinadigan soliq davlat xazinasini to'ldirishning asosiy manbasi hisoblangan. Bobur barcha yerlarni o'z amaldorlariga jogir sifatida bo'lib bergan. Xumoyun bu tizimga o'zgarish kiritmadi. Akbar esa yer solig'i tizimini ancha takomillashtirdi. 1580 yildan boshlab yer o'lchov birligi qilib «Gazi Iskandariy», keyinroq «Gazi Ilohiy» qabul qilindi. Yerlar har yili ekiladigan, ikki yilda bir ekiladigan, 3-4 yilda bir ekiladigan, besh yildan ortiq muddatda bir ekiladigan toifalarga ajratilar va shunga ko'ra soliq hajmi belgilanar edi. Bu hajm uchun o'tgan 10 yillikda olingan hosilning o'rtachasi me'yor qilib belgilangan. Davlatga ko'pincha olingan hosilning uchdan bir qismi soliq sifatida topshirilar yoki o'sha miqdordan pul davlat xazinasiga to'lanardi.

Boburiylar tomonidan pul muomalasi masalasida ham ba'zi ishlar amalga oshirilgan. Bobur va Xumoyun o'zlarining nomi va surati bilan tanga pul zarb qildilar-u, biroq pul muomalasi tizimiga boshqa o'zgargirish kiritmadilar. Akbar davriga kelib tilla, kumush va misdan tanga pullar zarb qilindi va har birining qimmatini alohida ko'rsatilib, og'irligi va tarkibidagi metall miqdori qat'iy belgilab qo'yildi. Tangalar acosan dumaloq shaklda zarb qilingan. Akbar tangalarga o'z suratini tushirmadi, balki tangalarga podshohning ismi, pul birligi, zarb qilingan yil va Qur'oni karimdan olingan oyatlar o'yib yozildi. Bu zarb qilingan pullar juda chiroyli edi. Eng yuqori qimmatga ega pul birligi «shahanshoihiy» deb yuritilardi. Bu pul ko'proq yuqori doiralarda qo'llanilgan bo'lib, pastroq tabaqalarning ishlatishi uchun «ilohiy» pul birligi chiqarilgan. Bitta tanga pul o'n rupiyga teng edi. Jami 26 xil tanga pul zarb qilingan. Kumush tangalar rupiy deb, mis tangalar «dom» (paysa) deb atalar va rupiyning 1/40 qismiga teng edi. Eng kichik mis tanga esa «jital» deb atalib, paysaning 1/25 qismiga teng edi. Akbarning pul birligi tizimi juda mukammal edi. Aytishlaricha, bu pullar tizimi Britaniyaning pul birliklarini takomillashtirishga asos bo'lgan. Boburiylar tomonidan ishlab chiqilgan soliq siyosati va pul muomalasi qonunlari uzoq yillar davomida qo'llanib kelindi va

mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi. Bu esa Bobur va Boburiylar tomonidan iqtisodiy g'oyalarining juda chuqur ilmiy asosga suyanganligi, uzoqni ko'zlovchi salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Agra bilan Qobul oralig'ida har o'n besh mil masofada choparlar uchun ot almashtiradigan va dam oladigan musofirxonalar tashkil etilgan. Ularda oltitadan ot va unga qaraydigan xizmatchilar bo'lgan. 332 yil davom etgan Bobur va boburiylar saltanati (1526-1858) Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirdi. Yurt va aholi farovonligida erishilgan ijobiy natijalarni mustaqil Hindistonning mashhur bosh vaziri Javoharlal Neru va boshqalar e'tirof etgan. Boburiy sultonlar o'z faoliyati davomida davlat boshqaruvida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga, temuriylar davridagi qonun-qoidalar, an'analar va rasm-rusumlarga amal qilganlar [Эзгулик йўли, 2022: 184].

Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan tarixiy va adabiy meros mavzui jihatidan favqulodda sermazmun va ilmiy ahamiyati jihatidan juda qimmatli yodgorliklardir. Undan o'nga yaqin yirik asarlar qoldi. Ular ichida, shubhasiz, birinchi o'rinda mashhur «Boburnoma» turadi. [Жалилов С., 2006: 72]

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Bobur va boburiylarning iqtisodiyotga uning umumiy asoslari bo'lmish ishlab chiqarish, shuningdek, savdo va tijoratga oid, soliq va boj to'lovlari bilan bog'liq bo'lgan qarashlari e'tiborga molik. Bu esa mutafakkir vatandoshimiz Bobur yaratgan asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar va boburiylar yuritgan amaliy iqtisodiy siyosat nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga molikligidan ham dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Машрабов З. Бори элга яхшилиғ қилғил. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги НМИУ, 2013.
3. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
4. Эзгулик йўли. Бобур номли халқаро жамоат фонди. – Андижон: Андижон нашриёт-матбаа, 2022.
5. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. – Т.: Шарқ, 2006.

Sabitova Tadjixon,

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti
professori, filologiya fanlari nomzodi

BOBURIYLAR SULOLASIDAN JALOLIDDIN AKBARNING DAVLAT SIYOSATI VA MADANIYATI

Annotatsiya: Jahon tarixi qiroliklar, xonliklar va sulolalarga boy bo'lib dunyoga mashhur Temuriylar, ularning davomchilari Boburiylar haqida manbalar

nashr etilgan. Boburiylar sulolasida alohida o‘rin tutgan va eng ko‘p, ya‘ni 50 yil hukmronlik qilgan Jaloliddin Akbarshoh saltanatining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu maqolada Akbar o‘z davrida davlat siyosatini qanday olib borgani va ilm-fan madaniyati masalalariga e‘tibori haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, tarix, sulola, siyosat, madaniyat, imperiya, adovat.

Abstract: World history is rich in kingdoms, khanates and dynasties, and sources have been published about the world-famous Timurids and their successors, the Baburis. The reign of Jalaluddin Akbarshah, who had a special place in the Baburi dynasty and ruled the longest, that is, 50 years, has a special place. In this article, it is good to think about how Akbar conducted the state policy in his time and paid attention to the issues of science and culture.

Keywords: state, history, dynasty, politics, culture, empire, enmity.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-1530-yillarda yashagan. U atoqli davlat arbobi, sarkarda, shu bilan birga iste‘dodli, nozik ta‘b shoir, tarixchi va zakovatli olimdir.

U inqirozga yuz tutgan Temuriylar davlatini saqlab qolish va mustahkamlash, O‘rta Osiyoda markazlashgan yirik davlat vujudga keltirish uchun uzoq va qattiq kurash olib bordi. Ammo tarixiy sharoit bunga imkon bermagach, u Afg‘oniston va Hindistonni egallab olib katta imperiya vujudga keltirdi. U asos solgan imperiya bu mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirdi.

Temur asos solgan davlat, ya‘ni Temuriylar sulolasi qariyb salkam 500 yil, shundan boburiylar sulolasi 383 yil Angliya Hindistonni bosib olguniga qadar yashadi. Bu sulola Hindistonning siyosiy hokimiyatini mustahkamlash, madaniyatini rivojlantirishda katta ijobiy rol o‘ynadi.

Bobur insoniyat madaniy hayoti tarixida chuqur iz qoldirgan bo‘lib, uning faoliyati, ijodiy merosini o‘rganishda turli soha olimlari - tarixchilar, filologlar, san‘atshunoslar, biologlar, geograflar va boshqalar juda katta natijaga erishdilar. Uning asarlari Jahon miqyosida katta shuhrat qozondi, nashr ettirildi, tadqiqotlar, ilmiy, ommabop asarlar yaratilib juda ko‘p olimlar yetishib chiqdi.

Boburning boy adabiy va tarixiy merosiga qiziqish va uni o‘rganish Jahon miqyosida hanuz davom etmoqda. Boburning nabirasi Humoyunning o‘g‘li Jaloliddin Akbar boburiylar sulolasida katta o‘rin tutadi. Chunki u 50 yil podshohlik qiladi, ya‘ni 1556-yildan 1605-yilgacha hukm surgan. Ular haqida juda ko‘p manbalar nashr etilgan. Shulardan biri Xalqaro Bobur fondi tomonidan yurtimizga keltirilgan manba Amerikalik olim S.M.Berkning "Akbarshoh-Boburiylarning eng buyigi" asari bo‘lib, o‘zining ilmiy izchilligi, manbaviy salmog‘i, faktlari va bayon tarzi bilan eng ishonarli kitobdir.

Akbar Jaloliddin Muhammad 1542-yili 14-oktyabrda Agra yaqinidagi Sikandra qishlog‘ida tug‘ildi. Akbar 1552-yil G‘aznaga hokim etib tayinlandi. 1555-yil 22-iyunda Akbarshoh rasmiy ravishda valiahd deb e‘lon qilindi va Panjob viloyatiga hokim etib tayinlandi. Boburning nabirasi, Humoyunning o‘g‘li 1556-yil 15-fevral kuni 13 yoshida taxtga o‘tirgan edi. Dastlab vaziri turkman Bayramxon otaliq yordamida taxtni boshqargan, so‘ngra balog‘at yoshiga

yetgach, mamlakatni qattiqqo'llik bilan idora eta boshlagan. Akbar 1556 yili Boburiylar saltanati deb e'lon qilindi. Saltanatini kengaytirish uchun muttasil kurashgan. Akbarshoh davrida Boburiylar saltanati shimolda Balxdan tortib janubda Godovari daryosigacha (Kashmir va Afg'oniston hududlari bilan), g'arbda Arabiston dengizidan sharqda Bengaliya qo'ltig'igacha bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan. Markazlashgan saltanat tuzish maqsadida 1574-yildan ichki islohotlar o'tkazishga kirishadi: qo'shin ustida nazoratni kuchaytiradi va uni qayta tashkil etib, yangidan qurollantiradi, mamlakatni yangi ma'muriy tumanlarga bo'ladi. Nikoh rish-talari orqali Rajput knyazliklari bilan aloqalarni mustahkamlagan. Rajputlar otliq qo'shini Akbar qo'shinining asosini tashkil qilgan. Yirik yer egalari — jogirdorlarning o'zboshimchaligiga qarshi bir qancha chora-tadbirlarni o'tkazgan, 1574-yil dehqonlar, sarkardalarga yer in'om etish o'rniga xazinadan ularga maosh to'lashni, mamlakatdagi yerlardan soliq to'plashni o'z xizmatchilari zimmasiga yuklagan. Akbar aholi orasida diniy jihatdan o'zaro birdamlikka erishish maqsadida hindlarni yuqori mansablarga tayinlay boshlagan va yangi din — „dini ilohiy“ joriy etgan. Bu din o'zida is-lom, hinduizm, parsizm va jaynizm dinlarining qorishmasidan iborat bo'lgan. Akbar dunyoviy va diniy hokimiyatni o'zida mujassamlashtirgan. Bu dinga e'tiqod qilganlar Akbarning marhamatiga sazovor bo'lganlar. Keyinchalik Akbar vafotidan so'ng bu yangi din kichik bir mazhabga aylanib qolgan. Akbar dehqonchilik va savdoga katta e'tibor bergan, Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo-sotiq olib borgan. Akbar ilm-fan, san'atga ham homiylik qilgan. Akbarning vaziri va do'sti Abulfazl Allomiy Akbar saltanati tarixiga oid „Akbar-noma“ asarini yozib qoddirgan. Akbar buyuk davlat arbobi, quvvai hofizasi kuchli, jasur, iqtidorli sarkarda bo'lgan.

Bu paytlarda siyosiy ahvol juda murakkab edi. Akbar 1560-yilda balog'at yoshiga yetadi u ilmu fanlardan bahramand bo'lishga ulgurmagan bo'lsa-da, lekin favqulodda aql-zakovati, hayotni qiyinchiliklarini bilishi bilan ajralib turardi. Ulg'ayish jarayoni uni juda ko'p narsalarga o'rgatdi, oq-qorani yaxshi ajrata bildi va ko'p yil hukmronlik qildi. Juda ko'p urish va kurashlardan keyin Akbarshoh mamlakati quyidagi viloyatlardan tashkil topgan edi: Qobul, Qandahor, Sand, Multon, Lohur, Kashmir, Dexli, Agra, Achmir, Iloh-obod, Avda, Bahor, Bengal, Bengal qo'ltig'i sohilidagi Arisa, Malva, Gajarot, Xondis, Baror, Ahmad Nagar.

Shuningdek, Akbar hukmronlik qilgan davrda mamlakat nihoyatda kengaydi. Bu mamlakatga Shimoliy, Janubiy va O'rta Hindiston, jumladan Gajarot, Malva, Bengal, Bidor, Bihor, Bijopur, Gulkanda, Ahmad Nagar va G'arbda Afg'oniston kirar edi.

Jahonga mashhur davlat arbobi Javoharla'l Neru Akbarshoh haqida ehtiros bilan shunday deydi: "Akbar 1556-yildan to 1606-yilgacha qariyb 50 yil Hindistonda hukmronlik qildi. Akbar nomi Hindiston tarixida buyuk nom bo'lib ayrim jihatlari Ashikani eslatadi. Ajablanarlisi shuki, Hindistonning eramizdan avvalgi III asrida yashagan buddoyi imperatori Ashoka bilan Hindistonda eramizning XVI asrda yashagan musulmon imperatori Akbar deyarli aynan bir xil mavzularni tilga olib bir xil so'zlarni ishlatishgan. Butun hindiston shu 2 buyuk farzandining tilida so'zlagan bo'lsa ajab emas." [Fayziyev T., 1996]

Hindistonni idora etishda Akbar yangi bir siyosatni qo'lladiki, undan ilgari uncha-muncha hukmdor bunday yo'l tutmagandi. Uning siyosati Hindiston hindlarniki tamoyiliga asoslangan edi. Akbarning hukmi insoniylik asosida olib borilib, odamlarni millatiga, diniga qarab ajratmadi. Buning natijasida xalqning muhabbatini qozondi. Qobul va Qandahorni Hindga tobe viloyatlar deb e'lon qildi. Vaholanki, aksincha qilishi mumkin edi, buni ko'rgan hinduslar va rojalar unga ixlos bilan itoat qilishdi, chunki bular yagona Vatan o'g'lonlarini bir-biridan ajratmay, birdek ko'rish shioriga suyanib ish qilayotgan hukmdorni endi ko'rishgandi. Akbarning hukmi insoniylik asosida olib borilib, odamlarni millatiga, diniga qarab ajratmadi. Buning natijasida xalqning muhabbatini qozondi. Qobul va Qandahorni Hindga tobe viloyatlar deb e'lon qildi. Vaholanki, aksincha qilishi mumkin edi, buni ko'rgan hinduslar va rojalar unga ixlos bilan itoat qilishdi, chunki bular yagona Vatan o'g'lonlarini bir-biridan ajratmay, birdek ko'rish shioriga suyanib ish qilayotgan hukmdorni endi ko'rishgandi. Akbarning hukmi insoniylik asosida olib borilib, odamlarni millatiga, diniga qarab ajratmadi. Buning natijasida xalqning muhabbatini qozondi. Qobul va Qandahorni Hindga tobe viloyatlar deb e'lon qildi. Vaholanki, aksincha qilishi mumkin edi, buni ko'rgan hinduslar va rojalar unga ixlos bilan itoat qilishdi, chunki bular yagona Vatan o'g'lonlarini bir-biridan ajratmay, birdek ko'rish shioriga suyanib ish qilayotgan hukmdorni endi ko'rishgandi.

- qo'l ostidagilarning holidan doimo xabardor bo'lishni;
- kishilarga xushmuomalada bo'lib, kambag'allarga yordam berishni;
- hadyalar qabul qilmaslikni;
- boshqa din vakillariga e'tiroz qilmaslik, zarur bo'lsa yo'l ko'rsatishni;
- Islomga jabr yo'li bilan kiritmaslikni va h. k.

Akbar davrida hind, fors, turk va arab tillaridan tashkil topgan urdu tili hayotga qadam qo'ydi. Turk tili podshoh ahlining tili, fors tili davlat tili, arab tili esa Islom dinining tili bo'lib qoldi. Zikr qilishlaricha, Akbar o'z lashkariga, uning tashkiliy masalalariga katta e'tibor bergan. Hattoki, har bir zambarakka nom berib, ularning tarixi yozib borilgan.

Xotirasi kuchli bo'lgan Akbar Sayidlar qavmiga mansub Mir Abdulatif bilan diniy-tasavvufiy ruhda yozilgan g'azallarni mutolaa qilar va hofiz g'azallarini tahlil qilib ularni yod olardi. Uning ixtiyorida 24 ming nusxadan iborat noyob qo'lyozma asarlarni o'zida mujassam qilgan kutubxona bo'lib, maxsus tayinlangan Abdullatifning o'g'li Naqibxon uning yaqin dostlaridan bo'lib, doim podshohga kitob o'qib berardi va u bo'sh paytlarini har doim olimu fozillar davrasida o'tkazardi.

Akbar davrining oxirlariga kelib, 1009-1600 yillarda Hind-Ingliz shirkati tashkil bo'lgan. Uning rahbarlari Akbar bilan uchrashib, ba'zi savdo-sotiq imtiyozlarini olishgan. Undan tashqari Akbar ingliz qiroli Djeymsn I ning birinchi elchisi Tomas Runi o'z saroyida qabul qilgan.

Akbar bizga ma'lum bo'lgan ishlaridan tashqari o'zining diniy aqidasi bilan ham mashhur bo'lgan. Buning natijasida gaplar ko'paydi, noroziliklar kuchaydi.

Akbar-Islom imperatori, musulmon oilasidan bo'lgani holda, Islom vakili sifatida hukm surdi. Lekin u islom dinidan chekkaga chiqib ketishlarga yo'l qo'ydi, odamlar og'zida gapga aylandi. Hamma gap shundaki, uning diniy aqidasi davlat siyosati bilan qorishib ketdi. O'z aqidasi bilan, o'z oilasi va musulmon ahliga o'zini qarama-qarshi qo'ydi. Islom ta'limotini el o'rtasida qo'llab-quvvatlamadi. Bu ishlarning amalga oshishiga turtki bo'lgan sabablar qatorida uning hinduslarga o'rganib qolganligi, ularning Akbarga juda ko'p yordam berganliklari, Akbarning diniy siyosati ularga ko'p ma'qul kelganini ko'rsatish mumkin. Hindistonda Akbar yuritgan siyosati umummilliy siyosat bo'lishini xohlagan.

Tarixiy kitoblarda zikr etilishicha, faoliyatining boshlarida u ilm va din ahlini o'ziga ko'p yaqinlashtirgan. Hattoki o'zi Shayx Abdunnabi Ahmad al-Ganguxiyning uyiga borib, hadislaridan eshitib qaytgan. Uyiga borgan paytda shayxning kovushlarini qo'llari bilan to'g'rilab, poyiga surib qo'yardi. Har yili Achmirga Shayx Muayyinnuddin Hasan as-Sajazi al-Chishtining qabrini ziyorat qilish uchun borgan. Shayx Salim bin Bahouddin as-Saykarovining doimo duosini olardi. Shayx Salim unga uchchala o'g'lini bashorat qilgandan so'ng Akbarning e'tiqodi yanada oshib boburiylarning odatiga xilof ravishda (ular bolalariga kimsasiz joylarning nomini, u erda yashovchilarning ismini berishmagan) Agraning yonidagi kimsasiz joyda yashovchi shu shayxning "Salim" ismini o'g'liga bergan. Unga hurmat belgisi sifatida Agrani o'z mamlakatining poytaxti qilib tayinladi. Shayx yashagan shaharcha esa Fathpur-Saykari deb nom oldi.

Akbar olimlarga katta hurmat ko'rsatib, ularni avliyolar darajasiga ko'targan. Lekin bu ishlar uning hukmronligining birinchi yigirma yillari davomida bo'lgan. Keyinchalik esa muloyim, itoatgo'y odamdan mutakabbir va kibrli odamga aylangan. Atrofidagilar uning ruhini buzadilar. Akbar hech qachon musulmonchilikdan qaytgan emas, u diniy e'tiqodi, ya'ni g'oyalari bilan islom doirasidan chetga chiqmagan.

Akbar o'zining yangi dini bilan solgan shovqini butun davlatda aks sado topdi. Ba'zi viloyatlar unga qarshi chiqishdi. Masalan, Shayx Abdulloh as-Sultonpurini Hijozga badarg'a qilgan.

Akbar davlat boshqaruv siyosatini yaxshi olib borgan. Podshoh kuniga ikki marta saroy derazasidan ko'rinish berib, arzlarni tinglar edi. Har oyda bir o'tkaziladigan ochiq bozorlarda ham arzlarni tinglar, u o'zidan taralayotgan mo'jizaviy nuri bilan odamlarni maftun etar edi. Tonggi marosimlardagi ochiq majlislariga nog'oralalar chalib majlis ahli chaqirilar edi. Muhim davlat ishlarini muhokama qiladigan paytlarda xuddi bobosi Boburshoh va otasi Humoyunshoh kabi saroy a'yonlari, olimu ulamolar, amiru beklar va harbiy mutaxassislar bilan maslahatlashar edi. Shuningdek, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirib salbiy urf-odatlarini yo'q qildi. Ayollarni vafot etgan eri bilan kuydirish va beva ayollarni qayta turmushga chiqishiga mone'li qiluvchi udumlarni yo'q qildi

Boshqa tarafdin Akbar zamonida umummadaniy ko'tarinkilik kuchli bo'lgani uchun, bu zamonda kitoblar yozish nihoyatda rivoj topadi. Quyida misol tariqasida ulardan ba'zilarini keltiramiz:

1. "Hayvon hayoti"- Damiriyning "hayotul hayvon" kitobini Abul Fazl fors tiliga 1575-yilda tarjima qildi.

2. Abul Fazl keyingi yillarda yana Injilni fors tiliga tarjima qildi. "Kalila va Dimna"ni tushunarsiz qadimgi fors tilidan tushunarli fors tiliga tarjima qildi.

3. "Oyini Akbari" - Akbar hokimiyatining Nizom va qonunlari. Bu asarni ham Abul Fazl ta'lif etgan.

4. "Akbarнома" - Akbar tarixi; bu kitobda hind tarixi Boburiy shohlarining birinchi kunidan Akbar zamonigacha yozilgan.

5. Hindlarda muqaddas bo'lmish "Maxabxarata"ni al-Badayuniy va al-Qazviniy fors tiliga tarjima qilishdi.

6. Bag'dod, Shom o'lkasi, Misrdagi Abbosiy, Umaviy va Roshidiy xalifalarining tarixini al-Badayuniy fors tilida yozdi.

7. Badayuniyning "Muntaxabot-tavorix"-uch tomlik asari. Birinchi jild Humoyungacha bo'lgan hamma podshohlarning tarixiga bag'ishlangan, ikkinchi jild Akbar taxtga o'tirgandan keyingi 40 yil ichidagi tarix. Bu jildda Balayuniy Akbar va Abul Fazl aqidalarini qo'rqmasdan tanqid qilgan. Uchinchi jildda Badayuniy o'ziga zamondosh bo'lmish shayxlar, olimlar, shoirlar va tabiblarning hayotiga oid ma'lumotlarni yozgan.

Umuman, juda ko'p ilmlar sohasida shunchalik ko'p kitoblar yozilib, tarjimalar qilinganki, bu sohada olimlarning ta'biri bilan aytganda, Akbarning qilgan juda keng ilmiy va madaniy harakatlari odamni xayratga soladi. Akbar mumtoz she'riyatga alohida e'tibor bergan. Badiiy adabiyot, tarixiy asarlar, musiqa san'ati, nasriy asarlar, xattotlik va tasviriy san'at, memorchilik rivojlangan ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor bergan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Akbarshohning hukmdor sifatidagi faoliyati tahsinga sazovordir. "Buyuk boburiylar" atamasi orqali anglashiladigan beqiyos shon-shuhratning asosiy poydevoriga Akbarshoh hukmronligi davrida asos solingan. Akbarshoh qoldirgan va shu kungacha davom etib kelayotgan davlatni ma'muriy boshqarish tizimi uning barqaror muvaffaqiyatlaridan biridir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov A. Asarlar. 5 kitob. – T.: Mumtoz so‘z, 2009.
2. Nizomiddinov N.G. XV-XVI Hindiston turkiy zamon adabiyoti, avtoreferat (doc.diss) – T., 2000.
3. Gulbadanbegim . Xumoyunnoma. – T., 1959.
4. Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. – T.: Fan,1994.
5. Fayziyev T. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – T.: Yozuvchi, 1996. B.43
6. Satimov G'. Boburiyodalar. – T.: Ma'naviyat, 2003.
7. Berk S.M. Akbarshoh Boburiylarning eng buyugi. – T.: Mumtoz so‘z, 2009.

“JAHONGIRNOMA” ASARIDA BOBURIYLAR DAVLATIDAGI MADANIY HAYOTNING YORITILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburiylar davlatidagi madaniy hayot haqida ilmiy mulohaza yuritilgan. Boburiylar davlatining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrni tark etganidan so'ng dastlab Kobulda, so'ngra Hindistonda yirik davlatga asos soldi. Bobur barpo etgan imperiya uch yarim asrdan ko'proq davr mobaynida Hindistonda ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bobur boshlab bergan bog'dorchilik san'ati va bunyodkorlik ishlari uning avlodlari tomonidan yanada rivojlantirildi. Boburiylar davlatining to'rtinchi hukmdori Jahongir podshoh tomonidan yozilgan “Jahongirnoma” asarida mamlakatdagi obodonchilik ishlari va madaniy hayot to'g'risida yuzlab misollar keltirilgan. Shoirlar, olimlar, rassomlar va boshqa ijod ahliga homiylik qilingan. Forsiy, turkiy va hind tillarida qalam tebratgan ijod ahliga yetarlicha sharoitlar yaratib berilgan.

Kalit so'zlar: "Jahongirnoma", madaniy hayot, bog'lar, masjid.

Abstract: Abstract: In three articles, there is a scientific discussion about the cultural life in the Babur state. After Zahiruddin Muhammad Babur, the founder of the Babur state, left Mowaroonnahr, he founded a large state in Kabul and then in India. The empire built by Babur made great achievements in India in more than three and a half centuries. The generations of horticulture and creative works given by Babur were further developed. The book of the life of the fourth ruler of the Babur state Jahangir podsho ruler "Jahongirnama" contains a report of hundreds of examples about the development works and culture in the country. Poets, scientists, artists and other creative people were patronized. In Persian, Turkish, and Indian languages, there are enough creations for the creative people.

Key words: "Jahangirnama", cultural life, gardens, mosque.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) tomonidan asos solingan Buyuk Boburiylar Imperiyasi uch yarim asr davomida hukmronlik qilgan va Hind yarim oroli xalqlari madaniy hayotida o'chmas iz qoldirgan. Mazkur davlat asoschisi Bobur podshoh siyosiy ishlardan tashqari ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullangan. Uning qalamiga mansub “Vaqoye” kitobi O'rta asr tarix faniga ulkan hissa qo'shgan asarlardan biri hisoblanadi. Keyinchalik, “Boburnoma” sifatida shuhrat qozongan bu kitob dunyoning bir necha o'nlab tillariga tarjima qilingan va juda ko'p mamlakatlarda nashr etilgan.

Bobur podshoh o'z asarida o'n ikki yoshida Farg'ona ulusi taxtiga o'tirgani bayonidan so'ng otasi Umar Shayx mirzo (1455-1494) nasli va harami haqida, saroy ayonlari va madaniy muhit haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Muallifning sodda va ravon tilda yozish uslubi boburiylar davriga oid boshqa asarlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Gulbadan bегinning

“Humoyunnoma” va Jahongir podshohning “Jahongirnoma” asarlari ham sodda tilda “Boburnoma” uslubida yozilgan.

Bobur podshohning qizi Gulbadan begim va chevarasi Nuriddin Muhammad Jahongir o‘z asarlarini fors tilida yozganlar. Gulbadan begim otasi vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan akasi Nasriddin Muhammad Humoyun (1508-1530-1555) podshoh tarixini yoritishni asosiy maqsad qilgan. Afsuski, bu asar bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Asarda Humoyun podshohning Hindistondagi dastlabki o‘n yillik faoliyati va Boburiylarning Hind zaminidan siqib chiqarilishi batafsil bayon etilgan. Biroq oradan o‘n besh yil o‘tib Humoyun podshohning yana qayta Hindistonni fath etishi bilan bog‘liq voqealarni o‘z ichiga olgan sahifalar hozirgacha topilgani yo‘q.

Boburiylarning Hind zaminidagi faoliyati boshqa asarlarda keng berilgan. Bobokaloni Bobur podshoh kabi tarix ilmiga havas qo‘ygan Nuriddin Muhammad Jahongir podshoh 1605-yili boshiga toj kiyganidan so‘ng “Jahongirnoma” kitobini yozishga kirishgan. Bu kitob “Tuzuki Jahongiri” nomi bilan ham ataladi.

Jahongir podshohning asl ismi Salim bo‘lgan. Taxtga o‘tirganidan so‘ng o‘ziga Jahongir nisbasini qabul qilgan.

“Jahongirnoma”ni yozishda muallif bobokaloni Bobur podshoh uslubidan foydalangan. Bobur kindik qoni to‘kilgan Farg‘ona tabiatini qanday uslubda tasvirlagan bo‘lsa, Jahongir podshoh o‘z asarining boshlang‘ich sahifalarida Boburiylar davlatining poytaxti Agra shahri ta‘rifini keltirgan. Keyingi sahifalarda esa otasi Akbar podshoh va o‘z saroyidagi amaldorlar va saroy muhitini bayon qilgan. Boburiylar saroyida adabiy muhitning yaratilishi Bobur podshohning Kobul taxtini egallaganidan so‘ng boshlangan. Bobur Qirqariq navohisida daryo bo‘ylab qilgan safari chog‘idagi suhbatda “Jolada she‘r aytur el xeyli bor erdi, misli Shayx Abdul Vajd va Shayx Zayn va Mullo Alixon va Turdibek xoksor, yana ba‘zilar bor edi” [Бобур, 1960: 332], deb ma‘lumot keltirgan.

Keyinroq Hindistonni fath etgan Bobur podshoh Mavorounnahr, Kobul va Xurosondan shoir va olimlarni o‘z saroyiga taklif etgan.

Shayxu, Mullo Shihobu Xondamir,

Keling uch-uch, ikki-ikki, bir-bir. [Бобур, 1960: 332].

Yuqoridagi satrlarda Bobur podshoh hirotlik G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir (1475-1535) kabi yirik muarrix olim va shoirlarni Hindistonga chaqirtirgani va ilmiy adabiy muhit yaratgani ko‘rinib turibdi.

Bobur podshoh vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan Humoyun davrida ham olimlar, musavvirlar va adabiyot namoyandalariga e‘tibor berilgan. Gulbadan begim bergan ma‘lumotlarga qaraganda, Dehli shahrida olimlar va shoirlar uchun podshoh tomonidan maxsus saroy qurilgan va unga “Saodat uyi” deb nom berilgan. “Saodat uyi”da kitoblar, murassa‘ qalamdonlar, chiroyli juzdonlar, latif suratlar solingan albomlar va xushxatlar saqlangan [Gulbadan Begim. 2002: 41].

Bobur davridagi kabi Jahongir podshoh zamonida ham adabiy muhit o‘ziga xos tarzda saqlanib qolingan. “Jahongirnoma” da Boburiylar saroyida yashab ijod etgan shoirlar haqida ancha ma‘lumotlar uchraydi. Bobo Tolib Isfahoniy, Hayotiy Giloniy, Mulla Naziriy Nishopuriy, mulla Muhammad So‘fiy Mozandaroniy, malik ush-shuaro Sa‘idoyi Giloniy, zargarboshi Mir Ma‘sum Koshiy, Qul Shura Kosgiy,

mulla Haydar Hasoniy Koshiy kabi shoirlar Jahongir podshoh nazdida bo‘lganlar [Азамат Зиё. 1994:1-2].

Jahongir podshoh ota-bobolari siyosati va an‘analarini saqlab qolgan. Avvalo otasi Akbar podshoh davridagi amaldorlarni o‘z ornida qoldirgan va ilm ahliga homiylik qilishga katta rag‘bat ko‘rsatgan. Jahongir podshoh bobosi Humoyun kabi musavvirlik san‘atiga astoydil qiziqqan, shuningdek bog‘dorchilik sohasida ulkan ishlarni amalga oshirgan.

Jahongir podshoh o‘z hukmronligi tarixining o‘n ikki yilini yozib tugatganidan so‘ng uni kitob holiga keltirib muqovalash va miniatyuralar bilan bezatishga topshirgan. Bu kitobga asli kelib chiqishi Hirotlik bo‘lgan Abul Hasan ismli rassom miniatyuralar chizgan. Musavvirning yuksak mahoratini maqtagan Jahongir unga “Nodir uz-Zamon” nisbasini inoyat qilgan va agar tirik bo‘lganida Behzod ham havas qilar edi, deb ta‘riflagan [Jahangir, 1989: vol.II, 20]. Podshoh yana bir musavvir Ustad Mansurga “Nodir ul-Asr” nisbasini bergan va otasi Akbar podshoh va o‘zi hukmronlik qilgan yillarda bu ikki rassom tengsiz bo‘lganini qayd etgan.

Boburiylar saroyida nafaqat musulmon rassomlar, balki hind musavvirlari ham ijod etgan. Safaviylar davlatida Boburiylar elchisi vazifasida bo‘lgan Xon Olam Isfahonda Amir Temur va To‘xtamish o‘rtasidagi urush tasvirlangan miniatyurani sotib olgan va Hindistonga olib kelib podshohga sov‘ga qilgan. Jahongir podshoh bu sovg‘adan mamnun bo‘lib, Safaviylar davlatiga Bishan Das ismli rassomni jo‘natgan va Shoh Tahmosp rasmini chizish hamda boshqa nodir rasmlardan ko‘chirma olib kelish topshirig‘ini bergan. Bu ishni uddalab kelgan Bishan Dasga fil va pul mukofoti berilgan.

Bobokaloni Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tabiat oshig‘i bo‘lgan Jahongir o‘z asarida Hindistonning turli qismlarida o‘sadigan gular, daraxtlar va qushlar hamda hayvonlarning ta‘rifini keltirib saroy musavvirlariga ularning suratlarini chizdirtirgan.

Bog‘dorchilik san‘atiga alohida mehr qo‘ygan Jahongir podshoh bobokaloni Bobur podshoh Jamna daryosi bo‘yida go‘zal chorbog‘ bunyod ettirib unga Gul-Afshon nomini berganini, shuningdek o‘sha joyda qizil toshlardan masjid qurdirganini qayd etgan [Jahangir, 1989: Vol. I, 4-5].

“Jahongirni Hindistondagi eng ulug‘ bog‘ yaratuvchi deb atashga to‘la haqlimiz”, deb yozadi professor A. Ibrohimov [Ибромимов А, 2023:18]. Tabiatni va sayr qilishni yaxshi ko‘rgan Jahongir podshoh o‘z davlatining turli joylarida go‘zal boglar bunyod ettirgan. Taxtga o‘tirganidan so‘ng ko‘p o‘tmay Kobulga kelib bobokaloni Bobur podshoh qabrini ziyorat qilgan Jahongir “Bo‘gi bobur”dan tashqari, “Bog‘i Shahrora”, “Bo‘gi kalon” va “O‘rda bog‘” kabi qator bo‘glarni sayr qilgan va ular haqida o‘z kitobida ajoyib ma‘lumotlarni bergan.

Jahongir podshoh bunyod ettirgan bog‘lar ihcida eng mashhuri Kashmirdagi “Shalimar” bog‘i hisoblanadi. Milodiy 1619-yili Dal ko‘li bo‘yida qurilgan bo‘g o‘n ikki yarim gektar maydonni o‘z ichiga olgan. Ko‘ldan bir yarim kilometr joydagi boqqa eni o‘n bir metrlik anhor orqali suv tortilgan va anhorning ikki chetiga chinorlar ekilib chiroyli alleya qilingan. Bog‘ning ichida ko‘shklar, tololar

va favvoralar qurilgan. Keyinchalik bu joy nafaqaf boburiy hikmdorlar, balki sinkhlar va ingliz hukumati vakillarining ham dam oladigan go‘shasiga aylangan.

Jahongir podshoh Kashmirda barpo etgan yana bir bo‘g “Nishot” deb nom olgan. Bu bog‘ni Jahongir podshohning sevimli malikasi Nur Jahon begimning akasi Osifxon qurdirgan.

“Jahongirnoma” sahifalarida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, podshoh Lohur, Agra, Dehli va boshqa shaharlarda ham obodonchilik ishlari keng miqyosda olib borilgan. Poytaxt Agradagi boglardan birini podshoh sevimli malikasi Nur Jahon begim sharafiga “Bog‘i Nur-Afshon”, deb atagan [Yuldashev B. 2022:146].

Jahongir podshoh o‘z davlati sarhadlarining turli qismlarida masjidlar qurdirgan. Milodiy 1613-yili podshoh Maurtha parganasida qurilayotgan masjid xarajatlari uchun Shayx Pir ismli saroy mulozimiga to‘rt ming rupiy pul inoyat qilgan. Keyinchalik, 1621-yili tog‘lik joyda qurilgan mustahkam Kangra qal‘asini Boburiylar davlati tasarrufiga qo‘shib olganidan so‘ng podshoh shaxsan bu qal‘aga tashrif buyurgan va qal‘a ichida masjid qurish uchun buyruq bergan.

Jahongir podshoh hukmronlik qilgan yillarda saroy va mamlakat sarhadlarida adabiy hayot yanada taraqqiy etgan. Forsiyzabon va turkiytil shoir va musiqachilar qatorida hind tilida ijod etadigan shoir va musiqachilarga ham e’tibor berilgan va ularning ko‘plari podshoh tomonidan homiylikka olingan. Hind tilida ijod etgan buyuk shoir Tulsidas (1532-1623) va boshqalar boburiy podshoh yoki joylardagi subadorlar tomonidan rag‘batlantirib turilgan. Ularning erkin ijod etishlariga sharoitlar yaratilgan.

“Jahongirnoma”da berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, podshohning maxsus buyrug‘i asosida mamlakatdagi yurik shaharlar o‘rtasidagi yo‘llar tekislangan va daryolar ustida ko‘priklar qurilgan. Savdogarlar, sayyohlar va boshqa yo‘lovchilarning xavfsizligini ta’minlash mahalliy hokimlar zimmasiga yuklatilgan. Xolisa yerlarda esa xarajatlar davlat xazinasidan to‘langan.

Xulosa qilib aytganda, boburiyzoda Jahongir podshoh hukmronlik qilgan yillarda Boburiylar davlatida madaniy hayot yanada rivoj topgan. Mamlakatda bog‘dorchilik va bunyodkorlik ishlari keng olib borilgan. Saroy va mahalliy joylarda fars, turkiy va hind tillarida ijod etgan shoir va olimlar davlat tomonidan rag‘batlantirilgan. “Jahongirnoma” asarida bu to‘g‘risida yuzlab misollar uchraydi va yirik shoir, musavvir va musiqachilarning ismlari zikr etilib, ularning ijodidan namunalar ham keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома / Нашрга тайёрловчилар Порсо Шамсиев, Содик Мирзаев – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960. – 514 бет.

2. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома / Порсо Шамсиев, Содик Мирзаев ва Эйжи Мано нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 2002. - 336 бет.

3. Захириддин Мухаммад Бабур. Бабур-наме / Перевод М. Сале. – Ташкент: Главная редакция ИПАК “Шарк”, 2008. – 244 с.

4. Zahiriddin Muhammad Babur Padshah Ghazi. Babur-nama (Memoirs of Babur) / Translated by Annette Susannah Beverige. – New Dehli: Atlantic Publishers & Distributors, 1989. – 880 pages.

5. Gulbadan Begim. Humoyunnoma / fors tilidan B. Yo‘ldoshev tarjimasini. – Toshkent: Fan, 2022. – 128 b.

6. Nuriddin Muhammad Jahangir. The Tuzuk-i-Jahongiri or Memoirs of Jahangir / Translated by Alexandr Rogers. New Dehli: Low Price Publications, 1989. – Vol. I. - 478 pages.

7. Nuriddin Muhammad Jahangir. The Tuzuk-i-Jahongiri or Memoirs of Jahangir / Translated by Alexander Rogers. New Delhi: Low Price Publications, 1989. – Vol. II. - 316 pages.

8. Азамат Зиё. Тузуки Жаҳонгирий. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1994 йил. № 27 (3272).

9. Иброҳимов А. Бобурийлар мероси. – Тошкент: Энциклопедия ворлд, 2023. – 80 б.

10. Йўлдошев Б. Бобурпур. – Тошкент: Сано-стандарт, 2011. – 60 бет.

11. Yuldashev V. Boburiy malikalar. – Toshkent: Ochun, 2022. – 206 b.

12. Комрон Мирзо. Девон. –Тошкент: Фан, 2004. – 60 б.

13. Байрамхон. Девон. –Тошкент: Тамаддун, 2013. – 64 б.

14. Низамутдинов И. Очерки истории культурных связей Средней Азии и Индии в XVI – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1981. – 56 стр.

15. Низомиддинов. Буюк Бобурийлар тарихи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2012. – 516 б.

Xidirov Xoshim,

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Jizzax politexnika instituti dotsenti

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: HUKMDORLIKNING MASHAQQATLI YO‘LI VA ZAHMATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hokimiyat tepasiga kelishi jarayonlari, hukmdorlikning mashaqqatli yo‘li, davlat tashkil etishdagi xayrli ishlari, ijodiy faoliyati, Hindistondagi Boburiylar imperiyasining tashkil topishidagi o‘rni va roli haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Andijon, Samarqand, Shox Ismoil, Davlat, hokimiyat, taxt, Movarounnahr, podsholik, beklilik va h.k.

Abstract: This article talks about the processes of Zahiruddin Muhammad Babur's coming to power, the arduous path of rulership, his good deeds in the establishment of the state, his creative activities, his place and role in the establishment of the Babur empire in India.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, Andijan, Samarkand, Shah Ismail, State, power, throne, Movarounnahr, kingship, kingship, etc.

Movarounnahr XV asr oxirida mustaqil bo'lib olgan ko'pdan-ko'p viloyatlarga parchalanib ketdi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan bir vaqtda Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo'ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Zahiriddin Muhammad Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilari mustaqillik da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shib, uni yo'qotish payiga tushadi. Bobur o'z amakisi Sulton Ahmad Mirzo bilan va tog'asi Sulton Mahmudxon hurujlarini daf qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilash, qo'shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o'rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni mustahkamlash, Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bu paytda Samarqand taxtida o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o'rniga Buxoroda hokim bo'lgan o'g'li Boysung'ur Mirzo o'tiradi. 1495-1496 yillarda Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497 yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni ham egallaydi, Boysung'ur Mirzo esa Qunduzga qochadi. Shahardan qamal tufayli yegulikka don ham topish mushkul edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axxi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Zahiriddin Muhammad Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda, og'ir xastalikni boshidan kechirgan Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror qiladi. Ammo Xo'jandga yetganida Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o'tganini eshitadi. Zahiriddin Muhammad Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi. Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir ko'rsatib, ko'pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Zahiriddin Muhammad Boburni tark etadi. O'ziga sodiq kishilar (200-300) bilan qolgan Zahiriddin Muhammad Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga — Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Zahiriddin Muhammad Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, Marg'ilonni qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko'radi. Nihoyat, ikki yildan so'ng (1498-yil iyunda) uni qayta qo'lga kiritadi. Zahiriddin Muhammad Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida «Xo'jand suvining Axxi taraf viloyatlarini...» qoldiradi. Andijon tarafdagi viloyatlarni o'z tasarrufiga oladi. Temuriylarning o'zaro urushlari kuchaygan kezlarda Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499-yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzga borib yetadi, katta o'lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko'p o'tmay, katta kuch

bilan Movarounnahrqa qaytgan Muhammad Shayboniyxon Buxoro va Qorako'lni egallaydi (1499). Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Muhammad Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500). Biroq shahar aholisi va zodagonlarining ma'lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg'ona hokimi Zahiriddin Muhammad Boburga maktub yo'llab, Samarqandni ishg'ol qilishga da'vat etganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur 1500-yil kech kuzida o'z qo'shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Muhammad Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Muhammad Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G'uzor shaharlarida Zahiriddin Muhammad Bobur hokimligi e'tirof etiladi. Ammo shaharda oziqovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlanadi. Bundan xabar topgan Muhammad Shayboniyxon katta kuch to'plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501-yil aprelda Zarafshon bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda Bobur qo'shinlari yengiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to'rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Zahiriddin Muhammad Bobur 1501-yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga – Sulton Mahmudxon huzuriga yo'l oladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Muhammad Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borgan bo'lsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida u maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yili Toshkent xoni Sulton Mahmudxon, Zahiriddin Muhammad Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini Muhammad Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo'yida tor-mor qilinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504-yillarda Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir Mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.

Temuriylarning to'xtovsiz janglari va og'ir soliqlaridan toliqqan xalq Zahiriddin Muhammad Boburni qo'llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G'azna va Qobulni egallaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Qobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o'rnatadi. Qobulga, umuman, Afg'onistonga Zahiriddin Muhammad Bobur o'z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog'i Shahrora», «Bog'i Jahonora», «O'rtabog'», «Bog'i vafo» va «Bog'i Bobur» kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal'asini o'z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta'mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal'ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug'iladi. 1506-yilning bahorida vafot etgan Qutlug' Nigorxonim Mirzo Ulug'bek shu yerda

bunyod ettirgan «Bog‘i Navro‘ziy»ga dafn etiladi. Bobur Afg‘onistonda bir fohit sifatida emas, balki, shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmdor sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Zahiriddin Muhammad Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro‘ orttirdi, mintaqadagi siyosiy hayot e‘tiborli o‘ringa ko‘tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo‘yicha Hirotga otlanadi. Husayn Boyqaroning to‘satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o‘tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Muhammad Shayboniyxon qo‘shinlariga to‘siq qo‘yish rejaları amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo‘ldan chiqaradilar. 1507-yilning boshlarida Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Qobulga qaytadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o‘z qo‘shinlarini doimo shay tutadi. Muhammad Shayboniyxon Xurosonning yirik markazlarini qo‘lga kiritgach, Eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to‘qnashuvda (1510) u yengiladi, o‘zi ham Marvda halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrda qo‘shin kiritib shayboniylarga ketma-ket shikast etkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511-yilning bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktyabrning boshida esa Samarqandni yana qo‘lga kiritadi.

Boburning shia mazhabidagi eroniyalar ra‘yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512-yil 28-aprelda Ko‘li Malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Zahiriddin Muhammad Bobur Hisor tomon ketadi. 1512-yil kuzida Zahiriddin Muhammad Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal‘asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi.

1512-yil 24-noyabrda G‘ijduvon jangida Zahiriddin Muhammad Bobur shayboniylardan yana engilib, Qobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e‘tiborini Hindistonga qaratadi. 1519-yil bahoriga kelib Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qilib, Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Zahiriddin Muhammad Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Zahiriddin

Muhammad Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda ham, huddi Afg'onistonda bo'lganidek, ko'plab ijtimoiy hayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o'zaro ichki nizo, qirg'inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. Boburning o'z guvohligiga ko'ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtdan boshlangan; «Ul fursatlarda biror ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi u. Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o'rtasida yozishma boshlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur atrofida ijodkorlar to'plana boshlashi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o'rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg'in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko'p vaqti jangu jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan. O'tmish adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Zahiriddin Muhammad Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehri munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Zahiriddin Muhammad Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning «Topmadim» radifli g'azali va «Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yoru diyor sog'inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ishq muhabbat, sevgi, sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'rin tutadi. Uning g'azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi yengil va o'ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning o'z she'riy asarlarini to'plab, devon holiga keltirgan sanani ko'rsatuvchi aniq tarixiy ma'lumotlar ma'lum emas. Ammo

«Boburnoma»ning 1518-1519-yillar voqealari bayoniga bag'ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to'g'risida so'z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan. Hozirda uning 119 g'azali, bir masnu she'ri, 209 ruboiysi, 10 dan optik tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rin olgan. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari o'zining jozibadorligi, mazmundorligi va badiiy teranligi bilan ajralib turadi. U o'zining murakkab hayot yo'li, ziddiyatli dunyoqarashi hamda boy adabiy-ilmiy tafakkuri bilan o'zbek she'riyati rivojiga katta hissa qo'shgan, mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, tarixda davlat arbobi sifatida nom qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrohimov A. Boburiylar merosi. - Toshkent: Mehnat, 1993.
2. Is'hoqov Y. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
3. Komron Mirzo. Devon. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. - Toshkent: Fan, 2004.
4. Muhiddinov Z. Bobur Mirzo. - Andijon: "Andijon nashriyot- matbaa" ochiq aksiyadorlik jamiyati, 2005.
5. Nazarova X. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at. — Toshkent: Fan, 1972.
6. Nizomiddinov N.G'. Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti. - Toshkent: 2010.
7. Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. — Toshkent: Fan, 1994.

Tojiyev Dostonjon Beknazar o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon
Beruniy nomidagi Sharqshunoslik
instituti tayanch doktoranti,
Toshqulova Shahnoza Safarboy qizi,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
Texnika universiteti tayanch doktoranti

BOBUR MIRZO HAQIDA “TURKISTON ROSSIYA VA XITOIY ORALIG‘IDA” KITABI MUHIM MANBA SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida Doktor Boymirza Hayitning “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig‘ida” kitobining qisqacha mazmuni, Turkistonning rus, Sharqiy Turkistonning esa Chin yurti istilosi ostida qolishi, so'ngra Sovet hukumatining mustamlakachilik siyosati haqidagi tarixiy ma'lumotlar asosida so'z

boradi. Muhim hujjatlar va arxiv ma'lumotlarini o'rganish, tadqiq etish jarayonida yaratilgan bu asarda Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bir qator ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan. Umumiy tarzda kitob qisqacha bo'lsada, Bobur Mirzo va Boburiylar haqidagi ma'lumotlari sababidan hamon o'z dolzarbligini saqlab qolgan.

Kalit so'zlar. Zahiriddin Bobur, Turkiston, Dr. Boymirza Hayit, Temuriylar davri renessansi, Boburiylar sulolasi, Baxtiyor Isabek-O'rdabekli.

Abstract. This research work is based on the summary of the book "Turkestan between Russia and China" by Dr. Baymirza Khayit, based on the historical information about the occupation of Turkestan by Russia and East Turkestan by China, and then the colonial policy of the Soviet government. This work, which was created in the process of studying and researching important documents and archival data, contains a number of information about Zahiriddin Muhammad Babur. Although the book is generally short, it still retains its relevance due to its information about Babur Mirza and the Baburid.

Keywords. Zahiriddin Babur, Turkestan, Dr. Baymirza Khayit, the renaissance of the Timurid period, the Baburid dynasty, Bakhtiyor Isabek-Ordabekli.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng turli sohalarda o'z milliyligidan, tarixiy an'ana va qadriyatlaridan kelib chiqib yangilanish, yuksalish pog'onasiga qadam qo'ydi. Eng muhim jihat o'zlikni anglash, haqqoniy tarixni yaratish va tarixiy ajdodlarning nomini tiklash bo'ldi. Sobiq Ittifoq davridan qolgan tarixga mafkuraviy va siyosiy yondashishdan chetlanish, bunda asl tarixni yaratish masalalari kun tartibida bosh o'ringa chiqishiga e'tibor berildi. O'nlab allomalar merosini tadqiq etish, asarlarini tarjima qilish va avlodlarga "bus-butun" yetkazishga harakat qilindi. Shu jumladan, o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni va roli ulkan bo'lgan, biroq siyosiy-mafkuraviy jarayon sabab nomlari qoralangan sarkardalar, davlat arbobu hukmdorlarining nomi oqlanib, ular qilgan ishlari adolat nuqtayi nazaridan yoritishga kirishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi" [uzbekistan.lv. 2018]. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol ash-Shoshiy, Bahouddin Naqshbandiy, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan. Ularning merosidan barcha xalqlar, turkiy dunyo tarixiga qiziquvchi oddiy insondan tortib olimlarga qadar bahramand bo'lish baxtiga muyassarlar.

Sobiq Ittifoq davrida Vatan istiqloli, millat ozodligi, mustaqillik uchun Turkiston xalqlari olib borgan kurash voqealarini haqqoniy aks ettiruvchi har qanday manba jamoatchilik e'tiboridan chetlatildi. Ayniqsa, Turkistonda kuch bilan o'rnatilgan Sovet hokimiyati har bir davr tarixini, ozodlik uchun olib borilgan kurashlar haqidagi tarixiy haqiqatlarni oshkor etuvchi manbalarni mutlaqo yashirdi, kezi kelganda hech ikkilanmay soxtalashtirildi va sovet mafkurachilarining turli ertaklarini "asoslash" [Найт Б., 1998: 168] uchun "tirkaldi". Turkiston o'lkasining o'rta asrlar tarixiga doir ma'lumotlar ham senzurdan chetda qolmadi.

"Turkiston, Rossiya va Xitoy oraliq'ida: XVII – XX asrlarda ruslar va xitoyliklarning istilolari davrida Turkiston Milliy davlatlari va milliy mujodalalari tarixi" mavzuli asar, birinchi daf'a nemis tilida Amsterdam shahrida 1971-yilda nashr etilgan edi. 1975-yilda turk tilida ham nashr etildi. Ushbu asar, Yevropa, Amerika va sobiq Ittifoqda ko'p tanqidlarni ko'rdi. Sovet Ittifoqida ushbu asarga qarshi ham ko'p qarshi yozishlar bo'lgan. Sovet-kommunizm mafkurasi, buning ichida sovet tarixshunosligi, Dr. Boymirza Hayitning fikrlarini oldingi asarlarini "hazm qila olmagan" kabi, bu asarga ham xavfli tus bergan. Ushbu asarni Sovet Ittifoqida o'qimoq va o'qitmoq berilajak jazolarning bir sababchisi bo'lgan edi [Найт Б., 2023: 12].

Qisqacha aytganda, bu asar o'z zamonasining noyob manbasidir. Unda Markaziy Osiyoning Amir Temur va Temuriylar davridan tortib sobiq Ittifoqning qulashiga qadar bo'lgan yirik davri qamrab olingan. Keltirilgan ma'lumotlar ham o'nlab manbalarni o'rganish, yillar davomida to'plangan ma'lumotlar tahlili, jahon arxivlarining noyob qo'lyozmalari tadqiqi asosida kitobga jamlangan.

Kitob o'n uch bo'limdan iboratdir. Ilk bo'limda birlashgan imperatorlik (Temuriylar davlati)dan bir qator mayda davlatlarga parchalanib ketgan Turkiston haqida fikr yuritilib, bu davr haqida, o'sha vaqtdagi xalqlar tarixi, Sharqiy Turkistonning holati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kitobning ikkinchi bo'limida Turkistonning mustaqil xonliklarga (Buxoro, Xiva va Qo'qon; hatto qisqa yashagan Toshkent xonligi ham) bo'linib ketishi bayoni keltirilgan.

Uchinchi bo'lim Turkistonga rus hujumining boshlanishi tarixi haqidadir. Bu qismda ruslarning Turkiston bo'ylab amalga oshirgan josuslik ishlari, savdo-sotiqdari, siyosiy munosabatlari, rus istehkomlarining barpo etilishi va qozoq juzlarini egallash jarayonlari batafsil keltirib o'tiladi.

To'rtinchi bo'lim Turkistonning eng og'ir damlari – Chor hukumatining to'rt bosqichli agressiyasi davri haqidadir. Bu bo'limda ruslar tomonidan Buxoro amirligi va Xiva xonligining protektoratga aylantirilishi, Qo'qon xonligining bosib olinishi hamda davlat sifatida butkul tugatilishi, Go'ktepada butkul tor-mor keltirilgan turkmanlar, Pomirga yurish, chegaralar borasida rus-ingliz diplomatiyasiga oid masalalar muhim arxiv ma'lumotlar asosida bayon qilingan.

Beshinchi bo'lim Xitoy tomonidan Sharqiy Turkistonning istilo etilishi, uyg'urlarning qay yo'sinda chin istibdodi oldida ojiz qolganliklari va bu borada chin yurti amalga oshirgan turli harakatlar hamda uyg'ur xalqining ozodlik kurashlariga to'xtalib o'tilgan.

Oltinchi bo‘lim Turkistonda o‘rnatilgan rus hokimiyatining mintaqada olib borgan turli siyosatlari xususida bo‘lib, bunda rus mustamlakachilik siyosatini bor bo‘yicha ko‘rsatib berishga harakat qilingan.

Yetinchi bo‘lim oq podshoga qarshi Turkistonda amalga oshirilgan milliy-ozodlik harakatlari xususidadir. Bunda Sulton Kenesari qo‘zg‘oloni, 1898-yildagi Dukchi Eshon boshchiligidagi Andijon qo‘zg‘oloni, 1916-yilgi Turkistonni larzaga slogan, o‘lkani deyarli qamragan milliy-ozodlik harakatlari bor bo‘yoqlarida, aniq raqamlarda bayon qilingan.

Sakkizinchi bo‘limdan boshlab eng asosiy davr voqealari qamrab olinishni boshlaydi. 1917-yilgi fevral va oktabr inqiloblari, jadidlar harakati, fevral inqilobi ta’sirida o‘lkada milliy davlatchilik tomon ilk odimlar, bolsheviklarning ularni bo‘g‘ib tashlashga urinishi hamda, alal-oqibat, kommunistik partiyaning iqtidorga kelishi masalalari keng yoritilgan.

To‘qqizinchi bo‘lim 1917 - 1924-yillardagi Turkiston milliy davlatlari va ularning qismati to‘g‘risidadir. Bunda Qo‘qondagi Turkiston muxtoriyati, Qozog‘istondagi Alash O‘rda, Buxoro va Xivada tuzilgan mustaqil xalq respublikalari hamda ularning tugatilishi tarixlari bayoni keltirilgan.

O‘ninchi bo‘lim o‘ta og‘riqli davr – Turkistondagi 1918 - 1934-yillardagi milliy-ozodlik kurashi, qo‘rboshilar faoliyati, ularga qarshi Sovet hukumatining olib borgan harbiy harakatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

O‘n birinchi bo‘limda Sharqiy Turkistondagi O‘rta Osiyodan qolishmagan og‘ir ahvolning bayoni berilgan. Bunda 1934-yildan keyingi davrda xitoyliklar, ruslar va Turkistonliklar o‘rtasida Sharqiy Turkistonni tashkil qilish masalasidagi ixtiloflar bayoni keltirilgan.

O‘n ikkinchi bo‘lim esa 1924-yilda Sovet hukumati tomonidan tashkil qilingan “Milliy davlatlar” haqidadir. Bu bo‘lim butun boshli bir hudud, bir elat bo‘lgan Turkiston o‘lkasini majburiy tarzda, “Milliy hududiy chegaralanish” niqobi ostida 5 ta respublikaga ajratib yuborilishi haqidadir. Bunda Turkistondagi sho‘ro davlatlarining g‘ayrimilliy xarakterlari ham soxta bo‘lmagan ishonarli ma’lumotlar bilan boyitilgan tarzda muallif tomonidan bayon qilingan.

Kitobning so‘nggi o‘n uchinchi bo‘limi sobiq Sovet davlatining qulashi va undan so‘ng istiqloq ila o‘z yo‘lini qurayotgan ozod Turkistonning mustaqil beshta jumhuriyati haqidagi qisqa hamda yakunlovchi xulosalaridan iborat. Yana bir e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat, bu o‘n uchinchi bo‘lim kitobning olmoncha va turkcha nashrlarida uchramasligi. Sababi bu bo‘lim muallif tomonidan kitobning o‘zbekcha nashri uchun maxsus yozilganligidir.

Ushbu asarda o‘nlab tarixiy shaxslar qatorida Sohibqiron Amir Temurning avlodi bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Muallif Boburning faoliyatini keng bo‘yoqlarda yoritmagan bo‘lsa-da, o‘sha davr tarixida ushbu shaxsning amalga oshirgan ishlari ham muhim o‘rin egallaganini ta’kidlab o‘tadi.

Muallif XVI asr boshiga kelib bugungi Turkistonda ahvolning og‘irlashgani bois xalq amalda temuriy shahzodalarga ishonmay qo‘yganini, natijada Dashti Qipchoq o‘zbeklari bu borada katta muvaffaqiyatni o‘zlariga og‘dirganiga ishora

qiladi. Lekin bu muvaffaqiyatsizlik Boburga ulkan saltanat yo'lida kattaroq yo'nalish berganini ham ta'kidlaydi. Jumladan: "Turkistondagi siyosiy hukmronlik 1500 - 1507-yillar davomida temuriylar qo'lidan Shayboniyxon [Тожиёв D., 2021: 331] boshchiligidagi o'zbeklarga o'tdi. Temur shajarasidan Zahiriddin bin Umarshayx Bobur (1483-1530) o'zbeklar tomonidan tashqariga surib chiqarilgach, 1526-yilda Hindistonda bir turkiy imperatorlik qurishga muvaffaq bo'ldi". [Найт Б., 2023, 13]

Yevropa tarixchilari "Buyuk mo'g'ul" deb nomlagan, Hindistondagi temuriylar saltanatining tuzuvchisi Bobur faqatgina bir davlat arbobi va qo'mondoni bo'lib qolmasdan, ayni zamonda davrining yangi bir yo'sindagi shoiri edi. [Köprülü M. Fuad., 1960: 180-187] Bu saltanat Akbarshohning [uz.wikipedia.org] zamonida eng porloq davriga erishdi. Muhammadshoh (1719-1748) saltanati zamonida imperatorlik parchalana boshladi. Shunga qaramay, Boburiylar Shoh Olam II [uz.wikipedia.org] o'limiga qadar (1806) Hindistonda boobro' edilar. Xullasikalom, 1858-yilgacha Britaniya tasarrufiga o'tdilar va nihoyat, ular tomonidan taxtdan tushirildilar, deya muallif o'z asarida qayd etadi.

Dr. Boymirza Hayitning "Turkiston: Rossiya va Xitoy oralig'ida" asarida Qo'qon xonlarining tarixan Bobur avlodlari ekanligi xususidagi "Oltin beshik" rivoyati ham eslab o'tiladi. "Xalq orasida Boburning xotini Said Oppoxonim qochish arafasida bir o'g'il tuqqanligi haqida rivoyat tarqaldi. Rivoyatga ko'ra, Bobur va uning Xonimi bolani bir oltin beshikda qoldirib ketishga majbur bo'ladilar. Xalq bu chaqaloqni topib, otini "Oltin beshik" deb qo'yadi. Chaqaloq o'zbeklarning ming urug'i qo'lga o'tadi. Oltin beshikning Tangriyor ismli bir o'g'li bo'ladi. Tangriyor ulg'ayib Farg'ona begi bo'ladi. Bu xil bir afsona vositasida ming urug'i, balki Farg'onada o'z hokimiyatini yoymoq maqsadida edi". [Найт Б., 2023: 50]

Umuman olganda, Dr. Boymirza Hayitning "Turkiston: Rossiya va Xitoy oralig'ida" asaridan olingan taassurotlar haqida juda ko'p yozish mumkin. Eng muhimi Zahiriddin Muhammad Boburga tegishli ma'lumotlar manbalar asosida tadqiq etilgandan so'ng asardan joy olgan. Shu o'rinda yana bir narsa diqqatga molik, chet elda yashashiga qaramasdan, olim o'z ishida tarixiy-ilmiy manbalardan keng foydalanishga harakat qilgan hamda munozarali o'rinlarda xolis turishga intilgan.

O'zbekiston tarixining muhim davriga oid qimmatli ma'lumotlar jamlangan Dr. Boymirza Hayitning "Turkiston: Rossiya va Xitoy oralig'ida" asari "Yangi asr avlodi" nashriyot matbaa markazi tomonidan nashr etildi. Tarjimon Baxtiyor Isabek-O'rdabekli tomonidan tarjima etilgan va o'ttiz ikki yil davomida qo'lyozma holatida qolib ketgan kitob bugun o'quvchilar qo'lga yetib bordi. Soha fidoyilari bo'lgan akademik Naim Karimov, professor Qahramon Rajabov, olim Bahrom Irzayev, yozuvchi Nurali Qobul kabi tadqiqotchilar bu asar xususida qimmatli fikrlarini berib o'tganlar. ushbu asarni o'z tilimizda, o'zbek tilida, nashr etmoq uchun yo'l ochildi. Ushbu kitob millatimizning fojialari va intilishlarining bir ifodasidir. Yangi O'zbekiston uchun bu turdagi Vatanimiz tarixi bayon etilgan kitoblar muhim va ular orqali kelajak yoshlarimizning ona yurtga muhabbati, bobolardan namuna olish xislatlari ortib borishiga hech shubha yo'qdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom Hamkorlik Tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 25.07.2018. <https://uzbekistan.lv/uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-vazifasini-bajaruvchi-shavkat-mirziyoyevning-islom-hamkorlik-tashkiloti-tashqi-ishlar-vazirlari-kengashi-43-sessiyasining-ochilish-marosimidagi-nutqi/>
2. Хайит Б. Ёруғ кунлар орзусида. Тошкент: Жаҳон адабиёти журнали. 1998 йил, 11-сон. Б. 168.
3. Хайит Б. Туркистон Россия ва Хитой оралиғида (XV аср иккинчи ярмидан XX аср сўнгига қадар). - Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. Б. 12.
4. Тожиев Д. Тарихий манбаларда Муҳаммад Шайбонийхоннинг сиёсий портретлар. Proceedings of the International Conference Dedicated to the Memory of Academician Ubaydulla Karimov: New perspectives for the study of Islamic culture, history and art in Uzbekistan, May 2021, Tashkent. Istanbul – 2021. Б. 331.
5. Köprülü M. Fuad. Babur, IA. 13. Cüz. S. 180-187.
6. Akbar Jaloliddin Muhammad. https://uz.wikipedia.org/wiki/Akbar_Jaloliddin_Muhammad
7. Boburiylar <https://uz.wikipedia.org/wiki/Boburiylar>

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRI MADANIYATI, SAN'ATI VA MUSIQASI

Abdumajid Madraimov,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
tarix fanlari doktori, O'zR FA Temuriylar tarixi davlat
muzeyi katta ilmiy xodimi,

Askariy Madraimov,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

“BOBURNOMA” ASARIDA SAMARQAND SHAHRI TAVSIFI VA ULARNING MO‘JAZ NAFIS RASMLARDAGI TALQINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Boburning jahonga mashhur “Boburnoma” asarida keltirilgan Samarqand shahri tavsifi va ularning XVI asr oxiri XVII asr boshlarida buyuk Boburiy Jaloluddin Muhammad Akbar saroyida yaratilgan mo‘jaz nafis rasmlardagi talqini tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, Samarqand, tarix, tavsif, Jaloluddin Muhammad Akbar, nafis mo‘jaz rasmlar, talqin.

Abstract: In this article, the description of the city of Samarkand given in the world-famous work "Baburnoma" by the encyclopedist Zahiriddin Muhammad Babur and their interpretation in the wonderful and elegant paintings created in the palace of the great Baburi Jalaluddin Muhammad Akbar at the end of the 16th and the beginning of the 17th century are researched.

Key words: Zahiruddin Muhammad Babur, "Baburnoma", Samarkand, history, description, Jalaluddin Muhammad Akbar, exquisite miraculous paintings, interpretation.

Zahiriddin Muhammad Boburning tarix ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi, qomusiy olim, ya’ni tarixchi, adabiyotshunos va faqih sifatida shakllanishi hamda Markaziy Osiyo – Farg‘ona, Movarounnahr, Kobul, Xuroson, Pokiston va Hindiston tadqiqotchisi sifatida tarix ilmiga qo‘shgan hissasi asosan o‘z asari “Boburnoma”, zamondoshlaridan tarixchilar Shayx Zayn Xavofiy, G‘iyosiddin Xondamir, jiyani Mirzo Muhammad Haydar, qizi Gulbadan Begim va boshqalar kitoblarida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Boy yozma merosimiz, tarixiy manbalarning yaratilishida turkiy tilning alohida o‘rni bor. Lekin yurtimiz hududi islom olami, arab xalifaligi tarkibiga qo‘shib olingach, avval asosan arab tilidagi, so‘ngra fors tilidagi rasmiy hujjatlar, ilmiy, tarixiy asarlar ko‘plab yaratildi. O‘sha davrlarda ham Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” kabi yirik yozma manbalarning yaratilishi tasodifiy bo‘lmay, turkiy tilning qudrati, salohiyati va kuchi yetarli ekanini namoyish etdi.

Turkiy tilda “Qur’oni karim” tafsirlari, “Hadisi sharif” va “Qissas ul-anbiyo” kabi asarlarning tarjimalari, asta-sekin badiiy asarlar Xoja Ahmad Yassaviyning “Hikmatlari”, XIII asr shoiri Qul Alining “Yusuf va Zulayho” dostoni va nihoyat Amir Temur tomonidan “Temur tuzuklari” asarini yaratilishi madaniy hayotimizda juda katta voqea bo‘lgan edi. Baribir, aksariyat salmoqli ilmiy, tarixiy asarlar avval arab tilida so‘ngra fors tilida va nihoyat Temuriylar davridan turkiy tilda yaratila boshlandi.

Turli davrlarda yaratilgan Abu Ja’far Tabariyning “Tarixi ar-rusul va-l-muluk”, Fazlulloh Rashiduddinning “Jomi’ ut-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Muhammad Mirxondning “Ravzat us-safo” kabi yirik asarlarni forsiy va turkiy tilga o‘girganlar. Haydar Xorazmiy, Abdurahim Hofiz Xorazmiy, Sayyid Qosimiy, Mavlono Lutfiy, Xoja Ismat Buxoriy, Alisher Navoiy asarlarining yaratilishi turkiy tilning jahonda taraqqiy etgan adabiy va ilmiy til ekanligini ko‘rsatdi.

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” nomli asarida qayd etilishicha, hokimiyat arablarda bo‘lganida ular o‘z tilidagi madaniyatni ravnaq toptirishga homiylik qildilar, rag‘batlantirdilar. Undan so‘ng fors tilidagi madaniyatga e’tibor berildi. Nihoyat Temuriylar saltanati o‘rnatilgach, turkiy til va madaniyatining taraqqiy etishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi.

“Temur tuzuklari” asarining yaratilishi ham tarixiy voqea bo‘lgan edi. Alisher Navoiyning yirik badiiy asarlari “Xamsa”, “Lison ut-tayr” dostonlari, “Xazoyin ul-maoniy” nomli to‘rt devoni qatorida yaratilgan nasriy tarixiy asarlari, xususan, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Xamsat ul-mutaxayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Vaqfiya”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Munshaot” asarlari juda katta ilmiy ahamiyatga molik manbalarning yaratilganligi keyingi davrda o‘zbek tilining rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” (1530) asarining yaratilishi jahonshumul ahamiyatga molik yozma manba sifatida ijod etilganligini ko‘rsatadi. Chunki bu asar besh marta fors tiliga, to‘rt marta ingliz tiliga to‘liq tarjima qilinib, birgina forsiy qo‘lyozmalarning juda ko‘p tarqalganligi, o‘n uch qo‘lyozma besh yuzdan ortiq mo‘jaz rasmlar bilan ziynatlanganligi, asl matnning to‘qqiz marta chop etilishi, o‘ndan ortiq inglizcha qisqa nashrlar, yaqinda asarning yana arab va italyan tillaridagi tarjimalari amalga oshirilgani yuqoridagi fikr isboti uchun kifoyadir.

Eng asosiy masala, Temuriylar saltanati Sharqiy hududi, Farg‘ona viloyati poytaxti Andijon shahrida tug‘ilgan Zahiriddin Muhammad Bobur qanday qilib, buyuk tarixchi olim darajasiga erishdi? Biz buni uning o‘z asari “Boburnoma” sahifalaridan topishga intildik. Asar Boburshunoslar an‘anasiga ko‘ra, Farg‘ona (Movarounnahr) qismi matnini tahlil qilish orqali o‘rganildi. Biz tadqiqot uchun asos qilib, asarning 2002-yilgi nashrini oldik. [Boburnoma, 2002] Zarurat paydo bo‘lganda, 1958-yili rus tiliga tarjima hamda 1960-yilgi [Boburnoma, 1960] hamda imkon darajasida Eyji Mano nashriga [Boburnoma, Куллиёт. 4-6 жилдлар, 2021] murojaat qilindi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Kobul viloyati va Hindiston shimolidagi ulkan hududni egallab, yangi yirik saltanatga asos solib Sultoni a'zam va hoqoni mukarram faxriy unvoniga sazovor bo'lib, 332 hukmronlik qilgan Buyuk Boburiylarning birinchisi bo'lgan.

O'n ikki yoshida Temuriylar saltanati sharqiy qismida joylashgan Farg'ona viloyatida podshoh bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ota tomonidan Amir Temurga oltinchi avlod, ona tomonidan Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga o'n ikkinchi avlod bo'lsa ham u dabdabali hayot kechirish o'rniga, Temuriyzodalar va Chig'atoy Sultonlari hamda Jo'ji avlodlaridan bo'lgan Muhammad Shayboniyxon bilan o'n ikki yil davomida o'z davlatini himoya qilish, Samarqandni egallash uchun son-sanoqsiz jangu jadallar olib borishiga to'g'ri keldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning Farg'ona viloyati va Movarounnahrda hayoti va faoliyati (1494-1503) tadqiqi hijriy "sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi (1494) yil voqealari" bayoni tahlilidan boshlanadi.

"Boburnoma" asari "Bismillohirrahmonirrohim" so'zidan so'ng "Ramazon oyining beshida, tarix sakkiz yuz to'qson to'qquz (1494) da Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldim", degan jumla yozilgan. [Boburnoma, 2002: 34]

Ikkinchi jumla muallif o'zi podshoh bo'lgan hudud Farg'ona viloyati to'g'risidagi jug'rofiy-tarixiy ma'lumotdan iborat: "Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdandur. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand". [Boburnoma, 2002: 34] Ushbu jumladayoq, Samarqand shahri Farg'onaning g'arbidagi hudud sifatida eslatilgan.

Matnda Farg'ona tavsifi davom etib, uning poytaxti Andijon to'g'risida shunday so'zlar yozilgan "Andijondurkim, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur". [Boburnoma, 2002: 34] Bu joyda Samarqand shahri Movarounnahrda eng ulug' qo'rg'on sifatida eslatilmoqda.

Kitobda yana Marg'inonni zikr qilganda "nomdor jangaralar Samarqand va Buxoroda aksari Marg'inoniy ekani hamda sohibi "Hidoya" (Burhoniddin Marg'inoniy) Marg'inonning Rushdon otliq kentidindur", ekanini yozgan. [Boburnoma, 2002: 35]

Umarshayx Mirzo Movarounnahr va Xurosonni birlashtirgan Temuriyzoda Sulton Abusa'id Mirzoning to'rtinchi o'g'li edi. [Boburnoma, 2002: 37]

Otasi Umarshayx Mirzo kabi amakisi Samarqand podshohi Sulton Ahmad Mirzo to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. [Boburnoma, 2002: 43-45] Ushbu Mirzo Sulton Abusa'id Mirzoning katta o'g'li, sakkiz yuz ellik beshda (1451-yili) Samarqandda tug'ilgan edi.

Ushbu kitobda Sulton Ahmad Mirzo va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar qimmatli va ishonchli bo'lgani uchun keyingi tadqiqotlarda, xususan T. Fayzievning "Temuriylar shajarasi" nomli kitobida deyarli to'liq keltirilgan. [Fayziev T., 1995: 180-181]

Sulton Ahmad Mirzo Temuriy podshoh sifatida ma'lum harbiy salohiyatga ega, o'z davri nufuzli shaxsi Naqshbandiya tariqati yetakchisi Xoja Ubaydulloh Ahror muridi bo'lgan, mamlakatni tinch boshqargan edi.

Sulton Ahmad Mirzo mulozimlaridan Jonibek do'ldoy, Ahmad Hojibek, Darvesh Muhammad tarxon, Abduali tarxon, Sayyid Yusuf o'g'loqchi, Darveshbek, Muhammad Mazid tarxon, Boqi tarxon, Sulton Husayn arg'un, Qulmuhammad Bug'do qavchin, Abdulkarim ishrit to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. [Boburnoma, 2002: 45-46]

“Vaqoyi” asaridagi 899 yil voqealari asosan Umarshayx Mirzoning halokati, Bobur Mirzoning podshoh bo'lishi, Sulton Ahmad Mirzoning vafoti, Sulton Mahmud Mirzoning Samarqand taxtiga o'tirishi haqida ma'lumot berilgan. “Samarqand ahlikim, yigirma-yigirma besh yil Sulton Ahmad Mirzoning zamonida rafohiyat va farog'at bila o'tkarib edilar”. [Boburnoma, 2002: 46-47]

Ushbu yil voqe'alari bayonida asosan ikki podshoh Umarshayx Mirzo va Sulton Ahmad Mirzo tarixi juda mukammal bayon qilingan. Ular misolida Temuriy mirzolar shaxsiyati, davlat boshqaruvi, amaldorlari va ular xususiyatlari tadqiq etilgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan Samarqand podshohi tarixi, oilasi, amaldorlari va sodir bo'lgan voqealar bayoni shundan dalolat beradiki, Temuriylar davlati so'nggi yigirma - yigirma besh yilda ma'lum darajada tinch-osoyishta hayot kechirgan bo'lsa-da, ayrim davlat mulozimlari xulq atvorlarida tushkinlikka olib keluvchi salbiy holatlar mavjud bo'lgani qayd etilgan. Shuningdek, o'zining bolaligida, besh yoshida Samarqandda bo'lishi ham o'rin olgan. Umuman, bu yilgi bayon etilgan voqealarning eng muhimlari fors tilidagi tarjima qo'lyozmalariga ishlangan rasmlarda o'z tasviri va talqinini topgan.

Keyingi 900 (1494-1495) yil voqealarida Andijonga Samarqand podshohi bo'lgan Sulton Mahmud Mirzodan Abduquddusbek otliq elchi kelganida, katta “o'g'li Sulton Mas'ud Mirzoga akasi Sulton Ahmad Mirzoning Oqbegim otliq ikkinchi qizini to'y va oyin bila olg'on sochiqini kelturdi: oltundan va kumushdan bodomlar va pistalar qilib edilar”. [Boburnoma, 2002: 47] Shu yil rabiul oxir oyida (1495 yil yanvar oyida) Samarqandda podshoh bo'lib turgan amakisi Sulton Mahmud Mirzo og'ir kasalga uchrab, qirq uch yoshida vafot etgani hikoya qilingan. [Boburnoma, 2002: 48-50; Fayziyev T., 1995: 186-187]

Sulton Mahmud mirzoning vafotidan so'ng, Samarqand va Xisor beklari kelishib, Buxoroda podshoh bo'lgan Boysurg'ur Mirzoni kelturub, taxtga o'tqizdilar. U podshoh bo'lganda o'n sakkiz yashar yigit edi. [Boburnoma, 2002: 50]

Bu yil voqealari avvalgisining mantiqiy davomi bo'lib, Bobur Mirzo ikki hudud Isfara va Xo'jandni o'z ixtiyoriga qaytaradi. O'ratepani esa Sulton Mahmudxon egallaydi. Movarounnahrdagi oxirgi yirik Temuriy podshoh Sulton Mahmud Mirzo vafot etib, yosh Temuriy mirzolar o'rtasida o'zaro janglar davri boshlanadi.

901 (1495-1496) - yili Samarqandda tarxoniylar fitna uyushtirib, Boysung'ur Mirzo va Hisor beklariga qarshi, Sulton Ali Mirzoni Qarshidan keltirib, podshoh ko'tardilar. Boysung'ur mirzo Buxoroga yurish qilib, jangda shikast topadi. Keyin Sulton Ali Mirzo Samarqandga yurish qiladi.

Bu voqealardan xabar topgan Bobur Mirzo ham Samarqand doiyasi bilan o'tlanadi. Uch-to'rt oy uch tarafdin Samarqandni qamashdi. Samarqanddin ikki-uch

shar'iy quyiroq So'g'd tarafidan Ko'hak suyi oraliq'ida Bobur Mirzo va Sulton Ali Mirzo uchrashuvi bo'lib o'tadi. Bu uchrashuv rassomlar tomonidan tasvirlangan¹ jarayonda shoirlar mullo Binoiy va Muhammad Solihni ko'rganini eslab qoladi. [Boburnoma, 2002: 55]

Shu yil voqealari bayonida Bobur Mirzo bir qiziq ma'lumotni keltiradi: "Temurbek solg'on oliy imoratlardir biri Ko'ksaroydurkim, Samarqandning arkida voqe' bo'lubtur. Ajab xosiyatliq imorattur. Temurbek avlodidin harkim bosh ko'tarib taxtqa o'ltursa ham unda o'lturur, har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa (o'ldirilsa) ham munda qo'yar, hattokim, kinoyati bo'lub edikim, falon podshohzodani Ko'ksaroyg'a chiqardilar, ya'ni o'ldurdilar". [Boburnoma, 2002: 54]

To'rtinchi 902 (1496-1497)- yil voqealari bayoni Boysung'ur Mirzo va Sulton Ali Mirzolar munosabatini hikoya qilishdan boshlanadi. Ramazon oyi Bobur Mirzo Andijondan o'tlanib,... Samarqand yaqini Xonyurtida to'xtaydi. [Boburnoma, 2002: 55-56]

Beshinchi 903 (1497-1498) -yil voqealari Bobur Mirzo hayotida eng muhimi hisoblanadi. Chunki shu yili u Movarounnahr poytaxti Samarqand shaharini egallashga muvaffaq bo'ladi: "Tengri taolo inoyati bila Samarqand shahri va viloyati muyassar va musaxxar bo'ldi". [Boburnoma, 2002: 58]

Kitobda shundan so'ng Samarqand shahri va viloyatlari, unga qarashli Buxoro, Kesh, Qarshi, Xuzor, Karmina, Qorako'l hamda Shavdor tumani tavsifi, Temurbekdan so'ng podshohlik qilgan Jahongir Mirzo, uning o'g'li Muhammad Sulton, Ulug'bek Mirzo, Abdullatif, Abdullo Mirzo, Sulton Abu Sa'id Mirzo va uning o'g'li Sulton Ahmad Mirzo podshohlik qilganini yozilgan. [Boburnoma, 2002: 58-62] Yana Samarqandda Sulton Ahmad Mirzodan keyin Sulton Mahmud Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Sulton Ali Mirzo qisqa muddat, yana Boysung'ur Mirzo podshoh bo'lgani, undan Bobur Mirzo olgani yozilgan.

Uning yozishicha, "rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur. Beshinchi iqlimdindir. Poytaxti Samarqand, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on uchun baldayi mahfuza derlar". Shaharning qisqa tarixini bayon qilar ekan, "Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur", deb ta'kidlaydi.

Movarounnahr viloyatini tavsifga olar ekan, Bobur Mirzo: "Hazrati Risolat (s.a.v.) zamonidin beri ul miqdor aimmayi islomkim (islom olimlari), Movarounnahrdin paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum emaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay" deb o'z fikrini tasdiqlash uchun quyidagi dalillarni keltirgan: "Shayx Abu Mansurkim, aimmayi kalomdindir, Samarqandning Moturid otliq mahallasidindir. Aamma'i kalom ikki firqadur, birni "moturidiya" derlar, birni "ash'ariya". Moturidiya Shayx Abu Mansurg'a mansubdur. Yana sohibi "Sahihi Buxoriy" Xoja Ismoil Xartanak ham Movarounnahrdindir, yana sohibi "Hidoya"kim, Imom Abu Hanifa mazhabida "Hidoya" din mo'tabarroq

¹Chizgilar. 38-39 - rasmlar.

kitobi fiqh kam bo'lg'ay, (Burxoniddin Marg'inoniy) Farg'onaning Marg'ilon otlig viloyatindindur, ul ham doxili Movarounnahrdir". [Boburnoma, 2002: 59]

Bobur Mirzo shahardagi "Temurbekning va Ulug'bek Mirzoning imoroti va bog'oti Samarqand mahallotida ko'ptur", deb diqqatga sazovor joylarning batafsil ma'lumotlarni keltiradi: "Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshiyonliq, Ko'ksaroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasiga yovuq qal'ning ichida bir masjid jum'a solibtur, sangin, aksar Hindustondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu "Va 'iz yarfa'u Ibrohim al-qavoida(ilo oxirih)"(Eslang Ibrohim asosini yaratti)¹ oyatni andoq ulug' xat bila bitibturlarkim, bir kuro'h² yovuq yerdin o'qisa bo'lur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog'u Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Andin Feruza darvozasig'acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldurubtur, ul ko'shta Temurbekning Hinduston urushini tasvir qilibturlar. Yana Pushtai Ko'hakning domanasida Konigilning qora suyining ustidakim, bu suvni Obi Rahmat ham derlar, bir bog' solibtur. Naqshi Jahong'a mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog' buzulub edi, oti besh qolmaydur edi. Yana Samarqandning janubida Bog'i Chanordur, qal'ag'a yovuqtur. Yana Samarqandning quyi yonida Bog'i Shamol va Bog'i Behishttur.

Temurbekning nabirasi, Jahongir Mirzoning o'g'li Muhammad Sulton Mirzo Samarqandning tosh qo'rg'onida - chaqarda bir madrasa solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandta podshohliq qilibtur, alarning qabri ul madrasadatur.

Ulug'bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug' gumbazdur, olamda oncha ulug' gumbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohg'a yovuq bir yaxshi hammom solibtur. Mirzo hammomig'a mashhurdur, har nav' toshlardin farshlar qilibtur. Xuroson va Samarqandta oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasi bila madrasaning orasida bisyor tafovuttur". [Boburnoma, 2002: 59-60]

Bularga qo'shimcha Ulug'bek Mirzoning qurgan rasadxonasi to'g'risida Bobur Mirzo yozadi: "(Mirzo Ulug'bekning) Yana bir oliy imorati Pushtayi Ko'hak domanasida rasaddurkim, zij bitmakning olatidur. Uch oshiyonliqdur. Ulug'bek Mirzo bu rasad bila "Ziji Ko'ragoniy"ni bitibturkim, olamda holo bu zij musta'maldur. O'zga zij bila kam amal qilurlar. Mundin burun "Ziji Elxoniy" musta'mal erdikim, Xoja Nosir Tusiy Halokuxon zamonida Marog'ada rasad bog'latibtur, Halokuxondurkim, Elxon ham derlar. G'olibo, olamda yetti-sakkiz rasad besh bog'lamaydurlar. Ul jumladin bir, Ma'mun xalifa rasad

¹Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur, -Тошкент: Ислон университети нашриёти, 2009. 20-бет.

²Taxminan 2 km.

bog‘latubturkim, “Ziji Ma‘muniy”ni andin bitibturlar. Bir Batlimus ham rasad bog‘labtur. Yana bir Hindustonda Roja Bikramajit hindu zamonida Ujjayn va Dhardakim, Malo‘t mulkidur, holo Mandug‘a mashg‘urdur, yana bir rasad qilibturlar, holo hindularning musta‘mal Hindistonda ul zijdur. Bu rasadni bog‘lag‘oni ming besh yuz sekson to‘rt yildur. Bu ul zijlarga boqa noqisroqtur”. [Boburnoma, 2002: 60]

Ushbu ma‘lumotlar shundan dalolat beradiki, Ulug‘bek Mirzoning rasadxonasi va u yaratgan “Zij”ni bahonasida Bobur Mirzo o‘zining bu sohadagi chuqur bilimini ko‘rsatmoqda. Bu bilimlarni u Samarqandni ko‘rgandan so‘ng hamda Ulug‘bek Mirzo ilmiy merosini keyincha mukammal o‘rganish natijasida olgan ko‘rinadi.

“Yana – deb davom etadi Bobur Mirzo Ulug‘bek Mirzoning binolari to‘g‘risida, - Pushtayi Ko‘hakning domanasida g‘arb sari bog‘e solibtur, Bog‘i Maydong‘a mavsum. Bu bog‘ning o‘rtasida bir oliy imorat qilibtur, Chilsutun derlar, du oshiyona, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to‘rt burchida to‘rt manordek burjlar qo‘porubturlarkim, yuqorig‘a chiqar yo‘llari bu to‘rt burjdindur. O‘zga tamom yerlari toshdin sutunlardur. Ba‘zini morpech xiyora qilibtarlar. Yuqorig‘i oshiyonining to‘rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O‘rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imorattin Pushtayi Ko‘hak sari domanada yana bir bog‘cha solibtur, anda bir ulug‘ ayvon imorat imorat qilibtur, bu ayvonning ichida bir ulug‘ tosh taxt qo‘yubtur, tuli taxminan o‘n to‘rt-o‘n besh qari bo‘lg‘ay, arzi yetti-sakkiz qari, umqi bir qari. Mundoq ulug‘ toshni xeyli yiroq yo‘ldin kelturubturlar. O‘rtasi darz bo‘lubtur. Derlarkim, ushbu yerda keltirilgandin so‘ng bu darz bo‘lg‘ondur. Ushbu bog‘chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy, Chinnixona derlar. Xitoydin kishi yiborib kelturubtur”. [Boburnoma, 2002: 60]

Amir Temur va Ulug‘bek Mirzoning Samarqand va Movarounnag‘rda qurdirgan imoratlar to‘g‘risidagi Bobur Mirzo keltirgan ma‘lumotlar me‘morchilik va bog‘dorchilik mutaxassisleri uchun juda qimmatli bo‘lib, muallifning ularga katta qiziqish bilan qarab, juda ziyraklik bilan eslab qolib, bayon etganini ko‘rsatadi.

Bobur Mirzo Samarqandni egallagach, Movarounnahrdagi viloyat va shaharlarni ham tavsifga olgan. Ularning ichida eng muhimi Amir Temurning ona yurti Kesh viloyati tavsifidur: “Yana Kesh viloyatidur, Samarqandning janubidadur, to‘qquz yig‘och yo‘ldur. Samarqand bila Kesh orasida bir ulug‘ tog‘ tushubtur, Itmak doboni derlar, sangtaroshliq qilur toshlarni tamom bu tog‘din eltarlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun Shahrizabz ham derlar. Temurbekning zodi budi Keshtin uchun, shahr va poytaxt qilurig‘a ko‘p sa‘y va ehtimomlar qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi. O‘ziga devon o‘lturur uchun bir ulug‘ peshtoq va yana o‘ng yonida va so‘l yonida tavochi beklari bila devon beklari o‘lturub devon so‘rar uchun ikki kichiqrak peshtoq qilibtur. Yana savrun eli o‘lturur uchun bu devonxonaning har zil‘ida kichik-kichik toqchalar qilibtur, muncha oliy toq olamda kam nishon berur. Derlarkim, Kisro toqidin bu ulug‘roqtur. Yana Keshda madrasa va maqbara qilibtur. Jahongir Mirzo va yana ba‘zi avlodining maqobiri andadur... Chun Keshning qobiliyati shahr

bo‘lmoqqa Samarqandcha emas, oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni-o‘q ixtiyor qildi”. [Boburnoma, 2002: 61]

Bu qimmatli ma’lumotlar Amir Temur va Temuriylar bunyodkorligi ko‘lami va ularning ajoyib va g‘aroyib bo‘lganligi, keyincha ular Bobur Mirzo va Buyuk Boburiylar uchun Kobul viloyati, Pokiston va Hindistonda olib borilgan bunyodkorlik ishlariga namuna bo‘lib xizmat qilgan.

Bu muhim voqea bilan bog‘liq holatlar oltita rasmda tasvirlanib, ularda Boburning Sulton Ali Mirzo bilan sulh tuzish uchun uchrashuvi, shahar yaqinidagi Xon yurtidagi janglar, tantanali ravishda Samarqand shahriga kirib borish va undagi birinchi rasmiy qabul aks etgan. Albatta, rasmlarda ko‘tarinki ruh hokim. Lekin Bobur Mirzo shaharni egallaganda, uning guvohlik berishicha, «Samarqand andoq xarob edikim, madad va tuhм va takoviga ehtiyoj bor edi. Kishi andin nima ola olg‘ay?» [Boburnoma, 2002: 62]

Keltirilgan ma’lumotlar Movarounnahr, uning poytaxti Samarqand shahri, uning Amir Temur va Ulug‘bek Mirzo tomonidan obod etilgani hamda tabiati, odamlari, mevalari va boshqa tafsilotlardan iborat bo‘lib, ularni maxsus bilim va jiddiy tadqiqot samarasi deb atash mumkin.

Bu voqealar Jaloluddin Muhammad Akbar saroyidagi rassomlar tomonidan “Boburnoma” kitobining fors tilidagi tarjimasi “Voqioti Boburiy” mo‘tabar qo‘lyozmalariga besh yuzdan ortiq rasmlar ishlangan. Ularning salmoqli qismi Bobur Mirzoning Samarqand bila bog‘liq bo‘lgan esdaliklari hamda ushbu benazir shahardagi oliy imoratlar, uning atrofidagi bog‘lar tavsifiga Boburiy saroy rassomlari nafis mo‘jaz rasm ishlash jarayonida ularda Shimoliy Hindistondagi shaharlar hamda Boburiylar bunyod etgan imoratlarga o‘xshatib ishlaganlar.

Umuman, Movarounnahr va Temuriylar poytaxti Samarqand shahrining miniatyuralardagi tasvirini alohida o‘rganib, shahar me’morchiligi xususiyatlarini bilib olishda muhim tarixiy manba ekanini alohida ta’kidlash zarur.

Абдуллаева Нилуфар Махамаджановна,
д.п.н. (PhD), доцент Ташкентский
университет PERFECT

РОЛ БАБУРИДОВ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНОГО, ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И МОРАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация. Статья о времен правления Бабуридов. Этот период оставил наследие в виде значительных достижений в образовании, науке и культуре, которые продолжают оказывать влияние на современный мир и способствуют развитию общества и образования.

Ключевые слова: Бабуриды, индийский субконтинент, образование, воспитание, языки, медресе и университеты, развитие научных знаний.

Annotation. An article about the reign of the Baburids. This period left a legacy of significant achievements in education, science and culture that continue to influence the modern world and contribute to the development of society and education.

Key words: Baburids, Indian subcontinent, education, upbringing, languages, madrassas and universities, development of scientific knowledge.

Сегодня в нашей стране как никогда актуальным становится внимание, уделяемое наследию наших великих предков и исследованию оставленного ими богатого научного и литературного наследия. Свидетельством тому является Постановление Президента Республики Узбекистан «О широком праздновании 540-летия со дня рождения великого поэта и учёного, известного государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура». Труды Захириддина Мухаммада Бабура имеют огромное значение в развитии мировой науки. В частности, «Бобурнома» является уникальным источником, выражающим общественно-политические концепции вплоть до XVI века, дающим ценную информацию о всех сферах, об истории литературных и культурных связей узбекского народа с другими народами мира. К сожалению, во многих источниках до сих пор используется ошибочное описание государства Бабуридов, как Великой Монгольской Империи. Хотя Бабур в своих мемуарах утверждал, что он тюркского происхождения и из династии Тимуридов и что он гордится своими предками, но научное сообщество все еще оставалось в старой схеме заблуждений.

Во времена правления Захириддина Мухаммада Бабура и его потомков, известных как Бабуриды, Индийский субконтинент переживал период значительных изменений в образовании и воспитании. Эта эпоха, охватывающая период примерно с 1483 по 1556 год, была отмечена не только политическими и военными событиями, но и культурным расцветом. Образование и воспитание играли ключевую роль в формировании общества и культуры этого времени, способствуя распространению знаний, толерантности и развитию интеллектуальной сферы.

Под влиянием Бабура и его наследников, Индийский субконтинент стал свидетелем значительного развития образовательных институтов, таких как медресе и университеты, где обучались различные области знаний, от философии до наук. Этот период также характеризовался активным поддержанием культурного разнообразия и толерантности, что способствовало обмену идеями между различными культурами и вероисповеданиями.

Воспитание в эту эпоху уделяло внимание не только образованию, но и формированию добродетелей и гражданских ценностей. Бабуриды поощряли развитие морали и сострадания, создавая благоприятную среду для формирования гуманных обществ.

Таким образом, образование и воспитание во времена Бабуридов играли важную роль в формировании культурного, интеллектуального и

морального наследия, оказывая значительное влияние на дальнейшее развитие Индийского субконтинента.

1. Образование. Под влиянием Бабура и его наследников в Индии происходили значительные культурные изменения. Образование становилось все более доступным, в частности благодаря развитию медресе (мусульманские учебные заведения) и университетов. Эти институты обеспечивали образование в различных областях знаний, включая литературу, математику, науки, исламскую философию и историю.

2. Воспитание. Воспитание в этот период также претерпевало изменения. Бабуриды поощряли культурное разнообразие и обмен идеями между различными культурами и вероисповеданиями. Это способствовало развитию толерантности и взаимопонимания среди различных этнических и религиозных групп.

3. Языки. В этот период в Индии процветали различные языки, включая урду, персидский и хинди. Бабуриды содействовали развитию литературы на этих языках, что способствовало распространению образования среди широких слоев населения.

4. Наука и технологии. Под Бабуридами происходило развитие науки и технологий. Этот период отмечен значительными достижениями в математике, астрономии, архитектуре и медицине.

1. Образование:

- **Медресе и университеты.** В период Бабуридов, медресе (мусульманские учебные заведения) и университеты были центрами образования. Они предлагали обучение в различных областях знаний, включая философию, литературу, математику, исламскую теологию и историю.

- **Поддержка литературы.** Бабуриды поощряли развитие литературы на различных языках, таких как персидский, урду и хинди. Это способствовало распространению образования и культурного разнообразия.

- **Развитие научных знаний.** Под правлением Бабуридов происходило развитие научных исследований, особенно в области математики и астрономии. Многие ученые этого периода сделали значительные открытия и вклады в различные научные дисциплины.

- **Уважение к знанию.** В обществе, управляемом Бабуридами, ценилось знание и образование. Это способствовало созданию благоприятной среды для развития образования и исследований.

2. Воспитание:

- **Толерантность и межкультурное взаимопонимание.** Под Бабуридами происходило активное содействие культурному разнообразию и толерантности. Они поощряли обмен идеями между различными культурами и вероисповеданиями, что способствовало межкультурному взаимопониманию.

- **Воспитание в духе добродетели.** Воспитание под Бабуридами часто включало обучение добродетелям, таким как честность, справедливость и сострадание. Это помогало формировать гражданские добродетели и создавать более гуманные общества.

- **Образование для всех.** Под Бабуридами образование становилось все более доступным для различных социальных слоев. Это способствовало социальной мобильности и развитию образования среди широких масс населения.

Эти факторы вместе способствовали созданию благоприятной среды для развития образования и воспитания во времена правления Бабуридов.

Благодаря усилиям Бабуридов, Индийский субконтинент стал центром культурного разнообразия и интеллектуального развития, где различные культуры и вероисповедания взаимодействовали и обогащали друг друга. Этот период оставил наследие в виде значительных достижений в образовании, науке и культуре, которые продолжают оказывать влияние на современный мир и способствовать развитию общества и образования.

Хумаюн, сын и преемник Захириддина Мухаммада Бабура, был вторым императором Могольской империи. Хумаюн родился в 1508 году. После смерти Бабура в 1530 году Хумаюн унаследовал трон Могольской империи. Его начальные годы правления были осложнены внутренними борбами за власть и военными конфликтами с соперниками. Хумаюн столкнулся с серьезными вызовами со стороны местных правителей, особенно с шер-шахом сурайей, который нанес ему поражение в битве при Чауса (1539 год) и принудил его бежать в эзил в Иран. Во время своего пребывания в Иране, Хумаюн получил поддержку шаха Исмаила I, который предоставил ему войска и помог вернуться в Индию и восстановить свою власть. Благодаря помощи шаха Исмаила I, Хумаюн вернулся в Индию в 1555 году и восстановил свое правление. Хумаюн оставил после себя сложное политическое наследие, но его правление было важным этапом в истории империи. Его сын, Акбар Великий, унаследовал трон и стал одним из наиболее известных и великих императоров династии.

Хумаюн известен как великий стратег и лидер, хотя его правление было кратким и полным сложностей. Его вклад в историю Индийского субконтинента оценивается как значительный, особенно в контексте основания и раннего развития империи.

В хрониках и источниках часто упоминается Хумаюн Мирзо (Хумаюн Мирза) как одно из прозвищ или титулов, используемых для обращения к Хумаюну. "Мирза" - это титул, который обычно использовался для обозначения принцев или членов императорской семьи в могольской традиции. Таким образом, Хумаюн Мирзо - это вариант полного имени Хумаюна, указывающий на его статус как принца или наследника престола.

Акбар Великий. Сын Хумаюна и его преемник на троне Могольской империи. Акбар Великий был одним из наиболее великих императоров династии. Он проявил большой интерес к образованию и науке, создавая академии и библиотеки, приглашая ученых из разных частей мира и поощряя исследования в различных областях. Проявил интерес к образованию и культуре. Он поддерживал меценатство искусства и литературы, а также способствовал развитию архитектуры и науки в свое время.

Дети Хумаюна были ключевыми фигурами в развитии образования, воспитания и науки в период правления империи. Их влияние ощущается до сегодняшнего дня, они внесли значительный вклад в формирование культурного и интеллектуального наследия Индийского субконтинента.

Гулбаданбегим была еще одной дочерью Захириддина Мухаммада Бабура. Она была известна как автор мемуаров, которые описывают жизнь ее отца и исторические события. Гулбаданбегим родилась в 1523 году. Она была сестрой Хумаюна и, следовательно, дочерью Бабура. В своих мемуарах, называемых "Хумаюннама" (Хроника Хумаюна), Гулбаданбегим описывает важные события, происходившие в период правления ее отца и брата, включая битвы, внутренние конфликты и политические интриги.

Ее мемуары считаются ценным историческим источником, поскольку они позволяют лучше понять жизнь и правление Бабура и Хумаюна изнутри.

В заключение, эпоха правления Захириддина Мухаммада Бабура и его потомков представляет собой период значительного развития образования и воспитания на Индийском субконтиненте. Образовательные институты, такие как медресе и университеты, стали центрами передачи знаний и развития научных исследований. Воспитание в этот период не только ставило целью формирование интеллектуальных способностей, но и акцентировало внимание на добродетелях, толерантности и гражданских ценностях.

Литература:

1. Нуритдинов М. Н. Источники по истории культуры и общественной мысли Средней Азии из фонда ИВ АН УзССР//ОНУ. 1985.№ 6. С.55.
2. Тухфат ад-заирин (Подарок посетителям). ИВ АН РУ. Литография, инв. № 207. С.31.
3. Семенов А. А. Забытый среднеазиатский философ XVII в. и его «Трактат о сокрытом»//Известия Общества для изучения Таджикистана и иранских народностей за его пределами. Т.1.Ташкент, 1928. С.138.
4. Карабаги. Ханегаховское. ИВ АН РУзб. Литография, инв. № 11555.С. 251.
5. Кариева Н. С. Представители культуры Средней Азии и Индии во второй четверти XVI в. - Ташкент, 1986. С.95.
6. Григорян С. Н. Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. -М., 1966. С. 97.
7. Азимджанова С. А. «Бабур-наме» как источник по истории культуры народов Востока//Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. Ташкент, 1986. С.41.
8. Алиев Г. Ю. Персоязычная литература в Индии. -М., 1968. С.94.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY MEROSI VA HARBIY SAN’ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Bobur shaxsi naqadar buyuk va shavkatli bo‘lish bilan birga ilmiy ijodiy merosi va xarbiy san’ati bugungi kunda dolzarb. Sababi yosh avlodni Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat tuyg‘usi bilan ulg‘ayishida ajdodlar hayoti va ularning ilmiy ijodiy merosining ahamiyati katta.

Kalit so‘zlar: Boburiylar sulosalasi, Javohirlal Neru, “Boburnoma”, harbiy san’at, jang taktikasi.

Abstract: Babur's personality is great and passionate, and his scientific and creative heritage and military art are relevant today. The reason is that the life of ancestors and their scientific and creative heritage are of great importance in raising the young generation with a sense of love for the Motherland and loyalty to the profession.

Key words: Babur dynasty, Jawaharlal Nehru, "Boburnoma", military art, battle tactics.

Barchaga ma’lumki, Vatan sog‘inchi va hijroni bilan yashagan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi uning harbiy sarkarda sifatida tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirgan. Bobur hayoti va ijodi hali xanuz yirik tadqiqotchilar va olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Men ham kichik bir tadqiqotchi sifati ilmiy risolalar va adabiyotlarni ko‘zdan kechirish chog‘ida bir qancha ma’lumotlarga ko‘zim tushdi.

Hind xalqining ulug‘ farzandi, katta davlat arbobi Javoharlal Neru Bobur Mirzo va Boburiylarning Hindistondagi faoliyati haqida to‘xtalib, “Bobur-dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlariga ega bo‘lgan” - deya baho bergan edi. Yaxshiroq mushohada qilib ko‘rsak: Bobur Mirzo hind eli uchun bosqinchi edi. Ibrohim Lo‘diyning Boburiylarga qarshi jangi-vatanparvarlik tuyg‘usining amaldagi nishonasidir. Bobur Mirzoning buyulkigi shundaki, ana o‘sha tuyg‘u mohiyatini yurakdan va to‘g‘ri his qila oldi. Bosqinchilik hirsini olovlantirmasdan balki so‘ndira bordi. Jaholatga emas, ezgulikka, adolatga zo‘r berdi. Aholining milliy g‘ururi, udum va e‘tiqodiga monelik qilmadi. Imkor qadar vayronalikdan saqlanib, obodonlik yo‘lini kengaytirdi, muhtasham obida va bog‘lar bunyod etishni boshlab yubordi. Boburona zakovat, u sepib ketgan yaxshilik urug‘i besamar ketmadi. Javoharlal Neru bitib qoldirgan jumlalar o‘sha shirin hosilning bir nishonasidir. [Olimov M., 1989: 3-9]

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining katta bilimdoni sifatida asrida mavjud bo‘lgan barcha bilimlarni puxta o‘rgandi va o‘zlashtirdi. Undagi

donishmandlik zarrama-zarra asarlariga ko‘chib bordi va o‘lmas “Boburnoma” qomusiy asari vujudga keldi. Ushbu javohir hazinasi paydo bo‘lgan zamonidayoq o‘zi va muallifiga beqiyos shuxrat keltirgan ediki, bu an‘ana xozirga qadar davom etmoqda. “Boburnoma” badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfshunos, tibbiyot va jug‘rofiya sohasi, shuningdek bir qator mutaxassislarga qimmatli ma‘lumotlarni bera oladigan bebaho asar hisoblanadi. [Vohidov R., 2008: 45]

Asarda tarixiy shaxs-sarkarda, davlat va jamoat arbobi, Bobur mirzo bilan bir safda yetuk olim, donishmand adabiyotshunos, zukko tanqidchi va zabardast shoir qiyofasidagi Bobur Mirzo ham harakat qiladi, qadam tashlaydi.

Boburdagi badiiyatga ixlos va ishtiyoq, baland iqtidor va she‘riy salohiyat asarning umumiy ruhiga o‘z tasirini o‘tkazib, muhrini bosgan. Bobur Mirzo qonida jo‘shib turgan she‘riyatga bo‘lgan baland mehr uni hatto mag‘lubiyat va ruhiy tushkunlik chulg‘agan damlarda ham tark etmaydi. Aksincha, unga madad va dalda beradi, so‘lg‘in kayfiyatini ko‘tarib, umid va ishonch sari boshlaydi. [Vohidov R., 2008: 45]

Boburning hayoti va ijodi haqida ko‘p gapirsak bo‘ladi ammo uning harbiy san‘atdagi jang taktikalari esa haligacha tarixchi olimlar tomonidan o‘rganish bilan birga yoshlarga tarix fani orqali ma‘lumotlar berib kelinadi.

Boburning harbiy san‘ati. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Shayboniylar bilan kurashdan voz kechgan Bobur, Qobulda o‘z hokimiyatini mustahkamladi. 1519-yildan boshlab u Shimoliy Hindistonga harbiy yurishlar uyushtira boshladi. 1523-yildagi Boburning Laxorga yurishi, bundan ikki yil keyin bo‘lib o‘tgan hal qiluvchi jangning o‘ziga xos debochasi bo‘ldi.

1525-yilning noyabrida Bobur Qobuldan yangi harbiy yurishga chiqdi. Boburning qo‘mondonligi ostida 10-12 minglik qo‘shini bor edi. Bu vaqtda Shimoliy Hindiston Afg‘onistonning Lo‘diy o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1526-yilning 26-aprelida Panipat yaqinida bo‘lib o‘tdi.



Panipat jangiga qadar Bobur chuqur harbiy bilimlarga va katta tajribaga ega bo'ldi. Bobur Shayboniyxon, shoh Ismoil, Sulton Husayn va o'sha zamonning boshqa yirik harbiy boshliqlarning taktik qoidalari va manyovrlaridan xabardor edi. Uning armiyasida miltiqlar bilan qurollangan askarlar otryadi va turk artilleriyachilari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan to'plar bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, dushmanda umuman o'q otar qurollar bo'lmagan.

Bobur bu jangga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. 12-aprelga kelib, Boburning lagerida hamma tayyorgarlik ishlari nihoyasiga yetkazildi. Sulton Ibrohim uquvsiz sarkarda bo'lgan.

Bobur uning to'g'risida shunday yozgan “ - Na harakatlarda, na harbiy yurishlarda va na jangda urush olib borishga intilish alomatlari yo'q edi”. Jangovar fillar Dehli hukmdorining asosiy zarbdor kuchi hisoblangan.

Bobur armiyasining tuzilishi murakkab bo'lib, O'rta Sharqning turli davlatlarida olib borilgan jang tajribalarini hisobga olib saflangan. Armiya markazga va ikki qanotga (o'ng qanotga Boburning katta o'g'li Humoyun qo'mondonlik qilgan) ega bo'lgan. Bundan tashqari, jangovar tartibi yordamchi bo'linmalar birlashtirilgan: “markazning o'ng qanoti” va “markazning chap qanoti” hamda qanotlarning chekka yon tomonlarida yengil otryadlar. Bu yengil otryadlar to'lg'ama manyovrida ishtirok etishlari kerak bo'lgan, ya'ni dushmanning paydo bo'lishi bilan uni chapdan va o'ngdan aylanib o'tganhamda front ortiga hujum qilgan. Avangard butun qo'shin safini himoya qilgan. Maxsus otryad razvedkachilar vazifasini bajargan. “Zarbdor” otryad ham tayinlangan. [Harbiy san'at tarixi, 2013: 218-219]

Ibrohim sultonning armiyasida 100 mingta jangchi va mingta jangovar fillardan iborat.¹

Dushmanning son jihatidan ustunligini hisobga olib va u birinchi bo'lib hujumni boshlaydi, degan fikr bilan Bobur quyidagicha qaror qabul qildi-“birinchi tomondan shaxar bo'sag'alari va xonadonlar bo'ladi, qolgan tomonlarni esa aravalar va qalqonlar bilan mustahkamlash kerak aravalarning ortiga tufaklarni (dushmanning yaqin masofadagi tirik kuchlariga qarshi tosh va temir bo'laklarni otadigan qurilma) va (miltiqlar bilan qurollangan) piyodalarni joylashtirish kerak”. Bobur qo'shinining o'ng qanotini Panipat shaxri to'sib turgan, chap qanoti xandaqlar va shox shabbasi tikanli daraxtlarni kesib yasalgan to'siqlar bilan himoya qilingan. Armiya frontini himoya qilish uchun Bobur, o'zining ta'biri bilan aytganda, “rum”larning (turklar) usullarini qo'llagan.

700 ta aravalar yig'ilgan, ular bir-birlariga kamarlar bilan bog'langan. Har bir juft aravaning orasida qalqonlar qo'yilgan, ularning orqasida tufaklar o'rnatilgan va miltiqlar qurollangan piyodalar joylashgan. Bunday istehkomlarning oralarida bo'shliqlar qoldirilib 100 yoki 150 otliq chiqishi mumkin bo'lgan.

Dushmanni faol janglarga chorlash uchun Bobur qo'qqisidan tunda hujum qilgan.

¹ Zamonaviy ingliz tarixshunosligi ma'lumotiga qaraganda, Boburning qo'shini 8-15 ming kishini, Ibrohim Lo'diyning afg'onlari 40 mingtacha kishini tashkil etgan.

1526-yilning 21- aprelida Ibrohimning qo‘shini jang uchun saflandi. Asosiy zarba markazning o‘ng tomoniga beriladigandek tuyuldi. Lekin Boburning himoya chizig‘iga yaqinlashib kelgan dehliliklarning jangchilari to‘xtab qoldi. Ibrohimning yig‘ilib qolgan qo‘shiniga Boburning jangchilari tufaklar va miltiqlardan o‘t ochdi. Bu vaqtda Boburning otliqlari dushmanning front ortiga shiddat bilan hujum qildi. Bobur nafaqat Ibrohimning hujumini tezkorlik bilan qaytardi, balki tashabbusni o‘z qo‘liga olib, qat‘iy hujumga o‘tdi. Jang tushgacha davom etdi, nihoyat Boburning jangchilari armiyasi qarshiligini sindirdi. Dushman jang maydonida 15-16 ming askarlarning jasadlarini qoldirib qochdi, sulton Ibrohimning o‘zi ham halok bo‘ldi. Jangda yutib chiqqan Bobur poytaxt shaxarlar Dehli va Agrani bosib oldi. Hindistonning shimoliy qismini (Hind daryosidan Bengaliyagacha) o‘z qo‘l ostiga bo‘ysundirdi va XIX asrgacha o‘z qudratini mahkam saqlab turgan **Boburiylar davlatiga** asos soldi.

Panipatdagi g‘alaba hali Shimoliy Hindistonda Boburning hokimiyati to‘la - to‘kis o‘rnatilganligini anglatmasdi. Uninh eng havfli raqibi qudratli rojaput rojasi Rana Sanga bo‘lib, uning botir va tajribali sarkarda sifatida dong‘i ketgan edi. U Boburga qarshi ittifoqchilar koalitsiyasini muvaffaq bo‘ldi.

Bobur hal qiluvchi jangga puxta tayyorgarlik ko‘ra boshladi. U Sikri degan joyda o‘z pozitsiyasini mustahkamlay boshladi. Bobur Panipat jangida unga muvaffaqiyat keltirgan usullarni takrorladi, ya‘ni armiya frontida aravalarni bir-biriga bog‘lab to‘siq hosil qildi va ularning oralig‘iga bo‘shliqlar qoldirdi. Chap qanotda artilneriya o‘rnatildi. Bir-biriga juft-juft qilib bog‘langan uch oyoqli yog‘och tirgaklardan foydalanish o‘ziga hos yangilik bo‘ldi. Ular xandaqlarning ortida, aravalar va to‘plar bo‘lmagan joylarga, chuqurliklarga joylashtirildi. Bu tayyorgarliklarning hammasiga 25 kun ketdi.

Bobur, Rana, Sanga va uning armiyasining qudrati hamda yengilmasligini eshitib sarosimaga tushgan o‘z jangchilarining ma‘naviy ruhlarini ko‘tarish uchun ko‘p harakatlar qildi. Xatto janglarda toblangan harbiy boshliqlar ham, qo‘shinning pozitsiyasi noto‘g‘ri va mag‘lubiyat muqarrar, deb Boburni ishontirmoqchi bo‘ldilar.

Jangdan oldin Bobur hamma harbiy boshliqlari va jangchilarini yig‘ib, ularning oldida nutq so‘zladi, ularni qattiq turib jang qilishga va buning uchun ont ichishga chaqirdi. Boburning otashin nutqi, uning qat‘iyligi g‘alabaga erishish yo‘lida hech narsadan qaytmasligi jangchilarning jangchilarning ruhlarini ko‘tarib yubordi. Shunday qilib, Bobur armiyasining jangovar ruhi ancha mustahkamlandi.

Rana Sanga bilan hal qiluvchi jang 1527-yilning 13 martida bo‘lib o‘tdi va u juda ham qat‘iy va qonli bo‘ldi. Boburning shiddatli zarbalaridan keyin dushmanning qanotlari titilib ketdi. Lekin rojaputlar o‘zlarining eng yaxshi kuchlarini Bobur armiyasining chap qanotiga tashladi. Jangning natijasi dushmanning foydasiga o‘zgarishiga bir bahya qoldi. Nihoyat, Bobur tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanilgan “to‘lg‘ama” manyovri va dushman otliqlarini to‘zg‘itib yuborgan artilneriya jangining natijasini hal qildi. Rojaputlar qochishga majbur bo‘ldi. Boburning jangchilari jang maydonidan qochgan dushmanning jangchilarini ta‘qib qildi.

Sikri janggi Hindiston uchun olib borilgan kurash natijasini to‘liq Boburning foydasiga hal qildi.

Boburning Hindistonda qozongan G‘alabalarida o‘q otar qurollar va yuqori harbiy mahorat muhim o‘rniga ega bo‘ldi. Panipat va Sikri janglarida Bobur o‘z pozitsiyalarini to‘plab, piltalarni bilan qurollangan o‘qchilar bilan mustahkamladi. Shu bilan birga u ko‘chmanchi o‘zbeklardan o‘rgangan qanotlarga katta havf soluvchi “to‘lg‘ama” taktikasini qo‘lladi. Bobur o‘z qo‘shinining markaziga, bir-biriga bog‘langan aravalarning ortiga piltalarni bilan qurollangan o‘qchilari yashirincha joylashtirdi. Son jihatdan ko‘p bo‘lgan hind qo‘shinlarining manyovrlarini cheklash uchun Boburning armiyasi joy sharoitlaridan mohirlik bilan foydalandi hamda muhandislik to‘siqlari- xandaqlar va boshqalarni yaratdi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Bobur asos solgan boburiylar sulolasi tarixda o‘zidan ko‘p moddiy madaniy meros qoldirishdan tashqari ma’naviy meros ham qoldirdi. Vatanidan ayro holda yashagan bolsada Boburning vatan ishqida yozilgan ijodiy asarlari va kelajak avlodga qoldirgan ilmiy merosi hali xanuz ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Harbiy sohada erishgan yutuqlari esa shu kunga qadar uning mohir sarkardaligidan dalolat berib turadi. Ajdodlarga munosib avlod bo‘lish uchun ham ulardan qolgan ilmiy merosni chuqur o‘rganish va tahlil etish bugungi kundagi dolzarb masala bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimov M. O‘zbek boburshunosligi tarixidan //O‘zbek tili va adabiyoti 1989, 3-son. 3-9-b.
2. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. 45-b.
3. Harbiy san’at tarixi. - Toshkent. 2013, 218-219 b.

Abduraxmonov Dostonbek Davron o‘g‘li
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Qurilish fakulteti talabasi

BOBUR VA UNING SHARQ TAMADDUNIDAGI HAMDA HIND ARXITEKTURASIGA QO‘SHGAN O‘RNI

Annotatsiya: Mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning yuksak tafakkur va kuchli salohiyat sohibi ekanligi, uning faqatgina adabiyot yoki davlat boshqaruvi sohasida emas, balki o‘nga yaqin sohalarda yaratgan tayanch bilimlari va islohotlari, hind arxitekturasiga va me‘morchilik san‘atiga qo‘shgan yuksak hissasi hamda yangiliklari haqida so‘z boradi. Uning Amir Temur kabi buyuk sulolani yaratgani, ilm-u, ma‘rifatda yuksaltirgani aniq va ravshandir. Bundan tashqari hind diyorida yangi siyosat va yangi bir uyg‘onish davrini boshlab

bergan shaxs sifatida tanitish uning sharq tamaddunidagi hissasi va o'rnini o'rganish va tadbiri qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: shajara, "Boburnoma", g'azal, ruboiy, devon, fard, aruz, tamaddun.

Annotation: The thinker Zahiridin Muhammad Babur has high thinking and strong potential, his basic knowledge and reforms created not only in the field of literature or public administration, but also in about ten fields, his high contribution to Indian architecture and architectural art, and news will be discussed. It is clear and obvious that he created a great dynasty like Amir Temur, raised it in knowledge and enlightenment. In addition, to introduce him as a person who started a new policy and a new era of renaissance in the Indian land is to study and apply his contribution and place in the eastern civilization.

Key words: shajara, "Baburnoma", ghazal, rubai, devan, fard, aruz, civilization.

"Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi".

J. Neru

Adabiyot va tarix sohasi xodimlari qatorida ko'plab soha ixlosmandlari nazarida, muhtasham XV asr turkiy dunyo tafakkurining ikki dahosi birin-ketin, kirib kelgan. Albatta bu Hazrat Mir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir deya e'tirof etiluvchi Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bu ikki inson bir-biriga o'xshash hamda hamohang tarzda yashab o'tgan deyish joiz. Ikkisi ham mutafakkir va shoir. Ko'p qirrali iste'dod sohibi, yetuk va buyuk insonlar edi.

Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur yuqorida aytilgani kabi faqatgina adabiyot va san'at sohasida emas, balki uning birgina "Boburnoma" asarining o'zi o'ndan ziyod fanlar uchun tayanch, poydevor vazifasini bajaradi. "Boburnoma"ni sinchiklab mutolaa etarkanmiz, bu buyuk temuriyzodaning yoshlik chog'idanoq bobosi Amir Temur imperiyasining qayta tiklanishi hamda uning hududdagi yagona, mustahkam siyositni yurgizishga harakati va uning bu orzulari ma'lum darajada ro'yobga chiqishida nimalarga asoslangani haqidagi izlanishlar chin ma'noda Bobur yetuk shaxs, o'tkir tafakkur egasi hamda izchil harbiy mahoratning yuksakligi ma'lum bo'ldi.

Har bir o'rinda o'zining yetarlicha bilimi va salohiyati bilan birga o'z erkin fikrini bildirgan olgan. Masalan: 1495-1496-yillarda shoh Xurosonda hukmronlik qilgan. Ayni vaqtda yosh temuriyzodalarning yurt olishga bo'lgan harakatlari kuchaygan edi. Bunda Sulton Husayn Boyqaro tasarrufidagi Hisorda Sulton Mahmud mirzoning beki Xisravshoh bosh ko'tarib, Boyqaro bilan urishib, ikki marta uning ustidam g'olib kelgan edi. Muataffir va shoh Bobur bu haqida shunday fikr bildiradi: "Xisravshohning muncha ulg'aymog'ig'a va muncha haddi yetmas ishlarni qilmog'ig'a Sulton Husayn mirzoning ikki qatla kelib yonmog'i sabab bo'ldi". [Ma'naviyat yulduzlari, 1999]

“Boburnoma”dagi ko‘plab misollar sivilizatsiyaga o‘ta moyil hamda yetuk bunyodkor inson-faqatgina shoh Boburni emas, balki tom ma’noda muhandis Boburni ochib bera olgan. Chunki Bobur yaratilayotgan inshootlarining chinakam jonkuyari sifatida nomoyon bo‘ladi. Shoirning yaratuvchanlik ishidan mamnunligi, har bir qo‘yilgan g‘isht-u, toshdan hayot zavqini tuya olgan quyidagi parchada namoyon bo‘ladi: *“Tonglasig‘a buyurulg‘on yerlarni yurub sayr qildim. Yakpora toshdan buyurulg‘on kaylador havzaning bir martaba tamom ko‘tarmaydurlar edi, buyuruldikim, sangtaroshlar ko‘prak kelib, bir martaba, havzaning tubini durustroq olsunlarkim, suv quyib, atrofini torozu qilsa bo‘lg‘ay. Kech nomozi digar havzaning bir martaba yuzini tamom oldilar. Buyurdikim suv to‘ldirdilar. Atrofini suv bila torozu qilib, hamvor qilmoqqa mashg‘ul bo‘ldilar. Bu navbat yana bir obxona buyurdikim, yerini yakpora toshdin tarosh qilg‘aydilar; ichidagi kichik havzni ham yakpora toshdin qozg‘oylar”*. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2015: 704] Hind arxitekturasi hamma vaqt ham ma’qul kelmaydi. Shu bois ham u Hindistonda o‘z yurtini ya’ni Movorounnahrni eslatib turadigan koshona va saroylarni yaratishga bel bog‘laydi. Ularning bosh me’mori Boburning o‘zi edi. Bunga yaqqol misol tariqasida: Rahimdod ismli kishi hind elida qurgan “kichikroq tarolg‘ina” - kichik ayvon va bog‘cha shoh Boburning o‘zi tug‘ulib o‘sgan Movarounnahrni eslatadi. Go‘yo, bu imoratlar aynan Bikramajitning beso‘naqay imoratlarining yonginasida, atayin taqqoslash uchun bunyod etilgandek: *“...Ushbu ulug‘ gumbazning ustida Rahimdod bir kichikrak tolog‘ina qilibtur. Rahimdod ushbu Bikramajitning imoratlarida o‘lturubtur. Bu imoratlarni sayr qilib, otlanib Rahimdod solg‘on madrasani kezib, qo‘rg‘onning janubiy tarafida bir uluq havzning yoqasida Rahimdod solg‘on bog‘chani tafarruj qilib, kech o‘rdu tushgan chorboqqa kelduk. Bu bog‘chada xeyli gullar tikibtur. Xushrang qizil kaneyr bog‘chada xeyli bor. Bu yerlarning kaneyri qip-qizil xushrang kaneyrlardur. Bir pora qizil kaneyrni Gvaleyardin Agra bog‘lariga kelturub ektirdum”*. [Qudratullayev H., 2005]

Bobur Hindistonni o‘z tasarrufiga olgach, eng birinchi navbatda, Xuroson, Afg‘oniston va Movarounnahr bilan aloqani tiklash hamda o‘rnatish, ma’lumot va xabarlarini imkon qadar tezlikda yetkazishni o‘yladi, aloqa xizmatini yo‘lga qo‘yishga tatbiq etadi. «Boburnoma»da *“Har to‘qqiz kuruh manor qo‘porg‘aylarkim, manorning balandlig‘i o‘n ikki qari bo‘lg‘ay. Ustida bir chordara qo‘porg‘aylar. Har o‘n sekkiz kuruhda olti yom oti bog‘lag‘aylar. Yomchi va sayisg‘a ulufa va otlarg‘a aliq ta‘yin bo‘lg‘ay. Andoq farmon bo‘ldikim, bu yom oti bog‘latur yer agar bir xolisag‘a yovuq bo‘lsa, bu mazkur bo‘lg‘onlarni andin saranjom qilsunlar, yo‘q ersa, har bekning parganasiga voqi’ bo‘lsa aning uhdasiga qilsunlar. Ushbu kun Chaqmoq bila Shohiy Agradin chiqtilar. Bu kuruhlarni mil bila muvofiq ta‘yin qilildi”*, -deya keltirilgan. [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2015: 514]

Yuqoridagi parchadan Boburning Sharqda mavjud bo‘lmagan aloqa tizimini ishlab chiqqanini ko‘rishimiz mumkin. Bunda o‘sha davrdayoq aloqaning barcha jihatlari: ma’lum masofada qancha va qaysi sifatdagi otlar bog‘lanib, parvarishlanishi, ularning ozuqasi, otboqarlar, ularga sarflanadigan sarf-xarajatlar miqdori nazarda tutilgan. Xarajatlar Boburning hukmronligi ostidagi hududda

bo'lsa o'sha joyning beklari hisobidan, agar o'zga hududda bo'lsa haq to'lash yo'li bilan amalga oshirilishigacha inobatga olingan. Bunday puhta va aniq rejalashtirilgan hamda joriy qilingan ishlar hozirgi zamon axborot-texnologiyalariga zamin bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Yoki yana bir nazarda tutiladigan jihati bir-biridan ko'rinmas darajada uzoq bo'lmagan tepaliklardan olov yoqish usuli bilan xabar berish, biror bir hodisani ifodalash maqsadida o'sha davrda yaratilgani hozirgi zamon uchun tamal toshi bo'lgani aniqdir.

“Musofir bo'lmaguncha, kishi musulmon bo'lmas”. Vatanda turib uni tasavvur qilish, his etish, uning timsolini mukammal ko'ra bilish, tuyish dargumon. Zahiriddin Muhammad Bobur vatandan olisda, musofirlikda uning timsolini yaxlit tasavvur etdi, uning mehrini, qadrini teran his etib idrok qildi. Vatan, diyor, yor hajrida, sog'inch dardida ko'z yosh to'kkan bo'lsa kerakki bu holat uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'lgan. Bobur she'rlarida “ko'z yoshi” so'zini ko'p ishlatadi, bu so'zga bog'liq xolda “qon” so'zidan ham ko'p o'rinda foydalanadi. Bu e'tiborga loyiq hol. Bobur ko'p iztirob chekib ko'z yosh to'kkan, ko'p qonli xodisalarning guvohi bo'lgan shaxs.

Bobur poetikasi ham muallifni tasavvurimizda gavalantirish mumkin bo'lgan, uni anglashimizdagi asosiy manbadir. O'z tariximizni o'rganishimizda ham she'riyatning o'rni katta, tarixda haqiqatdan ko'ra yolg'onlar ko'p uchraydi. She'rda esa shoir his-tuyg'usini boricha izhor etadi va mana shu tuyg'ularni insoniyatga singdiradi. Shuning uchun shoirlar ijodiyoti har bir davrning ko'zgusi. She'riyat yordamida bemalol muallif tarjimai holi tadrijini va hayot yo'li xaritasini chizish mumkin. Bobur har nafasda, har qadamda tafakkur qilishga majbur edi. U yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan muhit va voqelik shuni taqozo etar edi. Har kuni, har soatda turli-tuman kishilar bilan muloqot-muomalada bo'lgan. U olam va odam, odamning olam ichra tutgan o'rni, besh kunlik foniy dunyoda qanday yashab o'tmoq borasida muayyan to'xtamga kelishga, bu to'xtamlarning umumlashtirishga ehtiyoj sezgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. Yangi asr avlodi Toshkent, 2015. 704-bet.

2. Bobur va uning ijodi haqida. //“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasining 2005, 27-soni.

3. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. - Toshkent, 1999.

4. Sotimov G'. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. - Toshkent, 2009, 64-bet.

4. Hasan Qudratullayev. Mirzo Bobur haqida uch maqola. Xurshid Davron kutubxonasi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA GEOGRAFIYA, EKOLOGIYA, TA'LIM VA TARBIYA

Axmadaliyev Yusupjon Ismoilovich,
Geografiya fanlari doktori,
Farg'ona davlat universiteti professori

BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLARDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HISSASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk geografik kashfiyotlar davrida yashagani va bu davrda dunyo xaritasini bugungi ko'rinishga kelishiga, quruqlikda bosib o'tgan manzillariga geografik tavsif berish orqali qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, geografiya va toponimika fani rivojiga qo'shgan yangiliklari, ochgan qonuniyatlariga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: buyuk geografik kashfiyotlar, Yevroosiyo makoni, balandlik mintaqalari, qiyosiy taqqoslash, toponimika.

Annotation: This article reflects on the fact that Zahiriddin Muhammad Babur lived in the era of great geographical discoveries and the contribution he made to the present-day appearance of the world map by giving a geographical description of the places he traveled on land. In addition, the innovations added to the development of geography and toponymy science, the laws opened by them will be discussed.

Keywords: great geographical discoveries, Eurasian space, altitude regions, comparative comparison, toponymy.

Har bir maktab o'quvchisi biladigan dunyoning bugungi ko'rinishdagi xaritasini shakllanishida buyuk geografik kashfiyotlar alohida ahamiyatga ega. Biroq, bu kashfiyotlarga bir oz boshqacha nazar bilan yondashilsa, ularning buyukligi, ahamiyati Yevropaga nisbatan olinganligiga amin bo'lamiz. Chunki, kashfiyotlarga sababchi bo'lgan afsonaviy Hindiston yoki Xitoy Sharq uchun allaqachon ma'lum bo'lgan. G'arb dengizchilaridan oldinroq bu o'lkalar haqida geografik ma'lumotlar bilan madaniy dunyoni tanishtirgan shaxs Zahiriddin Muhammad Bobur edi. Bu haqida kishilik jamiyati tan olgan yirik olimlardan biri Arnold Toynbi shunday yozgan edi: «G'arbning odatiy tafakkur qo'rg'onidan chiqib ketish va bu muammoga kamroq eksentrik nuqtai nazardan qarash uchun, men o'zimdanda g'arb dengizchilarining bir nechta guruhlarini dunyoni birlashtirishning xavfli tashabbusi bilan dengizga otlangan paytda yashagan, g'arbdan bo'lmagan mashhur shaxslardan qaysi biri dunyoning eng markazida turgan va eng bilimdon kuzatuvchisi bo'lganligi haqida so'ray boshladim va imperator Bobur timsolida shunday odam topdim» [Toynbi A., 2022:69].

Haqiqatdan ham, Z.M.Bobur dunyoni insonlar yashaydigan quruqlik qismini yagona markazga birlashtirishga intilgan Amir Temurning beshinchi avlodi bo'lib,

uning davrida insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk geografik kashfiyotlar yuz berdi. Xristofor Kolumb Ispaniyadan chiqib Amerikani ochdi, Vasko da Gama Portugaliyadan Afrikani aylanib o'tib, Hindistonga bordi. Bu voqeadan 22 yil o'tib, 1520-yilda Bobur Hindistonni zabt etdi. U insoniyat sivilizatsiyasi hududini kengaytirishni ichkaridan, o'z bobokaloni Amir Temur boshlab bergan yo'ldan boshladi, ya'ni ikki okean o'rtasini birlashtirib, yagona Yevroosiyo makonini dunyo xaritasiga kiritilishini ta'minladi. H.Hasanovning Bobur ta'rifi asosida tuzgan dunyo xaritasida [Hasanov, 1981:194] Rumdan Xitoygacha, Rossiyadan Hindistongacha, Misrdan Hindixitoygacha bo'lgan hududlar, u joydagi okean, dengizlar, daryolar, shaharlar va mamlakatlar xaritaga tushirildi. Z.M.Bobur o'qimishli inson sifatida A.Temur tomonidan zabt etilgan hududlar, Islom dini tarqalgan joylarni nafaqat bilgan, balki ularni geografiyasi, etnografiyasi, tarixi haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lgan. Biroq, bu davrda kashfiyotlar ko'lami quruqlikdan dengizga ko'chdi. Sahro kemalari vazifasini bajargan tuyalar o'rnini okeanda suzib yuruvchi yelkanli kemalar egalladi. Arnold Toynbi ta'biri bilan aytganda, "dunyo okeani kengliklarida adashib yurgan dengiz lo'lilarini" Afrikani aylanib, Islom dunyosini himoyasi uchun buyuk Salohiddin tomonidan qo'yilgan to'siqni orqa tomonidan joy egallashlari Boburni hayratga solgan bo'lishi kerak [Toynbi A., 2022:71]. Shu o'rinda aytish kerakki, franklarning Hindistonga borishi Boburni xayratga solgan bo'lishi mumkin, lekin Hindistonning kashf etilishi emas, chunki Sharqning boshqa bir buyuk sayyohi Abdurazzoq Samarqandiy Vasko da Gamadan 56 yil avval yoki maktab darsliklarida takrorlanadigan rus savdogari Afanasiy Nikitindan 27 yil avvalroq Xindistonning eng chekka janubidagi Kolikut (hozirgi nomi Kojikode) portiga borgan va o'zining «Matla us-sa'dayn va majma ul-bahrayn» («Ikki saodatli (yulduz)ning bolqishi va ikki dengizning qo'shilishi») asarining Hindiston safarnomasi qismida bu haqida batafsil yozgan. [Hasanov H., 1964: 167] Bobur o'qimishli, ziyoli inson sifatida o'zidan oldin Hindistonga quruqlik orqali borgan Beruniy, Nosir Xisrav, Avfiy va albatta dengiz orqali borgan Abdurazzoq Samarqandiy asarlari bilan tanish bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur iste'dodli yozuvchi va olim ekanligi, buyuk geografik kashfiyotlarga qo'shgan hissasini boshqa sayohlardan bir necha barobar ustun bo'lishini ta'minladi. U yuqoridagi Yevroosiyo materigi va shimoliy Afrika hududlarining ko'p joylarni yevropaliklar uchun kashf etibgina qolmadi, balki, joyga ta'rif berishda zamonaviy geografik qonuniyatlarga amal qildi va berilayotgan ma'lumotlarni amaliy ahamiyatini oshirib, barcha o'quvchilar uchun tushunarli va foydali bo'lishiga erishdi. Z.M.Bobur bolaligidan 3 ta tilda, turkiy, forsiy va arab tilidagi adabiyotlar bilan tanishgan, dunyoni yuksak geografik saviyada anglagan. Ona Vatani bo'lgan Farg'ona va jaxonning tabiiy, iqtisodiy, harbiy, siyosiy, tibbiy-geografik xususiyatlarini puxta o'rgangan. Shu asosda bir nechta geografik qonuniyatlarni ochgan bo'lib, quyida ularni ko'rib chiqamiz:

Birinchi qonuniyat. Z.M.Bobur har bir hududni quyidagi tartibda tavsiflaydi: joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi va qishloq xo'jaligi, shifobaxsh joylari, o'simliklari, foydali qazilmalari, hayvonoti va aholisi. Keyin esa o'ziga xos rayonlariga ta'rif, ohirida qisqacha yakun. Shuningdek, yirik shaharlarning topografiyasi aytiladi; mamlakatdan chet elga chiqariladigan va keltiriladigan

mollar birma-bir sanab beriladi. Agar Z.M.Boburning yuqoridagi tartibda biron hududga, mamlakatga tavsif berish sxemasini bugungi kunda geografik tadqiqotlarda umume'tirof etilgan umumiy geografik tavsif sxemasi bilan taqqoslasak, deyarli farq yo'qligini ko'rish mumkin.

Ikkinchi qonuniyat. Z.M.Bobur biron joyni tasvirlashda hozirgi zamon geografiyasining eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri bo'lgan qiyosiy geografik usulni ko'p qo'llagan. Turli joylar iqlimi, past-balandligi, aholisi va boshqa xususiyatlari jihatidan taqqoslangan.

Masalan, O'sh bilan Koson (Kosonsoy) kabi ikki baland joyni taqqoslab: "Nechukkim, Andijon suyi O'shdin kelur, Axxi suyi Kosondin kelur. Safo va havoda O'sh bilan Koson elining o'xshashligi bor" deb yozadi. Samarqand shahrini Kobul bilan taqqoslasa, Xorazm va G'aznini sovuqlikda nom chiqarganini qayd etish bilan joyning o'ziga xos xususiyatlarini ham ajratib ko'rsatadi. [Rahimbekov, 1982: 60] Demak, Z.M.Bobur geografik taqqoslash metodini geografiya fanida birinchilardan bo'lib mohirlik bilan qo'llagan.

Uchinchi qonuniyat. Z.M.Bobur quyosh nurining tog'larning turli yonbag'irlariga har xil tushishi oqibatida hamda tog'larning cho'qqisi tomon o'simliklarning farq qilishini tavsiflaydi. Shuningdek, relefnig tabiatdagi tafovutlariga, o'rmonlar bor-yo'qligining yog'inlariga, daryo suvlari miqdorining iqlim xususiyatiga bog'liqligi kabi xulosalar chiqaradi.

a) Quyosh nurining tog'larning turli yonbag'irlariga har xil tushishi hozirgi zamon geografiyasida **yonbag'irlar ekspozitsiyasi** qonuniyati deyiladi, tog'larning shimoliy – quyoshga teskari, va janubiy – quyoshga qaragan yonbag'irlarida tabiat komponentlari va jarayonlarining, umuman landshaftlarning bir-biridan farq qilishida asosiy omillardan biri deb qaraladi.

b) tog'larda yuqoriga ko'tarilgan sari havo haroratining pasayishi oqibatida o'simliklar, hayvonlar, tuproqlar va umuman olganda landshaftlar o'zgarib borishi hozirgi zamon geografiyasida **balandlik mintaqalanishi** qonuniyati deyiladi. Bu qonuniyatlar ham dastlab Z.M.Bobur tomonidan ochib berilganini ko'rish mumkin. [Bobur Z.M., 1980]

Z.M.Boburning buyuk merosini o'rganish shuning uchun ham zarurki, "Boburnoma" o'zbek tilida yozilgan dastlabki tabiiy va tarixiy-geografik, ilmiy asarlarning eng yirigidir. H.Hasanov ta'biri bilan aytganda: "Bobur Farg'ona va Samarqand, Afg'oniston va Hindiston geografiyasini o'zbek tilida birinchi bo'lib tasvirlagan olim, desak xato bo'lmas". [Hasanov H., 1964: 60.]

Boburnoma asari – nafaqat tarixiy, siyosiy, madaniy, badiiy asar, balki, keng qamrovli geografik ma'lumotlar haqida mufassal ma'lumot beradigan noyob yodgorlikdir. Asarda O'rta Osiyo va Janubiy Osiyo o'lkalarining tabiiy geografik sharoiti va ob'ektlari ya'ni relefi, iqlimi, suvlari, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tasvirlangan.

Z.M. Bobur yoshligidan o'lkamizning orografik qiyofasini tasavvur qila olgan. Olim 15-16 yasharligida Farg'ona, Samarqand va Toshkent oralig'ini bir necha marta kezib chiqqan. 19 yoshga to'lgan yili Hisor tarafidan toqqa ko'tarilib, Fondaryo va Iskandarko'l orqali Zarafshon vodiysiga o'tib, Samarqandga kelgan. Ba'zi vaqtlarda askarlari bilan yo'lni qisqartirish maqsadida tog'ni aylanib

o'tmasdan, uni oshib o'tib, yangi oshuvlarni, dovonlarni ham kashf qilgan. Uning hayotida, janglarida tog'lar, dovonlar, yalangliklar muhim o'rin tutgan. Ayrim vaqtlari baland tog'lardan o'tish qiyin bo'lganligi uchun oylab o'sha joylarda qolib ketgan. Z.M.Bobur o'z sayohatlari chog'ida tog'lar, balandliklar, dovonlar, vodiylar, jarlar va ularning o'lchamlari, xususiyatlari haqida ham atroflicha to'xtalib o'tadi. Ularning ba'zilarini quyidagicha bayon etadi: "Qobul viloyati shimoli Hindikush tog'iga tutashgan. Sharqdan g'arbga qarab yastangan. Atrof tevaragi batamom tog'dir. Qalasi tog'ga tutashgan. Bu tog' Devarin tordaradan boshlanadi. Bu tog'ning etaklari batamom bog'lardir", "...Sharqi Lamg'onot viloyatidir. Uch-to'rt yerda kichikroq-kichikroq dovonlari, ikki-uch joyda tor daralari bor". [Bobur Z.M., 1980]

Z.M.Boburning "Boburnoma" asari toponimika fanini shakllanishi va rivojlanishidagi ahamiyatini quyidagilar bilan ifodalash mumkin. Birinchidan, «Boburnoma» da XV-XVI asrdagi Farg'ona vodiysidagi joy nomlarining o'sha davrdagi talaffuzi va yozilishi berilgan. Masalan, Marg'inon – Marg'ilon, O'zgand – O'zgan, Qubo – Quva, Xo'qon – Qo'qon, Rushdon – Rishton, Sayxun – Xo'jand suyi yoki Sir suyi – Sirdaryo, va hokazo. Toponimikada geografik nomlarnig qadimiy variantlari ularning etimologiyasini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tiborga olinsa, bu ma'lumotlarning qiymati aniqroq namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, asarda tilga olingan ko'plab geografik atamalar toponimlarning kelib chiqishini aniqlashda va o'zbekcha milliy terminologiyani ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega, masalan: band – to'g'on yoki "bekat", jazoir – orol, jangal – o'rmon, qo'l – daryo tarmog'i, tangi – tor, dara quruq yoki suvsiz qo'l – soylik, parcha tog' – qoldiq tog', tagob – o'zan, to'qay – daryo muyulishi, ushoq tog'lar – past tog'lar, yayloq – yaylov, obgir – botqoqlik, qasaba – shaharcha, pushta – tepalik, qo'ruq – qo'riqxonona, uchma – tik yonbag'ir, yoz – bahor, yozi – dala, obshor – sharshara va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Zahiriddin Muxammad Bobur jahon geografiya fanining rivojlanishiga, dunyo xaritasini bugungi ko'rinishda shakllanishiga katta hissa qo'shgan buyuk sayyoh va geograf olimdir. Mamlakatimiz va O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasini, joylashuvini, iqlimini, relefini, tog', daryo, o'simlik va hayvonot dunyosini hamda iqtisodiy geografik tafsifini birinchilardan bo'lib ochib bergan olim ham shubhasiz Z.M.Boburdir. GAT texnologiyasi va aerokosmik metodlardan foydalanib uning geografik merosini tahliliy o'rganish, bosib o'tgan yo'llarini xaritalashtirish bugungi geograflar avlodi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобур З.М. Бобурномаю - Т.: "Юлдузча".1989.
2. Раҳимбеков Р.У., Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. - Т.: "Ўқитувчи", 1982.
3. Тойнби А. Дж. Цивилизация перед судом истории: Сборник / Пер. с англ. — М.: Ролф, 2002.

4. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. - Т.: “Ўзбекистон”, 1981.
5. Ҳасанов Ҳ. Ўрта осиелик географ ва сайёҳлар. - Т.: “Ўзбекистон”, 1964.
6. Ҳасанов Ҳ. Заҳириддин Бобур — сайёҳ ва олим. - Тошкент, 1960.
7. Ҳасанов Ҳ. Бобур жойлари (Афғонистондан хат).// «Шарқ юлдузи», 1963, 5-сон, 150-155 бет.

Abbasov S.B.,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori,
geografiya fanlari doktori,
Meliev B.A.,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU

ZAHRIIDDIN MUHAMMAD BOBURNING GEOGRAFIK MEROSI

Tariximizning eng yorqin, shu bilan bir qatorda juda kam o‘rganilib, chuqur tahlil qilinmagan masalalardan biri bu – Temuriylar sulolasi hisoblanadi. Shu avlodni so‘nggi vakillaridan biri Zaxriddin Muhammad Boburdir. Zaxriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yillar) davlat arbobi, mohir sarkarda, atoqli shoir, tarixchi, eng asosiysi buyuk sayyoh geograf olim bo‘lgan. Davr taqazosi bilan 12 yoshida taxtga o‘tirib podshohlik qilgan. Zaxriddin Muhammad Bobur o‘z davrining jabirdidasi sifatida o‘z yurtini tashlab, o‘zga yurtga borib yirik bir davlatga asos soldi va bu sulola Hindistonda uzoq yillar davomida hukumronlik qiladi. Shuning uchun ham, uning rahnamoligida Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda ushbu davlatlar tarixida, ayniqsa, uning siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirdi.

Shu bugungacha, Boburning faoliyati va merosini o‘rganishda turli soha olimlari – tarixchilar, filologlar, geograflar va boshqalar katta natijalarga erishdilar. Jumladan, uning asarlari turli davlatlarda nashr etildi. Uning ijodini o‘rganuvchi o‘nlab olimlar yetishib chiqdi. Boburning shaxsiy sifatlarini, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mukammal bilish uchun uning “Boburnoma” asarini sinchiklab o‘rganish zarur bo‘ladi. Masalan, Bobur hayoti, uning ijodini o‘rgangan Sharq va G‘arb olimlari, jumladan, rus sharqshunoslari uning ijodini yuqori baholaganlar. Chunonchi, “Boburnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilgan Erskin shunday deydi: “Osiyodagi hukumdorlar ichida Bobur singari genial va talantli kishilarni kamdan-kam uchratamiz...” deb, yozadi.

Shoh asar hisoblangan “Boburnoma” 1586-yilda fors tiliga, 1705-yilda golland tiliga, 1826-yilda ingliz tiliga, 1828-yilda nemis tiliga, fransuz tiliga va rus tillariga tarjima qilingan.

Demak, dunyo ahli Z.M.Bobur hayoti faoliyatiga befarq emasligi yuqoridagi fikrlarda o‘z aksini topdi, deb hisoblaymiz. Shuning uchun, biz quyida Boburning eng yirik asari “Boburnoma” to‘g‘risida, ayniqsa, undagi geografik tadqiqotlar uchun ahamiyatli hisoblangan, joyning geografik o‘rni, joylashuvi, aholisi, mehnat resurslari, xo‘jaligi, gidrografiyasi, hattoki, joy nomlari va h.k. ni o‘z ichiga olgan,


qisqacha qilib tariflaydigan bo'lsak, "Boburnoma"da hududning geografik tavsifiga to'xtalib o'tishga jazm qildik.

"Boburnoma"da turli viloyatlar ta'rifi berilgan, jumladan, u Farg'ona vodiysining Andijon viloyati to'g'risida shunday deydi: "Andijondurkim...; Farg'ona viloyatining (vodiysining, o'lkasining) poytaxtidur. Unda g'alla, don (oshlig'i) mo'l-ko'l, mevalari ko'p (farovon), qovun-tarvuz va uzumi yaxshi bo'lur. Andijon noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas...", - deydi. Bobur ushbu asarida, o'zi tug'ilib o'sgan viloyati bilan, keyinchalik yurgan, ijod qilgan hududlarni bir-biriga qiyoslab ta'riflaydi. Chunki, Andijon, Samarqand, Jizzax yoki Afg'oniston, Hindistonni qaysi tabiat zonasiga kirishi, uning iqlim xususiyati, yer yuzasi tuzilishini, geomorfologiyasi, gidrologiyasi, aholisi, mehnat resurslari kabi masalalarini bir-biriga qiyoslab tariflaydi. Jumladan, ..Farg'ona viloyati beshinchi iqlimga kiradi... (Yer shari yettita iqlim mintaqasiga bo'linadi) deb mo'tadil iqlim mintaqasiga xos xususiyatlarni izohlaydi. Hududning chegarasi va joylashgan o'rnini quyidagicha yozadi: "Farg'onaning sharqi Qashqar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshon chegarasi bilan chegaradosh, shimoliy chegarasi O'trorkentdir. Atrofini tog'lar qurshab olgan. G'arbida Samarqand va Xo'jand shaharlari bo'lib, tog' yo'q. Shuning uchun, shu joydan boshqa hech tomondan havo oqimlari kelmasligini ...qish hujum qilmaydi",- deb yozadi. Farg'ona vodiysi daryolarini ta'riflashda, Bobur quyidagicha izohlaydi: "Xo'jand suvi sharqishimoldan, bu viloyatning ichidan o'tadi va g'arb tomonga oqadi (Bu yerda Bobur Sirdaryoni nazarda tutmoqda). So'ngra, Turkiston tomonga boradi, undan keyin butunlay qumga singib ketadi. Shaharga to'qqiz tarnov suv kiradi, bu ajab turkim, bir yerdan ham chiqmas. To'qqizta tegirmonni yurgazadigan suv kiradi va o'ni shahar aholisi to'liq iste'mol qiladi",- deydi. Hayvonot olamida ovlanadigan qushlari ko'pligi, ayniqsa, qirg'ovulni kattaligini maqtaydi, hatto, go'shtini to'rt kishi yeb tugata olmaydi. Eli turkdir, ya'ni xalqi "o'zbek", deb ta'riflanadi.


U "Boburnoma"da Samarqandni quyidagicha ta'riflaydi. Rubai maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur... Ya'ni, yer shahrida Samarqanddek chiroyli, go'zal shahar yo'q deb ta'riflaydi. ... Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mug'ul va turk ulusi Samarqand derlar. Shaharni Makedoniyalik Iskandar qurdirganini, shahar aholisi mug'ul va turkdan iborat deyiladi. Unda quhak suyi shimoldin oqar... Zarafshon daryosi bu suvdan bir ulug' rud ayiribdurlar, balki daryochadur, Darg'om suyi derlar. Samarqandning janubidan oqar... Bu yerda Bobur Darg'om kanalini qazilganini izohlaydi. Samarqandning bir qancha bog'lari shu suv bilan sug'orilishin ta'kidlaydi. Bundan tashqari Bobur Samarqandning uzumi va qovuni mevalari hamda bu yerda Temur davrida barpo qilingan bog'larni ta'riflaydi, ulug'laydi va Samarqandda qish qattiq bo'lishini ... qor garchi Qobil qoricha tushmas, Qobildagidek qalin qor yog'maydi... Yozda yaxshi havosi bor... Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddan chiqar. ...Bir mashhur o'lang Konigil o'langidir. Samarqandda sharq tarafidatur deb Konigil qishlog'idagi suv va qog'oz to'g'risida ma'lumot berib, Obi rahmat "Rahmat suvi" Konigilning o'rtasidan oqib o'tishini yozadi.

Shunday qilib, Z.M.Boburning "Boburnoma" asarini o'zbek tilida yozilgan dastlabki, tabiiy va tarixiy geografik ilmiy asarlarining eng yirigi deyishimiz

mumkin bo‘ladi. Bobur ushbu asarda Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Afg‘oniston va Hindiston geografiyasini o‘zbek tilida birinchi bo‘lib tasvirlagan olim desak, xato bo‘lmaydi. Chunki, Bobur har bir hududni ma‘lum geografik tartibda: avvalo joyning geografik o‘rni, iqlimi, tuprog‘i, o‘simlik dunyosi, qazilma boyliklari, hayvonot olami, qishloq xo‘jaligi va aholisi kabi geografik omillarni ifodalaydi. Shuning uchun, biz Zahiriddin Muhammad Boburni tom ma‘noda geograf olim, deb atashimiz mumkin. Bobur ushbu asarida geografik qiyoslashni juda urinli izoxlaydi, U Farg‘ona vodiysini, Qobul, Hindiston bilan qiyoslab ulardagi geografik tafavutlarni kursatib beradi. Quyida, biz Boburni hayotida bosib o‘tgan hayot yo‘l xaritasini keng ommaga elon qilishga jazm qildik (1 va 2-rasmlar).



1-rasm. Z.M. Boburning 1496-1504-yillardagi Movarounnahr bo‘ylab bosib o‘tgan yo‘llari va borgan aholi manzilgohlari xaritasi.



2-rasm. Z.M. Boburning Andijondan to Agravacha bosib o'tgan yo'lining sxematik xaritasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зоиров Т. Мактабда Бобур ижодини изоҳли ўрганиш. - Т.: “Ўқитувчи”, 1978. 24 бет.
2. Халимов Ж. Буюк сайёҳлар ва географлар. - Андижон, 2000. 20 бет.
3. Колбинцев А. Фарғона водийси бўйлаб. - Т.: “Ўзбекистон”, 1979. 102 бет.
4. Нуритдинов М. Бобурийлар сулоласи. - Т.: “Фан”, 1994. 48 бет.
5. Бобур. Бобурнома. - Т.: “Юлдузча”, 1999. 368 бет.

Xakimov Koshkar Maxkamovich,
 geografiya fanlari nomzodi, Jizzax davlat
 pedagogika universiteti Geografiya va iqtisodiy
 bilim asoslari kafedrasida professori

BOBUR NOMI VA U BILAN BOG'LIQ GEOGRAFIK OBYEKTAR HAQIDA

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning laqabi va u bilan bog'liq bo'lgan turli mamlakatlar hududida joylashgan geografik obyektlarning

nomi toponimik tadqiqotlar yordamida o'rganildi. Hozirgacha ilmiy jamoatchilik orasida Bobur so'zining etimologiyasi haqida yagona talqin yo'qligi inobatga olinib, uning sabablari o'rganildi va tahlil qilindi. Bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan atalgan geografik obyektlarni nafaqat O'zbekistonda balki, dunyoning turli burchaklarida uchratish mumkin va ularning har biri o'z tarixiga ega. Bobur qisqa hayoti davomida o'zidan faqat yaxshi nom va obod maskanlarni qoldirgan. Shuning uchun, o'sha davrlarda ham, keyinchalik ham, ko'plab geografik obyektlar uning nomi bilan atalgan va hozir ham bu an'ana davom etmoqda.

Tayanch so'zlar: nom, babr, bobur, laqab, etimologiya, motiv, geografik obyekt, joy nomi, geografik nom.

Annatation: In the article, with the help of toponymic research, the nickname of Zakhiriddin Muhammad Babur and the names of some geographical objects associated with his nickname, located in different countries, are studied. Considering that in the scientific community there is no single interpretation of the etymology of the word Babur, its reasons have been studied and analyzed. Currently, geographical objects named after Babur can be found not only in Uzbekistan, but also in different parts of the world, and each of them has its own history. During his short life, Babur left behind only a good name and prosperous objects. Therefore, the people, taking into account her merits both in those days and later, named many geographical objects after him, this tradition continues today.

Key words: name, babr, babur, nickname, etymology, motif, geographical object, place name, geographical name.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-y. - Andijon – 1530-y. Agra) - Boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda, iste'dodli sarkarda, buyuk shoir, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, tarixchi, geograf. Bobur nisbatan qisqa umr ko'rgan bo'lsa ham, jahon tarixida o'ziga munosib o'rin egallashga ulguragan buyuk siymolardan biri bo'lishi bilan birga, iymon, e'tiqodda mustahkam, islomiy ma'rifatni dunyoning eng muhim ma'naviy asoslaridan biri ekanligini teran anglagan inson bo'lgan. Boshqa temuriylar kabi, u ham Xoja Ahror Valiy suluki asosida tarbiya topgan va yoshligidan to umrining oxirigacha ibodatni kanda qilmaydigan, imoni butun, e'tiqodi mustahkam shahzoda sifatida tanilgan.

Bobur shaxsi va uning ijodi asrlar davomida dunyo olimlarini qiziqtirib kelgan. Taniqli ingliz olimi Uilyam Erskin Bobur Mirzo haqida shunday deb yozgan: «Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi» [Бобур энциклопедияси, 2014: 587]. Boburning sertashvish hayoti va jo'shqin faoliyati siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan inqirozga uchrab, tanazzulga tushayotgan temuriylar saltanatining so'nggi davriga to'g'ri keladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyat ko'rsatgan sohalarning qamrovi keng, agar uning ilmiy-ijodiy kamolotini ta'riflasak juda ko'plab sohalarni sanab chiqishga to'g'ri keladi. Uning asarlarida tilshunoslik, elshunoslik, dinshunoslik,

nomshunoslik va boshqa ko‘plab sohalar bo‘yicha, qimmatli ma‘lumotlarni topish mumkin. Bobur shaxsi va ijodi haqida faqat Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida o‘ttizdan ortiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

Namanganlik olim tibbiyot fanlari doktori, professor Mirmahmud Mirsaydullaev Bobur shaxsi va ijodini o‘rganish barobarida, ilk bor uning kasallik tarixini to‘liq tiklashga muvaffaq bo‘lgan. Shu bilan birga, taniqli olim hozirgacha bizga noma‘lum bo‘lgan Bobur Mirzoning qilichi, muhrlari, original surati, xanjari, bayrog‘i va boshqa uning nomi bilan bog‘liq ashyoviy dalillarni dunyo muzeylaridan topib, ularning tarixini chuqur o‘rgangan va Bobur nomidagi xalqaro jamg‘arma fondi muzeyiga nusxalarini taqdim etgan [Мирсайдуллаев М., 2014: 4].

Hozirgacha ilmiy jamoatchilik orasida Umarshayx Mirzoning birinchi o‘g‘il farzandiga kim Zahiriddin Muhammad deb ism qo‘yganligi ham aniq emas. Monumental nashr hisoblangan Bobur ensiklopediyasida otasi Umarshayx Mirzo birinchi o‘g‘il farzand ko‘rganida ism qo‘yib berishni piri Xoja Ahrori Valiydan iltimos qilgan va ustoz chaqaloqqa Zahiriddin Muhammad deb ism qo‘yganligi yozilgan. Boshqa olim, afg‘onistonlik manbashunos Muhammad Halim Yorqin “Boburmi, Babarmi yo Bobir?” nomli maqolasida, «Tarixi Rashidiy» muallifi Mirzo Haydar Dug‘lotning yozishicha, «mutabahir olimlardan biri mavlono Mir Marg‘iloniydan... ot qo‘yish iltimos qilindi va u kishi Zahiriddin Muhammad xitobi bilan musharraf etdilar», deb ta‘kidlaydi [Muhammad Halim Yorqin, 2005: 7].

Taniqli ingliz olimi Uilyam Erskin ham o‘zining «Eron va Bobur» nomli tarixiy romanida ismni bolaga uning buvisi Esondavlat begim qo‘ygan deydi. Sharqshunos olimning ta‘rificha, Bobur podshohdek, «saxovati va mardligi, iste‘dodi, ilm-fan, san‘atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi». Boburning asl ismi Zahiriddin Muhammad ekanligiga shubha yo‘q, ammo nom kim tomondan qo‘yilgani qo‘shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladi. Zahiriddin Muhammad butun hayoti davridan to hozirgacha Bobur, Bobur Mirzo, Bobur podshoh nomi bilan atalib kelingan.

Bobur so‘zining etimologiyasi haqida ham yagona talqin yo‘q. Garchi nomning aniq ma‘nosi noma‘lum deyilsa ham, ammo, ba‘zi manbalarda uni 1) yo‘lbars, arslon; 2) ulkan, buyuk; 3) tez gapiradigan odam ma‘nolarda talqin qilishgan. Masalan, Bobur ensiklopediyasida nomning yo‘lbars ma‘nosiga ishora qilib, “...Yorug‘ olamga ko‘z ochishi bilan ota-bobolari uni suyub-erkalab, yaxshi niyatlar bilan zalvorli nom berib atadilar. Ism va jismining bir-biriga uzukka ko‘z qo‘ygandek mos kelishi noyob uchraydigan hodisadir. Lekin bu azamat inson timsolida bu holar o‘zining yorqin tasdig‘ini topgan edi” deb yozilgan. [Бобур энциклопедияси, 2014: 105] Boburshunoslar uning bolalikda erkalatib aytilgan “Bobur” ismini “fors-tojik tilidagi babr - “yo‘lbars” so‘zidan kelib chiqqan deb taxmin qilishadi. Ajab emas Bobur fe‘l-atvoridagi dovyuraklik, jahongirlik, jasurlik sifatlari balki bunday laqabga asos bo‘lgandir.

O'rta Osiyo tarixi bilan jiddiy shug'ullangan amerikalik boburshunos Harold Lemb (1892-1962) o'zining "Bobur - yo'lbars" romanida shunday rivoyatni keltirgan: "... ovchilar g'orga kirib qarashsa, bir bola ikkita yo'lbars bolasi bilan o'ynashayotgan emish. Ovchilar yo'lbars bolalari bilan Zahiriddin Muhammadni olib saroyga qaytishibdi. Bu voqea bir zumda shaharga tarqalib, hazrati oliyning o'g'illari yo'lbars bilan olishibti, degan xabarni barcha eshitibti. Hamma hayratdan yoqasini ushlabdi. Shundan keyin bolaning asli ismi yoniga babr - "yo'lbars" laqabini qo'shib aytadigan bo'libdilar". [Ламб Харолд, 2018: 17]

Harold Lembning "Bobur - yo'lbars" asarini ingliz tilidan o'zbekchaga o'g'irgan andijonlik filolog olim G'ofurjon Satimov Bobur laqabi haqida yana bir xulosani bayon qilgan. Olimning yozishicha, Boburning bu nom bilan atalishiga bobosi Yunusxon sababchi bo'lgan. Nevarasi bir yoshga to'lishi munosabati bilan uni yo'qlab kelgan ona tomonidan bobosi Yunusxon chaqaloqni boshi uzra baland ko'tarib, "bu kichkina yo'lbars", deb xitob qilgan. O'shandan keyin shahzodani shu nom bilan erkalatgan ekanlar. [Qorayev S., 2006: 308]

Ma'lumki, har qanday ism bir tildan boshqa tilga, bir yozuvdan boshqa bir yozuvga o'girilganda o'sha til qoidalari va imkoniyatlariga mos tarzda ba'zi o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Boburning ismi qanday yozilishi va uning kelib chiqishi masalasi bilan yevropalik boburshunoslar XIX asrdan boshlab qiziqishgan. Masalan, ingliz sharqshunosi Henri Beverij 1900-yili bu haqda maxsus maqola e'lon qilgan. Rus sharqshunosi A.N.Samoylovich Bobur yagona to'g'ri talaffuz ekanligi, rus sharqshunoslari tomonidan hal qilib bo'linganini ta'kidlagan.

Ammo, babr so'zi keyincha, bobur shakliga o'zgargan degan fikrga e'tiroz bildirgan olimlar ham yo'q emas. Masalan, AQSH dagi Harvard universitetining sharq tillari bo'yicha professori, boburshunos Viler Tekston Bobur ismidagi "o" unlisi cho'ziq, "babr" so'zida uning o'rnidagi unli qisqa ekanligidan kelib chiqib, mazkur farazga e'tiroz bildirgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Zahiriddin Muhammad Boburdan avval ham va undan keyin ham, temuriy shahzodalar orasida Bobur ismli shaxslar bo'lgan. Ana shulardan biri, Boysung'ur Mirzoning o'g'li Abulqosim Boburdir (1422, Hirot - 1457, Mashhad). U temuriylarning Xurosondagi hukmdori (1449-1457) bo'lgan. Abulqosim Bobur 1422-yili, ya'ni Zahiriddin Muhammad Boburdan 61 yil oldin Hirot shahrida tug'ilgan va u ham turkiy va forsiy tillarda she'rlar yozgan. Boysung'ur Mirzoning o'g'li Abulqosimga Bobur nomi qanday berilganligi tarixi alohida toponimik tadqiqotni talab qiladi. Bundan tashqari Sulton Husaynning Beka Begim ismli qiziga uylangan kuyovining ismi ham Bobur Mirzo bo'lgan. [Бобур энциклопедияси, 2014: 129]

Bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan atalgan geografik obyektlarni nafaqat O'zbekistonda balki, dunyoning turli burchaklarida uchratish mumkin. Masalan, Tojikiston, Qirg'iziston, Afg'onistonda Bobur nomli qishloqlar bor va ularning har biri o'z tarixiga ega. Xususan, Afg'onistonda o'ndan ortiq qo'rg'on, qishloq va bog'lar Bobur nomi bilan ataladi. Afg'onistonning O'g'och viloyatida qadimdan katta bir qal'a Bobur qal'asi deb ataladi. Hozirgi Tojikiston Respublikasining tog'li Mastchoh tumanidagi so'lim qishloqlardan birida,

Boburning onasi va xotini yoz oylarida kelib dam olishgan. Keyincha, bu qishloqqa Bobur nomi berilgan.

Hindistonning Hariyana shtatidagi shaharlardan biri Boburpur deb ataladi. Shahardagi xotin-qizlar kolleji, shahar ichidan oqib o'tadigan daryo, bozor, temir yo'l bekatiga ham Bobur nomi berilgan. Mazkur qishloq Panipat jangidan keyin paydo bo'lgan va unda asosan, Movarounnahr va Xurosondan kelib qolganlarning avlodlari istiqomat qilishar ekan. Panipat jangi bo'lib o'tgan joyning yonidagi bir qishloqda Bobur ko'prigi bor. Aytishlaricha, Bobur jangga tayyorgarlik ko'rayotgan vaqtda artelleriya to'plarini olib o'tish uchun mustahkam bir ko'prik qurdirgan va u hozirgacha uning nomi bilan ataladi.

Rossiya toponimiyasi tarkibida Baburin, Baburinskiy, Baburino kabi nomlar uchraydi. Ruslarda Baburin, Baburov, Babura kabi familiyalarni ham uchratish mumkin. Pokistonda Bobur qazdirgan quduqni mahalliy aholi hozir ham foydalanadi va uni Bobur qudug'i deyishadi. Pokiston harbiy havo kuchlari rahbariyatining Boburga bo'lgan muhabbati timsoli sifatida yangi ishlab chiqilgan raketalardan biriga uni nomi berilgan.

Boburshunoslarning yozishicha, Bobur mahoratli qilichboz ham bo'lgan, u o'zi bilan doimo olib yuradigan qilichlardan biri hozir Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyida saqlanmoqda. Qilichning tig' qismida "bismilloh" degan yozuvni aniq ko'rish mumkin. Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan belbog'ga pichoq yoki xanjar taqib yurish rasm bo'lgan. Panipat jangida kamariga taqib yurgan Boburning xanjari hozirda Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda. [Мирсайдуллаев М., 2014: 78]

Dunyo mamlakatlarida Bobur nomi bilan bog'liq bo'lgan boshqa geografik obyektlar ham ko'plab topiladi. Ana shulardan biri "Bobur yulduzi" boshqotirmasidir. U bir nechta qismlardan iborat, qismlar to'g'ri yig'ilsa simmetrik konstruktsiya paydo bo'ladi. Bunday boshqotirmani Yevropa yoshlari aqlni charxlaydi deb, bo'sh vaqtlarida undan foydalanishni xush ko'rishar ekan. Parijda Bobur nomi bilan qadimiy kvartal, kafe, mehmonxona atalgan bo'lsa, London, Dehli, Nyu-York, Toronto, Taraz shahrlarida uning nomi bilan ataladigan restoranlar ochilgan.

Aytishlaricha, Rossiyaning Tyumen shahridagi restoranlardan birining bosh oshpazi Hindistonga borib, u yerdan "Bobur salati" ni tayyorlashni o'rganib kelgan va bu salatni restoranga tashrif buyuruvchilar xush ko'rar ekan. Istanbul shahridagi "UKR-BOBUR" konditer firmasi "Bobur shirinliklari"ni ishlab chiqarmoqda, sifatli va arzonligi tufayli mahalliy xalq va shahar mehmonlari ularni sevib iste'mol qilishadi. Bolgariya davlatida erta pishar, serhosil, vitaminlarga boy "Planska Babura" nomli qalampir turi yaratilgan. Ushbu qalampir turini yaratgan seleksioner "Boburnoma" ni o'qib, buyuk sarkarda, shoh va shoirning nomini o'z kashfiyotiga qo'yishga ahd qilgan deyishadi.

Bobur nomi bilan bog'liq, ammo hozirgacha ilmiy jamoatchilikka keng ma'lum bo'lmagan yana bir ro'zg'or buyumi haqida gapirish o'rinlidir. Bundan bir necha yil avval Yunus Rajabiy nomidagi Jizzax viloyati musiqali-drama teatri binosida tashkil etilgan bir ko'rgazmada Jizzax viloyati Yangiobod tumani Chokand qishlog'idagi maktab muzeyining eksponatlari namoyish qilindi.

Eksponatlar orasidagi katta marmar tovoqqa “Bobur bu tavoqda osh yegan” yozuvga ko‘zimiz tushib qoldi. Maktab direktoridan tavoq qanday qilib maktab muzeyiga kelib qolganligi tarixi bilan qiziqdik. Taxminlarga ko‘ra, tavoq ko‘p yillar davomida mahalliy odamlarning birini uyida saqlangan va avloddan avlodga meros sifatida qoldirilgan. Mustaqillikdan keyin tavoq maktab muzeyiga taqdim etilgan. Hozirgi kunda bu sir-sinoatga boy tavoq maktab muzeyida saqlanayotgan bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Bobur qisqa hayoti davomida qaerlarga borgan bo‘lsa, yoki qaysi yurtlarni bosib olgan bo‘lsa, o‘zidan faqat yaxshi nom va obod maskanlarni qoldirgan. Shuning uchun, o‘sha davrlarda ham, keyinchalik ham, ko‘plab geografik obyektlar uning nomi bilan atalgan va hozir ham bu an‘ana davom etmoqda. XVI asrda Buxoroda yashab ijod qilgan taniqli shoir Hasanxoja Nisoriy yozganidek, “Bobur podshohning fazilatlarini bisyor va kamolotlari beshumordir”. [Бобур энциклопедияси., 2014: 398]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобур энциклопедияси. -Т.: “Шарк”, 2014. 744 -б.
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. -Т.: “Ўқитувчи”, 2012. 287 -б.
3. Ламб Наролд. Бобур-йўлбарс. -Т.: “Ўзбекистон”, 2018, 296 -б.
4. Мирсайдуллаев М. Бобур номи ила аталган. -Т.: “Мумтоз сўз”, 2014. 139 -б.
5. Muhammad Halim Yorqin. Boburmi, Babarmi yo Bobir?. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2005- yil 7-son.
6. Хасанов Х. Ўрта осиелик географ ва сайёҳлар. -Т.: “Ўзбекистон”, 1964. 360 -б.
7. Qorayev S. Toponimika. O‘quv qo‘llanma. -Т.: “O‘zb.fayl.jamiyati”, 2006. 320 -b.
8. Hakimov Q.M. Toponimika. Darslik. -Т.: “Mumtoz so‘z”, 2016. 368 -b.

Valiyeva Sh.N. (PhD),

Usmanov M.R.,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti

GEOGRAFIK JOY NOMLARINI TADQIQ QILISH TARIXI VA BOBURNING GEOGRAFIK QARASHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografik joy nomlarining me‘yoriy-huquqiy asoslari, shakllanish tarixi, metodologik yondoshuvlar va Boburning geografik qarashlari berilgan.

Kalit so‘zlar. Joy nomlari, toponomika, “Vaqoe” (Voqealar), “Boburnoma”, “Samarqandnoma”, Zarafshon vodiysi, Ko‘hak (Zarafshon) daryosi, Darg‘om.

Annotation. This article was able to give the normative legal basis of geographical place names, the history of formation, methodological approaches and geographical views of Babur.

Keywords. Place names, toponomics, "Vaqoe'" (events), "Boburnoma "Samarkandnoma", Zarafshan Valley, Kohak (Zarafshan) River, Dargam.

Jahonda geografik joy nomlari, ularning tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Geografik nomlar bo'yicha ekspertlar guruhi (UNGEGN) geografik nomlarda ijtimoiy-madaniy va landshaft elementlari aks etishini inobatga olib, 2021-2029-yillarga mo'ljallangan strategik rejasi hamda ish dasturini ishlab chiqqan. Unda "davlatlarning milliy geografik nomlarini standartlashtirish masalalari va ularning ustuvor harakatlarini aniqlash" vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar joy nomlarining tabiiy geografik jihatlarini tahlil qilish, geografik obyektlarni nomlash, joyning tabiiy geografik xususiyatlari asosida guruhlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Dunyo bo'yicha joy nomlarini o'ziga xos jihatlariga, jumladan, ularni boy tarixga ega ekanligi, turli o'lkalarning tabiiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti, o'simlik va hayvonot olami, tabiiy resurslari, tog' va tekisliklari, suv resurslari to'g'risida ma'lumotlar beruvchi muhim manba sifatida e'tirof etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash va guruhlashtirish, ularni muhofaza qilish maqsadida milliy toponimik kataloglarini yaratish va kompleks tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini ochib berishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda geografik joy nomlarini shakllanishiga tabiiy geografik xususiyatlar asos bo'lgan joy nomlarini ilmiy tadqiq qilish, ularni to'g'ri yozilishi va talaffuzini qat'iylashtirish va muhofaza qilish ishlari bo'yicha ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabr "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmonida "geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, xususan, Samarqand viloyati joy nomlarini geografik jihatdan kompleks tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabr "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-son 2020-yil 29-yanvar "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 40-sonli qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Har bir fanda yoki turli sohalarda tadqiqot olib borilar ekan, o'ziga xos tekshirish obyekti mavjud bo'lib, uni o'rganish uchun turli tamoyillar va metodlar ishlab chiqiladi. Mazkur metodlar yordamida tadqiqot olib borilayotgan soha takomillashadi. Tamoyil (prinsip – lotincha - principium) – asos, boshlash qoidasi ma'nolarini anglatib, u har bir

harakat yoki faoliyatning asosi yoki yo'naltiruvchi qoidasi deb yuritiladi. Prinsip – maqsadga yetish jarayonidagi hukm suruvchi qoidadir. Toponimika sohasi bo'yicha tadqiqotlar quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi.

Tarixiylik tamoyili. Bu ma'lum bir hududdagi barcha toponimik etimologiyalar uning tarixiy o'tmishi va hozirgi holatini hisobga olgan holda tuzilishi kerakligidan iboratdir. Ular bilan muvofiqlashtirishni talab qiladigan asosiy fikrlar bu o'rganilayotgan hududning etnolingvistik o'tmishi, o'rganilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, ushbu hudud uchun toponimik vorislik tamoyiliga rioya qilishdan iborat. [Никонов В. А., 2011: 184]. Toponimlarni etimologiyalashda lingvistik tahlil bilan bir qatorda, o'lka tarixi va geografiyasi, shuningdek, mahalliy xalqning so'zlovchi sifatidagi qarashlarining o'ziga xosligini ham hisobga olish zarur hisoblanadi. Tarixiy va geografik ma'lumotlarni hisobga olmasdan sof lingvistik yondashuv har doim ham ishonchli etimologiyani ta'minlay olmaydi [Мыцаев К.М., 1984: 54].

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistondagi joy nomlariga oid eng qadimgi ma'lumotlar miloddan avvalgi IV-V asrlarda yunon olimlari asarlarida keltirilgan. Xususan, Gerododning (miloddan avvalgi 485-425-yillar) asarlarida Girkand (Kaspiy) dengizi, Araks (Amudaryo) haqida ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Qadimgi yunon geografi va tarixchisi Strabon (miloddan avvalgi 64/63-24/23-yillar), Aristotel, Flaviy Arrian (95-175-yillar), Ruf Kursiy (I asr), Klavdiy Ptolemey kabi olimlar asarlarida ham Oks, Araks (Amudaryo), Politimet (Zarafshon), Yaksart (Sirdaryo) daryolari, Komed (Pomir tog'i), Xoramiya (Xorazm), Maroqand (Samarqand) kabi geografik joy nomlari keltirilibgina qolmay, ushbu nomning kelib chiqish tarixi, uning qanday ma'no kasb etilishi ham bayon etilgan.

O'rta asrlarda Turkistonda buyuk olimlar ijod qilganlar, jumladan, toponimikani rivojlantirishga ham katta hissa qushgan. Shulardan, Abu Rayxon Beruniy, uning geografiya va toponimikaga oid "At-tavxim", "Hindiston tarixi", "Alosor al-boqiya an al-qurin al-holiya" (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik), "Qonuniy Mas'udiy" asarlari mavjud. Ushbu asarlarda toponimika qonuniyatlariga doir so'z yuritilgan bo'lib, masalan, yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib, o'z tillariga moslab, talaffuz qilganliklari oqibatida bir qancha so'zlarning ma'nosi o'zgarib ketganligi, (turkiycha tosh so'zini arablar shosh deb talaffuz qilganliklarini) aytib o'tgan. Beruniy o'zining "Saydana" asarida 400 dan ortiq qishloq, tog', daryo va shaharlar nomlarini "Qonuniy Ma'sudiy" kitobida esa 600 dan ortiq joy nomlarini tilga olgan. [Корпачев С., 2006: 320]

Tarixiy, geografik, va lingvistik asarlar orasida ilk toponimik manba sifatida atoqli lug'atshunos Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" qomusiy lug'ati muhim ahamiyatga ega. Asarda ayrim shahar, qishloq, tog', suv havzalari nomlari, o'simlik va hayvon nomlari, bir qancha urug'-qabila nomlari va ularning joylashishi, antroponimlar, tabiiy hodisalar hamda ko'pgina geografik terminlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Toponimikaning qadimiy noyob qo'lyozmalaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning "Vaqoe'" (Voqealar) keyinchalik "Boburnoma" nomida shuhrat qozongan asari tarixiy-geografik memuar asar hisoblanib, unda joy nomlari to'g'risida muhim ma'lumotlar o'rin

olgan. Andijonda boshlanib, Hindistonda yozib tugatilgan ushbu asar XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi Xuroson, Movaraunnahr, Hindistonda kechgan tarixiy voqealar aks etgan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tabiati, xalqlari tarixi, hududlarning geografik o'rni, iqlimi, o'simliklari, qazilma boyliklari, hayvonot olami haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bobur O'rta Osiyo bilan Hindiston tabiatini taqqoslaydi va ularni bir-biriga o'xshamasligini aytadi. Jumladan, Samarqand va Qobulni tabiatini taqqoslab "Qori Qobuldagidek tushmasa ham, qishi qattiq sovuqdir, Qobulcha bo'lmasa ham yozlarda yaxshi havosi bor" deb izohlaydi. Samarqandga quyidagicha geografik ta'rif beradi: Yer yuzining aholi yashaydigan qismida Samarqandcha latif shahar kamroqdir. Beshinchi iqlimdandir, uzunligi 99 ramzi nujumiy daraja (gradus), 56 daqiqa, eni 40 daraja (gradus) va daqiqadur. Shahri Samarqand, viloyatini Movarounnahr deydilar". Bobur shaharni hech bir dushman egallay olmaganligi sababli "Baldai mahfuza", ya'ni "Himoyadagi shahar" deb ham ta'riflagan. Asarda Samarqandni mo'g'ul va turk uluslari "Semirqand" deb atashlarini ham yozgan. "Boburnoma" asarida yana bir qancha nomlarga geografik va toponimik ta'rif beriladi. Samarqand nomining etimologiyasini ham yoritib o'tadi. Hududda joylashgan daryolar, tepaliklar nomlari bilan birga Konigil, Urgut va Amir Temur bog'lari ham tilga olinadi [32].

XIII asrda yashab ijod qilgan Yoqut Hamaviy "Mu'jam al-buldon" (Mamlakatlar lug'ati) nomli asarida geografiyaga oid barcha ma'lumotlarni jamlab, katta toponimik meros qoldirgan. Yoqut Havamiy O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Ishtixon, Zomin, Naxshab (Nasaf-Qarshi), Farg'ona, Huqand (Qo'qon), Shosh (Toshkent), Termiz va boshqa shaharlar haqida ko'pgina ma'lumotlar yozib qoldirgan.[Kopaev C., 2006: 320].

XVIII-XIX asrga kelib olimlar ilk bor obyektlarni o'rganish, tavsiflash, kartaga tushirish jarayonida obyekt bilan birga obyekt nomlarini ham tadqiq qilishgan. Ya'ni geografik nomlarni paydo bo'lishi, qaysi tilga tegishli ekanligini aniqlash, shakllanishi, nomning qanday ma'no anglatishi, ularni klassifikatsiyalash borasidagi toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.Gumbold (1915), A.Vamberi (1865), N.Nadejdin (1837), Vostokov A. X. (1812), P.Semyonov Tyan-Shanskiy (1915), L.Berg (1915), X. Gannet (1905), A. Govri (1925) kabi olimlar toponimika rivojiga katta hissa qo'shgan. Toponimika fanining nazariy va amaliy asoslari yuzasidan ilmiy xulosalar bildirgan.

Geografik joy nomlari tadqiqining keyingi yoritilishi sifatida shakllanishiga rus olimlarining ham hissalarini beqiyos. Xususan, toponimikaning nazariy masalalarini V.A.Nikonov (1960), A.V.Superanskaya (1967), V.N. Toporov (1962), N.V.Podolskaya (1970), A.I.Popova (1965), Y.A.Karpenko (1962), B.A.Serebrennikova (1959), A.K.Matveev (1972), E.M.Murzayev (1963), R.A.Ageeva (1990), E.M.Pospelov (1971), V.A.Juchkevich (1968), E.M.Chernyaxovskaya (1970), M.N.Morozova (1969) va boshqalarni tadqiqot ishlarida uchratish mumkin.

Geografik joy nomlarini o'rganishda geograf, toponimist olim E.Murzayevning qo'shgan hissalarini alohida ta'kidlash mumkin. Olim O'rta Osiyo toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi va mahalliy geografik

terminlar haqida talaygina asarlar, monografiyalar, lug‘at va ilmiy maqolalar yozgan. E.Murzayev (1963, 1970, 1973, 1974) ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida joy nomlarining nazariy masalalari bilan birga, geografik terminlarga alohida ahamiyat bergan.

O‘zbek olimlaridan ilk bor toponimika faniga hissa qo‘shgan olimlardan biri H.Hasanov hisoblanadi. Olim o‘z tadqiqot ishlarida toponimlarni kelib chiqishi, to‘g‘ri yozilishi va talaffuzi, ma‘nosi, qaysi tilga mansubligi, milliy va boshqa tillarga yozilish shakllari, toponimik terminlarga qarab tadqiq qilish usullariga katta ahamiyat bergan. H.Hasanovning joy nomlariga bag‘ishlangan “Geografik nomlar imlosi” (1962), “O‘rta Osiyolik geograf va sayyohlar” (1964), “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” (1965), “Yer tili” (1977), “Geografik nomlar siri” (1985) kabi asarlarida O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida muhim fikrlar, xulosalar bayon etgan.

Ko‘p yillik umrini toponimika faniga bag‘ishlagan, O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston toponimlarini batafsil tadqiq etgan o‘zbek olimlaridan yana biri S.Qorayevdir. Uning ilmiy faoliyatida mahalliy geografik terminlarni o‘rganish alohida o‘rin egallaydi. S.Qorayev (1970, 1978, 1980, 2001, 2005, 2006) joy nomlari tarkibida uchraydigan 120 dan ortiq geografik terminlarni batafsil izohlab bergan va “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari” (2005) asarida Samarqand viloyatining geografik joylashgan o‘rni, viloyat tarkibidagi tumanlar, aholining etnik tarkibi hamda tumanlar kesimida etnotoponimlar ulushi aniqlangan. Undan tashqari, Samarqand nomining tarixiy toponimiyasiga alohida to‘xtalib, shahar nomining etimologiyasi haqida, turli davrlardagi tarixiy manbalarda Samariana, Sanmangen, Sumron, Samaran, Sakanna, Simroyat, Sanmarkan kabi yuritilganligini bayon qilgan. Samarqand shahrini to‘rt qismga ajratib, guzarlar (ko‘chalar) ro‘yxatini tuzgan hamda viloyatning ko‘pgina oykonimlarini, gidronimlarini, oronimlarini etimologiyasini yoritgan. Shuningdek, ushbu asarida viloyatning qisqacha toponimik lug‘ati tuzilgan bo‘lib, unda 100 ga yaqin nomlarga izoh berilgan.

Samarqand shahri nomini kelib chiqishida olimlar tomonidan ko‘pgina ana shunday taxminlar keltirilgan. Yana bir tarixchi Ibn Xalmikon o‘zining “Tavorix” asarida shahar nomi “Samarqand” emas “Samargand” deb kiritgan, ya‘ni Samar nomli podshoh shaharni vayron, xarob – “gand” qilgan deb yozgan. Miloddan avvalgi 329-yili Aleksandr Makedonskiy bilan birga shaharga kelgan yunon tarixchilari shahar nomini o‘z tillariga moslab, “Marokanda” deyishgan. Bu nomni keyinchalik ko‘pgina yevropalik olimlarning asarlarida ham uchramiz. Ayrim olimlar Samarqand – Marokanda so‘zlarini sanskrit tilida “uchrashuv joyi, yo‘llar tutashadigan joy” degan ma‘nolarni anglatishini yozgan. Ko‘hna Samarqand shahriga berilgan bu ta‘rif haqiqatdan ham shahar tarixiy yo‘llarning chorrahasida, ya‘ni Buyuk Ipak Yo‘lining qoq markazida joylashganligini, Samarqandda qadimdan turli mamlakatlardan kelgan savdo karvonlari to‘xtab, bir-birlari bilan muloqot qilganliklarini va o‘zining tijorat borasidagi katta mavqega egaligidan “savdo bandargohi” nomini ham olgan. [Ширинов Т., 2014: 334]

Bulardan tashqari, talaygina tarixiy badiiy asarlarda ham Samarqand shahri bilan bog‘liq voqealar, rivoyatlar, afsonalar mavjud. Tarixchi olim K.Kattayev

(2017) o‘zining “Samarqandnoma” asarida shahar nomini kelib chiqishi haqida “Samar” so‘zining tub ma’nosini chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, shahar nomi biror bir shaxs nomi bilan emas, balki biror sifat bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin deb ta’kidlagan. “Samar” so‘zi qadimgi arab va fors tilida bir necha ma’noni anglatgan. Alifbo shakllangach, bu so‘zlarni bosh harfi orqali ajratishgan. Masalan: birinchidan, “Samar” - (uch nuqtali “so” harfi bilan yozilsa) meva va mevali daraxt ma’nosini anglatga, ikkinchidan “Samar” - (sin harfi bilan yozilsa) mashhur va tanilgan, degan ma’nolarda kelar ekan .[Бегалиев Н., Туропов А., 2015: 156]. “Samar” so‘zining arab tilidagi yana bir ma’nosi afsona, ya’ni kechki afsona demakdir. Ko‘rinib turibdiki, bu uch ma’noda ham mevazor shahar, mashhur shahar, afsonaviy shahar ta’riflaridan Samarqand shahrining sifatlarini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu nom ko‘pgina tarixiy asarlarda “Semizkent” shaklida uchraydi. Mashhur allomalar Abu Rayxon Beruniy va Mahmud Koshg‘ariylar “Samarqand” so‘zi “Semizkent”, ya’ni boy shahar degan ma’noni anglatadi, deb fikr bildirganlar. Shaharga tashrif buyurgan Xitoy sayyohi ham bu fikrni tasdiqlaydi va shaharga shunday ta’rif beradi. “Samarqand yerlari bepayon, semiz va unumdor bo‘lib, juda barokotli hosil beradi. Xalqi san’at va hunarmandchilikda dong taratgandir.

XIII asrda yashab ijod qilgan arman tarixchisi Sumbat ham o‘zining asarlarida “Samarqand” so‘zi boy, semiz degan ma’nolarni anglatadi, deb yozib qoldirgan. Samarqandga “boy, semiz shahar” deb nom berilishi bejiz emas. Sermahsul, bahavo Zarafshon vodiysida joylashgan ushbu shahardan hamisha mo‘l-ko‘lchilik, qut-baraka arimagani [Ширинов Т., 2014: 334].

Ayni vaqtda Samarqand shahriga kelgan turistlarga joy nomining kelib chiqish tarixini tushuntirish uchun uning topogenezisini to‘liq o‘rganib chiqish muhim hisoblanadi. Qariyb 3000 yillik tarixi bo‘lgan Samarqand shahri juda ko‘plab qiziqarli toponimik arxivlarga ega. Shuncha asrlarni guvohi bo‘lgan bu shaharni topogenezisini tarixiy manbalarga asoslanib qiziqarli, aniq qilib sayyohlarga yetkazish, tushuntirib berish maqsadga muvofiqdir. Geografik terminlar va joy nomlarini o‘rganish sohasida samarali mehnat qilayotgan geograf olimlardan yana biri P.G‘ulomovdir. Ilmiy ishlarida P.G‘ulomov joy nomlari va terminlarning to‘g‘ri yozilishi va talaffuzi hamda ularning tarjimasini, toponimik savodxonlik masalalariga katta e’tibor qaratgan. Olimning “Geografiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha atamalar tushunchalar lug‘ati” (1993), “Jug‘rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug‘ati” (1994), “Toponimika va geografik atamashunoslik” (2000) kabi ilmiy asarlari toponimika faniga bag‘ishlangan. Q. Hakimov (2010) Jizzax viloyati toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot olib borgan. Olimning tadqiqot ishi geografik joy nomlarining shakllanishida mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini ochib berishga yo‘naltirilgan hamda joy nomlarini o‘zbek va qoraqalpoq tillarida to‘g‘ri yozilishiga e’tibor qaratilgan, yangi geografik obyektlarni nomlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan, shu bilan birga, toponimlar turlariga oid karta-sxemalar ishlab chiqilgan. Jizzax viloyati oykonimlarida tasniflash ishlarini olib borgan va ularni ikki yirik guruhga ajratib o‘rgangan. Tabiiy geografik oykonimlar. Mazkur guruh oykonimlariga vujudga kelishida suv obyektlari nomlariga, joyning geomorfologik shakllariga va

o‘simlik – hayvon nomlariga hamda boshqa tabiiy geografik xususiyatlariga qarab nomlangan joy nomlarini kiritgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik oykonimlar. Ushbu guruh oykonimlariga aholi va uning xo‘jalik hamda ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan aholi manzilgohlarini kiritadi.[Накимов К.М., 2010: 25]

Bundan tashqari, olim oliy o‘quv yurti talabalari foydalanishlari uchun “Toponimika” (2016), toponimist geograf olim M.T.Mirakmalov bilan hammualliflikda ham “Toponimika” (2020) darsliklari nashr etildi. Ushbu darsliklarda toponimika fanining umumiy qonuniyatlari yoritilgan, toponimlarni klassifikatsiyalashga oid muammolar o‘rganilgan, amaliy toponimikada uchraydigan, joy nomlarining yozilish qoidalari, transkripsiyasi va ularni standartlashtirish masalalari o‘rganilgan. Fanning nazariy metodologik jihatlari bilan birga mintaqalar toponimiyasiga ham umumiy tavsif berilgan. Shu bilan birgalikda darslikda Respublikamizning viloyatlar toponimiyasi ham hududiy tahlil qilingan. Respublikamizda toponimika sohasiga o‘zining salmoqli hissalarini qo‘shib kelayotgan olimlarimizdan Y.I.Ahmadaliyev, A.Nizomov, M.Mirakmalovlar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar va olib borayotgan tadqiqot ishlari sohaning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Y.I.Ahmadaliyevning “Toponimika va geografik terminshunoslik”, “Farg‘ona viloyati toponimlari” (2009), “Farg‘ona vodiysi: shahar, qishloq va mahalla nomlari” kabi, A.Nizomov tomonidan “Toponimika” (2012) qo‘llanmasi, M.Mirakmalovning “Tabiiy geografik terminlarning shakllanishida xalq (mahalliy) atamalarining o‘rni” (1998) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida xalq geografik terminlar va ularning vujudga kelish jihatlari, ularni amalda qo‘llash usullari, geografik terminlarning turlari va ularni guruhlashtirish tamoyillariga e‘tibor qaratgan.

Olim toponimik terminlarni ifodalaydigan obyektlarga qarab guruhlashtirgan. 1. Geomorfologik topoterminlar. 2. Litologik topoterminlar. 3. Hidrologik topoterminlar. 4. Floristik va faunistik topoterminlar. 5. Oykonimik topoterminlar. 6. Etnonimik topoterminlar. 7. Turli topoterminlar. Bundan tashqari, olim “O‘zbekiston toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va geografik lingvistika” (2020) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi va “Xalq tabiiy geografik terminlari” (2009), “Toponimika va geografik terminshunoslik” (2005) singari ilmiy asarlari fikrimizni isbotlaydi. Toponimist olim M.Mirakmalov “O‘zbekiston toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va geografik lingvistika” (2020) mavzusidagi tadqiqot ishida O‘zbekiston hududidagi geografik joy nomlarini guruhlashtirgan hamda tabiiy geografik topoterminlar yordamida hosil bo‘lgan toponimlarni tarqalish qonuniyatlarini aniqlagan. O‘zbekiston hududida tarqalgan geografik joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlagan. Respublika viloyatlari toponimlarini o‘rganib, ularni tasniflagan hamda viloyatlarda tarqalgan oronimlarni, gironimlarni, fitotoponimlarni, zootoponimlarni, iqlimiy va qazilma boyliklarni nomlari bilan bog‘liq joy nomlarining ayrimlari etimologiyasini yoritilgan. Bulardan tashqari, geografik lingvistikaga ham to‘xtalib, uning nazariy asoslari, prinsiplari va tadqiqot usullari keng yoritilgan.

O‘zbekiston toponimlarining o‘rganilishida filolog va tarixchi olimlarimizni ham hissalari beqiyosdir. T.Nafasov (1968), N.Oxunov (1989), N.Uluqov (2008), Z.Do‘simov (1989), T.Enazarov (2004) va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida geografik joy nomlari tarixiy va lisoniy tahlil qilingan. Samarqand viloyati toponimlarini morfologik, leksik-semantik, lingvistik jihatdan o‘rgangan olimlarimiz B.O‘rinboyev (2003), T.Rahmatov (1973), N.Begaliyev (1994), A.Turopov (1999), S.Bo‘riyev (2010), Sh.Temirovlarni (2019) ta’kidlashimiz joiz. Xususan, B.O‘rinboyev o‘zining “Asrlardek barhayot nomlar” (2003) nomli asarida Samarqand viloyatida joylashgan qishloqlar nomlarini leksik-semantik, etimologik tahlil qilgan. N.Begaliyev “Samarqand viloyati gidronimlari” (1994) deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida hududda uchraydigan suv obyektlari nomlarini hosil qiladigan gidronimik atamalarni leksik jihatdan sistemalashtirgan, gidronimlarni morfologik va so‘z yasash jihatidan tahlil qilgan, leksik-semantik tasnifini ishlab chiqqan hamda tarixiy etimologik jihatdan tahlil qilgan. Bundan tashqari, A.Turopov bilan hammualliflikda “Samarqand toponimiyasi” (2015) nomli asar ham yozgan. Asarda viloyat toponimiyasining o‘rganilish tarixi bayon etilgan. Samarqand toponimining etimologiyasi keng yoritilgan, viloyatda uchraydigan talaygina geografik joy nomlarining etimologiyasi tahlil qilingan va lug‘at tuzilgan. Tarixchi olimlardan K. Kattayevning “Mahdumi A‘zam va Dahbed” (1994), “Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji” (2020), “Samarqandnoma” (2017) asarlarida ham Samarqand nomining kelib chiqishi va tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan, o‘lkada yetishib chiqqan allomalar va olimlar to‘g‘risida, ularning hayotiy va ijodiy faoliyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Samarqandda joylashgan tarixiy joy nomlari va ular to‘g‘risidagi hikoya, rivoyatlar, afsonalar ham berilgan. Tarix fanining fidoyi olimlaridan T.Shirinovning “Tariximiz etyudlari” (2014) nomli asari ham Samarqand shahriga bag‘ishlangan bo‘lib, u asarda ham Samarqand nomining kelib chiqishi, tarixi va ulug‘ allomalarning, sayyohlarning shaharga berilgan ta’riflari bayon etilgan.

Yana filolog olimlarimizdan Sh.Temirov “Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi” (2019) mavzusida tadqiqot olib borgan. Olim tadqiqot ishida oronimlarni o‘ziga xos onomastik xususiyatlarini aniqlagan, oronimik indikatorlarni adabiy, lahjaviy variantlariga xosligini, lug‘aviy-ma’noviy, funksional xususiyatlarini o‘rgangan. Oronimlarni paydo bo‘lishi va shakllanishidagi lisoniy va nolisoniy omillarini hamda oronimik nominatsiya tamoyillarini tadqiq qilgan hamda ularni lug‘aviy-ma’noviy va etimologik tahlil qilgan hamda morfemik tarkibi va yasashini yoritgan.[Темиров Ш., 2019: 45].

O‘rta asrning buyuk allomasi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham Zarafshon vodiysidagi gidronimlar haqidagi ma’lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda Samarqand viloyati hududidagi Ko‘hak (Zarafshon) daryosi, Darg‘om kanali haqida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, asarda Bobur ushbu gidroobyektlarni “Ko‘hak shimolidan oqadi, u Samarqanddan ikki kuro‘h keladi. Bu suv bilan Samarqand orasida bir tepalik bor, uni Ko‘hak (kichik tog‘) deydilar. Bu daryo Ko‘hakning tubidan oqqani uchun Ko‘hak suvi deydilar. Bu daryodan bir katta anhor chiqarganlar, balki kichik daryochaday

bordur, uni Darg‘am suvi deydi. U Samarqandning janubida oqadi” deb ta’riflaydi [Захриддин Муҳаммад Бобур Бобурнома. 2019: 436]. Ushbu nomlardan tashqari asarda Obirahmat, Qorasuv, Siyohob, singari gidronimlar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Yoqut al-Hamaviy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqalarning asarlari O‘rta Osiyo gidronimiyasi uchun muhim manba hisoblanadi.

Geograf olim Xamidullo Xasanovning ta’rificha Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Pokiston va Hindiston haqida Boburnomadan afzalroq asar topish amri maholdir, deb ta’rif beradi [Xalilov J., 2001]. Boburnomada Farg‘ona vodiysi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasiga doir o‘z davrining mukammal geografiyasi tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabr “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabr “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 984-son 2020-yil 29-yanvar “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlari

3. Бегалиев Н., Туропов А. Самарқанд топонимияси.–Самарқанд, 2015. - 156 б.

4. Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Ўзбекистон, 2019.- 436 б.

5. Каттаев К. Самарқанднома. – Т.: Машхур – пресс, 2017. -304 б.

6. Мусаев К.М. Лексикология тюркских языков. – М.: Наука, 1984.

7. Никонов В. А. Введение в топонимику. – М.: ЛКИ, 2011. 184 с.

8. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. ф.ф.ф.д. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс.автореф. Самарқанд, 2019. - 45 б.

9. Ширинов Т. Тарихимиз этюдлари. - Т.: “Шарқ”, 2014. 334 б.

10. Қораев С. Топонимика. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. –320 б.

11. Ҳакимов Қ.М. Жой номларининг шаклланишида минтақанинг ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятлари (Жиззах вилояти мисолида). Г.ф.н. ... дисс. автореферат. – Т.: 2010. – 25 б.

12. Халилов Ж. Аждодлар меъросини ўрганайлик. -Андижон, 2001.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOBUR ILMIY VA MA'NAVIY MEROSINING O'RNI

Annotasiya. Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Z.M.Bobur ilmiy va ma'naviy merosining o'rni yoritilgan bo'lib, vatanparvarlik go'yasini "Boburnoma" dagi talqini keltirilgan.

Kalit so'zlar. vatanparvarlik, vatan tuyg'usi, komil inson, insonparvarlik, erkka intilish, ozodlik

Abstract. The article highlights the role of Z.M. Babur's scientific and spiritual heritage in educating young people in the spirit of patriotism, and the interpretation of the idea of patriotism in "Boburnoma" is presented.

Key words. patriotism, sense of country, perfect person, humanitarianism, striving for manhood, freedom

Vatanparvarlik - kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat organlari, jamoa tashkilotlari va birlashmalarining yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashidagi maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Bundan asosiy maqsad-yoshlar ongida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarni va konstitutsion burchlariga nisbatan sadoqat hissini shakllantirishdir. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy-estetik jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishlarining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdan iborat [Ibrohimov A., 1996: 443].

Vatanparvarlik yetuk ma'naviyatdir. Jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ma'naviyatining o'rni va ahamiyati juda ulkandir. Jamiyatda yashovchi har bir inson o'z e'tiqodi, maqsadi va manfaatlari bilan Vatanga hizmat qilishi uning buyuk kelajagi uchun intilishi lozim. Shunday taraqqiyotning muhim omillaridan biri bu insonlardagi Vatanparvarlik tuyg'usidir.

Vatanparvarlik go'yasi asarlarida alohida tarannum etilgan mutafakkirlarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Uning "Boburnoma" asarida haqiqiy vatanparvarlik faqat yetuk insongagina xos bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Zahiriddin Muhammad Boburning o'zga yurtida vatan

tuygʻusini chuqur his qilgani uning asarlarida ifodalangan. Erkka intilish, ozod yashashga boʻlgan ehtiyoj insonga xos boʻlgan tuygʻudir. Inson oʻz vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu gʻoyalarni ifoda etuvchi taʼlimotlarning bosh mavzusi boʻlib kelgan. “Boburnoma” ulugʻ oʻzbek shoiri, jamoat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ham ayrim maʼlumotlar keltiriladi. Garchi shoir Hindistondan buyuk mamlakatning podshosi boʻlsa-da, oʻz vataniga sadoqati va eʼtiqodini koʻrsadi. U Andijonni bir umr sogʻinib yashadi. Oʻzining taqdiridan aziyat chekdi. Oʻzga yurtida podshoh boʻlgandan koʻra, ona yurtida gado boʻlib yashashni afzal koʻrdi. Biroq achchiq taqdirning bu oʻyinidan hech qachon voz kecha olmadi. U bir ruboiysida shunday deb yozgan edi:

Toleʼ yoʻqi jonimgʻa baloligʻ boʻldi

Har ishniki ayladim xatoligʻ boʻldi.

Oʻz yerni qoʻyib Hind sori yuzlandim,

oh Yo rab, ne yuz qaroligʻ boʻldi.

Ana shu tuygʻu, ana shu dil oʻrtar vatan sogʻinchi “Hidi tilimi va mazasidan” hikoyasi[Z.M. Bobur., 2018: 704]da badiiy ifodalangan: Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni boʻibti. Hindiston bogʻ-rogʻi koʻp, meva chevaga boy yurt ekan. Bobur “mendan yodgorlik qolsin” deb Hindistonning koʻrkam joyiga bir bogʻ barpo ettiribti. Dunyodagi eng katta bu bogʻga turli yurtlardan nihollar keltirib ektiribti. Xalq dunyoga dongʻi ketgan bu bogʻga “Bogʻi Boburiy” deb nom qoʻydi. Bogʻdagi daraxtlar hosilga kirib, biram meva beribti, ularni hech yerga sigʻdirib boʻlmabti. “Bogʻi Boburiy”ning chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring, tarvuz bitibdi. Ammo handalak bilan qovun boʻlmabdi. Shoh bir yili qovun ektiribdi, bitmabdi, ikkinchi yil ektiribdi, bitmabdi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi. Qovun bitishga bitibti-yu birinchi yili gulidayoq hosilini tashlab yuboribdi, ikkinchi yil palagi “oʻlib qolibdi”, uchinchi yil pishib yetmay turib soʻlib qolibdi. Boburshoh boʻlsa qovun topishini talab qilaveribdi.

-Bu yil qovun ekib pishirmasanglar, hammangizni jazolayman,-deya gʻazablanibdi.

Bogʻbon nima qilishni bilmay rosayam boshlari qolibti. Oxiri Boburshohga bildirmay, uzoq Fargʻonadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha oyga ovga ketib, qaytib kelgach, bogʻbondan qovun yoʻqlatibdi. Bogʻbonlar Fargʻonadan keltirilgan qovunni olib borishibdi. Boburshoh qovunni hidlab koʻrib: -Qayerda bitgan?-deb soʻrabdi.

-Bogʻi Boburiy”da bitgan,-deb javob beribdi bogʻbon.

-Yoʻq, hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi, faqat bir oʻlkada yetishibdi, xolos. Sen meni aldayapsan-debdi Boburshoh.

-Aldagan boʻlsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun “Bogʻi Boburiy”da bitgan,-debdi bogʻbon soʻzidan qaytmay.

Boburshoh qovunni hidlay-hidlay boʻyiga mast boʻlib, uni tilimlamoqchi boʻlibdi. Qovun pichoq tegartegmasdan tarsillab yorilib ketibdi. Boburshoh bogʻbonga qarab:

-Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq aytasan. Pichoq tegartegmay yorilib ketadigan qovun faqat men bilgan o'lkadagina bitadi. Sen mening savolimga to'g'ri javob bermading, qahrim qattiqligidan qo'rqmaysanmi,- debdi.

Boburshohni aldab bo'lmasligini bilgan bog'bon rostini aytishga majbur bo'libdi. -Farg'ona viloyatidan keltirdik,-debdi ko'ziga jiqqa yosh olib. Bog'bonning gapidan Boburshohning ko'ngli buzilib, yig'lab yuborishga ozgina qolibdi. Ulug' shoir, buyuk sarkarda va jamoat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ona yurtga sog'inchi, garchi podshoh bo'lsa-da, o'z vataniga hatto gado sifatida qaytish uning buyuk orzusi bo'ldi. Biroq bu orzu armonga aylandi.

Mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotini yosh avlod hayotisiz, ularni har tamonlama barkamol shakllangan shaxs sifatida tarbiyalamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Albatta, ularni komil inson sifatida ulg'ayishi bugundanoq boshlashimiz lozim.

Binobarin, muhtaram birinchi prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'- e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib, xayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak". [Karimov I.A., 2008: 173]

Shunday ekan yoshlarni o'zbek degan millatining buyuk xalq farzandi ekanligini erta yoshlikdan anglashimiz, uning ong va shuuriga sindirilmog'i lozim. Ana shundagina u, yoshlikdan buyuk xalqimiz urf-odatlarini marosimlari, an'ana va qadriyatlarimizga chuqur ehtirom va e'tiqod ruhida shakllanadi, ulug' ajdodlarimiz, ulug' bobolarimiz g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Ana shunday g'oya, qarash ruhida tarbiyalash esa pedagoglar oldida juda cheksiz ma'suliyat va pedagogik tajriba hamda izlanishni talab etadi. Bu maqsadni amalga oshirish ajdodlarimiz ilmi, kurash va jasorati hayoti bilan yoshlarni tanishtirish, vatanni sevish, ona-yurtni ardoqlash unga munosib avlod, yetuk farzand bo'lib, yashash-uzluksiz ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishga intilish davlatimiz siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Bu ishlarning asl mazmun-mohiyati kunday ravshan. Har bir g'oya va mafkura asosida Vatan yotadi. Chunonchi, Hadisi sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta'kidlanadi.

Vatan har bir o'zligini anglagan, avlod va ajdodlarini qadrlagan kishining eng muqaddas joyidir. Inson o'zining ma'naviy kamolotini yuksaltirish uchun yuksak mas'uliyatni his etishi, o'z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashi asosida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi.

Vatanparvarlik kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan muhabbatini, munosabatini ifoda etadigan ma'naviy axloqiy fazilatdir.

Vatanparvarlik tuyg'usi xalqning o'z tarixini chuqur bilishi va undan g'ururlanishida, buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'idek asrab, kelgusi avlodlarga yetkazishda, ajdodlar urf-odat, rasmlari va udumlarni, meroslarni o'rganib, uning qadriyatiga aylangan

qismini davom ettirishda, ayniqsa, davlatimiz kelajagi, istiqlolining barqarorligi, kelajagining buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko'maklashish kabi yuzlab fazilatlarda o'z aksini topadi. Zero, barcha zamonlarda har qanday millatning taqdiri uning kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasi bilan belgilanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z hayoti va ijodi bilan mamlakat ijtimoiy taraqqiyotida munosib o'rin egalladi. Uning hayoti va ijodini o'rganish, Vatan ravnaqi uchun kurashish, yurtni qalb qo'ri bilan sevishtulg'ayib kelayotgan yosh avlod uchun hayot mayog'i bo'lib, xizmat qilishi shart va lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 173 b.
2. Ibrohimov A., Sulstonov H. Vatan tuyg'usi.– T.: O'zbekiston,1996. – 443 b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018. – 704 bet.

MUNDARIJA

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRI ADABIYOTI

Almaz Ülvi (Binnatova) - Klassik türk ədəbiyyatının qızıl səhifəsi – Zəhirəddin Məhəmməd Babur.....	3
Rahmonov Vahob. Boburning “taqti” risolasi topildi.....	4
Boltaboyev Hamidulla. Boburshoh va boburiylar davrini aks ettirgan turk adiblarining tazkiralari	8
Jabborov Nurboy. Bobur she’riyatida milliy ruh va badiiy talqin uyg’unligi.....	13
Yashar Qosim. Shohona tuygularning poeziyasi (Shoh Zahiraddin Muhammad Bobur va Shoh İsmoyil Xotoyi lirikasi misolida).....	20
Axmedova Shoir. Gulbadanbegim va Rumer Goden.....	26
Qobilov Usmon. Bobur mumtoz she’riyatida ilohiy, adabiy va tarixiy siymolar obrazlari talqiniga doir.....	29
Fayzulloyev Baxtiyor. Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotshunoslik faoliyatiga doir qisqacha chizgilar.....	33
Jo’raev Jaloliddin. Sharqshunoslik instituti fondlaridagi Bobur ijodiga oid manbalar.....	39
Abdullayeva Marg’uba. Bobur she’riyatidagi o’ziga xosliklar.....	45
Muhitdinova Badia, Qurbonova N. Adabiy ta’limda Bobur hayoti va ijodini o’rganish masalalari.....	50
Muhitdinova Nazmiya. Bobur va Qo’qon adabiy muhiti.....	56
Tohirov Sobirjon. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” va Boburning “Muxtasar” asarlarida ayrim aruziy istilohlarning izohi xususida.....	59
Xoliqulova Gulsanam. Bobur adabiy muhitining xususiyatlaridan biri haqida	65
Mirzoahmedov Muxtor. “Mubayyan” - fiqhiy asar.....	73
Muhammadiyev Ahadjon, Nigora Islomova. Bobur – tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o’z hissasini qo’shgan olim	77
Sharaxmetova Muxlisa. “Boburnoma”ning urducha tarjimasida muallif uslubining aks etishi	80
Алиева Фарида. Бабурдун адабий мурастары окумуштуу Ж.Шериевдин изилдөөлөрүндө.....	85
Shamsiyeva Xolida, Hazratqulova Elmira. The international electronic platform: baburology	90
Hazratqulova Elmira. Husayn Boyqaro adabiy majlisining a’zolari haqida.....	94
Qorayev Sherxon. Bobur ismli ikki temuriy hukmdor huzurida o’tkazilgan adabiy kechalar.....	106
Toshniyozova Dilfuza. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida lirik qahramon ruhiy holati va kechinmalarining fasllar bilan bog’liq ifodasi	113
Razzoqov Alisher. Bobur masnaviylarida irfoniy ruh.....	117
Muminova Dilorom. Bobur ijodiga izdoshlik.....	121

Kazakbayeva Dilrabo. Zahiriddin Muhammad Bobur masnaviylarining vazn xususiyatlari.....	124
Qurbonov Abdulhamid. Bobur g'azaliyotida radd ul-matla' san'ati.....	130
Adilova Dilorom. Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati, insoniy sifatleri.....	136
Rasulov Dilshod. Chet ellarda saqlanayotgan Bobur qo'lyozmalari borasida.....	140
Temirova Gulmira. Захириддин Мухаммед Бабур жана анын лирикалары.....	144
Hakimjonova Ra'no. Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida ijtimoiy motivlar	147
Jurayeva Dilafroz. Zahiriddin Muhammad Bobur badiiy-falsafiy qarashlarining manbalari, tadriji va yetakchi tamoyillari.....	151
Suyunova Shohsanam. Temuriylar saroyi shoiri Kamoliddin Binoiyning o'zbekcha she'rlari va Bobur Mirzo bilan mushoirasi.....	156
Hikmatov Hikmat. Bobur lirikasining tojik tilidagi o'rni va ahamiyati.....	162
Musayev Shohsuvor. Bobur ruboiylarida hasbi hol talqini.....	164

“BOBURNOMA”NING JAHONIY O‘RNI VA SHUHRATI

Mashrabov Zokirjon. “Boburnoma” nashrlari.....	170
Mirzo Kenjabek. Sharq manba'larida Bobur Mirzo asarlarining nomlanishiga doir ilmiy-tarixiy ma'lumotlar	175
Münevver Tekcan. Samarkand in the Babur-nama: the Khanate's crowning jewel	183
Otajonov Ne'matilla. “Boburnoma” tarjimalarida ilmiy-adabiy aniqlikni yaratish muammolari	190
Sulaymonov Isroil. “Boburnoma”da shaxs ruhiyatini tasvirlashda muallif mahorati.....	196
Berdiyev Xusan. “Boburnoma”da nomi zikr etilgan shoirlar	202
Ne'matova Hulkar. “Boburnoma”da safar taassurotlari talqini	204
Xasanova Mashxura. “Boburnoma”da Ulug'bek Mirzo tasviri	208
Saidova Rayhon. “Vaqoye”da shoirlarga Bobur mirzo bahosi	211
Omonova Orasta. “Boburnoma”ning xorijda o'rganilish tarixi va tarjimalari....	216
Hamidov Nurali. “Boburnoma”dagi she'rlarda falsafiy-axloqiy mavzular ifodasi	219
Olimjonov Davronbek. Annett Beverij va “Boburnoma”	224
G'ofurova Gulhayo. Jahon adabiyotiga “Boburnoma”ning integrasiyasi	227
Saydazzamova Chamangul. Boburning “Risolayi aruz”ida janrlar tadqiqi	234

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: TIL, USLUB VA TARJIMA

Teshaboyeva Ziyodaxon. “Boburnoma”da Zuhrabegim haqidagi tasvirlarda frzeologik birliklar va ularning inglizcha tarjimalari.....	238
Yusupova Orzibonu. Bobur g'azallarida undalmaning lingvopoetik vosita	

sifatida qo‘llanilishi	241
Ishanjanova Munosibxon. “Boburnoma” asari fransuzcha tarjimasida etnografik birliklarning leksik-grammatik nomutanosibligi	246
Алтмишева Ё.М. Анализ перевода медицинских терминов «Бабурнаме» на русский язык	249
Sharipov Azizjon. Mirzo Bobur nomi bilan bog‘liq ayrim toponimik ma’lumotlar.....	253
Rasulova Istoda. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida interferensiya hodisasi.....	263
Zayniyeva Yulduz. “Boburnoma” asarida muddatul-umr va muddati madid Izofiy birikmalarining inglizcha tadqiqi	266
Ercan Alkaya, Gökçe Baysak. Tarihî türk lehçelerinde ve karluk grubu türk lehçelerinde /b/ sesi.....	269

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA ZAMONAVIY ADABIYOT

Hasanov Shavkat, Dilbar Ro‘ziqulova. Hozirgi she’riyatda Bobur obrazi talqinlari.....	279
Nosirov Azmiddin. Boburshoh iztiroblarining badiiy talqini...ю.....	285
Davronova Mahfuza. Pirimqul Qodirov romanlarida temuriy malikalar talqini...290	
Karimova Yulduz. “Ruhum yaratib eding latofat birla...”	294
Xurramov Olmos. Pirimqul Qodirov ijodida Bobur siymosi.....	300
Ergasheva Rayhon. Zamonaviy she’riyatimizda Bobur timsoli.....	307
Quljanova To‘lg‘anoy. Asqar Mahkam ijodida Mirzo Bobur siymosi talqini.....	311
Adilova Fanuza. Xayriddin Sulton qissalarida Bobur siymosi (“Saodat sohili” qissasi asosida).....	318
Usmanova Ziyodaxon. Xurshid Davron she’rlarida Bobur tasviri.....	321

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TARIX, ETNOGRAFIYA, DAVLATCHILIK VA HUQUQ MASALALARIGA DOIR QARASHLARI

Mirzaev Avazbek. Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylarning iqtisidiy-ijtimoiy masalalarga doir qarashlari.....	328
Tadjixon Sabitova. Boburiylar sulolasidan Jaloliddin Akbarning davlat siyosati va madaniyati	331
Yuldashev Botir. “Jahongirnoma” asarida Boburiylar davlatidagi madaniy hayotning yoritilishi	337
Xidirov Xoshim. Zahiriddin Muhammad Bobur: hukmdorlikning mashaqqatli yo‘li va zahmati	341
Tojiyev Dostonjon, Toshqulova Shahnoza. Bobur mirzo haqida “Turkiston Rossiya va Xitoy oralig’ida” kitobi muhim manba sifatida	346

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRI MADANIYATI, SAN'ATI VA MUSIQASI

Мадраимов Абдумажид, Мадраимов Аскарый. “Бобурнома” асарида Самарқанд шаҳри тавсифи ва уларнинг мўъжаз нафис расмлардаги талқини.....	352
Абдуллаева Нилуфар. Роль Бабуридов в формировании культурного, интеллектуального и морального наследия.....	359
Usmonova Gulnoza. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosi va harbiy san'atining bugungi kundagi ahamiyati.....	364
Abduraxmonov Dostonbek. Bobur va uning Sharq tamaddunidagi hamda hind arxitekturasiga qo'shgan o'rni.....	368

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA GEOGRAFIYA, EKOLOGIYA, TA'LIM VA TARBIYA

Axmadaliev Yusupjon. Buyuk geografik kashfiyotlarda Zahiriddin Muhammad Boburning hissasi.....	372
Abbasov S.B., Meliyev B.A. Zahiriddin Muhammad Boburning geografik merosi	376
Xakimov Koshkar. Bobur nomi va u bilan bog'liq geografik obyektlar haqida...	379
Valiyeva Sh., Usmanov M. Geografik joy nomlarini tadqiq qilish tarixi va Boburning geografik qarashlari.....	391
Axmadjonova Yorqinoy. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Bobur ilmiy va ma'naviy merosining o'rni	393

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY MEROSINING JAHON
ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI
(Samarqand, 15.05.2024-y.)**

**Muharrir
Musahhah
Texnik muharrir
Dizayner**

**N. Choriyev
O. Sharapova
O. Mirziyev
B. Egamberdiyev**

ISBN 978-9910-9779-6-1